

**Darslik**



17  
17  
M-94

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI  
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI  
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

L. A. Muhammadjonova

JAMIYAT, AXLOQ VA QADRIYATLAR FALSAFASI  
DARSLIK



Toshkent  
"Universitet"  
2023

UDK 744:621(076)

BBK 30.21ya7 B 79

### **Jamiyat, axloq va qadriyatlar falsafasi. Darslik**

Qadriyatlar jamiyat rivojining negizi, millatning tarixiy taraqqiyotida erishilgan muvafaqqiyatlarini avloddan-avlodga o'tkazuvchi qudratli omildir. Tarixiy taraqqiyot bosqichlariga nazar tashlar ekanmiz, xar bir jamiyat, davlat o'zining milliy qadriyatlarini rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib taraqqiy etmagan. "Jamiyat, axloq va qadriyatlar falsafasi" darsligi falsafa ilmini o'zlashtiruvchi bo'lajak mutaxassislarni axloqiy jihatdan tarbiyalash, milliy axloqiy qadriyatlarimizda, inson va uni e'zozlash, qadr-qimmatini o'z o'rniqa qo'yish, yaxshilik qilish, ezzulik, mehrbonlik, jasurlik kabi umuminsoniy axloqiy qadriyatlarga oid masalalarni ilmiy va amaliy jihatdan yoritishga qaratilgan.

**Taqrizchilar: falsafa fanlari doktori, professor M.Qaxxorova**

**falsafa fanlari bo'yicha**

**falsafa doktori, PhD**

**A.Tulyayev**

*Darslik Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti ilmiy-ushubiy kengashi qarori bilan (2022 yil 24.06.Nº. 8 bayonnomasi) nashrnga tavsiya etildi.*

## KIRISH

Bugungi kundagi ijtimoiy jarayonlar ta'sirida kishilarning qadriyatlar to'g'risidagi tasavvuri, qarashlari o'zgaradi, bu esa taraqqiyot jarayonida odamlarning turmush sharoitlari, hayoti va ma'nnaviy qiyofasidagi o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Bugungi modernizatsiya jarayonlarida milliy axloqiy qadriyatlarimiz o'zligimizni saqlab qolishimiz uchun nihoyatda ahamiyatlidir va u albatta ma'nnaviy me'rosimiz bilan bog'liqdir.

Mazkur darslikda "Jamiyat, axloq va qadriyatlar falsafasi" fani orqali falsafa ilmini o'zlashtiruvchi bo'lajak mutaxassislarga jamiyat, axloq va qadriyatlar falsafasining va uning o'ziga xos xususiyatlari, tamoyillari, mezonlari haqida tasavvur hosil qilish, axloqiy qadriyatlarning fuqarolik jamiyatini va davlat hayotida tutgan ahamiyatini ilmiy-nazariy jihatdan oid masalalar ilmiy va amaliy jihatdan yoritib berilganligiga guvoh bo'lish mumkin..

Mazkur fan doirasida magistrantlar jamiyat va insonlararo munosabatlarda axloqiy qadriyatlarning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil etadir.

Darslikda umuminsoniy va axloqiy qadriyatlar orqali zamonaviy komil insonni shakllantirish, qadriyatlarning jamiyat taraqqiyotidagi boshqaruvchilik xususiyatlariga doir o'ziga xos fikrlar bayon etilgan.

Jamiyat, axloq va qadriyatlar falsafasini ilmiy jihatdan o'rghanishga qaratilgan mazkur dasrlikda umuminsoniy va axloqiy qadriyatlar orqali inson ma'nnaviyati, uning axloqi va muomala madaniyatidagi ayrim masalalarni oydinlashtiradi hamda inson tarbiyasidagi yuksak axloqiy sifatlarni qaror toptirishga xizmat qiladi, degan umiddamiz.

## AXLOQIY QADRIYATLARNING UMUMMILLIY ASOSLARINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI.

Reja:

1. Axloqiy qadriyatlarning umummilliy asoslarining shakllanish bosqichlari.
2. Axloqiy qadriyatlarning bugungi yangilanish bosqichlarida ma'naviy axloqiy muammolari.
3. Axloqiy qadriyatlarning umummilliy asoslarining xozirgi zamon sivilizatsiyasida shaxs axloqiy tarbiyasiga ta'siri.

Ma'lumki, barcha davrlarda jamiyatdagi o'rnatilgan tartib-qoidalar, qonuniy asoslar, diniy-axloqiy normalar, muayyan kuchlar, hukmon tabaqalar manfaatidan kelib chiqib, o'zgartirilgan. Ana shu o'zgarishlar keyinchalik o'sha jamiyat uchun amal qilinishi shart bo'lgan qonuniyatga, va axloqiy me'yolarga aylangan. Darhaqiqat, milliy axloqiy qadriyatlarimizda, inson va uni e'zozlash, qadr-qimmatini o'z o'rniqa qo'yish, yaxshilik qilish, ezzulik, mehribonlik, jasurlik kabi umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni katta o'rinni tutadi.

Qadriyatlar jamiyat rivojining negizi, millatning tarixiy taraqqiyotida erishilgan muvafacqiyatlarini avloddan-avlodga o'tkazuvchi qudratli omildir. Tarixiy taraqqiyot bosqichlariga nazar tashlar ekanmiz, har bir jamiyat, davlat o'zining milliy qadriyatlarini rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib taraqqiy etmagan. Shu bois, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonunida qayd qilinganidek, «Ta'limda umuminsoniy va milliy madaniy qadriyatlarning ustuvorligi» ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Xo'sh qadriyatning o'zi nima? Uni qanday tushunmoq kerak? Qadriyatlar deganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar tushuniladi. qadriyatlarning mohiyatini pedagogik nuqtai nazardan izohlaganimizda, insonlarning tarixiy tajriba an'analarini kelgusi avlodlarga to'la - to'kis o'rgatish, ta'lim tarbiya berish tushuniladi. Shuning uchun milliy ma'naviy qadriyatlarni e'zozlab, ardoqlab sevib bajarish va ularni o'z holiga keltirmoq dolzarb masaladir.

Har bir olingan shaxs va jamiyat qadriyatlari tizimida axloq muhim o'rinni tutadi. Ijtimoiy falsafada *axloq ijtimoiy ongning shunday shakli* sifatida tushuniladi, unda ayrim olingan kishilar, ijtimoiy guruuhlar va umuman jamiyatning axloqiy tasavvurlari, odamlar xatti-harakatining me'yorlari va baholanishi o'z ifodasini topadi. Axloq mohiyatini tushunishda ushbu tushunchaga ma'nova jihatdan yaqin bo'lgan, ammo ba'zi belgilari bilan farqlanadigan – «odob» va «etika» tushunchalarining nisbatini aniqlash juda muhimdir. Agar *axloq* tushunchasi ostida ko'pincha ijtimoiy ong shakli (ya'ni anglangan me'yorlar va qoidalar) anglashilsa, *odob* xushxulqlik me'yorlar va qoidalar amal qilishining jonli sohasini o'zida mujassam ettiradi. Boshqacha so'z bilan aytganda, odob doirasi kishilar orasidagi o'zaro munosabatda ularning voqeysini hayotdagisi aloqalarini tashkil etadi. Etika deb

shunday falsaffiy sohani aytishadiki, u inson faoliyatining, odobi va axloqiy me'yorlarini o'rganadi. Asrlar davomida axloqiy me'yorlar axloqiy qadriyatlarni anglatib kelgan.

«Axloq eng qadimgi ijtimoiy hodisalardan biridir. Uzoq vaqtlar davomida u jamiyatda yagona tartibga solib turuvchilik vazifasini bajarib keldi.

Axloq qaysi vaqtida shakllanganligi haqida turli tuman nuqtai nazarlar mavjud. Nima bo'lganda ham, u ibtidoiy jamiyatdayoq paydo bo'lgan. Axloq shu vaqtida paydo bo'ldiki, unda inson nima bor-u, nima bo'lishi kerakligini farqiga borgan edi. Eng qadimgi zamонlардан boshlab barcha falsafiy ta'limotlar ko'proq yoki ozroq darajada tartibga keltirilgan axloqiy qarashlar tizimini albatta o'zida mujassamlashtirgan edi.

Axloq va odob haqidagi ta'limot *Sharq falsafasining ko'pchilik mакtab* va yo'naliшlарida muhim o'rин tutadi. Masalan, Zardushtiylik o'zida shunday axloqiy talablarni mujassamlashtirganki ular keyinchalik axloqiy qadriyatlarga aylangan. Unga binoan kishilar bir-birlari bilan tinchlik va osoyishitalikda ahllik bilan yashashlari, o'z yaqinlariga xayrixohlik kursatishlari, zaruriyat va xavfli vaziyatlarda bir-birlariga yordam berishlari, yomonlik, shafqatsizlik, mag'rurlik, zo'ravonlik, o'zboshimchalik, hasad va tuhmatga qarshi kurash olib borishlari, g'azab va hokazolarga berilmasliklari lozim bo'lgan.

Axloq masalalariga xitoy va hind falsafasida ham katta e'tibor qaratilgan. Masalan, konfutsiychilikda axloqiy qoidalar, me'yorlar va boshqarishni tartibga solib turishga asosiy e'tibor qaratilgan. Qat'iy axloqiy talab manbalari quyidagi so'zlarda o'z ifodasini topgan: «har bir kishini o'zingni hurmat qilgandek, hurmat qil, o'zingga nimani ravo ko'rishni xohlasang, boshqalarga ham shuni ravo ko'rki, ular ham bizga shunday munosabatda bo'lsinlar, bundan yuksakroq hech narsa yo'q» (Konfutsiy).

Vedalar falsafasi nuqtai nazaricha, eng muhim narsa – bu egzu ishlari, to'g'ri xulq-atvor, kamtarona hayot tarzidir. Faqat shundagina yuksak axloqli kishi o'zining karmasini o'zgartirishi mumkin. Buddaviylik insонning bosh maqsadini azob-uquqatdan qutilish deb e'lon qildi, bunga esa, shundagina erishish mumkinki, agar to'g'ri xatti-harakatni, to'g'ri gapirishni, to'g'ri hayot kechirishni va hokazolarni o'z ichiga olgan «to'g'ri yo'l»dan og'ishmay boriladi. Aksiologiya rivojiga Suqrot, Aflatun, Arastu, Epikur, Mark Avreliy, Seneka va boshqa qadimgi dunyo mutasakkirlari axloq falsafasi rivojiga muhim hissa qo'shdilar. Suqrot fikricha, axloq asosini u yoki bu axloqiy ko'rsatmalarga tashqi tomonidan rioya etish emas, balki ularning zarurligini tushunish tashkil etadi. Chuqr bilimlarga ega bo'lish va o'z-o'zini bilish insonga xushxulq bo'lish imkoniyatini beradi. Ana shu yerdan Suqrot shiorining manbasi kelib chiqadi: «O'z-o'zingni bil».

Aflatun va Arastu axloq falsafasining muhim tarkibiy qismi bo'lgan baxtsaodat va ezungilik haqidagi ta'lomitni ishlab chiqdilar. Aflatun falsafasiga ezungilik kishilik dunyosida o'z xususiyatini ezungilik tushunchasiga nisbatan oliyroq bo'lgan, g'oyalalar dunyosidan orzudagi mohiyatlar ihmoming cho'qqisida turgan baxt-saodat g'oyasidan cho'michlab oladi. Arastu esa ezungulikni insonning o'z ruhiga xos bulgan xususiyat sifatida qarab chiqadi. Ezungulkarni tabaqlashtirishda Aflatun eng yuksak o'rinni adolatga ajratadi: «Adolat – bu ulug' ruhlarning ezungligidir», «jasorat va kamtarinlikdan uchinchi ezungilik bo'lgan adolat kelib chiqishi mumkin».

Axloq falsafasi tarixida muhim o'rinni *Musulmon sharqi* mutafakkirlarining g'oyalari tashkil qiladi. Forobiy uchun axloq – bu insonning jamiyat a'zosi sifatidagi axloqiy xatti-harakatlari to'g'risidagi bilimdir. Axloq, odoblik jamiyatni takomillashtirish va baxt-saodatga erishish, ravnaq va umumiy ezungulikka erishish garovidir. Beruniy adolatni bosh ezungilik hisoblab, qayd etgan ediki, «tenglik joriy etilgan joyda ochko'z hissiyotlar va g'am-alam barham topadi»<sup>1</sup>. Sharqning axloqiy-falsafiy ta'lomitida muhim o'rinni Yusuf Xos Xojibning «Qutadg'u bilig» asari egallaydidi. U turkiy tilda o'rta asrlarda yaratilgan eng yirik dunyoviy adabiyot yodgorliklaridan biridir. U axloqiy-tarbiyaviy, ya'ni axloqiy nasihatlar xususiyatiga ega aksiologiya Kitobning o'zini nomini «Baxt-saodatga eltuvchi bilim» deb tarjima qilish mumkin. Asosiy diqqat-e'tiborni Yusuf inson ma'naviy kamolotiga qaratadi. U qayd etgan edi: «Kimning xatti-harakati yaxshi va fe'lru-xuyi to'g'ri bo'lsa, u o'z maqsadiga erishadi va unga baxt-saodat kulib boqadi»<sup>2</sup>.

Axloqiy qadriyatlar avvalambor axloqiy me'yorlar bilan uyg'undir, ular doim bir –birini to'ldirib kelgan va ularning pirovard maqsadi avvalambor barkamol insonni tarbiyalash bo'lib kelgan. Bu borada falsafiy tafakkur tarixida rang-barang qarashlar, g'oyalalar, nazariyalar va ta'lomitlar mavjud. Jumladan ma'naviy taraqqiyot bosqichlarining antik davrida Heraklit, Pifagor, Empedokl, Suqrot, Demokrit, Aflatun, Arastu, Epikur kabi faylasuflar insonni barkamol qilib tarbiyalashga doir ko'plab fikrlarni bayon qilganlar. Bu borada Arastuning qarashlarini alohida qayd etish mumkin.

Arastu “Nikomaxning axloq kitobi”, “Evdemning axloq kitobi”, “Katta axloq kitobi”, “Ritorika”, “Siyosat”, nomli asarlarida o'zining axloqiy qarashlarini bayon qilar ekan, tarbiya orqali insonni komillik darajasiga etkazish masalalariga alohida e'tibor beradi. U axloqiy tafakkur rivoji tarixida birinchilardan bo'lib komil inson uchun zarur bo'lgan fazilatlarni tasniflaydi va ularning har birini alohida tafsiflaydi.

Arastuning tasnifiga ko'ra, komil inson uchun zarur bo'lgan axloqiy fazilatlarga - jasurlik, dovyuraklik, mo'tadillik, saxiylik, muloyimlik, to'g'rilik,

<sup>1</sup> Беруни Собрание сочинений. 96-б

<sup>2</sup> Yusuf Xos Xojib. Kutadg'u bilig. –Т., 1972. 867-б

dilkashlik, mehribonlik, adolatparvarlik, salobatlilik, himmatlilik kabilar kiradi. Jumladan, "Olijanoblik - kibr va xorlikning, saxiylik - isrofgarchilik va xasislikning, kamtarlik - uyatchanlik va uyatsizlikning, xayrixohlik - xushomadgo'ylik va adolatning, haqgo'ylik - ayyorlik va maqtanchoqlikning, nafrat - hasadgo'ylik va ichi qoralikning, ehtiyyotkorlik - buzuqlik va toshbag'irlikning o'rtasidir."-deydi.<sup>1</sup> Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Arastuning axloqiy-estetik qarashlarida me'yor tushunchasi markaziy o'rinni egallaydi. "Me'yor - oltin o'rtalik" degan tamoyilning ustuvorligi mutafakkirning mardlik va jasorat borasidagi mulohazalarida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Biroq, uning fikrlaridagi "o'rtalik" biz nazarda tutgan "me'yor" emas, balki, axloqiylik va axloqsizlikni belgilovchi mezon sifatida ko'rsatib o'tilgan.

Arastu komil insonni shakllantirishda axloqiy tarbiyaning zarurligiga alohida e'tibor beradi. U tarbiyaning samarasini insonlarning tur mush tarzi va davlatda qonun ustuvorligining ta'minlanganligida ko'radi. "Agar jamiyatda tegishli qonunlar mavjud bo'lsa, unda to'g'ri tarbiya amalga oshishi mumkin. Samarali ijtimoiy tarbiya uchun yaxshi qonunlar zarurdir", - deydi faylasuf.<sup>2</sup>

Umuman antik davr, xususan, Arastuning nazariy qarashlariga ko'ra komil insonni uning faoliyatiga, fe'liga har tomonlama ta'sir ko'rsatish, jumladan, axloqiy tarbiya orqali shakllantirish mumkin, degan xulosa chiqarish mumkin. Zero, bu davrda faqat aqli etuk, yuksak fazilat egasi bo'lgan shaxsgina ma'naviy barkamol inson deb tushunilgan.

Axloqiy qadriyatlarni shakllantirish masalasi atrofidagi fikrlar O'rta asr Musulmon Sharqi mutafakkirlarining falsafiy qarashlarida yanada rivojlantirildi. Shuni alohida ta'kidlash o'rinniki, antik davr yunon falsafasidan farqli o'laroq, bu davr allomalari komil insonga xos xususiyatlarni umuman xalq timsolidha ham ko'ra oldilar. Bu esa insonga bo'lgan munosabatda yunon falsafiy tafakkuri bir qadar cheklangan va qolipga solinganligidan dalolat beradi. Zero, Abu Rayhon Beruniyning "Yunon faylasuflari avom xalq uchun emas, balki yuqori tabaqalar (manfaatlari) uchun usul va qoidalar ishlab chiqqanlar"<sup>3</sup>, -degan fikri yuqoridagi mulohazamiz uchun asos bo'ladi.

Jahon estetik madaniyati rivojida O'rta asrlar Musulmon Sharqi mutafakkirlarining o'rni beqiyos ekanligi dunyo olimlari tomonidan tan olingan. Chunonchi, Abu Nasr al-Forobiyning axloqiy- qarashlari keyingi davrlar uchun nazariy asos vazifasini o'taydi.

<sup>1</sup> Аристотель. Сочинение V 4-х. -М.: М. М., 1984. Т.4. С. 54-55

<sup>2</sup> O'sha manba. S 71-72

<sup>3</sup> Qarang Abu Rayhon Beruniy 100 hukmat. Tarjimon va nasluga tayyorlovchi A.Insov. -Toshkent: Fan, 1993. -21 b

Inson kamoloti masalasi Forobiyning falsafiy kontseptsiyasida moddiy olam bilan bog'liq ma'naviy hodisa sifatida ilmiy asoslanadi. Uning fikriga ko'ra, kamolot va komillik tushunchasi insonga xos va taaluqli bo'lib, u tug'ma xususiyat emas. Inson komillikka jiddu-jahd bilan intilishi natijasida erishadi. Insonning asl ruhiy kamolotni dastlab Haqni tanish orqali hosil bo'ladi va bu ma'rifat, baxt-saodat va kamolot sari qo'yilgan birinchi qadamdir<sup>1</sup>.

Vogelikdag'i barcha narsalar o'zining mazmun-mohiyatiga ega: ularning nomi, xususiyati, qolaversa, foydasi va zarari ham bor. Bu xususiyat insonga ham xos: uning ismi, fe'l-atvori, fazilati va illatlari bor. Biroq, komillik hammaga ham nasib etavermaydigan ma'naviy hodisaki, insonga xos bo'lgan bunday kamolotni Forobiy "eng yetuk baxt-saodat" deb ataydi. Bu baxt-saodat shu yuksak kamolotga erishish yo'lida bo'lgan har turli juz'iy narsalarni o'zida birlashtiradi. Juz'iy narsalar eng etuk baxt-saodatga olib boruvchi fazilatli san'at (kasb-hunar)lardir<sup>2</sup>.

Forobiyning ma'naviyatga oid qarashlari «Madinatul fozila» ta'lilotida o'z ifodasini topgan. Alloma fozil jamiyat to'g'risidagi ta'lilotida yuksak g'oyalalar, adolatli ijtimoiy munosabat lar qaror topgan davrda vujudga keladigan ma'naviy-axloqiy xususiyatlarning umumiy tizimini izohlab bergen. Forobiy bunday jamiyatda diniy ma'naviyat ham muayyan ahamiyatga ega bo'lishini, ammo unda kalom (teologiya) va fiqh (huquqshunoslik) vakillari kishilarning ma'naviy-axloqiy kamoloti uchun javob beradigan sohalarni boshqarishlari, ijtimoiy munosabatlarning asosiy sohalari esa faylasuf-hukmdorlar tomonidan boshqarib borilishini ta'kidlaydi. Mutafakkir diniy qarashlar g'oyaviy sohada eng asosiy ahamiyat kasb etgan o'sha davrda, nafaqat Alloh g'oyasini, balki inson, jamiyat va ilm-fan ma'naviyatini falsafiy bilimlarning asosiy mavzularidan biri sifatida talqin etgan dastlabki Sharq faylasuflaridandir. Aytish joizki, Abu Nasr al-Forobiy insonning komillik darajasini dunyoviylik bilan ilohiylikning uyg'unligini belgilovchi mezon sifatida baholaydi. Bu mezon, birinchidan, kamolotni Xudoning abadiyligini bilish unga aql, ilm, kasb-hunarni egallash orqali erishishda ko'rindi. Ikkinchidan, komil inson bo'lismish uchun o'n ikkita axloqiy fazilat, ya'ni jismoniy sog'lomlik, mushohadalilik, kuchli xotiralilik, o'tkir zehnlilik, raxon fikrlash va tiniq so'zlashish, qobiliyatilik, ochko'zlik va qimordan xoli bo'lismish, haqiqatgo'ylik, vijdonilik, pul va mol-dunyodan jirkani, adolatparvarlik, jasurlik xislatalriga ega bo'lismish shart degan talablarni qo'yish bilan axloqiy va estetik qadriyatlarning shaxs ma'naviy kamolotidagi o'rnini aniq ifodalaydi. Uchinchidan, musiqa ilmining barkamol insonni shakllantirishdagi o'rn katta ekanini, to'rtinchidan, shaxs ma'naviy kamolotida tarbiya, mashq qilish va

<sup>1</sup> Abu Nasr Forobiy Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida. – Toshkent. Yozuvchi. 2001. –B. 13–15.

<sup>2</sup> Abu Nasr Forobiy Fozil odamlar shahsi. – Toshkent. Abdulla Qodimy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1993. –B. 185–186.

o'qishning zarurligi, beshinchidan, kamolotda shaxs erkinligi ta'minlanishi, mamlakatning tinch totuv bo'lishi kabi tashqi omillar zarurligi haqida bir qator sikrlarni ilgari suradi. Shuning uchun Forobiy nazdidagi komil inson turg'un, mavhum, harakatsiz emas, balki u inson a'mollarida yashovchi, hayot bilan hamnafas bo'lgan axloqiy-estetik idealdir.

Shuningdek, komil inson muammosi Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino kabi allomalarning axloqiy qarashlarida markaziy o'rinni egallaydi. Bu haqida Beruniy "Komil kishi bo'lishning birinchi sababi ilm va ma'rifat, ikkinchisi san'at va amal hosil qilish bilan bo'ladi", deydi. Shuningdek, u inson kamolotini go'zallik, ko'rkamlik, olijanoblik, mardlikda deb bilgan. Mehnat tarbiyasini komillikning kaliti hisoblab, yoshlarni mehnat qilishga o'rgatish zarurligini ta'kidlagan.

Sharqda yaratilgan go'zal xulq-odob va ma'rifatni ulug'lovchi juda ko'p asarlar shaxs ma'naviy kamolotiga bag'ishlab yozilgan. Xususan Abu Lays Samarcandiyning "Tanbehul-g'ofiliy" ("G'aflatdan uyg'otish") va Husayn Voiz Koshifiyning "Futuvvatnomai Sultoniy yoxud javonmardlik tariqati" asarlari shular jumlasidandir. Tariximizning turli davrlarida (biri X asrda, ikkinchisi esa XI asrda yaratilgan) pandroma tarzida bitilgan har ikki asarda ham komil inson munosabatlari dagi axloqiy va estetik qadriyatlar targ'ib etilgan. Agar bu ikki asarni qiyosiy tahlil etadigan bo'lsak, ular muayyan tarixiy shart-sharoit ta'sirida yaratilgani bois o'ziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan farq qilsa-da, lekin mohiyatan yaqin. Voiz Koshifiy asosan barkamol insonga xos go'zal fazilatlarni targ'ib etgan bo'lsa, Abu Lays esa unga zarar keltiradigan, insonni halokatga yetaklaydigan illatlarni keskin tanqid qilgan.

Abu Lays Samarcandi "Tanbehul-g'ofiliy"da keltirilgan hadislar, tafsir va diniy rivoyatlar orqali kishilarniadolatpesha, halol, rahmdil, mehr-shafqatli, kamtar va saxiy bo'lish, beva-bechoralarga yordam berish, ota-onani hurmat qilish, bilim olish va kasb-hunar egallashga chorlaydi, ayrim kishilarda uchraydigan yolg'onchilik, hasad, kibr, chaqimchilik kabi illatlarga murosasiz bo'lishga da'vat etadi. U qalbi nopol, kibrli odamlar haqida shunday rivoyatni keltiradi: "Abu Hurayra (r.a) Rasululloh (s.a.v.)dan rivoyat qilishicha, ul zot aytadilar: "Oxir zamonda sut soqqandek, dunyoni sog'ish uchun qavmlar chiqadi, ya'ni din nomi bilan dunyoni eydilar (egallab oladilar). So'ng, yumshoqqina qo'y terisidek liboslar kiyadilar. Ularning gaplari shakardan shirinroq, qalbular esa bo'rilarning qalbidek".<sup>2</sup>

Allomaning ta'kidlashicha, faqat o'z foydasini o'ylab, boshqalarning haqiga ko'z olaytiruvchi, yomonlik qilib, rohatlanuvchi – iymonsiz odamlar o'z-

<sup>1</sup> To'raqulov E., Rahimov S. Abu Rayhon Beruniy ruhiyat va ta'lim-tarbiya haqida -Toshkent. O'qituvchi, 1992. -68 b.

<sup>2</sup> Al-Faqih Abu Lays as-Samarcandy. Tanbehul-g'ofiliy Birinchi kitob -Toshkent: Mavarounnahr, 2003. -14 b.

o'ziga yomonlik qilayotganligini anglamaydigan, boylik vasvasasiga yo'liqqan ma'naviy qashshoq odamlardir. Komil inson tarbiyasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan "Ota-onaning haqi" bobida farzandlarning ularga nisbatan hurmatsizligi qattiq qoralanib, oqil farzand uchun ota-onaga huquqini tanimoq vojibdir, deya ta'kidlanadi. Abu Lays bu xususda quyidagi hadisni keltiradi: "Payg'ambarimizdan so'raldi: "Qaysi amal yaxshiroqdir?" Ul zot aytdilar: "O'z vaqtida o'qilgan namozlar, keyin ota-onaga yaxshilik qilish...". Alloma "ota-onaning farzandda o'nta haqi borligini uqtiradi: 1) agar ulardan biri taomga muhtoj bo'lsa, taom bermoq; 2) kiyim-kechakka muhtoj bo'lsa, kiyintirmoq; 3) agar ikkovidan biri farzandning xizmatiga muhtoj bo'lsa, xizmat qilmoq; 4) agar farzandini chaqirsa, javob bermoq va hozir bo'lmoq; 5) agar ish buyursalar, itoat qilmoq; 6) yumishoqlik bilan gapirmoq; 7) otini aytib chaqirmsalik; 8) orqasidan yurish; 9) o'ziga nimani ravo ko'rsa, ularga ham shuni ravo ko'rish; 10) mag'firat so'rab, duo qilmoq".<sup>2</sup>

Ta'kidlash joizki, Abu Lays o'z davrida targ'ib etgan go'zal axloqiy fazilatlar O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasida o'z ifodasini topgan. Xususan, XIV bob 66-moddada voyaga etgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majbur ekani belgilab qo'yilgan.

Husayn Voiz Koshifiyning "Futuvvatnomai Sultoniy yoxud javonmardlik tariqati" asari haqida fikr yuritadigan bo'lsak, bu asarda ma'naviy komillikka intilgan, go'zal fazilatli insonlar xulqidagi xususiyatlar ta'riflanib, ularga erishish yo'llari ko'rsatib berilgan. Koshifiy javonmardlik, ya'ni jo'mardlik fazilatlarini komillikning asosi sifatida e'tirof etib, uning 71 sharti mavjud ekanligini takidlaydi. Ulardan 48 tasi vujudiy, 23 tasi esa azaliy ekanligiga e'tiborni qaratadi. Komillikning vujudiy shartlariga islom (ya'ni, islom dinida bo'lish), iymon (ya'ni, iymonli, vijdonli bo'lish), aql (ya'ni, ortiqcha hoyuhavas, qahr-g'azabga berilmay, aql bilan ish ko'rish), zuhd-taqvo, (ya'ni, gunoh ishlarni qilmaslik), vara' (parhez, adolatsiz, nohaq ishlardan, jabr-zulmdan o'zini tiyish) kabi amallarni misol qilib keltiradi.

Komillikning 28-sharti sifatida u, xuddi Abu Lays Samarqandiy kabi ota-onha hurmatini bajo keltirish, ya'ni ular oldidagi farzandlik burchini ado etish ekanligini ta'kidlaydi. Komillikning 29-sharti ustoz xizmatida bo'lish ekanligini aytadi, chunki ustoz shogirdlarini barkamol inson qilib tarbiyalash uchun bor kuch g'ayrati va bilimini sarflaydi. Komillikning 30-sharti – hamsoya, qo'shnilar haqini ado etish, 31-sharti esa faqat ezgu va savob ishlarga da'vat etadigan so'zlarni gapirish, ya'ni muomala odobidan iborat tushuncha Voiz Koshifiyning talqinicha, komillikning 32-sharti – ko'p bilib, oz so'zlash, ya'ni

<sup>1</sup> O'sha asar -127 b

<sup>2</sup> Al-Faqih Abu Lays as-Samarqandiy Tanbehu'l-g'ofilyin Birinci kitob -Toshkent Mavarounnahr, 2003. – 130 b.

bilimdon bo'lsa ham sukul saqlash. Hammaning oldida o'zini ko'rsatib maqtanmaslik, kamtarinlik. 33-shart hamma joyda va hamma vaqt adolatni talab qilish. Ya'ni birovning, ayniqsa, yetim va miskinlarning haqiga ko'z olaytirmaslik, ta'magirlilik, poraxo'rlik, yulg'ichlik, tekinoxo'rlikdan o'zini tiyish, halol rizq nasiba topish.

*Qadriyatlar - voqelikdagi muayyan hodisalarining qimmatini helgilash uchun xizmat qiluvchi falsafiy kategoriya bo'lib, u mazkur hodisaning shiyekt tomonidan aks ettirilishi natijasida paydo bo'ladi.*

Qadriyatlarning tabiatи haqida so'z ketar ekan, falsafiy adabiyotlarda bir-biri bilan raqobat qiluvchi to'rtta asosiy yondashuvlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchi yondashuvga ko'ra, qadriyatlar dunyosi alohida, mustaqil, subyektgа ham, obyektgа ham nisbat berib bo'lmaydigan olam sifatida talqin etiladi. Neokantianlikning klassiklaridan biri G.Rikkert yozganidek, «qadriyatlar sub'ekt va ob'ektdan tashqarida joylashgan butunlay mustaqil saltanatni tashkil etadi».<sup>1</sup> Ikkinci yondashuvga ko'ra esa, qadriavyiy xususiyatlar narsalarning o'zida mavjuddir. Boshqacha qilib aytganda qadriyatlar manbai tashqi voqelik xususiyatlarida ko'rindi. Ana shu bilan bog'liq ravishda qadriyatlar narsalarning muayyan elтиyojlarni qondira olishga bo'lgan obyektiv qobiliyati sifatida qaraladi. Uchinchi yondashuvning mohiyati shundan iboratki, tabiatda qadriyatlar mustaqil mavjud emas. U yoki bu narsalar faqat subyektning baholash faoliyati tufayli o'z qadr-qimmatiga ega bo'ladi. Bunga misol sifatida g'arb estetikasi antologiyalaridan birining tuzuvchisi bo'lgan M.Reyderning fikrini keltirish mumkin: «Haqiqatlarga qarama-qarshi o'laroq, qadriyatlar shunchaki tasavvur qilinadi xolos... Faktlar kuzatuvchilar guruhi uchun bir xil xususiyatga ega bo'lsa, qadriyat har bir baholovching subyektiv fikri bilan bog'liq ravishda turli tabiatga ega bo'ladi»<sup>2</sup>. Bir kishi uchun qimmatli bo'lgan narsa boshqa kishi uchun unday bo'lib ko'rinnmaydi. To'rtinchи yondashuvda esa oldingi yondashuvlarning o'ziga xos sintezi amalga oshiriladi va qadriyatlarning ikki yoqlama (obyektlvi va subyektlvi) tabiatga ega ekanligi ta'kidlanadi.

Falsafiy adabiyotlarda qadriyatlarning turli tiplari ajratib ko'rsatiladi.

1. Qadriyatlar quyidagi belgi bo'yicha farqlanishi mumkin: Nima baholanyapti va nimaga asosan baholanyapti? Shu bilan bog'liq ravishda ular quyidagicha turlarga ajratiladi:

a) *predmetli qadriyatlar* - qadr-qimmat munosabatlarining obyektlari, ya'ni voqelikdagi subyekt uchun muayyan qimmatga ega bo'lgan hodisalar. Ularga quyidagilar kiritiladi:

- tabiiy obyektlar, jarayonlar va hodisalar;

<sup>1</sup> Риккерт Г. О понятиях философии – «Логос», Кн 1. Сюбою то 1910. 33-б

<sup>2</sup> Современная книга по эстетике. Антология. М., 1957

- ijtimoiy obyektlar, jarayonlar va hodisalar.

- b) *subyektlı qadriyatlar* - u yoki bu hodisalarni baholash tadbirini o'tkazishda asos bo'lib xizmat qiluvchi usullar va mezonlar. Ularga quyidagilar kiradi:  
-me'yoriy taqdimnomalar sifatida bayon etilgan ko'rsatmalar, baholar, imperativlar, maqsadlar, loyihiilar.

2. Qadriyatlar sotsiumining qanday sohasi bilan bog'liq ekanligiga qarab ham biridan farq qildi. Shundan kelib chiqib *axtoqiy*, *badiiy*, *utilitar*, *ilmiy*, *diniy* va boshqa qadriyatlar farqlanadi.

3. Qadriyatlar umumiylig darajasiga qarab, ya'ni, u yoki bu hodisa qancha miqdordagi subyektlar uchun qimmatga ega ekanligiga qarab ham farqlanadi. Shu bilan bog'liq ravishda quyidagi turlar ajratib ko'rsatiladi;

- *individual qadriyatlar*:

- *guruhiy qadriyatlar* (milliy, diniy, jinsiy, yosh); ushbu guruhlar doirasida g'arb va sharq qadriyat tizimlari haqida so'z yuritish mumkin.
- *umuminsoniy*;

Qadr – muayyan qadriyatning ya'ni, biron-bir narsa, voqeа, hodisa yoki biror idealning inson va jamiyat uchun qadri va ijtimoiy ahamiyatini anglatadigan tushuncha Qadriyatlar muammosiga bag'ishlangan ilmiy-falsafiy manbalarning ko'pchiligidagi qadriyatni "baho" tushunchasi bilan qiyoslash, ularga bir xil daraja va ko'lamdagи tushunchalar sifatida qarash hollari uchraydi. Bu ikki tushuncha qiyoslanayotganda qadr tushunchasi e'tiborga olinmaydi ana shu sababdan ham o'zbek tilida qadriyatning mazmunini bilib olish va uning ahamiyatini anglash, avvalo, qadr, so'ngra "baho" tushunchalarining ma'nosini bilish orqali boradi. Insonning insonga ibrati, tarbiyadagi ta'sirini uning o'zi baholay olmaydi, balki boshqa inson baholaydi.

Insoniyat tarixining ilk davrlaridayoq odamlar narsalarning muayyan qimmatga ega ekanligini, insonning u yoki bu ehtiyojlarini qondira olishini, biron sohada foydali bo'lishi mumkinligini kashf etganlar. Shu bilan narsalarning qadriyaviy xususiyati ochilgan. Dastlabki paytlarda bu xususiyat buyumlarning amaliy foydasini bilan bog'lanar edi. Keyinchalik qadriyat maqomi boshqa ijtimoiy institutlar va ma'naviy hodisalardan ham tan olina boshlandi. Shu asosda qadriyatni o'r ganadigan ta'lilot ham vujudga keldi.

Aksiologiya (yun. *axio* – qadriyat va *logos* – fan, ta'lilot) – qadriyatshunoslik, ma'naviy hodisalardan biri bo'lgan qadriyatlar sohasini o'r ganadigan, uning qonun va kategoriyalarini tadqiq qiladigan ilm yo'nalishi, E.Gartman va frantsuz olimi P.Lapi tomonidan ilmiy iste'molga kiritilgan. Aksilogiya aksiologik ong, qadrlash tuyg'usi, aksiologik bilish, qadrlash tamoyiliga tayanib to'plangan qadriyatlar to'g'risidagi bilimlar sistemasidir.

Qadriyatlar tiziminining ijtimoiy taraqqiyotga bog'liqlik qonuni, qadriyatlar tiziminining o'zgarishi va takomillashuvi bilan bog'liq aksilogik qonunlar ham aksilogiya shug'ullanadigan masalalar doirasiga kiradi. Insoniyat tarixining bir bosqichidan boshqasiga o'tishda, davrlar almashib, yangi davlatlar vujudga kelganida shakllanadigan yangi qadriyatlar va qadriyat tizimlarining amaliyoti masalalari ham aksilogiya fani o'rjanadigan mavzular hisoblanadi.

**Shu o'rinda milliy axloqiy qadriyatlarimiz abadiy qadriyatlar bilan bog'liqdir. Abadiy qadriyatlar – inson, millat, jamiyat hayoti va faoliyati uchun doimiy ravishda zarur bo'ladigan qadriyat shakllarini ifodalaydigan tushuncha.** Aksiologiya oila, mahalla, davlat va jamiyat ins-tlari, ona tili, din, avlodlar o'rtasidagi vorisiylik, tarix va tarixiy xotira, tinchlik, bargororlik, ozodlik va farovonlik kabi inson uchun hamma vaqt zarur bo'ladigan, hech qachon o'z qadrini yo'qotmaydigan eng yuksak tushuncha va tamoyillar aksiologiya qadr sifatida namoyon bo'ladi. Bu qadriyatlar aksiologiyalar davomida dunyodagi buyuk ma'rifatparvar alloma va mutafakkirlarning e'tibor markazida bo'lib kelgan. Xususan, xalqimizning bebaho ma'naviy merosi bo'lmish "Avesto" kitobidagi "Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal" tamoyili, Imam Buxoriy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy singari ulug' ajoddolarimizning asarlarida ifoda etilgan adolatlilik jamiyat, komil inson, tinchlik va farovonlik g'oyalari bugungi kunga qadar o'z ahamiyatini yo'qotmasdan kelmoqda.

Aksiologiya ijtimoiy jarayonlar ta'sirida kishilarning qadrlar to'g'risidagi tasavvuri, qarashlari o'zgaradi, bu esa taraqqiyot jarayonida odamlarning tur mush sharoitlari, hayoti va ma'naviy qiyofasidagi o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Bugungi modernizatsiya jarayonlarida milliy axloqiy qadriyatlarimiz o'zligimizni saqlab qolishimiz uchun niyoyatda ahamiyatlidir va u albatta ma'naviy me'rosimiz bilan bog'liqdir.

Endi axloqiy qadriyatlarga to'xtalamiz. Axloq – inson ma'naviy kamoloti sarchashmalaridan biri bo'lib, u tufayli jamiyat ravnayq topadi, fuqarolarning baxt-saodat haqidagi orzu-umidlari ro'yobga chiqadi. U o'zining paydo bo'lish tabiatiga ko'ra ijtimoiy-tarixiy hodisa hisoblanadi. Odamzod ijtimoiy mavjudot sifatida shakllana boshlagan kundanoq axloq paydo bo'lgan. Aniqrog'i, odamzodning o'zi ular o'rtasidagi axloqiy munosabatlarning hosilasi sifatida shakllana borgan. Odamlar o'rtasidagi axloqiy munosabatlardan negizida jamiyatning axloqiy hayoti ijtimoiy borliqning tarkibiy qismi sifatida qaror topgan.

Inson va jamiyat hayotida axloq talab qiluvchi, tartibga soluvchi, boshqaruuvchi, yo'naltiruvchi kuch bo'lganligi uchun ham buyuk mutafakkirlar, shoirlar, olimlar, davlat va jamoat arboblарining diqqatini o'ziga tortib kelgan. Axloqning mohiyatini, tabiatini tadqiq qilish tarixiylik va mantiqiylik, tizimli

yondashuv usullari (metodlari) orqali ish ko'rishni taqozo etadi. Axloq va axloqiy qadriyatlarni o'rganish borasidagi tarixiy tahlil shuni ko'rsatadiki, har bir xalq, millat va elatlар axloq masalasini o'rganishga jiddiy yondoshib, bu haqida bir qator diniy va dunyoviy tayanchga ega bo'lgan ta'limotlarni yaratganlar.

Axloq ilmini o'rganishga bag'ishlangan xorijiy va o'zbek tilidagi adabiyotlarda "axloq", "etika", "moral", "nravstvennos" degan tushunchalar ko'plab ishlataladi. "Etika" so'zi qadimgi yunonistonlik mutafakkirlar tomonidan fanga kiritilgan. O'z vaqtida Gomer "ethos" (etos) so'zidan "birgalikda yashaydigan joy, uy, g'or, uya, in, makon" ma'nosida foydalangan bo'lsa, eramizdan avvalgi IV asrda yashagan faylasuf Aristotel (Arastu) "etos" so'zidan ikkita: "Etika" (axloq) va "Etikaviylik" (axloqiylik) degan tushunchalarni keltirib chiqaradi.

Aristotel "axloqiylik"ni inson qalbining takomillashgan sifatlari-xotirjamlik, og'irlik, vazminlik, bosiqlik, mardlik, botirlik, jasurlik, qaxramonlik, o'rtachalik, mo'tadillik, evidalik va hokazolarni ifodalovchi tushuncha deb bilgan. Shu asosda u etikani-yaxshi fazilatlarga (xislatlar) ega bo'lgan kishilarni yoki kishilarning yaxshi sifatlarini, ya'ni xayrli, saxovat va himmatli, ezgu ishlarini o'rganuvchi ilm sohasi deb tushungan.

Darhaqiqat, Aristotel etikaga; insonlar o'rtasidagi munosabat doirasasi va oqil ijtimoiy hayvon (individ)ning axloqini o'rganuvchi fan –deb ta'rif bergan. Bu haqda "Nikomax etikasi", "Evdem etikasi", "Katta etika" kitoblarini yozib "etika" faniga asos solgan<sup>1</sup>. Demak, G'arbiy Evropada bundan 2500 yil oldin axloq masalasi ilm sohasi sifatida o'rganila boshlangan. Huddi, shu davrda axloqiy qadriyatlarni o'rganish, ularni yozma ravishda kelgusi avlodlarga yetkazish borasida ham katta ishlar amalga oshirilgan. Axloqiy qadriyatlarning tabiatini ochish, ularni tasniflash muammosi birinchi navbatda "axloq" tushunchasini teran anglashni taqozo etadi.

Axloqshunoslik ilmi tarixida axloq va uning mazmun-mohiyatiga doir juda ko'plab ta'riflar berilgan. Mazkur tadqiqotimizda mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng nashr etilgan adabiyotlarda bildirilgan ayrim sikrlarni tahlil qilishni maqsadga muvofiq, deb bildik.

Jumladan, Abdulla Sher "axloq" iborasi ikki xil ma'noga ega ekanligini, ya'ni umumiy tushuncha sifatida u fanning predmetini angatsa, muayyan tushuncha sifatida inson fe'l-atvori va xatti-harakatining eng qamrovli qismini bildiradi. Shuning uchun "Axloq-jamiyat, zamon, ba'zan insoniyat tarixi uchun namuna bo'la oladigan umumbashariy ahamiyatga ega ijobiy xatti-harakatlar

<sup>1</sup> Аристотель. Никомахова этика / Аристотель. Сочинение. V 4 x-1 -M. Mo'sl. 1984. T 4 S 55-62

yig'indisi, insoniy kamolot darajasini belgilovchi ma'naviy hodisadir"<sup>1</sup>. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"da esa "Axloq kishilarning bir-birlariga, oilaga, jamiyatga bo'lgan munosabatlarda namoyon bo'ladigan xatti – harakatlari, odoblari majmui"<sup>2</sup>, - degan ta'rif berilgan. Garchand, bu ta'rifda axloqning aks ettiruvchi tomonlari ko'rsatilgan bo'lsada, biroq, uning mohiyati, maqsadi ifodalanmay qolgan.

Shuningdek, "Falsafa: qomusiy lug'at"ida: "Axloq (arab. Xulqning ko'pligi; lotincha Moralis – xulq-atvori)- ijtimoiy ong shakkidan biri. Kishilarning tarixan tarkib topgan xulq atvori, yurish-turishi, ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi o'zaro, shuningdek, jamiyatga bo'lgan munosabatlarni tartibga solib turuvchi barqaror, muayyan norma va qoidalalar yig'indisi"<sup>3</sup>, - deb ta'riflangan. Mazkur ta'rif yuqoridaqilarga qaraganda ancha mukammal hisoblansada, biroq unda axloqning boshqaruvchanlik, yo'naltiruvchanlik xususiyatlari aks etmay qolganligi ko'zga tashlanadi. Faylasuf J.Tulenov "Dialektika nazariyasi" nomli kitobida: "Axloq muayyan xulq-atvori, odob, xatti-harakat, me'yor, qoida va printsiplar majmuasidir"<sup>4</sup> – degan ta'rifni ilgari suradi. Bu niyoyatda sodda ta'rifdir. Aksiologiya Guseynov va R.G.Apresyanlarning "Etika" nomli kitobida esa "Axloq bu 1) aqning affekt (jazava) ustidan hukmronligi; 2) oliv baxtsaodatga intilishi; 3) jamiyatda insonning yashash usuli; 4) erkin yashashi, beminnat xizmat qilishi; 5) insoniylik yoki odamlarga nisbatan insoniy munosabatda bo'lishi; 6) iroda erkinligi; 7) axloqiylikning oltin qoidalari asosida o'zaro munosabatda bo'lishi"<sup>5</sup>, - degan ta'rif berilgan. Bunda axloqning u yoki bu vazifalari sanab o'tilgan, xolos.

AKSIOLOGIYA - Raduginning "Etika" risolasida "Axloq bu burch va axloqiy qadriyatlarni shaxsiy, subyektiv, beg'araz hurmat qilish asosida inson xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlarni qadriyatli-qat'iy talab, amr asosida tartibga solish shaklidir"<sup>6</sup>, - deb ta'riflangan. Unda birinchi bor axloqiy qadriyat axloqning ajralmas manbai sifatida tilga olingan bo'lsada, ammo, u ham axloq tushunchasiga berilgan to'liq ta'rif vazifasini o'tay olmaydi.

Axloq tushunchasiga falsafiy ta'rif berish uchun eng avvalo, jamiyat axloqiy hayotining mazmunini tushunmoq kerak bo'ladi. Bu haqda N.E.Muhammadiev "Ichki ishlar idoralari xodimlarining kasb etikasi va estetik madaniyati" (1998 yil) nomli kitobida: "Jamiyatning axloqiy hayoti deb,

<sup>1</sup> Abdulla Sher Axloqshunoslik. Darslik. –Toshkent. O'zbekiston Faylasufi milliy jamiyatni nashriyoti, 2010 -8 b

<sup>2</sup> O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. 12 томлик. –Toshkent "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. T.1 -530 b

<sup>3</sup> Falsafa qomusiy lug'at. Tuzuvchi va mas'ul muhamm Q.Nazarov –Toshkent "Sharq" nashriyot –matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2004 -40 b

<sup>4</sup> Tulenov J.T Dialektika nazaryasi. –Toshkent. O'zbekiston, 2001 -264 b

<sup>5</sup> Гусейнов А.А., Апресян Р.Г. Этика. Учебник – М. Гардарики, 2004. -26 b

<sup>6</sup> Радукин А.А. Этика Учебное пособие для высших учебных заведений. – М. Центр, 2003. -88 b.

kishilarning ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishda, ularning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy faoliyatida, oilasida va kundalik turmushida yuzaga keladigan munosabatlar- ularning xulq-atvori, yurish-turishi, adolat, sadoqat, burch, baxt kabi bir qator tushunchalarda ifodalangan munosabatlarining majmuiga aytildi. Shundan kelib chiqqan holda, jamiyatning ko'p qirrali va murakkab axloqiy hayotini aks ettiruvchi "axloq" tushunchasini kategoriya sifatida ta'riflash mumkin"<sup>1</sup>, - deb yozadi.

Faylasuf olima M.Nurmatova bu fikrni qo'llab-quvvatlagan holda "axloq" tushunchasiga quyidagicha ta'rifni beradi. Ya'ni, axloq deb, avvalo inson bilan inson, so'ngra inson bilan jamiyat o'ttasidagi ob'ektiv va sub'ektiv aloqadorliklar tufayli kelib chiqdigan, shaxsiy va umumiy manfaatlarni muvofigqlashtirib turish asosida har bir shaxs, jamoa, ijtimoiy guruh, millat, elatning hayoti va faoliyatini boshqaradigan, tartibga soladigan, yaxshi ezgu niyatlar sari yo'naltiradigan, qadriyat maqomini olgan muayyan xulq-atvor, odob, xatti-harakat, tamoyil va normalarning majmuiga aytildi.

Jamiyatning axloqiy hayotini o'zida aks ettiruvchi axloqni ijtimoiyma'naviy hodisa sifatida tarkibiy tuzilishi bo'yicha uchta: - birinchidan, kishilarning kundalik hayotida sodir etadigan axloqiy atti-harakatlaridan ibrat bo'lgan amaldagi axloq, ya'ni axloqiy amaliyot;

- ikkinchidan, muayyan qadriyatlar asosida fikr yuritish, baholash, qadr-qimmatini belgilashni o'z ichiga oluvchi axloqiy ong;

- uchinchidan, o'zini o'zi axloqiy anglash: mayjud vaziyatni axloqiy jihatdan tahlil qilishni, ya'ni qalban o'zi bilan gaplashish, o'zicha baholash, o'zini nazorat qilish, o'zini o'zi takomillashtirish; boshqa odamlar bilan birga ich-ichidan aziyat chekish; aniq vaziyatda yaxshi va yomonni qalban his qilish; yaxshi va yomondan birini tanlashga irodaviy jihatdan tayyor turish kabi darajalarga ajratish mumkin.

Ana shu uchta darajadan o'tgan ijobiylar xatti-harakatlar, xususan, yaxshilik, mehr-muruvvat, fidoyilik, saxovat, o'zaro-hurmat, beg'arazlik, shijoat, sadoqat va hokazolar asta-sekinlik bilan axloqiy qadriyatlarga aylanib boradi.

Inson va jamiyat hayotida axloq quyidagi funksiyalarini bajarib kelgan va bajarmoqda:

1. Axloqning tartibga solish, boshqarish funksiyasi – odamlar o'ttasidagi munosabatlarni jamiyat tomonidan qabul qilingan, o'rnatilgan axloqiy normalar orqali tartibga solinishi va boshqarishi bilan ifodalananadi. Unda axloqiy munosabatlarni tartibga soluvchi vosita vazifasini axloq tamoyillari, normalari, jamoatchilik fikri, el-yurt o'ttasidagi obro'-martaba, an'ana, urf-odat, o'git,

<sup>1</sup> Muhammediev N.E. Ichki ishlar idoralarini xodimlarning kasb etkasi va estetik madaniyati Darshik –Toshkent O'zbekiston Respublikasi JIV Akademiyasi. 1998 -6 b.

pand-nasihat va boshqalar tashkil qiladi. Tartibga solish, boshqarish esa bevosita moslovchi-norma, talab qiluvchi-norma, taqiqlovchi-norma, chegaralovchi-norma, namunali-norma va hokazolar orqali amalga oshiriladi. Qadriyat maqomini olgan axloq ana shu jarayonda o'zining ijobjiy kuchini namoyish qiladi.

2. Axloqning aksiologik funksiyasi- bu "axloqiylik va axloqsizlik", "yaxshilik va yomonlik" nuqtai nazaridan odamlarning xatti-harakatlariga, niyati, maqsadi, o'y-xayollariga, vaj-sabablariga, axloqiy qarashlari va shaxsiy xislatlariga baho berish asosida ularni qadrlashni amalga oshiradi. Axloqning ana shu funksiyasi axloqiy qadriyatlarning qanchalik hayotiy yoki hayotiy emasligini ifodalovchi vositalardan biri hisoblanadi. Xuddi shu joyda axloqiy va estetik qadriyatlarning uyg'unligi ham ko'zga tashlanadi.

3. Axloqning maqsadga yo'naltirish funksiyasi - bu jamiyat hayotida ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan axloqiy qadriyatlarni tizimining kelgusidagi istiqbollarini belgilab beruvchi yo'lchi yulduz ishini bajaradi. Axloqning bu funksiyasi har bir jamiyat uchun o'ta zarur bo'lgan axloqiy qadriyatlarni tizimini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Shu tufayli ba'zi bir axloqiy qadriyatlarni umuminsoniy yoki milliy darajaga ega bo'ladi.

4. Axloqning bilish funksiyasi- bu odamlardagi yaxshi va yomon fazilatlarni anglab olish asosida vogelik to'g'risida muayyan bilimlarni hosil qilish ishini o'taydi. Ma'lumki, axloqiy bilim, printsiplar, norma, kodeks, nizom va boshqalarda ijtimoiy axloqiy qadriyatlarni haqida ko'plab axborot-ma'lumotlar o'z aksini topgan bo'ladi. Ana shu axborot-ma'lumotlarga ega bo'lish odam, jamiyat uchun eng qiyin, og'ir damlarda birdan bir to'g'ri axloqiy tanlovnini amalga oshirishga yordam beradi.

5. Axloqning tarbiyaviy funksiyasi – bu jamiyatda mavjud bo'lgan tarbiya tizimini umuminsoniyat tomonidan e'tirof etilgan axloqiy norma, urf-odat, an'analarga moslashtirish va shu asosda fuqarolarni axloqiy jihatdan tarbiyalash ishlarini tashkil etishni amalga oshiradi.

6. Axloqning kommunikativ funksiyasi – bu umumiy axloqiy qadriyatlarni ishlab chiqish uchun odamlar o'rtaida fikr almashish, bir birini tushunib umumiy xulosalarga kelishda o'zaro aloqa qilish vositasi vazifasini bajaradi. Xullas, axloq tufayli xalqlar, elatlari, millatlar bir birlari bilan aloqada bo'lib, fikr almashib, o'zlariga xos, manfaatlariga mos keladigan umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni ishlab chiqadilar hamda ularga og'ishmay amal qilishni yo'lga qo'yadilar.

Axloqiy qadriyatlarning tabiatini quyidagilar bilan ifodalananadi.

Birinchidan, har qanday axloqiy qadriyat insonning shunchaki bilib – bilmay qilgan xatti-harakati emas, balki, har tomonlama o'ylab ongli ravishda sodir

etadigan yoki sodir etgan ijobiy axloqiy xatti-harakatidir. Aniqrog'i, axloqiy qadriyat bu ideallik va reallikning dialektik birligidir, yuksak orzu va unga mos keluvchi aniq xatti-harakatlarni o'zida aks ettirgan ijtimoiy-axloqiy munosabatlar tizimidir.

Masalan, baxtli hayot kechirish har bir insonning hayot mazmunini tashkil etuvchi yuksak orzusi bo'lsa, unga erishish uchun sodir etayotgan aniq axloqiy xatti-harakati, ya'ni mehnatsevarligi, insoniyligi, sabr-qanoati bu reallikdir. Xullas, axloqiy qadriyat bir vaqtning o'zida yuksak orzu va ayni vaqtda reallik hamdir.

Demak, axloqiy qadriyatlarning birinchi xususiyati yuksak orzu va amaliy xatti-harakatdan iborat bo'lgan reallikning o'zaro birligidan iboratdir.

Ikkinchidan, axloqiy qadriyatlar inson yoki jamiyatning biror – bir faoliyati doirasi bilan chegaralanib qolmaydi. Masalan, u faqat mehnat yoki sevgi-ishq munosabatlari bilan chegaralanmaydi. Balki, inson borlig'ining barcha jabhalarini qamrab oladi. Qaerda inson, shaxs, millat mavjud bo'lsa, axloqiy qadriyat ham shu erda hozir-nozirdir.

Masalan, inson iqtisod, siyosat, oilaviy turmush, dam olish va hokazolar bobida har doim axloqiy qadriyatlar talabidan kelib chiqqan holda fikr yuritadi va axloqiy xatti-harakatlar sodir etadi. Shunday qilib, axloqiy qadriyatlarning ikkinchi muhim tabiatи, uning har bir shaxs jismoniy va ma'naviy vujudida qat'iy o'tnashib organligi bilan ifodalanadi.

Uchinchidan, axloqiy qadriyatlar inson va jamiyatning mavjud holatini emas, balki ongli hayot-faoliyati yo'naliشining miqdoriy va sifatiy hajmini ifodalab, shakl-shamoyilini ko'rsatib, unga muqarrarlik baxsh etadigan hodisa hisoblanadi. Masalan, yaxshi niyatlar bilan boshlangan nikoh to'yi, albatta axloqiy qadriyatlar tufayli baxtli-saodatli oilaning shakl-shamoyilini belgilab beradi va uning paydo bo'lishini muqarrar qilib qo'yadi. Demak, axloqiy qadriyatlarning uchinchchi tabiatи uning muqarrarligida ko'rindi.

To'rtinchidan, axloqiy qadriyatlar u yoki bu jamoa, siyosiy kuchlar tomonidan ishlab chiqilgan axloqiy kodekslar qanchalik mukammal bo'lmisin, baribir, uning talablari doirasiga sig'maydi. Chunki, u insoniyat axloqiy tarbiyasining hosilasi sifatida doimo harakatda bo'lib, cheksizlik sari intiladi. Bu cheksiz harakat insoniyatni yangidan yangi oljanob ezgu-maqsadlar sari boshlab boradi.

Axloqiy qadriyatlarning ko'lamin chegaralab qo'yish, oxir oqibatda, insonning axloqiy-ma'naviy kamolotini cheklashga olib keladi.

Axloqiy qadriyatlar muayyan axloqiy talablar kodekslar doirasidan chiqib insoniyatni yangidan yangi ezgu-maqsadlar sari boshlab boradigan cheksiz harakatlar bilan ham ifodalanadi.

Ushbu metodologiyadan kelib chiqqan holda axloqiy qadriyatlarni birinchidan, har bir kimsaning turli odamlar, narsalar, buyumlar, hodisalar, voqealar, jarayonlar qurshovida yashashini, ularning biri inson uchun qadrli bo'lsa, ikkinchisi qadrsiz ekanligini, xillas, insoniyat olamining ko'pdan ko'p moddiy va ma'naviy qadriyatlar dunyosidan iborat ekanligini tan olish; ikkinchidan, barcha qadriyatlarning mag'zini faqat axloqiy qadriyatlar tashkil etishini anglab etish; uchinchidan, axloqiy qadriyatlar hayotdan ajralgan qandaydir abstrakt kuch emas, balki, dunyoviy negizga ega bo'lgan moddiy va ma'naviy kuch ekanligini e'tirof etish; to'rtinchidan, jamiyat rivojining burilish nuqtalarida millat, elat, xalqni har xil bo'hronlardan asrab qoluvchi ma'naviy kuch ekanligini bilish asosida quyidagicha tasniflash mumkin.

1. Axloqiy qadriyatlarning mazmuuniga ko'ra burch, or-nomus, vijdon, qadr-qimmat, sabr-qanoat, kamtarlik, sobitqadamlik, rostgo'ylik va hokazolarga; shakliga ko'ra esa ijobiy yoki salbiy, ya'ni yaxshilik va yomonlik, adolat va adolatsizlik, baxt va baxtsizlik, hayo va behayolik kabilarga ajratish mumkin.

2. Axloqiy qadriyatlarni amal qilish doirasiga ko'ra:

- umuminsoniy axloqiy qadriyatlар-insonparvarlik, adolatparvarlik, vatanparvarlik, o'zaro hurmat, qonuniylik, jamoatchilik va boshqalarga;
- milliy axloqiy qadriyatlар-mehmundo'stlik, kattalarga nisbatan hurmat, saxovat, homiylik, ota-onani e'zozlash, bolajonlik va hokazolarga;
- shaxsiy axloqiy qadriyatlар – kasbiy burchni bajarish, sevgisiga sadoqatli bo'lish, halol rizq topish, so'zining ustidan chiqish, oila sha'nini saqlash, haromdan hazar qilish kabi turkumlarga bo'lish mumkin.

### **Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati**

#### **Rahbariy adabiyotlar:**

- Mirziyoyev Sh.M. – Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., O'zbekiston. 2017.
- Mirziyoyev Sh.M. – Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T., O'zbekiston. 2017.
- Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat. 2008.

#### **Darsliklar va o'quv qo'llannalar:**

- Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. G' Q.Nazarov tahriri ostida. –T.: Sharq. 2004
- Радугин А.А. Этика. Учебное пособие для высших учебных заведений. – М.: Центр, 2003. -88 б.
- Назаров Қ. Аксинология – қадриялар фалсафаси. –Т.: ЎФМДЖ, 2004.

4. Аристотель. Никомохова этика / Аристотель. Сочинение. В 4 х-т. -М.: Мысль, 1984. Т. 4. С. 55-62.
5. Muhammadiev N.E. Ichki ishlar idoralari xodimlarining kasb etikasi va estetik madaniyati. Darslik –Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 1998. -6 b.
6. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. –Toshkent: O'zbekiston Faylasuflari milliy jamiyatni nashriyoti, 2010. -8 b.
7. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. 12 томлик. –Toshkent: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. Т.1. -530 b.
8. Falsafa: qomusiy lug'at. Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov. –Toshkent: "Sharq" nashriyot –matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi Bosh tahriri, 2004. -40 b.
9. Muhammadjonova L.A. Amaliy etika va estetika. O'quv qo'llanma – Т.: "Mumtoz so'z" 2022 yil.
10. L.Muhammadjonova, S.Alimov,Sh.Rajabov. Notiqlik san'ati. O'quv qo'llanma – Т.: "Mumtoz so'z" 2022 yil.
11. Аззамова Н. "Философия нравственности". Дарслик Т.: Университет. O'zMU, 2022 yil.
12. М. Каххарова, Н Аззамова. Этика Учебное пособие. Ризограф имени Низами. 2018 god.
13. L.Muhammadjonova, F.Abidjanova. Etiket. O'quv qo'llanma. Т.: Universitet. O'zMU, 2018.
14. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. – Т.: Universitet, 2009.
15. Husanov B., Gulamov V. Muomala madaniyati. Darslik. –Т.: Iqtisod-moliya, 2009.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Al-Faqih Abu Lays as-Samarqandiy. Tanbebul-g'ofiliyn.Birinchi kitob.-Toshkent: Mavarounnahr, 2003.
2. Риккерт Г. О понятии философии. – «Логос», Кн.1. Спбю.ю 1910. 33-6.
3. Nurmatova M., Muhammadjonova L., Ma'naviyatning axloqiy asoslari.–Т.: Universitet, O'zMU. 2013.
4. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. – Т.: Universitet, 2009.
5. Tulenov J.T. Dialektika nazariysi. -Toshkent: O'zbekiston, 2001. -264 b.
6. Гусейнов А.А., Апресян Р.Г. Этика: Учебник – М.: Гардарикъ, 2004. -26 6.
7. Muhammadjonova L.A., Ortikova D.O., Abidjanova F.A., Masharipova G.K. Professional etika va etiket. Darslik. - Т.: "Adabiyot uchqunlari" 2018.
8. Э.Умаров., Ф.Загритдинова. "Этика. Прикладная этика". -Т.: Ношир, 2012.
9. Husanov B., Gulamov V. Muomala madaniyati. Darslik. –Т.: Iqtisod-moliya, 2009.

10. Sherinxammedova N.A. XXI asr fanining dolzARB muammolari // Falsafa va fan metodologiyasi. – T.: Universitet, 2005.

## **AXLOQNING INSONNI QADRIYATLARGA YO'NALTIRISH VAZIFASI HAMDA UNING AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY QADRIYATLAR UYG'UNLIGINI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI.**

**Reja:**

1. Milliy va islomiy qadriyatlarning tarixiy ildizlari va ularning shaxs kamolotidagi o'rni.
2. Fuqarolik jamiyatida shaxs qadr-qimmatining qadriyat sifatida namoyon bo'lishi.
3. Tinchlikparvarlik umuminsoniy qadriyat sifatida.
4. Adolatning tushunchasining axloqiy qadriyat sifatidagi ahamiyati

Har bir millat va elat, katta yoki kichikligidan qat'iy nazar, o'ziga xos milliy madaniyati va ma'naviyatiga ega. Ko'p asrlar davomida shakllangan millat va elatlarning ruhiy boyligini, uning urf-odatlari, an'analari, axloq-odob me'yorlarini o'zida mujassamlashtirgan ma'naviyat ayni vaqtida umuminsoniy ma'naviyatning tarkibiy qismini tashkil etadi va shu tariqa u jahondagi barcha xalqlarning ma'naviy boyligi ham bo'lib hisoblanadi.

Axloq – ma'naviyatning amalda namoyon bo'lishi. Ilm, bilim, dunyoqarash, idrok va iymon insonning xulq-atvorida o'ziga xos tarzda aks etadi. Inson ma'naviyati esa axloqiy fazilatlar orqali namoyon bo'ladi. Ma'naviyat – his etiladigan, anglanadigan, oqilonalikka asoslangan botiniy qudrat bo'lsa, axloq bevosita har bir shaxsning o'zgalarga nisbatan ma'naviy munosabatini anglatadi. Shu sababli axloqiy tushunchalar ayni paytda ma'naviy tushunchalar sifatida e'tirof etiladi. Zotan, axloq insof va adolat, iymoniylit va halollik, mehr va muruvvat, saxovatpeshalik va bag'rikenglik, rahmdillik va muruvvatlilik, mehribonlik va g'amxo'rlik singari ma'naviy tushunchalarni insonning hayotiy faoliyatida yuzaga chiqaradigan ma'naviy hodisadir. Zero, «Axloq ijtimoiy munosabatlar zaminida alohida shaxs sifatida mavjud bo'lgan insonlarning o'z-o'zini idora qilish shakllari va me'yori, o'zaro muloqot va munosabatlarda ularga xos bo'lgan ma'naviy kamolot darajasining namoyon bo'lishidir»!

Barcha davrlarda inson va jamiyat o'rtasidagi axloqiy munosabatlar siyosiy, huquqiy, iqtisodiy mezonlar asosida boshqarilgan. Ayniqsa, sharq xalqlarida, xususan, xalqimizning insoniy munosabatlar asosini axloq va axloqiylik tashkil etgan: siyosiy, huquqiy, iqtisodiy munosabatlar zaminida ham axloqiy mezonlar ustunlik qiladi.

Insonda fikrash tarzi, ongli fikrash layoqati birdaniga paydo bo'lib qolmagan, balki bir necha bosqichlarni bosib o'tgan. Tafakkur va dunyoqarash madaniy

jarayonni belgilovchi muhim omillardir. Ibtidoiy insonning dunyoqarashini miflar belgilaydi. Mif - birlamchi, din esa ikkilamchi hodisadir. Ibtidoiy inson biron hayvon yoki parrandani muqaddaslashtiradi. Yoki urug' boshilarini, ota–bobolari ruhini ulug'laydi, tabiatdagi daraxt, o'simlik, toshni muqaddaslashtirishi mumkin. Ammo bu hali din emas, balki topinish, sig'inish kultlardir. Axloqiy madaniyatga ehtiyoj paydo bo'lгanda, din kelib chiqadi. Hatto eng ibtidoiy din ham axloqdan tashqari bo'lishi mumkin emas. Axloq qachon paydo bo'ladi? Inson halol bilan xaromni, yaxshi bilan yomonni, to'g'ri bilan noto'g'rini anglab, bu tushunchalar o'rtaisdagi ziddiyatlarni tushunib etganda ma'naviyatning muhim qismi – axloqiy madaniyat paydo bo'ladi.

Islom va shariatning Qur'onidan keyingi ikkinchi musharraf manbai bo'lган hadislarda ham shaxs va jamiyat munosabati masalasida insonlarni ezgulikka, mehr-shafqatga, hamjihatlikka, bir-birlari bilan do'stona munosabatda bo'lishga da'vat etuvchi ulkan ma'naviy ahamiyatga ega bo'lган g'oyalar mavjuddir. Chunonchi, Abu Iso Termiziyl jamlagan hadis to'plamlarida insonlarning bir-biriga bo'lган munosabatlarida mehr-oqibatl bo'lish, ya'ni, shaxs va jamiyatning o'zaro iliq, hurmatga sazovor munosabatlarda bo'lishiga chorlaydigan ajoyib fikrlar bayon etilgan: «Bir-biringizning orangizni buzmang, bir-biringizni orqangizdan ayb qidirmang, bir-biringizni yomon ko'rmang, bir-biringizga hasad qilmang».1 Imom Buxoriyning «al-Adab al-mufrad» («Adab durdonalari») nomli asarida ham kishilarning bir-biriga bo'lган munosabatlarini to'g'ri yo'lga yo'naltiruvchi hadislar ko'p uchraydi. Masalan, 220-hadisda «Bu dunyoda yaxshilik qilgan kishilar oxiratda yaxshilikka erishadilar va shariatda yomonlik, deb sanalgan ishlarni qiluvchilar esa oxiratda, yomonlikka duchor bo'ladihar»,2 deyiladi.

Sayyoramizda barmoq izlari bir-birinikiga mutlaqo o'xshash ikkita odamni topib bo'lмаганидек, milliy qadriyatlar bir xildagi ikkita xalqni ham topib bo'lмaydi. Zero, qadriyatlar insoniyatning necha ming yillik tamaddunida har bir millat, elat va xalqning o'ziga xosligini ta'minlab kelayotgan bebahो ne'matdir. Ma'lumki, muayyan bir millat, elat va xalq hayoti, turmush tarzi, o'tmishi, kelajagi va yashayotgan ijtimoiy muhiti bilan bog'liq qadriyatlar milliy va islomiy qadriyat sanaladi.

Milliy qadriyatlar jamiyat, inson uchun ahamiyatli bo'lган barcha hodisa-voqealar – erkinlik, ezgulik, tenglik, tinchlik, haqiqat, ma'rifat, madaniyat, moddiy va ma'naviy boyliklar, yodgorliklar, go'zallik, axloqiy xislat-fazilatlar, an'ana, urf-odat, udum va boshqalarni qamrab oladi. Muxtasar tarzda ifodaydigan bo'lsak, tarixiy sinovlarga bardosh bergan, xalqning milliy manfaatlarini o'zida to'liq mujassam etgan, zamонави тараqqiyotning talablariga javob bera oladigan, asrlar o'tgани сари qadr-qimmati ortib boradigan g'oyalar jamlanmasiga milliy qadriyatlar deyiladi.

Ayonki, tarix sahnasida o'z milliy qadriyatiga ega bo'lmagan millat yoki elat uchramaydi. E'tiborli tomoni shundaki, bunday qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, kelajagi, uni tashkil etgan avlodlar, ijtimoiy qatlamlar, milliy ong, til, ma'naviyat hamda madaniyat bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Albatta, asl milliy qadriyatlarimizning sarchashmalari buyuk ajodolarimizdan meros bo'lib qolgan beba ho ma'naviy boyliklarimizdir. Asrlar mobaynida xalqimizning yuksak ma'naviyat, adolatparvarlik, ma'rifatsevarlik kabi ezgu qadriyatları butun insoniyat uchun ibrat maktabi vazifasini o'tab kelgan. Jumladan, Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Bahovaddin Naqshband, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziyy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo singari daholarning o'imas asarları bizning asl qadriyatlarimizni butun dunyoga ko'zko'zlab kelmoqda.

Qadimdan yuksak qadriyatlarimiz amalda har bir o'zbek oilasida, mahalla-ko'yda namoyon bo'lgan. To'y-m'a'rakalar, hayitu hasharlar ahil-ittifoqlidka o'tgan. Xalqimizning asrlardan-asrlarga meros qolib kelayotgan milliy qadriyatları uzoq tarixiy jarayonda shakllangan. Mamlakatimizning Prezidenti BMT Bosh Assambleyası 72-sessiyasida so'zlagan nutqida «Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Biz muqaddas dinimizni zo'ravonlik va qon to'kish bilan bir qatorga qo'yadiganlarni qat'iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz», dedi O'zbekiston rahbari hamda islam dini "ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab'avaylashga" da'vat etdi.

Yana azaldan ayon bir haqiqat borki, qaysi xalq o'z milliy qadriyatlarini avaylab-asrasa, ularga ehtiyojkorona munosabatda bo'lsa, shu xalqning jahon hamjamiyatidagi o'rni, obro'si, e'tibori va qadri yuksalaveradi.

Afsuski, Chor Rossiyasi bosqini, sho'ro mustamlakasi davrida xalqimizning beba ho qadriyatları bo'lgan tili, dini hamda milliy-ma'naviy boyliklari beayov toptaldi. Ayniqsa, etmish yillik mustabid tuzum davrida milliy qadriyatlarimiz rivojlanishiha umuman yo'l qo'yilmadi. Aksincha, xalqimizning qadriyatlariga tamomila zid bo'lgan kommunistik maskurani hayot tarzimiz, ong va shuurimizga har qanday yo'l va usullar bilan singdirishga harakat qilindi. Xalqning beba ho qadriyatları, urf-odatlari, an'analar oyoq osti qilindi, ona tilining qo'llanish sohasi sun'iy tarzda cheklab qo'yildi. Shunaqa zamonalr ham bo'ldiki, odamlar milliy an'analar bo'yicha to'y qilish, qarindosh-urug'larni dafn etishga ham cho'chib qoldilar. Hatto Navro'z bayramini nishonlash eskilik sariqli sifatida bekor qilindi.

Biroq taraqqiyot, ong-tafakkurdagi o'zgarishlar o'z qudratini ko'rsatmasdan qolmadidi. Chunonchi, mustaqillik sari tashlana boshlangan mardonavor qadamlar o'z samarasini berdi. Ya'ni 1989 yilning 21 oktyabrida xalqimizning muqaddas qadriyatlaridan biri bo'lmish ona tilimiz o'zining qonuniy maqomiga ega bo'ldi. Bu

- bebah o qadriyatlarimiz tiklanishi yo'lidagi dastlabki jasoratli qadamlardan biri edi!

Nihoyat, ko'pdan kutilgan buyuk ne'mat – Mustaqillikka erishdik. Istiqlol bizga, avvalo, bebah o qadriyatlarimizni tiklash imkonini berdi. Mustaqillik tufayli o'zligimizni angladik, insoniy qadrimizni, urf-odat va qadriyatlarimizni, muqaddas islam dinimizni, buyuk ajdodlarimiz, aziz avliyo va allomalarimizning tabarruk nomlari va merosini, g'urur va iftixorimizni tikiadik. "Ramazon hayit", "Qurban hayit" kabi bayramlarimiz dam olish kunlari sifatida milliy qonunchiligidimizda e'tirof etildi. Yurtimizda Navro'z bayrami qayta tiklangani hamda 21 mart dam olish kuni deb e'lon qilingani katta ijtimoiy voqeа bo'ldi. Bu kabi muhim tarixiy qarorlar xalqimizning asriy orzu-umidlarini ro'yobga chiqishi, milliy qadriyatlarimiz tiklanishi yo'lidagi ezgu sa'y-harakatlardir.

Bugungi kunda mamlakatimizda musulmonlar uchun 1800 ga yaqin rasmiy masjid, oly madrasa, Islom tadqiqot markazi, 10 dan ziyod madrasa faoliyat yuritayotgani, har yili yurtimizning minglab musulmonlari haj ziyorati hamda umra safariga borib kelayotgani davlat miqyosida o'sha sa'y-harakatlarning bir ko'rinishidir.

Mustaqillik yillarda mamlakatimizning birinchi prezidenti tashabbusi bilan milliy qadriyatimiz sanalgan mahallaning yangi shakl va mazmunda qayta qad rostlashi, mahalla faoliyati xorijiy davlatlarning mutaxassislari tomonidan e'tirof etilib, katta qiziqish bilan o'rganilayotgani ham milliy qadriyatlarimizning umuminsoniy qadr-qimmati nechog'li yuksak ekanidan dalolatdir.

Ishonch bilan aytish mumkinki, istiqlolning dastlabki yillardan boshlab milliy qadriyatlar masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Ajdodlarimizning ruhi poklari va urf-odatlari, eng yaxshi an'alarimiz tiklangan sari barcha sohalarda islohotlar izchil amalga oshaverdi. Buyuk ajdodlarimizning ma'naviy meroslari tomonidan qadrlanishi milliy tiklanishimizga zamin yaratdi. Milliy qadriyatlar xalqimiz ma'naviyatining ajralmas qismiga, ko'z-ko'zlashga arziydigan fazilatiga aylandi.

Xalqimizning halollik, yaxshi qo'shnilik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, farzandlar va ota-onalar o'rtasida, kelin bilan qaynona o'rtasidagi o'zaro hurmat kabi milliy qadriyatları shular jumlasidan.

Elimizda qadimdan insonparvarlik, vatanparvarlik, millatparvarlik, adolat, insof, diyonat, sadoqat, halollik, to'g'rilik, mehnatsevarlik, mehmono'stlik, kamtarlik, rahmdillik, uyat, andisha, or-nomus kabi fazilatlar ardoqlanib, ajdodlardan avlodlarga ma'naviy meros sifatida o'tib kelgan. O'zbek xalqining qadimdan hozirgi kunga qadar davom etib kelayotgan, o'z ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan ajoyib qadriyatlardan biri – ota-onaning farzandlar tomonidan yuksak darajada e'zozlanishi, ularning izzat-ikromini, hurmatini joyiga qo'yishi.

Shuningdek, qadriyatga aylangan ezgu udumlarimiz ham bor. Ulardan biri qutlug' kunlar arasasida, bayramlar, ayyomlarda yoshi ulug'larni ziyorat qilib, duolarini olishdir.

Bularning barchasi yuksak ma'naviyatli, barkamol avlodni tarbiyalab etishtirishga, millatlararo do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlashga, ajdodlarimiz tomonidan asrlar mobaynida yaratilgan bebaho madaniy merosimiz hamda milliy qadriyatlarimizni tiklashga, eng asosiysi, o'zligimizni anglashga xizmat qilayapti. Chunki bizning milliy qadriyatlarimiz katta tarbiyaviy ahamiyatga ham ega bo'lib, yoshlarmizda vatanparvarlik, insonparvarlik, halollik hamda mehnatsevarlik kabi fazilatlarni kamol toptirish xususiyati mavjud.

Hayot rivojlanib borar ekan qadriyatlar ham takomillashib, mukammallahib boraveradi. Ayniqsa bugun, axloqiy buzuqlik va zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalarini tarqatayotgan, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlarini qo'porishga qaratilgan "ommaviy madaniyat" niqobi ostida xatarli tahdidlar paydo bo'lgan bir paytda milliy qadriyatlarimizning ahamiyatini yanada teranroq anglaymiz. Zero, bebaho qadriyatlarining ezgu qudrati bilan qurollangan, o'tmishdan to'g'ri saboq chiqarib, bugungi kun talablarini to'g'ri tushungan, tarixni chuqur bilgan, ayni paytda yon-atrofida bo'layotgan voqealarning mohiyatini anglagan yoshlari O'zbekistonning buyuk kelajagi, mustahkam poydevoridir.

O'zbek xalqining milliy qadriyatları va ularning aloqadorligi ifodasi bo'lgan qadriyatlar tizimi, millatimizning tarix silsilalari, zamona zayllari, turli ijtimoiy va siyosiy jarayonlar ta'sirida shakllanib keldi. Milliy qadriyatlarimiz millatning kelib chiqish xususiyatlari va hududiy makoni bilan bog'liq holda shakllandı. Qardosh xalqlarning ijtimoiy taraqqiyoti esa ularning milliy-hududiy qadriyatları ravnaqi bilan uzviy aloqadorlikda davom etdi. Shu taripa millatimiz o'ziga xos rang-barang qadriyatları takomillashtirib borishi natijasida, umuminsoniy qadriyatları shakllantirib, uning qirralarini rivojlantirib bordi.

Milliy qadriyatlar tabiatiga ko'ra, tor doirada to'xtab qolmaydi, balki ravnaq topib, turmush jarayonida yangilanib, boshqa xalqlar qadriyatlarining yutuqlari bilan boyib boradi. Ayonki, har bir el, elat, urug' yoki xalqning urf-odatlarida o'ziga xoslik bo'ladi. O'ziga xos qadriyatlarini boshqa joyda, boshqacha tarzda yashayotgan kishilarning tarozisi bilan o'chash yoki bu masalada boshqalarning hakam bo'lishi maqsadga muvofiq emas. Umuminsoniylik tuyg'usi faqat o'z xalqi qadriyatini ardoqlash, ko'z-ko'z qilish va boshqalar orasiga yoyish uchun intilishga asoslanmaydi, balki har bir xalq, elat, urug' qadriyatlarini qanday holatda bo'lsa, shundayligicha qabul qilib, ularni hurmat qilishdan boshlanadi.

Milliy qadriyatlarimiz rivojida islom dinining ahamiyati va o'rni juda katta bo'lib, u milliy qadriyatlarimizni boyitdi. Ayniqsa, xalqimiz ma'naviy qadriyatlarining takomillashib borishida islom dini keltirgan insonparvar g'oyalar

sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi. Islom dini kelganidan keyin Markaziy Osiyo xalqlari hayotida diniy qadriyatlar tizimi yangilandi, zaminimizdan ko'plab mutasakkirlar, qomusiy olimlar etishib chiqdi. Shuningdek, bu din o'zining bunyodkorlik taomiliga ko'ra ko'plab me'moriy obidalar, shaharlarning bunyod bo'lishiga sababchi bo'ldi.

Milliy qadriyatimizga aylangan islom dini g'oyalari va ko'rsatmalari millatimizning tabiiy-tarixiy rivoji, ijtimoiy turmushi, yashash tarzi, o'tmishi, kelajagi, madaniyati, ma'naviyati, urf-odatlari, an'analari, tili, u vujudga kelgan hudud va boshqalar bilan uzviy bog'langan. U milliy qadriyatlarimiz bilan xilma-xil shakllarda, bir-biri bilan uzviy aloqada namoyon bo'ldi, o'ziga xos milliy qadriyatlar tizimini tashkil qildi. Bu tizimda tabiiy-tarixiy birlikni ta'minlovchi qadriyatlar – yagona e'tiqodlilik, qarindoshlik, madaniy-ma'naviy yaqinlik, o'tmish va ma'naviy meros, ona yurt tuyg'usi va boshqalar barqaror hisoblanadi.

Shu o'rinda Islom dining paydo bo'lishi va rivoji xaqida ma'lumotni keltirsak. Masihiylik jamoatining mavqeい Evropa, Amerika va boshqa ko'plab qit'alardagi mamlakatlarning ijtimoiy, siyosiy va axloqiy madaniyatida qanchalik rol o'ynagan bo'lsa, islom madaniyati Sharqda shunchalik katta rol o'ynadi. Islom - dunyoda monoteizmga, ya'ni tanho xudolilikka asoslangan uchinchli va oxirgi dindir. Bu din ham Yaqin Sharqda paydo bo'ldi.

Islom faqat arab olamida emas, balki Yaqin Sharq mamlakatlarida, Eron, Turkiya, O'rta Osiyo, Hindiston, Indoneziya, Pokiston, Bangladej, Kavkaz, Volga bo'yłari, Bolqon, Afrikaning katta qismiga yoyilib, bu halqlarning tarixi va madaniyatida katta rol o'ynadi.

Islomning tarixi, ilk davrdagi faoliyati Muhammad s.a.v. va to'rt halifa - Abu Bakr (hukmronlik davri 632 - 634 yillar), Umar (hukmronlik davri 634 - 644 yillar), Usmon (hukmronlik davri 644 - 656 yillar) va Ali (hukmronlik davri 656 - 661 yillar) bilan bog'liq.

Islom, o'zidan oldingi dinlar kabi, ijtimoiy qayta qurishga da'vat qilmaydi. Aksincha, bu din itoatkorlikka, mo'minlikka o'rgatadi. Qullar xo'jayinlariga itoat etishlari lozim, xo'jayinlar ham o'z qullariga muloyim munosabatda bo'lishlari kerak. Alloh oldida garchi hamma teng bo'lsa ham, hayotda bunday tenglik yo'q. Solih inson ijtimoiy tizim ierarxiyasiga rioya qilmog'i darkor. Islomiy madaniyatning yana bir muhim jihat shuki, islom zulmni qattiq qoralaydi, zulm kufrligidir: "Alloh zolimlar qavmini hidoyatga yo'llamagay" (Oli Imron, 86 - oyat).

Axloqiy qonun - qoidalar, jismoniy va ma'naviy tomonidan pok hayot kechirishga oid o'gitlar, nopolikl uchun beriladigan jazo, maishiy hayotning boshqa tomonlariga oid barcha yo'l - yo'riqlar bilan islom ijtimoiy axloqni takomillashtirishga katta hissa qo'shdi. "Zinokor ayol va zinokor erkakning -har birini yuz darra uringiz. Agar Allohg'a va oxirat kuniga iyomon keltiruvchi bo'lsangiz,

Allohnning dini (hukmi)da ularni (zinokorlarga) nisbatan rahm - shafqat (tuyg'ulari) tutmasin!" (Nur surasi, 2-oyat). Ammo mish-mish ham og'ir gunoh ekanligi, mish - mish tarqatgan odam ham, zinokorlar singari, jazoga loyiqidir. Unday toifadagi odamlar fosiqlar deb nom olgan, itoatsiz kimsalardir. "Iffatlai ayollarni (zinokor deb) haqorat qilgan, so'ngra (bu da'volariga) to'rtta guvoh keltira olmagan kimsalar(ni) – sakson darradan uringiz va abadul-abad ularning guvohliklarini qabul qilmangiz" (Nur surasi, 4-oyat). Mazkur axloqiy tushunchalar Sharq olamida azaliy va hamma dinlar uchun umumiy bo'lib, zardushtiylikda, iudaizmda va masihiylikda ham qattiq qoraalanadi. Kundalik hayotda axloq va madaniyat uyg'un, doimo biri ikkinchisini talab qilgan, sog'lom ma'naviy, madaniy muhit jamiyatning ilgarilab borishi uchun xizmat qilgan. Islom pok hayot kechirishga oid mavjud aqida va qonun–qidalarini takomillashtirdi.

Prezident Sh.M.Mirziyoyevning 2018 yil 10 sentyabr, F-5361-sloni "Alovida muhim ijtimoiy, madaniy va tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan ob'ektlarni qurish, restavratsiya, rekonstruktsiya qilish va mukammal ta'mirlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Farmoyishi bu yo'lda qo'yilgan qadamlarning mantiqiy davomi bo'ldi desak adashmagan bo'lardik.

Farmoyishning asosiy mohiyati O'zbekistondagi islom tsivilizatsiyasi markazi, Imam Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Hadisshunoslik maktabi, Imam Buxoriy majmuasi, Buxoro shahrining "eski shahar" qismi, xususan "Ark qo'rg'oni" va "qushbegi saroyi majmualari", "Masjidi kalon", "Minorai kalon", "Mir-arab" va boshqa tarixiy va islomiy obidalarni tamirlashdan iborat.

Bundan tashqari yurtimizda ilk bor 2018 yil "Qur'on musobaqasi" o'tkazilishi va bunda nafaqat yoshi ulug'lar, balki yoshlarning faol ishtirokini ham aloxida ta'kidlash mumkin.

Qadriyatlarni turli asoslarga ko'ra muayyan turlarga ajratish numkin: Jamiyat hayotining sohalariga taalluqli bo'lish nuqtai-nazaridan qadriyatlarning: moddiy; ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy turlarini ko'rsatish mumkin. Qadriyatlar mazmunan xilma-xil turlarga bo'linib, hayotning barcha jabhalarini qamrab olgan. Jumladan, inson va uning hayoti eng oliy qadriyat hisoblanadi. Inson yo'q joyda biron narsaning qadr-qimmatini xaqida so'zlash be'manilikdir. Shuning uchun ham inson qadr-qimmatini e'zozlash, uning tur mushini yaxshilash, bilimi va madaniy saviyasini rivojlantirish, sog'lig'ini saqlash, hayotini himoya qilish davlatimiz siyosatining asosiy yo'nalishini tashkil etadi. O'quvchilar ongida axloqiy qadriyatlar shakllantirish uchun:

1. Vatanga, ota-onaga hurmat, muhabbat tushunchalarini va tasavvurlarini kengaytirish;
2. Burch, vijdon, insof haqidagi tasavvurlarni vujudga keltirish;
3. O'rtoqlik, do'stilik haqidagi tasavvurlarni kengaytirish.

4. O'quvchilarda ota-bobolarimizdan bizgacha etib kelgan san'at asarlarini xalq amaliy san'ati, me'morchilik, musiqa, turli xarakterdag'i bayramlarni, asrab-avaylash tuyg'usini shakllantirish lozim;

Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyevning quyidagi fikrlari bunga yaqqol misol bo'la oladi: "Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning beba ho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarimizning jasoratini yoshlari ongiga singdirish, ularda milliy g'urur va istixor tuyg'ularini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz kerak."]

Inson hayotida ijtimoiy – siyosiy qadriyatlar alohida o'rin tutadi. Erkinlik, tenglik, birodarlik insoniyat tomonidan hamisha e'zozlab, qadrlanib kelgan. Insonning erkinligi, uning shonshuhrati va qadr-qimmati jamiyatimizning oly qadriyatidir. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida bu to'g'rida shunday so'zlar yozilgan: «O'zbekiston Respublikasi demokratiya, umuminsoniy tamoyillarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz xuquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi».1 Qadriyatlar amal qilish doirasiga ko'ra, milliy, mintaqaviy va umuminsoniy turlarga bo'linadi. Insonning qaysi millatiga mansub ekanligi xaqida tasavvuri faqat g'oyagina emas, balki tuyg'u hamdir. Insonda milliy ong va g'urur bo'lmasa, u o'zining qaysi millatga mansubligini his etmasa, uning milliy qadriyatlarini anglashini tasavvur qilish qiyin. Shu bilan birga, hammamiz yana bir haqiqatni anglab etmoqdamiz. Faqatgina chinakam ma'rifatli odam inson qadrini, millat qadriyatlarini bir so'z bilan aytganda, o'zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashashi, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib obro'li o'rin egallashi uchun fidoylik bilan kurashishi mumkin. Har qaysidavlat, har qaysi millat nafaqat er osti va er ustti tabiiy boyliklari bilan harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan birinchi navbatda o'zining yuksak madaniyat va ma'naviyati bilan kuchlidir. Bunday boylikning, ahamiyatini anglash uchun Chor rossiyasining Turkiston o'lkasidagi general-gubernatori M.Skobelev: «Millatni yo'q qilish uchun uni qirish shart emas, uning madaniyatini, san'atini, tilini yo'q qilsang bas, tez orada o'zi tanazzulga uchraydi», deb aytgan gapini eslashning o'zi kifoya qiladi. Mintaqaviy qadriyatlar iqtisodiyoti, madaniyati, tarixi, tili, dini, urf-odat va an'analari mushtarak bo'lgan xalqlar manfaatlariga xizmat qiladigan tabiiy va ijtimoiy hodisalar majmuasini tashkil etadi. Qadimdan bir ma'naviy ruhiy-iqlimdan nafas olib kelgan xalqlarimiz tariximizning ayniqsa, bugungi ma'suliyatli davrda aql, zakovat va shijoat, dunyoviy salohiyat va milliy g'urur talab etadigan bir pallada yana xam yaqinroq va yana ham mehr oqibatliroq bo'lishlari lozimligini hayotning o'zi taqozo qilmoqda.

Umuminsoniy qadriyatlar milliy va mintaqaviy qadriyatlardan mazmun jihatdan chuqur va keng bo'lib, umumbashariy ahamiyat kasb etadi. Umuminsoniy qadriyatlar jahondagi barcha millatlar, elatlar va xalqlarning maqsad va intilishlariga muvofiq keladi. Umuminsoniy qadriyatlar turkumiga insoniyat tsivilizatsiyasining taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan umumbashariy muammolar kiradi. Ulardan eng asosiylari er yuzida ilm fanni taraqqiy ettirish, tinchlikni saqlash, yadroviy qurollarning poygasini to'xtatish, xalqaro xavfsizlikni ta'minlash, turli kasalliklarning oldini olish, tabiatni muhofaza qilish, qashshoqlik va savodsizlikka barham berish, sanoat xom ashyosi, energiya manbalari va oziq ovqat bilan ta'minlash, koinotni va jahon okeani resurslarini o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan muammolar kiradi. Darhaqiqat, ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan badiiy, ma'naviy asarlar har qanaqa dur-u javohirlardan ham qimmatliroq boylikdir. Ushbu boyliklar insoniyat paydo bo'lgandan beri unga xizmat qilayapti. Eramizdan oldin A fina demokratiyasi inqirozga uchraganida yunon faylasuflari qadriyat masalasini ko'targan edi. Ular ijtimoiy – siyosiy, xuquqiy tafakkur tarixida birinchi bor «insonoliy qadriyat» deb ko'rsatdi, olamdag'i barcha jixatlarni «insoniylik mezonii» bilan o'Ichashni targ'ib etdi. Buyuk mutafakkir Sugrot esa «qadriyat nima?» degan savolga «har bir insonning o'zligini anglashi» deb javob berdi. Bu borada salohiyatli adib Maqsud Shayxzodaning ushbu fikrlari juda o'rinnlidir: «Agar xar bir xalq – deb ta'kidlagan edi u, - o'z ulug' ajdodlarini e'zozlab, ularning qadriga eta bilmas ekan, bunday el istiqboldan ham mahrum bo'lishi mumkin». Bunday qarashlar bugungi kunda barcha ta'l'im tarbiya dargohlarida asosiy tamoyillardan biri sanalmoqda. Bizningcha, milliy davlatchiligidimiz poydevori barpo etilayotgan hozirgi sharoitda milliy qadriyatlarining o'rni har qachongidan ham ortib borayotir.

Turli xalqlar va millatlar hayotiga islomiy qadriyatlar kirib borganida dastlab qarshilikka uchragan. Islom dini o'zining insonparvarlikka asoslangan qadriyatları tizimini tavsiya qilar ekan, murosa va kelishuv yo'lidan borgan.

Bugungi zamonaviy qadriyatshunoslik fanida milliy qadriyatlar kishilarning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy birligini ta'minlaydigan etnik makonda shakllanadi. Rang-barang tarzda, turli shakllarda namoyon bo'ladi, kishilarning ongiga, hayot tarziga o'ziga xos tarzda ta'sir qiladi, deyiladi. Shuningdek, milliy qadriyatlarini kishilarning o'zaro munosabatlarida, ijtimoiy faoliyatlarida ko'zga tashlanib turishidan hamda ana shu munosabat, faoliyat, maqsad, ehtiyoj va intilishlar uchun ma'naviy asosdan biliib olsa bo'ladi.

O'zbek xalqining milliy qadriyatları va ularning aloqadorligi ifodasi bo'lgan qadriyatlar tizimi, millatimizning tarix silsilalari, zamona zayllari, turli ijtimoiy va siyosiy jarayonlar ta'sirida shakllanib keldi. Milliy qadriyatlarimiz millatning kelib chiqish xususiyatlari va hududiy makoni bilan bog'liq holda shakllandi. Qardosh xalqlarning ijtimoiy taraqqiyoti esa ularning milliy-hududiy qadriyatları ravnaqni

bilan uzviy aloqadorlikda davom etdi. Shu tariqa millatimiz o'ziga xos rang-barang qadriyatlarni takomillashtirib borishi natijasida, umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirib, uning qirralarini rivojlantirib bordi.

Milliy qadriyatlar tabiatiga ko'ra, tor doirada to'xtab qolmaydi, balki ravnaq topib, turmush jarayonida yangilanib, boshqa xalqlar qadriyatlarining yutuqlari bilan boyib boradi. Ayonki, har bir el, elat, urug' yoki xalqning urf-odatlarda o'ziga xoslik bo'ladi. O'ziga xos qadriyatlarni boshqa joyda, boshqacha tarzda yashayotgan kishilarning tarozisi bilan o'Ichash yoki bu masalada boshqalarning hakam bo'lishi maqsadga muvosif emas. Umuminsoniylik tuyg'usi faqat o'z xalqi qadriyatini ardoqlash, ko'z-ko'z qilish va boshqalar orasiga yoyish uchun intilishga asoslanmaydi, balki har bir xalq, elat, urug' qadriyatlarini qanday holatda bo'lsa, shundayligicha qabul qilib, ularni hurmat qilishdan boshlanadi.

Milliy qadriyatlarimiz rivojida islom dinining ahamiyati va o'rni juda katta bo'lib, u milliy qadriyatlarimizni boyitdi. Ayniqsa, xalqimiz ma'naviy qadriyatlarining takomillashib borishida islom dini keltirgan insonparvar g'oyalari sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi. Islom dini kelganidan keyin Markaziy Osiyo xalqlari hayotida diniy qadriyatlar tizimi yangilandi, zaminimizdan ko'plab mutafakkirlar, qomusiy olimlar etishib chiqdi. Shuningdek, bu din o'zining bunyodkorlik taomiliqa ko'ra ko'plab me'moriy obidalar, shaharlarning bunyod bo'lishiga sababchi bo'ldi.

Milliy qadriyatimizga aylangan islom dini g'oyalari va ko'rsatmalari millatimizning tabiiy-tarixiy rivoji, ijtimoiy turmushi, yashash tarzi, o'tmishi, kelajagi, madaniyati, ma'naviyati, urf-odatlari, an'analari, tili, u vujudga kelgan hudud va boshqalar bilan uzviy bog'langan. U milliy qadriyatlarimiz bilan xilma-xil shakllarda, bir-biri bilan uzviy aloqada namoyon bo'ldi, o'ziga xos milliy qadriyatlar tizimini tashkil qildi. Bu tizimda tabiiy-tarixiy birlikni ta'minlovchi qadriyatlar – yagona e'tiqodlilik, qarindoshlik, madaniy-ma'naviy yaqinlik, o'tmish va ma'naviy meros, ona yurt tuyg'usi va boshqalar barqaror hisoblanadi.

Inson huflq ahloqi, xatti -harakatlarini tartibga solish va boshqarishda ijtimoiy odatlар aloxida ahamiyatga egadir. Ahloq xulq namunalarining ko'p marta takrorlanishi kishi sezgisini mustaxkamlaydi va ularda odat tusiga kiradi. Shaxs xulq - atvori, odobini tartibga solishda turli tarbiyaviy metodlardan tashqari milliy urf - odatlarning ham xizmati katta bo'lib, ular ongni ortiqcha zo'riqishdan holi qiladi va kishilardagi istak va maqsadlar mushtarakligini yuzaga keltiradi. Ma'naviy kiyofani tarkib toptirishga asos bo'ladi.

Respublikamizda yashayotgan turli millat vakillari mashaqqatli va taraqqiyot sari olib boradigan nurli yo'lni milliy va islomiy qadriyatlarga sodiq qolgan holda bosib o'tdilar. O'zbekistonda islomiy qadriyatlarga hurmat azaliy yondashuv sanaladi. Xalqimizga xos bo'lgan mehmondo'stlik, birodarlik, dustlik, sadoqat

umuminsoniy hamjihatlikning asosini tashkil etadi. Mamlakatimizdagи ijtimoiy – iqtisodiy, madaniy-siyosiy yuksalish, millatlararo tolerantlik asosida tinchlik va xotirjamlik, barqarorlikni soqlab qolish yo’sidagi matonatli kurash, bag’rikenglik va vijdon erkinligi, ma’naviy merosimizni tiklash, milliy va islomiy qadriyatlarни e’zozlash, taraqqiyot sari bosqichma – bosqich harakat hamisha va har qadamda umuminsoniy mansaftlar bilan integrallashuv negizida amalga oshirib kelindi. Mustaqillikning ilk yillardanoq respublikamiz ravnaqiga eng katta to’siq – bu g’oyaviy bo’shiliq ekanligi har qadamda sezildi. Bugun jamiyatimizda inson kamoloti, yoshlarimizning hayotda o’z o’rinlarini topishlari uchun milliy va islomiy qadriyatlar uyg’unligi asosida sog’lom muhit va keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Maktab, litsey, kasb-hunar kollejlari va oliy o’quv yurtlarida milliylikka asoslangan diniy qadriyatlar farzandlar ongiga singdirilmoqda. Ammo ma’lum bir sabablarga, ayniqsa “ommaviy madaniyat” ta’siri ostida axloqsizlik, ota-onaga nisbatan loqaydilik, kattalarga nisbatan hurmatsizlik, xudbinlik kabilarning avj olayotganiga diniy bilimsizlik ham sabab bo’layotgani sir emas. Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni amalga oshirish yoshlarimiz ongiga milliy va islomiy qadriyatlar uyg’unligini singdirishda muhim ahamiyatga ega:

- yoshlarimiz ongiga nafaqat dunyoviy bilimlarni, balki milliy va diniy bilimlardagi ezgu qadriyatlarni singdirishni kengroq yo’lga qo’yish;
- milliy qadriyatlar asosidagi urf-odat, an’ana va marosimlarni mustaqillik davrida shakklangan yangi qadriyatlar bilan boyitish;
- milliy va islomiy qadriyatlar uyg’unligini halollik, bag’rikenglik, millatparvarlik, vatanparvarlik, axloqiylik, ilm-fanga va vatanga fidoiylik kabi tushunchalarini targ’ib qiladigan asarlar, videofilmlar, ko’rsatuv, eshittirish va tadbirlar orqali yoshlarimizga singdirish;
- jamiyatning ma’naviy yangilanishida Markaziy Osiyo Uyg’onish davri mutaffakkirlarining ma’naviy va ilmiy merosidan, jadidchilarimizning sabr – toqat bilan erishgan yutuqlardan unumli foydalanish;
- Oilalar va o’quv yurtlari hamkorligida mahallalarda milliy qadriyatlar ahamiyatini tahlil qilib beradigan tadbirlar o’tkazish;
- yoshlarga hayotning o’zi eng buyuk qadriyat ekanini ta’lim va tarbiya uyg’unligi asosida anglatib, inson jismonan va ma’nan sog’lom bo’lsagina oldida turgan barcha maqsadlarga erisha olishi to’g’risidagi uslub va vositalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Ayni paytda o’zbek milliy madaniyati, madaniy merosining necha asrlar davomida umumjahon madaniy merosi darajasida qaror topganligini dunyo e’tirof etmoqda, e’zozlamoqda. Ajodolarimiz yaratgan ezgu va muqaddas qadriyatlar ruvoj topib, insoniyatning kelgusi taraqqiyotiga ijobiy ta’sirini ko’rsatib, xalqlarni ma’naviy va ruhiy jihatdan buyuk o’zgarishlarga tayyorlab keladi. Yuksak

axloqlilikka intilish xalqimizning azaliy fazilatlaridan bo'lgani sababli mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi ham yuksak axloqli, ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalashdir.

Mamlakatimizda yoshlarning hayotda o'z o'rinnarini topishlari uchun olib borilayotgan islohotlar, avvalo, O'zbekistonda fuqorolik jamiyatni qurish va uning ravnaqi yo'lidagi sa'y harakatlardir. Birinchi Yurtboshimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: "Hammamizga teran bir haqiqat ayon bo'lishi kerak – biz yurtimizning ertangi rivoji yo'lida qanday chuqur o'ylangan dasturlarni tuzmaylik, bu rejalarни bajarish uchun qanday moddiy baza va imkoniyatlarni yaratmaylik, buning uchun qancha sarmoya safarbar etmaylik, ularning barchasini amalga oshiradigan, ro'yogha chiqaradigan qudratli bir omil borki, u ham bo'lsi , yuqori malakali ish kuchi va yurtimizning ertangi kuni, taraqqiyoti uchun ma'suliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan etuk mutaxassis yoshlарimiz, desak, o'ylaymanki , hech qanday xato bo'lmaydi". Etuk mutaxassis milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi asosida shakllanishi, oila , jamiyat, Vatan oldidagi ma'suliyatni teran anglaydigan shaxslar bo'lib etishishi katta ahamiyatga ega va bugunning talabidir.

Jamiyatning ma'naviy yangilanishi sharoitida yoshlarda milliy va islomiy qadriyatlar uyg'unligini shakkantirishning istiqbollarini belgilashda quyidagi tamoyillarga amal qilish maqsadga muvofiqdir:

- o'zbekona milliy qadriyatlarining betakrorligi va insonparvarligi;
- milliy qadriyatlarining asrlar sinovidan o'ta olganligi;
- milliy va islomiy qadriyatlar uyg'unligiga e'tiborning kuchayishi;
- diniy qadriyatlarining milliy qadriyatlarga bog'lanib ketgani;
- ijtimoiy taraqqiyot jarayonida milliy qadriyatlarining sayqallanib borishi;
- ta'lim va tarbiya uyg'unligiga qadriyat sifatida qaralayotganligi;
- insonning eng oliy qadriyat ekanligi;
- ma'naviy merosning qadriyat sifatida e'zozlanayotganligi va hakozo.

Demak, milliy taraqqiyot qadriyatlarga bo'lgan ehtiyojni mudom aniqlashtirib borishni, milliy va islomiy qadriyatlarga dialektik nuqtai nazardan yondashishni taqozo etadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, milliy va islomiy qadriyatlarimiz asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelgan, hozirgi kunda ahamiyati yanada kuchaygan, iftixorimizga aylangan durdonalardir. Bunday bebaaho qadriyatlarga ega, asrlar sinovida toblangan, ko'pni ko'rgan, bugun erkinlik havosidan nafas olib yashayotgan, o'z qadr-qimmatini, insoniy sha'nini, ne-ne ulug' zotlarning vorislari ekanini, o'zligini anglagan, milliy g'urur va iftixorini tiklagan, xalqaro maydonda o'ziga munosib o'rin egallab borayotgan, o'z kuchi va ertangi kuniga ishongan,

yurti, farzandlarining kelajagi farovon bo'lishiga intilayotgan xalqimiz bundan keyin ham yanada yuksak marralarni zabit etaveradi.

Fuqarolik jamiyatida shaxs qadr-qimmatining qadriyat sifatida namoyon bo'lishi. Yunonistonlik buyuk faylasuf Suqrot o'z davrida "Qadriyat nima?" degan savol "o'zlikni anglash" deb javob qaytargan.

Inson tabiatning oliy darajadagi mahsuli bo'lganligi uchun aqliy mavjudot sifatida ongli o'zgartiruvchilik faoliyat ko'rsatishi tufayli o'zlikni anglaydi va yashash uchun moddiy hamda ma'nnaviy boyliklarni yaratadi. Ulug' mutafakkir Abduxoliq G'ijduvoniy insonni "kichik olam" deb atashi bejiz emas, chunki jamiyatning, ijtimoiy hayotning mohiyati va mazmuni bevosita aqliy mavjudot hisoblangan insonda mujassamlashgandir.

Inson bo'lgan joyda qadriyatlarni e'zozlovchi ijtimoiy-axloqiy muhit bo'lishni hayotning o'zi taqozo etadi. Chunki ijtimoiy hayotning asosiy mohiyat va mazmuniini insoniylik mezoni tashkil etadi. Insoniylik esa, o'z navbatida, har bir odam aqli, odobi, zakovati, iymoni asosida o'zini anglagan, ijtimoiy burchini bila olgan holda faoliyat ko'rsatsa kishilik jamiyatik gumanistik tamoyil asosida barqaror ish olib borishi uchun yaratilgan bo'ladi.

Demak, fuqaroning aql-zakovoti, ruhiy-ma'nnaviy kamoloti yuqori saviyada bo'lganidagina fuqarolik jamiyatini barpo etishga zamin yaratish mumkin bo'ladi. Chunki tabiatning oliy mahsuli, gultoji bo'lgan inson aql-idroki bilan ijtimoiy hayotdan o'z o'rnni egallashi uchun doimiy ravishda intellektual (aqliy) saviyalarini takomillashtirib boradi va bu o'z navbatida adolatli ijtimoiy-ma'nnaviy hayotni, turmush tarzini, xullas, fuqarolik jamiyatini barpo etishga zamin yaratadi. Shuning uchun ham fuqarolik jamiyatini barpo etishning qon tomiri, bosh mezoni insonni qadrlash, insoniylikni taraunnum etishdan iborat.

Birinchi Prezident I.A.Karimov ma'nnaviyat, axloq-odob, ma'rifat kabi o'lmas qadriyatlar hayotimizning markazida turmog'i kerakligini ta'kidlab: "Men umuminsoniy qadriyatlar rivojini har bir xalq madaniyati va o'ziga xosligining o'zaro uyg'unlashuvida deb bilaman. Madaniyatlarning shu tarzdagi uyg'unlashuvigina umuminsoniy madaniyat va butun tsivilizatsiyaning go'zalligi va qadr-qimmatini yaratadi<sup>1</sup>- deydi. Inson va uning istiqololiyi faqatgina bitta millatga mansub bo'lib qolmasdan, balki respublikamizda va mustaqil hamdo'stlik mamlakatlarida, qolaversa, er yuzida yashayotgan barcha elat, millat va xalqlarga xos bo'lgan umuminsoniy qadriyatlar yo'nalishi bo'lar ekan, unda bu jarayon umummilliy qadriyatlarni ham e'zozlovchi gumanistik maskurasiga asoslanishi lozim.

<sup>1</sup> Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'llimiz bilan quramiz. T., "O'zbekiston", 1999. 7-tom, 194-b

Umuminsoniy va umummilliyl qadriyatlar haqida so'z borganda ana shu jihatlar birligi o'z aksini topadi. Umummilliyl qadriyat muayyan elat, xalq va millatga mansubdir. Har bir elat va millatning o'ziga xos, uning milliy ruhiyati, yashash tarzi, tarixiy an'analari va fikrlesh qobiliyatları tabiatini ifodalaydigan ma'naviyati mavjud.

O'zbek xalqi milliy qadriyatlarini xarakterlaydigan o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: yuksak insonparvarlik, bag'rikenglik, mehmono'stlik, hamima millat va elat vakillariga izzat-hurmat ko'rsatish, kattalarga izzat-ikrom, mulohazalilik, sharm hayolilik, bolajonlik, hamdardlik, mahalladoshlik, halollik va boshqalar. Bu va shunga o'xshash o'zbek milliy qadriyatlar O'zbekistonda yashayotgan har bir kishining ko'nglida g'ururlanish hissiyotini paydo qiladi va bu bilan haqli ravishda faxrlanadi. Bu – o'zbek xalqining, millatning o'zligini anglagan holda aqliy-intellektual qobiliyati, salohiyati, saviyasi tsivilizatsiyalashgan jahon xalqlaridan qolishmasligini, ular bilan teng muloqtda bo'laoladigan darajada zakovatga ega ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritganidan keyin BMT a'zoligiga qabul qilinganidan so'ng, ko'plab xorijiy davlatlar uni tan olishi va ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy sohalar bo'yicha ko'plab bitimlar tuzishi ham umummilliyl qadriyatimizning e'zozlanishi bo'lib hisoblanadi.

Lekin bundan umummilliyl qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlarini tamoman rad etadi, degan ma'no kelib chiqmaydi. Chunki umummilliyl qadriyatlar bo'lgan joyda umuminsoniy qadriyatlar bo'lishi shart. Inson tafakkurining shakllanish jarayoni umummilliyl negizida namoyon bo'lishi evazida umuminsoniy ma'naviy qadriyatlar tarkib topib jamiyat taraqqiyoti bilan birga rivojlanib boradi.

Umuminsoniy ma'naviy qadriyatlar milliy qadriyatlar negizida shakllanib, kamol topib boradi. Lekin shunga qaramay, u mazmun jihatdan chuqur va boydir. Chunki umuminsoniy ma'naviy qadriyatlarda barcha millatlar, elatlari va xalqlarning maqsad va intilishlari birligi va umumiyligi o'z aksini topishi lozim.

Umuminsoniy ma'naviy qadriyatlar barcha xalq va elatlarga xos bo'lgan, ularning insoniy fazilatlarini ifodalaydigan an'analar, urf-odatlar, intilishlar, g'oyalar, sog'lom fikr, yuksak did bilan baholash qobiliyati, shu asosda qilinadigan harakat va faoliyat va hakozolar bo'lib, undan unumli foydalananishumumbashariy muammolarni to'g'ri hal qilishga ko'p jihatdan ijobjiy ta'sir etadi. Insoniyatning omon qolishi, ularning huquq va erkinliklari, xalqlarning har tomonlama hamkorligi, ekologik va energetik muammolar, umuminsoniy boy tarixiy meros, umuminsoniy fazilatlar, hozirgi dunyoning yaxlitligi, o'zaro bog'liqligi va boshqalar shular jumlasidandir.

Umuminsoniy ma'naviy qadriyatlarning ustuvorligi ayni bir vaqtida milliy qadriyatlarini mustahkamlanib borishga yordam beradi. Jahon tsivilizatsiyasi

taraqqiyotining hozirgi bosqichida, bir tomondan, umummilliy qadriyat, ikkinchi tomondan, umuminsoniy ma'naviy qadriyatning ahamiyati oshib bormoqda. Hozirgibozor iqtisodiyoti sharoitida milliy munosabatlarning xalqaro muosabatlar darajasiga ko'tarilishi kuzatilmogda. Bu bilan umuminsoniy qadriyatlarning roli ham ortib borayotir.

O'zbekiston milliy ma'naviyati umumjahon ma'naviyati taraqqiyotida munosib o'mini egallab kelmoqda. Buning yorqin isboti sisatida Imom at-Termiziy tavalludining 1200 yilligi, Amir Temur tavalludining 660 yilligi, Avestoning 2700 yilligi, Ulug'bek, Navoiy, Farg'oniy yubileyлari xalqaro tashkilot hisoblangan YuNESKO rahnamoligi va ishtirokida o'tkazilganligini ko'rsatish mumkin.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyatni barpo etilayotgan hozirgi vaqtida harbir fuqaro o'zligini chuqur anglashi, boy milliy ma'naviy merosini egallashi, boyishini umuminsoniy ma'naviyat bilan uyg'unlashuvni negizida amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Fuqarolik jamiyatini barpo etish bevosita har bir shaxsning ma'naviy jihatdan etuk kamol topgan bo'lishini hayot taqozo etadi.

Ongli, ijtimoiy sub'ekt -inson ijtimoiy-siyosiy hayotda ozod, erkin yashashga intilar ekan, jamiyat Vatan, xalq, millat oldidagi fuqarolik burchini his qilishi lozim. Bu birinchidan, har bir kishi o'zining kundalik ongli – amaliy faoliyati ustidan doimiy nazorat qilib borishi; ikkinchidan, jamiyat, Vatan va xalqqa foyda keltiradigan umuminsoniy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga riosa qilishdan iborat. Ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni kamol toptirish maqsadida qabul qilingan "kadrlar tayyorlash milliy dasturi" bu borada olg'a tashlangan qadam bo'ldi. Maktab, gimnaziya, litsey, kollej, milliy hunar olish, hunar o'rganish uchun barcha sharoitlarni yaratib bu davlat dasturida o'z aksini topganligini fuqarolik jamiyatining ma'naviy dunyosini shakllantirish yo'lida tashlangan qadamlar bo'lib hisoblanadi.

inson erkin, ozod yashashga intilishi jarayonida moddiy noz-ne'matlarga bo'lgan ehtiyojini qondirganidan keyin ma'naviy dunyosini kengaytirishga intilishi hayotiy zaruriyatdir. Chunki fuqaro to'q bo'lganidan keyin birovi kitob o'qigisi, boshqasi kino, teatr ko'rgisi keladi, yana birovi ilm olgisi, teleko'rsatuvni tomosha qilgisi, badiiy havoskorlikka qatnashgisi, sport bilan shug'ullangisi keladi. Demak, har bir fuqaroni yoshligidan boshlab aqliy-intellektual qobiliyatlarini, o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda, ularning ma'naviy-axloqiy va ma'rifiy saviyalarini shakllantirib borish zarur.

Qadriyatlar insoniyat tarixi davomida shakllanadi, ularning miqdori va sifatini ortishi insoniyat taraqqiyoti qanchalik rivojlanganligidan dalolat beradi. Insoniyat boshidan o'tkazgan son sanoqsiz urushlar natijasida tinchlik ham umuminsoniy qadriyatga aylandi.

Odatda urush muayyan mamlakat doirasida yoki uning tashqarisida, turli davlatlar o'rtasidagi muammoli masalalarni hal qilishda siyosiy zo'ravonlik qilish

yoxud uni istisno etishni bildiradi. Ana shunday kuchlar yozma tarixiy manbalarni guvohlik berishicha so'ngi 6 ming yil davomida sayyoramizning 15 mingdan ziyod urushiga sabab bo'lgan. Insoniyat tarixi atigi 300 yilgina urushsiz o'tganligiga amin bo'lamiz.

Amerikalik olim R.Klarkning "Urush ilmi va tinchlik" nomli kitobida bayon etilgan ma'lumotlarga ko'ra turli davrlarda yuz bergan urushlar tahlili shundan dalolat beradiki, 1820-1859 yillarda er yuzida 1 milliard aholi yashagan bo'lib, ushbu yillarda 92 ta urush harakatlarida 80 million odam halok bo'lgan. 1860-1899 bo'lgan 106 ta urushda 1,3 million, 1900-1949 yillarda esa 117 ta urush 142,5 million kishi umriga zomin bo'ldi.

Yuqoridagi daiillar ko'rsatib turibdiki, urush va qurbanlar soni aholining o'sishiga qaraganda tezroq ko'paygan. R.Klark kitobida yozilishicha urushlar va ularda halok bo'lgan qurbanlar sonining ortib borayotganligi natijasida shunday kun kelishi ehtimolki, unda sayyoramiz aholisining aksariyati qirilib ketishi mumkin. Hozirgi kunda halqaro munosabatlarda qudratli davlatlar geosiyosiy mansaftalarini amalga oshirishda zo'ravonlikka moyillik bildirmoqda. Bunda aksariyat rivojlangan davlatlar hali hanuzgacha yalpi qirg'in qurollarini ko'plab ishlab chiqarish bilan harbiy qudratga erishishni o'z tashqi strategiyasining mazmuniga aylantirmoqda. Yadroviy qurollarga ega bo'lgan davlatlar soni bugunga kelib ettitaga etdi. Bu esa yadro urushi havfini yuzaga keltiradi. Bilamizki, termoyadro urushlari butun insoniyatni qirilib ketishiga olib kelishi mumkin. Chunonchi 1945 yil 6 va 9 avgustda kam quvvatli atom bombalaridan bir nechtasini Amerika harbiylari Xirosima va Nagasaki shaharlari ustida portlatilganligining mudhish oqibatlari ham buni yaqqol ko'rsatganligi hammaga ma'lum.

Butun insoniyat hamjamiyatida 60 yildan ziyodroq vaqt mobaynida tahdid solib turgan atom quroli dahshati ehtimol, matematikaning hozirgi muvaffaqiyatlardan foydalanib, modellashtirish qo'yidagicha manzarani gavdalantirmoqda:

1. Hozirgi davrda to'plangan 50 mingdan ziyod yadro zaryadlarini 100-150 mega tonna quvvatga ega bo'lgan qismi mabodo portlatilsa, Amerika, Evropa va Osiyodagi asosiy shaharlar yonib ketishi mumkin. Bir oydan so'ng Er ustidagi atmosfera harorati  $15-20^{\circ}$  ga pasayib, uning tserkulyatsiyasi tubdan o'zgarishi mumkin;

- 2.Unda shimoliy yarim shardan Janubga tomon tarqaladigan nur o'tkazmaydigan qora qatlam butun Er yuzini qoplab olishi ehtimoli bor;

- 3.Chuchuk svuning hamma manbalari muzlashi butun ekologik kommunikatsiyalar buzilishi, dehqonchilik hosillari emirilishi mumkin, bularsiz esa hayotda assimilyatsiya va dissimilyatsiya to'xtaydi, ya'ni u mangu yo'qoladi;

4.Okeanlarda ham xuddi shunday hodisa yuz beradi, chunki suvda temperaturani tez o'tkazish xususiyati bor.

Yuqoridagi va shular kabi salbiy omillar shundan dalolat beradiki, hozirgi kunda jahonning etti davlat ega bo'lib turgan yadro quroli siyosat vositasigina bo'lib qolmasligi, balki insoniyatning o'z – o'zini halok etish quroli ekanligi shubhasizdir.

Amerikalik olim S.Xantington o'zining "Tsivilizatsiyalar to'qnashuvi" nomli kitobida o'zining milliy qadriyallariga nisbatan sodiqlik va boshqa madaniyatlarini moslashtirib olishi (adaptatsiya) sharofati bilan Osiyo XX asr boshidan G'arb mamlakatlari g'oyalarining import qilish uchun kurash maydoniga aylandi, deb ta'kidlaydi.

Respublikamizdagи barcha millat vakillarining ahil – inoq, do'st – birodar bo'lib bir – birlarining qadriyatlарини hurmat qilgan tarzda yashashlari mamlakatimizda tinchlik, osoyishtalik hamda barqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi. Qadimdan o'zining mehmondo'stligi, ochiq ko'ngilligi, mehr – oqibati, tinchliksevarligi bilan tanilib kelgan xalqimizning ma'naviy – axloqiy qadriyatlарини tiklash, ularni yanada ravnaq toptirish – bugungi o'zgarib borayotgan kundagi asosiy va ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Butun dunyoda tinchlikni taminlashda Birlashgan Millatlar Tashkilotining roli va ahamiyati katta. Xalqaro tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash, teng huquqlilik va o'zaro hurmat tamoyillari asosida xalqlarning o'zları belgilaganlaridek millatlar o'ttasidagi do'stona aloqalarni rivojlantirish, millatlarning ushbu umumiy maqsadlarga erishuvida hamkorlikdagi harakatlarning markazida bo'lish kabi maqsadlar Birlashgan Millatlar Tashkilotining asosiy maqsad vazifalaridan hisoblanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti qo'yidagi tamoyillarga asoslanib ish olib boradi: U barcha mamlakatlarning suveren tengligiga asoslanadi. Ular o'zlarining xalqaro munozaralarini tinch yo'l bilan, xalqaro tinchlikka va xavfsizlikka, adolatga tahdid solmasdan hal qilishlari kerak. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyası 2001 yil 7 sentyabrdagi rezolyutsiyasida 2002 yildan boshlab Xalqaro Tinchlik kunini 21 sentyabr kuni nishonlash taklifini kiritdi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti barcha davlat va xalqlarni ushbu kunda urushlarni to'xtatish hamda a'zo davlatlarni Xalqaro tinchlik kunini nishonlashni keng jamoatchilikga xabardor etishga chaqiradi. 1954 yilning iyun oyida Yaponiya Birlashgan Millatlar Tashkilotiga "Tinchlik qo'ng'iroq'i"ni in'om etdi. U dunyoning 60 mamlakati bolalari tomonidan to'plangan tangalardan qayta quyilgan bo'lib, sarv daraxtiga biriktirilgan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nyu-Yorkdagi bosh qarorgohida joylashgan qo'ng'iroq 21 mart hamda 21 sentyabr kunlari bir yilda ikki marotaba chalinadi. Qo'ng'iroqda quyidagi yozuv bor: «Butun jahonda tinchlik barqaror bo'lsin». Mamlakatimizda Xalqaro Tinchlik kuni 2007 yildan beri nishonlanmoqda.

XX asrning oxirida dunyoda jahonshumul voqealar ro'y berdi. Uning siyosiy xaritasi, jumladan, Markaziy Osiyoning manzarasi tubdan o'zgaribketdi. Sobiq Ittifoqning parchalanishi, uning hukmron masjurasingin barbod bo'lishiga olib keldi. Chunki kommunistik masjura aynan biz yoritmoqchi bo'layotgan milliy manfaatlarni, milliy dunyoqarashni, tub aholi turmush tarzi qadriyatlar va an'analarini o'zida ifoda etolmagani uchun ham inqirozga uchradi.

Mustaqillik sharoitida esa millat, millatlararo munosabatlar, milliy madaniyat, yaqin qardosh xalqlarning madaniy merosi, etnik muammolar, jug'trofij va iqtisodiy birligi haqidagi tasavvurlarimiz o'zgarmoqda. Globallashuv sharoitida vujudga kelayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar Markaziy Osiyo mamlakatlari xalqlari tarixi, ularning kelibchiqishi, o'ziga xos turmush tarzları va yaqin qo'shnichilik munosabatlariga har qachongidan ham boshqacharoq qarashni taqozo etmoqda. Zero, etnik jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan, tarixan bir muhitda yashab, biroq, ayni paytda mustaqil davlat bo'lib yashayotgan mamlakatlar o'z tarixiy ildizlarini qidirib topishini, o'zaro hamkorlik munosabatlarini qaytadan tiklashini hayotning o'zi zarurat darajasiga ko'tarmoqda.

XXI asrga kelib xalqaro munosabatlarda hududiy daxlsizlik tamoyilining mustahkamlanishi, ochiqdan-ochiq agressiv harbiy harakatlarni olib borish ta'qilandi. O'zaro munosabatlarda tenglik, hurmat va manfaatlari hamkorlik qilish qoidalari rasmiylashdi. Biroq, bu bilan ayrim davat va kuchlarda boshqa xalqlar, hududlar, ulardag'i er osti va er ust'i boyliklar va boshqa resurslarni tasarruf etish mayli susaygani yo'q. Bu esa mustabidchilik masjurasingin yangi mazmundagi g'oyalilar bilan boyishiga, zamonaviy shakllarda namoyon bo'lishiga olib keldi.

O'z navbatida, "urush" tushunchasining ham mazmuni kengayib bordi. V.Slipchenkoning fikriga ko'ra, bugungi kunga kelib, "... urush murakkab ijtimoiy-siyosiy hodisa bo'lib, turli ko'rinishdagi kurashlar majmuasini tashkil etadi. Davlatlar va turli sotsial tizimlar o'rtasida kechadigan siyosiy, iqtisodiy, harbiy, axborot va boshqa shakldagi kurashlar shular jumlasidandir".

Hozirgi rivojlangan mamlakatlarda davlatlararo mintaqaviy hamkorlik siyosiy va iqtisodiy mazmundan birmuncha boshqacharoq -ma'naviy-masjuraviy mazmun kasb etmoqda. Bu hozirgi zamon jahon tsivilizatsiyasining eng ilg'or yo'nalishlaridan biri sifatida tan olinmoqda.

Markaziy Osiyo Hamdo'stligi mamlakatlari jahonning boshqa ittifoqdosh va mintaqaviy hamkorlik mamlakatlaridan farqli o'laroq, ma'naviy va madaniy hamkorlikka ko'proq asoslanadi. Chunki bu hududda asrlar mobaynida ma'naviyat, din-axloq, ta'lim-tarbiya va madaniyat uyg'un holda turmush tarziga aylangan. Axloq har qanday sharoitda insoniylikning bosh tamoyili sifatida tan olingen. Qolgan barcha harakatlar va mezonlar, jumladan, iqtisodiy hamkorlik, o'zaro yordam, bozor munosabatlari, savdo-sotiq, mol ayirboshlash ham qadimdan yuksak

odob va axloqqa tayangan ma'naviy-mafkuraviy munosabatlarning bir qismi hisoblangan. Ruhiy, ma'naviy yaqinlik umuminsoniy qadriyatlarning keskin rivojlanishiga asos bo'lgan. Xalqimizning hozirgi milliy-axloqiy qadriyatlar tizimiga: do'stlik, insonparvarlik, mardlik, mehmondo'stlik, bolajonlik, or-nomus, milliy g'urur, vazminlik, mehnatsevarlik, bag'trikenglik singari fazilatlar kiradi. Axloq va odob borasidagi milliy qadriyatlarning o'zaro birlashib, yaqinlashib borishi taraqqiyot qonunidir. Lekin har bir millatning o'zigagina xos bo'lgan ijtimoiy, ma'naviy, milliy axloqiy qadriyatlari butunlay birlashib, uyg'unlashib ketmaydi. O'z milliy qadriyatlarini chuqur bilgan odamgina boshqa xalqlarning madaniy merosini o'rganishga ehtiyoj sezadi va qadriga etadi.

Odamlarning xatti-harakati, vogelikka va har qanday yangilikka munosabati, eng avvalo yuksak axloq-odob, sharqona vazminlik, eng qiyin va murakkab sharoitlarda ham turli shaxsiy manfaatlarni umum davlat va umumxalq manfaatlarni ustun qo'yish, jamoa bo'lib yashash kabi insoniy fazilatlarga qaratilgan. Ushbu milliy qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko'tarilmoqda. Natijada turli millat va aqidalarga ega bo'lgan ko'pmillatli mamlakatda millatlararo totuvlik to'la ta'min etilmoqda. Endi inson qaysidir millatga mansubligidan ko'ra, ko'proq qaysi mamlakat fuqarosi ekanligi, qanday tarixiy tajriba va an'analarga vorisligi bilan faxrlanadigan bo'limoqda.

Har bir millatning o'ziga xos fazilatlari kamol topishi uchun imkon yaratadi. Hozirda BMTga jahonning 189 davlati a'zo bo'lib kirgan, ularning har biri bir-biriga o'xshamagan milliy jihatlar va qadriyatlarga ega.

Shu bilan birga, milliy madaniyatlarning bari umuminsoniy qadriyatlarga asoslanadi. Bu qadriyatlar markazida esa inson, uning erki, qadri, ma'naviy go'zalligi, milliy g'oya bilan sug'orilgan aqli turadi. Aynan umuminsoniy qadriyatlar milliy ma'naviyat bilan uyg'unlikda xalqlarni ma'naviy-mafkuraviy birlikka, hamkorlikka chorlaydi. Umuminsoniy qadriyatlar aynan milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan holdagini namoyon bo'la oladi.

Adolat tenglik va taqdirlashning zaruriy o'Ichovi sifatida kishilik jamiyatni taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida vujudga keladi. Etnograflarning tadqiqotlari ko'rsatadiki, ibridoij urug'chilik tizimi darajasidagi xalqlarda tenglik va taqdirlashning muayyan me'yorlari mavjud bo'lib, ular an'ana va urf-odat tarzida ixtiyoriy qabul qilingan.

Narsa-hodisalar, ibridoij vogeliklar vaqt hisobiga o'zgarib, rivojlanib borganidek, adolat tushunchasi ham zamon xarakteriga qarab doimiy ravishda o'zgarib borgan. Ibtidoij jamoa tuzumi davrida kishilar qo'lga kiritilgan o'ljalarni teng taqsimlash, ajdodlarni hurmat qilish, bolalarga g'amxo'rlik qilish, ijtimoiy majburiyatlarni ixtiyoriy bajarish har kimning xizmatiga yarasha taqdirlash kabi an'analar amal qilgan.

Jamiyat rivojlanishi jarayonida kishilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarda tenglikni o'rnatish va taqdirlashni to'g'ri yo'lga qo'yish zarurati tufayli adolatning xilma-xil jihatlari yuzaga keladi. Ular rivojlanib, falsafiy tasavvurlar zaminida ko'lami kengayib, mazmumian boyib boradi. Shaxs axloqiy ongingin ratsionallashuvi, ya'ni uning tarkibida mantiqiy elementlar ahamiyati adolatni anglab etish darajasi yuksaladi.

Adolatning mohiyati masalasi barcha davrlarda ijtimoiy-falsafiy va mafkuraviy ahmiyatga ega bo'lgan. Mutafakkirlar adolatni axloq, huquq va siyosat bilan uzvii bog'liq holda tahlil qilishgan. Ular adolatning ijtimoiy tabiatini axloqiy, siyosiy va huquqiy sohalardan kelib chiqqan holda baholashgan. Adolatning namoyon bo'lishi tabiat, davlat, jamiyat va insou ma'naviyatining tarkibiy qismlari bilan bog'liqlikda amalga oshadi. Bu o'z navbatida adolatning tarkibiy qismlari va mazmum-mohiyatini tadqiq qilishda ancha murakkabliklar tug'diradi. Murakkabliklar adolatning axloq, huquq, davlat boshqaruvi, din, ijtimoiy hayot, ijtisodiyot va boshqa sohalarda o'z talqiniga egaligidan kelib chiqadi. Zotan falsafiy adabiyotlarda ijtimoiy adolat, huquqiy adolat, siyosiy adolat, diniy adolat, axloqiy adolat, milliy adolat, iqtisodiy adolat, kasbiy adolat kabi atamalar va ularning o'ziga xos talqini mavjudligi bejiz emas. Adolatning ko'pqirraligi yana shunda ham namoyon bo'ladi. ijtimoiy tarraqqiyot ilgarilab borgani sari uning yangi jihatlari ham shakllanib boradi.

Adolatning qaysi jihat ochib berilmasin, uning axloqiy mazmuni bevosita namoyon bo'laveradi. U siyosiy, huquqiy, diniy, iqtisodiy, milliy, xatto, xalqaro adolat bo'lganida ham, baribir, axloqiy adolat me'yorlari ko'zga tashlanadi.

Axloq – o'zgaruvchan, murakkab tushuncha. Boshqa ijtimoiy ong shakllari singari axloqning tuzilishini ham ijtimoiy munosabatlar belgilaydi. Axloq – kishi va jamiyat o'rtasidagi obektiv o'zaro bog'lanishning mafkuraviy va psixologik namoyon bo'lishi, umumiy va individual manfaatlarni muvofiqlashtirish zaruratining ifodasıdir. Shu ma'noda shaxs va jamiyat o'rtasida yuzaga keladigan ziddiyatlarni bartaraf etishning asosiy usullaridan biridir.

Ijtimoiy munosabatlar xatti-harakatlar jarayonida namoyon bo'ladi. Axloq shunday xatti-harakatlarning mazmuni sifatida yuzaga chiqadi. Shu bois adolatning har bir jihat ro'yobga chiqarilishida uning axloqiy tomoni doim u bilan birga namoyon bo'ladi. Shunday ekan, adolatning axloqiy jihatini o'rganmasdan, uning boshqa shakllarini mufassal tadqiq etib bo'lmaydi.

Adolatning axloqiy mazmuni kishilar ehtiyojlari bilan bevosita bog'liqlikda bo'ladi. Forobiyning ta'kidlashicha, kishilar moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirish, ma'naviy yuksaklikka etishish uchun jamoaga birlashadilar. Zero bir kishi o'z ehtiyojlarini, turli tafablarini mukammal qondira olishi mutlaqo mumkin emas.

Buning uchun u jamiyat yordamiga muhtojdir. Ana shu o'zaro yordam tufayli shaxs ehtiyojlari qondiriladi .

Har bir inson o'z ehtiyojlarini qondirish uchun imkon yaratish maqsadida o'zgalar bilan munosabatga kirishsa ijtimoiy munosabatlar vujudga keladi. Adolat har bir inson, jumladan, o'zi va o'zgalar qadrini amaliy sharoitda, muayyan makon va zamonda, aniq o'chovlarda anglab eta bilishi, shunga muvofiq uni hayotga tadbiq eta bilishida namoyon bo'ladi.

Axloqiy jihatdan adolat – jamiyatning, insonlarning tabiiy va ijtimoiy tafovutiga qaramay, oliv qadriyat deb tan olishi, ularning qadr-qimmatini himoya qilishdir.

Masalaga yanada yaqinroq yondoshsak, axloqiy adolat: a) shaxsiy munosabatlarda yaxshilikka yarasha yaxshilik, hurmatga yarasha hurmat ko'rsatishdir; b) jamiyat va shaxs munosabatlarida – shaxsning jamiyat axloqiy talablarini o'z ijtimoiy burch va vazifalarini ongli va halol bajarishi; v) jamiyat va shaxs munosabatlarida jamiyat tomonidan insonning qadr-qimmatini, huquq va erkinliklarini tan olinishi va himoya qilinishi, shaxsning jamiyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasiga muvofiq tarzda taqdirlanishidir.

Adolat axloq kategoriyalari bilan birga namoyon bo'ladi. Insoniy munosabatlardagi tenglik, o'ziga ravo ko'rgan narsani o'zgalarga ravo ko'rish, o'zgalarni tahqirlamaslik, izzat-nafsiya tegmaslik, tabiiy kamchiliklarini yuziga solmaslik, zulm o'tkazmaslik yaxshilik (ezgulik)ka asoslangan tushunchalar zaminida hosil bo'ladi.

Axloqiy adolat umumiyligi va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ularning umumiyligi xususiyatlari asosida axloqiylikka asoslangan munosabatlar yotadi. Bunda axloqiylik shaxslarning o'zini ko'rsatish emas, balki har qanday tashqi ta'siridan holi hayotiy maqsadni ifoda etadi. Hayotiy maqsadlar insonni o'zgalar bilan munosabatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Aytaylik, biror kishi boshqa shaxsdan foyda olmoqchi bo'lsa, u shaxsga nisbatan yaxshi va samimiyligi munosabatda bo'ladi. Shu orqali kishi o'z maqsadiga tez etishishi mumkin. Shuningdek, kishining hayotiy maqsadlari faqat bugungi kuni bilan chegaralanib qolmaydi. Inson jamiyat a'zosi ekan, u ijtimoiy munosabatlar tizimida yashaydi. Shaxs ertangi kunda boshqa shaxslarga nisbatan ehtiyojlari paydo bo'lishi mumkinligini his qilib yoki instinctiv ravishda boshqalarga nisbatan axloqiy tamoyillar asosida munosabatda bo'ladi. Bu narsa muayyan shart-sharoitning umume'tirof etilgan va qabul qilingan axloq tamoyilliari va me'yorlariga bog'liq bo'ladi.

Axloqiy adolat muayyan shart-sharoit, shaxs ruhiyati, xohish va orzu-istiklar kabi omillar bilan uzviy aloqada bo'ladi. Ular muayyan tarixiy taraqqiyot, jamiyat manfaatlari, oila, qarindosh-urug'chilik, mahalladoshlilik, do'stlik, jamoadooshlik kabi tushunchalar bilan bog'liq ravishda vujudga keladi. Bundan tashqari do'stlikka

sadoqat, o'zaro hurmat, majburiyat va burchni boshqarish, rahm-shafqat, hayr-ehson, sabr-qanoat, shaxsiy burchni chuqur anglash, o'zi va o'zgalar mehnatini qadrlash, halollik, haqiqatparvarlik, kamtarinlik kabi fazilatlar ham axloqiy adolatning ifodasidir. Chunki bu fazilatlar ko'rsatma asosida emas, balki shaxsnинг ijtimoiy munosabatlardagi ruhiy maqsadi bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, axloqiy adolat insonning jamiyat va kishilar manfaati yo'lida o'zaro munosabatlarda tenglik tamoyillariga rioya qilish, o'zgalarni kansitmaslik, samimiy munosabatda bo'lish, rahmdillik yo'lida foyda olish bilan shartlanmagan me'yorlar tizimidir.

### Foydalaniладиган адабиётлар ро'yxати

#### Rahbariy адабиётлар:

1. Mirziyoyev Sh.M. – Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., O'zbekiston. 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. – Tanqidiy taxtil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T., O'zbekiston. 2017.

#### Darsliklar va o'quv qo'llanmalar:

1. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. G.'Q.Nazarov tahriri ostida. –T.: Sharq, 2004
2. Nazarov Q. Aksiologiya – qadriyatlar falsafasi. –T.: O'FMJ, 2004.
3. Аристотель. Никомохова этика / Аристотель. Сочинение. В 4 х-т. -М.: Мысль, 1984. Т. 4. С. 55-62.
4. Muhammadiev N.E. Ichki ishlar idoralari xodimlarining kasb etikasi va estetik madaniyati. Darslik –Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 1998. -6 b.
5. Muhammadjonova L.A. Amaliy etika va estetika. O'quv qo'llanma – T.: "Mumtoz so'z" 2022 yil.
6. L.Muxammadjonova, S.Alimov, Sh.Rajabov. Notiqlik san'ati. O'quv qo'llanma – T.: "Mumtoz so'z" 2022 yil.
7. Аззамова Н. "Философия нравственности". Дарслик Т.: Университет. ЎзМУ, 2022 yil.
8. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. –Toshkent: O'zbekiston Faylasuflari milliy jamiyatni nashriyoti, 2010. -8 b.
9. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. 12 tomlig. –Toshkent: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. T.1. -530 b.
10. Falsafa: qomusiy lug'at. Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov. – Toshkent: "Sharq" nashriyot –matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2004. -40 b.
11. М. Каххарова, Н Аззамова. Этика Учебное пособие. Ризограф имени Низами. 2018 год.
12. L.Muhammadjonova, F.Abidjanova. Etiket. O'quv qo'llanma. T.: Universitet. O'zMU, 2018.

13. Nurmataova M., Muhammadjonova L., Ma'naviyatning axloqiy asoslari.-T.: Universitet, O'zMU. 2013.
14. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.
15. Husanov B., Gulamov V. Muomala madaniyati. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya. 2009.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Al-Faqih Abu Lays as-Samarqandiy. Tanbebul-g'ofiliyn.Birinchi kitob.-Toshkent: Movarounnahr, 2003.
2. Риккерт Г. О понятии философии. – «Логос», Кн.1. Спбю.ю 1910. 33-б.
3. Nurmataova M., Muhammadjonova L., Ma'naviyatning axloqiy asoslari.-T.: Universitet, O'zMU. 2013.
4. Nurmataova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. – T.: Universitet, 2009.
5. Tulenov J.T. Dialektika nazariyasi. -Toshkent: O'zbekiston, 2001. -264 b.
6. Гусейнов А.А., Апресян Р.Г. Этика: Учебник – М.: Гардарики, 2004. -26 b.
7. Muhammadjonova L.A., Ortiqova D.O., Abidjanova F.A., Masharipova G.K. Professional etika va etiket. Darslik. - T.: "Adabiyot uchqunlari" 2018.
8. E.Umarov., F.Zagritdinova. "Etika. Prikladnaya etika". -T.: Noshir, 2012.
9. Husanov B., Gulamov V. Muomala madaniyati. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2009.
10. Shermuxammedova N.A. XXI asr fanining dolzarb muammolari // Falsafa va fan metodologiyasi. – T.: Universitet, 2005.

### **AXLOQIY QADRIYATLAR UMUMMILLIY ASOSLARINING XOZIRGI ZAMON TSIVILIZATSİYASIDA SHAXS AXLOQIY TARBIYASIGA TA'SIRI.**

#### **REJA**

1. Yoshlar tarbiyasida axloqiy qadriyatlarning ahamiyati
2. Oila qadriyatlarning shaxs kamolotida tutgan o'rni.
3. Yoshlar ma'naviyati va milliy qadriyatlар
4. Yoshlar ma'naviyatiga hayotiy maqsad va umuminsoniy qadriyatlarning dialektik ta'siri

Insonning eng katta orzusi baxtli va farovon yashash. Bu hayotiy haqiqatni hech kim inkor etmasligi shubhasiz. Baxt va farovonlik o'z-o'zidan amalgalashigan hodisa emas, albatta. Adolatli, insonparvar jamiyatda insonning anashu orzu-umidlarini amalgalashish imkoniyati mavjud bo'ladi. O'zbekiston o'z erki va ozodligini qo'lga kiritgan ilk kunlardan boshlab xalqimizning baxtli va farovon turmushi uchun shart-sharoitlar yaratishni o'z oldiga maqsad qildi.

Eng muhim vazifa shundan iboratki, mamlakatimizning qariyib 64 foizini tashkil etuvchi yoshlarimizning iqtidori, intellektual salohiyati, ma'naviy barkamolligiga bevosita bog'liqdır.

Islohotlarni mohiyatini tahlil qiladigan bo'lsak, bugun yoshlar tarbiyasini va komil inson masalasida yangicha yondoshuvni yo'lga qo'yilganligiga guvoh bo'lamiz. Bu ta'lim-tarbiya tizimining uyg'unligi, ularni bir-biri bilan uzviy bog'liqligidadir. Ayni vaqtida ma'naviy kamolot ko'plab muammolarni bartaraf etishning kaliti sifatida maydonga chiqmoqda. Buni biz tarixiy, falsafiy va axloqiy merosimizni chuqur o'rganish orqali ham bilishimiz mumkin. Tarixiy adabiyotlarimizning aksariyatida jamiyat taraqqiyoti komil insonlar bilan belgilanishi aks etgan. Shu nuqati nazardan qaraganimizda komil insonlarni, barkamol avlodni tarbiyalash jamiyatimiz oldidagi muhim va dolzarb vazifa ekanligiga yana bir bor iqror bo'lamiz.

Yosh avlod tarbiyasining muhim omillaridan biri axloqiy qadriyatlar, desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki axloqiy mezonlar bilan bezangan insongina buyuk ishlarga qodir bo'ladi. Agar tariximizga e'tibor beradigan bo'lsak, buyuk alloma va faylasuflarimizning asarlarida ham jamiyat boshqaruvi, bola tarbiyasi masalasida avvalo axloqiy qadriyatlar ilgari surilganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan: Eng qadimiylar tarixiy, diniy, va falsafiy manbalarimizdan bo'lgan "Avesto"da ilgari surilgan "Ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal" amal g'oyasini ilgari surilishida ham axloqiy qadriyatlarining inson kamoloti, jamiyat taraqqiyoti uchun naqadar muhimligi ko'rindi. Yusuf Hos Hojibning "Qutdag'u bilig" asari bundan bir necha asr avval yozilishiga qaramay, ushbu manbada ham axloqiy qadriyatlar masalasi jamiyat hayoti uchun qanchalik muhim ekanligi aks etgan. Bu kitob Qoshg'arda yozilib Mashriq podshohi Tavg'achxon huzuriga keltirilgan, podshoh uni taqdirlab va e'zozlab saroyida Hos Hojiblik lavozimiga tayin qilgan. Shuning uchun u Yusuf ulug' Hos Hojib nomi bilan mashhur bo'Igan. Bu kitob quyidagilari bilan qadrlidir: Biri –adl, ikkinchisi davlat, uchinchisi - aql, to'rtinchisi – qanoat, ya'ni bularning har biriga turkcha nom berilgan. Adlga – Kuntug'di elig nomi berilib, podshoh o'rnida tutilgan, davlatga Oyo'ldi nomi berilib, vazir lavozimiga qo'yilgan, aqlga O'g'dulmish nomi berilib, vazirning o'g'li o'rnida tutilgan, qanoatga O'zg'urmish nomi berilib, O'g'dulmishning qarindoshi deyilgan. Ko'rib turganimizdek, jamiyatning ravnaqi, insoning baxt-saodatga erishuvni davlatda adolat, davlat, baxt va qanoatning barqarorligi bilan tavsiflanadi. Asarda ilgari surilgan "Olaming odomzod sara mayjudot sifatida keldi, u salohiyat, bilim va zakovatga ega bo'ldi. Unga tabiat aql va ong ato qildi, so'zlash qobiliyatini berdi, uni andisha, xushxulq va go'zal fe'l bilan ta'minladi. Unga bilim hadya qildi, shu tufayli inson ulug'likka erishdi, zakovatlar ato qildi, shu tufayli inson chigal jumboqlarni hal qildi. Tabiat kimga zakovat, aql-idrok, bilim bersa, u ezgu ishlar qilishga qo'l uradi. Bilimning buyukligini va zakovatning ulug'ligini anglagan, bu ikkalasiga ega bo'Igan sara kishilar ulug'likka erishadilar. Odamzotda zakovat bo'lsa nafi kattadir, bilim o'rgangan kishilar aziz va qadrlar bo'ladilar" , - degan fikr bugungi avlod tarbiyasida

muhim ahamiyatga ega. Darhaqiqat, go'zal xulq-atvor, aql-idrok, bilim va zakovatga ega bo'lish insonni ulug'vorlikka, aziz va qadrli bo'lishga undaydi. Ushbu fazilatlar insonni baxtli va farovon turmush kechirishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Bugun ko'pgina G'arb mamlakatlari va xatto, ba'zi hamdo'stlik mamlakatlarida ham ahloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, ma'naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash oddiy holga aylanib qoldi. Inson uning hayoti, oila muqaddasligi va yoshlarning unga bo'lgan munosabati bugungi hayotimizning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.

Er sharida necha ming yillardan buyon hayotning davomi etayotganligining sabablaridan biri tirk mavjudodning o'z kelajagi haqida qayg'urishidadir. Lekin "ommaviy madaniyat"ni o'z hayot tarziga aylantirayotgan yoshlar shu darajada xudbin bo'lib bormoqdaki, ular faqat o'z nafslarini o'yamoqdalar. "Ommaviy madaniyat"ning salbiy jihatlari quydagi ko'rinishlarda namayon bo'immoqda:

- ko'cha ko'yilda bolalarning bo'sh vaqtlarini o'tkazishga mo'ljallangan kompyuter o'yinlari qo'yiladigan joylar;

- tungi internet klublari voyaga etmagan bolalarni ham qabul qilmoqda, bu yosh bolalar esa asosan pornografik saytlarga kiradilar;

- yurtimizda litsenziyasiz sotiladigan behayo filmlar to'plamlari;

- zamonaviy telefonlardan noto'g'ri foydalanish.

Bugun ko'pgina maktablarda ta'lim tarbiyaga e'tibor kuchaygani rost, lekin bu bolaning bir kunlik faoliyatini to'liq kuzatishga, ko'mak berishga imkon bermaydi. Ko'pgina o'quvchilar asosiy vaqtini kompyuter, internet va kompyuter o'yinlariga sarflaydi. Bunday holni har birimiz yashayotgan shahrimizda ham kuzatishimiz mumkin. Kompyuter o'yinlari insonlarga qandaydir estetik ozuqa berish uchun emas, balki insonlarni qiziqitirib, ularni o'zlariga jalb qilish va shuning hisobiga ko'proq foyda olishga mo'ljallangan. Demak, bunday o'yinlar yosh bolalarning ongiga salbiy ta'sir qiladi. Kompyuter o'yinlarida namoyish etiladigan jangari holatlар bolaning ruhiy olamiga ta'sir ko'rsatib, uning harakatlariga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Kundalik hayotdagи hodisalarga nisbatan bola qo'pol munosabatda bo'la boshlaydi. Maktab yoshidagi bolalar ongi hali to'liq shakllanmagan bo'ladi, shuning uchun ota-onalar bolalarning qiziqishlariga salbiy ta'sir etmagan holda bunday xolatlardan chiqqo bilishlari kerak.

Bugungi kunda tez-tez uchrab turgan muammolardan yana biri mobil telefonlardan noto'g'ri foydalanish natijasida kelib chiqayotgan holatlardir. Turli rusumdagи zamonaviy qo'l telefonlarining yoshlar hayotida paydo bo'lishi natijasida yangi-yangi muammolar kelib chiqmoqda. Chunonchi, yoshlar o'tmishtda uyalib qaralmaydigan holatlarni yoki fojeali voqealarни tasvirga olish va ularni huddi mishmish kabi tarqatish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu esa ko'pincha begonalar bilishi

kerak bo'lmagan voqeа va hodisalarining butun respublika bo'ylab tarqalishiga sabab bo'lmоqda.

Globallashuv jarayonlari va uning yo'naliшhlaridan biri bo'lgan ommaviy madaniyat ekspansiyasi ta'sirida qadriyatlar tizimida sodir bo'ladigan yangilanishlar insonda muayyan o'zgarishlarni keltirib chiqarishi, inson va jamiyat o'z ma'naviy-axloqiy tayanchlaridan mahrum etilishi mumkin. Shu ma'noda, Birinchi Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, "...komunistik mafkura va axloq normalaridan voz kechilganidan so'ng jamiyatda paydo bo'lgan g'oyaviy bo'shlqdan foydalanib, chetdan biz uchun mutlaqo yot bo'lgan, ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o'z ichiga oлgan "Ommaviy madaniyat" yopirilib kirib kelishi mumkinligi barchamizga ayon bo'lishi kerak. Ayniqsa, hozirgi vaqtida dunyoda kuchayib borayotgan turli ma'naviy tahdidlarning oldini olish, «ommaviy madaniyat» ning zararli ta'siridan farzandlarimizning ongu tafakkurini himoya qilishda ilmu fan va madaniyat jamoatchiligi, ijod ahlining o'rni va roli tobora ortib bormoqda. Nega deganda, bizning milliy ruhimiz va tabiatimizga yot va begona bo'lgan ana shunday «madaniyat» namunalarini faqat tanqid va inkor qilish yoki ularni taqiqlash bilan biron natijaga erishib bo'lmaydi. Bunday xatarlardan hayotimizni asrash, ma'naviy bo'shlqqa yul qo'ymaslik uchun, avvalambor, ezu insoniy g'oyalar va yuksak mahorat bilan yaratilgan asarlar orqali xalqimizning madaniy saviyasini yuksaltirish, boshqacha aytganda, bugun jahon maydonida yuz berayotgan keskin aql-zakovat va iste'dod musobaqasida bellashuvga qodir bo'lishimiz shart»<sup>1</sup>.

Shu sababli yoshlар o'rtasida sog'lom tur mush tarzi tamoyillarini karor toptirish. ularnn giyoxvandlik, axloqsizlik, chetdan ro'y berayotgan siyosiy jarayonlarlarning ma'no-mazmuni va turli yo'llar bilan suqilib kirib yoshlар onggini zaxarlashga urinayottan "G'arb madaniyat" namunalari va akidaparastlik, ekstrimistik g'oyalarning mazmuni mohiyatini to'g'ri tushunish va asl sabablarini chukur anglash, eng asosiysi, oqni qoradan ajratishga qodir, o'z mustaqil fikri va mafkuraviy immunitetni shakllantirish lozim. Har bir yosh avlod o'zining tug'ilib o'sgan vatanini sevib ardklashi, himoyalashi, qadriyatlarini unutmasligi vaunga hurmat bilan munosabatda bo'lsa, har qanday taxdid va xatarlar o'z girdobiga tortmaydi. Xavfsizligimiz mustahkamlanib, yurtimiz barqarorlashib xayotimiz bardavomlashib boraveradi.

G'arb rivojlangan mamlakatlari madaniyatida ildiz otib, globallashuv sharoitida boshqa mamlakatlarga tarqalayotgan egoizm, individualizm, axloqsizlik g'oyalarni, boshqa nomaqbtl, ma'naviy tarbiyaga salbiy ta'sir etadigan ommaviy madaniyat namunalari taraqqiyotga intilayotgan davlatlar aholisi ma'naviyatiga jiddiy tahdid solmoqda. G'arb ma'naviyatidagi biz uchun nomaqbtl unsurlar

<sup>1</sup> Karimov, "Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch" T. "Ma'naviyat", 2008 117 133 betlar

turmush tarzimizga qanchalik kirib kelsa, o'z milliy taraqqiyot yo'slimizni anglash shunchalik qiyin bo'ladi; vesternizatsiya jarayoni amalga oshib, milliy qiyofamizni yo'qotib boramiz. Bu jamiyatimiz ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy sohalarida qanday oqibatlarga olib kelishini aniq tasavvur qilish qiyin. Bundan shunday xulosa kelib chiqadi: kelajagimizni belgilovchi hal qiluvchi kuch-milliy ajdodlarimiz hayotida amal qilgan yuksak axloqiy fazilatlarni, milliy ma'naviy qariyatlarni turmush tarzimizga singdirgan holda zamonaviy taraqqiyotga intilish ustuvor bo'lishi lozim.

Yoshlar hamisha serg'ayrat, yangilik adolat tarafdoi bo'lib kelgan, shuning uchun ham ular mamlakatni demokratlashtirish, modernizatsiya qilishda asosiy kuch bo'lib hisoblanadi. Shu munosabat bilan davlatimizda yoshlarning komil inson bo'lib shakllanishi uchun yaratilgan imkoniyatlarni yanada kengaytirish dolzarb masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Davlatimiz siyosatining ustuvor yo'naliishlaridan biri barkamol avlodni tarbiyalashdir. Xaqiqatdan ham hozirgi kunda yoshlarimizning ham aqlan, ham ma'nani, ham jismonan sog'lom bo'lib etishishlari uchun uchun barcha imkoniyatlarni ta'kidlab o'tish joiz. Respublikamizda yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga berilayotgan alohida e'tiborni biz chekka-chekka qishloqlargacha maktab va kasb-hunar kollejlari qurilib, ular eng zamonaviy texnikalar bilan jihozlab berilganligida ham yaqqol ko'rishimiz mumkin. Yurtimizda yosh avlodga ko'rsatilayotgan g'amho'rlik aynan Prezidentning doimiy diqqat e'tiborida turganligi, har yilda qanday yil deb nomlanmasin, qanday davlat dasturi qabul qilinmasin, unda albatta yoshlarning ta'lim-tarbiya, ma'naviy dunyosini yuksaltirish bilan bog'liq masalalarning aks etishi fikrimizni isbotlaydi.

Bizga qarshi ma'naviy qo'poruvchilik olib borayotgan mafkura poligonlari o'z maqsadiga erishish uchun hech narsani ayamayapti, hamma vositalarni ishga solmoqda, ko'plab mablag' sarflamoqda, eng zamonaviy usul va uslublarni qo'llagan holda yoshlarni o'ziga rom etadigan turli tomoshalar, ko'ngilochar ko'rsatuvarlar, musiqiy kanallar tashkil etmoqda. Bunday manbalar orqali buzg'unchi g'oyalar targ'ib etilayapti, eng yomoni – ularni hali oq-qoraning farqiga bormaydigan ishonuvchan, ta'sirga beriluvchan yoshlarimiz ko'rayapti, tomosha qilayapti. Bu esa "ommaviy madaniyat" tizimi, mahsulotlari, yoshlarimizni avrashning o'ziga xos usuli shakllangani, demak ularga qarshi kurash har birimizning kundalik amaliy ishimizga aylanishi zarurligini taqazo etmoqda. Ana shunday sharoitda ma'naviy barkamol inson tarbiyasiga alohida e'tibor berishimiz katta ahamiyatga ega.

Inson hamisha ezgulikka, ma'naviy yuksaklikka intilib kelgan, bama'ni, go'zal hayot kechirishga, kelajak avlodlarga o'zidan yaxshi nom, hayotbaxsh qadriyatlar qoldirishga intilgan. Ma'naviyat va ma'rifat sohasidagi vazifalarimiz ana shu ezgu maqsadni amalga oshirishga da'vat etilgan. Ma'naviy barkamol inson

tushunchasi biz uchun ham milliy, ham umumbashariy ahamiyat kasb etadi, bu masala umum davlat miqyosidagi kechiktirib bo'lmaydigan vazifadir.

Ma'naviy barkamol inson tushunchasini mazmun mohiyati yoshlarni to'g'rilikka, halollikka, poklikka, vatanparvarlik va insonparvarlikka, ezgulikka, yuksak ahloqiylikka yo'llashni tashkil etadi. Insoniyat tarixi shundan dalolat beradiki, iymon e'tiqodi, ahloqiy fazilatlari, ma'naviyati kuchli, milliy mas'uliyat tuyg'usi qalbda jo'shib turgan, ma'naviy barkamol insonlarga ega davlatninggina mustaqilligi abadiy bo'ladi va barqaror rivojlana oladi, jahon tsivilizatsiyasiga o'z munosib hissasini qo'sha oladi.

Bugungi zamon voqe'likka ochiq ko'z bilan, engli anglagan holda xushyor qarashna, globallashuv jarayonida ma'naviy tahdid va xatarlarni to'g'ri baholab, ulardan tegishli xulosa va saboqlar chiqarib yashashni talab etmoqda. Yosh avlod ongida murakkab va tahlikali hayot haqida aniq tasavvurlar shakllantirilmog'i lozim.

Buning uchun esa yoshlar erkin va mustaqil fikr yurita olishlari, ilmiy va ma'naviy merosni ongi va qalbiga jo etmog'i lozim. Zero, Vatanimizning rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy olishi, O'zbekistonda huquqiy demokratik jamiyat qurishda yuksak ma'naviyatli yoshlarni madadkor bo'la oladilar.

Axloqiy qadriyatlar tabiat hamda inson, jamiyat va milliy-elatlarning ijtimoiy hayotidagi jarayon, voqealik xodisalarga xos axloqiy munosabatlarni ham o'z ichiga qamrab olgan. Axloqiy qadriyat umuminsoniy xususiyatga ega bo'lish bilan birga millat xususiyatlarga ham boydir. Ayniqsa, qadriyat umuminsoniy xususiyatga ega bo'lish bilan birga milliy xususiyatlarga o'zining mazmun-mohiyati, mavqeい, jamiyat va inson kamolidagi ahamiyati va betakrorligi, serqirra va sermazmunligi bilan millatimiz mentalitetiga xos va ma'naviyatimizga mos hamda hayotimizning uzviy bir qismi, ya'ni ma'naviy hayotimizning negizi sifatida ajralib turadi.

Axloqiy qadriyatlarning tub ma'nosи har bir jamiyatgaadolat, birdamlik, ezgulik, mustaqillik, tenglik va erkinlik imkoniyat asosida komil, etuk va mukammal insonni kamol toptirishga qaratilgan. Mustaqil yurtimizda yuz berayotgan salohiyatlari iqtisodiyotni barpo etish, kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish, xuquqiy va ijtimoiy munosabatlarni yangilash, ijtimoiy-mafkuraviy va ma'naviy-axloqiy muhitni sog'lomlashtirish, fuqarolarda fikr erkinligi, tafsakkur teranligi, Vatanga sadoqat, tashabbuskorlik va ishbilarmonlik, kasbkorlik, odob va madaniyatni yuksaltirish, mulkdarlik sinifni shakllantirishda axloqiy qadriyatlar muhim zamin va omil bo'ladi va bo'lmoqda.

Axloqiy qadriyatlar ichida eng nufuzli va keng mazmun-mohiyatga boy oliy qadriyat – insondir. Uning qadr-qimmati va izzat-hurmati mustaqil yurtimizda alohida ahamiyatga molikdir. Chunki, jamiyatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar, maqsad va vazifalar eng avvalo inson uchun, uning mafaatlari, barcha moddiy, ma'naviy, xuquqiy-axloqiy extiyojlarini ruyobga chiqarishga qaratilgan.

Sog'lom barkamol avlodni jismonan sog'lom hamda shukrona xulq-odob va umumbashariy g'oyalar ruhida tarbiyalash muhim vazifa bo'lib qoladi. Davlatimiz tayanchi, millatimiz ishonchi, kelajagimiz egasi barkamol avlodning etukligi, intellektual salohiyatini yanada boyitish, mukammal shaxs sifatida kamol topishi uchun axloqiy qadriyatlarni kamol toptirish, eng dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda.

Bugungi yoshlar ushbu qadriyatlarning haqiqiy etuk vorisi va shijoatli davomchisi ekanligini ijtimoiy hayotning hamma sohalarida namoyon etmoqdalar. Barkamol avlod intellektual salohiyatga ega shaxs sifatida har bir faoliyati, hattiharakati, bilim olishi, zamonaviy kasb-xunarni o'zlashtirishi, texnologiyani egallash borasida ulkan vazifa va maqsadlarni anglashda teran fikr, ongli tafakkur orqali, aql-zakovat, zehn, uquv, qund-chidamni ishga solib jamiyat, millat va avlod oldidagi maqsadlarni amaliy hayotga tatbiq etishda jasorat, matonat va faollik ko'rsatmoqtsa. Ular bilim orqali maqsadga erishish, millatimizga xos intellektual boylik, tarihiy, madaniy-ma'naviy merosimizga loyiq shaxs bo'lish bilan birga burchni asrash va avaylashga ma'sul ekanliklarini g'urur va iftixor bilan anglab etmokdalar. Bugungi yoshlar fikr erkinligi va xilma-xilligi, mantiq teranligi, tafakkur doirasining kengligi, nutq madaniyati, buniyodkorlikka yo'naltirilgan faoliyati bilan "hech qachon, hech kimdan kam" bo'lmasligini amalda isbotlamoqdalar. Bugungi yoshlarga qarab shukronalik bilan g'ururlanasan, kishi. Ulardan teranlik, zukkolik, matonat va shijoatni ko'rib xavas tuyg'usiga botasan. Bu havasga loyiq jarayon mustaqil yurtimizda yuz yillarga tatigulik istiqbol natijasidir. Buning yorqin ifodasini yoshlarning keng qamrovli faoliyati, bilishi, ma'naviy-axloqiy yuksalishi, iqtidor va iste'dodni namoyon etishi, taraqqiyot sari intilishida yaqqol ko'rish mumkin.

Barkamol avlodning intellektual boyligini takomillashtirish, bugungi o'sib-unib kelayotgan farzandlarimizni ijtimoiy hayotga mukammal va etuk salohiyat hamda va iste'dod egalari bo'lib kirib borishi davlatimiz, jamiyatimiz va uning institutlari oldida turgan eng ulug' va echimini kutayotgan vazifalar mavjudligining ob'ektiv haqiqatidir. Yoshlarimiz siyrati ham, surati ham go'zal, odobli, bilimli, aqli, dono va mukammal ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, yangi asr talablariga mos va hozirjavob shaxs bo'lislari lozim. Farzandlarimizni barkamol avlod qilib tarbiyalashda sog'lom ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy muhit, sog'lom turmush tarzini rivojlantirishimiz zarur. Istiqlolning sermashaqqatli keng qirralik vazifa va maqsadlarni teran anglab, yangi asr avlodiga mos fazilatlarni egallash, ajddolarimizga xos boqiy axloqiy qadriyatlarni takomillashtirish va ularni asrab-avaylash hamda davr talabiga mos bilim, tajriba, texnologiya, zamonaviy kasb-hunarlarini egallash lozim.

Hayot falsafasidan kelib chiqib turmush tarzimiz, ijtimoiy hayot jabhalariga teran nazar tashlasak, ijobiy jihatlarimiz qatorida salbiy holatga monand yoshlar

ongu tafakkurida, mustaqil, dunyoqarashga nisbatan qat'yan bo'shligi, fikr faqirligi, ruh qaramligi, iroda va qobiliyat sustligi, loqaydpik, boqimandalik, mustaqil nofaollik, axloqiy kemitiklik, mantiqiy bilimsizlik, tanqidiy mulohaza, burch va mas'uliyatni chuqur his qilmaslik kabi salbiy illatlarni oz bo'lsa-da uchratish mumkin. Ularning qalbi, ongi, xulq-odobi, hatti-harakati va muomala madaniyatiga yot zararli tushuncha, ta'sirlar mavjudligini ham inkor etib bo'lmaydi. Yoshlar orasida iymon-e'tiqodi sust, hayot maqsadlaridan loqaydlik, g'o'rlik, sog'lom turmush tarziga xos xislatlar va axloqiy qoidalar mohiyatini anglab eta olmagan o'g'il-qizlar orasida "ommaviy madaniyat" ta'siriga moyillik orqasida qo'pollik, ishyoqmaslik, jamoatchilik joylarida, hatto ba'zi oilalarda odobga zid hatti-harakat, so'kinish, katta avlod vakillarini mensimaslik hollarini ham uchratamiz. Ba'zi yoshlar ichkilik, giyoxvandlik, andishasiz hatti-harakat va jinoyatchilikka qo'l urishmoqda.

Yoshlarimizning shaxs sifatida kamol topishida millatimizga xos, umuminsoniy qadriyatlarga mos xislat-fazilatlar ruhida tarbiyalash alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, yoshlarimizning fikrlash qobiliyati, teran tafakkur egasi bo'lmish, etuk dunyoqarashni anglab olish – dolzarb vazifadir. Bu xislatlar mazmun-ma'nosini egallash ularda jamiyatdagi o'rni, burchi, Vatanga, millatiga muhabbat tuyg'usini kamol toptiradi. Kamol topgan sari har bir yoshda boshqalarga ijobjiy axloqiy munosabat shakllanib, o'zligini anglab boradi.

Oila qurish, insoniyat davomiyligini ta'minlash, ijtimoiy taraqqiyotga, demokratik o'zgarishlarga xizmat qiluvchi farzandlar tarbiyalab voyaga etkazish azaliy, umuminsoniy vazifalardan biridir.

"Uylanishning ko'p qiyinchiliklari va zahmatlari bor, - deb yozadi Fitrat. – Odamlarning tabiatiga esa rohat yoqadi. Agar odamning ixtiyori o'z qo'lida bo'lsa edi, bo'ydoqlik rohati va ozodligini uylanish azobi va mehnatiga aslo qurban qilmasdi"<sup>1</sup>. Fitrat qaerda oila, oilaviy munosabatlar, farzand tarbiyasi etuk yo'lga qo'yilsa, mamlakat, millat ham muazzam bo'ladi, deb hisoblagan. Oila kishilik jamiyatining ijtimoiy poydevori. Oiladan jismonan sog'lom, ma'nан barkamol, axloqan pok va yuksak madaniyatli yosh avlodni voyaga etkazish ishi boshlanadi. Shuningdek, oiladagi sog'lom muhit- sog'lom maskurani shakllantiradi. Oila yoshlarni axloqli, odobli, rostgo'y, halol va samimi bo'lib voyaga etishlari uchun asosiy zaminni tayyorlaydi. Zero, «Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasisz, oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir, chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Bola xarakterini, tabiatini va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar - yaxshilik va ezzulik, olivjanoblik va

<sup>1</sup> Fitrat A. Oila. – T. Ma'naviyat. 1998 - B 10.

mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir».

Axloqiy mezonlarimizning qat'iy intizomi tufayli nafaqat qizlarimiz, balki o'g'il bolalar ham ota-onha oldida ulardan o'tib bir og'iz so'z qat'iy hurmat yuzasidan jum turishadi hatto ular bor joyda kattiqroq ovozda qichqirishga ham istihola qilinadi. Muqaddas kitob Hadisi Sharifda "Sen o'zing ham moling ham otangnikisan!" deyishgan ekan. Va, qolaversa, "Avval uch bor onanga yaxshilik qilib, keyin otanga yaxshilik qilgin", - degan hikmat ham beziz aytilgan emas. Ammo borgan sayin biz ana shunday muqaddas odob-axloq, mehr-oqibat atalmish ma'naviy boyliklarimizga nisbatan bee'tibor bo'lib bormayapmizmikan? Agar ota oilada o'zini tutishni bilmasa, axloq-odob bobida farzandlariga o'rnat bo'lisch o'rniiga qo'pol muomala qiladigan bo'lsa, bu holat, tabiiyki, bola ma'naviy olamining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Agar qo'ni-qo'shnilar o'rtasida bir-birini ko'rolmaslik, fisqu fasod, ig'vo muhiti paydo bo'lsa, hech shubhasiz, bularning barchasi farzandlar xotirasida tuzatib bo'lmaydigan og'ir asorat qoldiradi. Umuman, oiladagi ma'naviy muhit va tarbiya tufayli bola yo mehribon va rahmdil, yoki xudbin va bag'ritosh bo'lib voyaga etishi mumkin.

Shuning uchun oiladagi, balki mahalla-ko'ydag'i odamlarning xatti-harakati ham bolaning shakllanib kelayotgan sof qalbi va ongiga qanday ta'sir ko'rsatishi hakida ma'suliyat borligini unutmaslik zarur.

Oilaviy tarbiya masalasida xatoga yo'l qo'ymaslik uchun avvalo har qaysi xonadondagi ma'naviy iqlimi o'zaro hurmat, axloq-odob, insoniy munosabatlar asosiga kurish ayni muddao. O'tmishtda avlodlarimizni o'zaro muomala va muloqatlari, ularning hatto kichik farzandlarini ham «siz»lab gapireshi misolida ota-bobolarimizning oila ma'naviyatiga qanchalik katta e'tibor bergeniga ishonch xosil kilamiz. Albatta, farzandga mexr qo'yish, ularning qornini to'q, ustini but qilish o'z yo'li bilan, lekin bolalarimizni oilada yoshlik chog'idan boshlab milliy tarbiya, axloq-odob, yuksak ma'naviyat asosida voyaga etkazish biz uchun doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Bu masalaga e'tibor bermaslik nafaqat ayrim ota-onalar, balki butun jamiyat uchun juda qimmatga tushishini ham ko'pgina hayotiy misollarda ko'trish mumkin. Oila jamiyatininig asosi, tirik xujayrasi bo'lsa, oilani mustaxkamlash har bir jamiyatning jiddiy vazifasidir. Oilani mustaxkamlash omillaridan yana biri qaynona va kelinlar o'rtasidagi o'zaro munosabat xisoblanadi. Zero, qaynona oila an'analarining egasi, uy ichidagi tartiblar xukumroni. Qaynona kelinni o'z farzandlaridek sevs, bilmaganini o'rgat-sa, olam guliston. Oilada bir-birini tushunishi, muloxazали bo'lisch, gap kelganda tilini tiya olgan kishi hech kachon yutqazmaydi.

Murosayu madora esa axillik kaliti hamdir. Faraz qilaylik, oilangizga yangi kelin keldi. Birovning aziz bolasini yulga solish oson emas. Shu bilan birga o'sha kelinni olib kelish uchun qancha harakat va harajat qilganimizni unutmaylik. Gohida kelin tajribasizlik qiladi. Mana shunday paytda qaynona hech qachon qizib ketmasligi kerak. Chunki yangi kelin tushgan xonadoning past-balandni yaxshi bilmaydi. Shuning uchun har bir qaynona bunday paytda o'zi ham kelin bo'lganligini bir eslab ko'rishi lozim. Gohida esa xolatning aksini ham ko'rish mumkin. Eng muhimmi, ona keliniga, o'zining hayotiy tajribalarini qunt bilan o'rgatishi, janjallli xolatlarni ham og'ir bosiqlik bilan osoyishta o'tkazib yuborishi lozim.

Umuminsoniy qadriyatlarni bilmaslik yoki mensimaslik madaniyatsizlikdir. Ularni boyitib, yuksak darajaga ko'tarishga intilmaslik esa millat va uning istiqboli uchun katta ziyondir. Ma'naviyati yuksak darajada rivojlangan xalq, insongina yurt ravnaqi uchun o'zida kuch va qudrat topadi. Respublikamizda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar va siyosiy harakatlar yoshlar dunyoqarashiga ta'sir etmay qolmaydi. Siyosiy institutlar "fuqarolar tinchligi va barqarorligini mustahkamlash yo'lidagi amaliy, maskuraviy va tashkiliy faoliyatlarida keng imkoniyatlar yaratayotganligi O'zbekiston siyosiy tizimi faoliyatining istiqbolli va sermahsulligi alomatlaridan biridir. Ular fuqarolar obro'-e'tiborini va nufuzini haminqdadar oshirib, siyosiy hokimiyatni amalga oshirishdagi ishtirokini, faoliyatini qonuniylashtirdi. Bugun bu jarayon mazkur institutlarning demokratik uslubi yordamida, iqtisodiy va siyosiy tanglikni yumshatish, aholining turmush darajasini qo'llab-quvvatlash, asosan uning qatlamlar bilan ijtimoiy bog'ligini ta'minlashda katta ahamiyat kash etmoqda. Ularning sharofati bilan respublikada davlat va jamiyat siyosiy tuzilmasining real ko'rinishlari namoyon bo'lib, shaxslar va guruuhlar orasidagi munosabatlar mo'tadillashtirilib, davlat va jamiyat tizimi muvofiqlashtirilmoqda" <sup>1</sup>. Eng avvalo, yoshlar ushbu jarayonlarda etakchilik qilib, demokratik turmush tarzining qaror topishiga bosh-qosh bo'lmoqda.

Yoshlarning hayot mohiyati va maqsadini ma'naviyat bilan bog'lashi tabiiydir. Chunki "ma'naviyat – bu shunday ijtimoiy hodisaki, u odamning qanday yashashi, tafakkur qilish usuli, o'zligini anglashi, haq-huquqini ajrata bilishi va turmushi bilan uzviy bog'liq. Mubolag'asiz aytish mumkin: ma'naviyat shunday qadriyatki, u bo'lmasa insoniyat olami halok bo'ladi".

Hayotiy maqsadni o'rganish bir-biriga dialektik bog'liq ikki: milliy va umuminsoniy qadriyatlarni qanchalik yoshlar hayotidan o'rin olayotgani va bu borada yana nimalar qilish zarurligini belgilab olishga yordam beradi. Chunki hayotiy maqsad kishining hozirda va kelajakda mo'ljalab qo'ygan rejalarida, ularni

<sup>1</sup> Bo'ronov Q. Xalqimiz ma'naviyatini va ma'naviyatining teran ildizlari – T. Fan, 2003. - B. 21

ro'yobga chiqarish uchun lozim bo'lgan stimullarda aniq namoyon bo'ladi. To'g'ri, kishi ushbu hayotiy maqsadlarga o'zgartirishlar kiritib, hayotiy maqsadni ijtimoiy-madaniy muhit, davr taalablar bilan mudom uyg'unlashtirib boradi. Hayotiy maqsad sof holicha kishi taqdirini, xatti-harakatlarini belgilab beravermaydi, ular o'rtasida rang-barang, goho bir-birini inkor, rad etuvchi ziddiyatlar tug'iladi. Ammo hayotiy maqsad orqaligina kishi o'zini «hayot sub'ekti» ekanligini aniq idrok etadi va davr yuklagan vazifalarni ongli, ratsional, pozitiv hal etishga, buning uchun o'zidagi ijodiy kuchlarni jamlashga, sarflashga intiladi.

Yoshlarda hayotiy maqsad yo'naltiruvchilik rolini o'ynaydi. Yoshlar hayotida milliy qadriyatlar muhim rol o'ynaydi. Ular o'zini ota-onasi, yashagan va o'sgan oila muhitisiz tasavvur qila olmaydilar. Ota-onas xohish va istaklariga qarab yashash, hayotiy maqsadini belgilab olish ular ongidan mustahkam joy olgan. Ayniqsa, bu hol birinchi kurs talabalarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu tabiiy holdir. Endigina mакtabni tugatgan, hali biror kun ham mustaqil, oilaviy muhitdan boshqa muhitda yashamagan talaba yosh uchun oila, ota-onas eng asosiy hayotiy maqsadni belgilab beruvchi tayanchdir. Biroq to'rtinch kursga o'tgach talaba yoshlar ongida, tasavvurlarida va hayotiy maqsad haqidagi tushunchalarida ma'lum bir o'zgarishlar sodir bo'lishini kuzatamiz. Uch-to'rt yil oila muhitidan uzoqda va mustaqil yashagan talabalarda o'z fikrini, hayotiy maqsadlarini o'zlarining istak va xohishlariga qarab belgilashga ishtiyoq kuchayadi. Bu hol, eng avvalo, universitetdagи umumiyy muhit, o'quv-tarbiyaviy jarayonlarning ta'siri natijasidir. Xuddi shuningdek, talaba yoshlarning ongi va ma'naviyatiga ilmiy-ijodiy muhit, o'qituvchi-professorlar bilan bevosita muloqot, turli nazariyalar, ilmiy qarashlar va maktablar bilan tanishish ham ta'sir etadi. Mustaqil yashashga, o'zining hayotiy rejalarini amalga oshirishga intilish shahar talaba yoshlarida qishloqda yashovchi tengqurlariniidan ko'ra yuqoridir. Bizning fikrimizcha, shahar yoshlarida turli informatsiyalar olish, ilg'orish tajribalari bilan tanishish, chet elliq mutaxassislar bilan hamkorlikka kirishish imkoniyati keng bo'lgani uchun ular tezroq mustaqil hayotga qadam qo'yish zarur deb biladilar.

### Foydalilanildigan adabiyotlar ro'yxati

#### Rahbariy adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. – Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., O'zbekiston. 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. – Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T., O'zbekiston. 2017.

#### Darsliklar va o'quv qo'llanmalar:

1. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. G' Q.Nazarov tahriri ostida. –T.: Sharq, 2004
2. Радугин А.А. Этика. Учебное пособие для высших учебных заведений. – М.: Центр, 2003. -88 б.
3. Nazarov Q. Aksiologya – qadriyatlar falsafasi. –T.: O'FMJ, 2004.
4. Аристотель. Никомохова этика / Аристотель. Сочинение. В 4 х-т. -М.: Мысль, 1984. Т. 4. С. 55-62.
5. Muhammadjonova L.A. Amaliy etika va estetika. O'quv qo'llanma – T.: "Mumtoz so'z" 2022 yil.
6. L.Muxammadjonova, S.Alimov, Sh.Rajabov. Notiqlik san'ati. O'quv qo'llanma – T.: "Mumtoz so'z" 2022 yil.
7. Агзамова Н. "Философия нравственности". Дарслик Т.: Университет. O'zMU, 2022 yil.
8. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. –Toshkent: O'zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. -8 b.
9. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. 12 tomlik. –Toshkent: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. Т.1. -530 b.
10. Falsafa: qomusiy lug'at. Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov. –Toshkent: "Sharq" nashriyot –matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririysi, 2004. -40 b.
11. M. Kaxxarova, N Agzamova. Этика Учебное пособие. Ризограф имени Низами. 2018 год.
12. L.Muhammadjonova, F.Abidjanova. Etiket. O'quv qo'llanma. T.: Universitet. O'zMU, 2018.
13. Nurmatova M., Muhammadjonova L., Ma'naviyatning axloqiy asoslari.–T.: Universitet, O'zMU. 2013.
14. Husanov B., Gulamov V. Muomala madaniyati. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2009.
15. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Al-Faqih Abu Lays as-Samarqandiy. Tanbehl-g'osiliyn.Birinchi kitob.- Toshkent: Movarounnahr, 2003.
2. Риккерт Г. О понятии философии. – «Логос», Кн.1. Спбю.ю 1910. 33-b.
3. Nurmatova M., Muhammadjonova L., Ma'naviyatning axloqiy asoslari.–T.: Universitet, O'zMU. 2013.
4. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. – T.: Universitet, 2009.
5. Tulenov J.T. Dialektika nazariyası. -Toshkent: O'zbekiston, 2001. -264 b.

6. Гусейнов А.А., Аирессян Р.Г. Этика: Учебник – М.: Гардарики, 2004. -26 б.
7. Muhammadjonova L.A., Ortiqova D.O., Abidjanova F.A., Masharipova G.K. Professional etika va etiket. Darslik. - T.: "Adabiyot uchqunlari" 2018.
8. Э.Умаров., Ф.Загритдинова. "Этика. Прикладная этика". -Т.: Noshir, 2012.
9. Husanov B., Gulamov V. Muomala madaniyati. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2009.
10. Shermuxammedova N.A. XXI asr fanining dolzarb muammolari // Falsafa va fan metodologiyasi. – T.: Universitet, 2005.

**HAYOTNING MA'NOSI TUSHUNCHASINING BAXT, O'LIM,  
ABADIYLIK HAMDA IDEAL BILAN ALOQADORLIK  
XUSUSIYATLARI. IXTIYORIY VA MAJBURIY O'LIMNING ASOSIY  
MUAMMOLARI.**

**REJA:**

1. Axloqiy tafakkur taraqqiyoti tarixida inson muammosining muhokamasi.
2. Inson tushunchasi sharqona talqinlarining o'ziga xos xususiyatlari.
3. Hayot ma'nosi axloqiy kategoriya sifatida.
4. Ixtiyoriy va majburiy o'limning muammolari.

Ma'lumki, inson hayoti masalasi azal-azaldan kishilarni o'ylantirib, mushohada yuritishga undab kelmoqda. Ayniqsa, turli yovuz qarashlarni targ'ib qilayotgan diniy ekstrimizm, fundamentalizm, ommaviy madaniyat singari axboriy xurujlar avj olayotgan, inson qalbi va ongi uchun kurashlar keskinlashib borayotgan bugungi global axborot asrida insonning o'zini anglashga bo'lgan ehtiyoji tobora ortib bormoqda. Negaki bunday kurashlar orasida qolgan inson ayniqsa, yoshlar ruhiyatida ikkilanishlar, tushkunlik, befarqlikyu, loqaydlik singari salbiy illatlarning namoyon bo'lishi tabiiy holat Sharq xalqlarining inson xaqidagi qarashlari ularning diniy, falsafiy ta'limotlari bilan bog'liq. Biroq axamiyatli shundaki sharq xalqlarining diniy falsafiy ta'limotlari o'ziga xos tarzda g'oyat rangbarang. Masalan, qattiy ijtimoiy tartibotni ilgari suruvchi konfutsiylik, insonga individual nuqtaiy nazardan yondashuvchi Buddizm g'oyalaridan keskin farq qiladi. Lekin shunga qaramay, g'arb ratsionalizmidan farqli o'laroq, sharq ta'limotlarida insonga yondashuv an'anaviy, diniy jixatdan baxolanadi.<sup>1</sup>

Masalan, Xitoyning qadim falsafiy ta'limotlaridan biri Konfutsiylik g'oyalarining axloqiy tizimi ikkita asosiy printsiplarga tayanadi. Birinchi tamoyil insondagi tanlov erkinligini aks etiradi, ikkinchi tamoyilda esa, barcha insonlarni tabiatdan ezgu ekanligi xaqidagi g'oyani ilgari suradi. Mazkur ikki tamoyilga muvofiq, "oliy" va "tuban" inson xaqidagi ta'limot yaratiladi.<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Степаниц М Т Философские аспекты суфизма –М Нauка, 1987. S-99

<sup>2</sup> Григориев Д С Суфийские ордена в исламе –М Нauка, 1989. S-54

Konfutsiylika muvosiq "oliy" odam insonparvarlik va ezgulikni o'zida aks etgan "jen" g'oyasini o'zlashtirgan, mukammalikka intilgan inson sanaladi. Bu ma'noda insonparvarlik g'oyasiga keng urg'u beriladi. Konfutsiylikka ko'ra, insonparvarlik har bir insoning tabiatida mavjut, uni amalga oshirish yoki, oshirmsaslik insondagi ixtiyor erkinligiga bog'liq. Konfutsiy insonning jamiyatdagi o'rniغا, uning ijtimoiy xolatiga katta axamiyat qaratadi. Uning qarashlari asosan, ota o'g'il, podisho va rayiat, er va xotin o'rtasidagi munosabatlarga qaratilgan.

Konfutsiylikka ko'ra insoning "oliy inson darajasiga intilishi, xayotda inson duch kelishi mumkin bo'lgan voqealar va tanlovlardan amalga oshadi. Konfutsiylik axloqiy fazilat sifatida, keskinlikdan qochishni, meoriylikni, o'rta yo'lni tutish lozimligini ko'rsatadi. Aynan ijtimoiylikka urg'u berishida ushbu ta'limot Xindistonda keng tarqalgan Xindizm va Buddizm g'oyalaridan keskin farq qiladi.<sup>1</sup>

Abu Rayxon Beruniy o'zining "Xindiston" asarida xindistonliklarning boshqa an'anaviy tizmlarga xos bo'lмаган томонларини ko'rsatadi. Xindizm talqiniga ko'ra inson "iloxiylik" томонидан belgilangan kastaga xos bo'lib dunyoga keladi. Unga ko'ra inson "braxman" (koxin), "kishatri" (jangchi), "vayshi" (xunarmand), yoki, "shudra" bo'lib tug'ilishi lozim.

Inson o'zining moddiy borlig'iga muvosiq, oliy kuch "braxma"ning emanatsiyasi, ya'ni tajallisidir. Ammo u atrofdagi boshqa moddiy mavjudotlardan ko'ra yuqori darajaga ega, chunki, inson faqatgina moddiy jismidan iborat bo'lib qolmay "braxma" baxsh etgan ruxga ham egadir. Xindizm ta'limotiga ko'ra inson boshqa dualistik ta'limotlardagidek olam bilan qarama qarshi kontekesda baxolanmaydi. Inson olam qonuniyatlariga bo'ysunuvchi, yaxlid borliqning bir bo'lagi sifatida talqin etiladi.

Bu olamda barcha mavjudotlarning o'z o'rni, o'z burchi bo'lgani kabi insoning xam muayyan axloqiy burchlari mavjut. Ana shu majburiyat va burchlarni bajarish "dxarma" qonunida aks etadi. Xindizm talqiniga muvosiq, inson o'limga va qayta tug'ulishga, "sansara" charxpalagida cheksiz aylanishga, qayta qayta dunyoga kelishga maxkum. Ushbu qayta dunyoga kelish "karma" qonuniga ko'ra amalga oshadi. Kishi qilgan yashi yoki, yomon animallariga ko'ra "karma" qonuniga bo'ysunadi. Insoning bu dunyodagi asl maqsadi ham mazkur zanjirdan xalos bo'lish. Xind falsafasining ilk man'balaridan bo'lgan "upanishad"larda takidlanishicha inson "sansara" zanjiridan xalos bo'lib, oliy sodatga erishishi mumkin. Buning uchun u o'z ruhini "braxma" bilan bog'liqligini anglashi, turli meditatsiya xarakatlari bilan ruhini jismoniy istaklardan xoli qilmog'i kerak.

Buddizmga ko'ra inson hayotining oliv maqsadi bu qayg'u g'amlardan xalos bo'lishdir. Inson o'zining tabiatiga muvofiq turli qayg'u va g'amlarning sababchisi xisoblanadi .Insoning turli istaklari , ya'ni buddizm tabiri bilan aytganda "tanxa" inson xayotidagi barcha azoblarni xarakatlantiruvchi kuch xisoblanadi. Buddizmga muvofiq insoning baxtsizligi uning yovuzlik qilishida emas, balki o'z istaklarining quliga aylanishdir. Inson biror istagan narsasiga erishgach, o'z o'zidan ikkinchi bir narsan xoxlaydi. Tabiiyki bu jarayoning chegarasi ko'rinxmaydi, zero inson istaklarining o'zi chegarasizdir.<sup>1</sup>

Buddizmga ta'limotida insonni baxt saodatga etkazish uni "nervanaga" erishishi bilan belgilanadi. "Nervana" moxiyatiga ko'ra so'nish, tinish degan ma'nolarni anglatadi. Nervana xolati insonni istaklardan xalos etadi. Istak va xoxishning bo'lmasligi, tabiiy xolda insonni azob uqubatlardan xalos qiladi. O'zining ikki yarim ming yillik tarixi davomida Buddizm jaxon dinlaridan biriga aylandi. U bir necha ming yillar mobaynidagi Buddaning dastlabki g'oyalaridan butun boshli sistema darajasida shakilandi. Buddha ta'limoti o'z moxiyatiga ko'ra insoning bu dunyodagi faoliyatiga nisbatan keskin qarashni ilgari surdi. Buddha inson xayoti azob uqubatdan iborat deydi va undan xalos bo'lishni inson hayotining bosh maqsadi deb xisoblaydi.

Sharq ta'limotlarida insonga munosabat g'arbona ratsional munosabatdan ko'ra o'ziga xos transcedentaligi bilan ajralib turadi. Bu ma'noda inson fenomeniga nisbatan qarashlar aloxida axamiyatga ega.

1. Islom an'anaside barcha qadriyatlar "vaxdat" ya'ni yagona iloxiylikni tan olish va unga bo'ysunish bilan belgilanadi. Zotan "islom" so'zining ma'nosini ham bo'ysunish, itoat qilish degan mazmunni anglatadi. Ushbu xulosadan kelib chiqib, bir yoqlama baxo berganda, islomga ko'ra ideal inson xudoga bo'ysungan, itoatgo'y inson tushuniladi. Biroq, masalaga metodologik nuqtaiy nazaridan yondashganda, har bir din doirasida iloxiyotni anglash, bilish, unga itoat qilish darajalari turlicha baxolanishi ushbu masalaga faqat bir yoqlama munosabatda bo'lmaslikni ko'rsatadi. Masalan islom dini doirasidagi tasavuf ta'limoti birgina "komil inson" g'oyasini bir necha xil talqin qiladi.<sup>2</sup>

2. Malumki normativ diniy qoidalar insonni shariat qoidalariga qattian bo'ysunishini muqaddas kitoblarni aqidaviy qoidalardan chetga chiqmagan xolda ratsional, o'z ma'nosida qabul qilishini talab qiladi. Biroq, tasavuf ta'limoti diniy dogmalarni xurmat qilish va ularga bo'ysunish bilan birga inson qalbini, uning iloxiy moxiyatini, inson fenomening o'ziga xos masuliyatini, inson tafakkurining imkoniyatlarini o'rganishni, taxlil qilishni shuning bilan birgalikda unga o'ziga xos tarzda baxo berishni taklif qiladi.

<sup>1</sup> Чапашев А.Н. Начало философии -М., 1982. С-98

<sup>2</sup> Islom entsiklopediyasi. 11-jild -Istanbul. 1970. S-54

3. Aksariyat olimlarning takidlashicha rasmiy din aqidalari ilgari surgan etuk, komil inson tushunchasi ko'p jixatdan o'zida ijtimoiy koloritni aks etiradi. Bu o'rinda tasavuf ta'limoti insoning ijtimoiy tomonidan ko'ra individualigiga urg'u beradi. Biroq, ushbu fikrga tayangan xolda tasavuf ta'limotini normativ islam qoidalariga ,ya'ni shariyatga qarshi qo'yish noto'g'ri xulosaga olib keladi. Chunki, susizm ta'limotiga ko'ra komil inson bosib o'tishi kerak bo'lgan to'rtta bosqichdan aynan birinchisi "shariat" deb nomlanadi.<sup>1</sup>

4. Tasavufga ko'ra "komil inson", uning darajasi jamiyatdagi boshqa insonlar bilan taqoslanmaydi, bu ma'noda insoning mutlaqlikka erishishi iloxiylikka yaqinligi yaqinligi, uni anglashi, uni mushoxada qilishi bilan baxolanadi. Chunki susizmga ko'ra inson faoliyati ijtimoilikdan ko'ra transendentga qaratilgan. Islomshunos olim Stipaniyaning takidlashicha bu ma'nodagi faoliyat insoning biologik ijtimoiy tomonlarini iloxiy, ma'naviy jixatlaridan quyi ko'rish kuzatiladi.<sup>2</sup>

5. Ushbu ta'limotga ko'ra insonda xayvoniylik va iloxiy jixat bir biridan ajratilmagan xolda yaratilgan. Tasavufta'limotidagi "vaxtadul vujud" kontsepsiysi esa insonni butun olam , ya'ni "makro kosmning" inikosi, "mikro kosm" deya nomlaydi. Bundan tashqari inson yaratgan va olam o'rtasidagi bog'lovchi, koyinotning to'la mukammaligini to'ldiruvchi xilqat sifatida ham baxolanadi.

6. Ko'plab sharqshunos va islomshunos tatqiqotchilarining fikricha tasavudagi "komil inson" g'oyasining genizisiga boshqa diniy, falsafiy ta'limotlarning, xususan, neoplatonizm, gnostitsizm kabala va boshqa g'oyalarning ta'siri katta bo'lgan. Lekin zamonaqiy islomshunoslik ushbu ta'sirlarni boshqa diniy, ma'naviy ta'limotlardagi tipologik o'xhashlik sifatida baxolamoqda.

7. Komil inson g'oyasining vujudga kelishida o'rta asrlarda yashab ijod etgan sufi olim Ibn Arabiyning o'rni beqiyos. Unga ko'ra Inson barcha mavjudotlarning sabab va oqibatidir. Zero yaratganing nigoxi insonga qaratilgan er yuzidagi barcha narsalar: dengizlar, daryolar tog'lar va boshqa mavjudotlar inson uchun yaratilgan. Ibn Arabiyning fikricha komillika erishgan inson olamning barcha siru asrorlaridan boxabar bo'ladi, bunday insonlar yaratganing erdag'i vakillari anbiyolar avliyolar sifatida namoyon bo'ladi. Bu borada Ibn Arabiy "Qurondagi" "Biz insonni erda xalifa qilib yaratdik" oyatiga tayanadi<sup>3</sup>.

Unga ko'ra mazkur toifadagi insonlar jamiyatda juda ozchilikni tashkil etadi. Sufilarning qarashlariga ko'ra inson nima uchun yaratilganligini bilishi, iloxiyotni mushoxada qilishi takidlanadi. Ammo bu kabi insonlarning takidlashicha chin ma'nodagi insoniy xayot kechiruvchilar g'oyat kamchilik bo'ladi. Zotan aksariyat

<sup>1</sup> Камилов А. Ш. Физические труды ар-Рази и Ибн Сины -Душанбе, 1991. С-183

<sup>2</sup> Islom entsiklopediyasi, 11-jild -Istanbul, 1970. S-148

<sup>3</sup> Степанишц М. Т. Философские аспекты суфизма -М. Наука, 1987. С-99

odamlar xayotning moddiy jixatiga , sufilar tabiri bilan aytganda o'zlarining xayvoniy tomonlarini ulg'aytirish bilan mashg'uldirlar.

Jism – tana avalombor insonni tabiat bilan yaxlidligini uning biologik tabiiy jixatlariga etibor qaratilganligini anglatadi. Bundan tashqari jism insonni ilk bor nimadan bunyod bo'lganligini ko'rsatadi o'zining tasavufiy sherlari bilan mashxur shoir Umar Xayom insoning moddiy jixatini ko'za, jomi kabi obrazlar bilan tasvirlaydi.<sup>1</sup> Zero yaxudiylik, nasroniylik va xususan islom diniga ko'ra inson tuproqdan yaratilgan, va oxir oqibat, ruh, jon uni tark etgach, tuproqqa aylanadi.

Tafakkur jism tanadan farqli o'laroq, ijtimoiyashuv oqibatida egalanadi, ya'ni boshqacha qilib aytganda aql jamiyat maxsulidir. Tafakkur insonda boshqa insonlar ta'sirida ijtimoiy munosabatlar yordamida shakillanadi. Shu boyis tafakkurning yolg'iz o'zi insonni boshqa insonlardan aloxida tarzda ajratib ko'rsatmaydi. Sufiylikning Chishtiya maktabi vakillaridan biri faqat aql imkoniyatlari bilangina chegaralangan kishilarni boshqa insonlardan deyarli farqi yo'tq deb ataydi<sup>2</sup>.

Xulosa qilib aytganda sharq tafakkurida inson fenomeniga yondashuv turlichadir. Ayrim qarashlar (masalan konfutsiylik) insoning jamiyatdagi o'rni, uning ijtimoiy tomonlariga urg'u bersa, tasavuf va xind falsafiy ta'llimotlari insoning ruhiy, individual jixatlariga etibor qaratadi. Biroq, keltirib o'tilgan har bir yondashuv inson fenomenini to'la yoritishga, uni asl moxiyatini aks etishga, insonga ijtimoiy va individual tomondan baxo berishga qaratilgan bo'lib, uni umumiy va o'ziga xosliklarini ko'rsatadi.

Antik davrda inson xaqidagi ilk qarashlar Suqrot nomi bilan bog'liq. Garchi bu masalada sofistlar maktabi sezilarli g'oyalarni ilgari surishgan bo'lsada inson xaqidagi qarashlarni tizmiga aylantirgan ilk faylasuf Suqrot sanaladi. Rim notig'i Tsitsiron "Suqrot falsafani samodan erga, odamlar orasiga olib tushdi" deya takidlaydi. Suqrot Afina fuqarolarini o'z moxiyatlarini, o'z tabiatlari xaqida o'yashga majbur qildi. U faylasuflarni borliqning substansiyasi suv, xavo, tuproq xaqida emas, inson, axloq, ezzulik va yovuzlik xaqida muloxaza qilishga undadi.<sup>3</sup>

Suqrot asosiy etiborini insoning ichki borlig'iga, uning bilish faoliyatiga qaratdi. Suqrotga ko'ra, xaqiqiy donishmand avalombor inson xaqidagi bilmalar bilan mashg'ul bo'lmog'i kerak. "bizdan oldingi faylasuflar, xususan, natur faylasuflar deydi Suqrot, borliq va narsalarning moxiyati nima degan savolga javob izlagan bo'lsalar, meni esa, insoning tabiatini va moxiyati nima degan savol qiziqtiradi"<sup>4</sup>. Garchand u inson fenomenini axloqiy tushuncha darajasiga tushurgan

<sup>1</sup> Тримингэм Д С. Суфийские ордена в исламе. -М: Наука, 1989. С-54

<sup>2</sup> Чапашев А. Н. Начало философии. -М., 1982. С-78

<sup>3</sup> Борзенков В Г., Юдин Б Г. Философская антропология Учебное пособие. -М: AST, 2005. С-65

<sup>4</sup> Гарашин О.Д. Философия человека. -М.: 2006.

bo'lsada, ya'ni rux bu insondir, inson bu ruhdır degan g'oyani ilgari sursada, keyinchalik uning qarashlari inson xaqidagi ko'plab ta'limotlarga asos bo'ldi.

Suqrötning inson xaqidagi g'oyalari keyinchalik o'z davrining buyuk faylasuflari Platon va Aristotelning qarashlariga ulkan ta'sir ko'rsatdi. O'z navbatida Platon va Aristotel ta'limotlari G'arbiy Evropa falsafasida xususan, xristianlik g'oyaligiga poydevor bo'ldi.<sup>1</sup>

Platoning inson xaqidagi ta'limoti ikki tamoyilga tayanadi. Birinchi tamoyil uning g'oyalari kontsepsiysi bilan bog'liq. Unga ko'ra, inson doyimiy mavjut g'oyalarni o'zida aks etiradi. Ikkinci tamoyil esa. Insonni ana shu g'oyalarni tanlashda erkinligini takidaydi.

Platonga ko'ra inson sezgi va idrok bilan his etiladigan hamda aql yordamida anglanadigan umumiyligi tushunchalarini moxiyatini bilmog'i kerak, boshqacha qilib aytganda, inson g'oyalari olamida ko'rgan barcha narsalarini eslamog'i shart. Olamdagi boshqa mavjudotlardan faqat inson ana shunday qobiliyatga ega. Inson o'z bilimlidan to'g'ri foydalangandagina o'z borlig'inining asl moxiyatini to'la anglay oladi. Xar bir inson ma'naviy jixatdan mukammalikka intilmog'i, axloqan yuksalmog'i kerak. Agar insonda o'z irodasi va tafakkurini boshqara olish qobiliyati bo'lsa u maqsadiga erishadi.

Boshqa jixatdan Platoning inson xaqidagi muloxazalari sharq an'analaridagi inson kontsepsiyasiga o'xshab ketadi. Masalan, Platonga ko'ra inson borlig'inining moxiyati uning ruhida aks etadi. Bu ma'noda insonning biologik jixati, ya'ni moddiy tomoni ikkinchi darajali mavjutlik sifatida namoyon bo'ladi. Darxaqiqat inson bir biri bilan o'zaro teng bo'limgan ikki jixatdan iborat. Ulardan yuksagi bu g'oyalari boshqasi esa, jism ya'ni tanadir. Aynan bu aspektida Platon nazarda tutgan ruh inson mavjutligining birlamchi manbasi sanaladi.

Platondan farqli o'laroq Aristotel inson ruhi va jismini bir biki bilan chambarchas aloqador yagona moxiyat sifatida ko'radi. Aristotelga ko'ra garchi tana undan ko'ra oliyoq bo'lgan ruhga bo'y sunishiga qaramay, ularning aloxida aloxida mavjut bo'lishi mumkin emas. Chunki, inson ruhi va tanasi uning extiyojlari, xoxishlari umuman olganda emotsiyasi, ruhiy holatini amalga oshirish yo'lidagi vositadir. Aynan ana shu vosita inson hayotining moxiyati xisoblanadi.

Aristotel keyingi asrlarda Evropa tafakkur tarziga asos bo'la oladigan asosiy g'oyalarni ilgari surdi. Aristotel insonni tabiiy rivojlanish maxsuli sifatida baxolashni boshlab berdi. "Printsipial jixatdan inson va xayvon o'rtaqidagi asosiy farq shundaki, inson o'z moxiyatiga ko'ra siyosiy xayvondir chunki tabiat har bir insonning vujudiga jamoviylikka intilish istagini joylagan. Aynan shuning uchun oqibatda davlat paydo bo'lgan. Boshqa jixatdan insonning xayvondan farqli tomoni,

<sup>1</sup> Камю А. Бунтующий человек -М: 1990. с-254

u til, nutq va tafakkur qilish qobiliyatga ega. Aynan shu jixatlari uchun inson yovuzlik va ezgulik, adolat va adolatsizlik kabi tushunchalarni farqlay oladi".<sup>1</sup>

Aristotel insondagi aql va idrokni faqat insonga xos xususiyat deb baxolaydi. "Tafakkur bizning idrokimizdan ko'ra yuqori, chunki uning yordamida biz iloxiy, ko'zga ko'rinnas voqeyleklarni anglaymiz va xayot faoliyatimizda muxum bo'lgan qadriyatlarni o'rnatamiz". Lekin mazkur muloxazaga qaramay, inson Aristotelga ko'ra o'simlik va xayvonot olami bilan ham uyg'un, funktional o'xshashlikka ega. Bu o'xshashlik oziqlanish va ko'payish ximoyalanish kabi xolatlarda aks etadi. Shu tariqa inson ruhi o'zining yuqori, oliv bosqichini yo'qotmagan xolda xayvonot va o'simlik olamiga daxildor bo'ladi.

Inson va davlatni vujudga kelishini bir biriga bog'lagan xolda Aristotel davlatning axaniyatini individtadan ko'ra yuqori baxolaydi? zero har qanday butun o'zining qismidan ko'ra yuqoriroq o'rinda turmog'i kerak. Agar Aristotelning inson xaqidagi qarashlarini yaxlid taxlil qilsak, aytish mumkinki. Aristotel birinchilardan bo'lib, inson moxiyatini ijtimoiy nuqtaiy nazardan baxoladi. Bu ma'noda bugungi fan nuqtaiy nazari bilan qaraganda Aristotel insonga yondashuvning biologik va sotsial tomonlarini ko'rsatdi.

Antik davr faylasuflarining inson xaqidagi qarashlarining yana bir o'ziga xos tomoni, unda inson hayotining muammosi ham muxum axamiyat kasb etgan. Masalan Sugrot inson hayotining asl xaqiqati har bir kishida mujassam deb xisoblaydi. Ongli mayjudot sifatida har bir insoning bu dunyodagi bosh maqsadi ana shu xaqiqatni izlashdir. Platon esa tafakkur qiluvchi insonni bilish jarayonida mukammalashib boradi deb xisoblaydi. Bu jarayon insoning o'z o'zi bilan bo'ladigan baxsida suxbatida namoyon bo'ladi. Inson o'zidagi, ya'ni o'z ruhiyatidagi, tafakkuridagi qarama qarshiliklarni engandagina asl xaqiqatga erishadi. Tafakkurimizda paydo bo'ladigan zidiyatlarni echishga urunar ekanmiz, yagona xaqiqatga tobora yaqinlashib boramiz.

Platonning inson xaqidagi qarashlari axloqiy kategoriylar bilan uzviy bog'liq. Unga ko'ra, inson har xil tushunchalarning moxiyatini anglab borishi bilan o'zining moxiyatini anglab boradi. "Agar insonga kuch ishlatalish bilan ta'sir qilsang undan nimanidir olib qo'ygandek tuyuladi, aksincha insonga g'oya bilan ta'sir ko'rsatsang una nimanidir birgandek bo'lsan".<sup>2</sup> "kishilarga kuch bilan ta'sir qiladigan odamlar jismoni kuchgagina egadir, ularning aqillari g'oyat ojiz bo'ladi, aksincha insonga ruhan ta'sir qilish, o'sha insoning ruhiy quvvatini naqadar balandligini ko'rsatadi".<sup>3</sup>

<sup>1</sup> Choriev A. Inson folsafasi -Toshkent. O'FMJ, 2006 s-142

<sup>2</sup> Борзенков В Г , Юдин Б Г Философская антропология Учебное пособие -М AST, 2005 S-124

<sup>3</sup> Камю А. Бунтующий человек -М 1990 S-58

Go'zalik, ezungulik, jasorat, do'stlik kabi axloqiy tushunchalarini taxlil qilish insonga bo'lgan yondashuvni ko'rsatgan. Mazkur tushunchalar nafaqat falsafiy axloqiy ma'noda balki, inson va u mansub bo'lgan jamiyatdagi qadriyatlar tizimini ham tatqiq qilishda muxum axamiyat kasb etgan. Suqrot insonlarning jamiyatdagi o'tmini, ularning burchlarini, kishilarning qonunlar bilan munosabatini, axloqsiz munosabatlardan, ya'ni o'z xisbiyotlarini jilovlay olish xaqida aytadi. "Insoning xaqiqiy ma'nodagi insonligi boshqa odamlar bilan munosabatda ko'rindi. Aynan ana shu munosabatlarda insoning insonga ma'naviy ta'siri namoyon bo'ladi. Jamiyatdagi kishilar o'ttasidagi munosabatlarning to'g'ri qurulishi insondag'i bilish jarayonini to'g'ri ekanligini taminlaydi. Aksincha jamiyatdagi o'zaro munosabatlarning noto'g'ri qurulishi ilmni noto'g'ri yo'ldan ketishiga sabab bo'ladi. Ilm noto'g'ri yo'lga qo'yilgan jamiyatda shubxasiz notinchlik xukm suradi. Bilm bilan insonlar o'ttasidagi o'zaro munosabat tabiiy tarzda o'z o'zidan yaxshilanib qolmaydi, albatta buning uchun etarli sharoit va usullarni joriy qilish lozim, shundagina insondag'i munosabat va bilim bir biriga o'zaro muvofiq bo'ladi".

Inson o'z moxiyatiga ko'ra butun borliqqa daxildor: u jisman tabiat ruhan esa g'oyalari maxsulidir. Ruh abadiy va bo'linmasdir, u tanadan tanaga ko'chishi mumkin, biroq jism bilan birga butunlay yo'q bo'lib ketmaydi. Platonga ko'ra ruh o'zida aql, iroda, hisiyot kabi jixatlarni mujassamlashtiradi. Ushbu jixatlar insoning xoxish istaklarida aks etadi. Ruh va jismning ta'siriga muvofiq insoda ezungulikka rag'bat qiluvchi, yoki yovuzlikka mayl qiluvchi istaklar paydo bo'ladi. Ruhning turli darajada namoyon bo'lishiga qarab insonlarning fel atvori vujudga keladi: insonlarning jasoratga, shuxratparastlikka, moddiy lazzatlarga qiziqishi birinchi galda ruhning ta'siri bilan belgilanadi.

Platon va Aristotelning inson xaqidagi mazkur qarashlari keyinchalik xristian falsafasiga katta ta'sir ko'rsatdi. Biroq antik davr falsafasini faqat Platon va Aristotelning ta'limoti bilangina cheklash to'g'ri emas. Antik falsafada inson fenomeniga nisbatan yondashuvlar Epikur qarashlarida ham o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Suqrot, Platon va Aristotelning qarashlaridan farqli o'laroq Epikur Demokritning atomistik ta'limotiga tayanadi. Uning inson hayotining moxiyati, inson tabiatini haqidagi qarashlari ham xuddi ana shu ta'limotlarni inikos etadi.

Epikur ta'limotiga ko'ra, inson xayotining moxiyati lazzat va farog'atga erishish bilan belgilanadi. Lazzat va farog'at yovuzlik va ezungulikning mezoni sifatida talqin etiladi. "Boylik, xokimiyat, shon shuxrat, bularning bari lazzat va farog'atga erishish, uni yanada uzaytirish ko'paytirishga qaratilgan. Lazzatlanish odam bolasingin barcha xatti xarakatining bosh sababchisidir".

Epikur lazzatlanishni inson xayotining bosh maqsadi deya baxolaydi. U lazzatlanish tushunchasini azob va anduxga zid tushuncha sifatida ko'rsatadi. "Lazzatlanish bu azob va uqubatni bartaraf etilishidir, qaerdaki farog'at bor ekan,

tabiiyki u erda azob uqubat bo'lmaydi. Biz qachonki azoblanganimizdagina lazzatlanishni azobdan forig' bo'lishni istaymiz, azoblanishimiz barxam topganda esa, chin ma'noda farog'atlanamiz. Zotan, azoblanishning tugashi lazzatlanishni anglatadi". "Inson bolalikda va qarigan chog'da ko'p aziyatdan xoli bo'ladi. Chunki inson xayotining deyarli dastlabki paytlari qayg'u g'amdan xoli bo'ladi ".<sup>1</sup>

Epikur ta'llimotiga ko'ra, inson xayotining moxiyati va ideal baxti "ataraksiya" tushunchasida mujassami topadi. Mazkur tushuncha insoning ruhiy istiroblardan hamda jismoniy azoblardan xoli xolatini ifodalaydi. Epikur insonni boshqa jonli mayjudotlardan farqini xisiyot va sezgilarni anglay olishida deb biladi. "Insoning xayvondan farqi u azob va lazzatlanishini tafakkur bilan onglay oladi, xayvonda esa, bu xislat yo'q. Xayvon azob va lazzatlanishni xis eta oladi xolos".

Epikurning inson xaqidagi mazkur ta'llimoti keyinchalik gedanistik qarashlarga asos bo'ldi. Gedanizm ayniqsa 19 va 20 asrlarda ijtimoiy xayotda keng ta'sirga ega bo'ldi. Bu borada J. S Millning utelitaristik qarashlari gedanizm ta'llimotidagi lazzatlanish, farog'atlanish printsiplari bilan bir qatorda foydalilik tamoyilini ham joriy qilindi.

Utelitarizm har qanday lazzat va farog'atga intilishni keskin qoralaydi. Unga ko'ra inson avvalombor o'ziga taklif etiliyotgan lazzat va farog'atni oqibatini o'ylab ko'rishi lozim hamda ulardan ayni foydalisini tanlamog'i maqsadga muvosiq. Klassik utelitarizmnинг vakillaridan biri Irimiya Bentam utelitarizm axloqiga oid butun boshli tizmni ishlab chiqdi. Unga ko'ra, insoning lazzat va azobni xis talqin etuvchi xisiyotlari g'oyat subektiv bo'lib, u universal umum talqin etilayotgan qoidalarga doyim ham muvosiq kelavermaydi. Inson boshidan kechiradigan tasurotlar hamisha hilma xil bo'ladi. Bitta insondagi turli xil kayfiyat atrofdagi narsa va xodisalarga turlicha baxo berishga majbur qiladi. Chunonchi xar bir inson o'zining subektiv xolatiga ko'ra lazzat va azobni turlicha tasavur qiladi. Boshqacha qilib aytganda Epikur asos solgan gedanizmdan farqli ravishda utelitarizm inson xayotining asosiy omillaridan biri bo'lgan azob va lazzatlanish kabi axloqiy tushunchalarni miqdori emas, sifati nuqtaiy nazardan ko'radi.<sup>2</sup>

Utelitarizmnning inson xaqidagi yondashuvlari ularni axloqiy tushunchalarni tasniflashlari bilan ham belgilanadi. Masalan, lazzatlanish tushunchasi yuqori quyi, foydali va zararli kabi darajalarda baxolanadi. Misol uchun: intelektual lazzatlanish yuqori, xissiy lazzatlanish esa quyi, alturistik lazzat yuqori, egaistik lazzatlanish quyi darajada ko'rsatiladi. Mazkur tasniflardan qay birini tanlash inson xayotining mazmun moxiyatini ko'rsatadi. J. S Millning "xayotdan lazzatlanib yashagan

<sup>1</sup> Choriev A. Inson falsafasi -Toshkent O'FMJ, 2006 S-214  
<sup>2</sup> Гаранина О.Д. Философия человека -М. 2006 S-44

axmoq bo'lgandan ko'ra, xayotdan azoblanib yashagan Suqrot bo'lish afzal" degan iborasi yuqoridagi axloqiy printsipni to'la ifodalaydi.<sup>1</sup>

Bu ma'noda gedanizm va utelitarizm ta'lomitidagi inson xayotining ma'nosini muammosini baxolarkanmiz, bunda inson o'z hayoti davomida qanday farog'atlanish xaqida fikr yuritilayotganligiga etibor qaratmog'imiz zarur. Mazkur yondashuvda lazzatlanish va farog'atlanish inson hayotining bosh maqsadi sifatida belgilanarkan, ularni turli jarajada talqin etilishi tabiiy xol. Masalan, ilm fan bilan mashg'ul bo'lish, yoki, insoniyatga foyda keltirish yo'lida xizmat qilishdan mammun bo'lish, albatta jismoniy, yoxud egoistik lazzatlanishdan keskin farq qiladi. Darxaqiqat ushbu ikki jixat o'tasidagi printsipial farq ularning oqibati va insoniyatga foydalili nuqtaiy nazaridan baxolanadi. Ilm fan bilan mashg'ul bo'lish olimga lazzat berishi bilan bir qatorda insoniyatga ham foyda keltirishi ko'proq axamiyatga ega bo'ladi.<sup>2</sup>

XX asr G'arbiy Evropa falsafasida inson fenomeni xaqida egzistentsializm g'oyalari inson hayotining ma'nosini masalalariga tubdan o'ziga xos tarzda yondashuvlarni ilgari surdi. Egzestentsializm maktabi vakillaridan biri Albert Kamyuning qarashlari tom ma'noda inson hayotining moxiyatiga qaratilgan. Kamyuning falsafiy asarlaridan biri "Sizif xaqidagi afsona" kitobida yozuvchining bor etibori inson hayotidan ma'no izlashga qaratilgan. Kamyu inson hayotini faqat biologik extiyojlarni aks etadigan voqeylekmi, yoxud, unda chin ma'nodagi insoniy qadriyatlar xukm suradimi? Degan savollarga javob izlaydi<sup>3</sup>.

Kamyuga ko'ra inson o'z hayotidan ma'no izlarkan, atrof borliqdan o'zini o'rab turgan narsalarning moxiyatidan javob izlamoqqa intiladi. Biroq, u tabiatga nechog'liq nazar solmasin uni o'zidan farqli ekanligini, insonni tabiatdan tom ma'noda begonalashghanini anglaydi. Xuddi Sartr kabi Kamyu ham ushbu xodisani dunyonni azaldan beshavqatligi sifatida talqin qiladi.

"Binobarin tabiatning o'zi shavqatsiz ekan, u xolda odamlar ham, tabiatan shavqatsizdirlar. odamlar o'zlarini ham, boshqalarni ham tushunishga qodir holda tug'ilmaydilar, oqibatda ular bir birlaridan begona xolda yolg'izlikka maxkumdirlar, ularning hayoti shavqatsiz va bema'no munosabatlar bilan to'la".

Inson fenomeniga begonalashuv printsipi nuqtaiy nazaridan yondashuv Kamyu qarashlariga muvofiq universal axamiyat kasb etadi. Kamyu o'zining ekzestensial qarashlariga mantiqiy asos sifatida o'z jamiyatida sodir bo'lgan ijtimoiy voqeyleka asoslangan imperik faktlarni, baddiy to'qimalarini asos qilib keltiradi. Aynan shu jixat oqibatida Kamyu falsafasida "apsurt" katigoriyasi vujudga keladi. Umuman olganda mazkur tushuncha Kamyu falsafasining bosh

<sup>1</sup> Камю А. Бунтующий человек -М. 1990. С-54

<sup>2</sup> Чонев А. Inson falsafasi -Toshkent. O'FMJ, 2006 S-141

<sup>3</sup> Гаранина О.Д. Философия человека -М. 2006. С-54

g'oyasi sifatida ham talqin etiladi. Bejizga xx asr faylasuflari va adabiyotshunoslari Kamyu falsafasini apsurt falsafa deya nomlashgan.<sup>1</sup>

Hayot ma'nosini xaqidagi savolga to'xtalarkan Kamyu, inson tabiat va taqdir una nimani ravo ko'rsa ularning birini qabul qilmog'i kerak deya takidlaydi. "Bir tomondan hayot ma'nosini izlash inson borlig'ining xaqiqiy moxiyati sanaladi, biroq, boshqa tomondan olib qaraganda bu intilish inson hayotini bema'no degan xulosaga olib keladi. Hayot ma'nosini izlash bu masalaning birinchi bosqichi. Uning ikkinchi bosqichi esa, Hayotga ma'no berishdan, "ma'noli hayot" yaratishdan iborat". "Xo'sh qisqacha qilib aytganda inson hayotining mazmun moxiyati nimadan iborat, tabiyki ushbu savolga har bir kishi o'ziga xos tarzda turlicha javob beradi. Biroq, masalaning bir tomoni shundaki, ushbu javoblarda bir muncha umumiylilik ko'zga tashlanadi. Bu umumiylilik muxabbat va ijod tushunchalarida aks etadi. Ko'pchilik kishilar aynan shu ikki tushunchada o'z hayotlarining ma'nosini ko'radir. Darxaqiqat muxabbat hayotni vujudga keltiradi, uni qo'llab quvvatlaydi. Ijod esa insonni o'z o'zini kashf etishda, vosita bo'ladi, insoning tafakkur taraqiyotiga tutki beradi".<sup>2</sup>

Inson hayoti ma'nosini axloqiy kategoriya sifatida ijtimoiy falsafiy fanlar doirasida muxum o'rIN tutadi. Kishilik jamiyatni paydo bo'lgandan to bugungi kungacha inson hayotining mazmun moxiyati xaqidagi turli qarashlar muloxazalar o'z axamiyatini yo'qotmagan. Inson nima uchun bu dunyoga keladi? Uning hayotda tutgan o'rni qanday? Inson hayotining ma'nosini nimadan iborat? Bu kabi savollar barcha faylasuf va mutafakkirlarni o'ylantirib kelishi tabiiy. Inson hayotining ma'nosini xaqidagi qarashlarning axloqiy axamiyatga egaligi ham shundaki, mazkur savollarga har qanday inson o'zicha, o'zini o'tab turgan madaniy muxit doirasida javob izlaydi. Masalan ingliz shoiri Shekspir Inson hayotining ma'nosini ezgulikka xizmat qilish desa, nemis faylasufi Fredrix Nitshi insonni yashashdan maqsadi "A lo odam" ni vujudga kelishida qurban bo'lish deb xisoblaydi. Xo'sh, aslida inson nima uchun yashaydi? Yashashdan maqsad nima? Inson hayotining ma'nosini nimada?

Har bir inson o'z umri mobaynida ana shu savollarga javob topishga urinadi va hayotining ma'nosini o'ziga xos tarzda tushunadi. Shu bois u etikaning ancha murakkab tushunchalaridan biri hisoblanadi.

Avvalo shuni aytish joizki, hayotning ma'nosini yashashdan maqsad degan tushuncha bilan aralashtirib yuborish hollari ko'p uchraydi. Vaholanki, ularni aynanlashtirish mumkin emas, chunki hayotning ma'nosini maqsadga nisbatan juda qamrovli tushuncha, o'z ichiga o'nlab, balki yuzlab maqsadlarni oladi, aniqrog'i, u

<sup>1</sup> Гуревич П С Человек -М- 1995 S-152

<sup>2</sup> Чорин А. Inson falsafasi -Toshkent. O'FMJ, 2006 S-181

muayyan maqsadlar tizimidan tashkil topadi. Shu bois kimningdir biror-bir ezgu maqsadi amalga oshmay qolsa, uning hayotini «ma'nosiz» deb bo'lmaydi.

Axloqshunos olim Abdulla Sher xayotning ma'nosini haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: «Ba'zan hayot «ma'nosiz» kechishi ham mumkin. Bunda kishidagi maqsadlar o'tkinchi, mayda, yuksak orzu-intilishlardan yiroq, hayvoni, tuban, hatto yovuz bo'lishi mumkin. Mazkur kishi - «hayot egasi»ning bunday tabiatni jamiyat erishgan axloqiy daraja bilan baholanadi. Zero, kimdir o'z hayoti ma'nosini qanday yo'l bilan bo'lmasin boy-badavlat, to'kin-sochin yashashda deb tushunadi: harom-xarishning farqiga borib o'tirmaydi, birovning haqidan qo'rqmaydi yoki qanday vositalar bilan bo'lmasin, martabaga erishishni o'z oldiga hayotiy maqsad qilib qo'yadi, faqat «yulsam» deydi. Boshqa birov esa qonunni buzmaydi, lekin o'zgalarga qayishishni xayoliga ham keltirmaydi, hech kim bilan ishi bo'lmaydi, faqat «o'z qobig'ida» yashashni afzal ko'radi.

Yana bir toifa odamlar borki, ular hayotining ma'nosini eng yuksak qadriyatlar bilan bog'laydilar va jamiyatda yuksak axloq egasi, go'zallik oshuftasi, e'tiqodi but kimsalar sifatida e'tibor qozonadilar. Ular oliy ideallarga intilib, fidoyilarcha umr kechiradilar. Hayotining ma'nosini o'zidan keyin qoldiradigan «ikkinci umr»da ko'radilar. Har bir jamiyatning taraqqiy topishi yoki tanazzuli hayotning ma'nosini ana shu tarzda tushunuvchilarning ko'pligi yoki kamligi natijasida ro'y beradi, bir so'z bilan aytganda, bunday tom ma'noda «elim deb, yurtim deb yonib yashaydigan» odamlar yuksak axloqli, demokratik, erkin jamiyatning ustunlaridir.

Biz yuqorida ko'rib chiqqan toifalar ikki umumiy ijtimoiy-ma'naviy guruhning biriga, ta'bir joiz bo'lsa, shartli ravishda dunyoviy deb ataladigan qismiga mansub.”<sup>1</sup>

O'z tabiiati borlig'i, hayot moxiyati xaqida o'ylash, muloxaza qilish faqat insonga hosligi bo'lgani uchun ham, ushbu muammolar ko'pincha falsafiy fanlar, xususan axloqshunoslik fani doirasida taxlil etiladi. Aynan insonda hayot ma'nosini izlashga, o'zini nima uchun yaratilganligini muloxaza qilishga ichki bir extiyoj tug'uladi. Insonda kechadigan ushbu xolatni faylasuf Imanuel Kant insondagi o'z o'zini axloqiy baxolash deya takidlaydi.

Axloqshunoslik fani tarixiga ko'ra inson hayotining ma'nosini haqidagi qarashlar va muloxazalarini asosan uch yo'nalishga ajratish mumkin:

I individualistik kontsepsiya: mazkur kontsepsiyaga ko'ra inson 'ayotining mazmuni va uni baxt saodatga erishishi individual axamiyatga ega. Ushbu qarashni asosan gedanizm ta'lomitida uchratish mumkin. Bundan tashqari xx asr utelitarizm va pragmatizm g'oyalariда ham individual yondashuvlar ko'zga tashlanadi.

<sup>1</sup> Abdulla Sher Axloqshunoslik Yangi asr avlod. 2010 yil B 76

2 inson hayotining ma'nosini diniy nuqtaiy nazardan baxolash. Ushbu yondashuvga ko'ra "u dunyo" bilan bog'liq qarashlar asosiy qadriyat sanaladi, bu olam esa, insonga xudo tomonidan sinov uchun yaratilgan deya talqin qilinadi. Shu boyis ham, insonga bu dunyoda duch keladigan qiyinchiliklar va azoblar "u dunyo" da roxatlanish uchun vosita, to'lov o'rniда qabul qilinadi. Individual kontsepsiyanan farqli o'laroq diniy axloq roxat farog'atdan kechishni, asketik hayotni targ'ib qiladi.

3 pessimistik yondashuv. Ushbu yondashuv inson hayotidan ma'no izlashni inkor qiladi, inson hayotini beman, apsurt deya baxolaydi. Pessimistik yondashuvga muvofiq, inson hayoti har qanday obektiv, barqaror moxiyat va ma'nodan maxrum. Shu boyis ham, inson hayoti beman va shavqatsizdir.

Mazkur qarashga ko'ra, inson doyim yolg'iz va o'z xoliga tashlab qo'yilgan, shuning uchun ham, u har vaqt qo'rquv va bezovtalikni his qiladi.<sup>1</sup>

Yozma man'balarga ko'ra, pessimistik qarashlarning qadiymisi "Biblia" dagi "Ekklesiast" kitobidir. Ushbu kitob "Sulaymon payg'ambar kitobi" ham deya ataladi. Unga ko'ra, o'z davrining etuk donishmandi bo'lgan Ekklesiast "Men hayotdan nafratlanardim, zero yashash ruhni azoblash va bexuda ishlardan o'zga narsa emas. Hamma narsa yo'qlikdan yaratilgan va yo'qlikka qaytadi" deya takidlaydi.

A. Shopengauer "Bu olamda insoning barcha istaklari qondirilmas ekan hayot beman bo'llib qolaveradi deb yozadi. Inson hayotining ma'nosи va inson hayotining maqsadi, garchi bir biriga yaqin tushunchalar bo'lsada, ularning farqli jixatlari mavjut. Xayot ma'nosи bu - obektiv, inson istaklaridan tashqari xolat hayot moxiyati inson xoxlaydimi yo'qmi unda mavjut bo'ladi. Hayotdagi maqsad esa, inson tomonidan belgilanadi. U inson hayotining mazmun moxiyatini ichki, shaxsiy tarzda anglashi hamda ularni muayyan narsa va xodisalarda kankretlashishida namoyon bo'ladi.

Inson hayotining ma'nosи kategoriya sifatida insonni hayotda tutgan o'rnnini, shaxsni ma'naviy, axloqiy qiyofasini belgilashda muxim axamiyatga ega sanaladi. Bundan tashqari Hayot ma'nosи muammosi ko'p yillik hayot tajribasi yordamida to'plangan subektiv xulosa sifatida ham ko'rildi. Bu ma'noda hayotiy qadriyatlarning ham, axamiyati katta.

Falsafa tarixida hayot ma'nosи tushuncha sifatida xix asrda paydo bo'ldi. Bu davrigacha falsafa tarixida inson hayot ma'nosи "oliy ezzulik" tushunchalari bilan belgilangan. Bundan tashqari ushbu tushuncha nafaqat falsafa balki, iloxiyotshunoslik, va badiiy adabiyot, sanatning an'anaviy kategoriyalardan biri sanaladi. Hayot ma'nosи haqidagi tasavurlar har qanday insonni xayot faoliyati

<sup>1</sup> Асмус В.Ф. Античная философия. – М.: Высшая школа, 1976.

davomida shakilanadi xamda shaxsning ijtimoiy xolatiga, dunyo qarashiga, muayyan tarixi jarayonga qarab belgilanadi. Moddiy farovon sharoitda yashagan kishi uchun hayot ma'nosи muayyan yutuqqa, yanada farovon hayotga intilishdan iborat bo'lishi mumkin, biroq, jamiyatning quyi qatlamida yashovchi kishilar uchun hayot ma'nosи mazkur xolatdan tubdan farq qiladi. Shu boyis kishini jamiyatda egalab turgan mavqeyi hayot ma'nosini taxlil qilishda muxum omil bo'la oladi.

Hayot ma'nosи tushunchasi har qanday dunyoqarash, xususan, falsafiy, diniy, mifologik, ilmiy tafakkur tizimida mavjut bo'lib, u ayni dunyo qarash yoqlayotgan qadriyatlarni, normalarni hayot tarziga muvofiq faoliyatni oqlashga ham, xizmat qiladi.

Jamiyatdagи individlar, gruxlar, jamoalar va sinflarning ijtimoiy xolati, intilishlari, man'fatlari, talablari, meorlari shu guruxlarning hayot ma'nosи xaqidagi umum etirof etilgan tasavurlarni vujudga keltiradi. Ushbu tasavurlar garchi takrorlanish xususiyatiga ega bo'lsa ham, muayyan darajada o'ziga xos belgilarga ega bo'ladi. Masalan qadimgi Yunon faylasufi Aristotel "Insonlarning xati xarakatining provard maqsadi baxtga erishishdan iborat " deya takidlaydi. Faylasufning fikricha eng oliy baxt inson o'z moxiyatini to'la namoyon etishidadir.

Kiniklar maktabining vakillarii Antisfen, Diogen Sinopskiy inson hayot yo'lining provard maqsadi mutlaq ezgulikka erishish deya takidlaganlar. Kiniklarning ta'limotiga ko'ra mutlaq ezgulik boriga qanoat qilib yashash va yovuzlikka ergashmaslik xisoblanadi. Ushbu fazilatlar insonni mutlaq mustaqil qiladi. Inson o'zini o'rab turgan beqaror va barcha mavjudotga xukmini o'tkazadigan borliqdan mustaqil, xoli bo'lmog'i, hamda ichki xotirjamlikka intilmog'i kerak. Biroq, muammoning boshqa bir jixati shundaki, kiniklar ilgari surgan erkinlik insonni individuallik bilan chegaralaydi: unga ko'ra, inson oila, davlat, mol mulk, mexnat, sanat, ilm fan, umuman olganda jamiyat vujudga keltingan barcha jixatlardan holi bo'lmog'i kerak.

Stoiklar ta'limotiga ko'ra insoning yashashdan bosh maqsadi sof axloqiy fazilatlarga erishish bo'lib, bu fazilatlar mutlaq xaqiqatni anglash bilan egallanadi. Insoning ruhi abadiydir, ezgulik esa, inson hayotida olam tafakkuri, "logos" va tabiat qonunlariga muvofiq bo'ladi. Stoiklarning fikricha ideal inson olamdagи yovuzlik va o'zgarishlarga, inson ruhiyatidagi taloto plarga etibor qilmaydigan xotirjam kishi xisoblanadi.

Uyg'onish davrigacha inson borlig'inинг moxiyati tashqi omillar bilan belgilangan bunga o'sha paytdagi diniy va metofsizik tafakkurning ustunligi sabab bo'lgan. Uyg'onish davridan so'ng esa, har bir inson o'z hayot moxiyatini o'zi belgilash lozim degan qarashlar ilgari surildi.<sup>1</sup>

Nemis faylasufi Artur Shopengauer insoning hayot moxiyatini qandaydir olam irodasi belgilaydi deya takidlaydi. "Odamlar biror ishga qo'l ursalar buni o'z ixtiyorlari bilan amalgalashirayapman deb o'ylaydilar, lekin aslida ular olam irodasining izmidalar". Onglanmagan xoldagi mutlaq iroda o'zining yaratgani, ya'ni insonlarga nisbatan besfarq : ularni tasodifiy voqeylek oqimiga tashlab qo'yan. Shopengauerga ko'ra hayot, do'zaxdan iborat: unda nodon kishi roxat farog'at ketidan chopib, oqibat azob uqubatga duch keladi, donishmand kishi esa, azob uqubatlardan chetlanish uchun istaklarini jilovlaydi. Dono odam qayg'u istiroblarning muqararligini biladi, shu bois ham, u istak va xoxishlarini cheklab yashaydi.

XX asr fransuz faylasuflaridan biri J. P. Sartr inson hayoti va o'limining moxiyati xaqida yozarkan, "Agar biz o'limiga maxkum ekanmiz bizning hayotimizda hech qanday mani yo'q, zero hayot va o'lim muammozi echimsiz muammoligicha qolaveradi. Olam hech qanday sababga ega emas... bizning tug'ulishimiz ham, o'limimiz ham, apsurt, ya'ni bemanilikdir" deya takidlaydi.

F. Nitshi olamni, xususan inson borlig'ini har qanday mazmun moxiyat, va qadriyatdan xoli ekanligini "nigilizm" tushunchasi bilan izoxlaydi. "nigilizm" , "nigilizm" ya'ni hech nima degan ma'noni anglatadi.

Nitshi xristianlik dinini nigilik den deya ataydi. Zotan xristianlik Nitshining fikriga ko'ra "u dunyo" degan tushuncha sababli inson hayotini chidab bo'lmas azoblarga duchor qiladi. U xristianlik g'oyalarining inkor qilinishi insonlarning hayotiga yana mazmun moxiyat keltiradi deya takidlaydi. Nitshi inson hayotining ma'nosini erda "alo insonni" vujudga keltirishga xozirlik ko'rish deb biladi. "Inson bu maymun va Alo odam o'rtasida tortilgan arqondir "

Hayot ma'nosini izlash jamiyatdagi statuslardan qattiy nazar har bir insonni qiziqtirishi mumkin bo'lgan jarayondir. Oddiy odamlar ham, mutafakkur faylasuflar ham, o'z hayot ma'nosini topishga intiladi. Biz yuqorida inson hayoti ma'nosini xaqidagi qarashlarni uch turga bo'linishini taxlil qildik. Biroq, falsafa tarixida inson hayotining maqsadi, mazmuniga nisbatan yondashuvlar g'oyatda ko'p. Masalan aksariyat tatqiqotchilar inson hayotining moxiyati xaqidagi kontsepsiyalarni asosan ikki tipga: obektiv va subektiv yondashuvlarga ajratadi.

Bu ma'noda subektiv yondashuv ko'plab faylasuf va olimlarning hayot ma'nosini xaqidagi o'z tajribalariga tayangan xolda chiqarilgan subektiv xulosalarini ifoda etadi. Mazkur yondashuv tarafdoqlari xar bir inson hayotda individual, o'ziga xos axamiyatga , boshqalarnikiga o'xshamaydigan hayot yo'liga ega deb xisoblaydilar. Ob'ektiv, ya'ni metofizik yondashuv tarafdoqlari esa, inson hayoti qachongina o'z individuallik qobig'idan chiqib, o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajargandagina mazmun moxiyatga ega deya takidlaydilar.

Obektivistik yondashuv vakillari insoning hayot ma'nosini azaliy ibtido belgilaydi deb xulosa qiladilar. Mazkur ibtido har bir inson hayotida obektiv axamiyatga ega. Agar inson obektiv axamiyatga ega bo'lgan ma'noni anglamay, o'zining individual, subektiv manfatlarini amalga oshirishga intilsa, ertami, kechmi o'sha subektiv qadriyatlarining aslida to'g'rimi, noto'g'rimi ekanligiga doir savollar paydo bo'ladi. Individual qadriyat va maqsadlarni amalga oshirirkан inson, bor kuch g'ayratini unga sarf etadi. Insoning faqat o'zigagina xos bo'lgan istak va xoxishlar nisbiy axamiyat kasb etadi. Ularni amalga oshirish kishidan mutlaq istak va maqsadni talab qiladi.

Obektiv metosizik yondashuv o'z moxiyatiga ko'ra diniy mifologik mazmun kasb etadi. Unga ko'ra inson borlig'ining moxiyati ichki garmoniyaga intilish hamda kosmos va tabiat bilan uyg'unlikda yashashdan iborat. Mazkur yondashuv qadimgi sharq xalqlarining inson xaqidagi qarashlaridan tortib qadimgi yunon miflari va antik davrdagi bir qator falsafiy oqimlarni o'z ichiga oladi.

Dastlab inson hayoti ma'nesi masalasi individdan aloxida, mustaqil xolda taxlil etilmagan aksincha, olamning umumiyl qonuniyatlariga "kosmosga" muvofiq tarzda o'r ganilgan. Biroq, shunga qaramay vujudga kelgan falsafiy ta'limotlar inson hayotini diniy e'tiqotdan aloxida mantiqiy qonuniyatlariga asoslangan xolda ko'rishni taqazo qildi. bu kabi qarashlar keyinchalik inson hayoti ma'nesi xaqidagi keyingi g'oyalarga poydevor bo'lib xizmat qildi. Ularning ayrimlarida inson hayoti insoning tabiiati, moxiyati bilan aynanlikda qaraldi, boshqa bir yondashuvlarda inson hayoti ma'nesi insondan tashqarida deya talqin etildi. Birinchi qarash falsafa tarixida inson borlig'iga nisbatan immanent yondashuv, ikkinchi talqin esa, transtsendental yondashuv nomi bilan ataldi.

Immanent g'oyalalar gedanizm, evdemanizm, utelitarizm kabi falsafiy ta'limotlarda o'z aksini topadi. Mazkur ta'limotlar falsafa tarixida etarlicha axamiyatga ega bo'lib, ular inson hayotini insoning real borlig'i, biologik tabiat, moddiy qadriyatlar bilan bog'lashga xizmat qilgan. Ushbu g'oyalalar xatto zamonaviy falsafiy idealogiyalarda ham, qisman aks etadi. Bundan tashqari inson hayoti xaqidagi ushbu tasavurlar har bir insoning kundalik turmush tarzidagi muammolarini moddiy manfa't va maqsadlarini belgilaydi.

Inson hayotini transtsendental baxolovchi g'oyalalar inson hayotining moxiyatini insondan tashqarida bo'lgan, mustaqil mavjutlik bilan bog'laydi. Ushbu yondashuv avvalombor teologik falsafiy mazmun kasb etib, borliq va inson moxiyatini belgilovchi mutloq aql, "logos", yoki xudo tushunchasi bilan asoslanadi. Unga ko'ra inson xayotining bosh maqsadi olamning asosini belgilovchi "oliy aql" xaqidagi ilmlarni egallamog'i kerak.

Inson hayotini transtsendental ruxda aks etish ko'pincha o'rta asrlar va uyg'onish davri mutafakkirlarining asarlarida ifodalanadi. Masalan Italiya shoiri

Dante o'zining "Ilohiy komediya" asarida, asar qaxramoni tilidan "Insoning xayvon va boshqa mavjudotlardan farqi, u oliv qudratni anglash, uni his qilish baxtiga muyassarligidadir" deya takidlaydi. "insonni ilmga intilishi oqibatida baniy odamzot farovonlikka erishadi. Shu ideal uchun yashash chinakkam insoning oliv maqsadidir"<sup>1</sup>.

Xx asr tom ma'noda inson hayoti ma'nosи masalasida keskin qarashlar, muloxazalarga zamin yaratdi. Ayni shu davrda nafaqat falsafa va axloqshunoslik fanida balki, sotsiologiya, psixologiya, fanlarida inson hayot ma'nosini o'ziga xos nuqtaiy nazardan baxolash, insonga tabiat, jamiyat va madaniyatning ajralmas bo'lagi sifatida qarash shakillandi. Bu falsafiy antropologiya, fenomenologiya, personalizm, ekzistensionalizm kabi yo'naliш va maktablarda aks etdi. Masalan ekzistensionalizm g'oyalariga muvofiq inson hayotining moxiyatini aybdorlik va masulyiat, qaror va tanlov, erkinlik va zarurat, o'lim va hayot kabi tushunchalar belgilaydi. Aynan mana shu tushunchalar vujudga keltirgan vaziyatlarda insoning chin ma'nodagi moxiyati, mavjudligi namoyon bo'ladi. Inson faqat tanlov vaziyatlardagina o'z moxiyatini yuzaga chiqaradi. K. Yaspers mazkur vaziyatlarni chegaradosh vaziyatlar deya ataydi.

Tatqiqotchilar V.L Obuxov va V.P. Salnikovlarning fikricha hayot ma'nosи inson hayotidan tashqarida ham, uning ichida ham emas, hayot ma'nosи hayotning o'zida. Hayot ma'nosini hayotdan tashqarida yoki, uning ichidan izlash bexudadir. Hayotni bema'no deb qabul qilish kishining o'z taqdiridan noroziligi, milliy mentaligi, o'tmish qadriyatlaridan uzulishi, kelajakka ishonmasligi, tabiat, atrof muxitdan chetga chiqishi, natijasida vujudga keladi. Bundan tashqari ushbu xolat insonni manaviy idealarini barbod bo'lishi, ruhiy inqiroz o'z o'zidan begonalashuv tufayli ham yuzaga keladi. Bejizga xayot ma'nosи muammosi ruhiyat, ong, tafakkur muammosi sifatida baxolanmaydi.

Hayot ma'nosini hayotning o'zi bilan aynan ko'rish har bir insondagи qobiliyat, istedot hamda hayotdan qoniqish, o'z menligini ijtimoiy hayotda namoyon eta olish hislari bilan bog'liqligini ilgari suradi. Bu ma'noda inson o'z hayotiy faoliyati bilan nafaqat hayot ma'nosini topishga xarakat qiladi balki, o'z nomini abadiy qolishga ham, imkon yaratadi, insoning ijodiy faoliyatida qisman uning ruhi aks etadi. Agar insoning tabiyi instinctlar bilan bog'liq xarakatlarida ma'no bor ekan, demak uning barcha xarakatlari ma'noga ega. "Inson qachonki, o'z xayot ma'nosи haqida kamroq o'ylasa shuncha xotirjam yashaydi. Biz eb ichish, uxlash, sevish, kurashish uchun yashamaganimizdek, yovuzlik va eзgulik yaratish

<sup>1</sup> Уников А.М. Китайско-конфуцианский культурный ареал Запад и Восток Традиции и современность – М , 1993

uchun ham, yashamaymiz. Biz yashayotganimiz uchun e兹gulik qilamiz, kurashamiz, sevamiz, biologik extiyojlarimizni qondiramiz.

Hayot qiyomsiz tanga, u biror natijaga erishish uchun vosita bo'lishi kerak emas. Olamda sodir bo'layotgan barcha narsalar u bilan, uning yordamida, uning o'zida mavjutdir. Hayotning moxiyati uning rangbarangligi va mazmunndorligida, hayotni o'z holicha qabul qilish, hayotdan o'z "Menini" izlash, inson borlig'i va hayot moxiyatini aynan deb bilish insoning hayotdag'i bosh maqsadidir. Hayot omad va omadsizliklari, tubanlik va yuksakliklari, e兹gulik va yovuzliklari, shidat va sokinligi bilan uyg'undir.

Inson ushbu uyg'unlikni atrofidagi olam, oila, qadriyatlar, tug'ilib o'sgan tsivilizatsiya, tabiiat va mentalligidan uzulgandagina yo'qotadi. Aynan shu xolat bugungi globallashuv davrida inson hayotining ma'nosiga oid muammo'larga sabab bo'imodqa.

Inson hayotining ma'nosini shaxsning biologik jixati bilan ham, uzviy bog'liq. Inson umrining uzoq yoki, qisqaligi aynan biologik tabiat sababli yuzaga keladi. Bundan tashqari inson hayotini mazmunan shakilanishi tarixiy voqeylek bilan ham, belgilanadi. Inson biologik mavjudot sifatida dunyoga keladi hamda ijtimoiylashuv jarayonida turli o'zgarishlarni boshidan kechiradi. Biroq shunga qaramay inson hayotini faqtgina biologik va tarixiy davr bilan chegaralash noto'g'ri xulosa beradi, zero inson hayotining ma'nosini, mazmun moxiyati miqdoriy o'lchamdan ko'ra sifatiy axamiyat kasb etadi. Chunki, inson o'z taqadirini, hayot ma'nosini, maqsadlarini o'zi belgilaydi.

Biroq, shu ma'noda insonni o'rabi turgan ijtimoiy muxitni ham inkor etib bo'lmaydi. Aynan shu ijtimoiy voqeylek tufayli inson hayot yo'lini, qiziqish va maqsadini amalga oshiradi. Har bir davr ijtimoiy voqeylek ta'sirida insonlar hayotini maqsadlarini o'zgartirib yuborishga qodir. Jamiyatda yuz beradigan urushlar, ijtimoiy bo'xronlar, moddiy va ma'naviy inqirozlar yoki, farovonlik ko'plab insonlarning hayot xaqidagi tassavurlarini, maqsadlarini ideallarini boshqa o'zanga keskin tarzda burib yuboradi.

O'lim va o'limaslik (abadiylik). O'lim va abadiylik ahloqshunoslikdagi eng murakkab tushunchalar. Avvalo shuni aytish kerakki, o'li shu paytgacha ahloqiy tushuncha sifatida «rasmiy» olib qaralmagan. Vaholanki uni eng katta yovuzlik, eng ulkan baxtsizlik tarzida ta'lqin etish odat tusiga kirgan. Mantiqan olib qaralganda, e兹gulik va baxtning ziddi bo'lgan tushuncha axloqqa taaluqli, ya'ni illatdir. Zero o'lim oliy qadriyat bo'lmish inson hayotini kesib qo'yadi, uning e兹guliklar, yaxshiliklar qiliga bo'lgan imkoniyatini yo'qqa chiqaradi. Masalan, Ibn Sino, juda bo'limaganda, yana o'n yil yashaganida 67 yoshga kirganida qanchadan – qancha e兹gu ishlar qilgan, falsafa, tibbiyot va badiiy adabiyot sohasida ko'plab buyuk asarlar yaratgan bo'jur edi. O'lim uni, u orqali bizni ham ana shu ma'naviy

ezguliklaridan mahrum qildi. Demak, o'lim, faqat biologik yoki tabiiy tushuncha emas, uning mohiyati ahloqiylik bilan chambaras bog'liq. To'g'ri o'lim – haq. Lekin bu erda o'limning turlari mayjudligini unutmaslik lozim.

O'limning birinchi turi, bu tabiiy, tashqi tabiat va inson ichki tabiat bilan bog'liq o'lim. U ikki xil bo'ladi: birinchisi – odatiy o'lim, u qarilik tufayli, inson a'zolarining hayotni davom ettirishga yaroqsizligi tufayli ro'y beradi. Ikkinchisi – halokat, u biror bir tabiiy ofat, yoki tasodiflar tufayli voqe bo'ladigan o'lim.

Ikkinchii turdag'i o'lim – jamiyat bilan bog'liq, u ham ikki xil bo'ladi. Birinchisi – majburiy o'lim, u odatda jazo shaklida amalga oshiriladi. Ikkinchisi xili – bu dunyodagi azob–uqubatlardan, ular hoh ruhiy, hoh jismoniy bo'lsin, qutilib, uyqu bilan mangu orom olish uchun ixtiyoriy tarzda amalga oshiriladigan o'lim, totli o'lim yoki evtanaziya deb ataladi. Ayni ana shu ikkinchi turdag'i o'lim ahloq bilan bog'liq. Chunonchi ikkinchi turdag'i o'limning birinchi xili – ulkan yovuzlik hisoblanadi. Shunga ko'ra o'lim jazosi yovuzlikka qarshi yovuzlik ko'rsatishdir. Bu haqda keyinroq bafurcha to'xtalamiz.

Ixtiyoriy o'lim, aytilganidek, ba'zan ruxiy iztiroblar orqali hayotda o'z o'rnni topa olmaganligi, o'zi uchun eng ulug' hisoblangan maqsadiga erisha bilmaganligi natijasida ro'y beradi. Bunday holat goho ommaviy tus olishi ham mumkin, o'tgan asr 80 yillardining ikkini yarmida sobiq totalitar rejim iskanjasidagi O'zbekistonda ayollar orasida o'zlarini yoqib yuborish xolatlari ko'plab yuz berdi. Yuzlab ayollar (asosan kolxozchilar) og'ir jismoniy mehnat, kuvonchsiz shaxsiy hayot, reaksiyon urf–odatlar, turmushdagi etishmovchiliklar tufayli hayotdan ko'z yumidilar. Ular ixtiyoriy o'limni qabul qildilar. Bunday o'lim aslida yashashni istamaslik emas, balki aksincha, Shopenenhauer aytganidek, yashash istagi tufayli yuz beradi, ya'ni o'zini o'ldirayotgan odam yashashni istaydi, faqat o'zi yashayotgan hayotdagi shart sharoitdan, jamiyat qoidalaridan norozi, hayotni emas Anna shu noinsoniy sharoitni tark etish maqsadda shunday qiladi, kimlargadir yoki jamiyatga achiqma – achchiq hayotdan ko'z yumadi.

Ixtiyoriy o'limning ikkinchi ko'proq inson salomatligini yo'qotishi, kuchli jismoniy og'riqlardan xalos bo'lishga intilishi, yuqorida aytilganidek, o'limni mangu orom, totli lahma sifatida qabul qilishi bilan izohlanadi. Bunday o'lim ko'pincha tibbiyot odobi masalalari bilan bog'liq. Masalan, surunkali jismoniy og'riq natjasida, faqat kuchli narkotik dorilar bilan uyquga ketadigan og'ir ahvolga bemor, oxir–oqibat bir – ikki oydanmi, bir–ikki yildan keyinmi, baribir, o'limga maxkumligini xis etgach tibbiyot xodimidan o'zini dori dozasini kuchaytirish orqali o'ldirib qo'ya qolishni iltimos qiladi. Tibbiyot xodimi qanday qaror qabul qilishi kerak? Bemorni o'ldirish orqali og'ir azoblardan qutqarish axloqiylikka kiradimi yoki axloqsizlikkam? Bu muammolar hali uzil–kesil xal etilgan emas. Bundan

tashqari, har ikki holatdagi o'limda o'z hoxishi bilan o'limni barvaqt istagan, Xudo bergen umrni o'zi qisqartirishga ahd qilgan odam ahloqlimi yoki ahloqsizmi?

O'zini o'zi o'ldirishi gunoh, lekin o'zini ham, oila a'zolarini ham qiyinab yashash-chi? Ikkinci xolatda u matonat, mardlik ko'rsatib, «o'ladigan kasalning o'lGANI, bo'lGAN ishning bo'ladigan ma'qul» degan maqolga amal qilgani ahloqiylikmi yoki ahloqsizlikmi? Bu savollarga birdan va bir tomonlama, qat'iy javob berish hozir ham mushkul barcha davrlarda ham mushkul, bo'lib kelgan.

O'lim borasidagi mulohazalarda yana bir muhim masalaga to'xtalamoq joiz. Xo'sh o'lim, odatda qabul qilingan tarzida, eng ulkan yovuzlikini? Bunga dialektik yondashuv, orqali javob berish lozim. O'lim og'ir yo'qotish. «Lekin o'z o'zicha u tabiiy hodisa – yovuzlik emas... U uzoq davom etgan biologik (evolyutsiya) mobaynida foydali va zarur ahamiyatga ega bo'ldi»

Darhaqiqat, o'lim va hayot, boshqacha aytganda, hayot va mamot bir-biri bilan uzviy dialektik bog'liq tabiiy hodisalardan. Bu dunyoda hayotsiz o'lim, o'limsiz hayotning bo'lishi mumkin emas. Buni Lametri obrazli qilib shunday izohlaydi: «Narsalar dunyosida, o'lim arifmetikadagi nolning o'zgasini boshqa narsa emas» faqat bevaqt, fojeaviy o'limni yovuzlik tarzida talqin etish mumkin. Chunki aynan shunday o'lim tufayli, yuqorida aytganimiz, insonni jamiyat va oila uchun qiladigan ezgu ishlar to'xtaydi.

O'z joniga qasd qilish hayotining qadriga etmagan, yashashni istamagan, atrofidaqilardan norozi shaxsning tushkunlikda sodir etgan harakatidir. Bunda inson oxirgi daqiqagacha yashashni istaydi, biroq bu tuyg'u uning o'z joniga qasd qilishiga monelik qila olmaydi.

O'zini o'zi o'ldirish holatining sababini aniqlash — murakkab masala. Ko'pincha, bunga shaxs-ning turmush tarzi, unga ta'sir ko'rsatgan tashqi omillar sabab bo'ladi. Lekin individga bog'liq bo'laman boshqa jihatlarni ham e'tibordan soqit qilmaslik lozim. Deylik, ishsizlik, oiladagi notinchlik, spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalarni iste'mol qilish holatlarining ortishi kabi omillardan ham shaxsning o'zini o'zi o'ldirishiga moyillikni keltirib chiqaruvchi sabablarni qidirish mumkin.

Jamiyatda o'z joniga qasd qilish hamisha qoralangan, hatto jazolangan ham. Shu o'rinda individning o'z joniga ixtiyoriy tarzda qasd qilishi jamiyatga, axloqqa, Xudoga qarshi qaratilgan jinoyat, deb baholanishi kerakmi yoki bu uning yashash huquqiga o'xshash huquqlaridan biri bo'lib, inson undan o'zi istagancha foydalanishi mumkinmi, degan savol tug'ilishi tabiiy.

Tarixda turli xalqlarning o'z joniga qasd qilishga nisbatan qo'llagan jazo choralari bir-biridan farqlanishini hisobga olmaganda, o'zini o'zi o'ldirish holatlarini baholash ikki asosiy bosqichdan o'tganini ko'rishimiz mumkin. Birinchi bosqichda shaxsning o'z xohishiga ko'ra o'zini o'zi o'ldirishi taqiqlangan, lekin

ba'zi hollarda davlat bunga o'z roziligini bergen. Masalan, qadimgi Afinada senat hayoti chidab bo'lmas darajaga etgan, deb baholangan shaxsga o'zini o'zi o'ldirishga ruxsat bergen va bu harakat qonuniy hisoblangan. Aksincha, bunday qilmish jamoa vakillari ishtirokisiz sodir etilsa, axloqsizlik, deya baholangan.

Ikkinci bosqichda o'zini o'zi o'ldirishni qoralash mutlaq xususiyatga ega bo'lib, hech qanday istisnolarga yo'l qo'yilmagan. Jinoyat uchun jazo sifatida tayinlanadigan o'lim jazosidan tashqari, bunday huquq nafaqat manfaatdor sub'ektdan, balki butun bir jamiyat, jamoa hamda shaxs ixtiyoridan chiqarilgan.

."O'zini o'zi o'ldirish huquqi"ga doir bahs-munozaralar hozirgi kunga qadar davom etmoqda. Huquqshunos olim E. Dyurkgeymning ta'kidlashicha, "...o'zini o'zi o'ldirish qoralanishi lozim, chunki bu — axloqimizning asoslariga zid. Bizga inson o'zini o'zi o'ldirayotgan paytda faqat o'ziga zarar etkazadi va jamiyat bu holatga aralashishi shart emas, deb aytishadi. Bu yanglishdir. Jamiyat bunday vaziyatda tahqirlanadi, chunki jamiyat a'zolarini bog'lab turuvchi axloqiy tuyg'ular toptaladi. Inson hayoti shaxs yoki guruh tomonidan boshqarilmaydigan oliv qadriyat, deb tan olingen yoki tan olinishi kerak bo'lgan davrdan boshlab hayotga qarshi qaratilgan har qanday qasd taqiqlanishi lozim... O'zini o'zi o'ldirish holatlari muqaddas qadriyatlarimiz haqoratlangani singari bizni g'azabga keltirsса, unga taalluqli bo'lgan har qanday ko'rinish yoki vaziyatga chidab kelishimiz noo'rindir. Bu masalada chekinadigan bo'lsak, kelajakda jamoa his-tuyg'ulari o'z kuchini yo'qotishi mumkin". Ammo E. Dyurkgeym-dan farqli o'laroq, huquqshunos M. Kovalyov bu muammoga boshqacha yondashgan. Uning fikricha, agar insonga yashash huquqi berilgan bo'lsa, u o'lish huquqiga ham ega bo'lishi kerak. O'zjoniga ixtiyoriy qasd qilish qarori axloqiy va yuridik jihatdan qoralanmasligi lozim. Yashashga bo'lgan huquq har qanday odamning tabiiy huquqidir. U huquqiy me'yordarda to'g'ridan-to'g'ri qayd etilmagan bo'lsa-da, shak-shubhasiz, mavjuddir. Biroq hayot va o'lim orasida davom etayotgan faol hayotda inson uzlucksiz ravishda bajarishi lozim bo'lgan huquq va majburiyatlar ko'p. Ular asosida har bir inson o'zidan keyin "o'z hayotining davomchisi bo'lgan" voris qoldirish huquqiga ega. Bu holat inson hayoti oliv qadriyat ekanini aks ettiradi hamda u axloq, odob, qonun normalari, majburlov va rag'batlantirish tizimi bilan himoya qilinadi. Aynan huquqiy davlatda yashash huquqi sharofati bilan fuqarolik jamiyatidagi qonun normalarining to'liq amal qilishi hamda fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlari ustuvorligi ta'minlanadi

Hozirgi zamон jinoyat qonunchiligidа o'zini o'zi o'ldirish harakatini sodir etish taqiqlanmagan. Bundan amalda o'zini o'zi o'ldirish huquqi mavjud, deb xulosa chiqarib bo'lmaydi. Lekin ba'zi bir olimlar mazkur huquq qonunda aks ettirilishi lozim, deb hisoblashadi. M. Kovalyov bu borada quyidagicha fikr yuritgan: «...inson hayotining mohiyati bilan bog'liq huquqlar faqat me'yoriy hujjalarda aks ettirilgan

normalardan kelib chiqishi mumkin emas. Huquqqa oid me'yoriy tushunchalar faqat jamiyat va shaxslarning o'zaro munosabatlari sodir etilayotgan harakatlariga ta'sir etadi, lekin inson taqdiriga taalluqli munosabat bundan mustasno». M. Kovalyovning nuqtai nazariga qo'shilsak hamda o'lishga bo'lgan huquqni "o'zgarmas tamoyil" sifatida qabul qilsak, evtanaziya muammosi o'z-o'zidan hal bo'ladi. E. Dyurkgeymning qarashlarini yoqlasak, inson hayoti jamiyatga tegishli, jamiyat esa, o'z navbatida, uning hayotini boshqaradi, aks holda, jamiyat tahqirlanadi, degan xulosaga kelish mumkin. Albatta, bunday xulosalarni ma'qullash qiyin. Fikrimizcha, inson o'z hayotiga "xo'jayin" emas. Chunki inson o'z irodasiga bog'liq bo'lmagan holda dunyoga keladi va irodasiga bog'liq bo'lmagan holda dunyoni tark etadi. Bundan tashqari, mazkur masala jamiyatga ham tegishli emas. Inson o'z joniga qasd qilganda o'ziga tegishli bo'lmagan huquqni qo'lga kiritadi va diniy nuqtai nazardan og'ir gunohga qo'l uradi.

Ba'zida o'zini o'zi o'ldirish darajasiga etkazishga o'xshash, aslida, odam o'ldirish jinoyatlar ham uchrab turadi. Masalan, shaxs jismoniy yoki ruhiy zo'ravonlik oqibatida o'zini o'zi o'ldirishi yoki o'z joniga qasd qilishi mumkin. Bunday holatlarda jabrlanuvchining o'z joniga qasd qilishida aybdorning harakatida to'g'ri qasd mavjud bo'lsa, bu odam o'ldirish yoki unga qasd qilish sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim. Aybdor tomonidan voyaga etmagan yoki o'z harakatlarini anglay olmaydigan yoxud ularni boshqara olmaydigan shaxsni o'zini o'zi o'ldirish darajasiga etkazish ham xuddi shunday kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Hayot fenomeni to'g'risidagi falsafiy ta'limotlar fan uchun ham munosib tarzda ratsional ozuqa bera oldi. Zero, falsafaning markaziy muammosi bo'lgan inson va uning hayoti mazmuni bunday qarashlarning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Darhaqiqat, har qanday insonning olamda alohida yashashi sodda bo'lib ko'rinsa-da, aslida uning tana va psixik tuzilishi, hayot tarzining evolyutsiyasi, xulqi, ongi, bilish va kommunikativ qobiliyatlarining evolyutsiyasi nihoyatda uzoq muddatli va murakkabdir. "O'limni eslab turish bu insonni illatlardan qutilishga, yuksak axloqiy tamoyillar asosida yashashga undaydi. Ya'ni bu foniy dunyoda odamzodning bir-biriga zulm qilishi, mol-dunyo yig'ishga ruju qo'yishi, fisqu fujur bilan shug'ullanishi singari salbiy illatlar o'limni eslash tufayli inson hayotidan chekinadi, o'limni eslash ezzulikni barqaror va yovuzlikni inkor etishning eng maqbul yo'llaridan biridir".

Nafaqat islomiy e'tiqod, balki barcha diniy va falsafiy ta'limotlar ham o'lim – haq, hech kim undan qochib qutula olmaydi, deya ta'lim beradi. Shunday ekan, inson o'limoq uchun yaralgan deb aytish ham mumkin. Qadimgi yunon faylasufi Arastu dunyoga yangi kelgan har bir chaqaloq bu – o'lim manbaidir, deb ta'kidlaydi. XVIII

asr ulug' nemis ma'rifatparvar adibi I.V. Gyote esa: "Tug'ilmoq o'lim sari qo'yilgan ilk qadamdir", – deya ogohlantiradi.

### **Foydalilanligan adabiyotlar ro'yxati**

#### **Rahbariy adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. – Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., O'zbekiston. 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. – Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T., O'zbekiston. 2017.

#### **Darsliklar va o'quv qo'llanmalar:**

1. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. / Q.Nazarov tahriri ostida. –T.: Sharq, 2004
  2. Muhammadjonova L.A. Amaliy etika va estetika. O'quv qo'llanma – T.: "Mumtoz so'z" 2022 yil.
  2. L.Muxammadjonova, S.Alimov, Sh.Rajabov. Notiqlik san'ati. O'quv qo'llanma – T.: "Mumtoz so'z" 2022 yil.
  3. Аззамова Н. "Философия нравственности". Дарслик Т.: Университет. O'zMU, 2022 yil.
  4. Nazarov Q. Aksiologiya – qadriyatlар falsafasi. –T.: O'FMJ, 2004.
  5. Тримингэм Д.С. Суфийские ордена в исламе. –М.: Наука. 1989. S-546.
  6. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. –Toshkent: O'zbekiston Faylasuflari milliy jamiyatni nashriyoti, 2010. -8 b.
  7. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. 12 tomlik. –Toshkent: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. T.I. -530 b.
  8. Falsafa: qomusiy lug'at. Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov. –Toshkent: "Sharq" nashriyot –matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2004. -40 b.
  9. М. Каххарова, Н Аззамова. Этика Учебное пособие. Ризограф имени Низами. 2018 год.
  10. L.Muhammadjonova, F.Abidjanova. Etiket. O'quv qo'llanma. T.: Universitet. O'zMU, 2018.
  11. Nurmatova M., Muhammadjonova L., Ma'nnaviyatning axloqiy asoslari.–T.: Universitet, O'zMU. 2013.
  12. Karimov I.A. Yuksak ma'nnaviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'nnaviyat, 2008. 13. Husanov B., Gulamov V. Muomala madaniyati. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2009.
- Qo'shimcha adabiyotlar:**
1. Al-Faqih Abu Lays as-Samarqandiy. Tanbehl-g'ofiliyn.Birinchi kitob.- Toshkent: Mavarounnahr, 2003.
  2. Хайдеггер М. Основные понятия метафизики (Введение). //Вопросы философии. –М., 1989. –№9. S-84

3. Nurmatova M., Muhammadjonova L., Ma'naviyatning axloqiy asoslari.-T.: Universitet, O'zMU. 2013.
4. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. – T.: Universitet, 2009.
5. Garanina O.D. Filosofiya cheloveka. -M.: 2006. S-44
6. Камю А. Бунтующий человек. -М.: 1990. S-546.
7. Гусейнов А.А., Апресян Р.Г. Этика: Учебник – М.: Gardariki, 2004. -26 б.
8. Асмус В.Ф. Античная философия. – М.: Высшая школа, 1976.
9. Философия: учебник для Вузов / Под ред. В.Н. Лавриненко. – М: ЮНИТИ-ДАНА, 2007.
- 10.Ушков А.М. Китайско-конфуцианский культурный ареал. Запад и Восток: Традиции и современность. – М., 1993.
11. Muhammadjonova L.A., Ortiqova D.O., Abidjanova F.A., Masharipova G.K. Professional etika va etiket. Darslik. - T.: "Adabiyot uchqunlari" 2018.
12. Э.Умаров., Ф.Загритдинова. "Этика. Прикладная этика". -Т.: Ношир, 2012.
13. Choriev A. Inson falsafasi. –Toshkent.: O'FMJ, 2006 S-181

## **JAMIYATNI MODERNIZATSİYALASH VA AXLOQİY QADRIYATLAR TUSHUNCHALARINING FALSAFIY TASNIFI**

### **REJA:**

1. Jamiatni modernizatsiyalash jarayoni tamoyillari.
2. Jamiatni modernizatsiyalash jarayonida axloqiy qadriyatlarning o'zgarishi.
3. Qadrsizlanish – qadriyatlar tizimining o'z qadrini yo'qotishi yoki pasaytirishi jarayonlari.

O'zbekistonda jamiatni demokratik islohotlar asosida rivojlantirish va takomillashtirish jarayonida modernizatsiyalash bilan bog'liq muammolarning echimiga doir keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasida davlat va jamiat qurilishini takomillashtirish mexanizmlari aniq ko'rsatib o'tilgan. Bu borada davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, siyosiy modernizatsiyalash tuzilmasini ishlab chiqish, jamiatni ijtimoiy-siyosiy jihatdan modernizatsiyalash takomillashuvini siyosiy-falsafiy jihatdan tadqiq etish hamda ilmiy-nazariy ahamiyatga ega bo'lgan xulosalarni ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi

Jamiatni modernizatsiyalash jarayoni quyidagi tamoyillarga asoslanadi.

Birinchi tamoyil - kuch, bilim va imkoniyat. Har bir xalq, millat, jamiyat, inson o'zining nazary va amaliy faoliyatlarida o'z kuchi, bilimi va imkoniyatlariga tayanmog'i lozim. Kundalik turmush sharoitizmni domiy rivojlantirishga intilish inson faoliyatining assosiy mazmunini tashkil etadi.

Ikkinci tamoyil – fikr va tafakkur erkinligi. Ma'naviy yuksalish kuchli fuqarolik jamiyalini barpo qilish bilan bog'liq bунyodkorlik faoliyatlarida fikr, tafakkur erkinligini, ya'ni jamiyat taraqqiyotiga nisbatan ob'ektiv munosabatda bo'lishni taqazo etadi.

Uchinchi tamoyil – umuminsoniy qadriyatlar. Ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglashning tiklanishi totalitar tuzumni shunchaki inkor qilish emas, balki u kuchli fuqarolik jamiyatni qurish maqsadiga qaratilgan bунyodkorlik dasturini amalga oshirish uchun xizmat qilishi lozim.

To'rtinchi tamoyil – moslashish va xolislik. Ma'naviy qadriyatlarning tiklanishi hozirgi globallashuv davrida dunyo axborot tsivilizatsiyasi qadriyatlariaga moslashishni, unga xolis munosabatda bo'lishini taqazo etadi.

Beshinchi tamoyil – ta'lim orqali tarbiyaga. Ma'naviy yuksalish jarayonlari ilmiy bilimlarni, ya'ni, umuminsoniy qadriyatlarga tayanadigan, demokratik tamoyillarga asoslanadigan ta'lim-tarbiya tizimini taqazo etadi.

Jamiyatni modernizatsiyalash jarayonida O'zbekistonda xuquqiy demokratik davlatni qurish, fuqarolik jamiyatini shakllantirishda axloqiy qadriyatlar:

Birinchidan, barcha fuqarolarni, millati, dini, tili, irqidan qat'iy nazar o'zbek xalqi o'zining milliy axloqiy qadriyatlari - sabr-qanoat, jamoatchilik, o'zaro yordam, saxovat, tinchlikni ardoqlash, shukronalik kabi axloqiy fazilatlarini namoyish qilish orqali tinch-totuv yashashga chorlaydi va uni ta'minlaydi.

Ikkinchidan, bozor iqtisodiyotiga asoslangan iqtisodiy hayot qaror topishi va amal qilishida o'zbekona tadbirkorlik, tashabbus, ona zaminga mehr-muhabbat, iqtisod qilish, isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik, har bir narsani tejab-tergab ishlatalish kabi axloqiy fazilatlar jamiyat iqtisodiyotini mustahkamlab, xalqning to'q va boy bo'lib yashashini kafolatlaydi.

Uchinchidan, ajodolar tomonidan qoldirilgan axloqiy-ma'naviy meros insonning axloqiy kamolotini shakllantirishga qaratilgan minglab nasihatnomalar millat ma'naviyatining sarchashmasi bo'lgan axloqiy qadriyatlar sifatida yangicha mazmundagi axloqiy-ma'naviy hayotni qaror toptirishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, axloqiy qadriyatlar shaxsni ma'naviy kamol toptirishda eng ta'sirchan vosita hisoblanadi. U tufayli har bir farzand ona Vatanga sadoqat bilan xizmat qilishni teran anglab etadi.

Beshinchidan, o'zbek xalqining axloqiy qadriyatlari xalqaro maydonda "kuzgu" vazifasini o'taydi. Shu tufayli xalqimizni dunyodagi barcha millat va elatlar tinchliksevar, mehmondo'st, bolajon, oriyatli, zahmatkash, bilimli, saxovatli insonlardir, deb tan olishadi. Shuning uchun ham jahon hamjamiyati mustaqil O'zbekiston davlatini o'zining ishonchli hamkor deb biladi.

Oltinchidan, har bir inson, elat, millat, xalqning axloqiy hayoti darajalarini o'chaydigan mezonlari bo'ladi. Ana shu mezonlardan birini axloqiy qadriyatlар bajaradi. Axloqiy qadriyatlarning ildizi juda qadimiy bo'lib dunyoviy va diniy zaminga tayangan, tsivilizatsiyalar aloqasining eng yaxshi hosilasini o'zida mujassamlashtirgan, real hayotda faollik ko'rsata oladigan xalq, millat va elatlarga tinch-totuv, to'q va badavlat yashab, komil insonlarni tarbiyalab voyaga etkazish baxtiga tuyassar bo'ladilar. Yuqoridagilarning barchasi milliy axloqiy qadriyatlарimiz hamdir, va ular ijtimoiy hayotimizda ham katta o'rinn tutadi.

Inson butun umri davomida son – sanoqsiz qadriyatlар olamida yashaydi. Insoniyatni urab turgan borliq, tabiiy va ijtimoiy atrof – muhim, tirik va notirik tabiatning eng muhim tomonlarini ifodalaydigan qadriyatlар umumbashariyat xususiyatga egadir. Bunday qadriyatlар jamiyat uchun hech qachon o'z ahamiyatini yuqotmaydigon, abadiy mutlaq va muqaddas qadriyatdir

Kadriyat tushunchasining ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan ta'riflari ko'pgina ilmiy adabiyotlarda turli xil yondashuvlarning mavjudligini, ba'zan esa ularning butunlay bir-birini inkor etish xollari xam uchraydi.

Qadriyat insonning borlig'i ham jamiyatning axloqiy estetik, huquqiy saholarini ham, ijtimoiy ong sohasining ham qanrab olgan murakkab jarayondir. Insonning o'zligi, menligi borlig'ining asosiy fundamenti qadriyat bilan boyitiladi, to'ldiriladi. Kishilar o'zlarining amaliy faoliyatida hayot uchun zarur bo'lgan tabiiy talab, ehtiyojlarini predmetlar va hodisalarning hossaxususiyatlaridan foydalaniib qondiradilar. Masalan, odamning chanqovini suv, ochlik xissini non, kislород nafas oliy orqali tananing unga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. Shuning uchun ham ham biz bu «ne'matlarni qadrlaymiz. Lekin shunday narsalar ham borki, ular bizga yoqmaydi, ular hayotimiz uchun zarurdir. Qo'pollik, behayolik, o'g'rilik, yolg'onchilik, ifloslik va hokazolar ana shunday yoqimsiz narsalar bo'lib, biz ulardan qutilishga intilamiz.

Shuningdek ham umuminsoniy, milliy axloqiy qadriyatlardan biri bu-Muruvvat – insonparvarlik, biror kishiga qilingan xolisona insoniy yordam, yaxshilik, saxovat, lutf. Muruvvat saxovat bilan uyg'un sifat, insoniy fazilat bo'lib, xalqimizga xos ma'naviy xususiyat, milliy qadriyatdir

Odamgarchilik – yuksak ma'naviy fazilatlardan biri bo'lib, beg'araz yordam ko'rsatish, beminnat xizmat qilish, insoniy burchni ado etish bilan bog'liq

xususiyatni ifodalaydigan tarbiya shuningdek, odamgarchilik o'zaro munosabatlarda mehr-oqibat, shafqat, insoparvarlik tamoyillarining namoyon bo'lishini anglatadigan axloqiy sifat hamdir. Odamgarchilik qadimiy ma'naviy qadriyatlardan biri, u azaldan o'zaro mehr-shafqat, beg'araz yordam, xayriya ishlari, saxovat kabi tuyg'ularda yorqin namoyon bo'lib kelgan.

Odob arab. "adab" so'zining ko'plik shaklidir, jamiyatda e'tirof etilgan xulq me'yori bo'lib xisoblanadi. U shaxs ma'naviy hayotining tashqi jihatini ifodalab, o'zaro munosabat da, oila, mehnat jamoasida namoyon bo'ladi. Odob asosini axloqiy tamoyillar, me'yorlar, tarbiyalanganlik darajasi va estetik ideal talablari tashkil etadi. Odob kishining jamoada o'zini tutishi, odamlar bilan muomala qilishi, turmush tarzi, bo'sh vaqtini tashkil etishi, ichki va tashqi olami qanday bo'lishi lozimligiga oid qoidalarni (mas., or-nomus, sharm-hayo, iffat, kamtarlik, xushmuomalalik,) o'z ichiga oladi.

Oila - er-xotinlik ittifoqiga, qarindoshlik aloqalariga, umumiy xo'jalik yuritadigan er va xotin, ota-onha va bolalar, aka-uka va opa-singillar, bobo-buvilar va boshqa qarindoshlar o'rtaсидаги munosabatlarga asoslanadigan kichik ijtimoiy guruh, jamiyatning asosi, davlat qudratining manbai. Oilaning hayoti moddiy va ma'naviy jarayonlar bilan xarakterlanadi. Oilaning ma'naviy olami serqirra hodisa bo'lib, nainki oilaning jamiyatdagи siyosiy-ijtimoiy mavqeini, balki tarixiy taraqqiyotga xos xususiyatlari, shuningdek, iqtisodiy imkoniyatlari, demografik va etnografik, etnopedagogik va etnopsixologik an'analarni ham qamrab oladi.

Poklik – ma'naviy-estetik kategoriya sifatida eng muhim ma'naviy-axloqiy talablardan biri bo'lib, samimiylilik, sadoqat, ishonch va tabiiylikni o'z ichiga olgan. Inson qalbining pokligi uning sadoqati, ishonchi, tabiiyligi, samimiyligida bilinadi. Pok – a) ifloslikdan holi; toza (*pok joy, pok kiyim*); b) (ko'chma) halol, to'g'ri (*pok inson*). Nopok – a) toza, ozoda emas, iflos (*nopok kiyim*); b) hech narsadan hazar qilmaydigan, qabih, yaramas (*nopok odam*); v) yomon, jirkanch (*nopok ish*). Poklik inson ma'naviyatini shakllantirishda muhim o'rinni tutadi chunki poklik mazmunida oqillik va e'tiqodlilik, sharm-hayo va or-nomus, ziyraklik va farosatlilik, muhabbatli bo'lish, halollik, mehribonlik kabi ijobji xislatalar mujassamlashgan.

Rahmdillik – o'zgalarga nisbatan mehr-shafqat, mehribonlik, insoparvarlik tuyg'usini ifodalovchi tushuncha. Raxmdillikning tub mohiyati insonni hurmat qilish, qadr-qimmatini bilish hamda ularga mehribonlik ko'rsatishdan iboratdir raxmdillik o'zgalarga mehr-shafqat ko'rsatish, amaliy ko'mak berish kabi insoniy fazilatlarda namoyon bo'ladi. Insondagi raxmdillik va mehribonlik uning ma'naviy go'zalligidan, nozik tabiat egasi ekanidan dalolat beradi, shuningdek, raxmdillik ijobji fazilatlar bilan boyitib boriladi. Rahmdil kishi ezgu ishlari qilishga moyil, qalbi daryo insondir.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligi yuksak ahamiyatga ega. Umuminsoniy qadriyatlarga faylasuf olim Qiyomiddin Nazarov shunday ta'rif beradi – jahondagi barcha odamlar, xalqlar va davlatlar uchun umumiyligini qadrlash mezonini hosoblangan, umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar tizimini ifoda etadigan tarbiya Umuminsoniy qadriyatlar nihoyatda keng ko'lamli va serqirra tarbiyadir. U ozodlik, erkinlik, tinchlik, baxt-saodat kabi umumijtimoiy ma'noma-zmun kasb etadigan tarbiyalardan iborat emas. Handa uni faqat madaniy boyliklar sifatida tushunish ham maqsadga muvofiq, deb bo'lmaydi. Shu bilan birga, muayyan milliy, etnik va boshqa xususiy qadriyat tizimlari ham umuminsoniy qadriyatlarning o'rnnini bosa olmaydi.

Umuminsoniy qadriyatlar tizimi va uning namoyon bo'lish shakllarini tahlil qilish, aslida, tarkibiy qismlari bir-biri bilan dialektik tarzda bog'langan umumiyligini, uning asosiy qismlari o'rtasidagi munosabatlarni tadqiq qilishdir. Umuminsoniy qadriyatlar jamiyat taraqqiyotining muayyan davrida yashayotgan barcha kishilar uchun umumiyligini bo'lgan tizimni hosil qildi, boshqa tamoyillar bilan uzlusiz aloqada, zaruriy bog'lanishda namoyon bo'ladi. Umuminsoniy qadriyatlarning namoyon bo'lish shakllari nisbiy xususiyatga ega, ammo bu nisbiylik doimo ham ko'zga tashlanavermaydi. Tarixiy rivojlanish jarayonida (ob'ektiv tarzda), jamiyat va kishilarning talab, ehtiyojlari natijasida (sub'ektiv tarzda) namoyon bo'ladi. Umuminsoniy qadriyatlar shakllaridan goh biri, goh boshqasi umumiyligini markaziga, hayotning oldingi pog'onasiga chiqib oladi, masalan yurtda dushmanlar hukmronlik qilganida – ozodlik, mustaqillik; yurt mustaqilligiga xavf tug'ilganida – vatanparvarlik; milliy o'zlikni anglash va milliy uyg'onish davrida – tarixiy va madaniy merosni o'rganishga intilish; urush sharoitida tinchlik va barqarorlikka ehtiyoj kuchayib boradi.

Shu tariqa ijtimoiy jarayonlar rivojida umuminsoniy qadriyatlarning ma'lum bir shaklining dolzarbligi, boshqasining zarurligini bir qadar xiralaشتirganday, ularning ayrimlari ideal holatga yaqinlashgandek, boshqalari esa ulardan uzoqlashgandek bo'lib tuyuladi.

Bugungi kunda umuminsoniy qadriyatlar barcha uchun umumiyligini mezon bo'lib qolganining bir qator sabablari bor:

a) sayyoramizning dunyodagi barcha kishilar uchun, ularning irqi, millati, e'tiqodi va boshqa tabiiy-tarixiy hamda ijtimoiy belgilardan qat'i nazar, eng umumiyligini shu bilan birga, cheksiz koinotdagi mo'jazgina makon ekani tobora yaqqolroq his etila boshlangani;

b) dunyodagi ijtimoiy xilma-xillik, siyosiy va maskuraviy rang-baranglik, turli xil ehtiyoj, qiziqish, maqsad, intilish, xatti-harakat, faoliyatning taraqqiyot talablariga mos keladigan eng umumiyligini ma'naviy mezonlariga muhtojlik sezilash boshlangani;

v) dahshatli qirg' in qurollari, yadro urushi, ekologik bo' hron va ma'naviy tanazzul kabi tahdidlar bilan yuzma-yuz kelish natijasida insoniyat kelajagi, sayyoramiz aholisi umumiy genofondining taqdiri xavf ostida qolgani, insoniyatning hozirgi avlodi mansub bo'lgan tamaddunlarni saqlab qolish o'ta muhim ahamiyat kasb etayotgani;

g) kishilarning qanday ijtimoiy tuzum va davlatlarda yashashidan qat'i nazar, hamma joyda eng asosiy maqsad inson, uning hayoti, manfaatlari, haq-huquq va erkinliklari, odamlar uchun mazmunli, to'kin va farovon turmushni ta'minlashda butun jahon ahamiyatiga molik universal texnologiyalar, ilm-fan yutuqlari hamda ularni barcha harakatlarda qo'llash imkoniyatlarining umumiyligi, bu imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish uchun umumsayyoraviy hamkorlik zarurligi tobora ko'proq anglab olinayotgani bilan izohlanadi.

Ana shu sababga ko'ra, istiqlol yillarda mamlakatimizda umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi tamoyiliga nihoyatda katta e'tibor berilmoqda. Bu qadriyatlar jamiyatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va tub o'zgarishlarning asosiy mezoniga aylangani bejiz emas.<sup>1</sup>

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, har bir mamlakatda modernizatsiyalash jarayoni jamiyatning ustuvor sohalarida chuqur islohotlarni amalga oshirishni talab etadi. Natijada, jamiyatda an'anaviylikdan voz kechish, eskilik qoldiqlariga barham berish va evolyutsion ijobiy o'zgarishlarning transformatsiyalashuv jarayonlari kechadi. Ta'limning keng tarqalishi, kasbiy mahorat (professionalizm) kuchayishi, intellektual maxsus kasb institutlari shakllanishi, ommaviy kommunikatsiyaning rivojlanishi, kengayib borayotgan ijtimoiy makonga moslashib boruvchi yangi individual odatlar, qiziqishlar jabhasining kengayishi, fan va texnikaga ishonchning oshishi va inson qadr-qimmatiga munosabatning o'zgarishi sodir bo'ladi. Ma'naviy sohada madaniy tabaqlanish, ijtimoiy ongda sekulyarizatsiya, savodxonlik ortishi, ilm-fan va texnikaning qadriyatga aylanishi kuzatiladi.

Biroq XX asr ikkinchi yarmida demokratlashuv jarayonlarining Sharq davlatlariga «ko'chishi», xalq keng ommasining erkinlik va oshkoraliqka tayyor emasligi bu jamiyatlar oldida yangi-yangi muammolarni keltirib chiqardi. Ayniqsa, globallashuv sharoitida g'arbona qadriyat va erkinliklar milliy chegaralarni bosib o'tgandan keyin u mamlakat ichkarisida turli xavf-xatarlarni kuchaytirdi. Bizning fikrimizcha, demokratiyaning bir o'zi yangi elita, yangi e'tiqod va yangi dunyoviy tartib orqali jamiyatning mazmun-mohiyatini, demakki, odamlarni tubdan o'zgartira olishga qurbi etmaydi, ya'ni u milliy maskuralar tazyiqiga dosh bera olmaydi.

Jamiyat hayotida kutilmaganda sodir bo'ladigan inqirozlar mamlakatdagi siyosiy jarayon va milliy taraqqiyotga ta'sir o'tkazadi. Ayniqsa, mamlakat

<sup>1</sup> Nazarov Q. Aksiologiya – qadriyatlar falsafasi. – T. O'FMJ, 2004 B 231

fuqarolarining siyosiy tayyorgarlik darajasi, milliy ongi, madaniyati hisobga olinmasdan boshlangan demokratik islohotlarda yangi muammolar, ijtimoiy inqirozlar sodir bo'lishi kuzatiladi. Ushbu jarayonlarda qadriyatlarning qadrsizlanishi holatlarini ham kuzatish mumkin.

Qadrsizlanish – muayyan qadriyat yoki qadriyatlar tizimining o'z qadrini yo'qotishi yoki pasaytirishi jarayonini, insонning o'z obro'-e'tiborini, mavqeini yo'qotishi, nazardan qolishi ma'nosini anglatuvchi tushuncha. Jamiyat taraqqiyotida sodir bo'ladigan umumiy qadrsizlanish – birdaniga, bir kunda yoki to'satdan emas, balki tadrijiy ro'y beradigan jarayondir.

Insoniyat tarixida qadriyatlar tizimi qadrsizlanib ketgan davlatlar va imperiyalarning tanazzulga yuz tutgani, yo'q bo'lib ketgani ma'lum. Muayyan qadriyat yoki bir necha qadriyat shakllarining haddan ortiq bo'rttirib yuborilishi, mutlaqlashtirilishi yoki siyqalashtirilishi, ularga noto'g'ri munosabatning muttasil siyosat usuliga aylantirilishi bunga sabab bo'lishi mumkin. Bunday holda qadriyatlar o'z mazmun-mohiyatini, odamlarning hayoti va faoliyati uchun umumiyo mezon, ularning intiladigan ideal yoki ularni muayyan maqsadlar sari birlashtiruvchi va safarbar qiluvchi mezon sifatidagi ahamiyatini yo'qotadi.

XX asrning murakkab tarixiy voqealari barcha sobiq sovet va sobiq sotsialistik mamlakatlarining qadriyatlar tizimiga turlicha ta'sir ko'rsatdi, biroq ular Markaziy Osiyo xalqlarining o'ziga xos madaniy hayotida alohida muhim rol o'ynadi. Mazkur xalqlarning butun qadriyaviy tizimi (diniy qadriyatlar, milliy ehtiyojlari ma'naviy madaniyatning o'ziga xos hodisalari, ona tillari xalqlarning mentaliteti va boshqalar) jiddiy transformatsiyaga uchradi. Bugungi kunda yuz berayotgan milliy tiklanish jarayonlari sharoitida Markaziy Osiyo xalqlarining qadriyaviy tizimining tushuncha va mohiyatini ularning XX asr va XXI asr boshlaridagi transformatsiyasini falsafiy anglab etish zarurati tuzildi. Mazkur transformatsiyalar «umuminsoniy-milliy» kontekstda ko'rib chiqilishi mumkin.

Bir tomonidan shuni esda tutish zarurki, har qanday jamiyatning butun qadriyaviy tizimi - fan, falsafa, san'at, adabiyot - faqat milliy an'analar bilan cheklanmaydi, chunki inson faqat biologik mavjudot sifatida emas, ijtimoiy mavjudot sifatida ham yagonadir. Bu ayniqsa, axborotlashtirish, kompyuterlashtirish, tezkor aloqaning zamonaviy tizimlari rivoj topgan hozirgi dinamik davrga dahldordir. Barcha mamlakatlar va qit'alarning hayotiy manfaatlari, asosiy muammolari eng muhim jihatlar bo'yicha mos keladi. Umuminsoniy muammolar umuminsoniy qadriyatlar tizimini shakllantirish zaruratini taqozo qiladi.

Boshqa tomondan, milliy (yagona sifatida), mintaqaviy (alohida sifatida), umuminsoniy (umumiy, yalpi) qadriyatlar dialektikasini hisobga olgan holda yoshlarni milliy an'analar, urf-odatlar, rasm-rusumlarga, milliy til va san'atga

hurmat ruhida tarbiyalash zarur. Agar inson o'z xalqining milliy madaniyatini, tarixini, ma'naviy qadriyatlarini yaxshi bilsa va qabul qilsa, u holda u dunyodagi boshqa xalqlarning madaniyati va falsafasini ham yaxshi qabul qiladi, ular haqida o'z mustaqil fikriga ega bo'ladi deb ishonish mumkin.

Xalqlarning ko'plab an'analar, urf-odatlari, udumlari va qadriyat tizimining boshqa unsurlari butun XX asr davomida saqlanib kelgan bo'lishiga qaramay, bu tizimning ko'plab komponentlari transformatsiyaga uchradi. Bir qator an'analar butunlay yo'qolib ketgan bo'lsa, boshqalari o'zlarining ichki qadriyaviy mazmunini o'zgartirdi. Oilaviy, maishiy, bayram urf-odatlari sirasiga ko'plab yangi unsurlar kirib keldi, badiy madaniyatning tubdan yangi turlari paydo bo'ldi.

Modernizatsiya jarayonlarida axloqiy tarbiyaning muhim vazifalaridan biri milliy iftixorni tarbiyalashdir. Milliy iftixor – millatga xos moddiy yoki ma'naviy yutuq, muvaffaqiyat bilan faxlanish tuyg'usini ifodalaydigan tushuncha. U inson ma'naviy kamolotining qirralaridan birini namoyon etadi. Milliy iftixor o'z xalqining asrlar davomida yaratib kelgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklari, tarixiy merosi, urf-odatlari, an'analar, odob-axloqi, turmush tarzi, yuksak ma'viyati, barcha tarixiy yutuqlari va saboqlariga cheksiz hurmat va e'zoz bilan munosabatda bo'lish, avaylab-asrashni ifodalovchi tushunchadir. Millatining istiqboli uchun qayg'urmaydigan, o'z xalqining tarixini, milliy qadriyatlarini, tilini, manfaatlarini bilmagan, qadrلامagan, milliy mansubligini unutgan kishilarda milliy g'urur ham, millat bilan faxlanish ham, millatparvarlik ham bo'lmaydi. Bunday insonlarni ma'naviy jihatdan kamol topgan barkamol insonlar deya olmaymiz. Milliy iftixorni tiklash va o'stirish ma'naviy hayotimizdagи ustuvor vazifalardan biridir.

Inson tabiatiga o'zini muayyan ijtimoiy guruhi, qatlam, toifa, millat, davlat, mintaqa, davr yoki sulola bilan bog'lash xosdir. Shu bois shaxs o'z qavmi, millati va davlatining erishgan yutuqlaridan quvonish, uni yanada boyitish va kelajak avlodlarga qoldirishga intilishi tabbiy ma'naviy hodisadir. Xalqlar, millatlar tarixiy taraqqiyotining tub burilish davrlarida jamiyatning yangilanishi tufayli milliy iftixorni tiklash va o'stirish milliy davlatchilik qurilishi bilan bevosita bog'liq bo'lib qoladi. Milliy ma'naviy-madaniy qadriyatlarni atroflicha va batafsil yoshlari ongi, qalbiga etkazish, ularni ajdodlar yaratgan ma'naviy boyliklar bilan oziqlantirish, milliy iftixorni tiklash va o'stirish omilidir. U millat tarixini o'rganish, anglash, qadrlash orqali amalga oshiriladi.

Tarbiya — avlodlararo ijtimoiy -tarixiy va hayotiy tajribani uzatishga xizmat qiladigan, oila, ta'lif muassasalari, ijtimoiy, siyosiy va boshqa tashkilotlar, OAV va boshqa ta'siri ostida jismonan sog'lom, ma'nан barkamol insonni shakllantirish va takomillashtirish jarayonini anglatuvchi tushuncha. Tarbiya insonga individual va ijtimoiy, ongli va ongsiz ta'sirlarning yig'indisini mujassamlashtiradi, yakka

kishiga, ma'lum bir jamoaga, xalq yoki millatga qaratilgan bo'lib, davlat va jamiyat qurilishi hamda rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Turli jamoat tashkilotlari, fan, texnika, adabiyot, san'at, oav, radio va tv, targ'ibot-tashviqot ishlari ham ijtimoiy tarbiyaga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Yosh avlodni tibbiy ko'trikdan o'tkazish, jismoniy chiniqtirish ham tarbiyaga kiradi. ma'lumki, tarbiyaning asosiy turlari ikkita: oilaviy va ijtimoiy, oila tarbiyasi oilada ota-onalar, bobo va buvilar, umuman katta yoshli qarindoshlar tomonidan bolalarni tarbiyalashdir.

Azaliy o'zbek udumiga binoan ota-onalar bilan birga bobo-buvilarning tarbiyaviy ta'siri kuchli, chunki hayotliklarida bobo va buvilar oilaning ma'nnaviy rahbarlari bo'lishgan. amir temur, temuriylar xonodonida o'rnatilgan tartibga ko'ra, shahzodalar tarbiyasi bilan ularning onalari enias, buvilari shug'ullanishgan. Oila qanchalik tartibli, yaxshi xulq-atvorli, a'zolarining o'zaro munosabatlari samimiy bo'lsa, oilaviy tarbiya ham shunchalik samarali bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkin. Bugungi kunda komil insonni voyaga etkazish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Komil inson bu dunyoviy va diniy bilimlar asosini egallab, foydali kasb-hunar egasi bo'lgan, mustaqil, erkin fikrlaydigan, yuksak axloqiy va estetik fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan, sog'lom, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sodiq bo'lib, xalq, millat ravnaqi yo'lida halol mehnat qiladigan, ona Vatanning ozodligi - obodligi yo'lida jonini ham ayamaydigan kishidir

Komil insonni shakkantirish oddiy ish emas, balki shaxs ma'nnaviy kamolotining hosilasidir. Shaxs ma'nnaviy kamoloti esa bir necha bosqichlardan iborat bo'lgan oddiylikdan komillikka qarab boruvchi ruhiy, axloqiy - ma'nnaviy, estetik jarayonlarni o'z ichiga oluvchi bir butun tizimdir.

### **Foydalilaniladigan adabiyotlar ro'yxati**

#### **Rahbariy adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. – Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., O'zbekiston. 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. – Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T., O'zbekiston. 2017.

#### **Darsliklar va o'quv qo'llanmalar:**

1. Muhammadjonova L.A. Amaliy etika va estetika. O'quv qo'llanma – T.: "Mumtoz so'z" 2022 yil.
2. L.Muxammadjonova, S.Alimov,Sh.Rajabov. Notiqlik san'ati. O'quv qo'llanma – T.: "Mumtoz so'z" 2022 yil.
3. Аззамова Н. "Философия нравственности". Darslik T.: Universitet. O'zMU, 2022 yil.
4. Радугин А.А. Этика. Учебное пособие для высших учебных заведений. – М.: Tsentr, 2003. -88 b.

5. Назаров К. Аксиология – кадриятлар фалсафаси. –Т.: O'FMJ, 2004.
6. Степанянц. М.Т. Философские аспекты суфизма. –М.: Nauka, 1987. S-99
7. Тримингэм Д.С. Суфийские ордена в исламе. –М.: Nauka, 1989. S-546.
8. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. –Toshkent: O'zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. -8 b.
9. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. 12 томлик. –Toshkent: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. T.1. -530 b.
10. Falsafa: qomusiy lug'at. Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov. –Toshkent: "Sharq" nashriyot –matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi Bosh tahriri, 2004. - 40 b.
11. М. Каххарова, Н Агзамова. Этика Учебное пособие. Ризограф имени Низами. 2018 год.
12. L.Muhammadjonova, F.Abidjanova. Etiket. O'quv qo'llanma. T.: Universitet. O'zMU, 2018.
13. Nurmatova M., Muhammadjonova L., Ma'naviyatning axloqiy asoslari.–T.: Universitet, O'zMU. 2013.
14. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.
15. Husanov B., Gulamov V. Muomala madaniyati. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2009.

**Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Al-Faqih Abu Lays as-Samarqandiy. Tanbehl-g'ofiliyn.Birinchi kitob.- Toshkent: Mavarounnahr, 2003.
2. Хайдеггер М. Основные понятия метафизики (Введение). //Вопросы философии. –М., 1989. –№9. S-84
3. Nurmatova M., Muhammadjonova L., Ma'naviyatning axloqiy asoslari.–T.: Universitet, O'zMU. 2013.
4. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. – T.: Universitet, 2009.
5. Гаранина О.Д. Философия человека. -М.: 2006. S-44
6. Камю А. Бунтующий человек. -М.: 1990. S-546.
7. Гусейнов А.А., Апресян Р.Г. Этика: Учебник – М.: Гардарики, 2004. -26.
8. Асмус В.Ф. Античная философия. – М.: Высшая школа, 1976.
9. Философия: учебник для Вузов / Под ред. В.Н. Лавриненко. – М: ЮНИТИ-ДАНА, 2007.
10. Ушков А.М. Китайско-конфуцианский культурный ареал. Запад и Восток: Традиции и современность. – М., 1993.
11. Muhammadjonova L.A., Ortiqova D.O., Abidjanova F.A., Masharipova G.K. Professional etika va etiket. Darslik. - T.: "Adabiyot uchqunlari" 2018.
12. Э.Умаров., Ф.Загритдинова. "Этика. Прикладная этика". -Т.: Noshir, 2012.

## AXLOQIYLIK VA G'AYRIAXLOQIYLIK. MUNOSABATLAR AXLOQI REJA:

1. Insonning botiniy axloqi: vijdon, iztirob, nafrat, hasad. Insonning zohiriyl axloqi: qonun, axloqiy me'yorlar.
2. Botiniy va zohiriyl axloqiylik va g'ayriaxloqiylik o'rtasidagi ziddiyat. Hayolilikning uyat, or va nomusdan farqli jihatlari.
3. Insonniy axloqiylikka yoki g'ayriaxloqiylikka undovchi omillar – halollik, shuxratparastlik va rostgo'ylik muammosi.
4. Milliy axloqiy fazilatlarning uzviylik xususiyatlari – kamtarinlik, bosiqlik, shirinsuxanlik.

Axloqiylik – fazilatlarda, axloqsizlik esa illatlarda namoyon bo'ladi. Fazilat va illat shunday yirik hamda qamrovli atamalarki, ularning har biri o'z ichiga bir necha emas, o'nlab emas, balki yuzlab tushunchalarini oladi. Shu jihatdan axloqshunoslik barcha falsafiy fanlar ichida tushunchalarining ko'pligi va xilma-xilligi bilan alohida ajralib turadi. Axloqshunoslik fanida qo'llaniladigan barcha tushunchalarini uch guruhga bo'lishni maqsadga muvofiq. Bularning birinchisi – axloqiy bilish bilan real hayat o'rtasidagi eng muhim aloqa va munosabatlarni in'ikos ettiruvchi, axloq ilmining mezonini ifodalovchi tushunchalardir; ularni biz axloqshunoslikning mezoniy tushunchalari yoxud kategoriyalari sifatida olib qaraymiz. Nisbatan qamrovli ikkinchi guruh tushunchalarini – axloqiy tamoyillar, uchinchi guruhnasi esa axloqiy me'yorlar deb taqdim etamiz. Birinchi guruh tushunchalari umumlashtiruvchilik, mushtaraklik xususiyatiga ega, ular faqat nazariyaga taalluqli. Ikkinchi va uchinchi guruh tushunchalari esa amaliy axloqqa tegishli bo'lib, nisbatan muayyan, tor qamrovgaga ega; ular birinchi guruh uchun «moddiy asos» vazifasini o'taydilar.

Shu o'rinda «tushuncha» atamasining mohiyatiga nazar tashlashni joiz deb o'ylaymiz. Avvalroq biz axloqiy hissiyotlarning axloqiy ong uchun ma'lum ma'noda material ekani to'g'risida birrov to'xtalib o'tgan edik. Bu haqda mumtoz faylasuflar ham e'tiborga sazovor fikr bildirganlar. Chunonchi, buyuk ingлиз mutafakkiri jon Lokk, tushunchada nimaiki bor ekan, u bundan avval hissiyotda mavjud bo'lgan, deb ta'kidlaydi. «tabiat qonuni borasidagi tajribalar» asarida u shunday deb yozadi: «agar hissiyotdan aqlga narsalar qiyofasi etkazib berilmasa, u holda tafakkur uchun hech qanday material berilmagan bo'ladi va aql bilishni

taraqqiy ettirishi borasida me'mor bino qurishda tosh. yog'och, qum va hokazo qurilish materiallarisiz qanchalik ish qila olsa, xuddi shuncha ish bajara biladi».<sup>1</sup>

Muhabbat bosh mezoni tushuncha sifatida deyarli barcha asosiy tushunchalarda va tamoyillarda o'z «hissa»siga ega. Shu jihatdan atoqli tasavvufshunos Najmiddin komilov: «juda ko'p ifroniy tushuncha-istilohlarning sharhi muhabbatga borib taqaladi», – der ekan, ayni haqiqatni aytadi. na ezgulikni, na yaxshilikni, na vatanparvarlikni, na insonparvarlikni muhabbatsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bu tushunchaning mohiyati, turlari haqidagi ilohiy og'ustin, Imom G'azzoliy, Erix Fromm singari mutafakkirlar fikrlarini keltirgan edik. Qo'shimcha qilib shuni aytish mumkinki, muhabbat – insoniy mohiyatning erkin tarzda namoyon bo'lishidir, u zo'ravonlik yoki zo'rma zo'rakilik bilan chiqisha olmaydigan hodisa. U me'yorlar, an'analar, qonunlarga bo'ysunmaydi, lekin yuksak axloqiylik ifodasi tarzida insonga ulkan mas'uliyat yuklaydi, uni jasoratga chorlaydi, u – insonni tashqi va transidental olam bilan bog'laydigan, uni yolg'izlikdan olib chiqadigan buyuk kuch.

Muhabbatning ob'ekti doimo go'zallik, manfaatsiz go'zallik. U – Allohmi, vatanmi, yormi – muhabbat egasiga undan-da go'zalroq narsa yo'q. Ayni paytda bir ob'ektni sevgan kishi boshqa ob'ektlarni ham sevishi tabiy. Deylik, yorga bo'lgan haqiqiy muhabbat vatanga, insoniyatga muhabbatni inkor etmaydi, aksincha, barqaror qiladi. Zero, «o'z-o'zicha», «yakka», «xudbin» muhabbatning bo'lishi mumkin emas. Inson o'zi o'zgaga aylanganida, o'zgani o'ziga aylantira olganida haqiqiy muhabbat egasi hisoblanadi. Mana shu ob'ekt bilan sub'ekt orasidagi farqning «yo'qolishi» eng buyuk, eng mukammal lazzatdir.

Muhabbat inson axloqiy hayotining cho'qqisi, komillik belgisidir. Shu bois haqiqiy muhabbat egalari yoshlari tomonidan doimo axloqiy ideal tarzida qabul qilinadi: farhod va shirin, romeo va juletta, otabek, kumush va h.k. Ta'kidlash lozimki, muhabbat – oliy tuyg'u, shu ma'noda u oliy tushuncha. Lekin uni tuban, quiyi narsa-hodisalarga nisbatan ham qo'llash hollari uchrab turadi. Chunonchi, Fromm singari g'arblik mutafakkirlar, ba'zi rus faylasuflari muhabbat tushunchasini o'likka (nekrofil), mol-dunyoga, pulga nisbatan qo'llaydilar. Ularga nisbatan «o'chlik», «cruju», «chirs» singari tushunchalarni qo'llash ma'qul emasmikan?

Muhabbat ham, axloqshunoslikdagi ko'pgina tushunchalardek, «juftlik» xususiyatiga ega, uning ziddi – nafrat. Nafrat tushunchasi, albatta, muhabbat singari keng qamrovli emas. U aksil muhabbat tarzida namoyon bo'ladi, ob'ektdan chetlashishni, undan begonalashishni taqozo etadi. Hazar, jirkanch hissi nafratning kundalik turmushdag'i tor, «mayda» ko'rinishidir. Nafratning ularga nisbatan «yirikligi» uning ijtimoiy hodisa sifatida mayjudligidir.

<sup>1</sup> Локк Ж. Сочинения в 3 т. Т 3 М., Мысль, 1988. С. 21

Ayni paytda, nafrat g'azabdan keskin farq qiladi. U, g'azabga o'xshab, o'z ob'ektini yo'qotishga intilmaydi, undan faqat yuz buradi. Uni muhabbat egasida o'z muhabbatni ob'ektiga nisbatan tashqi bir kuchning noinsoniy,adolatsiz, noinsoflarcha munosabati tufayli o'sha kuchga qarshi qo'zg'aladigan hissiyot deyish mumkin. U davomiylik tabiatiga ega, g'azab kabi o'tkinchi hodisa emas. Agar g'azabning asosida inson fe'lining salbiy holati – oniy badjahlilik yotsa, nafrat uchun chuqur o'ylab qabul qilingan uzil-kesil qaror yotadi. Ko'rinishdan nafrat kishida yoqimsiz taassurot uyg'otsa-da, ko'p hollarda u illat emas, axloqiy fazilat sifatida insonning vijdonliligidan, botiniy jasoratidan dalolatdir.

Nafratdan tashqari yana rashk tushunchasi borki, u – ijtimoiy hodisa emas, ko'p hollarda jinsiy muhabbat bilan yonma-yon keladi. Ma'lumki, muhabbat egasi o'z sevgisini va sevgilisini qizg'anib, asrab qolishga harakat qiladi. Ana shu qizg'anish hissi me'yordan oshib ketganda rashkka aylanadi. Rashk esa, uni qanchalik ta'rif-tavsif qilmaylik, me'yorning buzilishi, illat. Chunki uning mohiyati xudbinlikka borib taqaladi: muhabbat egasi muhabbat lazzatiga noil bo'lgani holda uning iztirobidan qochishga intiladi; o'zi chekishi lozim bo'lgan iztirobni o'z muhabbat ob'ektiga o'tkazishga harakat qiladi. Natijada ba'zan iztirobni yo'qotishga intilish muhabbat ob'ektining o'zini yo'q qilishga, fojiaga olib keladi.

Asosiy tushunchalar orasidagi yana bir juftlik – ezgulik va yovuzlik; Ezgulik va yovuzlik ezgulik axloqshunoslikdagi eng muhim kategoriyalardan. Ezgulik – insonga eng kuchli ma'naviy lazzat bag'ishlaydigan, uni ijtimoiy shaxsga aylantirib, haqiqiy baxtga olib boruvchi fazilat; shaxsni komillikka, jamiyatni esa yuksak taraqqiyotga etkazuvchi yuksak qadriyat. U insonning axloqiy faoliyatni tufayli muayyanlashadi, yuzaga chiqadi. Uni sinfiylik yoxud partiyaviylik qobig'iga o'rash mumkin emas. Chunonchi, «sinfiy dushmani», ya'ni biror bir shaxsni yoki guruhni faqat boshqa sinfga mansub bo'lgani uchun jisman yo'qotish, qanchalik bo'yab-bejalmasin, ezgulik bo'lolmaydi. U tom ma'nodagi yovuzlikdir.

Ezgulik va uning ziddi yovuzlik odatiy, kundalik hayot mezonlari bilan o'chanmaydi, ular ham muhabbat singari qamrovli va ijtimoiylik xususiyatiga ega. Ezgulikning axloqiy ideal bilan bog'liqligi shundan. Shu tufayli u amaliyotda qahramonlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, jasurlik singari tamoyillarni o'z ichiga oladi.

Shuni ham aytish kerakki, muhabbat va nafrat juftlik tushunchasida nafrat muhabbatni inkor etmay, aksincha, uning barqarorligidan dalolat bersa, ezgulik va yovuzlik juftligida har ikki tushuncha bir-birini tamomila inkor etadi. Nafaqat inkor etadi, balki ular orasida hayot-mamot kurashi ketadi va bu kurash abadiy kurash sifatida, olamni harakatga keltiruvchi kuch tarzida namoyon bo'ladi.

Ezgulik va yovuzlikning yana bir o'ziga xos tomoni shundaki, bu juftlik tushuncha inson faoliyatini baholash xususiyatiga ega. Uni odam bolasining

ulug'ligi va tubanligini o'lchaydigan muqaddas tarozuga o'xshatish mumkin. Insonning komilligi, jamiyatning takomilga erishgan—erishmagani shu mezon bilan o'lchanadi. Chunonchi, lenin, stalin, hitler, pol potlarni yovuz insonlar, sobiq sho'rolar ittifoqini esa jamiyat sisfatida «yovuzlik saltanati» deb baholanishi buning yorqin misolidir.

Yaxshilik va yomonlik. Ezgulik va yovuzlik haqida gap borganida, yaxshilik va yomonlik nima, bu ikki juftlik mazmunan bir emasmi, degan savol tug'iladi. Bu tabiiy. Chunki hozirgacha bizga ma'lum o'zbek tilidagi barcha axloqshunoslikka doir adabiyotlarda ezgulik va yovuzlik mezoni tushunchalar sirasiga kiritilmagan, u bor-yo'g'i yaxshilik va yomonlikning Sinonimi tarzida taqdim etib kelingan. To'g'ri, yaxshilik tushunchasining ko'pgina unsurlari ezgulikdan, ezgulikning ba'zi unsurlari yaxshilikdan joy olishini inkor qilish mumkin emas. Ularning ziddida ham shunday «singishib ketish» mavjud. Lekin bunday dalillar aslo mazkur ikki juftlikni aynanlashtirishga asos bo'la olmaydi.

Bu ikki juftlik tushunchalar orasida qat'iy farq mavjud: ezgulik, ijtimoiylik xususiyatiga ega, yaxshilik esa unday emas. Yaxshilik asosan shaxsning odobiga, xulqiga bog'liq bo'lgan ijobjiy hodisa. Zero, unda mardlik, ochiqko'ngillilik, halollik singari axloqiy me'yorlar tajassum topadi. Biroq unga asos bo'lgan amaliy hatti-harakatlar qahramonlik, jasorat, vatanparvarlik kabi tamoyillar darajasiga ko'tarila olmaydi.

Adolat. Axloqshunoslikning yana bir asosiy tushunchasi – adolat. Uning ezgulik va yovuzlik hamda yaxshilik va yomonlikdan asosiy farqi shundaki, adolatning o'zi biror-bir qadriyatni anglatmaydi, lekin qadriyatlar orasidagi nisbatni belgilaydi. ularni baholash maqomiga ega. Shu bois unda jamiyatni tartibga soluvchilik xususiyati bor; unda ham axloqiy, ham huquqiy talablar mujassamlashgan. Uni ma'lum ma'noda axloq sohasidagi miqdor o'lchovchi ham deyish mumkin: u talab bilan taqdirlashni o'lchab turadigan tarozidir. Adolat bor joyda ijtimoiy jabrga, beboslikka yo'l yo'q.

Ma'lumki, axloqdagagi eng oddiy, ibridoiy fazilatlar, chunonchi, mehribonlik, shafqat, muruvvat hayvonlarda ham mavjud. Lekin hayvonlarda ular o'z guruhiga, eng avvalo, o'z surriyotiga qaratilgan bo'ladi. Odamzod esa o'ziga qondosh-qarindosh bo'lmanan o'zgalarga – qavmdoshlariga ham ushbu hissiyotlarni namoyish etadi. Shunday qilib, axloqning ba'zi unsurlari hayvonlarda ham mavjud, faqat ular insondagidek aqlga emas, tabiiyyatga asoslangan. Buni adolat mezoni tushunchasida yaqqol ko'rish mumkin. Albatta, hayvonlar uni tushuncha sisfatida anglamaydilar, lekin u tabiiyyat tarzida hayvonlar hatti-harakatida namoyon bo'ladi.

Burch. Burch, mohiyatan, jamiyat, davlat va shaxslarga nisbatan muayyan individdagi munosabat, ular oldidagi majburiyat. U, yuqorida aytganimizdek,

vijdon, e'tiqod, mas'uliyat kabi tushunchalar bilan mustahkam bog'liq. Umuman, hayotda insонning har bir hatti-harakati zamirida burch tushunchasi – burchga sadoqat yoki xiyonat yotadi.

Burchning insonlik burchi, musulmonlik burchi, nasroniylik burchi, fuqarolik burchi, otalik burchi, onalik burchi, farzandlik burchi singari keng qamrovli, barcha davrlar uchun umumiy bo'lган tushunchalari ham, jurnalistlik burchi, shifokorlik burchi, olimlik burchi kabi kasbiy odob doirasidagi tushunchalari ham mavjud.

Burch tushunchasining o'ziga xos jihatlaridan yana biri – uning vaqt va jamiyatda muayyanlashish xususiyati. Chunonchi, bir tuzum yo jamiyatda ijobiy hisoblangan burch talablari ikkinchi bir tuzum yoki jamiyat uchun salbiy ma'no kasb etishi mumkin. Sobiq sho'rolar fuqarosining o'sha davrdagi mavjud tuzum oldidagi burchi hozirgi kunda o'ta salbiy hodisa sifatida baholanishi bunga yorqin misol bo'la oladi.

Vijdon. Axloqshunoslikning nihoyatda ta'sir doirasi keng tushunchalaridan biri vijdondir. Vijdon – zigmund Froyd ta'biri bilan aytganda, alo men, men ustidan nazorat o'rnatib, uni boshqarib turuvchi ikkinchi bir, yuqori darajadagi men. Agar uyat hissi insонning tashqi, jamiyatga bog'liqligidan kelib chiqsa, vijdon uning ichki o'z-o'ziga bog'liqligini namoyon etadi. Bu ichki bog'liqlik tashqi bog'liqlikka nisbatan teran va doimiydir: uyat ma'lum bir vaqt ichida odamning o'z nojo'ya harakati tufayli yuzaga kelgan o'ng'aysizligi bo'lsa, vijdon azobi, bu oddiy o'ng'aysizlik emas, balki qalbdagi, odamdagи odamiylikka e'tiqodning faryodi, talabi; uni qondirmas ekansiz, hech qachon azob to'xtamaydi. Uyat bilan vijdonni, shu bois, dengizdagи muz tog'iga – aysbergga o'xshatish mumkin: yuzaga uyat tarzida chiqib turgan qismi teranlikdagi qismidan yuz, balki ming barobar kichik.

Vijdon ham axloqshunoslikning boshqa ba'zi asosiy tushunchalari kabi baholash xususiyatiga ega. Lekin bu baholash hech qachon ob'ektga qaratilmaydi, u sub'ektning hatti-harakatlarini baholaydi, ya'ni unda sub'ekt o'zi uchun ichki ob'ekt vazifasini o'taydi. Ba'zan jamiyat talablari bilan vijdon o'rtasida ixtiloflar chiqishi mumkin. Bunda vijdon emas, jamiyat talablarining o'tkinchilik xususiyati ma'lum ma'noda eskirganligi aybdordir. Zero, vijdon ko'zga ko'rinas, lekin ulkan va mutlaq aybsiz axloqiy hodisadir.

Nomus. Asosiy tushunchalardan yana biri – nomus. Nomus tushunchasi bir tomonidan, burch bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi jihatdan, qadr-qimmat tushunchasiga aloqador. Zero, nomus mohiyatan shaxsning o'z qadr-qimmatini anglab etishi, shu qadr-qimmatning jamiyat tomonidan tan olinishi yoki olinmasligiga nisbatan bo'ladigan munosabati bilan belgilanadi.

Biroq, bu – nomus qadr-qimmat tushunchasi bilan bir xil ma'noga ega, degani emas. Chunki qadr-qimmat shaxsdan o'zining boshqa odamlarga nisbatan kamsitilmasligini, atrofdagilardan barcha insонning teng huquqliligi tamoyilini

o'ziga nisbatan qo'llashlarini talab qiladi. Nomus esa o'z qadr-qimmatini bilihdan tashqari, har bir shaxsning jamiyatda alohida, o'ziga xos tarzda egallagan mavqeい va shu mavqeni dog' tushirmay saqlash-saqlamasligi bilan bog'liq. Bu mavqe esa, shubhasiz, o'sha shaxsning ijtimoiy hayotdagi o'rni, kasbi, yoshi va unga nisbatan beriladigan axloqiy daraja bilan muayyanlashadi. Masalan, uyingizda bir kun kelib oddiy ishlarni bajarib ketadigan mardikor bilan nomi ketgan mashhur binokor-ustaning, bosh vazir bilan kotibaning, bobo bilan nabiraning nomusni tushunishi bir xil emas. Shu ma'noda qadr-qimmatni nomus tushunchasining dastlabki bosqichi, ibtidosi deb aytish mumkin.

Gohida nomusni or tushunchasi bilan chalkashtirish hollari ham uchrab turadi. Lekin, aslida, nomusga nisbatan or ancha tor qamrovdag'i, nisbatan zalvarsiz tushuncha. Chunonchi, oriyatlari odam deganda, o'z so'zining ustidan chiqadigan, sadaqa tarzida qilingan muruvvatlardan baland turadigan shaxs tushuniladi. Beor odam – o'z sha'niga aytilgan gaplarga parvo qilmay, ishini bajarib ketaveradigan, aytilgan-aytilmagan joylarga suqilib kiraveradigan surbetnamo kishi. Nomusning esa toshi og'ir – ijtimoiylik xususiyatiga ega, keng qamrovli. Nomus yo'lida inson hatto o'z hayotidan kechishi mumkin, odamlar o'z nomusi, oila nomusi, millat nomusi deb kurashadilar. Bu haqda ko'plab badiiy asarlar, pand-o'gitlar yaratilgan.

Qadr-qimmat. Qadr-qimmat tushunchasi inson o'z qadrini, bu dunyoda uning hayoti oliy qadriyat ekanligi, o'z shaxsi oldida o'zi ma'sul ekanligini anglash uchun xizmat qiladigan hissiyor. U nomus, g'urur tushunchalari bilan bog'liq, bir tomonidan insonning o'z qadrini har qanday holatda ham erga urmasligini taqozo etadi. Masalan, iste'dodli, vijdonli, ziyoli odam biror bir shaxsiy ishini hal qilishi uchun nokas boyvachchaga yoki to'pos rahbarga yalinsa, garchand o'z maqsadiga etsa ham, bu o'zi tomonidan o'z qadrini erga urishdir. Pirovard natijada o'zini kamsitilgan xis qiladi, bundan afsus bilan yashaydi.

Qadr-qimmatning yana bir jihat – insonning boshqalar yoki jamiyat tomonidan kamsitilishi bilan bog'liq. Bunda kishining hayotida egallagan haqiqiy o'rinni atayin tan olmaslik, boshqa birov, guruh yoki jamiyat tomonidan ko'ra – bila turib, uni chetga surib qo'yish va shu orqali uni iztirobga sloshi kabi usullarni qo'llashdir. Bunday usullar ma'naviy saviyasi past odamlar orqali, qonunlari ishlamaydigan totalitar va avtoritar boshqaruv hukumronlik qilgan jamiyatda ro'y beradi. Bunga misol tarzida Abdulla Qodiriy, Cho'lpion kabi buyuk siymolarning qamashga, otishga hukm etilishini yoki iste'dodli ziyolilarga atayn unvonlar bermaslik, iloji boricha ular nomini xalqqa etkazmaslikka harakat qilish hollarini keltirishimiz mumkin. Faqat bugina emas, sho'rolar tuzumida «soviet xalqi» deb atalgan millionlab fuqarolarning qadr-qimmati oyoq osti qilindi: ular ochlikka, suriznlarga, konsentratsion lagerlar azoblariga mahkum etildilar, qiyonoqlarga solindilar.

G'ayriaxloqiylik – ma'naviy buzilish oqibatida shakllanadigan, rasman tan olingen yoki amalda mavjud bo'lgan axloq me'yorlari, baholar, an'analar, xulq-atvor namunalari mos kelmaydigan kishilarning xatti-harakati, xulqini anglatuvchi tushuncha hisoblanadi. Ma'lumki, yovuzlikni yo'qotish, to'g'rirog'i, kamaytirish, zaiflashtirish barcha davrlarda ham asosiy axloqiy muammo bo'lib kelgan. Qadimgi dunyodagi va O'rta asrlardagi Sharq mutafakkirlari yovuzlikni kuchsizlashtirishning yo'li - unga qarshi yovuzlik bilan javob bermaslik, deb bilganlar. Bunday yondashuvni qadimgi hindlar va xitoylarda (yo'ga, jaynchilik, buddhachilik, daochilik), nasroniylikdagi Iso alayhissalom da'vatlarida, musulmonlikdagi tasavvuf namoyandalarida ko'rish mumkin. Lekin bu davrlarda yovuzlikka yovuzlik bilan javob bermaslikni faqat sabr-toqat, Xudoga tashlab qo'yish orqali amalga oshirish mumkin deb bilganlar. Agar hazrati Iso o'z ummatlariga «O'ng yuzingga ursa, chap yuzingni tut», deganlar.

Lekin avvalgi davrlardagi bu qarashlarning mohiyati chidam va bardosh bilan cheklangan bo'lsa, XIX asrning ikkinchi yarmida boshlangan hamda hozirgi paytda muvaffaqiyatli davom etayotgan yovuzlikka qarshi zo'ravonlik ko'rsatmaslik ana shu sabr-bardosh, chidam orqali bo'yusunishi emas, balki kurashishni taqozo etadi. Ana shu yangilangan, mohiyati o'zgargan axloqiy yo'nalishning ibtidosida XIX asr mutafakkiri amerikalik faylasuf-axloqshunos Henri Deyvid Toro (1817 - 1862) turadi. Bu yo'nalish doirasida keyinchalik, XX asr boshlarida Lev Tolstoy (1828 - 1910), keyinroq buyuk hind mutafakkiri va jamoat arbobi Mohandis Karamchand Gandhi (1869 - 1948), amerikalik ruhoni, faylasuf, jamoat arbobi Martin Lyuter King (1929 - 1968) singari mutafakkirlar izlanish olib bordilar. Shuningdek, AQShdagi Albert Aynshtayn instituti direktori professor Jin Sharp, Polsha Fanlar akademiyasi Falsafa instituti professori Anjey Gjegorchik, Rossiya Fanlar akademiyasi Falsafa instituti professori Abdusalom Guseynov singari zamondosh olimlarimiz ham mazkur yo'nalishda tadqiqotlar olib bormoqdalar.

Vijdon. Axloq falsafasining nihoyatda ta'sir doirasini keng tushunchalaridan biri vijdondir. Vijdon – zigmund Froyd ta'biri bilan aytganda, alo men, men ustidan nazorat o'rnatib, uni boshqarib turuvchi ikkinchi bir, yuqori darajadagi men. Agar uyat hissi insonning tashqi, jamiyatga bog'liqligidan kelib chiqsa, vijdon uning ichki o'z-o'ziga bog'liqligini namoyon etadi. Bu ichki bog'liqlik tashqi bog'liqlikka nisbatan teran va doimiydir: uyat ma'lum bir vaqt ichida odamning o'z nojo'ya harakati tufayli yuzaga kelgan o'ng'aysizligi bo'lsa, vijdon azobi, bu oddiy o'ng'aysizlik emas, balki qalbdagi, odamdagisi odamiylikka e'tiqodning faryodi, talabi; uni qondirmas ekansiz, hech qachon azob to'xtamaydi. Uyat bilan vijdonni, shu bois, dengizdagi muz tog'iga – aysbergga o'xshatish mumkin: yuzaga uyat tarzida chiqib turgan qismi teranlikdagi qismidan yuz, balki ming barobar kichik.

Vijdon ham axloq falsafasining boshqa ba'zi asosiy tushunchalari kabi baholash xususiyatiga ega. Lekin bu baholash hech qachon ob'ektga qaratilmaydi, u sub'ektning hatti-harakatlarini baholaydi, ya'ni unda sub'ekt o'zi uchun ichki ob'ekt vazifasini o'taydi. Ba'zan jamiyat talablari bilan vijdon o'rtaosida ixtiloslar chiqishi mumkin. Bunda vijdon emas, jamiyat talablarining o'tkinchilik xususiyati ma'lum ma'noda eskirganligi aybdordir. Zero, vijdon ko'zga ko'rinas, lekin ulkan va mutlaq aybsiz axloqiy hodisadir.

Nomus. Asosiy tushunchalardan yana biri – nomus. Nomus tushunchasi bir tomonidan, burch bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi jihatdan, qadr-qimmat tushunchasiga aloqador. Zero, nomus mohiyatan shaxsnинг o'z qadr-qimmatini anglab etishi, shu qadr-qimmatning jamiyat tomonidan tan olinishi yoki olinmasligiga nisbatan bo'ladigan munosabati bilan belgilanadi.

Biroq, bu – nomus qadr-qimmat tushunchasi bilan bir xil ma'noga ega, degani emas. Chunki qadr-qimmat shaxsdan o'zining boshqa odamlarga nisbatan kamsitilmasligini, atrofdagilardan barcha insonning teng huquqligi tamoyilini o'ziga nisbatan qo'llashlarini talab qiladi. Nomus esa o'z qadr-qimmatini bilishdan tashqari, har bir shaxsnинг jamiyatda alohida, o'ziga xos tarzda egallagan mavqeい va shu mavqeni dog' tushirmay saqlash-saqlamasligi bilan bog'liq. Bu mavqe esa, shubhasiz, o'sha shaxsnинг ijtimoiy hayotdagi o'rni, kasbi, yoshi va unga nisbatan beriladigan axloqiy daraja bilan muayyanlashadi. Masalan, uyingizda bir kun kelib oddiy ishlarni bajarib ketadigan mardikor bilan nomi ketgan mashhur binokor-ustaning, bosh vazir bilan kotibaning, bobo bilan nabiraning nomusni tushunishi bir xil emas. Shu ma'noda qadr-qimmatni nomus tushunchasining dastlabki bosqichi, ibtidosi deb aytish mumkin.

Hayotning ma'nosи. Mashhur alloma majididdin xavofiy, yashash uchun ovqatlanurlar, ovqatlanish uchun yashamaslar, degan hikmatni ko'p takrorlar ekan. Xo'sh, aslida inson nima uchun yashaydi? Yashashdan maqsad nima? Inson hayotining ma'nosи nimada?

Har bir inson o'z umri mobaynida ana shu savollarga javob topishga urinadi va hayotining ma'nosini o'ziga xos tarzda tushunadi. Shu bois u axloqshunoslikning ancha murakkab tushunchalaridan hisoblanadi.

Avvalo shuni aytish joizki, hayotning ma'nosini yashashdan maqsad degan tushuncha bilan qorishtirib yuborish hollari ko'p uchraydi. Vaholanki, ularni aynanlashtirish mumkin emas, chunki hayotning ma'nosи maqsadga nisbatan juda qamrovli tushuncha, o'z ichiga o'nlab, balki yuzlab maqsadlarni oladi, aniqrog'i, u muayyan maqsadlar tizimididan tashkil topadi. Shu bois kimningdir biror-bir ezgu maqsadi amalga oshmay qolsa, uning hayotini «ma'nosiz» deb bo'lmaydi.

Ba'zan hayot «ma'nosiz» kechishi ham mumkin. Bunda kishidagi maqsadlar o'tkinchi, mayda, yuksak orzu-tilishlardan yiroq, hayvoni, tuban, hatto yovuz

G'ayriaxloqiylik – ma'naviy buzilish oqibatida shakllanadigan, rasman tan olingen yoki amalda mavjud bo'lgan axloq me'yorlari, baholar, an'analar, xulq-atvor namunalari mos kelmaydigan kishilarning xatti-harakati, xulqini anglatuvchi tushuncha hisoblanadi. Ma'lumki, yovuzlikni yo'qotish, to'g'riroq'i, kamaytirish, zaiflashtirish barcha davrlarda ham asosiy axloqiy muammo bo'lib kelgan. Qadimgi dunyodagi va O'rta asrlardagi Sharq mutafakkirlari yovuzlikni kuchsizlashtirishning yo'li - unga qarshi yovuzlik bilan javob bermaslik, deb bilganlar. Bunday yondashuvni qadimgi hindlar va xitoylarda (yo'ga, jaynchilik, buddhachilik, daochilik), nasroniylikdagi Iso alayhissalom da'vatlarida, musulmonlikdagi tasavvuf namoyandalarida ko'rish mumkin. Lekin bu davrlarda yovuzlikka yovuzlik bilan javob bermaslikni faqat sabr-toqat, Xudoga tashlab qo'yish orqali amalga oshirish mumkin deb bilganlar. Agar hazrati Iso o'z ummatlariga «O'ng yuzingga ursa, chap yuzingni tut», deganlar.

Lekin avvalgi davrlardagi bu qarashlarning mohiyati chidam va bardosh bilan cheklangan bo'lsa, XIX asrning ikkinchi yarmida boshlangan hamda hozirgi paytda muvaffaqiyatli davom etayotgan yovuzlikka qarshi zo'ravonlik ko'rsatmaslik ana shu sabr-bardosh, chidam orqali bo'y sunishni emas, balki kurashishni taqozo etadi. Ana shu yangilangan, mohiyati o'zgargan axloqiy yo'nalishning ibtidosida XIX asr mutafakkiri amerikalik faylasuf-axloqshunos Henri Deyvid Toro (1817 - 1862) turadi. Bu yo'nalish doirasida keyinchalik, XX asr boshlarida Lev Tolstoy (1828 - 1910), keyinroq buyuk hind mutafakkiri va jamoat arbobi Mohandis Karamchand Gandhi (1869 - 1948), amerikalik ruhoni, faylasuf, jamoat arbobi Martin Lyuter King (1929 - 1968) singari mutafakkirlar izlanish olib bordilar. Shuningdek, AQShdagi Albert Aynshtayn instituti direktori professor Jin Sharp, Polsha Fanlar akademiyasi Falsafa instituti professori Anjey Gjegorchik, Rossiya Fanlar akademiyasi Falsafa instituti professori Abdusalom Guseynov singari zamondosh olimlarimiz ham mazkur yo'nalishda tadqiqotlar olib bormoqdalar.

Vijdon. Axloq falsafasining nihoyatda ta'sir doirasi keng tushunchalaridan biri vijdondir. Vijdon – zigmund Froyd ta'biri bilan aytganda, alo men, men ustidan nazorat o'rnatib, uni boshqarib turuvchi ikkinchi bir, yuqori darajadagi men. Agar uyat hissi insonning tashqi, jamiyatga bog'liqligidan kelib chiqsa, vijdon uning ichki o'z-o'ziga bog'liqligini namoyon etadi. Bu ichki bog'liqlik tashqi bog'liqlikka nisbatan teran va doimiyyidir: uyat ma'lum bir vaqt ichida odamning o'z nojo'ya harakati tufayli yuzaga kelgan o'ng'aysizligi bo'lsa, vijdon azobi, bu oddiy o'ng'aysizlik emas, balki qalbdagi, odamdag'i odamiylikka e'tiqodning faryodi, talabi; uni qondirmas ekansiz, hech qachon azob to'xtamaydi. Uyat bilan vijdonni, shu bois, dengizdagi muz tog'iga – aysbergga o'xshatish mumkin: yuzaga uyat tarzida chiqib turgan qismi teranlikdagi qismidan yuz, balki ming barobar kichik.

Vijdon ham axloq falsafasining boshqa ba'zi asosiy tushunchalari kabi baholash xususiyatiga ega. Lekin bu baholash hech qachon ob'ektga qaratilmaydi, u sub'ektning hatti-harakatlarini baholaydi, ya'ni unda sub'ekt o'zi uchun ichki ob'ekt vazifasini o'taydi. Ba'zan jamiyat talablari bilan vijdon o'rtasida ixtiloslar chiqishi mumkin. Bunda vijdon emas, jamiyat talablarining o'tkinchilik xususiyati ma'lum ma'noda eskirganligi aybdordir. Zero, vijdon ko'zga ko'rinish, lekin ulkan va mutlaq aybsiz axloqiy hodisadir.

Nomus. Asosiy tushunchalardan yana biri – nomus. Nomus tushunchasi bir tomonidan, burch bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi jihatdan, qadr-qimmat tushunchasiga aloqador. Zero, nomus mohiyatan shaxsning o'z qadr-qimmatini anglab etishi, shu qadr-qimmatning jamiyat tomonidan tan olinishi yoki olinmasligiga nisbatan bo'ladigan munosabati bilan belgilanadi.

Biroq, bu – nomus qadr-qimmat tushunchasi bilan bir xil ma'noga ega, degani emas. Chunki qadr-qimmat shaxsdan o'zining boshqa odamlarga nisbatan kamsitilmasligini, atrofdagilardan barcha insonning teng huquqligini tamoyilini o'ziga nisbatan qo'llashlarini talab qiladi. Nomus esa o'z qadr-qimmatini bilishdan tashqari, har bir shaxsning jamiyatda alohida, o'ziga xos tarzda egallagan mavqeい va shu mavqeni dog' tushirmay saqlash-saqlamasligi bilan bog'liq. Bu mavqe esa, shubhasiz, o'sha shaxsning ijtimoiy hayotdagi o'rni, kasbi, yoshi va unga nisbatan beriladigan axloqiy daraja bilan muayyanlashadi. Masalan, uyingizda bir kun kelib oddiy ishlarni bajarib ketadigan mardikor bilan nomi ketgan mashhur binokor-ustaning, bosh vazir bilan kotibaning, bobo bilan nabiraning nomusni tushunishi bir xil emas. Shu ma'noda qadr-qimmatni nomus tushunchasining dastlabki bosqichi, ibtidosi deb aytish mumkin.

Hayotning ma'nosи. Mashhur alloma majididdin xavofiy, yashash uchun ovqatlanurlar, ovqatlanish uchun yashamaslar, degan hikmatni ko'p takrorlar ekan. Xo'sh, aslida inson nima uchun yashaydi? Yashashdan maqsad nima? Inson hayotining ma'nosи nimada?

Har bir inson o'z umri mobaynida ana shu savollarga javob topishga urinadi va hayotining ma'nosini o'ziga xos tarzda tushunadi. Shu bois u axloqshunoslikning ancha murakkab tushunchalaridan hisoblanadi.

Avvalo shuni aytish joizki, hayotning ma'nosini yashashdan maqsad degan tushuncha bilan qorishtirib yuborish hollari ko'p uchraydi. Vaholanki, ularni aynanlashtirish mumkin emas, chunki hayotning ma'nosи maqsadga nisbatan juda qamrovli tushuncha, o'z ichiga o'nlab, balki yuzlab maqsadlarni oladi, aniqrog'i, u muayyan maqsadlar tizimidan tashkil topadi. Shu bois kimningdir biror-bir ezgu maqsadi amalga oshmay qolsa, uning hayotini «ma'nosiz» deb bo'lmaydi.

Ba'zan hayot «ma'nosiz» kechishi ham mumkin. Bunda kishidagi maqsadlar o'tkinchi, mayda, yuksak orzu-intilishlardan yiroq, hayvoniy, tuban, hatto yovuz

bo'lishi mumkin. Mazkur kishi – «hayot egasi» ning bunday tabiatini jamiyat erishgan axloqiy daraja bilan baholanadi. Zero, kimdir o'z hayoti ma'nosini qanday yo'l bilan bo'lmashin boy–badavlat, to'kin–sochin yashashda deb tushunadi: harom–xarishning farqiga borib o'tirmaydi, birovning haqidan qo'rqiymaydi yoki qanday vositalar bilan bo'lmashin, martabaga erishishni o'z oldiga hayotiy maqsad qilib qo'yadi, faqat «yulsam» deydi. Boshqa birov esa qonunni buzmaydi, lekin o'zgalarga qayishishni xayoliga ham keltirmaydi, hech kim bilan ishi bo'lmaydi, faqat «o'z qobig'ida» yashashni afzal ko'radi.

Yana bir toifa odamlar borki, ular hayotining ma'nosini eng yuksak qadriyatlar bilan bog'laydilar va jamiyatda yuksak axloq egasi, go'zallik oshuftasi, e'tiqodi but kimsalar sifatida e'tibor qozonadilar. Ular oliv ideallarga intilib, fidoyilarcha umr kechiradilar. Hayotining ma'nosini o'zidan keyin qoldiradigan «ikkinchı umr»da ko'radilar. Har bir jamiyatning taraqqiy topishi yoki tanazzuli hayotning ma'nosini ana shu tarzda tushunuvchilarning ko'pligi yoki kamliagi natijasida ro'y beradi, bir so'z bilan aytganda, bunday tom ma'noda «elim deb, yurtim deb yonib yashaydigan» odamlar yuksak axloqli, demokratik, erkin jamiyatning ustunlaridir.

Halollik. Halollik vijdon,adolat va burch kabi axloqshunoslik mezoniy tushunchalari bilan bog'liq, insoning o'zgacha munosabati o'zicha munosabatidek sof, pokiza bo'lishini talab qilidigan axloqiy me'yordir. Dastavval u diniy tushuncha sifatida vujudga kelib, har bir musulmonning emak–ichmagi, jinsiy va iqtisodiy hatti–harakatlari sifatini belgilab beruvchi shar'iy me'yor bo'lib amal qilgan, uning ziddi – harom diniy nuqtai – nazardan salbiy hisoblangan hatti–harakatlarga nisbatan qo'llanilgan. M., bismil qilingan hayvon yo parranda go'shti – halol, o'laksa go'shti – harom, nikohdag'i jinsiy aloqa – halol, zino – harom, mehnat haqi – halol, o'g'rilik bilan topilgan mol – harom v.h.

Ko'rib o'tganimizdek, har bir diniy e'tiqodning aslsida axloqiylik yotadi va u ko'p hollarda ibodatdan baland qo'yilgan: solih bandalar, «Qur'on» da aytilganidek, eng avvalo go'zal axloq egalaridir. Shu boisdan keyinchalik halollik nisbatan tor shar'iy qobiqdan chiqib, asta–sekinlik bilan shaxs hayotidagi eng qamrovli axloqiy me'yorga aylandi, teran ma'naviyilik kasb etgani holda, kundalik hayotdagi insoniylikni belgilaydigan umuminsoniy fazilat bo'lib qoldi. M., hozirgi kunda ixtisoslashgan mehnat taqsimotining takomillashuvi, ilm–fan taraqqiyotining yuksalishi natijasida biz kasbiy halollik ilmiy halollik, iqtisodiy halollik v.b. haqida gapirishimiz mumkin.

Insoniyat jamiyatida haromlik yoxud noplilikning halollikka nisbatan kam uchramasligi doimo axloqshunosliklar tashvishga solib kelgan. Chunonchi, Imom G'azzoliyning harom eyish haqida to'xtalib, mana bunday deyishi beziz emas:

«...xohi zulm bilan olingen bo'lsin (kuch ishlatib, xoinona undirish va bosqinchilik–o'g'rilik yo'llari bilan olish); xoh zavq va o'yin yo'li bilan olinsin

(qimor va shunga o'xshash narsalar bilan bo'lganiday); xoh hijla va nayrang yo'llari bilan olinsin (tovlamachilik va aldamchilik, tarozidan urish kabi); o'z moli va boyligini harom ishlarga (ichkilikbozlik, qimor, fohishabozlik) xarjlashi – hammasi harom eyishga kiradi»<sup>1</sup>.

Rostgo'ylik. Rostgo'ylik yoki to'g'ri so'zlilik insonning haqiqatga intilishi bilan bog'liq haqiqat esa doimo sinfiylik, partiyaviylik–mafkuraviylik va tarixiylik–davriylikdan yuqori turadi. Haqiqatning ifodaviy shakllaridan biri rostgo'ylikdir. Demak, rostgo'ylik – insonning keyinchalik kasb etgan tabaqaviylik, – so'z ongiga, ruhiga singdirgan, ijtimoiy–hayotiy, davriy–tajribaviy xususiyat emas, balkining mohiyatida berilgan fazilat. M., yaqinda tili chiqqan yosh go'dakni olaylik. U nima desangiz ishonadi, o'zi nimaiki desa – rost gapiradi («aldagani bola yaxshi» degan maqolni eslang). Go'dakning soddaligidan, ishonuvchanligidan, to'g'risini aytishidan biz – kattalar kulamiz; lekin haqiqat ustidan, rostgo'ylik ustidan kulayotganimizni o'ylab ham ko'rmaymiz. Go'dak kattarib, «aqli kirib» borgani sari atrof–muhitda yolg'on mavjud ekanligini, rost gapirsa yo kulgi bo'lishi, yo jazo olishi mumkinligini anglab etadi va asta–sekin yolg'onga o'rgana boshlaydi, dastlabki maishiy yolg'on ijtimoiy bosqichga ko'tarildi. Endi xususiy yoki guruhiy manfaatdorlikni ta'minlovchi yolg'on atrofdagi voqelikning hamrohiga aylanadi. Insonning bu yo'ldan faqat yuksak ma'naviylik, birinchi galda axloqiy tarbiya qutqaradi. Ezgulik, nomus, or, qadr–qimmat, insonparvarlik, halollik. insof nima ekanini tushunib etgan kishigina rostgo'y bo'la oladi.

Rostgo'ylik oson emas. U insondan sabr–toqat, matonat va jasoratni talab qiladi, rostgo'y inson qo'rquvdan forig' bo'ladi, har qanday holatda ham vijdoniga qarshi bormaydi: kimlarningdir ko'ziga qarab, yaqinlarini yoki hamkasabalarini xafa qilishdan, o'z moddiy manfaatdorligiga zarar etkazishdan cho'chmaydi. To'g'ri, bunday munosabat tufayli rostgo'y inson aziyat chekishi, ta'na–dashnomrlarga qolishi mumkin. Lekin bularning hammasi bir odamga yoki muayyan guruhga voqelikni asl holida etgazganligidan, ularni noto'g'ri yo'lda solib yubormaganligidan qalbda paydo bo'lgan qoniqish hissi, xotirjamlik va orom tufayli yuvilib ketadi, ichki bir quvonch unga baland ruh bag'ishlaydi.

Yolg'onga kelsak, uni ko'pchilik Donishmandlar eng katta yovuzliklar sirasiga kiritishgan. Chunki yolg'onchi kishilar bo'lgan yoki bo'layotgan voqeа–hodisalar haqida noto'g'ri axborot berib odamlarni adashtiradilar, o'zlar ham adashadilar. Kimningdir yoki kimlarningdir yolg'oni tufayli odamlar ishonchga loyiq narsalarga ishonish, ishonchszlikka sozovor narsalarga ishonmaslik imkonidan mahrum bo'ldilar va turmushda hatto hayot–mamot masalalarida noto'g'ri qarorlar qabul qiladilar, bu narsa esa fojeaga olib keladi. Yolg'onchilik qilgan odam ham «quruq»

<sup>1</sup> G'azzoliy Abu Homid Mukoshafat ul-qulub T., Adolat, 2002, 336-b

qolmaydi, u ham o'z «fojeaviy ulush» iga ega bo'ladi, unga bundan buyon nomusiz, kazzob, ishonib bo'lmaydigan odam sifatida munosabat qilinadi, bu bir tomondan, ikkinchi tomondan, o'zi ham zarar ko'radi.

Hayolilik. Bu me'yor xulqiy go'zallikning asosiy belgilaridan hisoblanadi. U, garchand, bir qarashda, uyat hissi bilan o'xshash bo'lsa-da, aslida o'zini ko'proq andisha va iboga yaqin fazilat tarzida namoyon qiladi, unda axloqiy mohiyat estetik xususiyat – nafosat bilan uyg'unlashib ketadi. Hayodan odatda, inson qizaradi, bu qizariш, ayniqsa xotin-qizlarda ichki go'zallikning yuzga tepchib chiqishiga sabab bo'ladi va alohida bir nafislikni, mayinlikni vujudga keltiradi. Insonning o'zi sodir etgan yoki boshqalar vositasida amalga oshirilgan axloqiylikka zid hatti-harakatlardan noqulay vaziyatga tushishi, o'ng 'aysizlanishi, mulzam bo'lishi uyat hissida ham mavjud. Lekin bu holatlar uyatda ijtimoiylik kasb etgan bo'ladi, shu sababli ular xatti-harakat sodir qilingandan so'ng ham davom etadi va ko'p hollarda vijdon azobiga aylanadi. Hayotda esa mazkur holatlar sof ma'naviy tabiatga ega va vaqt doirasida cheklangan bo'lib, ular hatti-harakat sodir etilayotgan paytdagina yuzaga chiqadi.

Bugungi kunda hayolilik alohida ahamiyatga ega. Turli tsivilizatsiyalarning o'zaro aloqalari, ba'zan esa omuxtalashuvi, urbanizatsiya, modaparastlik singari zamonaliv hodisalar o'zbek oilasidagi an'anaviy hayolilikka ma'lum ma'noda salbiy ta'sir ko'rsatayotir, ayniqsa xotin-qizlar va yoshlarning o'zini tutishida, muomalasida, kiyinishida bu ta'sirni yaqqol sezish mumkin. Shu sababli oiladagi va mакtabdagи tarbiyada hayolilik xulqiy go'zallik, nazokat; behayolik esa xulqiy xunuklik va qo'pollik ekanini uqdirish shaxs erkinligining doimo o'zgalar oldida mas'uliyat bilan bog'liqligini izchil ravishda tushuntirib borish muhim vazifalardan biri.

Insofililik. Aflatun haqida gap borganida, uningadolatni davlatga xos fazilat, degan fikrini keltirib o'tgan edik. Darhaqiqat,adolat mohiyatan davlatning fuqaroga, jamiyatning shaxsga nisbatan munosabati tarzida namoyon bo'ladi. Bordi-yu, o'zaro adolatli munosabatlar haqida gap ketsa, unda odatda yuksak martabadagi tarixiy shaxsning quyi martabadagi shaxsga munosabati nazarda tutiladi. Insof esa ana shu adolatning tor qamrovli xususiy ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi. U fuqarolar, jamiyat a'zolari orasidagi o'zaro munosabatlar me'yordir.

Insofililik ham halollik kabi vijdon tushunchasi bilan bog'liq, ma'lum ma'noda halollikka o'xshab ketadi. Lekin bu yuzaki taassurot. Chunki halollik o'z haqi va haqqini, ya'ni moddiy va ma'naviy huquqini o'zgalarning haqi va haqqiga xiyonat qilmagan holda ajratib yashashni anglatadi. Insofililik esa ijobiylirkda halollikdan ham bir qadam olg'a tashlangan holatdir: unda kishi o'z halol haqi va haqqidan o'zganing hisobiga kechadi; «o'zga»ning sharoiti o'zinikidan niroyatda og'ir va

yomon ekanini hisobga olib, o'z qonuniy haqi va haqqini yoki ularning bir qismini ixtiyoriy ravishda o'zgaga beradi, muruvvat ko'rsatadi.

Xushfe'llilik, shirinsuxanlilik, kamtarinlik, bosiqlik singari axloqiy hatti-harakatlar me'yoriylik nuqtai nazaridan g'oyat muhim. Chunki har bir jamiyat darajasi ma'lum ma'noda undagi fuqarolar muomala madaniyatining yuksakligi bilan ham belgilanadi. Zero, xushfe'l, shirinsuxan inson o'zining har bir muvaffaqiyatsizligiga fojia sisatida qaramaydi, alam yoki g'azab bilan yomon kayfiyatini boshqalarga o'tkazishga intilmaydi; atrofdagi axloqiy muhitni buzmaydi. Natijada o'ziga ham, o'zgalarga ham ko'tarinki kayfiyat, turli-tuman omadsizliklarning o'tkinchiligini anglatuvchi hayotbaxsh bir umid bag'ishlaydi. Jamiyat doimo o'shunday odamlarni hurmat qiladi va ulardan o'rnak olishga intiladi.

Xushfe'llilik, shirinsuxanlilik qay darajadadir ko'proq ixtiyor bilan, kishining ma'lum bir insoniy tabiatga intilishi bilan bog'liq bo'lsa, bosiqlik, kamtarinlik, kamsuqumlik aksincha, ko'proq iroda kuchi natijasida yuzaga keladi. Zotan insonning o'z g'azabini bosa bilishi, noroziligin barvaqt bildirmasligi; so'zlagisi, biror-bir gap bilan o'zini ko'rsatgisi kelib qolganda o'sha istakni to'xtata olishi kuchli irodani talab qiladi. Shu bois muomalada bosiq, kamtarin, «etti o'lchab bir kesish» tamoyili asosida ish ko'rgan shaxslar oqil odamlar sanaladi va ular jamiyatda ham namunaviylik maqomiga noil bo'ladilar.

Ayni paytda ba'zi bir odamlar guruhi uchun me'yorga aylanib qolgan illatlar ham borki, ular haqida to'xtalib o'tmaslikning iloji yo'q. Ular ichidan eng keng yoyilgan, ma'lum ma'noda yuqumli ma'naviy kasallikka aylanib borayotgan ikkitasini – xudbinlik va shuxratparastlikni ko'rib chiqaylik.

Xudbinlik. U o'z individual ehtiyojlarini hamma narsadan yuqori qo'yadigan axloqiy sifat, illatni anglatuvchi tushuncha; biror – bir insonning moddiy-maishiy manfaatlarining boshqalarnidan ustun qo'yilishini bildiruvchi manfaatparastlikdan va o'z shaxsini mutlaqlashtirishiga qaratilgan shaxsiyatparastlikning ba'zi unsurlaridan iborat salbiy hatti-harakatlar majmu'idir.

Xudbinlikni inson shaxsining o'ziga bo'lgan muhabbat bilan chaplashtirmaslik lozim. Biz Imom G'azzoliy muxabbatning besh turi haqida so'z yuritib, insonning o'ziga, o'zining a'zolariga, salomatligiga bo'lgan muhabbatini birinchi o'rniqa qo'yganini yaxshi bilamiz. Uningcha, bu muxabbat Alloh, ota–ona, qarindosh–urug', do'st–birodar, muhtoj–ehtiyojmandlar xizmatida bo'lishga imkon yaratuvchi vosita hisoblanadi. Xudbinlik esa muhabbat hissiga emas, nafsga, hirsga, rujuga asoslanadi, o'ziniadolatsizlik, insofsizlik va berahmlik xislatlarida namoyon etadi. To'g'ri, hammaning ham qo'lidan jo'mardlik kelavermaydi, lekin insonning o'ziga bo'lgan muhabbat, boshqalarning ham o'ziga shunday muhabbatni borligini inkor etmasligi kerak. Shu qoida buzilgan joydan xudbinlik boshlanadi.

Xudbinlik jinoyat emas, xudbin odam qonunni buzmaydi, aksincha doimo qonun oldida «toza», «faqat qonuniy haqi»ni qanday sharoitda bo'lmasin – birovlarning fojeasi ustidami, o'limi, – qat'i nazar, undirib oladi, xolos. Uning aqidasi: «go'zal bino qulasa–qulayversin, men o'zimga tegishli yuzta g'ishtni sug'urib olishim kerak!»

Shuni afsus bilan qayd etish keraki, xudbinlik ustidami jamiyatda ko'payib borsa–borayaptiki, kamaymayapti. Chunki qonunning mustahkamlanib borishi xudbin odamlar uchun qulaylik tug'diradi: ular qonunning ruhini – mohiyatini bir chetga surib qo'yib, uning jummlalaridan – shaklidan foydalanadilar. Avvalgi, an'anaviy urf–odatlar hukumron davrlarda xudbin odam jazolanishi – bir chetga chiqarib qo'yilishi, jamoadan, mahalladan haydalishi mumkin edi. Endilikda bunday munosabat erkin shaxs huquqlarini paymol qilish, noqonuniy yondashuv deb hisoblanadi. Demak, xudbinlikni yo'qtishning faqat bir yo'li bor, u ham bo'lsa jamiyatda axloqiy tarbiyani zamonaviy tarzda keng joriy etish.

Shuxratparastlik – shon–shuhurat ketidan quvadigan va bu yo'lda har qanday axloqsizlikdan qaytmaydigan insonlar toifasining xususiyati. Shuxratparast odam o'z nomining doimo atrofdagilar va jamiyat diqkat Markazida turishiga mashhurlikka, shov–shuvga, maqtovga ichki bir tiyiqsiz ehtiyoj sezadi. Bu ehtiyoj oxir–oqibat uni jamiyatning axloqiy – ijtimoiy talablari bilan ham, individ sifatidagi o'z biologik va ma'nnaviy–intelektual imkoniyatlari bilan ham mutlaqo hisoblashmaydigan ijtimoiy nafs bandasiga aylantirib qo'yadi.

Shuxratparastlikning axloqiy illat sifatidagi xatarli tomoni shundaki, u ravnaq topib borish xususiyatiga ega: dastavval kishi o'z «men»ining boshqa «men»lardan kam bo'lmasligini talab qiladi, keyin asta–sekin o'z «men»ining barcha «men»lardan baland turishini xohlab qoladi va nima qilib bo'lsa ham shu xohishni amalga oshirishga intiladi. Natijada u mayjud vegelikni, atrofdagilarning o'ziga bo'lgan asl munosabatini real baholay olmaydi; qaerda uni «ko'tar–ko'tar» qilib maqtashsa, o'sha erga o'zini uradi, hayot asl insoniy vazifasini bajarishdan chalg'iydi, tuzatib bo'lmas xatolarga yo'l qo'yadi. Shuxratparastlikka yorqin misol, umumbashariy timsol sifatida, odatda balkam 2,5 ming yildan buyon herostratning nomi keltiriladi: u abadiy shuhurat qozonish uchun olamning etti mu'jizasidan biri – efes shahridagi artemida ibodatxonasida o't qo'ygan. Uning nomi hozirgacha taajjub, hayrat, ayni paytda nafrat va la'nat bilan tilga olinadi.

Shuxratparastlik ham xuddi xudbinlik kabi zamonaviy jamiyatda avj olgan illatlardan hisoblanadi. Agar xudbinlikning keng yoyilishiga ma'lum ma'noda shaxs erkintigining qonuniy muhofasasi, ba'zi, demokratik tamoyillar yo'l ochib bersa, shuxratparastlik uchun zamonaviy ommaviy axborot vositalari ko'k chiroq vazifasini o'taydi: Nitsshe aytganidek, hozirgi paytda har qanday kichkinagini «men», yo'lini topib, sahnadan, sahifadan yoki ekranidan o'zi haqida jahonga jar

solist huquqiga va imkoniga ega matbuot va so'z erkinligidan «o'ziga xos» foydalanadigan, «mashhurlar» haqidagi shov-shuvlar bilan shug'ullanadigan o'nlab gazetalar, ko'rsatuv va eshittirishlar shuxratparastlarning yomg'irdan keyingi qo'ziqorinlardek paydo bo'lishini ta'minlamoqda. Misol tariqasida ko'pchilik omaviy axborot vositalarida aslida horijiy mualliflar musiqalarini, qo'shiqlarini noqonuniy o'zlashtirgani – o'g'irlagani (plagiat) uchun jazolanishi kerak bo'lgan shuxratparast «san'atkorlar» ning ko'klarga ko'tarilishini keltirish mumkin. Shuhratparastlikning bunday keng yoyilishiga qarshi faqat axloqiy tarbiya vositasida kurashish qiyin, shu sababli ularga nisbatan axloqiy yo'l bilan birga ichki va xalqaro huquq me'yorlaridan ham unumli foydalangan holda maqsadga muvofiqdir.

Axloq bilan san'atning o'zaro aloqalari haqida gap ketganda, eng avvalo, ularning et bilan tirnoq tarzidagi yaqinlikka ega ekanini ta'kidlamoq lozim. Chunki har bir haqiqiy san'at asarida asosiy ziddiyat sifatida ezgulik bilan yovuzlikning kurashi in'ikos etadi, insonparvarlik, haqiqatgo'ylik, to'g'rilik, adolat, muhabbat, sadoqat singari fazilatlar tarannum etiladi, taqdir, o'lim va o'imaslik, hayotning mazmuni, baxtga erishish singari muammolar o'rtaga tashlanadi. Axloqiy ideal muammosi esa har bir badiiy asarning shohtomiri hisoblanadi. Masalan, Alisher Navoiy ning farhodi, shirini, shekspirning romeosi, julettasi, oybekning Navoiy si mazkur mualliflar asarlaridagi axloqiy ideallardir. Ularsiz Navoiy, Shekspir va Oybek asarlarini tasavvur qilish mumkin emas.

Shunisi ham borki, ba'zi san'at asarlarida axloqiy idealga duch kelmaydi kishi, hatto biror-bir ijobjiy qahramonni ham uchratmaydi – asar boshdan–oyoq salbiy badiiy qiyofalar turish–turmushini aks ettirishga bag'ishlanadi yani barcha obrazlar g'ayriaxloqdan iborat. Bundan tashqari, so'z san'atida, ta'bir joiz bo'lsa, o'ziga xos «axloqiy janrlar» mavjud. Ularni xalq og'zaki ijodida ham, yozma adabiyotda ham uchratish mumkin: maqol, matal, hikmatlar, hikoyatlar, rivoyat, masal, pandnoma va h.k. Shular jumlasidandir. Umuman olganda, axloqsiz badiiy asarning bo'lishi mumkin emas, barcha san'at asarlari uchun axloqiylik umumiyl zamin ahamiyatiga ega.

Ayni paytda san'at axloqshunoslik targ'ibotchisi, axloqiy tarbiyaning eng gulay vositasi sifatida ham namoyon bo'ladi. Chunonchi, badiiy adabiyotning, kino san'ati, tasviriy san'at va teatr san'atining, ayniqsa, bu borada ahamiyati beqiyos. Bu san'at turlari yoshlarda axloqiy idealning shakllanishida katta xizmat qiladi. Chunonchi, «kurush–urush» o'yinlarida bolalarning mard, jasoratl, matonatl, vatanparvar va halol amerikalik hindular sardoriga, alpomishga, go'ro'g'liga va boshqa xalq qahramonlariga taqlidi fikrimizning dalilidir.

### Foydalaniadigan adabiyotlar ro'yxati Rahbariy adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. – Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., O'zbekiston. 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. – Tanqidiy taxsil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T., O'zbekiston. 2017.

**Darsliklar va o'quv qo'llanmalar:**

1. Muhammadjonova L.A. Amaliy etika va estetika. O'quv qo'llanma – T.: "Mumtoz so'z" 2022 yil.
2. L.Muxammadjonova, S.Alimov,Sh.Rajabov. Notiqlik san'ati. O'quv qo'llanma – T.: "Mumtoz so'z" 2022 yil.
3. Agzamova N. "Философия нравственности". Darslik T.: Universitet. O'zMU, 2022 yil.
4. Radugin A.A. Этика. Учебное пособие для высших учебных заведений. – M.: Tsentr, 2003. -88 b.
5. Nazarov K. Аксиология – кадриятлар фалсафаси. –T.: O'FMJ, 2004.
6. Stepanyanц. M.T. Философские аспекты суфизма. –M.: Nauka, 1987. S-99
7. Trimminger D.S. Суфийские ордена в исламе. –M.: Nauka, 1989. S-546.
8. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. –Toshkent: O'zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. -8 b.
9. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. 12 томлик. –Toshkent: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. T.I. -530 b.
10. Falsafa: qomusiy lug'at. Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov. –Toshkent: "Sharq" nashriyot –matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2004. -40 b.
11. M. Kakhkova, N Agzamova. Этика Учебное пособие. Ризограф имени Низами. 2018 год.
12. L.Muhammadjonova, F.Abidanova. Etiket. O'quv qo'llanma. T.: Universitet. O'zMU, 2018.
13. Nurmatova M., Muhammadjonova L., Ma'naviyatning axloqiy asoslari. –T.: Universitet, O'zMU. 2013.
14. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.
15. Husanov B., Gulamov V. Muomala madaniyati. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2009.

**Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Al-Faqih Abu Lays as-Samarqandiy. Tanbehl-g'ofiliyn.Birinchi kitob.- Toshkent: Movarounnahr, 2003.
2. Xайдеггер М. Основные понятия метафизики (Введение). //Вопросы философии. –М., 1989. –№9. S-84
3. Nurmatova M., Muhammadjonova L., Ma'naviyatning axloqiy asoslari. –T.: Universitet, O'zMU. 2013.

4. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. – T.: Universitet, 2009.
5. Гаранина О.Д. Философия человека. -М.: 2006. S-44
6. Камю А. Бунтующий человек. -М.: 1990. S-546.
7. Гусейнов А.А., Апресян Р.Г. Этика: Учебник – М.: Гардарики, 2004. - 26.
8. Асмус В.Ф. Античная философия. – М.: Высшая школа, 1976.
9. Философия: учебник для Вузов / Под ред. В.Н. Лавриненко. – М: ИОНИТИ-ДАНА, 2007.
- 10.Ушков А.М. Китайско-конфуцианский культурный ареал. Запад и Восток: Традиции и современность. – М., 1993.
- 11.Muhammadjonova L.A., Ortiqova D.O., Abidjanova F.A., Masharipova G.K. Professional etika va etiket. Darslik. - Т.: "Adabiyot uchqunlari" 2018.
- 12.Э.Умаров., Ф.Загритдинова. "Этика. Прикладная этика". -Т.: Ношир, 2012.
- 13.Choriev A. Inson falsafasi. –Toshkent.: O'FMJ, 2006 S-181

**SAN'AT ETIKASI VA UNING INSON SHAXSIGA TA'SIRI.  
SAN'ATDA AXLOQIYLIK VA G'AYRIAXLOQIY ALOQADORLIGI.**

REJA:

1. San'at etikasining mavzusi va tushunchasi.
2. San'at estetik faoliyatning o'ziga xos turi sifatida.
3. Insonning axloqiy ongiga va xulqiga san'atning ta'siri.
4. San'atda axloqiylik va g'ayriaxloqiylik.

Axloq va san'at San'at mohiyatan insonning xis-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan muhim ma'naviy hodisa bo'lib, u insonning mehnati, aql-idroki, ongu-tafakkurining mahsulidir.

San'at inson faoliyatining ijodkorlik turini anglatib, har bir san'at asarida shaxsnинг o'ziga xos iste'dodi namoyon bo'ladi.

San'at keng ma'noda, badiiy qadriyatlar, ularni yaratish (badiiy ijod qilish) va iste'mol (badiiy idrok etish) jarayonlarini ham qamrab oladi. «Axloqiylik» uslubi bo'lib, «axloqiylik»ning mohiyati shundaki, uning targ'ibotchilarini tarixan turli davrlarda yashaganiga qaramay, badiiy ijodni axloq-odobga bo'ysundirish, ezhulikni san'atning birdan-bir va eng oliy maqsadi sisatida targ'ib etishdir.

San'at va axloqning bosh mavzui inson hisoblanadi. San'at insonning maqsad-mansatlari, fikr-mulohazalari, his-tuyg'ulari, ichki kechinmalari nuqtai nazaridan aks ettirsa, axloq inson ijtimoiy aloqalari va munosabatlaringin mag'ziga singib ketadi. Hayotda axloq-odobga aloqador bo'limgan biror voqe'a-hodisa sodir bo'lmaydi. Insonlarning o'zaro munosabatlari va muomalalari axloqning bevosita

ob'ekti bo'lib xizmat qiladi. Har bir haqiqiy san'at asarida asosiy ziddiyat sifatida ezzilik bilan yovuzlikning kurashi aks etadi, insonparvarlik, haqiqatgo'ylik, to'g'rilik, adolat, muhabbat, sadoqat singari fazilatlar tarannum etiladi, taqdir, o'lim va o'lmaslik, hayotning mazmuni, baxtga erishish singari muammolar o'rtaga tashlanadi. Axloqiy ideal muammosi esa har bir badiiy asarning shohtomiri hisoblanadi.

Axloq bilan san'atning o'zaro aloqlari haqida gap ketganda, eng avvalo, ularning juda ham bir – birlariga yaqinlik ekanliklarini ta'kidlamoq lozim. San'at mohiyatan shaxsnинг xis-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan muhim jarayon hisoblanadi. Shuning barobarida, u insonni doimo o'ziga jalb etib kelgan. San'at insonning ehtiroslar va tuyg'ular olamiga singib boradi. Shuning uchun bo'lsa kerak san'at barcha davrlarda insonga hamroh bo'lib kelgan. San'at keng ma'noli tushunchadir. Zero, san'at inson mehnati, aql-idroki, shuuri bilan yaratilgan, vujudga kelgan, ijod qilingan narsalardir. San'at inson faoliyatining ijodkorlik turini anglatib, har bir san'at asarida shaxsnинг o'ziga xos iste'dodi namoyon bo'ladi. Va nihoyat, san'at insonning mahorati bilan chambarchas bog'liqidir. San'at, keng ma'noda, badiiy qadriyatlar, ularni yaratish (badiiy ijod qilish) va iste'mol (badiiy idrok etish)jarayonlarini ham qamrab oladi. Professor E.Umarovning ta'biricha : "San'at va ahloq o'zaro munosabatlari estetikada o'zak masalalardan biri bo'lib, bu masalaga uch uslubda yondoshiladi. Birinchisi- «ahloqiylik» uslubi deyiladi. Bu uslub Ovrupo nafosatshunosligidagi yunonlar, jumladan Aflatun, yangi lavrda esa Russo va L.N.Tolstoy ijodida kengroq va chuqurroq ishlab chiqilgan. «Ahloqiylik»ning mohiyati shundaki, uning targ'ibotchilari tarixan turli davrlarda yashaganiga qaramay, badiiy ijodni ahloq-odobga bo'ysundirish, ezzilikni san'atning birdan-bir va eng oliy maqsadi sifatida targ'ib etishdir."<sup>1</sup>

San'at va ahloqning bosh mavzui insondir. San'at insonning maqsad-mansatlari, fikr-mulohazalar, his-tuyg'ulari, ichki kechinmalari nuqlai nazaridan aks ettirsa, ahloq inson ijtimoiy aloqa lari va munosabatlarining mag'ziga singib ketadi. Hayotda, muayyan jamiyatda ahloq-odobga aloqador bo'limgan biror voqeahodisa sodir bo'lmaydi. Insonlarning o'zaro munosabatlari va muomalalari ahloqning bevosita ob'ekti bo'lib xizmat qiladi.

Har bir haqiqiy san'at asarida asosiy ziddiyat sifatida ezzilik bilan yovuzlikning kurashi aks etadi, insonparvarlik, haqiqatgo'ylik, to'g'rilik, adolat, muhabbat, sadoqat singari fazilatlar tarannum etiladi, taqdir, o'lim va o'lmaslik, hayotning mazmuni, baxtga erishish singari muammolar o'rtaga tashlanadi. Axloqiy ideal muammosi esa har bir badiiy asarning shohtomiri hisoblanadi. Masalan, Alisher Navoiyning Farhodi, Shirini, Shekspirning Romeosi, Julettasi, Oybekning

Navoiysi mazkur mualliflar asarlaridagi axloqiy ideallardir. Ularsiz Navoiy, Shekspir va Oybek asarlarini tasavvur qilish mumkin emas.

Bundan tashqari, so'z san'atida, ta'bır joiz bo'lsa, o'ziga xos «axloqiy janrlar» mavjud. Ularni xalq og'zaki ijodida ham, yozma adabiyotda ham uchratish mumkin: maqol, matal, hikmatlar, hikoyatlar, rivoyat, masal, pandnoma va h.k. shular jumlasidandir. Umuman olganda, axloqsiz badiiy asarning bo'lishi mumkin emas, barcha san'at asarlari uchun axloqiylik umumiy zamin ahamiyatiga ega.

Ayni paytda san'at axloqshunoslik targ'ibotchisi, axloqiy tarbiyaning eng qulay vositasi sifatida ham namoyon bo'ladi.

Axloq va axloqiyiksiz yuksak badiiy asar mavjud bo'lmaydi. Barcha san'at asarlari uchun axloqiylik muhim asos hisoblanadi. Ayni paytda san'at axloqiylikning targ'ibotchisi, axloqiy tarbiyaning eng qulay vositasi sifatida ham namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham axloqiy tarbiyani mustahkamlashda san'at eng muhim vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi. San'at asarlarining tarbiyaviy kuchi shundaki, unda aks ettirilgan qahramonning qiyofasi o'quvchida hayajon, zavq va quvonch uyg'otadi. Masalan, Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanini o'qiganimizda Otabekdag'i mardlik, jasurlik, sevgiga vafodorlik, ota-onaga hurmat, yurtga sadoqat kabi fazilatlarni, Kumushbibidagi iffatlilik, shirinmuomalalik, quvnoqlik, andishalilik, zukkolik, singari insoniy sisatlarni inson kamoli uchun ko'rak berib turishini xis etamiz. Shu orqali badiiy adabiyot insonning qalbiga, uning ruhiyatiga, irodasiga ta'sir qilib, uni tarbiyalaydi, o'zligini chuqur anglab olishiga imkon yaratadi

Asarni estetik idrok etish.

**IDROK:** predmet va hodisalarining yaxlit qiyofasini aks ettirib, u vogelikni inson sezgi a'zolarining ta'siri orgali belgilovchilik va boshqaruvchilik imkoniyatlarini namoyon qiladi.

**BADIY IDROK:** ijod jarayonlarida namoyon bo'lib boradi. Agar ijod jarayoni to'xtasa, badiiy idrok ham to'xtaydi. U ijod jarayonining baxolash mezoni va bu jarayonga ko'mak beruvchidir.

**ESTETIK IDROK :** badiiy ijod nazariyasini to'laqonli anglash va san'atning ijtimoiy tabiatini ochish imkonini beradi. Estetik idrok jarayonlarida estetik masofa omilining sezilarli o'rni mavjud. M.: teatrda tomoshabin bir paytning o'zida ham sahna bezaklariga, ham aktyorlarning kiyimlariga, ularning hattiharakatlariga sinchkovlik bilan nazar tashlaydi.

**KINO:** Hozirgi paytda yoshlarning kalbi va ongini egallahsga karatilgan jiddiy xatarlardan biri "ommaviy madaniyat" nomi bilan industrial asosda ishlab chiqilayotgan "san'at" namunalaridir. Bugungi globallashuv jarayonida barcha davlatlarda odam savdosи, diniy aqidaparastlik, terrorizm kabi illatlar ko'payib bormoqda. Barcha davlatlarda bunga qarshi kurash yo'llari xar – hil bo'lib, bu

o'rinda kino san'ati ham o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Tomoshabinlarni o'ziga jaib qila olgan "Aldangan ayol", "Tubanlik" filmlari bunga javob bo'la oladi. Huddi shunday "Arosat" filmi ham insonni o'ylashga chaqiradigan filmlar sarasiga kiradi.

**INTERNET:** Turli sektalar, noqonuniy diniy uyushmalar yoshlarni ekstremizm, terrorizm, missionerlikka moyil, jinoyat qilishdan qaytmaydigan, giyohvandlikka oson beriluvchan qilib tarbiyalashga urinmoqda.

**TATUIROVKA** – teri ostiga rang yuborib, turli xil shakl va naqshlar chizish. Tatuirovka qildirish avvallari mahbuslarga xos odat edi. Aslida u turli yuqumli kasalliklarni keltirib chiqarishi "ommaviy madaniyat"ni tarqatuvchilarga oydek ravshan. Badanga turli xil shakllarni chizish va chizdirish amallari milliy o'zligimiz va urf-odatlarimizga zid. Na o'zligimizga va na dinimizga to'g'ri keladigan, iymonimiz, jismimizga zarar keltiruvchi bunday amaldan biz o'zimizni va boshqalarni asramog'imiz lozim.

**POSTMODERNIZM:** Postmodernizm modernizmdan keyingi degan ma'noni bildiradi. Bunda san'atkorlar odatda ommaviy janrlarga. Masalan. detektiv, komediya, melodrammalarga murojaat qilish, ular vositasida ommani qiziqtirgan. ularning dikkat-e'tibor ini tortgan syujet-mazmundan foydalanishga harakat qiladilar. Ayniqsa bu o'rinda ekran, kino, teatr imkoniyatlaridan kengroq foydalanish alohida o'rin tutadi. Postmodern san'atiga oid asarlarda asosiy e'tibor bevosita san'atning o'ziga qaratiladi. Xususan san'atda inson o'z erkinligi, o'z ijodiy betakrorligi, o'z ma'naviyatini to'la ma'noda namoyon eta oladigan bo'lishi kerak. Shu ma'noda san'at nafaqat o'z ijodkornigina emas, balki shu bilan birga san'atning barcha muxlislarini ham ulug'laydi. Postmodernizm tarafdarlarining fikricha, san'at o'ziga qaytadi. Shu ma'noda san'atning maftunkor qudrati va uning hayotbaxsh tasviri o'zini to'la namoyon etib, odamlarga quvonch va shodlik bahsh eta oladi. Postmodernizm modernizmdan keyingi degan manoni bildiradi. Bunda sanatkorlar odatda ommaviy janrlarga. Masalan detektiv, komediya, melodrammalarga murojaat qilish, ular vositasida ommani qiziqtirgan, ularning dikkat-e'tiborini tortgan syujet-mazmundan foydalanishga harakat qiladilar. Ayniqsa bu o'rinda ekran, kino, teatr imkoniyatlaridan kengroq foydalanish alohida o'rin tutadi. Postmodern san'atiga oid asarlarda asosiy e'tibor bevosita san'atning o'ziga qaratiladi. Xususan san'atda inson o'z erkinligi, o'z ijodiy betakrorligi, o'z ma'naviyatini to'la ma'noda namoyon eta oladigan bo'lishi kerak. Shu ma'noda sanat nafaqat o'z ijodkornigina emas, balki shu bilan birga san'atning barcha muxlislarini ham ulug'laydi. Postmodernizm tarafdarlarining fikricha, san'at o'ziga qaytadi. Shu manoda san'atning maftunkor qudrati va uning hayotbaxsh tasviri o'zini to'la namoyon etib, odamlarga quvonch va shodlik bahsh eta oladi.

Insoniyat borlig'ini tushunish tarixidagi «yangi» sahifa «postmodern» deb ataladi. Postmodern «yosh»ini uni badiiy madaniyatning avangardizmga o'xshash

hodisa sifatida tushunishdan kelib chiqib talqin qilsak, u XX asr boshida paydo bo'lgan deb aytishimiz mumkin. Postmodernning «qoidalarga ko'ra yashashni xohlamaslik, aql-idrok bilan yashash» degan asosiy shiorini birinchi o'tringa qo'yjak, bu hodisaning yoshi ikki yuz yil bilan o'lchanishi mumkin, A.Shopengauer va F.Nitsshe nomlari postmodernistik falsafa uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, bunday tushuniladigan hayot vaziyatlarini aks ettiruvchi tamoyillar aynan shu faylasuflar davrida ta'riflab berilgan.

«Yangi» (modern) deb tavsiflangan davrdan keyin kelgan davr «postmodern» tushunchasi bilan ifodalananadi. Lekin kelish - davom etish degani emas. Postmodern bu mantiqni to'liq tasdiqlagan. Modern yutuqlari postmodern uchun asos emas, balki o'zlashtiriluvchi qism bo'ldi va butunlay qayta tushunib etish lozim materialga aylandi. Shu nuqtai nazardan «postmodern» tushunchasidan nomutanosib, beqaror, «noaniqlikdan esankirab qolgan» dunyo sifatida tarixdan o'rin olgan hozirgi davrning o'ziga xos xususiyatini ifodalash uchun foydalinish mumkin.

Dunyoni sezishning yangicha tarzi sifatidagi postmodern o'z tashuvchisi sifatida insonning yangi, o'ziga xos tipini nazarda tutadi. Bu erda mazkur tipni F.Nitshening o'ta qudratli odamiga o'xshatish o'rinli bo'ladimi yoki aksincha. Ayrim «Men» kvant kabi mutlaqo nomuayyan xususiyat kasb etadimi, aniq emas. Ayni holda qandaydir tushunarsiz kishilar ham muhim shaxsga aylanishi ehtimoldan xoli emas. Ammo u normativlik, oqilonalikning har qanday ko'rinishlarini butunlay inkor etishi shubhasiz. Bunday «hozirgi g'alati odam» ga xaotik xulq-atvor ko'proq xos, u ko'p jihatdan tasvirlab bo'lmaydigan odam, unga «bari bir», ya'ni u hamma narsani qilishi mumkin. Postmodern tipidagi odamlar xohlagan gapini gapiradi, xohlagan fikrlaridagi o'ylarini bemaolol atrofga etkazadilar, xohlagan ishini qiladi, o'zlarini xohlagan tarzda tasvirlaydi va buni hayotning haqiqiy in'ikosi deb hisoblaydi.

Postmodernizm yashab qolishdan (tirikchilikdan) mansaatdor bo'lgan, erkin jamiyat qurish, yangi ma'nnaviy qadriyatlarni yaratish va tarqqiyot istiqbollarini yaratayotgan odmlar uyushmasining, jamoatchilikning aksi sifatida ishlaydi. Ularni tahlil qilar ekan modern insonlar hayotining nihoyaviy asoslarini rivojlantirish, ular hulqining motivlarini aniqlash, har birimizning faoliyatimiz bizning boshqa odamlar bilan munosobatimizga bog'liq ekanligi ko'rsatib beradi. Boshqa odamlarning va yo'limizni o'zgartirishga ta'sir etadi. Biz boshqalar bilan chambarchas bog'liqimiz, biz o'tgan avlodlarni o'rnini egallaganmiz; bir-birimiz bilan doimo muomaladamiz va hozirgi hayotimizning takrorlanmas, unikal va individual ekanini faqat boshqlar, bilan birga kechganligi tufayligina payqaymiz; nihoyat, ertami – kechim bizning hayotdagi o'mnimimzni boshqalar egallashini ham tushunib qolamiz.

Estetik ideal o'ziga mos go'zallik, ulug'vorlikni yoki mo'jizaviylikni ko'proq san'atdan topadi. Shu tufayli u doimo erkinlikni talab qiladi. Avvalo san'at asari

orqali san'atkor vogelikni o'z ideali prizmasidan o'tkazib tasvirlaydi, boshqacharoq aytganda, o'z ideallarini san'at vositasida moddiylashtiradi: binoga, haykalga, romanga, spektaklga, rasmga, badiiy asarga va boshqa ma'naviy hodisalarga aylantiradi: san'atkor erkin harakat qiladi. Biz esa o'z ideallarimizni ulardag'i obrazlar orqali tanlaymiz, ularni o'zimiz uchun ma'lum muddatga yoki bir umrga namuna qilib belgilaymiz, bu holatdagi xatti-harakatimiz ham erkinlik orqali ro'y beradi. Ya'ni, san'at har bir insonni individual o'ziga xosligini hisobga olgan holda, uning o'z estetik idealini obrazlar vositasida shakllantiradi.

Avangardizm<sup>1</sup> (frans. avantgardite) — XX asr badiiy madaniyatidagi yo'nalish. U mavjud me'yor va an'analarni rad etib, yangi ifodaviy vositalarni yangilik deb qarashdan nariga o'tmaydi. Badiiy obraz yaratishda avvaldan mavjud klassik an'analarni tan olmasdan, yangi ifoda vositalari izlashda shaklga zo'r berish avangardizmning asosiy xususiyatidir. Avangardizm modernizm bilan uzviy bog'liq bo'lib, anarxistik-sub'eaktivistik dunyoqarashni aks ettiradi. Avangardizm tamoyillarini ekspressionizm, kubizm, futurizm, dadaizm, syurrealizm sana'at turlari bn bog'lang kabi oqimlar qabul qilgan. Avangardizm musiqada ham namoyon bo'lgan.

Kubizm-XX asr bosqlarida vujudga kelgan borliqni tasvirlashning yangicha uslubi, asoschilarini fransuz rassomlari Pablo Picasso va va Jorj Brak xisoblanadi. Bir qarashda abstrakt va xandasli shakllardan tashkil topgan kubizm san'ati o'zida real borliqni o'ziga xos shakllarda namoyish etadi, Lekin shu real buyumlarni bir vaqtning o'zida tarli tomonidan tasvirlarib tamoshabin ko'z o'ngida uning hajmli ko'rinishini tasavvurini berishi kerak. Shuning uchun ham kubistlar tasvirylanadigan obektni bo'laklarga ajratib uning old, yon va orqa tomoni ko'rinishini bir vaqtning o'zida ko'rishni taklif etadilar. Natijada tomashabin mazkur obektni go'yo har tomonidan ko'rgandek bo'lishi, buyum haqida hajmli tasavvur paydo bo'lishi kerak. Shu o'rinda P.Pikassoning «Velonchel»(«Skripka») asarlari e'tiborli. Agar Uyg'onish davridan boshlab hajmli buyumlarni fazoviy kenglikda, perspektiva qonun qoidalari asosida uning illuyzion tasvirini ishlashga intilish mavjud bo'lgan bo'lsa kubistlar ikki o'lchamli qog'ozda ikki o'lchamli shakl bilan uni ko'rsatishga harakat qildilar. Shu o'rinda bugungi kundagi kubizm yo'nalishining eng yuqori cho'qqisiga 3D.4D,5D formatli rasmlar, filmlar, ijtimoiy roliklar bunga misol bo'la oladi.

Kubizm uslubining paydo bo'lishi san'atdagi shakl va kenglik muammolarining keskin o'zgarishiga olib keldi va san'at tarixida yangicha plastik (shakl)fikrlash tuyg'usini oshirib yubordi, uslubiy rang-baranglikning ortishida muxim o'rinni egalladi va jahon san'ati taraqqiyotining yangi bosqichiga yo'l ochdi.

<sup>1</sup> Bo'chkov V. Estetika M. Gardanki. 2002. S.527

Rassomlar Brak, Gris, Leje, haykaltarosh Arxipenko ijodiy namunalari shu yo'nalishning o'ziga xosligi va rangbarangligini ko'rsatadi. (O'zbekistonlik rassomlar)

Abstraksionizm — lotin tilidan olingen bo'lib, "mavhum" "noaniq" degan ma'noni anglatadi. Bu oqim XIX asr oxiri XX asr boshlarida evropada paydo bo'lgan. San'atdagi mashhur yo'nalish namoyandalari narsa va hodisalarpi real tasvirlashdan voz kechgasht. Ularning asarlarida borliq -emas ijodkorning his-tuyg'ulari, shakl va ranglar o'yini aks etadi. Abstraksionizm oqimidagi asarlarda ma'no va mazmun ayrim do!, hajm, chichiq, ranglarnilg tartibsi.ch harakati orqali tasvirlanadi. O'zbekistonlik rassomlar)

Cyurrealizm Xilma hillik Fransiyada paydo bo'ldi. Uning bosh nazariyotchisi, yozuvchi Andre Bretonning so'zlariga ko'ra uning maqsadi xanuzgacha hayol va haqiqat orasida bo'lgan ziddiyat va qarama qarshilikka chek qo'yish edi. Maqsadga erishish yo'llari har-xil. Rassomlar fotografik aniqlikdak turli mantiqsiz ko'rinishlar, kishilarni qo'rqtadigan, g'ayri tabiiy lavhalarni tasvirlaydilar, oddiy borliq shakllaridan g'alati mavjudodlarni yaratishga intiladilar yoki turli ishlash uslublarini o'ylab topadilar. Syurrealistlarning figurativ asarlarida inson ongiga zid, ba'zida engil xayol yoki tungi alaxsirashda ko'zga ko'rindigan dahshatli manzaralar tasvirlanadi. Karang, Belmer, Brauner, Gorki, Dali, Delvo, Kalo, Magritt, Matta, Miro, Tangi, Uodsvort, ernst O'zbekistonlik rassomlar

Pop Art 1950 yillarda AQSh va Buyuk Britaniyada paydo bo'lgan xarakat. Uning tarafdarları ommaviy istemol madaniyati obrazlaridan ilxomlandilar. Turli reklama, sanoatda ishlab chiqarilgan buyumlar ularning obrazli dunyosini tashkil etdi. Pop-artchilar rassomlikning uslub va ishlash usullaridan voz kechib tayyor buyumlar (fotorasm, plakat va gazea-jurnal. rasmlari parchalari)dan turli betartib to'plam va kompozitsiyalar yaratib, real borliq bilan san'at asari orasidagi tafovutni yo'qqa chiqarishga harakat qildilar. Nemis rassoni Kurt Shvittersning «Mers-bild»(1925, Kyoln, Valraf Rixarts muzeysi) asari shu o'rinda e'tiborga loyiq.

Turli tashlandiq buyumlar-ishdan chiqqan mashina baloni, turli reklama va boshqa narsalar- rassom fikriga ko'ra dunyoning o'tkinchiligini , hamma kerakli narsalar vaqt o'tib keraksiz va tashlandiq xolatga kelishimi ifodalasht kerak.

Pop-arta asoschilaridan biri - Richard Xamilton xisoblanadi. Djons, Djouns, Kitay, Lixtenshteyn, Oldenburg, Raushenberg, Rozenkvist, Segal, Tibo, Uorxol, Kokni kabi rassomlar ham shu san'atda faol ishtirot etib tanilgan.

Immanentlik (lot. immanent – biror narsaning ichida bo'lish)– jarayon yoki xodisadagi ichki mavjud, o'zida bo'lgan, boshqa biror begonaga o'tmagan xususiyat. Masalan Spinoza panteizmida xudo tabiatga ichki xosdir. (immanentdir). Harakat materiyaning atributidir, ya'ni unga immanentdir. U an'anaviy falsafaning markaziy tushunchalaridan biri xisoblanadi. Immanentlik atamasi mazmuniy

ma'nosiga ko'ra. Arastuga borib taqaladi, u o'zining aynan ma'nosida, birinchi marta, o'rta asr sxolastikasida tatbiq etila boshlandi. Immanentlikning zamonaviy tushunchasini I.Kant kiritgan edi. transsidentlikdan farqli o'laroq, immanentlik biror narsaning o'z-o'zida bo'lislini bildiradi. Kantning fikricha, makon va zamon mavjud materianing ob'ektiv shakllari emas, balki kishi ongining shakllari, hissiyot mushohadasining, har qanday tajribadan oldin, ongda mavjud bo'lgan aprior shakllaridir. I.Kant aql - idrok kategoriyalarining hammasini ongning aprior shakllariga chiqarib qo'ygan edi. Uning fikricha, tabiat – "narsalar o'zida" emas, ya'ni ob'ektiv reallik emas, balki, ong kashf qilgan narsadir. I.Kant, "narsa o'zida" ni bilib bo'ladi-yu, biroq kishi ongidan tashqari ob'ektiv mavjud emas, deb hisoblagan. Ushbu an'ana E.Gusserl fenomenologiyasida ham davom etadi. Unda immanentlik deganda bevosita ongga berilgan fenomenlarning alohida fenomenologik jihatdan "tozalash" qurilmasi nazarda tutiladi. Postmodernizm falsasasida (R.Bart, J. Derrida, Yu. Kristeva, M. Fuko va b.) immanentlik tushunchasi keng tahlil qilinadi. Real voqelikni cheksiz va chegarasiz matnda ta'riflash sub'ektning o'zini anglash pozitsiyasining mustaqilligi, tegishliliqi "transsidentligini" yo'qqa chiqaradi, deb tushuniladi.

Artefakt<sup>1</sup>- (lot. artefactum-sun'iy qilingan) - eksperiment jarayonidaga og'ishlar sabab yoki uslub defekti sababli yuzaga keladigan hodisa jarayon. Predmet, predmet yoki jarayon xususiyati, ob'ektlarning qaysi birining dastlab paydo bo'lishi yoki aks etishi kuzatilayotgan sharoitlarda tabiy sabablarga ko'ra ehtimoli kam yoki bo'lishi mumkin emaslik sifatida tushuniladi. O'z navbatida artefaktning yuzaga kelishi, maqsadga yo'naltirilgan aralashuv belgisi yoki inobatga olinmagan omillar mavjudligidan ham dalolat beradi.

Hozirgi davrda madaniyat artefakti degan tushuncha ham keng tarqalgan bo'lib, unga belgili yoki simvolli tarkibga ega sun'iy yaratilgan ob'ekt xosdir. Shuningdek, artefakt jamiyat ma'naviy hayotining fenomenlari bo'lishi mumkin. Ya'ni ularni ilmiy nazariyalar, san'at asralari va folklor, irim-sirimlardan iborat deb qaraladi. Artefakt fantastikada o'z tarixi va xususiyatlariga ega bo'lgan g'aroyib predmet, ya'ni sehrgarlik, agar janr bo'lsa fentezi shaklida ham namoyon bo'ladi. Hujjatshunoslikda esa hujjatlardagi "shovqin" belgilari (dog', tasodifi, keraksiz belgilari) va hujjat qismi hisoblanmaydigan, ammo uni nodirligini belgilovchi tushuncha sifatida ishlatalidi. Kompyuter o'yinlarida-kamyob, nodir predmet o'ynayotgan odamga katta imkoniyatlar beruvchi tushuncha sifatida ham ishlatalib, u turli va onlayn o'yinlarida rol ijro etish orqali keng tarqalgan. O'zbekistonlik .

Artefakt tushunchasi turli sohalarda turlicha ma'noda keladi. Jumladan, arxeologiyada - qo'lbo'a predmet, o'z xarakteristikasi jihatidan davriga to'g'ri

<sup>1</sup> Kirillova N.B. Mediakultura. ot moderna k postmodernu. M., 2006. S. 299

kelmaydi, shuning uchun ham unga, u topilgan joy bilan umumiy ravishda sana beriladi, bu esa uni ko'p hollarda tushunarsiz ko'rsatma ekanligiga dalolat qiladi. Artefakt tushunchasi fanda har qanday ilmiy eksperimentda-eksperimental natija (yoki barqarorlik va qayta ishlab chiqilish hususiyatlariga ega eksperimental natijaning og'masi), paydo bo'lishning sababi sifatida o'rganilayotgan jarayonga eksperiment o'tkazish vositalari hisoblanadi, metodika defektlari, sub'ektiv omil ta'siri (eksperiment o'tkazuvchi va o'tkaziluvchining o'zini-o'zi ishontirishi) bunga sabab bo'ladi. Shuningdek, artefakt signalarni ishlab chiqarish va ishlov berish (optika, aloqa, audio yozuv, videoyozuv)-ma'lum sharoitlarda yuzaga keladigan defekt ham bo'lishi mumkin. Chunki, bu jarayonda artefakt signal, tasvir, ovoz yozishda shovqinlar, qaysining sababi tizimli xatolar yoki foydalanilgan texnik vositalardan iboratligi bilan ham ajralib turadi.

Artefakt kompyuter grafikasida ham turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Jumladan, tasvirning salbiy jihatlari, kompyuter generatsiya qilgan, ma'lum sharoitlarda paydo bo'luchchi (ranglilik yoki yorug'likning o'tishi, tasvir harakati, chiqish rejimlari, ishning tezligi uchun nazarda tutilgan testuralar etarli darajada sifatli bo'limgan kompressiyasi va boshqalar) tashqaridan qaraganda ranglar buzilishi, nosilliq chiziqlar, tasvir qismlarining moslashmagan harakati, poligonlar o'rtaсидаги "зик"ларни paydo qiladi.

Klinika artefakti-hatti-harakatning alohida ko'rinishdagi buzilishi. Psixik buzilish, ulardagи yangilikka nisbatan reaksiyasi misolda. Bu buzilish guruhli mashg'ulot yoki mehnat terapiya yordamida bartaraf etiladi.

Gipperalizm<sup>1</sup> –Bu so'z I.Braxt tomonidan 1973 yilda “fotorealizm” so'zining sinonimi sifatida qo'llanilgan. Kelib chiqishi jihatidan “Giperrealizm” so'zi 1973 yilda Bryusseld o'tkazilgan katta ko'rgazma va katalogning nomi bo'lib, bu ko'rgazmada amerikalik fotorealistlar ishlari, shuningdek bir qator evropalik rassomlar asarlari qo'yilgan. Bularga Gnoli, Gerdard Rixter, Klafek va Delkol va boshqalarni kiritish mumkin. Mazkur voqeadan deyarli o'ttiz yildan keyin giperrealizm yangi rassom guruhi ijodini aniqlash uchun qo'llaniladigan bo'ldi.

Bu tushuncha: a) zamonaviy san'at oqimlari (rangtasvir va skulptura 1990-2000 yillarda), b)evropalik fotorealistlar ijodi (1970 yillarda) ning shakllanishi bilan bevosita bog'liq tarzda ifoda etiladi. Hozirda zamonaviy giperrealizm fotorealizmning estetik prinsiplariga asoslanadi, lekin fotorealizmdan farqli ravishda kundalik reallikni nusxalashga harakat qilmaydi. Giperrealistik rangtasvirda ob'ekt va saxnalar detallashtirilgan, ro'ylik illyuziyasini yaratish uchun, ammo bu surrealizm emas chunki tasvirlangan narsa ro'y berishi ham mumkin bo'lган. Giperrealizm tomirlarini Jan Badriyyar falsafasida ham topish mumkin ya'ni.

<sup>1</sup> Dvortsova N.P. Mif o smerti postmodernizma i sovremennoy literatury situatsiya G.G' Topos. 2008. 20 b

"haqiqatda hech qachon mavjud bo'lmagan nimaningdir simmulyasiysi" mavjuddir. Gipperalistlar yolg'ondakam ro'yolikni yaratadi, va uni ishonchli illyuziyaga aylantiradi. O'z navbatida, fotorealizm o'xshash fotosuratni simulyasiya qilganiidek, gipperealizm raqamli tasvirlardan foydalanadi.

Destruksiya – falsafiy konstruksiyalar asosini ravshanlashtirish (oydinlashtirish) xisoblanib, Xaydegger fundamental ontologiyasida konstruktiv vazifani bajaruvchi markaziy tushunchalaridan biridir. O'tmishni ijobiy o'zlashtirish sifatida destruksiya – oldingi, avvalo antik, fikrni, borliqning ilk va hozirgi davrda ham aniqlovchi konsepsiyanlarini ishlab chiqishga imkon bergan, dastlabki tajriba nuqtai nazaridan anglashdir. Bu bilan destruksiya, bir tarafdan, an'ana asoschilarini tomonidan kashf etilgan va keyinchalik xiralashib ketgan imkoniyatlarni ochadi, boshqa tarafdan – borliqni mustaqil, oxirigacha anglab etishga da'vat etadi. Bunda falsafa tarixiga doir izlanish, o'z ma'nosini o'zi yashayotgan davrda izlab topuvchi, insonning aktual mayjudligi ko'rinishlaridan biri sifatida tushuniladi. Shunday qilib falsafa tarixi insonning olamda mavjud bo'lishi (ishtiroti) hodisasi ichiga kiradi va borliq bilan bog'liq "tushunishdan" ajralmasdir. Insonning tarix bilan ajralmas tarzda bog'liqligi tarixiylik sababli buziladi. Tarixiylikning "tarix bilan birlashish" shiori insonni o'z o'tmishida mohiyatan ildiz otganligini e'tiborsiz qoldiradi va shu bilan birvaqtda borlig'iga oid tajribasi va ana'lарidagi o'z ildizlaridan uzib qo'yadi. Destruksiyaning salbiy jihatni o'tmishga emas, balki faqat tarixiylikdagi tarixdan (doksoografik, ma'naviy-tarixiy yoki muammoviy-tarixiy tarzdagi) begonalashuvning hukm surganligiga qarshi yo'nalgan. Ular konstruktlarining Destruksiyasi yo'li bilan Xaydegger antik falsafaga oid matnlarda qayd etilmagan, lekin ularning tushunilishini aniqlovchi kashfiyat yoki ochiqlik (noaniqlik, aleteyya) sifatidagi haqiqatni ochadi.

Modernizm yuqorida aytib o'tilganidek, realizm bilan muayyan aloqadorlikka ega. Ayni paytda u romantizmiga ham dahldor: realizm va romantizmning eng ilg'or (ba'zan eng nochor) jihatlarini o'zida mujassam etadi<sup>1</sup>. Modernizmda shartlilik o'zining eng yuqori nuqtasiga chiqadi, badiiy qiyofa o'rniда unga ishorani ko'ramiz, ba'zi hollarda (ayniqsa rangtasvirda) rangli semiotik belgilari xilma-xilligi va quyuqligidan badiiy qiyofa haqida faqat taxmin qilish mumkin xolos. Ba'zan esa bir unsurda, bir rangga rang-barang ramziylik yuklab qo'yiladi. Masalan, E.Malevichning mashhur «Qora kvadrat» asarini olaylik. Agar biz uni haqiqiy badiiy san'at asari desak, tasavvurimizga nima kelsa o'shani qora kvadrat ichiga joylashimiz kerak bo'ladi. «Qora kvadrat» ni ko'pchilik san'atshunoslar noyob asar, o'ziga xos topilma sifatida taqdim etishga qanchalik urinmasinlar, undan

<sup>1</sup> Dvortsova N.P. Mif o smerti postmodernizma i sovremennoy literatury situatsiya G.G. Topos. 2008  
23 b.

«buyuk» falsafiy ma’no topishga nechog’lik harakat qilmasinlar, unga rang tasvir namunasi deb qarash mushkul. Chunki san’atning qay turida bo’lmasin, ijodkor «hamma narsani» idrok etuvchining zimmasiga (uning schrli ko’ziyu schrli qulog’iga ishonib) yuklab qo'yishi mumkin emas, o’zi ham nimanidir, juda bo’limganda, mazmunga ishorani, shartli mazmunni ifodalashi lozim. Masalan, yuqorida qavs ichida eslab o’tganimiz 1935 yili birinchi marta e’lon qilinib, 60-yillardan boshlab qayta nashr etila boshlangan va 1981 yilda Nobel mukofotini olgan elios Kanettining «So’qirlik» romani kuchli ramziylik, astarni avra, avrani astar tarzida tasvirlashi, insonni murakkab jumboq sifatida falsafiy- badiiy tahlil qilishi bilan alohida ajralib turadi. Undagi voqealarning reallikda bo’lib o’tganiga, bosh qahramon Peter Kin va boshqa qahramonlarning real hayotda yashayotgan yoki yashagan odamlar ekaniga ishonmaysiz. Lekin ich-ichingizdan «shunday bo’lishi ham mumkin-ku!» degan ovoz romanni o’qish jarayonida sizni doim o’qishni davom ettirishga chorlab turadi. Siz baribir, qancha noodatiy, murakkab va noqulay bo’lmasin, o’qib chiqqach, romanni tushunasiz, undagi g’oyaviy-badiiy ifodaning o’ziga xosligidan hayratlanasiz, to’g’rirog’i, undan hayron qolasiz, ammo asar haqida o’z tushunchangiz, o’z falsafiy xulosalaringiz shakllanadi, u sizni forig’lantiradi. Badiiy adapbiyotda Frans, Kafka, Velemir Xlebnikov, Anri Misho, Jak Prever kabi san’atkorlarning asarlari o’zimizda esa, Bahrom Ro’zimuhhammadning she’rlari, Nazar Eshonqulning hikoyalari shunday xususiyatga ega. Yoki Faxriyor uchun geometrik bahor bo’lsa ham, uning bahor ekanini o’zingiz o’rganmagan, kutmagan shaklda va uslubda idrok eta olasiz.

Barcha modernizm yo’nalishlari uchun umumiyligi bo’lgan asosiy xususiyat shundaki, ular shaklni san’atning mohiyati deb biladilar. Modern ijodkor mazmun sifatida vogelikni emas, bir paytlar Gegel bashorat qilganidek, o’z uslubi va mahoratini taqdim etadi. Natijada ko’p hollarda shaklbozlik vujudga keladi.

Bugungi, kunda yaratilayotgan badiiy asrlar asosan realizm, modernizm va romantizm uslubiga mansub. Lekin bu mansublik nihoyatda shartli. M., ulkan musavvirlarimiz Rahim Ahmedov, Abdulxaq Abdullaev kabi san’atkorlar asosan realistik yo’nalishda ijod qilsalar, Bahodir Jalolov, Javlon Umarbekov ijodida bir necha yo’nalishlar unsurlarini ko’rishimiz mumkin. Yoki boshqa bir misol: modernistik uslubga mansub Vyacheslav Ohunovning «Ro’zi Choriev olami» asari romantik yo’nalishda yaratilgan. U Ro’zi Chorievning sururiy olamini: er bilan tutashib ketgan oq bulutlarni, oq bultlarga ulanib ketgan qora, mehnatkash zaminni, Ro’zi Chorievning tiyrak va hayrat aks etgan teran nigohini, uning qahramonlarini o’ziga xos yaxlitlikda ifodalaydi. Umuman, ijodkorlarning doimo bir yo’nalishda «muqim» ijod qilishi mumkin emas. Chunonchi, butun sovet san’ati sotsiolistik realizm yo’nalishida rivojlanishi kerak degan totalitar talab bema’nilikdan iborat edi, xolos. Ijodkor uchun nihoyatda og’ir bo’lgan, ijod erkinligi inkor etilgan o’sha

davrda ham turli yo'nalishlarida asarlar yaratilaveradi va bu hol tabiiy edi. Chunki san'atkorlarni yo'nalish emas, yo'nalishlarni san'atkorlar yaratadilar. Sotsialistik realizm yo'nalishi (metodi), ayтиб o'tilganidek, realizmni toraytirish va soxtalashtirishdan, ya'ni san'atni to'liq maskuraviylashtirishdan iborat bo'lди. Ana shu soxta metod asosida yaratilgan minglab asarlar hozirgi paytda, afsuski, estetik qimmatini allaqachon yo'qotib qo'ygan.

Ayni paytda bu yo'nalishlardan – keng ma'nodagi uslublardan tashqari ijodkorning o'ziga xos, individual uslubi ham badiiy asar uchun kata ahamiyatga ega. Individual uslub, muayyan san'atkor mansub bo'lgan yo'nalish doirasida (albatta shartli ravishda) voqelikni in'ikos ettirishi barobarida, o'zining takrorlanmas, boshqa hech bir ijodkornikiga o'xshamaydigan jihatlariga ega noyob hodisa. U o'z ichiga asar «til»ini, o'ziga xos shakllantiradigan badiiy usullar va vositalar majmuini oladi; ijodkorning majoziylikdan, ramziylikdan foydalanish yo'llarini, badiiy qiyofalar yaratish mahoratini o'zida aks ettiradi, uni badiiy adabiyotda «ovozi» ham deb atashadi. Zero, san'atkor qaysi san'at «til»ida bo'lmasin, idrok etuvchini o'z ovozi bilan chorlaydi, da'vat etadi. Ovozlar bir-biriga o'xshamaganidek, uslublar ham yirik san'atkorlarda hech qachon bir-birini takrorlamaydi. Masalan, N.Pirosmanishvildan D.Sikeyros, Navoiyyidan Bobur, L.Tolstoydan I.Turgenev, Baxdan Betxoven, Abror Hidoyatovdan Shukur Burxon o'z uslubi bilan farq qiladi. G'afur G'ulomning «ovozi» Hamid Olimjonning «ovozi»ga o'xshamaydi. Uslub ijodkorda birdaniga paydo bo'lmaydi, balki mahorat bilan yonma-yon shakllanib, takomillashib boradi. Juda ko'pchilik san'atkorlarning dastlabki asarlari uslubiy jihatdan nisbatan zaif ekanligiga asosiy sabab ham ana shunda.

Ch.Jenks postmodernlik san'ati haqida o'z tasavvurini rivojlantiradi. "Postmodernizm nima degani?" deb nomlanagan maqolasida Liotarning nazariy mushohadalaridan kelib chiqqan holda u postmodernlik san'atini zamonaviylikning tafakkur tendensiyasi modeli sifatida tavsiflaydi, bu modelda dissonanslik go'zalligi yoki disgarmonik garmoniya, imoralizm va radikal eklektizm, urbanik kontekstualizm; antropomorfizm; tarixiy kontinuumni taqlid va qo'msov ramzi bilan idrok etish; intertekstuallik; ikkiyoqlama kodlashtirish; shartlilikni qayta talqinlash; yangi ritorik qiyofalar ishlab chiqish; yo'qlikning borligi birikib keladi<sup>1</sup>.

Jenksning nazariy izlanishlari postmodernlik g'oyalarining bir xilligidan guvohlik beradi, uning falsafasi xarakterida U. Eko qarashlari bilan o'xshashlik ko'rinish turadi. Ya'ni, postmodernizm eng avvalo an'analardan kinoyali foydalanish usulidir. U an'ana natijasida bir vaqtning o'zida bor ham, yo'q ham bo'ladi, borliq tufayli yo'q bo'ladi.

Xozirda postmodernlik san'ati refleksiyaning sifat jihatdan yangi darajasini o'rganish manbaiga aylanadi, mubahasa maydoni torayadi. yirik ishlar davri ochiladi. Bu ishlarning xususiyatlari postmodernlik san'atining uzil-kesil shakllanib, bir butunligiga aylanib qolganida ham emas, u yangi postmodernizmning umumiy nazariyalashuvi asosida ham ko'rib chiqiladi, u postmodernlik ko'pligi, postmodernlik dunyoqarash qaymog'i modeli sifatida ehtiroy etiladi.

### **Foydalaniadigan adabiyotlar ro'yxati**

#### **Rahbariy adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. – Qonun ustivorligi va inson mansaftalarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., O'zbekiston. 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. – Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T., O'zbekiston. 2017.

#### **Darsliklar va o'quv qo'llanmalar:**

1. Muhammadjonova L.A. Amaliy etika va estetika. O'quv qo'llanma – T.: "Mumtoz so'z" 2022 yil.
2. L.Muxammadjonova, S.Alimov,Sh.Rajabov. Notiqlik san'ati. O'quv qo'llanma – T.: "Mumtoz so'z" 2022 yil.
3. Agzamova N. "Философия нравственности". Darslik T.: Universitet. O'zMU, 2022 yil.
4. Radugin A.A. Этика. Учебное пособие для высших учебных заведений. – M.: Tsentr, 2003. -88 b.
5. Nazarov K. Аксиология – қадриятлар фалсафаси. –T.: O'FMJ, 2004.
6. Stepanianc. M.T. Философские аспекты суфизма. –M.: Nauka, 1987. S-99
7. Trimming D.S. Суфийские ордена в исламе. –M.: Nauka, 1989. S-546.
8. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. –Toshkent: O'zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. -8 b.
9. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. 12 tomlig. –Toshkent: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. T.I. -530 b.
10. Falsafa: qomusiy lug'at. Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov. –Toshkent: "Sharq" nashriyot –matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririysi, 2004. -40 b.
11. M. Kaxxarova, N Agzamova. Этика Учебное пособие. Ризограф имени Низами. 2018 год.
12. L.Muhammadjonova, F.Abidjanova. Etiket. O'quv qo'llanma. T.: Universitet. O'zMU, 2018.
13. Nurmatova M., Muhammadjonova L., Ma'naviyatning axloqiy asoslari. –T.: Universitet, O'zMU. 2013.
14. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.

15. Husanov B., Gulamov V. Muomala madaniyati. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2009.

**Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Al-Faqih Abu Lays as-Samarqandiy. Tanbehl-g'ofiliyn. Birinchi kitob. - Toshkent: Mavarounnahr, 2003.
2. Xайдегер М. Основные понятия метафизики (Введение). // Вопросы философии. –М., 1989. –№9. С-84
3. Nurmatova M., Muhammadjonova L., Ma'naviyatning axloqiy asoslari. –T.: Universitet. O'zMU. 2013.
4. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. –T.: Universitet, 2009.
5. Гаранина О.Д. Философия человека. -М.: 2006. С-44
6. Камю А. Бунтующий человек. -М.: 1990. С-546.
7. Гусейнов А.А., Апресян Р.Г. Этика: Учебник – М.: Гардарики, 2004. -26.
8. Асмус В.Ф. Античная философия. – М.: Высшая школа, 1976.
9. Философия: учебник для Вузов / Под ред. В.Н. Лавриненко. – М: ЮНИТИ-ДАНА, 2007.
10. Ушков А.М. Китайско-конфуцианский культурный ареал. Запад и Восток: Традиции и современность. – М., 1993.
11. Muhammadjonova L.A., Ortiqova D.O., Abidjanova F.A., Masharipova G.K. Professional etika va etiket. Darslik. - T.: "Adabiyot uchqunlari" 2018.
12. Э.Умаров., Ф.Загритдинова. “Этика. Примкадная этика”. -Т.: Ношир, 2012.
13. Choriev A. Inson falsafasi. –Toshkent.: O'FMJ, 2006 S-181
14. Jenks Ch.A Yazo'k arxitekturo' postmodernizma. - М.: Stroyizdat, 1985
15. Дворцова Н.Р. Миф о смерти постмодернизма // Topos. 2008.

## **GLOBALLASHUV JARAYONI: AXLOQIY MUAMMOLAR. EKOLOGIK AXLOQ. ETOSFERA MUAMMOLARI**

### **REJA:**

1. Globallashuv jarayonida yuzaga keladigan ma'naviy tanazzullar.
2. Axloqiy muhitning vujudga kelishi ma'naviy globallashuvning ibtidosi ekani.
3. Axloqiy muhitning o'ziga xos jihatlari: uning miqyosiyligi, globallik xususiyati.
4. Tabiatga insonni aralashuvi.

Amaliy etika oldida qator global muammolarni ham qilishidek o'ta muhim vazifalar ham bor. Ulardan biri va birinchisi ilm-fan taraqqiyoti tufayli vujudga

kelgan texnikaviy bosini bartaraf etish. XX va XXI asrda erishilgan fan-texnika yutuqlari hozirgi paytda inson va u yashayotgan sayyoraning kelajagiga tahdid solmoqda. Atom, vodorod, neytron bombalari, ballistik raketa, eng yangi texnikaviy ko'rsatkichlarga ega qiruvchi, bombardimon harbiy uchoqlar, suv osti va suv usti kemalari, eng yangi rusmdagi tanklar hamda turli-tuman qurollar hammasi insonni yo'q qilishga qaratilgan. Ularni ishlab chiqarish korxonalarini va sinov maydonlari ekologik buhronlarning manbaidir. Bular bir yoki bir necha mamlakat uchun emas, balki global, umumsayyoraviy falokat hisoblanadi. Ularning oldini olishni faqat bir yo'l bilan-biz yashayotgan texnikaviy muhitda (noosferada) axloqiy muhitni (etosferani) barqaror etish orqali hil qilish mumkin. Shuningdek, biologik axloq, ekologik axloq, o'lim jazosini bekor qilish muammolari ham global tabiatga ega.

Axloqiy muhit. Amaliy etikaning hozirgi kunda umumjahoniyligi global muammolarni hal qilishdek muhim vazifasi ham borki, u haqda alohida to'xtalmaslikning iloji yo'q. Bu muammolardan biri, eng muhimi, sayyoramizda etosfera - axloqiy muhit davrini yaratish bilan bog'liq.

Ma'lumki, yuzlab asrlar mobaynida inson kichik biologik olam sifatida katta biologik olam ichida, uning bir parchasi, jonli organizmlar podshosi, oqil va hukmron qismi sifatida yashab keldi. XIX asrning oxiridan boshlab, ayniqsa XX asrda u o'z tafakkur quvvati bilan, ilmiy-texnikaviy yuksalishlar tufayli ana shu biosfera ichida noosferani - texnikaviy muhitni yaratdi. Mana, hozirgi kunda, qarang, ertalabdan kechgacha biz o'z texnikaviy kashfiyotlarimiz ichida yashaymiz - eymiz, ichamiz, yuramiz, uylaymiz, ularsiz hayotimizni tasavvur qila olmaymiz. Bular metro, avtobus, televizor, radio, telefon, eskalator, pleyer, lift, kompyuter, poezd, teploxford, gaz plitalari, elektr asboblari, zavodlar, lokatorlar, kimyoziy dori-darmonlar va h.k. Bugun videotelefonda gaplashar ekanmiz, yuzlab chaqirim naridagi suhbatdoshimizni ko'rish va u bilan gaplashish uchun ot-ulovda yoki piyoda boradigan bo'lsak, necha kunlab yo'l bosishimiz kerakligi haqidada o'ylab o'tirmaymiz, to'g'rirog'i, bu esimizga ham kelmaydi. Chunki texnika bizning yashash muhitimizga aylanib qolgan.

Faqat bugina emas. Inson endilikda o'zi yashayotgan butun boshli sayyoraga ta'sir ko'rsata boshladi. Er tarixida inson birinchi marta ulkan geologik kuch bo'lib maydonga chiqdi. Insoniy tafakkur biosferadagi o'zgarishlarning asosiy sababiga aylandi. Noosfera ta'limoti asoschilaridan biri buyuk rus olimi V.I.Vernadskiy ilmiy tafakkur va inson mehnati ta'siri ostida biosfera yangi holat bo'lmish noosferaga o'tayotganligini, butun geologik davr mobaynida yaratilgan, o'z muvozanatlarda barqarorlashgan biosfera inson ilmiy tafakkuri bosimi ostida tobora kuchliroq va teranroq o'zgarishga kirishganini ta'kidlaydi: «Sayyoramiz yuzi - biosfera inson tomonidan ongli va asosan ongsiz ravishda keskin kimyoziy o'zgarishlarga duchor

etilmoqda, - deb yozadi u. -Inson quruqligining fizikaviy va kimyoviy havo qobig'ini, uning barcha tabiiy suvlarini o'zgartirmoqda... Hozir biz biosferadagi yangi geologik evolyutsion o'zgarishlarni boshdan kechiryapmiz. Biz noosferaga kirib boryapmiz».<sup>1</sup>

Ana shu nuqtadan tafakkur o'zi nima degan muammo paydo bo'ladi. Bu haqda V.I.Vernadskiy shunday mulohaza bildiradi: «Tafakkur energiyaning shakli emas. U qanday qilib moddiy jarayonlarni o'zgartira oladi? Bu masala hanuzgacha ilmiy jihatdan echilishi topgan emas»<sup>2</sup>.

Vernadskiy hayratga solgan masala hozir ham o'sha-o'sha, hol etilmagan.

Xo'sh, tafakkur o'zi nima? U biologik hodisa bo'lmish insonda, uning ruhiy-fiziologik yaxlitlikdan iborat miyasida tug'iladi, lekin tug'ilishi bilan biologik qobiqdan chiqadi va tashqi muhitda energiyaga o'xshab nimanidir yaratadi. Endi inson bilan uning tafakkuri orasida muayyan masofa paydo bo'ladi, masofa uzoqlashgani sari tafakkurning mohiyati ayon bo'lib boradi: inson kutgan oqibat kutilgandan boshqacha mazmun kasb eta boshlaydi. Nega? Bizningcha, ....

Noosferada, yuqorida aytganimizdek, inson fikri narsalashadi, o'z intellektimiz narsalarga aylanib, bizni o'rabi oladi. Insonning ichki tabiat muhit mavqeini egallab, tashqi tabiatga ta'sir ko'rsata boshlaydi va ko'p hollarda bundan eng avvalo insonning o'zi ozor chekadi. Tafakkur biologik xususiyatga ega bo'Imagani uchun biologik muhitning o'rnnini egallahsga, uni asta-sekin siqib chiqarishga harakat qiladi. Bu harakat ma'lum nuqtadan o'tganidan so'ng esa o'z ijobjiy xususiyatini yo'qota boradi va insoniyat uchun salbiy hodisaga aylana boshlaydi. Atom, vodorod, neytron bombalarining kashf etilishi, yadro kallakli ballistik raketalarning yaratilishi ana shunday salbiy hodisalardandir. Bundan tashqari, noosferaning paydo bo'lishi atmosferani, olamiy okeanni, er osti va er usti suvlarini, nabototni, hayvonotni, hatto insonni ich-ichidan kimyoviy zaharlanishga olib kelmoqda. Hozirgi kunda tirik organizmlarning, o'simliklarning, hayvonlarning ko'pgina turlari jisman yo'q bo'lib ketish arafasida turibdi. Ayniqsa, joy topolmay, okean bo'ylab kemalarda suzib yurgan radioaktiv chiqindilar yoki ularning kimsasiz guzal orollarga ko'mib tashlanishi, kislota yomg'irlarining ko'payib borishi singari hodisalar bag'oyat xatarli. Afsuski, inson ko'ra-bila turib, o'zi o'tirgan shoxga bolta urishni to'xtatmayotir.

Bu muammolarning hal etilishi faqat atrof-muhitni kimyoviy zahardan ekologik tozalashnigina emas, balki, eng avvalo, global ma'noda, XXI asr kishisi ongini texnokratiya zaharidan forig'lantirishni taqozo etadi. Ya'ni ular insoniyat oldida endilikda ekologik hodisa emas, balki tom ma'nodagi axloqiy muammolar sifatida ko'ndalang bo'lib turibdi. Mashhur avstriyalik etolog olim, Nobel mukofotli

<sup>1</sup> Вернадский В.И. Начало и вечность жизни. Москва: Сов. Россия, 1989. С. 186 – 187.

<sup>2</sup> O'sha manba, S 185

laureati Konrad Lorentsning: «Yoppasiga va tez yoyilib borayotgan jonli tabiatga begonalashish hodisasi uchun asosan tsivilizatsiyamiz kishisidagi estetik va axloqiy to'poslik aybdordir», - degan so'zлari shu nuqtai nazardan diqqatga sazovordir.<sup>1</sup>

Yuqorida aytildiganlardan chiqadigan xulosa bitta: kelajakda inson o'zini va o'z sayyorasini muqarrar halokatdan qutqaraman desa - XXI asrdan boshlab etosfera davriga o'tishi kerak; axloqiylik har birimiz uchun har qadamda bugungi texnikaviy muhit kabi zaruratga aylangandagina bunga erishish mumkin. Bunda Amaliy etika fanining o'rni niyoyatda beqiyos.

Zamonamizning global jarayonlari insoniyat oldiga uning mavjudligi va kelajagini dovom ettirishi uchun yangidan-yangi ma'naviy, axloqiy talab va ma'suliyatlar qo'yemoqda. Shaxs axloqiy kamolotiga katta ta'sir qilmoqda. Bioterrorizm - bu biomeditsina texnologiyalarini yovuzlik niyyatida qo'llanishining mumkinligi ekan, ushbu jarayonlar insoniyatga jiddiy xavf solmoqda. Zamonaviy biomeditsina texnologiyalarining insoniyat uchun zararli oqibatlarini oldini olishining asosiy omillaridan biri bu ma'naviy, axloqiy ma'suliyatli olimlar, texnologlarni tarbiyalash, axloq ilmini fanda qo'llash, tibbiy amaliyotda va ilmiy izlanishlarda insoniylikka yo'naltirilgan madaniyatni shakkantirish bo'lib qolmoqda. Inson doimo hayot va o'lim, tug'ilmoq va ma'naviy ruhiy va jismoniy azob kabi murakkab savollarga javob izlaydi va ularga nafaqat mantiqiy javob, balki aniq qarorlarlarni talab qiladi. Ma'naviy, ruhiy va jismoniy azob - bu shunday favqulotta holatki, inson o'z tabiatini haqidagi fikrlay olmaydi. Ushbu holatni engillatish uchun azobning jismoniy mexanizmi emas, uning sabablari ravshan bo'lishi, azobning ma'naviy tushunchalar asosidagi talqini, va uning yuqori darajadagi ma'nosiy ayon bo'lishi lozim. Ko'pchilik insonlar insoniyatning va dunyoning ilmiy jihatdan kelib chiqishi haqidagi fikrlarga qo'shilsalarda, azob va kasallikning diniy -ma'naviy jihatdan talqin qilish bilan qoniqadilar. Ushbu talqin quyidagicha.

Azobning sababi dushmanlarning ishi emas, insonning o'zi, uning xulqidir. Dunyo azoblarga to'la va ular muqarrardir. Azoblar -yovuzlikning namoyon bo'lishidir, uning timsolidir. Azoblar insonga o'z-o'zidan berilmaydi, nima uchundir beriladi.

Demak insonning ijtimoiy muhofazasi – axloqiy zaruriyatga aylanib bormog'i lozim ekan, Bioetika fanining maqsadi insoniyatni biotexnologik fojealardan himoya qilish va ushbu jarayonlardagi jinoiy shoshqaloqliklarning oldini olish hisoblanadi. Biomeditsina etikasi – bu amaliy etikaning yo'naliishi bo'lib, uning bosh maqsadi tug'ilmoq, hayot va o'lim, insoniyatning kelajagini davom ettirish

<sup>1</sup> Лоренц К. Восемь смертных грехов цивилизованного человечества. Журнал «Вопросы философии» № 3, 1992 г. с. 42

kabi masalalarga fanning aralashuvini tahlil qilish, oqibatlarini baholash va ushbu jarayonlarning axloqiy qoidalarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Nikolay Buxarinning fikri bunga isbot bula oladi degan fikrdamiz. "Ota-bobolarimizning ko'p asrlik olijanob mehnati evaziga qo'lga kiritilgan bugungi tsivilizatsiya yutuqlari kommunizm g'alabasi sababli xavf ostida qolishini hayolga keltirganda har bir san'atkor va olim qalbini qamrab oladigan qo'rquv xissi meni ham domiga tortadi. Men qo'rquv va dahshat ichra bu tund daxriylar hokimiyat tepasiga kelajak kunlar haqida o'yga tolaman. Ular dag'al qo'llari bilan qalbimga juda aziz bo'lgan go'zallikning marmar haykalini shafqatsiz yakson qilajak."<sup>1</sup>

XX asrning 20-yillarida «ommaviy madaniyat» tushunchasi Evropada dastlab salbiy mazmun kasb etdi. Bunga industrial jamiyat rivojlanib, mamlakatlararo ziddiyatlar kuchaygani, oqibatda Birinchi jahon urushi alanga olgani, urushdan keyin esa avvalgi ziddiyatlar saqlanib qolgani, boz ustiga, Rossiyada sotsialistik inqilob yuz berib. vayronkor «jahon inqilobi» g'oyalari dunyo bo'y lab tarqalgani, "Proletkult"dek o'tmisht madaniyatini yo'q qilishga chog'langan tashkilotlar vujudga kelgani sabab bo'ldi.

60-yillarda Evropada ommaviy madaniyatni liberal guumanizm nuqtai nazaridan tanqid qilish boshlandi Fromm, Xorkxaymer, Adorno, Benyamin, Moran, Veblen, Rismen, Markuze kabi liberal guumanistlar ommaviy madaniyatni aholi ongini boshqarish, shaxsni ma'naviy qaramlikda saqlash, odamlarni o'zar begonalashтирish, ijtimoiy zulm o'tkazish vositasi sifatida baholadi.

Shaxs xatti-harakatini tashqaridan boshqarish (Rismen), «bir o'lchovli inson»ni shakllantirish (Markuze), erzats (yasama) tuyg'ularning maftunkor olami (Veblen), begonalashuvning odmi kompensatsiyasi (Fromm), «ommaviy» insonni standartlashtirish va konformlashtirish, yani uni mavjud tuzumiga nisbatan norozilik tuyg'usidan mahrum etish (Mills), klip-madaniyat (Toffler).

Frantsuz sotsiologi L.Molning fikricha "Bugun oddiy ishechi ongini «to'ldirish»da uning metro afishasida o'qigani, radiodan tinglagani, kino yoki teleekranda ko'rgani, ishga ketayotganda gazetada ko'zi tushgani yoki hamkasbleri, qo'ni-qo'shnilaridan eshitgani ko'proq rol o'ynaydi: maktab sabog'idan esa uzuq-yuluq tushunchalar qoladi, xolos. ... Bizning davrimizda bilimlar asosan ta'lim tizimi orqali emas, balki OAV orqali shakllanadi".<sup>2</sup>

Kompyuter va internet zamonida aholining ongini boshqarish, «noma'qul» mamlakatlarda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni izdan chiqarish, xatto, davlat to'ntarishlarini amalga oshirish imkoniyatlari paydo bo'ldi.

2011 yili ba'zi arab davlatlarida yuz bergan "Arab bahori" voqealari misol bo'ladi. G'alayonchilarining harakatlari internet orqali muvofiqlashtirilgan edi.

<sup>1</sup> Бухарин Н. Избранные произведения. М.: Политиздат, 1988. 139 б.

<sup>2</sup> Моль А. Социодинамика культуры. М.: 1973. 221 б.

Amerikancha ommaviy madaniyatni jozibador qiladigan omillar uning demokratizmi va ijtimoiy tenglikni ifodalashidir. Bu madaniyatni to'xtatishning iloji yo'q u butun jahonga tarqalmoqda va amerikancha turmush tarzining demokratik g'oyalarning ustunligini «tasdiqlamoqda» (3.Бзежинский)

Axloqiy madaniyat shaxsnинг jamiyat axloqiy tajribalarini egallashi va bu tajribalardan boshqa odamlar bilan bo'lgan munosabatlarda foydalanishi, o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borishi singari jihatlarni o'z ichiga oladi.

U shaxs axloqiy taraqqiyotining belgisi hisoblanadi. Zero, axloqiy madaniyat axloqiy tafakkur madaniyatining qator unsurlarini o'z ichiga olgan tuzilmadir.

U shaxsnинг o'zgalar bilan o'zaro munosabatlarda namoyon bo'ladi.

Insonning xatti – harakati, xulq – atvori va yurish – turishi va ularni doimo nazorat qila bilish darajasi, kishilar o'rtasidagi muomala munosabatidir.

Axloqiy madaniyat shuningdek, insonning o'z xatti – harakatlarini me'yorini anglashdir. «Ommaviy madaniyat» G'arb dunyosida o'tgan asrning ikkinchi yarmida shakllandi. Uni G'arbdha «populyar» yoki qisqartirilgan holda, «pop-kultura» (ya'ni «ommaviy madaniyat») deb atashadi. Garchi «madaniyat» deb atalsa-da, aslida, tub mazmun-ma'nosiga, maqsad-niyatiga ko'ra «ommaviy madaniyat» chinakam madaniyatning kushandasidir.

Mutaxassislar (faylasuf va sotsiolog olimlar)ning fikricha, hali ilm-fanda «antikultura» («g'ayrimadaniyat») degan ilmiy tushuncha shakllanmaganligi uchun «Pop (ommaviy) madaniyat» tushunchasi, nochorlikdan qo'llanilmoqda. Chunki, «ommaviy madaniyat», aslida madaniyatsizlik, ya'ni ma'naviyatsizlik va axloqsizlik sinonimidir. «Ommaviy madaniyat» shu boisdan, eng avvalo, yuksak iste'dod va o'lmas ma'naviy-axloqiy g'oyalar bayroqdori bo'lgan mumtoz madaniyatga, san'atga, uning boyliklariga qarshi tish-tirnog'i bilan kurashib, uni inkor etib kelyapti.

Afsuski, er yuzidagi axborot almashinuvni mislsiz tezlashgan hozirgi globalizm sharoitida, G'arbdagi «markazlar» bundan foydalanib, boshqa davlatlar va xalqlar o'rtaida G'arb hayoti «jozibalari»ni, jumladan, «ommaviy madaniyat» ta'sirini «erkinlik shabadalari» tarzida imkon qadar keng yoyishga eng shimarib harakat qilmoqdalar.

Taassusli jihat shundaki, gohida g'oyatda iste'dodli insonlar ham «ommaviy madaniyat» targ'ibotchilarining qutqusiga uchrab, uning tegirmoniga suv quymoqda. Masalan, rassom Salvador Dali Leonardo da Vinchingining «Mona Liza» («Jakonda») asarini kulgi qilib, Mona Liza lablari ustiga mo'ylov chizgan va «Mo'ylovli Jakonda» asarini yaratgan. Tadqiqotchilarining fikricha, mana shunday «achchiq istehzoli, qora mazmunli kulgi» - «ommaviy madaniyat» faoliyatining eng etakchi belgilardan biridir. «Ommaviy madaniyat» namoyandalari qora, zaharxanda, behayo kulguni «isyon ifodasi» deb bilishadi. «Nimaga qarshi isyon»

degan savol tug'iladi. Agar «Ommaviy madaniyat» dunyoga «ehson» etayotgan «pop-art» («tasviriy san'at» desa ham bo'ladi), «pop - natijalariga qarab hukm yuritadigan bo'lsak, ular insoniyat yaratgan barcha qadriyatlarni isyonkorlik bilan inkor etadi: yuksak madaniyatni, ma'naviyatni, axloqni, yuksak orzu-maqсадlarni mensimaydi... Ular uchun e兹gulikning o'zi yo'q. Jumladan, san'at - alohida iste'dodlar tomonidan yaratiladigan ma'naviy boylik, mo'jiza ekanligi kabi ijodning oliv mezonlari «pop-madaniyat» tarafdarlarining o'ta darajada g'ashini keltiradi. Ularcha, hamma san'aikor bo'lishi mumkin. Hamma narsa san'at atalishi mumkin. «Pop-art» - ommaviy san'at shu xulosa manbaida vujudga kelgan.

«Ommaviy madaniyat» ko'pdan-ko'p shakkarda o'zini namoyon etadi. Kitch (zarracha badiiy-estetik qimmatga ega bo'lмагan narsa va buyumlarga yuksak andoza tusini berish), komiks (tagiga qisqa matn yoki luqmalar bililgan behayo matbaa - rasm mahsulotlari), starizm (sub'ektiv ehtiroslarga berilgan holda, estrada artistlari, aktyorlar, sportchilar, telediktordar ilohiylashtirish), xeppining (avvaldan rejalashtirilmagan, nogahonda uyuştiriladigan «keskin» tomoshalar, masalan, royal, pianino yoki avtomobilarni uring abjag'ini chiqarish yoxud o't qo'yish orqali vahshiyona, ommaviy «ko'ngil ochish»lar uyuştirish) «ommaviy madaniyat»ning ayrim ko'rinishlaridir. «Pop-art» chilarning dasturiy qarashi shundayki, ular insonni emas, aksincha, narsalar va buyumlarni e'zozlashadi; ma'naviy dunyonи emas, maishiy-iste'molchilik his-tuyg'ularini qadrlaydilar va ularni keng ommalashtirishga intildilar. Ularning ma'naviy pozitsiyasi - ma'naviyatni o'ldirish va «narsalarga qullik»ni rag'batlantirishdir. Amerikaning taniqli adibi R. Bredberi aytganidek, «ommaviy madaniyat» mifikidan o'tgan avlod uchun hayotning ma'nosи - avtomobil, televizor, muzlatkichga ega bo'lish. Agar televizor ikkita bo'lsa, ularga shuncha yaxshi.

Ommaviy madaniyatda «Pop (ommaviy)-muzika» alohida o'rinn tutadi. «Pop-muzika»ni «Yangi rok» belgilaydi. «Yangi rok», ta'bir joiz bo'lsa, kuchaytirilgan ritmik tuzilmali musiqadir. Ya'ni jazavalı ritm, zarb, shovqin ushbu musiqaning qiyofasidir. Bu musiqa tinglashga, qalbdan huzurlanishga emas, balki vujud harakatiga, talvasali raqsga yo'naltirilgan. «Ommaviy madaniyat»dagi texnik-ijro vositalari musiqa imkoniyatlarini nihoyatda toraytirmoqda, polifonizm - musiqiy sadolar boyligi va rang-barangligini yo'qqa chiqarmoqda. Umuman aytganda, «pop-muzika» ijrochiligi ko'ngilochar musiqa niqobi ostida ommaviy vasvasali, shaytoniy talvasali, badaxloq raqlar, ko'pincha oxiri janjal, ur-yiqit, vahshiyliklarga borib etadigan agressiv diskoteka shoularini uyuştirish bilan ajralib turadi. «Pop-muzika» namoyandalari o'z «ommaviy»liklarini ta'kidlash uchun sahnadagi xattiharakatlari va kiyim-liboslari namoyishida ham - odob-axloq, jamiyatga ehtirom tuyg'ularini rad etib - asosan ko'cha, olomonchilik qonun-qoidalariiga amal qiladilar. Va o'zlarining kulguli darajada ajralib turadigan shunday raftorlaridan faxrlanadilar.

Afsuslanarli tomoni shundaki, bunday holatlarni «pop-muzika» chilar san'atdagi demokratizmning, xalqchillilikning tantanasi, deb bilishadi. «Pop-muzika» namoyandalari ijro etadigan qo'shiq matnlari esa, avvalo, she'riyatning oddiy talabalariga javob bermaydi yoki ular ko'proq ko'chada mavjud behayo, jargon iboralarga - qadriyatlarni, insoniy ezzuliklarni kinoya, mazax qiladigan so'zlarga asoslangan. Xullas, erkinlik, demokratiya «namunalari» deb tavsiya etilayotgan «pop-muzika» matnlari bilan haqiqiy she'riyat hamda asl xalqchil did, sog'lom ruhiyat, ma'naviyat o'rtafiga er bilan osmoncha farq bor.

1964 yilda AQShda T.Sazern va M.Xoffenberg degan ikki muallif hamkorlikda yozishgan «Kendi» («Asal qiz») nomli romanini nashrдан chiqarishdi. Keyinchalik bu kitob qayta va qayta, katta miqdorlarda amerikalik kitobxonlarga taqdim etildi. Ushbu roman asosida yaratilgan kinofilm kinotomosha bozorida keng tarqaldi. «Kendi» qahramoni, «Asal qiz» deb ta'riflangan juvon duch kelgan odam bilan to'shakda aysh-ishrat qilishdan charchamaydi. Uning ishqibozlari - turli diniy va siyosiy qarashli shaxslardir. «Kendi» romani Amerika adapbiyotida shakllangan va keng tarqalgan romantik tabiatli, shirin va go'zal o'y-xayollarga beriluvchan qizlar timsolini keskin hajv qiladi, ularning ustidan kuladi. Badiiy mahorat talabalaridan ancha pastda turadigan, ammo «ko'ngilochar»lik mavzui muxlislarini oshufuta etgan bu kitobga AQSh adaptiyotshunosları: «Madaniy tanazzulda oldinga qarab qo'yilgan ulkan qadam», deya kinoya bilan baho berishdi. Xuddi shu kitob bilan ayni bir vaqtida AQShda Jon Rechi ismli yozuvchining «Tungi shahar» nomli romani chop etildi. Kitob sahifalarida shahardagi tun - jinoyatlar bazmiga aylanadi, inson shaxsi va uning qadri esa mis chaqaga arzimaydi. Bu roman «turbanlik va qabohat - inson tabiatini belgilovchi haqiqatdir», degan g'oyani tasdiqlash uchun bitilgan. Nega biz bu ikki romanni eslatdik? Aynan, ana shu kitoblar va ular asosida yaratilgan filmlar - g'arbdagi «ommaviy madaniyat»ning adaptiyotdagi, televideniya va kinodagi yo'lini belgilab berdi. Intim munosabatlar, shahvatparastlik, zo'ravonlik, xudbinlik, «Kim kuchli bo'lsa - o'sha haq» degan changalzorlar qonunini poetiklashtirish AQSh va Evropa «ommaviy madaniyat»ida mana shunday asarlar ta'sirida keng ommalashdi. Agar ayrim G'arb davlatlarida erkak bilan erkak, ayol bilan ayol o'rtafiga nikoh - hayratlanarli hodisa bo'lmay qolayotganligi nazar tutilsa, «ommaviy madaniyat» targ'ib etayotgan ma'naviy tubanliklar, behayoliklar, qabohatlar naqadar chuqurlashib ketganligini tasavvur etish qiyin emas.

Albatta, xalqimiz, jumladan, yosh avlod g'arb fan-texnikasi, madaniyati, adaptiyotu san'atining ilg'or jihatlarini inkor etmaydi. Biroq g'arbdagi taraqqiy parvar ziyorilarning o'zi «g'arbning muammosi» sifatida baholayotgan «ommaviy madaniyat»ning ma'naviy-axloqiy tubanliklarini yoshlarimiz qancha tez anglasa, shuncha yaxshi. To'g'ri, biz demokratiya davrida yashayapmiz. Jamiyatimizda qiziqish va mayllarga hurmat bilan qaraladi. Ammo xatarli qiziqish

va mayllardan davlat va jamiyat o'zini himoya qilishi lozim. Buning uchun esa, eng avvalo, reklama va ommaviy axborot vositalari to'g'risidagi davlatimiz qonunlarining talablari qat'iy bajarilishi kerak. Ya'ni «reklama»chilar va jurnalistlar davlatimiz, jamiyatimiz xavfsizligiga (jumladan, xalqni, yoshlarni ma'naviy aynitishga olib keladigan holatlarga) yo'l qo'ymasliklari kerak. Afsuski, bunday holatlар yuz berayapti. Birgina reklama roliklari orkali targ'ib etiladigan madaniyat yoki turmush tarzi namunalarini oling. Ular orkali go'yoki extiyoj uchun zarur oddiy bir matox targ'ib kilinayotgandek bo'lib ko'rinsa-da uning zamirida bizning milliy axloqimizga to'g'ri kelmaydigan nimadir yashiringan bo'ladi. Ana shu nomsiz nimadir borib-borib ommaviy madaniyat ommaviy turmush tarzi tamoyillarini belgilaydigan kuchiga aylanish uchun da'vogarlik qiladi bizning qalbimizdan milliy o'zlik tuyg'usi, Vatan xissini siqib chikarmoqchi bo'ladi.

Masalan, o'zining xurmatini bilgan, kalbida ozgina uyat, or-nomus tuygusi bo'Igan inson hech qachon hammaning oldida echinib, yuvinmaydi. Lekin oynai jaxon orqali beriladigan sovun yoki soch yuvish vositasiga talluqli reklamada ana shunday xolatlar ochiqchasiga ko'rsatiladi. Badaniga sovun surkayotgan ayol kishining suv ostida qanday hissiy xolatni boshidan kechirayotgani ko'z-ko'z qilinadi. Maqsad - siz xam shunday rohatdan benasib kolmang, shu "bebaxo" sovunni sotib oling, degan mazmunda berilmoqda. Xolbuki, xalkimiz yuvinish foydali ekanini shusiz xam yaxshi biladi va necha asrlardan buyon tozalik ozodalik qoidalariga amal kilib keladi. Modomiki shunday ekan, bunday reklamalar kim uchun?

Qolaversa, dunyoqarash tarbiyasi imkoniyatlarini rivojlantirishimiz lozim. Masalan, «Ogohlik» iborasining ma'nolarini bugungi zamon sharoitidan kelib chiqib, ancha keng miqyosda tushunishimizga to'g'ri keladi. Ya'ni bugungi ogohlik xalqimiz, ayniqsa, yoshlar dilini, ruhiyatini, aql-idroki va umuman ma'naviyatini diniy-aqidaparastlik, jaholatparastliklar xataridan tashqari, ayni paytda, jahonda yuz berayotgan siyosiy, mafkuraviy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va estetik manfaatlar yo'nalishidagi oshkora va xufya kurashlarning keng miqyosdagi xatarli jihatlaridan, jumladan, «ommaviy madaniyat»ning emiruvchi ta'siridan muhofaza qilishni ham o'z ichiga oladi.

Egotsentrizm g'oyalarini tar-qatish, axloqiy buzuqlikni, zo'ravonlikni targ'ib etish, bir jinslilar nikohi, pornografiyaning ochiq-oshkora namoyishi kabi illatlarga ruju qo'yish g'arb mamlakatlarida oila degan muqaddas qo'rg'onga darz etkazib, azaliy qadriyat va an'analar tizginini butkul izdan chiqarmoqda. Bu jarayon Ovrupa uchun juda katta muammoga aylandi. Statistik ma'lumotlarning so'zlashicha, Britaniyada bolalarning 34 foizi nikhsiz tug'ilmoqda. Agar shu jarayon davom etsa, kelgusi 20 yil ichida britaniyalik bolalarning yarmidan ozrog'igina ota-onas tarbiyasini oladi. Kishilik jamiyatining asosi bo'Igan oilani

keraksiz matohdek uloqtirib tashlayotgan jamiyatlarning kelajagini bundan ortiq tasavvur qilish ham qiyin.

Bir asr muqaddam Abdurauf Fitrat «Oila» risolasida bu xususda to'xtalib, «Kimki badaxloq bolalarni tarbiya etsa, insoniyatga dushmanlik qilgan bo'ladi», deya ta'kidlagani beziz emas. Ma'lum bo'lishicha, AQShda jinoyatga qo'l uring, qamalganlarning yarmidan ko'pi buzilgan oila farzandlari ekan. Bu holdan bugungi kunga kelib o'sha g'arb dunyosining o'zi ham tashvishga tushmoqda. Amerikalik taniqli jurnalist Patrik Jozef Biyukenen «Xo'sh, ma'daniy inqilob ta'sirida paydo bo'lgan yanglish e'tiqod («ommaviy madaniyat») nimaga da'vat etadi. Ajdodlarimiz e'tiqodidan uning farqi nimada?» deb savol qo'yadi va o'zi «U eng avvalo har qanday yuksak madaniy qadriyat, ahloq odob-qoidalarini tan olishdan bosh tortadi», deya javob beradi. Taraqqiyotning yuksak pog'onasiga chiqqan, ammo boylik, manfaat uchun har narsadan kechganlar, egotsentrizmni bayroq qilganlar endi uning xunini to'lash mavridi kelganini ham tushunib etganga o'xshaydi. Fidoyi bo'lish, Vatan va millat oldida mas'uliyatni his qilish kabi aslida muqaddas sanalgan tuyg'ularni safsata deb bilganlar, nihoyat, endi bu tushunchalarning inson bolasi uchun naqadar muhim ekanini anglashyapti. Hayotning achchiq haqiqatlari esa ishratparastlikni avj oldirish, feministlarcha tabiiy nikohni quidorlikka qiyoslash, mehr-oqibat tuyg'ularidan ko'ra moddiy manfaatni ustun qo'yish tushunchalari va bu tushunchalarni zamon talabi deb yoyish jamiyatlarni emiradigan ma'naviy inqiroza olib kelishi ro'y-rost bo'lib qoldi.

Biroq, eng achinarlisi, bu targ'ibot «ommaviy madaniyat» niqobi ostida butun dunyoga e'tiqod sifatida tiqishtirilayotganidir. Bu niqob o'z o'rnda yakkahokimlik, ya'ni gegemonlik qutqusidan qitula olmagan kuchlarga yanada qo'l kelib, o'z ta'sir doiralarini kengaytirdi. O'zidek yurishga, yashashga, o'ylashga, ular kabi fikrlashga, faqatgina o'zlarining izmida yurishga chorlamoqda. Hech bir an'anani tan olmay, ruhiy dunyoga kirib kelmoqda. Oddiygina aytganda, manqurtlarni tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Negaki, biz o'rtada masofalar tobora qisqarib borayotgan, madaniyatlar bir-biri bilan mushtaraklashib ketayotgan dunyoda yashamoqdamiz. Bu jarayonning bizga daxli yo'q, deyish shamol tegirmoniga qarshi kurashgan Don Kixotning ayanchli qismatidek kulgili tuyulishi aniq. Chunki shamloni to'xtatib bo'lmaydi, unga qarshi himoyalanish mumkin, xolos.

«Ommaviy madaniyat»ning turmushimizga ta'sirini ko'rish uchun uzoqqa borish shart emas. Yonimizga, o'zimizga teranroq nazar solsak kifoya. «Alpomish»ni o'qib savod chiqargan, pana-pastqamlarda yashirinib, «O'tkan kunlar»ni mutolaa qilib katta bo'lgan ota-bobolarimiz yoshligimizdanoq bizga Uch og'a-ini botirlar jasoratidan, To'g'ri va egri qismatidan saboq berishar, qadim alyorlardan, matallardan so'ylashardi. Xo'sh, biz-chi? O'g'limiz kimning qo'shig'ini eshitib ulg'aymoqda. Ekranda qo'shiq kuylayotgan yigitning qiliqlariga

qarang, kimga taqlid qilyapti? «Og'zidan chiqqan gapni qulog'i eshitmayotgan», bachkanalikni samimiy kulgi deb o'yaydigan, savyasizlikni ommaviy lashtirayotgan kinoasarlarg'a qarang, yoningizda «shortik» va maykada yurishni kiborlik bilib, mahalla guzariga chiqayotgan «akaxon»ga razm soling. Yoshgina kelin-kuyovning ota-on'a oldida quchoqlashib turganiga e'tibor qiling. Axir quyun kabi ostonamizga kirib kelayotgan bu unsurlarga munosib javob berish uchun ma'rifatparvar bobomiz aytganidek: «Tarbiya yo hayot, yo mamot» yo'li ekaniga amin bo'lmoq kerak emassi? To'g'ri, ba'zan biz uchun bolamizning tunda sang'ib yurishi, qizimizning yarim yalang'och kiyimda yonimizda o'tirishi, nevaramizning zo'ravonlikni, johillikni targ'ib qiladigan kompyuterdan ko'z uzolmasligiga ko'nikib qolganimiz tabiiy hol bo'lib tuyulishi mumkin. Ayrim onalar qizlarini to'ylarga, bazmlarga olib borib buyumday ko'z – ko'z qilmoqda. Lekin bunday «mayda muammo»lar bir kun kelib, katta tashvishlarni, tahdidlarni keltirib chiqarishi turgan gap. Aynan mana shu jo'n ko'ringan hodisalar «ommaviy ma'daniyat»ning turmushimizga kirib kelayotganligidan dalolatdir.

Haqiqatan ham sizu bizning hayotimizga ko'rinxas, yashirin tarzda kirib kelayotgan global xurujlar, eng avvalo, mustaqil shakl-lannagan, biror bir pozitsiyaga ega bo'limgan ongga muhim o'rashib, ta'sir o'tkaza boshlaydi. Ma'lumki, hech bir qarshilikka uchramaydigan bunday ruhiy ta'sir jamiyatda keng quloch yozgach, xalqni olomonga, to'daga aylantirishi mumkin.

Jamiyatning etakchi kuchi bo'lgan yoshlar romantik kayfiyat hamda sentimental qarashlarga mubtalo bo'ldi. Aytish joizki, shu o'rinda kino va san'at muhim quroq maskura bo'lib xizmat qildi.

Hozirgi paytda yoshlarning kalbi va ongini egallahsha karatilgan jiddiy xatarlardan biri "ommaviy madaniyat" nomi bilan industrial asosda ishlab chikilayotgan "san'at" namunalaridir. Aslida xakikiy san'at asaridan mutlako yiroq bo'lgan garazli maksadlarni ko'zlaydigan ayrim guruxlarning boyishiga xizmat kiladigan milliy kadriyatlarimizga mutlok zid bunday maxsulotlar insonni xayotdan yiroklaشتiradi, ruxan qashshoq bexayolik, zo'ravonlik, ur-yikit, firibgarlik, giyoqvandlik, mayxo'rlik kabi illatlar zimdan targib kilinadi. hayotning ma'nosи shundan iborat degan zararli goya tomchi-tomchi tarzida yoshlarning kalbi va ongiga zimdan singdiriladi. Boshkacha aytganda "ommaviy madaniyat" yoshlarning xayotini butunlay zaxarlaydi va ularni o'z tarixi milliy kadriyatları xatto ota-onasini tanimaydigan maxlukka aylantirib ko'yadi. Radio, televideniening turli kanallari (asosan, xususiy radio va telestudiyalari, kabel televideniesi) orqali milliy qadriyatlarimizga mos bo'limgan tafsilotlar va tasvirlar bilan ba'zi eshittirish va ko'rsatuвлар berilmoqda. Qo'l telefonlari orqali turli behayo tasvir va zo'ravonlikni targ'ib etuvchi o'yinlar hamda ma'lumotlar tarqatilmoqda. Madaniyatsizlik, ochiq-

sochiq, yarim yalang'och yurish holatlari turli buyumlarni reklama qilish orqali targ'ib etilmoqda.

"Ommaviy madaniyat"ga qarshi kurashning eng samarali yo'li yigit-kizlarimizni yoshligidan boshlab yuksak madaniy saviya did va farosat egasi mustakil fikrlaydigan ma'rifatli kilib tarbiyalashdan iborat. Ana shunday fazilatlarga ega bo'lgan yoshlar zamirida vayronkor goyalar yotgan "ommaviy madanyat" namunalaridan xazar kiladi.

Keyingi paytlarda matbuot orkali serialarning saviyasi, ularning bekorchi goyalarga xizmat kilayotgani va xokazolar xakida kup gapirildi. Biz ularning yulidan yurmokchi emasmiz. Serialarni ko'rmang yoki ko'ring, deyishdan yiroqmiz. Buni xar kim uzi xal etadi. Tadqiqotlarga ko'tra shu kecha kunduzda mamlakatimiz umumxalk telekanallari orkali 20 nomdag'i serial efirga uzatilmokda. Ular orasida "Yoshlar" teleradiokanalni rekord urnatgan: bir sutkaning urtacha 330 minuti serialarga bagishlanadi. Bu degani kariyb yarim kun bir telekanaldan saqat serial beriladi. Demak, bitta kanal orkali xافتасига 35 soatdan kup serial tamosha kilyapmiz, Keyingi urinda TV-Markaz kanali sutkasiga o'rtacha 260 min. Maxalliy kanallardan "Toshkent" kanali sutkaning 210 minutini, "NTT" esa 170 minut, "O'zbekiston" kanali 150 minutni serialarga ajratar ekan. Rossiya telekanallarida xam xuddi shunday tendentsiyani kuzatish mumkin, balki seriallar uchun ajratilayotgan efir vakti ortiqrok ham. Lekin bir nozik masalada ular o'zgacha yul tutishyapti, ya'ni ular iloji boricha efirga faqat rus serialari tayyorlanyapti. Bizning televidenie esa rang barang: koreyscha, turkcha, meksikacha, xindcha, ortda kolmasin deb uzbekcha serialarni xam tijishtirib tashladи. Serial o'z yuliga, lekin serial orqali ularning madaniyati, urf-odati, turmush tarzi xayotimizga suroqsiz kirib keldi va bu jarayon davom etyapti. Shunday ekan, tanqidchilarining xavotirida xam jon bor ekan-da. Biz odamlarni turli xalqlar serialari bilan boqaveradigan bulsak, ulardan ertaga milliylik, sharkona odob-axloq va x.k.larni talab kilihga xaqqimiz koladimi? Bir karashda serial asliga monand xech narsaga arzimaydigan "ko'pik" singari. Tubdan nazar tashlaganda esa, u nafakat madaniy xodisa, balki bizning iktisodiy, siyosiy, ma'rifiy dunyomizga bevosita ta'sir o'tkazib turuvchi omildir. Jaxon moliyaviy-iktisodiy inqirozi davrida maishiy texnika ishlab chikaruvchi "Samsung" kompaniyasi serial sotish evaziga kamomaddan qutulib qolgani fikrimizning yorqin isbotidir.

Globallashuv jarayoni va til munosabatlari, davlat tilining mavqeい, unga e'tiborni oshirishga ta'sir etuvchi ijobjiy va salbiy omillarning xususiyatlari, yoshlar til ma'naviyati va nutq madaniyatiga "ommaviy madaniyat"ning ta'sirini o'rganish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylanib bormoqda. Yoshlarini "ommaviy madaniyat" ta'siridan asrash milliy madaniyatimizning sofigi, qadriyatlar, an'analar, urf-odatlarimizning davomiyligi, umrboqiyligi uchun kurash

hamdir. Yoshlar til ma'naviyati va nutq madaniyatiga "ommaviy madaniyat"ning salbiy ta'sirini quyidagilarda ham ko'rish mumkin: Hozirgi kunda internet tarmog'i dagi materiallarda o'zaro tanishuv, sevgi izhor qilishlar, behayo lavhalar aks etgan materiallarni istagancha uchratish mumkin. Bundan tashqari, turli telekanallar orqali boshqa millatlarning urf-odatlari aks etgan filmlar ko'plab namoyish etilmoqda. Ulardagi ijobji holatlarni qo'llab-quvvatlash mumkin. Lekin turlicha so'kinishlar, baqiriqlarga to'la, behayolikni targ'ib etuvchi filmlarning ko'payib borayotganligi va ularning telekanallarda namoyish etilayotganligi, mini-disk sifatida sotilayotganligi tashvishlidir. Ayrim chet el filmlari to'laligicha sheva elementlari bilan tarjima qilinayotganligi, haqoratlari so'z va qo'pol junjalarga o'rinn berilganligi yoshlar tarbiyasi, ayniqsa, ularning nutq madaniyatiga salbiy ta'sir etmoqda. O'zaro sevgi izhor etishlar, ayniqsa, qizlarning yigitlarga yo'llagan sevgi izhorlari milliy mentalitetimiz, qadriyatlarimizga mutlaqo yot hodisa sifatida ancha tashvish uyg'otadi. Bugun ham «ommaviy madaniyat»ni tiqishtirayotganlarni, homiylik qilayotganlarni kuzatish uchun ekrandagi bemaza kino va musiqalarni, gazeta do'konlarining tashqi suratlarini bezab turgan oldi-qochdi matbuotni kuzatishning o'zi kifoya. Nomaqbul G'arb ta'sirining ko'rinishlari kino, musiqa, moda, internet orqali omma hayotiga kirishga urinmoqda.

Turli sektalar, noqonuniy diniy uyushmalar yoshlarni ekstremizm, terrorizm, missionerlikka moyil, jinoyat qilishdan qaytmaydigan, giyohvandlikka oson beriluvchan qilib tarbiyalashga urinmoqda. Bunda ham til omilidan ustalik bilan foydalaniylmoqda. Respublikamiz yoshlarining turli noqonuniy yo'llar bilan boshqa davlatlarga borib, ishlab kelishlari, ularning, ko'pincha, yolg'on tafsilotlar bilan tengdoshlarini qiziqtirayotganligi va o'z domiga tortayotganligi xudbinlik, ma'naviy qashshoqlik, ahloqiy buzuqlik kabi illatlar ayrim yoshlarning tarbiyasini buzmoqda. "Ommaviy madaniyat"ning bu xildagi salbiy ta'siridan yoshlarni, umuman, keng jamoatchilikni asrashning yo'llaridan biri xolis, haqqoniy axborotni ko'proq, mazmunli, ta'sirchan shakllarda tarqatish, axborotni tahlil qilish, saralash, ijobjiy jihatlaridan foydalinish madaniyatini ular ongiga singdirishdan iboratdir.

Vaqti kelib fashizm, sionizm, kommunizm oqimlar kabi «ommaviy madaniyat» ham tarix kultepasidan joy oladi. Negaki, biz oqni qoradan ajrata oladigan, o'tmishi buyuk, kelajagi buyuklikka daxldor xalqımız. Intellektual va ma'naviy jihatdan boy an'analarga ega millatmiz. Barkamol avlod «ommaviy madaniyat» niqobidagi maskura nima ekanini yaxshi tushunadi. Yangi davrga hukmini o'tkazayotgan g'oyalarga munosib javob berish uchun navqiron avlodimizning salohiyati etadi.

Qurolli to'qnashuvdan ko'ra maskuralar, g'oyalalar kurashi xatarliroq bo'lib turgan ayni vaqtida milliy o'zlik tushunchalari shuuriga jo bo'lgan millatgina

derazani chertayotgan «commaviy madaniyat» tahdidlariga qarshi kurasha oladi, deb o'ylaymiz.

### **Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati**

#### **Rahbariy adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. – Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., O'zbekiston. 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. – Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T., O'zbekiston. 2017.

#### **Darsliklar va o'quv qo'llanmalar:**

1. Muhammadjonova L.A. Amaliy etika va estetika. O'quv qo'llanma – T.: "Mumtoz so'z" 2022 yil.
2. L.Muxammadjonova, S.Alimov,Sh.Rajabov. Notiqlik san'ati. O'quv qo'llanma – T.: "Mumtoz so'z" 2022 yil.
3. Аззамова Н. "Философия нравственности". Darslik T.: Universitet. O'zMU, 2022 yil.
4. Радугин А.А. Этика. Учебное пособие для высших учебных заведений. – М.: Tsentr, 2003. -88 b.
5. Назаров Қ. Аксиология – қадриятлар фалсафаси. –Т.: O'FMJ, 2004.
6. Степанянц. М.Т. Философские аспекты суфизма. –М.: Nauka. 1987. S-99.
7. Тримингэм Д.С. Суфийские ордена в исламе. –М.: Nauka. 1989. S-546.
8. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. –Toshkent: O'zbekiston Faylasuflari milliy jamiyatni nashriyoti, 2010. -8 b.
9. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. 12 tomlik. –Toshkent: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2000. T.1. -530 b.
10. Falsafa: qomusiy lug'at. Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov. – Toshkent: "Sharq" nashriyot –matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririysi, 2004. -40 b.
11. М. Каххарова, Н Аззамова. Этика Учебное пособие. Ризограф имени Низами. 2018 год.
12. L.Muhammadjonova, F.Abidjanova. Etiket. O'quv qo'llanma. T.: Universitet. O'zMU, 2018.
13. Nurmatova M., Muhammadjonova L.. Ma'naviyatning axloqiy asoslari.–T.: Universitet, O'zMU. 2013.
14. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.
15. Husanov B., Gulamov V. Muomala madaniyati. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2009.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Al-Faqih Abu Lays as-Samarqandiy. Tanbehlul-g'ofiliyn.Birinchi kitob.- Toshkent: Mavarounnahr, 2003.

2. Хайдеггер М. Основные понятия метафизики (Введение). //Вопросы философии. -М., 1989. -№9. S-84
3. Nurmatova M., Muhammadjonova L., Ma'naviyatning axloqiy asoslari.-T.: Universitet, O'zMU. 2013.
4. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. - T.: Universitet, 2009.
5. Гаранина О.Д. Философия человека. -М.: 2006. S-44
6. Камю А. Бунтующий человек. -М.: 1990. S-546.
7. Гусейнов А.А., Апресян Р.Г. Этика: Учебник – М.: Гардарики, 2004. -26.
8. Асмус В.Ф. Античная философия. – М.: Высшая школа, 1976.
9. Философия: учебник для Вузов / Под ред. В.Н. Лавриненко. – М: ЮНИТИ-ДАНА, 2007.
- 10.Ушков А.М. Китайско-конфуцианский культурный ареал. Запад и Восток: Традиции и современность. – М., 1993.
- 11.Muhammadjonova L.A., Ortikova D.O., Abidjanova F.A., Masharipova G.K. Professional etika va etiket. Darslik. - Т.: "Adabiyot uchqunlari" 2018.
12. Э.Умаров., Ф.Загритдинова. "Этика. Прикладная этика". -Т.: Ношир, 2012.
13. Choriev A. Inson falsafasi. –Toshkent.: O'FMJ, 2006 S-181
14. Женкс Ч.А Язык архитектуры постмодернизма. - М.: Стройиздат, 1985
15. Лоренц К. Восемь смертных грехов цивилизованного человечества. Журнал. «Вопросы философии» № 3, 1992. с. 42.

## **BIOETIKADA UMUMINSONIY AXLOQIY TAMOYILLAR VA QADRIYATLAR. BIOETIKADA AZOB VA RAHM-SHAVQAT, O'LIM VA O'LMASLIK MASALALARI**

### **REJA:**

1. Inson va muhit munosabatlarning axloqiy-estetik jihatlari; biosfera, noosfera va etosfera tushunchalari.
2. Barcha hayot shakkilarga hurmat tamoyili.
3. Ilmiy-texnikaviy taraqqiyot va inson muammosi.
4. Bioetika muammosining qamroviligi va uning yangicha talqini.

Bioetika hozirgi zamon amaliy etikasining muhim yo'nalishlaridan biri-inson hayotining eng oliy axloqiy qadriyat sifatida qaraydi. Shu bilan birga, inson hayotini saqlab qolish muammosini yaxshilik va yomonlikni farqlashning muhim mezoni, deb hisoblaydi. Hozirgi zomon fanida Bioetika etika tirik mayjudotlar, shu bilan birga, insonga ham bo'lgan munosabatlarning axloqiy reguliyativi, deb qaraladi. Insonning tabiat bilan uzlusiz aloqasini ma'naviy tahsil asosida, tabiatni muhofaza etishda axloqiy javobgarlik bioetika etikaning madaniy negizini tashkil etadi.

Bioetika, sotsial masalalar bilan birlgilikda, qadriyatlar muammosini ham qamrab oladi. Bioetika maqsadlaridan biri –shaxsni turli holatlarga solish imkoniyatlarini yaratuvchi, inson xatti-xarakati, ruhiyatini o'zgartirish mumkin bo'lgan, uning ustidan o'tkazilayotgan xilma-xil tadqiqotlarni cheklash mezonlarini ishlab chiqadi. Bioetika muammolarini ishlab chiqishda faylasuflar, huquqshunoslar sotsiologlar, tibbiyot xodimlari va sotsial axloqshunoslar qatnashmoqda. Bioetik muammoning dolzarblashuvi, ilmiy texnik taraqqiyot, biotexnologiya, irsiyat texnologiyasini rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, tabiiy muhitni maqsadga muvofiq va tez o'zgartirishda, insonga katta quvvat berdi. Tabiiy evolyutsion jarayonlari uchun ilgari millionlab yillar kerak bo'lsa, endi inson bu jarayonlarni qisqa vaqt ichida amalga oshirishi mumkin bo'ldi. Irsiyat texnologiyasi va biotexnologiya inson taqdiriga bevosita aralashib, irsiyatni dasturlashtirish, turli tirik organizmlar, irsiyat asosida yangi organizmlar, biologik robotlar yaratish masalalarini ko'tarib chiqdi. Natijada, insoniyatning rivojlanishi, fiziologik jihatdan qayta o'qish imkoniyatlarini, diniy tahlil etish muammolarini keltirib chiqardi. Irsiyatga qanday ma'naviy mezonlarga ko'ra, qaysi ideallarga, qaysi qadriyatlarga asoslanib, aralashish muammolarini Bioetika etikaning tadqiqot ob'ekti bo'lib xizmat qiladi.

Bioetika, klassik tibbiyot etikasidan farq qiluvchi yangi yo'nalish sifatida, XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'ldi va jadal rivojiana boshladi. Bioetika – tibbiyot va biologyaning rivojlanishiga qarab yuzaga keladigan axloqiy, huquqiy va ijtimoiy muammolarni o'rganuvchi bilim sohasi. Boshqacha qilib aytganda, bu borliqqa axloqiy munosabat mezonlari to'g'risidagi fan, jamiyat manfaatlarini ilm-fan tajovuzidan himoya qiluvchi institut, shuningdek tibbiyot sohasidagi axloqiy muammolarni hal qilish metodologiyasidir. Bioetikaning asosiy maqsadi – insonni uning hayoti va sog'lig'iga tibbiyot va biologyaning salbiy ta'siridan himoya qilish. «Bioetika» atamasini amerikalik mashhur onkolog vrach, olim va insonparvar Van Ranseler Potter (1911-2001) ilmiy muomalaga kiritdi.

Bioetika bugungi kunda vrach va patsient munosabatlarining axloqiy jihatlariga, evtanaziya va o'limni aniqlash, inson a'zolarini transplantatsiya qilish, homila tushirish (abort), klonlash, irsiy injeneriya masalalariga alohida e'tiborni qaratmoqda. Akademik doiralarda «bioetika» tushunchasi aynan shu ma'noda qo'llaniladi. Bunda tibbiyot etikasi tushunchasi o'rniغا ko'pincha deontologiya tushunchasi qo'llaniladi. Deontologiya etikaning burch va majburiyat muammolarini o'rganuvchi bo'limidir (atamani ingliz faylasufi Bentam XIX asrda muomalaga kiritgan).

XX asrning ikkinchi yarmida transplantologiya, irsiy diagnostika, irsiy injeneriya va klonlash rivojiana boshladi. Tibbiyot texnikasi o'z rivojlanishida shunday daraja etdiki, vrach ilgari o'lishi muqarrar bo'lgan bemorlarning hayotini endilikda sun'iy ravishda saqlab tura oladi. Texnika sohasidagi yutuqlar bennorlar,

o'lim to'shagida yotganlar va nogironlarning huquqlarini yuridik jihatdan asoslashning yangi-yangi shakllari va usullari paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Etikaning boshqa muammolardagi ishtiroki ham kengaydi – siyosatchilar o'z faoliyatida etika qoidalariga tobora ko'proq tayanmoqdalar, jamoatchilik biznes va reklama ustidan etik nazoratni o'matishni talab etmoqda, ekologiya esa atrof muhit bilan munosabatlarni tartibga solishda etika qoidalariga rioya etish zarurligini ko'rsatmoqda. Axloq normalariga muvosiqqlik mezoni bank faoliyatining nafaqat qonuniyligi, balki muvaffaqiyatliligining ham negizi sifatida ilgari surilmoqda.

Bioetika amaliy etikaning eng rivojlangan va ishlab chiqilgan qismiga aylandi. Boz ustiga, bioetika mustaqil fan maqomiga ham da'vogar bo'lishi mumkin, degan fikr ham ilgari surilmoqda. Darhaqiqat, bioetika ilgari surayotgan muammolar juda muhim va rang-barang, ularni tahlildan o'tkazish darajasi juda katta, bioetika ko'rib chiqib hal qilayotgan masalalar juda muhim va dolzarbdir. Har qanday mamlakatda transplantatsiya, reanimatsiya, sun'iy urug'lantirish, irsiy davolash zamonaviy vrach amaliyotining muayyan yo'nalishlari hisoblanadi. Ilmiy bilim, shu jumladan tibbiybiologik bilimlar ham universaldir.

Paternalizm – tibbiyot etikasining dastlabki modellaridan biri. Bu shunday bir munosabatlar modeliki, unda vrach bemorga nisbatan nafaqat mehribon ota, balki podsho va xudo sifatida ham ishtirok etadi, zero, insonning hayoti, sog'lig'i, erkinligi va baxti uning qo'lida bo'ladi. Professional tibbiyot etikasining mazmuni «foyda keltirish», «ziyon etkazmaslik», «bemorning ishonchini qozonish» singari printsiplar bilan belgilanadi, ya'ni vrach faoliyatini tartibga solishga yo'naltirilgan va «tibbiy deontologiya» deb ataladi.

Tibbiyot – yuksak darajada professionalizmni talab etuvchi va etika printsiplarining izchil tizimini nazarda tutuvchi soha. Shaxsiy darajada tibbiyot etikasi vrachning kasbiy erkinligini va muruvvatini o'z ichiga oladi. Kasbiy erkinlik – davolash kursini boshqa shaxslarning aralashuvisiz belgilash huquqi. U patsientning o'z sog'lig'i haqida axborot olish huquqi bilan cheklanadi.

Totli o'lim-evtonaziya ham biotibbiy axloqning global muammolaridan. Bedavo dardga chalingan bemorni azob-uqubatlardan qutqarish uchun uning o'limini qasddan tezlashtirishga munosabat yuzasidan tibbiyotchilar, yuristlar, sotsiologlar va psixologlar orasida ko'p sonli bahslar hanuz davom etmoqda. Ingliz faylasufi Frensis Bekon (1561-1626) engil og'riqsiz o'limni belgilash uchun «evtanaziya» (yunoncha «euthanasia», «eu» – yaxshi, «thanatos» - o'lim), ya'ni azob-uqubatlarsiz, yaxshi, oson va engil o'lim atamasini muomalaga kiritdi.

Xudoning ixtiyoridan tashqari o'limni ixtiyor qilgan kishi diniy nuqtai nazardan kechirilmaydi. Chunki sabrli, bardoshli bo'lish, bu dunyo iztiroblarini toqat bilan boshdan kechirish insonning vazifasi. Lekin axloqiy jihatdan olib qaraganda masala qanday baholanadi? Deylik, muayyan inson, bemor o'z

kunlarining sanoqli ekanini, lekin bu kunlar sanoqsiz azoblar ichida o'tishini biladi. Shu bois u o'zining ana shu holatini juda yaxshi biladigan boshqa bir odam - shifokordan azoblariga chek qo'yishni so'raydi. Uning iltimosi va shu iltimosni bajarish uchun shifokor tomonidan qilingan xatti-harakatlarni qanday, baholash mumkin? Bu xatti - harakatlarni insoniylik va insonparvarlikning ko'rinishi sifatida qabul qilish to'g'rimi? Umuman, evtanaziya axloqiylikmi, axloqsizlikmi? Bu muammo ham umumjahoniy miyosda o'z echimini kutmoqda.

Chunki tabobat borasidagi so'nggi tadqiqotlar inson o'lumi bir lahzada ro'y bermasligini, yurak urishi va nafas olish to'xtaganda ham, miya o'lmasa insonni o'ldi deyish mumkin emasligini isbotlab berdi. Dastlab miya qobig'i, undan keyin miya tanasi halok bo'ladi. Shundan keyingina insonni o'lgan deb hisoblash mumkin. Zero, hozirgi kunda toki miya o'lmas ekan, ko'pgina ichki a'zolarning yangi tabobat texnikasi vositasida ishslashda davom etishini ta'minlash va shu orqali ancha muddatgacha insonda tiriklikning minimal darajasini saqlab turish mumkin. Demak, yurak yoki buyrakning ko'chirib o'tkazilishi hali o'Imagan odamning minimal tiriklikka bo'lgan huquqini poymol qilishdir. Buning ustiga, amerikalik neyroxiturg Pol Pirson o'z tajribalariga asoslanib, yurak ko'chirib o'tkazilganda ruh ham ko'chib o'tadi, degan fikrni bildiradi. Chunonchi, 19 yashar qizning yuragi 40 yashar erkakka o'tkazilganida, yigitning fe'l-atvorida juda katta o'zgarishlar ro'y bergen. Yoki 20 yashar qizning yuragi va o'pkasi 36 yashar ayloga o'tkazilganda ham shunga o'xshash o'zgarishlar yuzaga kelgan: ayloning kulishigacha o'zgarib ketgan. Axloqiy nuqtai nazardan buni qanday izohlash mumkin?

Fao evtanaziya quyidagi shakkarda namoyon bo'lishi mumkin:

1) «Rahmdillikka asoslangan odam o'ldirish» – vrach umidsiz xasta odam chekayotgan azob-uqubatlarni ko'rib, ularni bartaraf eta olmaganligidan, aytaylik, unga og'riq qoldiruvchi preparatni me'yordan ortiq miqdorda kiritadi va natijada bemor vafot etadi.

2) «Vrach yordamida o'z joniga qasd qilish» – bunda vrach bedavo dardga yo'liqqaan bemorga o'z joniga qasd qilishga ko'maklashadi.

3) Shaxsiy faol evtanaziya – vrach yordamisiz ham sodir bo'lishi mumkin. Bunda bemor uning tez va og'riqsiz vafot etishiga olib keladigan uskunani o'z qo'li bilan ishga tushiradi, ya'ni o'z joniga o'zi qasd etadi.

Xullas, aktiv evtanaziya muammosining mohiyati vrachning bemorni unga rahmi kelganidan yoki o'layotgan odamning yoki uning yaqinlarining iltimosiga ko'ra hayotdan ayirishidan iborat. Bunday aktiv evtanaziya nafaqat bizning mamlakatimizda, balki boshqa davlatlarda ham qattiq qoralanadi. Chet elda vrachlar va yuristlarning aksariyati bunga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydigan, hatto «rahmdillik»dan yoki o'lishi tayin bo'lgan bemorning iltimosi bilan qilingan taqdirda ham jinoiy javobgarlikka loyiq qilmish deb qaraydilar. Shunga qaramay,

evtanaziyaga hatto yuridik huquqlar berilgan mamlakatlar ham bor. Xo'sh, ular buni nima bilan izohlaganlar? Evtanaziyaga tibbiy va ma'naviy-axloqiy nuqtai nazardan ziddiyatli qarashlar mazkur hodisaga yuridik jihatdan ham har xil baho berilishiga sabab bo'ldiki, bu bir qancha mamlakatlarning qonun hujjatlarida o'z aksini topdi.

Klonlashtirish atamasi ingliz tilidagi "clone", "cloning" so'zlaridan kelib chiqqan va hozirgi kunga kelib o'z yozilishi, o'qilishini biroz o'zgartirgan. Ingliz tilida bu so'z biologik termin sifatida yuz yillar oldin qo'llana boshlagan. Biroq shu qisqa vaqt ichida o'z ma'nosini bir necha marta o'zgartirishga ulgurgan. Dastlab klon so'zi vegetativ yo'l bilan, ya'ni bir o'simlik urug'idan olingen o'simliklar guruhiga nisbatan qo'llangan. Oradan bir munkha vaqt o'tib, ushbu atama bakteriyalar turkumini etishtirishga nisbatan ishlaatilgan. Biologik yutuqlar shuni ko'rsatadi, o'simliklar va bakteriyalarning kelib chiqishi, avlodlarning organizmi-ishlab chiqaruvchisi bilan klonning barcha genetik asoslari bir xil bo'ladidi. Keyinchalik shu yo'l bilan olingen yoki shakllantirilgan organizmlar klonlashtirish deb ataladi. Klonlashtirishga oid ko'plab baxs-mulohazalar mavjud. 1977 yili butun insoniyat klonlashtirish yo'li bilan dunyoga keltirilgan shotland qo'zichog'i Dollini ko'rib, xayratga tushdi. Bu paytda odamni klonlashtirish ustida olib borilayotgan tajribalarga bo'lgan munosabat to'g'risida baxs ketayotgan va baxslar quyidagi savollar bilan bog'liq edi. Keyinchalik klonlashtirish odamlarga genetik kasalliklarni davolashda ham katta yordam beradi. Agar xavfli genlar, ya'ni qandaydir kasallik alomatlari oti xromasomasida aniqlansa, unda otaning tuxumdoniga uning o'z xujayrasi o'tkaziladi. Shunda xavfli genlardan xoli farzand dunyoga keladi. Insonni klonlashtirish o'z-o'zidan insoniyat axloqi va ruhiyatini Buzish bilan barobar emasmi degan muammolardan iborat. Ma'lumki, inson faqat jismoniy tanadan iborat emas, unda yurak, qalb, hissiyot tafakkur, orzu umid va uning ro'yobiga qaratilgan inson xatti xarakatlarining bir-biriga bog'liq va yaxlit tizimi mavjud.

Transplantatsiya-odam va xayvonlarda potologik jarayon natijasida shikastlangan yoki olib tashlangan to'qimalar va organlar o'rniغا sog'lomini ko'chirib o'tkazish. Xirurgiya usuli sifatida qadimdan ma'lum. Teri, muskul, nervlar, ko'zning muguz pardasi, yog', va suyak to'qimasi, yurak, buyrak va boshqa organlar ko'chirib o'tkaziladi. Qon quyish-transplantatsiyaning alohida turidir. Ko'chirib o'tkaziladigan to'qima yoki organ kimdan olinganiga qarab quyidagicha farqlanadi. autotransplantant-bemorning o'zidan, allotransplantat-odamdan odamga, ksenotransplantat-boshqa individdan. Hozir buyrak transplantatsiyasi juda keng yo'liga qshyilgan. Boshqa organlar, yurak, jigar, endokrin bezlar, o'pka va boshqa organlarni ko'chirib o'tkazish maxsus klinikalarda bajariladi. Transplantalogiya-deyarli chorak million og'ir kasallikkarga duchor bo'lgan insonlarga hayotlarini davom ettirish imkoniyatini berdi, lekin shuning bilan

bir qatorda bir qator axloqiy, huquqiy va ijtimoiy muammolarni ham keltirib chiqardi.Ushbu muammolarning eng muhim bugungi kunda bu allotransplantatsiya (insondan insonga organlar va to'qimalarni ko'chirib o'tishdir). Ushbu masalada muammo donorlik organlarining etishmasligidadir. Transplantalogiya- yashashga umid qolmagan, dori darmonlar foyda bermagan insonlarning so'ngi chorasi va yashash uchun so'nggi umidi bo'lib qolmoqda. Lekin ushbu muammo bugungi kunda ko'pgina jinoiy holatlarga ya'nini, inson organlarini sotish jarayonlariga olib kelmoqda. Ushbu muammolarni echimining bugungi kundagi yangi yo'llardan biri hioqlangan, insonga xayvonning organi yoki to'qimasini ko'chirib o'tish – ya'nini ksenotransplantatsiyadir. Lekin yaqin-yaqingaga u faqat nazariy jihatdan mavjud edi, chunki organlarning insondan –insonga ko'chirib o'tilganda bir qancha muammolar mavjudki, xayvondan insonga ko'chirilganda ushbu muammolar bir necha marta ko'payadi. Afsuski ushbu organlarning insonda qancha vaqt faoliyat ko'rsatishi mumkinligini hali hech kim bilmaydi. Ta'kidlash kerakki, ushbu sohada ba'zi muvaffaqiyatli tajribalar o'tkazilgan. 1963 yil K.Rimstma insonga shimponzening buyragini o'tkazgan va u 9 oy mobaynida faoliyat ko'rsatgan.

**Donorlarning himmati tufayli xar yili millionlab insonlarning hayoti saqlab qolinadi.**Ayniqa kamqonlik, oqqon,saraton kabi kasalliklarda tug'ruq paytida va turli favqulotda holatlarda quyiladigan qonning ahamiyati kattadir. Donorlik inson qalbida ezgulik, vatanparvarlik, odamiylik tuyg'ularini uyg'otadi.Donorlarning himmati tufayli xar yili millionlab insonlarning hayoti saqlab qolinadi.Ayniqa kamqonlik, oqqon,saraton kabi kasalliklarda tug'ruq paytida va turli favqulotda holatlarda quyiladigan qonning ahamiyati kattadir. Donorlik inson qalbida ezgulik, vatanparvarlik, odamiylik tuyg'ularini uyg'otadi.

G'arb tibbiy Bioetikasida diniy va dunyoviy qarashlarida keskin farq mavjud, chunki dunyoviy qarashlarda diniy qarashlarning ayrim jihatlari keskin tanqid qilinadi. Islom falsafasida esa tibbiy amaliy etika alohida yo'nalish sifatida shakllanmagan, ammo axloqiy qarashlarning tibbiyotdagi ahamiyati, ilmiy izlanishlarda va amaliyotda uning ijobiy tomonlari tahlil etiladi. Musulmon Sharqi mutasakkirlari insonning ruhiyati, qalbi va axloqiy –ma'naviy tomonlarini tibbiyotdagi ahamiyatini alohida ta'kidlaganlar va axloqiylikni tibbiyot ilmining bir bo'lagi sifatida qaraganlar. Al-G'azzoli tabiblarni insonning tanasini va ruhiyatini davolovchi ikki guruhga ajratadi. Ikkinci toifadagi tabiblar insonning yuragini davoleydi, yurak bu erda nafaqat inson organi shuning bilan bir qatorda insonning o'zligini anglashi va vijdoni deb ham tushuniladi. Al-Roziy esa "tibbiyot" termini inson organizmini davolash va profilaktikasini anglanishini ta'kidlaydi, "tibbi ruhoni" atamasi esa insonning ma'naviyati, axloqi va xulqini takomillashtiruvchi tushuncha sifatida tahlil qilinadi.

Hozirgi zamon amaliy etikasining muhim yo'nalishlaridan biri - inson hayotining eng oliv axloqiy qadriyat sifatida qaraydi. Shu bilan birga, inson hayotini saqlab qolish muammosini yaxshilik va yomonlikni farqlashning muhim mezonii, deb hisoblaydi. Hozirgi zomon fanida Bioetika etika tirik mavjudotlar, shu bilan birga, insonga ham bo'lgan munosabatlarning axloqiy reguliyativi, deb qaraladi. Insonning tabiat bilan uzlusiz aloqasini ma'naviy tahlil asosida, tabiatni muhofaza etishda axloqiy javobgarlik Bioetika etikaning madaniy negizini tashkil etadi. Bioetika, sotsial masalalar bilan birgalikda, qadriyatlar muammosini ham qamrab oladi. Bioetika maqsadlaridan biri - shaxsni turli holatlarga solish imkoniyatlarini yaratuvchi, inson xatti-xarakati, ruhiyatini o'zgartirish mumkin bo'lgan, uning ustidan o'tkazilayotgan xilma-xil tadqiqotlarni cheklash mezonlarini ishlab chiqadi. Bioetika muammolarini ishlab chiqishda faylasuflar, huquqshunoslar sotsiologlar, tibbiyot xodimlari va sotsial axloqshunoslar qatnashmoqda. Bioetik muammoning dolzarblashuvi, ilmiy texnik taraqqiyot, biotexnologiya, irsiyat texnologiyasini rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, tabiiy muhitni maqsadga muvofiq va tez o'zgartirishda, insonga katta quvvat berdi. Tabiiy evolyutsion jarayonlari uchun ilgari millionlab yillar kerak bo'lsa, endi inson bu jarayonlarni qisqa vaqt ichida amalga oshirishi mumkin bo'ldi. Irsiyat texnologiyasi va biotexnologiya inson taqdiriga bevosita aralashib, irsiyatni dasturlashtirish, turli tirik organizmlar, irsiyat asosida yangi organizmlar, biologik robotlar yaratish masalalarini ko'tarib chiqdi. Natijada, insoniyatning rivojlanishi, fiziologik jihatdan qayta o'qish imkoniyatlarini, diniy tahlil etish muammolarini keltirib chiqardi. Irsiyatga qanday ma'naviy mezonlarga ko'ra, qaysi ideallarga, qaysi qadriyatlarga asoslanib, aralashish muammolari Bioetika etikaning tadqiqot ob'ekti bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur hodisa so'nggi bir necha o'n yillik ichida sof tabobat muammosidan axloqiy muammoga aylandi: endilikda, birovning muayyan a'zosini boshqa bemorga jarrohlik operatsiyasi yo'li bilan o'tkazish orqali kishi hayotini saqlab qolish axloqiy nuqtai nazardan qanday baholanadi, degan savol kun tartibida dolzarb bo'lib turibdi.

Biologik axloq deganda, odatda, bizda ham, jahon axloqshunosligida ham asosan tibbiy axloq, tabobat muammolariga doir axloqiy yondashuvlar tushuniladi, xolos. Bu unchalik to'g'ri emas. Bizningcha, biologik axloq muammolari ikki yo'nalishdan iborat: biri - insonlarning kichik biologik olam sifatidagi katta biologik olamga bo'lgan munosabatlari bilan bog'liq «tashqi», ikkinchisi - insonlarning «o'z-o'ziga va o'zaro munosabatlardagi tibbiyot bilan bog'liq ichki» axloqiy masalalar.

Biz odatda «ekologik etika» deganimizda aynan birinchi hodisani nazarda tutamiz. Ikki biologik olamning munosabatlarini, ya'ni ekologik axloqiy muammolarni biologik axloq doirasida o'rghanish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi paytda ekologik axloqning insoniyat uchun nafodar muhimligini hamma biladi, lekin o‘z bilganidan qolmaydi – muominomning murod holdigi shunda Biz yuqorida noosfera, tafakkur borasidagi murohazolarimizda ekologik buhroilarning ba’zi ko‘tinishlariiga to’xtalib o’tidik. Biror yana undan tushish so‘nggi paytlarda jahon bo‘ylab sintetik jismlar ishlabi olinqorishning keng yo‘lga qo‘yilganligi, hayvonot va ayniqsa o‘simgiliklarning gabrid o‘sulida yangi turflarining vujudga keltirilishi singari hadislar ham ekologik insoniyatga ega. Xo’sh, ular tabiat bilan silingishib, uyg‘unlashib keti oladimi, tabiat ularni o‘ziniki qila bilishini? Bunga hozir javob topish qiyin, ettimol kashfiyotlarimizning ojibatlari, yinegida aytib o’tganimiz - muayyan tafakkur bilan inson ornesidagi amasofaning uzoqishibbos borishi natijasida ayon bo‘lar?...

Abort. Amaliy etikaning anchadan buyon ko‘pelhilikkha ma’lum *muammosi*, bu – abort. Ma’lumki, to’rtinchı haftaning oxirida homilada dastlabki yurak urishi paydo bo‘ladi. Sakkizinchı haftaning oxirida esa miya tanasining elektrofiziologik faolligini kuzatish mumkin. Demak, har qanday abort, xalq ta’biri bilan *aytganda*, jonlini jonsiz qilish, tirik organizmni tiriklikka bo‘lgan huquqdan mahrum *etishdir*. Xo’sh, abortni axloqsizlik tarzida baholash kerakmi yo yo‘qmi? Yoki AQSh olimlari tomonidan «inson zotini yaxshilashga» qaratilgan tadqiqotlarni olib ko‘raylik. Ularda «yaxshilangan» - sog‘lom, kuchli intellekt egasi bo‘lgan odamlar hujayrasini ayol organizmidagi endi rivojlanishga kirishgan nisbatan «oddiy odam» hujayrasini o‘rniga ko‘chirib o’tkazish tajribalarini olib borish mo‘ljallangan. Ular amalda tatbiq etilsa, asta-sekinlik bilan insoniyat irlisi jamg‘armasining (genofondining) bir yoqlama o‘zgarishiga olib kelishi shubhasiz.

Homila tushirish (abort) – vrachlar, siyosatchilar, yuristlar, faylasuflar va olimlarning bunday muhim qarorlar qabul qilish mas’uliyati munosabati bilan ko‘riladigan masala. Shuni qayd etib o‘tish kerakki, ayol barcha asrlarda ham o‘z farzandlarini o‘ldirgan. Bunday farzandkushlik qadimgi jamiyatga (ayniqsa matriarxat davriga) ko‘proq xos bo‘lgan. Buning asosiy sababi – ayol o‘zi tug‘ishi mumkin bo‘lgan barcha bolalarni boqib katta qilishga jismonan qodir bo‘lmagan. Qadimda yangi tug‘ilgan chaqaloqlarga ancha shafqatsiz munosabatda bo‘lingan, natijada faqat kuchlilar yashab qolgan.

Rumo papasi buni inson zotiga, insoniy tabiatga aralashuv, uni zo‘rlik yo‘li bilan o‘zgartirish, nafaqt katta gunoh, balki o‘ta axloqsizlik deb atadi. Xo’sh, bunday tajribalarni qanday baholash kerak? Bu savollarga ham Amaliy etika javob topmog‘i lozim.

O‘lim jazosi. O‘lim, ma’lumki, axloqiy nuqtai nazardan eng ulkan yovuzlik hisoblanadi. Ayniqsa majburiy o‘lim. Shunga ko‘ra, o‘lim jazosining huquqiy jihatdan qo‘llanilishi mohiyatan jamiyat tomonidan yovuzlikka qarshi yovuzlik bilan javob berishdir.

Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom islam dinining uch asosi borligini aytib, ularning birinchisi odam o'ldirmaslik ekanini ta'kidlaydilar. Buni imom G'azzoliy «Mukoshafaat ul – qulub»da shunday keltiradi:

«Termiziyy va boshqa hadischilar rivoyat qiladilar:

Rasulluloh buyurdilarki:

... Islomning uch dasturi bor. Dinning tamoyili shular ustiga qurilgan. Kim shu asoslardan tashqari chiqsa, bu bilan u kofirlikka qarab ketgan bo'ladi:

1 – Qonni (odam o'ldirishni) halol hisoblasa;

2 – Ollohdan boshqa iloh yo'qligiga guvohlik (shahodat) bermasa;

3 – Farz bo'lgan namozni va ro'zani inkor etsa».<sup>1</sup>

Demak inson hayoti eng oliy qadriyat ekani diniy nuqtai nazardan ham nafaqat tan olinadi, balki birinchi o'ringa qo'yildi.

O'lim jazosini kimlar qanchalik oqlashga harakat qilmasin, u - jinoyatchini jazolashdan ko'ra, undan o'ch olishga qaratilgan, qadim-qadimlardan kelayotgan xun olish tamoyilining «demokratlashgan», yangilangan shakli sifatida namoyon bo'ladi. Aslida esa insonning muayyan jinoyatni sodir etgan hatti-xarakatlari qoralanishi kerak, uning o'zi emas, u qilgan yovuzlik o'limga mahkum etilishi lozim - odamni emas, yovuzlikni o'ldirish oqilona ish emasmi?! Yovuzlikni o'ldirish, yovuzlik sodir etgan kishining uzzoq muddatlari yoki bir umrlik qamoqdagi vijdon azobi va tazarrusi bilan amalga oshirilgani durustmasmi?!

Bu masalaning bir tomoni. Ikkinchi tomoni shundaki, nodemokratik tuzumlarda belgilangan o'lim jazosi kamdan-kam hollarda adolatli hukm bo'lib chiqadi. Chunonchi, Lenin, Stalin, Hitler, Pol Potlar hukmronligida millionlab odamlarning qatl etilishi yoki shu yaqin-yaqinlarda, sho'rolar tuzumi davrida O'zbekistonda o'tkazilgan «Paxta ishi» deb nomlangan qatag'on paytida otishga hukm qilinganlarning taqdiri bunga yaqqol misol bo'la oladi. Ana shu davrlarda o'limga hukm qilinganlarning juda ko'pchiligi ke-yinchalik oqlandi, ular gunohsiz deb topildi. Lekin hukm ijro qilib bo'lingan: nohaq jazolangan - qatl etilgan insonlar adolat tantanasini ko'rolmaydilar.

Uchinchidan, hatto demokratik jamiyatlarda sudlarning hamma vaqt ham yuz foiz to'g'ri va adolatli hukm chiqarishiga kim kafolat beradi - hakamlar ham inson, hamma qatori xato qilishi mumkin. Jamiyatning keyingi pushaymonidan qatl etilgan odamga nima foyda?

Bu misollarning hammasida o'lim - tor huquqiy jazo doirasidan chiqib ketadi hamda tarixda aldangan, adashgan insoniyatning, jamiyatning va shaxsnинг axloqsizligi sifatida baholanadi. Shu jihatdan qaraganda, hozirgi paytdagi ko'pgina demokratik mamlakatlarda o'lim jazosining bekor qilinishini o'sha jamiyatlar

<sup>1</sup> G'azzoliy Mukoshafaat ul-qulub. Toshkent. 253-b

axloqiy darajasi bilan bog'liq ijobjiy hodisa deyish mumkin. Bizning mamlakatimizda ham bu borada dadil qadamlar qo'yilganligi - avval yosh nuqtai nazaridan o'lim jazosini qo'llashning chegaralanganligi (60 yoshgacha), keyinroq esa uni butunlay bekor qilishga qaratilgan insonparvarlik harakatlari quvonarli voqeа. Bu nafaqat bizga, balki Er yuzidagi barcha mamlakatlarga taalluqli muhim, umumjahoniy muammo. Amaliy etika oldida ana shunday, tobora globallasshib borayotgan axloqiy muammolarni hal etishda etakchilik qilish vazifasi turibdi. Zero mazkur global muammolarni bugungi kunda Amaliy etikaning ahamiyatini belgilab beruvchi barometrlar, deyishimiz mumkin.

Mamlakatimizning chinakam mustaqillikka erishishdan iborat o'z yo'li respublikani rivojlantirishning bir qator o'ziga xos xususiyatlari va shart-sharoitlarini har tomonlama hisobga olishga asoslanishini ta'kidlab Islom Karimov «Avvalo, u aholining milliy-tarixiy turmush va tafakkur tarzidan, xalq an'nalarini va urf-odatlaridan kelib chiqadi», -degan fikrni aytgan edi<sup>1</sup>. Darhaqiqat, chuqur ildizi o'tmishtagi an'anaviy jamoa turmush tarziga borib taqaladigan jamoaviylik asoslari O'zbekiston xalqiga tarixan xosdir. Bu borada xalqimizdagи mehmondo'stlik, sahovatpeshalik, millatidan qatiy nazar odamlarga hayrixohlik, mehr-muravvatlilik, o'zgalar kulfatiga hamdard bo'lish, o'zaro yordam tuyg'usi, kishilar o'rtasidagi madaniy-axloqiy munosabatlarning asosiy me'yorlaridan hisoblanadi. Respublikamizda amalga oshiralayotgan isloxitlarning asosida ham, shuningdek, odamlarning turmush tarzida, kundalik hayotida, ruxiyatida hamda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini shakllantirishda anshunday ma'naviy omillar sezilarli ta'sirga ega. Zero, mamlakatimizda boshlanadigan har bir yil insonni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan nom bilan atalayotganligi "Inson islohot uchun emas, isloxit inson uchun" tamoyiliing amaldagi ifodasi bo'lab bormoqda.

Jamiyatimizdagи hozirgi yangilanish jarayonida axloqshunoslikning o'z o'rni bor. Uning oldida yangi demokratik va huquqiy davlat barpo etishga kirishgan mamlakatimiz fuqarolarining, ayniqsa, yoshlarning axloqiy darajasiga mas'ullik va har tomonlama kamol topgan zamon kishisi tarbiyasini nazariy asoslashdek ulkan vazifalar turibdi. Ularni faqat qadimiylar va har doim zamonaviy bo'lib kelgan axloqqa yangicha yondashuvlar asosidagina amalga oshirsa bo'ladi.

Yangicha yondashuvlardan biri-axloqshunoslikda milliy g'oya va mustaqillik mafkurasiga e'tiborni kuchaytirish bilan bog'liq. Chunki zamonaviy komil inson an'anaviy axloqiy qadriyatlар bilan yo'g'rilgan yangicha mafkuramizni o'zida mujassam etgan, milliy g'oyani o'z ruhiy olamiga singdirgan etuk shaxs bo'lmog'i lozim. Uning qalbida axloq mafkuriyiylikni va mafkura axloqiylikni o'zida uyg'unlashtirgan ma'naviy hodisalarga aylanmog'i kerak. Chunki mafkura bir

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. O'zbekiston. 1993. 40-bet.

yoqlama, mahdud, o'ta siyosiylashtirilgan g'oyalar tizimi emas, u ham xuddi axloq kabi, axloq bilan yonma-yon turib, insonni yuksak ma'naviy parvozlarga da'vat etuvchi botiniy kuchdir.

Ma'lumki, mamlakatimiz mustaqillikka erishgani tufayli xalqimiz faqat yangi mustamlakachilik zanjiridangina ozod bo'lib qolmadı, balki ijtimoiy tuzum o'zgarishini boshdan kechirdi va kechirimoqda. Salkam bir asrlik totalitar tuzum xalqni «temir qo'lqoplar» yordamida ushlab turdi: «yuqori»ning gapi-gap, shaxsnинг fikri mutlaqo inobatg'a olinmasdi, erkinlikning har qanday ko'rinishi davlatga qarshi jinoyat sifatida baholanar, chizib qo'yilgan chiziqdan chiqish mumkin emas edi. Jamiyat siniflarga bo'lib tashlanib, uning a'zolari yagona kommunistik maskura asosida tarbiyalanardi. Nimani gapirish yoki gapirmaslik, nimani o'qish yoki o'qimaslik, nimani yozish yoki yozmaslik v.h. siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy-ma'naviy xatti-harakatlarning hammasi avvaldan belgilab qo'yilar, fuqarolardan jonli robotlar tarzida yashash talab qilinib, aks holda har qanday shaxs qamoqqa yoki ruhiy kasalxonaga tashlanar yoki fuqarolikdan mahrum qilinib, bir umr muhojirlikka, hatto o'limga mahkum etilar edi. Ana shunday «temir» siquiv va qo'rquv ostida yashagan xalqning birdan ozodlikka chiqishi, daf'atan hamma o'zini erkin his qilishi silliq kechishi mumkin emasligi, hattoki ma'lum darajada xavfli ekani tabiiy.

Shuni ta'kidlash zarurki, so'nggi yillar mobaynida kishilarning ijtimoiy ongida muayyan o'zgarishlar sodir bo'ldi. Endilikda qadriyatlarni yangicha baxolash, ularni takomillashtirish, ilg'or milliy an'alarни saqlagan xolda umuminsoniy qadriyatlarni hurmatlash tuyg'usi shakllanmoqda. Respublikamizning yangilanish va ijtimoiy taraqqiyot yo'li ijtimoiy turmushining iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma'rifiy, ma'naviy-madaniy va boshqa sohalarini qanrab oladi. Bu yo'l mustaqil O'zbekiston ichki va tashqi siyosatining umumiyy strategiyasini belgilab beradi. Shu bois yangilangan jamiyatning siyosiy va davlat tuzilishi insonga uning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy turmush tarzini erkin tanlab olishini kafolatlaydi. Shu bois, mamlakatimizning ijtimoiy-ma'naviy sohalarida amalga oshirilayotgan isloxoatlarda ma'naviyat va axloqiylikni qayta tiklash, ma'naviy-madaniy merosga ijobjiy munosabatda bo'lish, xalqning milliy madaniyati va o'ziga xosligini ifoda etuvchi an'analarni rivojlantirish, uning guzalligini ro'yobga chiqarish muhim ahamiyatga ega.

Kishilarning turmush tarzi va madaniyatini, maishiy hayotini takomillashtirish, shaxsni har tomonlama kamol toptirish hamma vaqt jamiyatning muhim va asosiy maqsadi bo'lib kelgan. Axloqiy fazilatlar, ularni shakllantirishning milliy jihatlari har doim saqlanib qoladi va jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga moyil bo'ladi. Xalqimizning milliy ma'naviyati, o'ziga xos axloqiy fazilatları, turmush tarzi madaniyati bugungi kundagi jamiyat taraqqiyotining

muhim omillaridandir. Shuningdek, turmush tarzi madaniyatining milliylik xususiyatlari xalqning an'anlari va urs-odatlarida, kundalik hayoti va ma'naviy turmush sohalarida o'z aksini topadi.

### **Foydalilanladigan adabiyotlar ro'yxati**

#### **Rahbariy adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. – Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., O'zbekiston. 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. – Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T., O'zbekiston. 2017.

#### **Darsliklar va o'quv qo'llanmalar:**

16. Muhammadjonova L.A. Amaliy etika va estetika. O'quv qo'llanma – T.: "Mumtoz so'z" 2022 yil.
- 17.L.Muxammadjonova, S.Alimov,Sh.Rajabov. Notiqlik san'ati. O'quv qo'llanma – T.: "Mumtoz so'z" 2022 yil.
- 18.Агзамова Н. "Философия нравственности". Darslik T.: Universitet. O'zMU, 2022 yil.
- 19.Радугин А.А. Этика. Учебное пособие для высших учебных заведений. – М.: Tsentr, 2003. -88 b.
- 20.Назаров К. Аксиология – қадриятлар фалсафаси. –Т.: O'FMJ, 2004.
- 21.Степанянц. М.Т. Философские аспекты суфизма. –М.: Nauka, 1987. S-99
- 22.Тримингэм Д.С. Суфийские ордена в исламе. –М.: Nauka, 1989. S-546.
- 23.Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. –Toshkent: O'zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. -8 b.
- 24.O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. 12 tomlik. –Toshkent: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. T.1. -530 b.
- 25.Falsafa: qomusiy lug'at. Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov. –Toshkent: "Sharq" nashriyot –matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2004. -40 b.
- 26.М. Каххарова, Н Агзамова. Этика Учебное пособие. Ризограф имени Низами. 2018 год.
- 27.L.Muhammadjonova, F.Abidjanova. Etiket. O'quv qo'llanma. T.: Universitet. O'zMU, 2018.
- 28.Nurmatova M., Muhammadjonova L., Ma'naviyatning axloqiy asoslari.–T.: Universitet, O'zMU. 2013.
- 29.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.
- 30.Husanov B., Gulamov V. Muomala madaniyati. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2009.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

16. Al-Faqih Abu Lays as-Samarqandiy. Tanbehul-g'ofiliyn. Birinchi kitob.- Toshkent: Movarounnahr, 2003.
17. Хайдеггер М. Основные понятия метафизики (Введение). // Вопросы философии. -М., 1989. -№9. S-84
18. Nurmatova M., Muhammadjonova L., Ma'naviyatning axloqiy asoslari.-T.: Universitet, O'zMU. 2013.
19. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. - T.: Universitet, 2009.
20. Гаранина О.Д. Философия человека. -М.: 2006. S-44
21. Камю А. Бунтующий человек. -М.: 1990. S-546.
22. Гусейнов А.А., Апресян Р.Г. Этика: Учебник – М.: Гардарики, 2004. -26.
23. Асмус В.Ф. Античная философия. – М.: Высшая школа, 1976.
24. Философия: учебник для Вузов / Под ред. В.Н. Лавриненко. – М: ЮНИТИ-ДАНА, 2007.
25. Ушков А.М. Китайско-конфуцианский культурный ареал. Запад и Восток: Традиции и современность. – М., 1993.
26. Muhammadjonova L.A., Ortikova D.O., Abidjanova F.A., Masharipova G.K. Professional etika va etiket. Darslik. - T.: "Adabiyot uchqunlari" 2018.
27. Э.Умаров., Ф.Загритдинова. "Этика. Прикладная этика". -Т.: Ношир, 2012.
28. Choriev A. Inson falsafasi. –Toshkent.: O'FMJ, 2006 S-181
29. Женкис Ч.А Язык архитектуры постмодернизма. - М.: Стройиздат, 1985
30. Лоренц К. Восемь смертных грехов цивилизованного человечества. Журнал. «Вопросы философии» № 3, 1992. с. 42.

### AXLOQ PSIXOLOGIYASI. RUHIY TAHLIL YO'NALISHI VA G'AYRIZO RAVONLIK.

#### **REJA:**

1. Axloq psixologiyasining mavzusi va tushunchasi.
  2. Axloqiy munosabatlarning inson xarakteriga ta'siri.
  3. Axloqni ichki psixologik jarayon ekanligi
- Axloq psixologiyasi – shaxs ichki ruhiy dunyosining tashqi amaliy xattisharakatlarida namoyon bo'lishi. Axloq psixologiyasi ikki faktor asosida shakllanadi:
- Ta'llim; Tarbiya. Har bir inson o'ziga yarasha katta orzular bilan yashaydi. Ushbu orzular kimningdir faqat xayolida aylanib yuraversa, boshqa birov o'z orzularini amalgalashishga qadam-baqadam harakatda bo'ladi.
- Aniq natijaga faqat mana shu o'z orzulariga qadam-baqadam harakatda bo'lgan kishi erishadi.

Insonlarga bo'lgan muhabbatning yo'qolishi har bir shaxs uchun eng og'ir va eng qimmatbaho yo'qotishdir.

Jamoada yaxshi kayfiyat, ish unumdorligining yuqori bo'lishi uchun rahbarning bekamu ko'st bo'lishi uning tashqi qiyofasi, iliq istarasi, muomala madaniyati va boshqa shunga o'xshash yuzlab omillar albatta katta rol o'ynaydi.

Ushbu omillarning eng asosiylaridan biri rahbarning o'z-o'zini har qanday holatda to'g'ri boshqara olishi, axloq va odob normalaridan chetga chiqmaslidir.

Chunki bir marotaba biron hodimni boshqalar oldida haqorat qilgan rahbar boshqalarning nazarida u shunday harakatni takrorlashga qodir, degan fikrda qolaveradi.

Bu o'rinda axloq normalarining tabiat qonunlari bilan mutanosibligi o'ta yashovchan bo'lib ayni shu holatni ko'zda tutgan mashhur psixologlardan biri G. Sele axloqiy normalar insonning manfaatini ko'zlashi, uning sog'lik va imkoniyatlariga ijobjiy ta'sir qiluvchi bo'lmog'i kerak, degan edi.

Axloq normalari doimo shaxsning ongi, dunyoqarashi, tarbiyasi, ma'lumoti va boshqa shunga o'xshash shaxsiy ko'rsatkichlari bilan bog'liq bo'lib uning hayotidagi ijtimoiy o'rniغا katta ta'sir ko'rsatadi.

Shaxs qanchalik ma'nnaviy yuksak pog'onada bo'lsa, jamiyatning axloqiy normalaridan shunchalik keng foydalanadi va o'z hayot faoliyatida ko'llagan axloqiy normalar na tabiatga, na jamiyat va jamiyat a'zolariga salbiy ta'sir keltirmaydi.

G. Sele tili bilan aytganda, biologik zarar keltirib boshqa shaxsni stress holatga solmaydi, unga ma'nnaviy va moddiy zarar keltirmaydi.

Agar Evropa olimlarining fikrini oladigan bo'lsak, ulardan I. Kant aynan axloq normalari inson o'z ustidan g'alaba qilish bosqichi, deb aytgan edi.

Qadim yunon faylasuflaridan Aristotel axloq normalarigina kishiga nima qilish mumkin, nima qilish mumkin emasligini ko'rsatadi, deb aytgan edi (Aristotel «Etika» asari).

Har bir rahbar o'z ish faoliyatida nima qilishini va qanday qilishini axloq va odob normalari doirasida olib borar ekan, u albatta, o'z qo'l ostidagi hodimga salbiy ta'sir qilmaydi, G. Sele tili bilan aytganda biologik zarar keltirmaydi. Aristotel tili bilan aytadigan bo'lsak, u ilgaridan nima qilishini biladi.

Jamiyatda qabul qilingan axloqiy normalarni bajarish, ularni o'z shaxsiy xulqida his qilish o'z o'rniда shaxs ruhidagi ma'lum normativ xulq vujudga kelishiga olib keladi. Ayni mana shu axloqiy norma shaxsning ichki ma'nnaviy dunyosini tashkil qiladi.

Shaxs qanchalik ma'nnaviy jihatdan boy ma'lumotga ega bo'lsa, ularga rioya qilsa, uning shunchalik ma'nnaviy dunyosi, umumiyligi dunyoqarashi keng va kamrovli bo'ladi.

Bu o'rinda ma'naviy dunyosi boy, axloqiy normalar pog'onasi yuqori shaxs jamiyatning ideali ravishda boshqalar unga intilishi, taqlid qilishi arzigulik shaxs bo'lib boraveradi.

Bunday shaxslar bilan boshqalarning muomalasi, muloqoti engil kechib, boshqalar ularga intiladi, ular bilan tanishligidan, birga ishlashidan va umuman undaylar bilan aloqadorligidan odamlar mag'rurlanib yurishadi.

Jamoah rahbariyati tomonidan jamoaning ruhiy, axloqiy, ijtimoiy, tashkiliy, intizomiy va boshqa jamoani jipslashtiruvchi omillarga qaratilgan har qanday faoliyag alohida ahamiyatga egadir.

Jamoah ichki tizimlarining har qanday buginidagi ijobiy o'zgarishlar jamoaning ishlab chiqarish, ma'naviy yuksalish faoliyati sari kuyilgan yangi kadam bo'ladi.

Shuning uchun ham jahon mamlakatlarida faoliyat ko'rsatayotgan firma, kontsern va boshqa ishlab chiqarish korxonalarida ijtimoiy-ruhiy muhitni yaxshilashga alohida e'tibor beriladi.

Mehnat jamoasidagi sog'lom ruhiy muhitning tarkibiy qismlarini aytib o'tadigan bo'lsak, ular asosan umumjahon, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarga mos kelishi va jamoadagi har bir shaxsnинг ushbu kadriyatlarni qadri bilan belgilanadi.

Axloq psixologiyasi –shaxs ichki ruhiy dunyosining amaliy xatti-xarakatlarida namoyon bo'lishi. Axloq psixologiyasi ikki faktor asosida shakillanadi. Qadimdayoq axloqshunoslikning ruhshunoslik (psixologiya) bilan aloqasi alohida ahamiyatga ega bo'lган. Zotan, bu ikkala fan kishilar xatti-harakati, fe'l-atvori va mayl-istiklalrini o'rganadi. Lekin bu o'rganish ikki xil nuqtai nazardan olib boriladi: ruhshunoslik u yoki bu xatti-harakat, fe'l-atvor, sababiy asos (motiv)larning ruhiy tabiatini va shakllanish shart-sharoitlarini ochib beradi, axloqshunoslik esa ruhshunoslik tadqiq etgan hodisalarining axloqiy ahamiyatini tushuntiradi. Ruhshunoslik hissiyotlar sifatida o'rganadigan insondagi ko'pgina ma'naviy hodisalar axloqshunoslik tomonidan falsafiy-axloqiy tushunchalar tarzida tadqiq etiladi.

Insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlariga nazar tashlar ekanmiz, axloqning jamiyat hayoti va taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyatini ko'rmaslikning aslo iloji yo'q. Axloq inson ortirgan, egallagan bilimlari, malakalari, ko'nikmalari va shular asosida yuz beradigan insonning ruhiy – psixologik kechinmalari bilan bog'liq holda, uning uchun qadrlar bo'lган meroslarga va qadriyatlarga aylanib, inson va insoniyat hayoti, ehtiyojlarini qondirish uchun asos bo'lib boravergan. Insoniyat tomonidan yaratilgan va amaliy hayot davomida ko'plab sinalib, jamiyat taraqqiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatib kelayotgan ma'naviyat bu inson ruhiyati, psixologik kechinmalari, ya'nichki ruhiy holatlari bilan chambarchas bog'liq jarayondir.

Axloqni ichki psixologik jarayon ekanligini etnopsixologiyaning asoschilaridan bo'lgan M. Latsarus va G. Shteyntallar :Bir butun bo'lib yashayotgan va bir – biriga ma'lumot berib hayot kechirayotgan ko'pchilik insoniyatning ma'naviy qonuniyatlarini ochishni etnopsixologiyaning vazifasi deb bilishgan. Millatning, xalqning ma'naviyati va unga xos bo'lgan ruhiyat alohida individlarda yashasa – da, uning paydo bo'lishi, gullab yashnashi va tanazzulga uchrash qonuniyatlarini psixologik jihatlarini o'rganish bu etnopsixologiya, ijtimoiy psixologiya tarmoqlarining vazifasidir.

Shuni ta'kidlash kerakki ma'naviyatning jamiyat, millat, xalq va inson hayotidagi ahamiyati va zaruriy ehtiyoj ekanligi qadimdan ma'lum bo'lib, unga dunyoning buyuuk mutafakkirlari ham o'z diqqatlarini qaratganlar.Deylik rus mutafakkirlaridan biri bo'lgan V. I. Dal o'zining "Tolkovo'y slovar" ida ma'naviyat tushunchasini – bir jon va ruhdan paydo bo'lgan, avlodsiz, moddiy bo'lgagan , insonning aql va irodasining mahsuli bo'lgan, uning ruhiga, tegishli hamma aqliy va ahloqiy quvvatlardir, deb tariflagan. Bu erda ma'naviyat ruhiy – psixologik holat sifatida inson va jamiyat hayoti uchun, jamiyatning kelajagi uchun zarur bo'lgan muhim xodisa, aqliy, ahloqiy munosabatlar bilan bog'liq psixologik kechinmalar va xudo tamonidan berilgan in'om sifatida tushuniladi.

Axloqni aynan insonning ichki kechinmalari, ruhiy ozuqasi sifatida ko'riliishi, ma'naviyat inson ruhiyati bilan bog'liq ijtimoiy xodisa ekanligidan dalolat beradi. Agarda Ma'naviyatni insonning ichki ruhiy kechinmasi sifatida olsak, u holda ruhiy tushunchasi, bu kishining ruhiga, psixik kayfiyatiga, ichki kechinmalariga oid xodisa ekanligini bunda insonning ruhiy xolati, ruhiy ko'tarinkiligi, ruhiy ezilishi, bir so'z bilan aytalganda xissiy – emotsiyonal psixologik kechinmalari bilan bog'liq xodisa ekanligi anglanadi. Axloq aynan inson ruhiy o'sishning ozuqasi sifatida ko'zga tashlanadi. Haqiqatda ham ma'naviy boy insonning ruhiyati bilan ma'naviy qashshoq insonning ruhiyati o'rtasida farq yaqqol ko'rindi. Ma'naviy boy insonda ruhiy kechinmalar, ya'ni millat, xalq, jamiyat manfaatlari, ehtiyojlari bilan uzviy bog'langan bo'ladi. Ma'naviy boy inson o'z millati ravnraqi uchun, boshqa qardosh millatlarning mafaatlарини xisobga olgan holda jon kuydiradi. Axloqi qashshoq inson esa har doim o'z manfaatlari yo'lida harakat qiladi. Ma'naviyati boy inson har doim jamiyat yutuqlaridan shodlanadi, ruhlanadi va o'zi ham bu yutuqlarga suyangan holda ma'naviyatga xos bo'lgan xarakatlarni bajaradi.

Ma'naviyat bu o'zida millatga, jamiyatga xos bo'lgan falsafiy, axloqiy, amaliy, nazariy ilm va bilimlarni, malaka,ko'nikmalarini, inson ahloq va odobini,insonning ahloqiy, estetik, ilmiy etukligining natijasi bo'lgan imyon, e'tiqod, vijdon, insof, ixlos, insonning shular asosida paydo bo'lgan dunyoqarashining yig'indisi va ichki ruhiy holati deb qarash mumkin. Lekin shu bilan ma'naviyatni tor ma'noda tushunb qolish mumkin emas. Balki ma'naviyat bu insonning butun faoliyatini o'zida

mujassamlashtirgan, insoniyat taraqqiyoti davomida ortirgan bilimlari, ilmlari, amaliy malakalari bilan bog'liq bo'lgan va inson ruhiyatiga kuch – qudrat berib turadigan murakkab jarayondir.

Axloq masalalarini o'rgangan etnopsixologiyaning asoschilaridan bo'lgan V.Vundt tilni, afsonalarni va an'analarini o'rganish bu xalqning ma'naviyatini, ruhiyatini o'rganishning o'zi ekanligini ta'kidlagan. Axloqni o'rganish xalqning aniq tarixiy sharoitdagи psixologiyasini, ruhiy emotsiyonal kechinmalarini o'rganish ekanligini rus psixolog T.G. Stefanenko ham o'z asarlarida ko'rsatib o'tadi. Xaqqatda ham millat, xalq ma'naviyatida unga tegishli bo'lgan ehtiyojlarni, manfaatlarni qondirish xissi, o'z an'analaridan, urf – odatlardan shodlanish, qoniqish, ruhan ko'tarinkilik va kelajakka ishonch kabi xissiy kechinmalar o'tadi. Bu ma'naviyatga xos bo'lgan jarayonlar insonni va jamiyatni kelajakka bo'lgan ishonchini ortiradi, uning ruhan o'ziga va atrofidagi insonlarga bo'lgan munosabatida ma'naviyatga xos munosabatlar bo'lishiga umid yaratadi. Bu esa unga xar doim kuch va qudrat berib turadi. Insonni o'z ichki ruhiyatiga suyanishga va undan ma'naviy qudrat olshga imkon yaratadi.

Millat va xalqning axloqini muhim bo'lagi bu uning ona tilidir. Ona tili o'zida millatga tegishli bo'lgan barcha ma'naviy boyliklarni jamlaydi. Unda xalqning ruhiyati, madaniyati, ma'naviyati o'z aksini topadi. Bu haqida Birinchi Prezidentimiz shunday deb yozadi: "Ma'lumki, o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy – ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir".<sup>1</sup> Haqiqatda ona tilining taraqqiyoti bu millatning ijtimoiy psixologik jarayoni bo'lgan o'zligini anglashi, milliy ongning va tafakkurning ifodasidir.

Ma'naviyatni inson ruhiyati, jamiyat ijtimoiy psixologik jarayonlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ma'naviyat insonni yangi kechinmalar, his – tuyg'ular bilan boyitadi. Ma'naviy boy inson ruhiyatidagi kechinmalarini hech narsa bilan taqqoslab bo'lmaydi. Vatanga bo'lgan muhabbat, millatparvarlik tuyg'ulari, oila ma'naviyati, mahalla va ma'naviy tarbiya, urf - odat, an'analariga va qadriyatlarga bo'lgan munosabat, yoshlarga berilib kelayotgan ta'lim – tarbiya, jamiyatda yuz beruvchi ijtimoiy munosabatlar va shu kabi ma'naviyatga xos masalalar Birinchi Prezident I.A. Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida o'z ifodasini topgan. Bu asr o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashda muhim xujjat bo'lib xizmat qiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, ma'naviyat bu insonga kuch va qudrat

<sup>1</sup> I.A Karimov " Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch" T. 2008 y. 83-bet

bag'ishlab turuvchi, uning ruhiyatini boyituvchi ijtimioiy jarayon. Inson bu ma'naviyatga har doim zaruriyatni o'zida sezib turadi.

Mehr ma'naviy-axloqiy, falsasif hamda psixologik tushuncha sifatida keng ma'noga ega. Mehr so'zi o'zbek tilining izohli lug'atida (arabchadan olingen bo'lib sevgi, muhabbat; moyillik) insonning o'z tug'ishganlariga, yaqin kishilariga va umuman, odamga, narsaga bo'Igan samimiyl muhabbat; yaxshi ko'rish tuyg'usi; shafqat, rahmdillik; iltifotlilik tarzida ta'riflangan. Uni psixologik kategoriyadan biri deb hisoblash mumkin. Psixologiyada mehr tushunchasi sevgi, muhabbat, g'amxo'rlik, e'tibor, empatiya-simpatiya ko'rinishlarida uchraydi. Ushbu so'zlar insonlarning kundalik turmushida foydalanadigan mehr tushunchasiga ma'nodosh.

Mehr shaxsning kamolotini belgilovchi omillardan biridir. O'z navbatida mehr shaxsning "psixologik imkoniyat"ni yuzaga chiqarishda turtki beruvchi vazifani bajaradi. Psixologik imkoniyat vazifasiga ko'ra insonning hayotga bo'Igan qiziqishi, intilishi, hayotga va atrof-olamga nisbatan ijobjiy munosabatda bo'lish xohishini jondantirib turadi. Psixologik imkoniyatlar shaxsning o'zini-o'zi boshqarishida faollashtiruvchi, favqulodda holatlarda to'siqlarni engib o'tishida, qiyinchiliklarda dalda beruvchi va quvvatlovchi kuchdir. Shuningdek, insonda o'ziga ishonch va dadillikni tiklovchi hamda uning muntazamligini ta'minlovchi omillar ham psixologik imkoniyatlardir.

Bugungi globallashuv, shiddatli taraqqiyot, axborotlashuv sharoitida tarbiya va axloq masalalari Abdulla Avloniy aytganidek "yo hayot, yo mamot, yo najod yoki sharofatl o'lim" darajasidagi muhim masalaga aylanib bormoqda. Buni "ommaviy madaniyat" ning salbiy ta'siri natijasida yoshlardagi og'ish holatlarining namoyon bo'lishi (Evropa va Amerikadagi bir jinsli nikoh, yoshlarning zargarli odatlarga berilish holatlari, insoniylik normalarining o'rnini hayvoniylik, shaxvoniylilik egallashi...) va o'zligini anglamaganlik oqibatida "siyosiy o'yinlar qurbaniga" aylanib qolish (Arabiston yarim oroli va Misrdagi "Arab bahori" nomi bilan atalgan tartibsizliklar) holatlarini misol sifatida keltirib o'tish mumkin. Ushbu vaziyatda yoshlar asosiy nishonligi achinarlidir. Agar yoshlarda ma'naviy bo'shilq bo'lmasa hamda ularning psixologik imkoniyatlaridan foydalanish ko'nikmalari shakllantirilsa xulq-atvorida og'ishlar yo'qoladi, ma'naviy barkamollik, psixologik sog'lomlik va immunitet shakllanadi. Bu esa o'ziga xos xavfsizlik va himoyalanishni ta'minlashni mustahkamlaydi. Faylasuf va psixolog Erix From "Inson qalbi" nomli asarida mazkur muammo yuzasidan o'zining bir qator fikrlarini bildirgan. Uning talqinicha, insonning hayotni sevishi, ezbilikka moyilligi, psixologik sog'lomligi, o'zining xaqiqiy qiziqishlari va intilishlariga tayanib ish tutishini "biofiliya" deb atagan. "Biofiliya" insonning bolalik davrida ko'rsatiladigan mehr-muhabbatga bog'liq shakllanar ekan. Bunda uni o'rab turgan muhitning iliq munosabatlarga asoslanganligi, tahdidlarning yo'qligi, ichki

hotirjamlik va uyg'unlikka olib boruvchi tamoyillar asosidagi tarbiya, insonlar bilan jonli muloqot kabi sabablar muhim ahamiyat kasb etadi. "Biofiliya" tushunchasiga qarama qarshi bo'lgan tushuncha ham mayjud bo'lib, u "nekrofiliya" deb ataladi hamda o'limni sevish, yovuzlik, qonxo'rlikka nisbatan moyillikni anglatadi. Uning shakllanishi esa, insonning qo'rquv tahdidi, tashabbus etishmasligi, zerikarlilik va qoloqlik ustiga qurilgan hayot tarzi hamda ratsionallik o'rniga mexanik yashash tarzining o'tnatilganligi va bu insonlar o'rtasidagi munosabatlarda bevosita namoyon bo'lishi haqida ta'kidlab o'tgan. Bunda natijasida u o'zi bilan nartissizm (egoizmnинг yuqori ko'rinishi), sadizm (o'ta shavqatsizlik) va umumiy tubanlashuvga ham olib kelishi mumkin. Shuningdek, Erix Frommning ta'kidlashicha, biofiliyaga moyil insonlardan tashkil topgan ijtimoiy muhitda o'sgan bola ham biofiliyaga moyil bo'ladi. Yana u nekrofiliya ham xuddi biofiliya singari "yuqumli" ekanligini ayтиб o'tgan.

Insonning ijtimoiy mavjudot ekanligi bugungi kunda isbot talab qilmaydigan haqiqat. Shunday ekan, u tug'ilganidan boshlab hayotining ohirigacha e'tiborga, g'amxo'rlikka, qo'llab quvvatlashga, muhabbatga bir so'z bilan aytganda mehrga ehtiyoj sezadi. Shu o'rinda psixolog A.Maslouning ehtiyojlar nazariyasiga e'tibor qaratilsa, o'ttamiyona inson hayoti davomida muhabbatga (mehrga) bo'lgan ehtiyojining 50 foizini qondirishi taxmin qilinadi. Demak, bu miqdor pasaysa insonda salbiy tomonlama axloqiy, psixologik, patologik va biologik o'zgarishlar sodir bo'lish olib keladi.

Chikago universiteti tibbiyot markazi mutaxassislarining kuzatuvlari shuni ko'rsatadiki, shaxsga bolaligidan etarlicha e'tibor qaratmaslik, u bilan emotsiunal muloqotga kirishmaslik, "mehr etishmaganlik sindromi"ni paydo qiladi. Bu esa, bola ulg'aygach unda yurak-qon tomir kasalliklari va insultni shakllantiradi. Mutaxassislar tomonidan o'tkazilgan tadqiqod natijalari, yuqoridagi farazni isbotladi. Unda Yoshi 55 dan yuqori bo'lgan 1000 kishi orasida so'rov o'tkazilgan va so'rovnomada o'z ichiga "sizning ota-onangiz bolaligingizda sizga e'tiborsizlik, qattiqko'llik, rahmsizlik qilishgan?", "sizning ota-onangiz siz bilan etarlicha muloqot qilmagan?", "Sizning ota-onangiz sizga mehr ko'rsatmagan?" kabi savollarni ham qamrab olgan. So'rovdan 3,5 yil o'tgach respondentlardan 257 tasi turli kasalliklar sababli vafot etgan, ularidan 89 tasida esa falajlanish alomatlari aniqlangan. Statistika shuni ko'rsatadiki, o'sha 89 kishi orasida har to'rttadan uchtasi so'rovlarda yoshligidagi ota-onasi mehridan mosuvu bo'lishganligini e'tirof etgan insonlar bo'lib chiqqan. Tadqiqod rahbari bo'lgan doktor Robert Ulsonning fikriga ko'ra: "o'tkazilgan tadqiqod maqsadi bolalarga mehr va e'tibor etishmaslik sindromi keyinchalik ularda uchraydigan yurak qon-tomir muammolari bilan bog'liqligini isbotlashdir".

Shu o'rinda ma'naviy manba, Imom G'azzoliyning Riyozatun-nafs asaridan quyidagi fikrlarni ko'rib o'tish maqsadga muvosiq, "Qachonki bolada chiroyli xulq, maqtovga arzigulik bir fe'l sodir bo'lsa, uni hurmat bilan sharaflamoq, ko'nglini quvontiradigan narsa bilan taqdirlamoq, ko'pchilik orasida bu fe'lini izhor etmoq zarur" (Abu Homid G'azzoliy, 2006). Aksariyat psixologlar ham bolaning psixologik ehtiyojlari haqida so'z yuritganda, yuqoridagi ta'kidlanganlarga uyg'un nazariyalarni ilgari surishadi. Bolada psixologik harakterga ega, farzandlik ehtiyojlari mavjud bo'lib, ular: maqtovga bo'lgan, qo'llab-quvvatlashga, pozitiv muloqotga, e'tiborga, hamkorlikka bo'lgan ehtiyoj (o'yin yoki xo'jalik yumushilari...) va boshqalarni tinglashlariga bo'lgan ehtiyojlardir (E.D.Titov).

Xulosa o'rnda shuni aytish mumkinki, har bir ota-onasi o'z farzandini kamolotini ko'rishni istaydi va bu yo'lda harakat qiladi. Bugungi kunda ayrim insonlar "o'z farzandlarini moddiy jihatdan ta'minlab qo'yish bu – farzandiga mehr berishdir" degan "fikrni" qattiq ushlab olgan. Bunda ular bor shijoati bilan moddiy ta'minot ustida bosh qotiradi, tirisshadi yoki moddiy ta'minlab qo'yagan bo'lsa "ota-onalik vazifasi bajarildi" qabilida ish tutadi. Lekin, o'z farzandlarida axloqiy, ma'naviy jihatdan og'ish (jumladan: zararli odatlarga berilish, agressivlik, erta yosh davrlaridanoq qarama-qarshi jins vakillariga bo'lgan qiziqish, shaxvoniylik, odamovilik, depressivlik, affektivlik, yurak va qon-tomir hastaliklari kabi turli psixologik va fiziologik salbiy o'zgarishlar) holatlari yuzaga kelgandagina, buning sababini qidira boshlaydilar. Bunda muammo, qondirilmagan ehtiyoj (mehrga bo'lgan ehtiyoj) sababli yuzaga kelgan bo'ladi. Chunki, psixolog olim Zigmunt Freydning fikriga va shunday nazariyasiga binoan "qondirilmagan ehtiyojlar insonda og'ish holatini yuzaga keltiradi". Bejizga donishmand ajdodlarimiz "mehrbon bo'linglar, dunyo – mehr ustiga qurilgan, mehr guldir" demaganlar. "Mehr-e'tibor orqali nav-nihol bola, kelajakda har qanday tabiiy hodisotga chidamli, baquvvat, tekis va baland, mustahkam tomirlarga ega daraxtdek shaxs sifatida shakllanadi". Shunday ekan farzand tarbiyasida ularga o'z vaqtida mehr-e'tiborni taqdim etish joiz, zero "mehr ko'rgan – mehr ko'rsata oladi". Shuningdek, psixologlar ogohlantiradiki, "ehtiyojlarning haddan ziyod qondirilishi ko'ngilhushlik va bema'nigarchiliklarning omili bo'ladi". Demak, bu o'rinda "oltin" o'rtamiyonalikni topish zaruriyati hisoblanadi.

Ma'lumki, har bir talaffuz qilingan jumlada talaffuz qiluvchining ruhiy- aqliy olami aks etib turadi. Yani u so'zni qanday va qay tarizda qo'llay olishi bilan suhbatdoshiga o'zi mansub bo'lgan ichki olam, o'ni qonun qoidalari haqidagi xabar mazmunini ham etkazadi.

Farzandlarga qilingan yumshoq yoki qo'pol muomala o'larning ruhiy dunyosida, albatda, ijobjiy yoki salbiy taassurot qoldiradi. Ota- onalar va tarbiyachi

o'qituvchilar bolalarning fe'l- atvorini, qiziqishini, ularning ruhiy dunyosini chuqur bilgandagina tarbiya samarali bo'ladi.

Muloqot - odamlar amalga oshiradigan faoliyatlar ichida etakchi o'rinni egallab, u insondagi eng muhim ehtiyojni - jamiyatda yashash va o'zini shaxs deb hisoblash bilan bog'liq ehtiyojini qondiradi. Demak, o'zaro muloqot jarayonida bir odam ikkinchi odamiga psixologik ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir ikkala tomonidan ham anglanishi yoki anglanmasligi mumkin. Ya'ni, ba'zan biz nima uchun bir shaxsning bizga naqadar kuchli ta'sirga ega ekanligini, boshqa biri esa, aksincha, hech qanday ta'sir kuchiga ega emasligini tushunib etmaymiz. Bu esa pedagogikada muhim muammodir.

Aslida har bir insonning ijtimoiy tajribasi, uning insoniy qiyofasi, fazilatlari, hattoki, nuqsonlari ham muloqot jarayonlarining mahsulidir. Jamiyatdan ajralgan, muloqotda bo'lish imkoniyatidan mahrum bo'lган odam o'zida individ sifatlarini saqlab qolishi mumkin, lekin u shaxs bo'lolmaydi. Shuning uchun muloqotning shaxs taraqqiyotidagi ahamiyatini tasavvur qilish uchun uning funktsiyalarini tahlil qilamiz.

Har qanday muloqotning eng elementar funktsiyasi - suhbatdoshlarning o'zaro bir - birini tushunishlarini ta'minlashdir. Bu o'zbeklarda samimiy salom - alik, ochiq yuz bilan kutib olishdan boshlanadi. O'zbek xalqining eng nodir va buyuk hislatlaridan biri ham shuki, uyiga birov kirib kelsa, albatta ochiq yuz bilan kutib oladi, ko'rishadi, so'rashadi, xol - ahvol so'raydi. Shunisi xarakterlik, ta'ziyaga borgan chog'da ham ana shunday samimiyatl qabulni his qilamiz.

Uning ikkinchi muhim funktsiyasi ijtimoiy tajribaga asos solishdir. Odam bolasi faqat odamlar davrasida ijtimoiylashadi, o'ziga zarur insoniy xususiyatlarni shakllaniradi. Odam bolasining yirtqich hayvonlar tomonidan o'g'rilanib ketilishi, so'ng ma'lum muddatdan keyin yana odamlar orasida paydo bo'lishi faktlari shuni ko'rsatganki, «mauglilar» biologik mavjudot sifatida rivojlanaveradi, lekin ijtimoiylashuvda ortda qolib ketadi. Bundan tashqari, bunday xolat boladagi bilish qobiliyatlarini ham cheklashi ko'plab psixologik eksperimentlarda o'z isbotini topdi. Muloqotning yana bir muhim vazifasi - u odamni u yoki bu faoliyatga hozirlaydi, ruhlantiradi. Odamlar guruhidan uzoqlashgan, ular el nazaridan qolgan odamning qo'li ishga ham bormaydi, borsa ham jamiyatga emas, balki faqat o'zigagina manfaat keltiradigan ishlarni qilishi mumkin. Masalan, ko'plab taddiqotlarda izolyatsiya, ya'ni odamni yolg'izlatib qo'yishning uning ruhiyatiga ta'siri o'rganilgan. Masalan, uzoq vaqt termokamerada bo'lган odamda idrok, tafakkur, xotira, hissiy xolatlarning buzilishi qayd etilgan. Lekin ataylab emas, taqdир taqozosiz bilan yolg'izlikka mahkum etilgan odamlarning maqsadli faoliyatlar bilan o'zlarini band etishlari u qadar katta salbiy o'zgarishlarga olib kelmasligini ham olimlar o'rganishgan. Lekin baribir har qanday yolg'izlik va muloqotning etishmasligi

odamda muvozanatsizlik, hissiyotga beriluvchanlik, xadiksirash, xavotirlanish, o'ziga ishonchszilik, qayg'u, tashvish hislarini keltirib chiqaradi. Shunisi qiziqlik, yolg'izlikka mahkum bo'lganlar ma'lum vaqt o'tgach ovoz chiqarib, gapira boshlasharkan. Bu avval biror ko'rghan yoki his qilayotgan narsasi xususidagi gaplar bo'lsa, keyinchalik nimagadir qarab gapiraverish ehtiyoji paydo bo'lar ekan. Masalan, bir M.Sifr degan olim ilmiy maqsadlarini amalgga oshirish uchun 63 kun g'or ichida yashagan ekan. Uning keyinchalik yozishicha, bir necha kun o'tgach, u turgan erda bir o'rgimchakni ushlab oladi va u bilan dialog boshlanadi. «Biz, deb yozadi u shu hayotsiz g'or ichidagi tanho tirik mavjudotlar edik. Men o'rgimchak bilan gaplasha boshladim, uning taqdiri uchun qayg'ura boshladim...»

Shaxsning muloqotga bo'lган ehtiyojining to'la qondirilishi uning ish faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Odamlar, ularning borligi, shu muhitda o'zaro gaplashish imkoniyatining mavjudligi fakti ko'pincha odamni ishlash qobiliyatini ham oshirkagan, ayniqsa, gaplashib o'tirib qilinadigan ishlari, birligida yonma - yon turib bajarijadigan operatsiyalarda odamlar o'z oldida turgan hamkasbiga qarab ko'proq, tezroq ishlashga kuch va qo'shimcha iroda topadi. To'g'ri, bu hamkorlikda o'sha yonidagi odam unga yoqsa, ular o'tasida o'zaro simpatiya hissi bo'lsa, unda odam ishga «bayramga kelganday» keladigan bo'lib qoladi. Shuning uchun ham amerikalik sotsiolog hamda psixolog Jon Moreno asrimiz boshidayoq ana shu omilning unumdorlikka bevosita ta'sirini o'rganib, sotsiometrik texnologiyani, ya'ni so'rovnomaga asosida bir - birini yoqtirgan va bir - birini inkor qiluvchilarni aniqlagan va sotsiometriya metodikasiga asos solgan edi.

Muloqot jarayoni o'ziga xos ravishda murakkab bo'lib, bunda uch xil bosqich mavjud. Dastlabki bosqich – odamning o'z-o'zi bilan muloqotidir. T.Shibutani "Ijtimoiy psixologiya" darsligida: «Agar odam ozgina bo'lsa ham o'zini anglasa, demak, u o'z-o'ziga ko'rsatmalar bera oladi» – deb to'g'ri yozgan edi. Odamning o'z-o'zi bilan muloqoti aslida uning boshqalar bilan muloqotining harakterini va hajmini belgilaydi. Agar odam o'z-o'zi bilan muloqot qilishni odat qilib olib, doimo jamiyatdan o'zini chetga tortib, tortinib yursa, demak u boshqalar bilan suhbattashishda, til topishishda jiddiy qiyinchiliklarni boshdan kechiradi, deyish mumkin. Demak boshqalar bilan muloqot – muloqotning ikkinchi bosqichidir. A. N. Leontev o'zining "Psixika taraqqiyotidan ocherklar" kitobida muloqotning uchinchi shakli – avlodlar o'rtasidagi muloqotning ahamiyati to'g'risida shunday deb yozadi: «Agar barcha katta avlod o'lib ketganida, insoniyat turi yo'q bo'lib ketmasdi, lekin jamiyatning taraqqiyoti ancha orqaga surilibgina emas, balki yo'qolib ham ketishi mumkin edi». Haqiqatan ham, avlodlararo muloqotning borligi tufayli har bir jamiyatning o'z madaniyati, madaniy boyliklari, qadriyatlari mavjud bo'ladiki, buning ahamiyatini tushungan insoniyatning eng ilg'or vakillari uni doimo keyingi

avlodlar uchun saqlab keladilar hamda ta'lif, tarbiya va kundalik muloqot jarayonida uni avloddan-avlodga uzatadilar.

Insoniyat tarixi mobaynida qadimda ilgari surilgan g'oyalar keyinchalik mohiyatan yangilangan, o'zgargan holda yana maydonga chiqishini kuzatish mumkin. Bu hodisa axloqshunoslik sohasiga ham tegishli. XX asrda yuzaga kelgan va amaliyotda muvaffaqiyatga erishgan yovuzlikka qarshi zo'ravonlik ko'rsatmasdan kurashish - g'ayrizo'ravonlik axloqshunosligi ana shunday «yangilangan eski g'oya» lardan.

Ma'lumki, yovuzlikni yo'qotish, to'g'rirog'i, kamaytirish, zaiflashtirish barcha davrlarda ham asosiy axloqiy muammo bo'lib kelgan. Qadimgi dunyodagi va O'rta asrlardagi Sharq mutafakkirlari yovuzlikni kuchsizlashtirishning yo'li - unga qarshi yovuzlik bilan javob bermaslik, deb bilganlar. Bunday yondashuvni qadimgi hindlar va xitoylarda (yo'ga, jaynchilik, buddhachilik, daochilik), nasroniylikdagi Iso alayhissalom da'vatlarida, musulmonlikdagi tasavvuf namoyandalarida ko'rish mumkin. Lekin bu davrlarda yovuzlikka yovuzlik bilan javob bermaslikni faqat sabr-toqat, Xudoga tashlab qo'yish orqali amalga oshirish mumkin deb bilganlar. Agar hazrati Iso o'z ummatlariga «O'ng yuzingga ursa, chap yuzingni tut», degan bo'lsalar, buyuk mutasavvif va shoir, yassaviya tariqatining asoschisi Xoja Ahmad Yassaviy o'z hikmatlaridan birida shunday deb yozadilar:

*Zolim agar jafo qilsa, Alloh, degil,*

*Ilking ochib, duo aylab, bo'yun sungil!*<sup>1</sup>

Lekin avvalgi davrlardagi bu qarashlarning mohiyati chidam va bardosh bilan cheklangan bo'lsa, XIX asrning ikkinchi yarmida boshlangan hamda hozirgi paytda muvaffaqiyatli davom etayotgan yovuzlikka qarshi zo'ravonlik ko'rsatmaslik ana shu sabr-bardosh, chidam orqali bo'y sunishni emas, balki kurashishni taqozo etadi. Ana shu yangilangan, mohiyati o'zgargan axloqiy yo'nalishning ibtidosida XIX asr mutafakkiri amerikalik faylasuf-axloqshunos Henri Deyvid Toro (1817 - 1862) turadi. Bu yo'nalish doirasida keyinchalik, XX asr boshlarida Lev Tolstoy (1828 - 1910), keyinroq buyuk hind mutafakkiri va jamoat arbobi Mohandis Karamchand Gandhi (1869 - 1948), amerikalik ruhoni, faylasuf, jamoat arbobi Martin Lyuter King (1929 - 1968) singari mutafakkirlar izlanish olib bordilar. Shuningdek, AQShdagagi Albert Aynshtayn instituti direktori professor Jin Sharp, Polsha Fanlar akademiyasi Falsafa instituti professori Anjey Gjegorchik, Rossiya Fanlar akademiyasi Falsafa instituti professori Abdusalom Guseynov singari zamondosh olimlarimiz ham mazkur yo'nalishda tadqiqotlar olib bormoqdalar.

Mazkur yo'nalish asoschisi Toro o'zi yoqtirmagan amerikacha jamiyatdan bosh olib chiqib, 1845 yilning bahoridan 1847 yilning kuzigacha Uolden ko'li

<sup>1</sup> Yassavy. Devon hukmat. T., G' ulom nomidagi nashriyot – matbaa birlashmasi. 1992. 35 – b

bo'yida kulba qurib, dehqonchilik bilan shug'ullanadi. Keyinchalik shu tajriba asosida «Uolden yoki o'rmondagi hayot» asarini yozadi. Bundan tashqari u «Fuqaroviylar o'totsizlik», «Massachusettsdagi qulchilik» singari maqola va esselarida ham g'ayrizo'ravonlik axloqshunosligi g'oyalalarini ilgari suradi. Toro hayotda ham ana shu g'oyalarga amal qiladi: soliq to'lashdan bosh tortadi. Kunlardan birida shaharga tushganida, uni soliq to'lamagani uchun qamab qo'yishadi. Kimdir uning o'rniga soliq summasini to'lab yuborgandan keyingina Toroni qamoqdan chiqarishadi. U o'zining bu xatti-harakatini quyidagicha tushuntiradi: «Menda, agar shunday imkoniyatim bo'lgan taqdirda ham, dollarlarimga odam sotib olishlarini yoki odamni o'ldirish uchun miltiq sotib olishlarini kuzatib turishga ishtiyoy qo'yq».¹ Mutafakkir quldarlik hukm surayotgan Amerika Qo'shma Shtatlari hukumati bilan har qanday aloqani uzishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi va boshqalarni ham shunga chaqiradi.

Toro g'ayrizo'ravonlik inqilobi g'oyasini o'rtaga tashlaydi. Uning fikricha, agar minglab odamlar soliq to'lamasa, u zo'ravonlik ham, qonli chora ham hisoblanmaydi; aksincha, soliq to'lash davom etaversa, davlatga zo'ravonlik qilish va begunohlarning qonini to'kish uchun imkon berilgan bo'ladi. Fuqaroviylar o'totsizlikning zarur shartini faylasuf, shunday qilib, hammaning soliqdan bosh tortishida ko'radi. Keyingi bosqich, Toroning fikriga ko'ra, ish tashlash, davlat xizmatchilarining o'z xizmat vazifalarini bajarishdan bosh tortishlaridir. Ana shunda tinchlik yo'li bilan, qonsiz inqilob amalga oshadi. Lekin mazkur bosqichlardan avval har bir inson o'zini axloqiy jihatdan tayyorlash bosqichini boshdan kechirishi, ya'ni o'z ongi va qalbida shaxsiy inqilob qilishi zarur. Faqat yuksak darajadagi axloqiy tayyorgarlikkina pirovard maqsadga ko'ngildagidek etkazishi mumkin.

Biz avvalgi bobda axloqiy qarashlarini ko'rib o'tganimiz buyuk rus yozuvchisi, mutafakkir Lev Tolstoyning g'ayrizo'ravonlik masalasiga yondashuvi mazkur yo'nalihsining asl mohiyatini ochib berishga ko'maklashadi.

Gandi g'ayrizo'ravonlik g'oyasini muhabbat bilan bog'laydi va dushmaniga ham mehrni darig' tutmaslikka chorlaydi. Gandhi Xirosima va Nagasakiya atom bombasi tashlanganida, atom bombasini boshqa bomba bilan yo'qtotib bo'limgani kabi zo'ravonlikni zo'ravonlik qilib yo'qtosh mumkin emas, degan fikrni bildirib, shunday deydi: «Insoniyat zo'ravonlikdan faqat g'ayrizo'ravonlik yo'li orqali qutulishi mumkin. G'azabni faqat mehr bilan engsa bo'ladi. o'azabga g'azab bilan javob berish g'azabning yoyilishiga va kuchayishiga xizmat qiladi».²

Martin Lyuter King ham xuddi shunday g'oyani ilgari surar ekan, AQShning mashhur Prezidenti Linkoln hayotidan misol keltiradi. Nima sababdandir Linkolnni ko'rarga ko'zi yo'q Stenton degan kishi saylovoldi kampaniyasida qo'lidan kelgan

<sup>1</sup> Торо Г. Уолден или жизнь в лесу М., Наука, 1980 С. 416

<sup>2</sup> Ганди М. Моя жизнь. М., Наука, 1969 С. 568

yomonlik bilan unga qarshi kurashadi. Linkolnni har qadamda erga radi, ming xil gunohda ayb-laydi, masxaralaydi, hatto uning tashqi ko'rinishi us-tidan kuladi. Linkoln Prezident bo'lib saylangach, harbiy vazirlik lavozimiga aynan ana shu Stentonni ko'rsatadi. Atrofidagilar unga: «Janob Prezident, Siz xato qilyapsiz, u Sizning dushmaningiz, uning Siz haqingizda nimalarni gapirganini bilasizmi?!» deb qarshi turadilar. Shunda Linkoln bunday deb javob beradi: «Ha, janob Stentonni bilaman. Uning men haqimda nimalar deganini ham eshitganman. Lekin harbiy vazirlikka undan boshqa biror-bir loyiq amerikalik yo'q». Oradan bir necha yil o'tgach, Linkoln o'ldiriladi. O'shanda qabr ustida so'zlangan barcha nutqlardan Stentonning nutqi alohida ajralib turadi. U Linkolnni eng buyuk insonlardan biri deb ta'riflaydi va: «Endi u mangulikka daxlordir», deb o'z nutqini tugatadi. Agar Linkoln Stentonga g'azab bilan qaraganda, ikkisi ham o'lguncha bir-birining dushmani bo'lib qolar edi. Linkoln mehr-muhabbat vositasida dushmanni do'stga aylantirdi. U bir paytlar o'ziga savol bergen aylantirish yo'li bilan halok etmayapmanmi?!».<sup>1</sup>

G'ayrizo'ravonlik axloqshunosligiga qisqacha to'xtalib o'tishimizning o'zidayoq, biz bu yo'nalişning kelajakdag'i asosiy axloqiy ta'limotlardan biri bo'lib qolishini ilg'ashimiz mumkin. Shaxs, guruh, millat, xalqlar o'z istaklarini, mavjud mustabid tuzum va hukumatdan noroziliklarini tinch yo'l bilan bildirishlari hamda o'z maqsadlariga zo'ravoniksiz, qon to'kmasdan erishishlari mumkinligi - insoniyatning ulkan yutug'i. Chunki qonli kurashlar, inqiloblar, terror, qurolli qo'zg'olon singari hodisalar muayyan millat va mamlakat erishgan yutuqlarni yo'qqa chiqaradi, o'lim, vayronagarchilik, ma'naviy qadriyatlarning oyoqosti bo'lishi singari ulkan fojialarga olib keladi.

### Foydalanimadigan adabiyotlar ro'yxati

#### Rahbariy adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. – Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., O'zbekiston. 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. – Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T., O'zbekiston. 2017.

#### Darsliklar va o'quv qo'llanmalar:

31. Muhammadjonova L.A. Amaliy etika va estetika. O'quv qo'llanma – T.: "Mumtoz so'z" 2022 yil.
32. L.Muxammadjonova, S.Alimov, Sh.Rajabov. Notiqlik san'ati. O'quv qo'llanma – T.: "Mumtoz so'z" 2022 yil.

<sup>1</sup> King M.L. Lyubite vragov vashix. Jurnal «Voprosy filosofii», 1992, № 3. S. 69–70.

- 33.Агзамова Н. “Философия нравственности”. Darslik T.: Universitet. O'zMU, 2022 yil.
- 34.Радугин А.А. Этика. Учебное пособие для высших учебных заведений. – М.: Tsentr, 2003. -88 b.
- 35.Назаров К. Аксиология – қадриятлар фалсафаси. –Т.: O'FMJ, 2004.
- 36.Степанянц. М.Т. Философские аспекты суфизма. –М.: Nauka, 1987. S-99
- 37.Тримингэм Д.С. Суфийские ордена в исламе. –М.: Nauka, 1989. S-546.
- 38.Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. –Toshkent: O'zbekiston Faylasuflari milliy jamiyatni nashriyoti, 2010. -8 b.
- 39.O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. 12 томлик. –Toshkent: “O'zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. Т.1. -530 b.
- 40.Falsafa: qomusiy lug'at. Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov. –Toshkent: “Sharq” nashriyot –matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririysi, 2004. -40 b.
- 41.М. Каххарова, Н Агзамова. Этика Учебное пособие. Ризограф имени Низами. 2018 год.
- 42.L.Muhammadjonova, F.Abidjanova. Etiket. O'quv qo'llanma. T.: Universitet. O'zMU, 2018.
- 43.Nurmatova M., Muhammadjonova L., Ma'naviyatning axloqiy asoslari.–T.: Unversitet. O'zMU. 2013.
- 44.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.
- 45.Husanov B., Gulamov V. Muomala madaniyati. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2009.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

- 31.Al-Faqih Abu Lays as-Samarqandiy. Tanbehl-g'ofiliyn.Birinchi kitob.- Toshkent: Movarounnahr, 2003.
- 32.Хайдеггер М. Основные понятия метафизики (Введение). //Вопросы философии. –М., 1989. –№9. S-84
- 33.Nurmatova M., Muhammadjonova L., Ma'naviyatning axloqiy asoslari.–T.: Unversitet, O'zMU. 2013.
- 34.Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. – T.: Universitet, 2009.
- 35.Гаранина О.Д. Философия человека. -М.: 2006. S-44
- 36.Камю А. Бунтующий человек. -М.: 1990. S-546.
- 37.Гусейнов А.А., Апресян Р.Г. Этика: Учебник – М.: Гардарики, 2004. -26.
- 38.Асмус В.Ф. Античная философия. – М.: Высшая школа, 1976.
- 39.Философия: учебник для Вузов / Под ред. В.Н. Лавриненко. – М: ИЮНИТИ-ДАНА, 2007.

- 40.Ушков А.М. Китайско-конфуцианский культурный ареал. Запад и Восток: Традиции и современность. – М., 1993.
- 41.Muhammadjonova L.A., Ortiqova D.O., Abidjanova F.A., Masharipova G.K. Professional etika va etiket. Darslik. - T.: "Adabiyot uchqunlari" 2018.
- 42.Э.Умаров., Ф.Загритдинова. "Этика. Прикладная этика". -Т.: Ношир, 2012.
- 43.Торо Г. Уолден или жизнь в лесу. М., Наука, 1980. С. 416.
- 44.Ганди М. Моя жизнь. М., Наука, 1969. С. 568.
- 45.Лоренц К. Восемь смертных грехов цивилизованного человечества. Журнал. «Вопросы философии» № 3, 1992. с. 42.

## **DAVLAT TIZIMIDA SIYOSAT VA AXLOQ MASALALARI.**

### **SIYOSIY MAJBURIYAT VA ERKINLIK, ADOLATLI JAMIYAT MEZONLARI, INSON HUQUQLARI VA FUQAROLAR ITOATSIZLIGI**

**REJA:**

1. Siyosat va axloq masalari
2. Globallashuv jarayonida siyosiy axloq muammolari
3. Inson huquqlari va fuqarolar itoatsizligi

Siyosat axloqdan farqli o'laroq, aniq me'yorlar va qonunlar asosida shakllanadi. Unga amal qilmaslik ma'lum ma'muriy choralarining ko'rilishiga olib keladi. Siyosat ma'lum maqsadga, natijalarga erishishi uchun yo'naltiriladi. Axloq esa, harakat yoki faoliyatning ob'ektiv mohiyatini belgilaydi. Bunda natijalardan ko'ra, natijaga qaratilgan faoliyatning vositalari, maqsadlari, sabablariga e'tibor qaratiladi. Ayni paytda, axloq ko'proq individual xususiyatlarga ega bo'lsa, siyosat ommaviy xususiyatga ega. Siyosat mavjud voqeiyilik bilan bog'liq bo'lib, real holatning dalillarini maqsadga erishish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Axloq aniq vogelikka nisbatan munosabatda universal hisoblanadi.

Axloqqa nisbatan siyosat majburiylik va ma'lum huquqiy mas'uliyat kasb etadi. Axloq har bir kishining hulqini ko'rsatsa, siyosat ushbu xulqning qonuniyligini, ya'ni jamiyat manfaatlariga mosligini belgilaydi. Axloqiy yuksaklik jamiyatda siyosiy munosabatlarning sog'lomligini ta'minlash orqali davlat va jamiyat boshqaruvini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ya'ni, axloqning ma'naviy qadriyatlар orqali ijtimoiyashuvni siyosiy axloqni tashkil etadi hamda boshqaruvning umummanfaat yo'lidagi maqsadlarini tashkil etishda ma'naviy asos bo'lib xizmat qiladi.

Siyosatshunos olim T.Alimardonov shunday fikrni bildiradi: -“Siyosiy axloq kategoriyalari siyosiy institutlar faoliyatiga ma'naviy kuch sifatida ta'sir qilib boradi. Ammo masalaning yana boshqa murakkab jihatlari mavjud. Masalan,

«Yaxshilik», «Ezgulik», «Vijdon», «Oriyat» «Uyat» va boshqa shu kabi tushunchalar axloqiy kategoriyalarga kiradi. «Demokratiya», «Tenglik», «Adolat», «Inson huquqi», «Ozodlik», «Erkinlik», «Mustaqillik» tushunchalari esa siyosiy kategoriyalar bo'lib hisoblanadi. Muammo shundaki, insonda yaxshilik, ezgulik, oriyat kabi fazilatlar bo'lishi mumkin. Ammo, bunday fazilatlar ko'proq individual xususiyatga ega bo'ladi. Ya'ni, jamiyat, davlat, millat masalalari bilan bog'liq siyosiy jarayonlarda o'z ifodasini topmasligi ham mumkin. Aniqrog'i insonda siyosiy darajada jur'at etishmaydi. Xuddi shu tartibda jamiyat va davlat faoliyatini baholash mumkin. Davlat rasmiy qarorlarida adolat va tenglik to'g'risidagi g'oyalarni ilgari surishi mumkin, lekin, uning ijrosini ta'minlashga qaratilgan murvatlarning tashkil etilmaganligi yoki siyosiy ta'sir samaradorligining pastligi jamiyatda axloqsiz siyosiy holatning vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Axloqsiz siyosat ko'rinishlari korruptsiya, inson erki va huquqiga tajovuz qilish, ijtimoiy munosabatlardaadolatsizlik kabi holatlarning kuchayishida namoyon bo'ladi.”

Qadimgi Gretsiya faylasufi Aristotel axloq to'g'risidagi fikrlari diqqatga moyil: «Etika-axloq muammolari haqida gapirishdan avval biz axloq nimaga taalluqli ekanligini aniqlab olishimiz kerak. Gapning lo'ndasini aystsak, siyosat axloqning tarkibiy qismidir. Chindan ham muayyan axloqiy fazilatlarga ega bo'limgan, ya'ni munosib shaxs bo'limgan odam siyosiy faoliyat ko'rsatishi mumkin emas. Munosib odam bo'lmoq axloqiy fazilatlari egasi - fazil bo'lmoq, demakdir. Zero, ijtimoiy va siyosiy hayotda faoliyat yuritmoqchi bo'lgan odam axloqan fazilatli odam bo'limg'i kerak. Xullas, siyosat axloqning tarkibiy qismidir. Shuning uchun axloqni bemalel siyosat deb atash mumkin». Darhaqiqat, hamma narsaning asosida axloq bo'ladi va siyosat ham axloqiy qarashlar orqali shakllangan yo'naliш hisoblanadi.

Har qanday davlatchilikning shakllanishi, xalqlar va millatlar o'rtasidagi munosabatlар murakkab ijtimoiy evrilishlar asosida tashkil topadigan siyosiy jarayondir. Uning murakkabligi ijtimoiy maqsadlarni qaror toptirishda manfaatlarning turli-tumanligi bilan belgilanadi. Manfaatlari echimi esa aksariyat hollarda o'zaro ixtiloflar, kurashlar bilan o'z bag'rida turli taxlikali tahdidlarni saqlab kelganligi bilan harakterlanadi. Bu borada davlatchilik tarixiga umuminsoniyat kechmishining uzviy bir qismi sifatida nazar soladigan bo'lsak, urushlar tarixi bilan bog'langanligini, ayni paytda davlatchilikning yuzlab shakllari kashf qilinganligining guvohi bo'lamiz. Garchi urushlar ofat, kulfat va talofat manbai bo'lishiga qaramasdan, u insoniyatning yashash shartiga aylanganligini kuzatamiz.

Afsuski, insoniyat o'z tarixida mohiyatan o'xshash bo'lgan tarixiy tahdidlarning yangi ko'rinishlarini takrorlab keladi. Demak, tahdid insondan tashqari hodisa emas, aksincha, uning tabiatida yashiringan so'ngra, amaliy faoliyatko'chib o'tadigan hol ekan. Shu tariqa urushlar o'z mohiyatiga ko'ra

insonlar tomonidan adolatli vaadolatsiz urushlarga bo'linib kelingan. Shu sababdan urushlarning moddiy manfaatdorlik asosi maskuraviy vajlar bilan berkitib kelingan. Aslida insoniyat har qanday tajovuzga, qirgin barot urushlarga nafrat bilan qaraydi. Ammo ularning kelib chiqish sabablarini millatlar, davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning g'ayri axloqiyligidan emas, manfaatlar nomutanosibligidan axtaradi. Manfaatlar esa, doimo o'zgaruvchan sifat kasb etishini unutib qo'yadi. Ularni faqat umuminsoniy qadriyatlar negizida uyg'unlashtirish mumkin. Xalqaro munosabatlardagi ana shunday ziddiyatlar doimo ko'plab olimlarning e'tiborini tortib kelgan. Xususan, ko'plab muloxazalar asosida tashqi siyosatning xususiyatlarini ayrim olimlar axloqdan tashqari hodisa sifatida deb, uning nazariy tamoyillarini real voqelikdan kelib chiqib rivojlantirishga o'rindilar. Real voqelik esa, afsuski, kuch kimda bo'lsa, siyosatda ustuvorlikka asoslanishini ko'rsatadi. Muammo shundaki, insoniyat xanuzgacha o'z munosabatlarini ma'rifiy xalqaro tizim asosiga ko'ra olmadi. Shunga muvosiq, xalqaro siyosiy munosabatlarning natijalari, ko'p hollarda, davlatlarning ikki tomonlama tenglik nuqtai nazaridan emas, balki harbiy texnologik qudratiga qarab hal etib kelinmoqda. Umuminsoniy qadriyatlar shiori esa, mavjud axloqsiz holatlarni nikoblashga xizmat qilmoqda.

Shunday ekan, insoniyat tahdid va mojarolarning kengayishini qanday vositalar bilan to'xtata oladi?! Umuman, insoniyat urushlarsiz yashay oladimi?! Moddiy dunyoning ne'matlarini to'g'ri taqsim qilishning ma'rifiy yo'llari bormi?! Bizning nazarimizda, bugungi dunyoning global muammosi umuminsoniy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirgan ijtimoiy axloqning muhimligini anglab etishdagi qiyinchilikda namoyon bo'lmoqda. Dunyoning yaxlitligi va uning istiqbolini faqat yuksak axloqy munosabatlar kafolatlashi mumkin. Inson yovuzlikka ongli harakati natijasida keladi, nafsga mutelik uni jaholat girdobiga tortadi. Natijada insonda keljak uchun mas'uliyat hissi yo'qoladi. Masalan, Afg'onistonda Tolibonlar tomonidan Buddha xaykallarining vayron etilishi, aslida, shu xalqning ming yillik ulkan tarixiga bolta urish bilan teng bo'lsada, lekin ular o'z muxoliflariga shu tariqa zarba bera olganlaridan o'zları ancha engil tortdilar. Yoki yarim asrdan buyon davom etib kelayotgan Yaqin Sharqdagi ma'nisiz urush va bunda ko'plab tonionlar manfaatlarining pinxona ifodasi mavjudligi kimga sir?! Dunyoda siyosiy kuchlar muvozanati o'zgargan bo'lsada, uni bo'lib olishga bo'lган ishtiyok o'zgargan emas.

Axloqning ziddi - g'ayriaxloqiylik ko'pincha turli ziddiyatlar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Taassuflar bo'lsinki, davlatlar, millatlar o'rtasida, sun'iy ravishda, ziddiyatlar keltirib chiqarish bilan maxsus shug'ullanadigan guruhlар ham mavjud. So'nggi yillarda siyosatshunoslar tomonidan xalqaro miqyosdagi mavjud mojarolar va ziddiyatlar mohiyatini aniqlash borasida muayyan ilmiy kuzatishlar olib borilmoqda.

Bugungi xalqaro manfaatlar bilan bog'liq mojarolarning yana bir sababi davom

etib kelayotgan qurollanish poygasidir. Yadroviy va boshqa ommaviy qirg'inbarot qurollarni ishlab chiqarish bir necha yildan beri xalqaro hamjamiyat tomonidan qoralanganiga qaramay ularning o'sish sur'ati davom etib kelmoqda. Bir tomonidan, go'yoki qurollanishga barcha qarshi chiqayotgandek, ammo, ikkinchi tarafdan, imkoniyatlari bor davlatlar qurollanishni bir davda ham to'xtaganlaricha yo'q. Qolaversa, ommaviy qirg'inborot qurollariga ega davlatlar soni, aksincha ortib bormoqda. Aynan rivojlangan mamlakatlar tomonidan harbiy samolyotlar, bolistik raketaalar va boshqa qurollar bozori avjga chiqmoqda. AQSh texnologik byurosi xulosasiga ko'ra rivojlangan davlatlardan 6 tasi 43 turdag'i zamona viy qurollarni ishlab chiqarishning xalqaro litzenziyasiga egadirlar. Bu davlatlar o'zaro qurolyarog' savdolarini dunyoning xoxdagan burchagida amalga oshirish huquqiga ega. Qolgan davlatlarning faoliyati esa g'ayriqonuniy hisoblanadi. Tabiiyki, bunday munosabatning nomutanosibligi boshqa bir ziddiyatlarning kelib chiqish sababini o'z bag'rida saqlab keladi.

Insoniyat uchun umumglobal muammolarga aylangan qurolyarog' poygasi, yadroviy tahdidlarning, ekologik vaziyatning zurayishiga, aholi tur mush darajasining pasayishiga, turli kasalliklarning kuchayishiga, natijada jaxon iqtisodiy tizimining izdan chiqishiga olib keladi. Binobarin, dunyoda tinchlikni saqlash, urush va mojarolarni bartaraf etish, ximiyaviy, bakteriologik, yadroviy qurollanishni to'xtatish bugungi kunning eng ustuvor, eng dolzarb vazifalaridir. Muammolarning global mohiyati bugungi kunda toboro avj olayotgan qashshoklik, ochlik, epidemiya, atrof muhitning ifloslanishi, istsiklik energiyasi hamda tabiiy resurslarning tankisligida namoyon bo'immoqda. Muammolarning yana bir yirik ko'lami mehnat bozorlarining taqchillashayotganligi bilan ham belgilanmoqda. Ommaviy ishsizlik rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarni birdek tashvishga solmoqda. Shunga bog'liq holda inson huquqlarini himoya qilish, uni tashqi tajovuzlardan asrash amalda og'irlashib bormoqda. Sanab o'tilgan muammolar ko'lami o'z tabiatiga ko'ra, inson faoliyatining turli jabhalarini qamrab oladi. Shuning uchun ham bu muammolarni bartaraf etishning kompleks yondashuvlarini o'rganish, shunga muvofig, tarkib topgan mavjud siyosiy va iqtisodiy xalqaro tizimni takomillashtirish zaruriyati tug'ilmoqda. Bugungi kunda xalqaro jamoatchilik faoliyatini konsensusga olib kelish yo'llarini ishlab chiqish lozim. Buning uchun davlatlar o'rtaсиda erkin savdoni rivojlantirish, iqtisodiy muammolarni hamkorlikda hal etish talab etiladi. Global taraqqiyotning iqtisodiy muammolarini echish, avvalo, dunyoda tinchlikni saqlashga bog'liq. Ammo aksariyat rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy daromadi harbiy sanoat komplekslari faoliyatiga asoslangan. Qurolsizlanish ular iqtisodiy daromadlarining muayyan darajada pasayishiga hamda ayrim davlatlar geopolitik mavqeining tushishiga sabab bo'ladi. Aslida qurollanish va uni sanoat asosida takomillashtirish

ishsizlikning ko'payishiga olib keladi. Amerikadagi olimlarning ilmiy ma'lumotlariga ko'ra, harbiy sanoatda bir ishchi o'rnnini tashkil etish uchun fuqaroviyo sanoatga nisbatan to'rt karra ko'proq harajat talab etilar ekan. Harbiy chtiyojlarga sarflangan 10 mld dollarga ishlab chiqarish korxonalarida 40 ming kishi uchun ishchi o'mini tashkil etish mumkin. Dunyo bo'yicha bir yilda sarflangan harbiy harajatlarga 150 mln. ga. cho'l erni o'zlashtirish va bunda 1 mld aholini bokish imkoniyati hamda shu mablag'ga 500 mln aholiga 100 mln kvartira, 650 mln bola uchun mo'ljallangan 1 mln. maktab binosini qurish mumkin ekan. Yuqoridagi ko'rilgan global muammolarning siyosiy-iqtisodiy, sotsial va ekologik jihatlarining ijtimoiy axloqqa muvofiqligi nuqtai-nazaridan o'rganmoq dolzarb vazifalar qatorida qoladi. Shu bois xalqaro munosabatlarni demilitarizatsiya qilish, barcha davlatlar manfaatlarini hisobga olgan holda xududiy xavfsizlik tizimini hamda xalqaro barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan mexanizmlarni tashkil etish; Har bir davlatning suverenitetini, o'zi tanlagan sotsial-iqtisodiy yo'llining huquqiy kafolatlarini amalda ta'minlash chora tadbirlarini ishlab chiqish va bunda xalqaro munosabatlarni maskurasizlashtirish; Xalqaro munosabatlarning insonparvarlik asosiga qurilishida inson huquqlari kafolatlarini ta'minlashning xalqaro tizimini takomillashtirish, xalqlar o'rtasidagi o'zaro ishonch va hamkorlik rishtalarini mustahkamlash; Bugun insoniyat uchun olam bir butunligi, barqarorligi uchun qarama - qarshiliklar kurashi falsafasi emas, balki hozircha tafakkurimiz xazm qila olmayotgan o'zaro «hamnafasl» tafakkuri ustuvor ekanligini tushunib etish payti keldi.

Jamiyat boshqaruvida axloqiy qadriyatga rioya etish, avvalo, millatning o'z qadriyatlarini, an'ana va udumlarini, huquqiy-me'yoriy talablarini nechog'li darajada tartibga sola olishida va ularga sodiqlik kabi tushunchalarining amaliy ifodasida namoyon bo'ladi. Bunday axloqiy qadriyatlar jamiyat manfaati nuqtai nazaridan ba'zan majburiylik ko'rinishlarini ham kasb etadi. Davlat funktsiyasiga xos boshqaruv me'yorlarining tashkiliy tartibi fuqaro, jamiyat va davlat manfaatlarining bir maromda barqaror hamda uyg'un rivojlanishini ta'minlaydi. Davlatning bu boradagi majburiylik yondashuvi mayjud siyosiy - iqtisodiy sharoitlar darajasi bilan ham bevosita bog'liq bo'ladi. Ammo boshqaruv munosabatlarning har qanday sharoitda axloqiy qadriyatlarga amal kilinishi va uning huquqiy mezonlardan chiqib ketmasligi kadrlar salohiyatidan foydalanishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Shu kabi boshqaruv bilan bog'liq muammolarni echish va ularni kamaytirishga bo'lgan o'rinish, unga salohiyatlari rahbar shaxslarni safarbar etish demokratik jarayonlar rivojining samaradorligini ta'minlashga imkoniyat beradi. Siyosat va axloq muvozanatini ta'minlashning mayjud tartiblarini tarixiy, milliy o'rganish, hamda davlat va jamiyat boshqaruvining axloqiy mezonlarini tashkil qilish muhimdir.

O'zbekiston o'z mustaqil taraqqiyoti asoslarini yaratish va uni ijtimoiy turmushda qaror toptirish borasida keng ko'lamlı islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Bu jarayonlar o'z mohiyat-mazmuni bilan murakkab, turli siyosiy tiziimlar uyg'unligini talab qiladi. Shulardan biri kadrlar siyosati hisoblanadi. Kadrlar siyosati har qanday davlatda eng muhim va muntazam e'tibor talab etadigan masala. Zero, har qanday jamiyatning siyosiy hayoti hamda islohotlar rivoji rahbar kadrlar salohiyati va davlat xizmatchilari faoliyati bilan bog'liq bo'ladi. Ayniqsa, bozor iqtisodi sharoitida talab kilinayotgan yangi demokratik jarayonlarni boshqarish respublikamiz rahbar kadrlari va davlat xizmatchilari oldiga yangi talablarni qo'yemoqda. Bu boshqaruv usullarida rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribalarini qo'llash, uni milliy xususiyatlar bilan uyg'un tarzda takomillashtirishni taqozo etadi.

Kadrlar siyosati borasida nazariy asoslar davlat xizmatchisi asoslarini sifat jihatdan o'zgartirishni talab qiladi. Ma'lumki, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi malakali, tajribali, bilimli mutaxassislar bir necha yillar ichida shakllanadi. Ularning iqtidori mavjud davr talablari asosida rivojlanishi uchun ancha mablag' ham talab qilinadi. Davlat siyosatida ushbu masalaning muhimligini inobatga olmaslik ijtimoiy taraqqiyotni ko'proq davrga mos turg'un bo'lishiga yoki aksariyat hollarda intellektual resurs boshqa davlatlarning ixtiyoriga jalb kilinishiga sabab bo'ladi Mayjud muammolarning muhimligini inobatga olgan holda kadrlar siyosati bilan bog'liq. Muammolar mohiyatini ochishga e'tibor qaratish lozim.

Birinchidan, boshqaruv kadrlariga jamiyat taraqqiyoti rivojida intellektual resurs sifatida qaralishi va ular milliy boylikning muhim qatlami sifatida himoyalanishiga bog'liq.

Ikkinchidan, inson va jamiyat ehtiyojlarini yuksaltirish borasida kadrlar salohiyati jamiyat taraqqiyoti rivojini belgilovchi muhim omilga aylangan. Bunday islohotning tashabbuskorи barcha hollarda davlat hisoblanadi. Shuning uchun kadrlar salohiyatining axloqiy mezonlari siyosat darajasida belgilanishi lozim. Bu o'z o'rnda davlatning kadrlar siyosatiga bo'lgan munosabatini hamda darajasini belgilaydi.

Uchinchidan, bugun kadrlar salohiyati va sifatini oshirish hamda uning tasnifini belgilash kamlik qiladi. Ulardan amalda foydalanishning huquqiy shartsharoitini yaratish va tadbik etish lozim bo'ladi. Kadrlar siyosatining muhim shundaki, u davlat ishchi, xizmatchilari uchun emas, mamlakatning aqliy va axloqiy salohiyatini jamiyat taraqqiyotiga yo'naltirishdan iborat bo'lmosg'i zarur.

Shu ma'noda demokratik jamiyatning shakllanishi nafakat siyosiy-huquqiy, iqtisodiy va ma'naviy o'zgarishlar bilan, ayni paytda, tafakkur o'zgarishlari bilan ham bog'liq jarayondir. Ularning uyg'unligiga erishilgandagina taraqqiyot rivojini

tezlashtirishga sharoit tug'iladi. Bunday uyg'unlikni ta'minlovchi asosiy omil esa yuksak malakali, axloqiy jihatdan etuk kadrلarning jamiyat boshqaruviga kelishida o'z aksini topadi. Umuman, biz nazarda tutayotgan uyg'unlik, avvalo, jamiyatda amalga oshirilayotgan siyosiy tizimning nechog'li darajadaadolatli, izchil va xalqchil ifodasi bilan bog'liq. Qolaversa, bir tizimdan ikkinchi bir tizimga o'tish - bu eskilik bilan yangilik o'rtaсидagi kurash, aniqrog'i o'zgargan, ammo yangi manfaatlar to'qnashuvi hamdir.

Respublikamizda olib borilayotgan islohotlarni davlat va xalq manfaati yo'lida izchillik bilan amalga oshirish davr talabi bo'lib, bu borada iktidorli, izlanuvchan, zamonaviy bilinga ega, Vatanga sadokatlari yoshlarga keng yo'l ochib berishimiz shart. Demak, mavjud ijtimoiy muammolarni echa oladigan, avvalo, uni teran anglaydigan islohotlar jarayonida jonkuyarlik kila oladigan, ma'naviyaxloqiy barkamol, qodir shaxslarni boshqaruv bo'g'inlariga ko'proq jalb etish asosiy va bosh masala hisoblanadi.

Boshqaruvni anglagan va o'zlashtira olgan rahbarlar tabiatan e'tiqodli, fidoyi, bilimli, yangilikka chanqoq, izlanuvchan va yaratuvchilik sifatlariga ega bo'ladilar. Rahbarlik shu toifadagi kishilar uchun o'z imkoniyatlarini amalga oshirish vositasi hisoblanadi. Ular o'z faoliyatlarida qanchalik ko'p bунyodkorlik bilan mashg'ul bo'lsalar, undan shunchalik ozuqa oladilar. Bunday shaxslar oriyatli, qat'iyatli, o'zgalar dardini his qilib ularga hamdard bo'la oladigan va saxovatliligi bilan ajralib turadigan insonlardir. Intizom va tartibga alohida e'tiborda bo'lib, noaxloqiy munosabatlarni xush ko'rmaydilar. Bunday rahbarlar, ayni paytda, ichki, yashirin ixtiyoqlarni yoktirmaydilar, uni tez bartaraf etish qudratiga, muammolarni chuqur anglash va uni hal etish salohiyatiga ega bo'ladilar. Ushbu toifadagi rahbar kadrlar muayyan bir guruhlarga qo'shilmaydi. O'z raqiblariga murosasiz munosabatda bo'lib, faoliyatidagi to'siqlarni engib o'tish ular uchun hayotiy muhim masala hisoblanadi. Ba'zan vazminlik o'rniда o'jarlik, kamtarlik o'rniда manmanlik qilishlari ham mumkin, ammo vazifalarini o'zlaridan ustun qo'ymaydilar. Tobelik yoki mutelikni o'z tabiatlariga singdira olmaydilar. Favkulodda o'zgaruvchan, ba'zan uz manfaatlarini ham inkor etuvchi bo'ladilar. Bu toifadagi odamlar ikki guruhga bulinadi. Birinchisi toifadagilar ujar, tajang bo'lsa, ikkinchi toifadagilar muloxazali va andishali bo'ladilar. Ayni paytda, ular bir-birlarini tuldiradilar va ma'naviy jihatdan hamnafas bo'ladilar. Ular fidoyiligining asosi ham shunda.

Yangicha boshqaruvga moslashgan yoki andoza olgan rahbarlar e'tiqodi zaif, ammo bilimli, zukko, yangilik yoki siyosiy vogelikni tez anglovchi, o'ta ehtiyotkor bo'ladilar. Mavjud vogelikdan axloq qidirmaydilar, aksincha unga moslashadilar. Ba'zan uni takomillashtiradilar ham. Ular o'z faoliyatlarida siyosiy xushyor, bosiq, sabr-toqatli bo'lib, shijoat, tashabbus o'rniда turg'unlikni afzal ko'radilar, yaratuvchilik yoki bунyodkorlikni maqsad qilmaydilar. Ayrim hollarda, vaziyat uzi

uchun kaltis yoki xavfli bo'lmasa, tashabbuslar qilishi ham mumkin. Bunday holatdan maxorat bilan foydalana oladilar. Bu toifadagi odamlar o'zaro munosabatlarida muloxdzali, madaniyatli, ba'zan yaxshi taassurot qoldiradigan hozirjavob, hojatbaror, mahoratli ijrochi bo'ladi. Bunday ijobjiy sifatlari bilan o'z mansab pillapoyalarini ko'tarib yoki mustahkamlab boradilar. Tabiiy hususiyatlariga ko'ra, bu toifadagi kishilar ham ikki guruhga bo'linadi. Ya'ni, birinchi guruhdagilar ancha beandisha, zug'um va zo'ravonlik qilishga moyil, o'z maqsadlariga erishish uchun har qanday vositalarni ishlatalishga qodir bo'ladi. Ikkinci toifadagilar esa, shu sifatlari bilan ancha ma'rifiyidirlar. Yangicha boshqaruvni anglamagan ijrochi rahbarlar ma'naviy va ma'rifiy jihatdan ancha sayoz kishilar hisoblanib, buysunuvchan, ergashuvchan, irodasizligi tufayli mas'ul kishilar yoki guruhlar manfaati yo'lida xizmat qilib, o'z ehtiyojlarini ta'minlab turadilar. Bu toifadagi kishilar kuyi yoki ijrochi boshqaruvlarning barcha bo'g'inlarida "kerakli va ishonchli odam" sifatida faoliyat ko'rsatadi. Chunki ular o'z fikrlariga yoki nuqtai nazarlariga ega bo'lmaydi. Ba'zan tasodifan yoki ma'lum guruh manfaati uchun mustaqil darajadagi rahbarlik lavozimlariga tayinlanishi ham mumkin. Ular yuqorida ta'kidlanganidek, individual alohida shaxsiy sifatlarga yoki qobiliyatlarga ega emas. O'ziga xos harakat vazifalari va faoliyatlarini mavjud sharoitga moslashtiradi yoki andoza olib taqlid bilan harakat qiladi. Shu sababdan, bu toifadagi kishilarning boshqa guruhlari bo'lmaydi. Eng salbiy jihatlari shundan iboratki, ular har qanday qabih, g'irrom, ahloqsiz ishlar bilan ikkilanmasdan shug'ullanadi. Bunday rahbar kishilar jamiyat manfaatlarini uyg'unlashtirishga emas, aksincha tarqoqlashtirishga sababchi bo'ladi. Boshqaruv rahbarlik bo'g'inlarining shu toifadagi kishilar qo'lida bo'lishi ijtimoiy vaziyatni izdan chiqishiga, o'zaro ixtilof va nizolarning kuchayishiga sabab bo'ladi.

Masalaning axloqiy jihatlari bilan birqalikda uning ijtimoiy va siyosiy xususiyatlariga ham to'xtalib o'tish muhim. Jumladan, har qaysi davrda hokimiyatga intilish, uning vositalariga ega bo'lish istagi saqlanib qoladi. Bosh masala mana shu intilish va istaklarning qay darajada axloqiyligi va qonuniyligi ta'minlanganlidigadir. Jamiyatda hokimiyatga intilish oshkora, aniq belgilab qo'yilgan mezonlar va talablar asosiga ko'rilmas ekan, unga erishishning noaxloqiy, hufiyona ko'rinishlari saqlanib qoladi. Davlat tizimi asoslariga katta zarar etkazuvchi to'rachilik, ta'magirlilik, korruptsiya, poraxo'rlik kabi illatlar kuchayib boradi. Bugungi o'tish davrining o'z talablari va imkoniyatlari mavjud. Respublikamiz iqtisodini mustahkamlash, jamiyat barqarorligini ta'minlash kabi ustuvor vazifalarni amalga oshirishda har bir rahbar kadrlardan yuksak e'tiqodni, fidoyilikni va sadoqatni talab qiladi. Qolaversa, mavjud o'tkinchi iqtisodiy qiyinchilik davrida hech qanday rahbarning o'z vazifasini suiiste'mol qilishiga yo'l bermaydi. Aksincha, jamiyat va davlat boshqaruvining asoslarini mustahkamlash

mas'uliyatini yuklaydi. Shu o'rinda rahbar kadrlarning salohiyat sifatlarini aniqlovchi va belgilovchi mexanizmlarni boshqaruvning turli soha va xususiyatlariga muvofiqlashtirgan holda amalda joriy etish zarurligi ko'rinish turibdi. "Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, davlat xizmatchisining axloqi nafaqat uning muvaffaqiyatlariga, balki davlatning obro'siga ham kuchli ta'sir bo'ladi", deydi A. Begmatov. Afsuski, mamlakatimizda, yutuqlar barobarida davlat boshqaruvidagi rahbar xodimlarning turli darajada o'z xizmat vazifasini suiste'mol qilish holatlari uchrab turibdi. Mavjud illatlarning ijtimoiy sabablarini aniqlash, ularni keltirib chiqarayotgan omillarni tahlil etish davlat va jamiyat boshqaruvining ayrim zaif tomonlarini oydinlashtirishga yordam bergan bo'lar edi. Davlat boshqaruvi muntazam ravishda tahlil etib borilishi va uning faoliyat natijalari tegishli xulosalar bilan mustahkamlanishi lozim. Chunki, jamiyat rivoji va bugungi kunda qo'yilayotgan talablar bizning ixtiyorimizdan tashkari har davda o'zgarib turibdi. Shunday ekan, boshqaruvchi faoliyatini nazariy jihatdan tahlil qilib borishga e'tiborni kuchaytirishimiz zarur.

Davlat va jamiyat boshqaruvida axloqiy tamoyillarning aniq ishlab chiqilgan me'yoriy mexanizmlari mavjud bo'lsa, bunday sharoitda boshqaruvga istiqbol va istiqlol tuyg'ulari kuchli bo'lgan zamonaviy, shijoatkor kadrlar kelishi ortib boradi. Ya'ni, kadrlar tanlashning aniq mexanizmlari sog'lom rakrbatni shakllantiradi, ular sifatini oshiradi, boshqaruvda kadrlar vorisiyligini takomillashtiradi. Kadrlar salohiyatini belgilovchi me'yoriy mezonzarning joriy kilinishi va unga amal etilishi salohiyatsiz bo'lgan kadrlarning bir necha yillab boshqaruv kursida o'tirib qolishining oldini oladi. Kadrlarni tartibga solish tizimi jamiyatda paydo bo'ladigan ilg'or fikrlarni davlat siyosati darajasida aks ettirish jarayonining uyg'unligini ta'minlashga xizmat qiladi. Turg'unlik esa, ma'lumki, har qanday yangilikning rivojini tusuvchi omil. Shu tariqa davlat boshqaruv idorasiga "tirikchilik manbai" emas, balki axloqiy, mas'ul shaxslarning xalqda xizmat qilish vositasi sifatida qarash tendentsiyasi ko'proq shakllangan bo'lar edi. Aynan ana shu munosabatlarda siyosiy axloq muvozanatini ta'minlash muammolari kelib chiqdi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 1 bob 2-moddasida "Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdar shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'ulidirlar" deyiladi. Ammo ana shu mas'uliyatni «eslatish» borasidagi rahbarning javobgarligi xuquqiy jihatdan qanchalik darajada mustahkamlangan. Bunday munosabatlardan qonun bilan asoslanishi lozim. Agar amalda rioya etiladigan huquqiy tartib sifatida yondashilmas ekan, unga amal qilmaslik imkoniyati saqlanib qolaveradi. Ikkinchidan, qattiq intizom va tartib yo'lga qo'yilgan joyda zaif kadrlar ishlay olmaydi. Ularning zaifligi va salohiyatsizligini yashiradigan, qonunsiz harakatlarning imkoniyatini kengaytiradigan omil aslida huquqsizlidir. Rahbar kadrlarning mana shunday

hufyona faoliyatni fuqarolar orasida davlat tashkilotlariga nisbatan ishonchszilikni keltirib chiqaradi. Aynan ana shunday kamchiliklar tufayli o'z vazifalaridan ozod etilgan rahbarlar, afsuski, gorizontal ravishda boshqa favozimlarda rahbarligini davom ettirayotganligi jamiyatda huquqlarimizga bo'lgan ishonchszilik kayfiyatining usishiga olib keladi. Shuning uchun viloyat, tuman, boshqa muassasalarning mansabdar shaxslari va ularning faoliyatidagi nuqsonlar hamda illatlar mohiyatan bir xil ko'rinish kasb etib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq siyosiy rahbar yoki etakchi o'z harakatlari uchun shaxsan javobgar shaxs hisoblanadi. Bunday mas'uliyat undan ma'lum axloqiy va ma'rifiy yuksak tarbiya hamda e'tiqodni talab qiladi. Shu ma'noda amaldorlarning intizomi, o'z ishiga xalol yondashuvi, professional mahoratning axloqiy ko'rsatkichlarini tashkil etuvchi mezonlarni joriy etish zarurati sezilmoqda.

Davlat xizmatchisi faoliyatida adolat yakka shaxsnинг irodasi yoxud simpatiyasi bilan belgilanmasligi muhim. Adolat mezonini belgilashda murosasiz huquqiy talablar qo'yilmog'i zarur. Zero, adolat to'g'risidagi shaxsiy ideallar va qarashlar axloqiy mezoniga aylanmasligi lozim.

Ma'lumki, adolat o'zgalarning huquqini buzmaslik sharti bilan yaratilgan tenglik sharoitidir. Undan chiqdi, adolat teng mas'uliyat va intizomiy munosabatlarni talab qilar ekan. Shunga qaramasdan, huquq va axloq o'rtaqidagi mezonni aniq belgilash talab etiladi. Bunday mezon jamiyatning ma'naviy salohiyati orqali tashkil etilgan huquqiy vakolatlar hisoblanadi. Jamiyatda huquq orqali emas, ma'naviyat orqali huquqiy munosabatlar ustuvorligiga erishilishi lozim. Fuqarolar uz ijtimoiy faoliyatlarida huquqli hurmat qilishlari orqali huquqiy talablarni ta'minlaydilar.

Shu o'rinda ko'rib chiqmoqchi bo'lgan mavzumizning yana bir muammosi kadrlar siyosati va uning bugungi kun ijtimoiy jarayonlar tizimidagi muammolari. Totalitar tuzum qoidalariaga asoslangan jamiyatda mulknинг xilma-xilligi inkor etilib, "umumxalq" mulkining joriy etilishi insonning tabiiy mulkka bo'lgan tuyg'usiga karama-qarshi ekanligini ko'rsatdi. Bunday holatda inson o'z istak va mayllarini qanday bo'lsasin, mulkka egalik qilish va erishish istagini qondirish maqsadida ba'zan har qanday g'irrom va axloqsiz harakatlarga kirishadi. Vosita sifatida hokimiyatni tanlaydi. Natijada jamiyat fuqarolari uchun bunday g'ayriqonuniy axloqsiz holat tabiiy «tirikchilik» manbaiga aylanadi. Sobiq tuzum davrida ta'magirlilik, yulg'uchlik, davlat mulkini talon-taloj qilish, korruptsiya, zuravonlik, beandishalik kishilar turmush tarzining ustuvor xususiyatlari bo'lib karaldi. Albatta, bunday ijtimoiy holat axloqsizdir, ammo masalani chuqurroq tahlil qilsak, mutlaqo ziddiyatli holatlar kelib chiqadi. Jumladan, davlat boshqaruvida uning tartib va qonunlarida inson manfaati, uning orzu-intilishlari ikkinchi darajali,

deb qaralgan. Shaxs tashabbusi, salohiyati, uning bevosita jamiyatga nisbatan manfaati inobatga olinmagan. Har qanday holatda mehnat taqsimoti teng va bir xilda belgilangan. Ya'ni, mexnatning samaradorligidan kat'iy nazar belgilangan tariflar mayjud bo'lgan. Umuman, fuqarolar davlat uchun vosita sifatida qaralgan va ularning barcha harakati faqat hukmron masfkura maqsadiga buysundirilgan. Shubhasiz, bunday nosog'lom munosabatlar manfaatlar karama-qarshiligini keltirib chikarib, fuqarolar qonuniy yo'l bilan ololmagan ulushlarini qonunsiz ravishda amalga oshirganlar. Aynan shu tariqa axloqsizlik jamiyatda ustuvor yoki «xaloskor» vosita sifatida shakllangan.

### **Foydalanimadigan adabiyotlar ro'yxati**

#### **Rahbarli adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. – Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., O'zbekiston. 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. – Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T., O'zbekiston. 2017.

#### **Darsliklar va o'quv qo'llanmalar:**

46. Muhammadjonova L.A. Amaliy etika va estetika. O'quv qo'llanma – T.: "Mumtoz so'z" 2022 yil.
47. L.Muxammadjonova, S.Alimov,Sh.Rajabov. Notiqlik san'ati. O'quv qo'llanma – T.: "Mumtoz so'z" 2022 yil.
48. Аззамова Н. "Философия нравственности". Darslik. T.: Universitet. O'zMU, 2022 yil.
49. Радугин А.А. Этика. Учебное пособие для высших учебных заведений. – М.: Tsentr, 2003. -88 b.
50. Назаров К. Аксиология – қадриятлар фалсафаси. –Т.: O'FMJ, 2004.
51. Степанянц. М.Т. Философские аспекты суфизма. –М.: Nauka, 1987. S-99
52. Тримингэм Д.С. Суфийские ордена в исламе. –М.: Nauka, 1989. S-546.
53. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. –Toshkent: O'zbekiston Faylasuflari milliy jamiyatni nashriyoti, 2010. -8 b.
54. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. 12 tomlik. –Toshkent: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. T.1. -530 b.
55. Falsafa: qomusiy lug'at. Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov. – Toshkent: "Sharq" nashriyot –matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2004. -40 b.
56. М. Каххарова, Н Аззамова. Этика Учебное пособие. Ризограф имени Низами. 2018 год.
57. L.Muhammadjonova, F.Abidjanova. Etiket. O'quv qo'llanma. T.: Universitet. O'zMU, 2018.

- 58.Nurmatova M., Muhammadjonova L., Ma'naviyatning axloqiy asoslari.–T.: Universitet, O'zMU. 2013.
- 59.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat. 2008.
- 60.Husanov B., Gulamov V. Muomala madaniyati. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2009.

**Qo'shimcha adabiyotlar:**

- 46.Al-Faqih Abu Lays as-Samarqandiy. Tanbechul-g'ofiliyn.Birinchi kitob.- Toshkent: Movarounnahr, 2003.
- 47.Хайдеггер М. Основные понятия метафизики (Введение). //Вопросы философии. –М., 1989. –№9. S-84
- 48.Nurmatova M., Muhammadjonova L., Ma'naviyatning axloqiy asoslari.–T.: Universitet, O'zMU. 2013.
- 49.Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. – T.: Universitet, 2009.
- 50.Гаранина О.Д. Философия человека. -М.: 2006. S-44
- 51.Камю А. Бунтующий человек. -М.: 1990. S-546.
- 52.Гусейнов А.А., Апресян Р.Г. Этика: Учебник – М.: Гардарики, 2004. -26.
- 53.Асмус В.Ф. Античная философия. – М.: Высшая школа, 1976.
- 54.Философия: учебник для Вузов / Под ред. В.Н. Лавриненко. – М: ИОНИТИ-ДАНА, 2007.
- 55.Ушков А.М. Китайско-конфуцианский культурный ареал. Запад и Восток: Традиции и современность. – М., 1993.
- 56.Muhammadjonova L.A., Ortiqova D.O., Abidjanova F.A., Masharipova G.K. Professional etika va etiket. Darslik. - T.: "Adabiyot uchqunlari" 2018.
- 57.Э.Умаров., Ф.Загритдинова. "Этика. Прикладная этика". -Т.: Ношир, 2012.
- 58.Choriev A. Inson falsafasi. –Toshkent.: O'FMJ, 2006 S-181
- 59.Торо Г. Уолден или жизнь в лесу. М., Наука, 1980. С. 416.
- 60.Ганди М. Моя жизнь. М., Наука, 1969. С. 568.
61. Лоренц К. Восемь смертных грехов цивилизованного человечества. Журнал. «Вопросы философии» № 3, 1992. с. 42.

**AXLOQ VA HUQUQ ULARNING O'ZARO MUTANOSIBLIGI  
YOKI NOMUTANOSIBLIGI.**

**REJA:**

1. Axloq va huquqning o'zaro aloqadorligi.
2. Huquqiy ong bilan axloqiy ongning o'zaro aloqadorligi.
3. Yoshlarning axloqiy tarbiyasi va huquqiy madaniyati

Senekaning fikricha: - «Ba'zi yozilmagan qonunlar yozilgan qonunlardan qattiqroqdir». Lekin axloqning qattiqligidan yozilgan qonunlarning qattiqligi kishilarda ko'proq tug'yon uyg'otadi. Chamasi kishilar yuridik qonunlarning sun'iy yo'l bilan yaratilishini unutolmaydilar.

Demokratik huquqiy davlatni vujudga keltirishning ilk va asosiy shartlaridan biri jamiyat a'zolarida zarur darajadagi huquqiy ongini huquqiy madaniyatni shakllantirishdir. Jamiyat iqtisodiy, siyosiy hayotining tub islohot etilishi huquqiy madaniyatni yuksaltirish uchun shart-sharoitlarni yaratib bermoqda, insonlarni haq-huquqlarini kafolatlamoqda.

Ko'pchilikka sir emaski, aholining anchagana kismi O'zbekiston konunlarining yaxshi bilmastiklari, o'z haq-hukuqlarini talab qilmasliklari sababli og'ir ahvolga tushib koldi. Ba'zi yoshlarimiz bilib-bilmasdandan jinoyat yo'liga kirib keyin pushaymon bo'lib qolmokdalar. Konunni mensimaslik, uning talablarini buzish har qanday rivojlangan jamiyat uchun xam talofatdir. Bu ayniksa, yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun birinchi navbatda huquqiy tarbiya, huquqiy madaniyat hamda huquqiy bilimlarni keng targ'ib qilish, ularni yoshlar ongiga singdirish g'oyatda dolzarb vazifalar sirasiga kiradi. Qonunga hurmat, uni buzuvchilarga murosasizlik va adolatparvarlik tuygularini yoshlikdan tarbiyalab borish, ularning huquqiy madaniyatini oshirish, qonunga hurmat har bir fuqarolarning, yoshlarimizning shaxsiy e'tiqodiga aylantirish lozim. Qonunlarga qat'iy rioya qilish har bir kishining axloqiy burchi va konstitutsion majburiyati hisoblanadi. Qonunchilik mustahkamlangan joyda huquq targ'ibot ham o'zining samarasini beradi.

Jinoi va ma'muriy javobgarlik tortilganlarning ko'pchiligi u yoki bu qonunga zid harakatlar uchun muayyan javobgarlik va hatto jinoi jazo ko'zda tutilganligini bilmastiklarini aytadilar. Qonunchilik aholining, yoshlarning madaniy saviyasiga, davlat organlari, jamoat tashkilotlari, mansabdar shaxslar va fukarolarning huquqiy madaniyatiga bog'liq. Kishilar qanchalik ongli, madaniyatli bo'lsa, qonunni buzish hollari shunchalik kam bo'ladi.

Jinoiatchilikni oldini olish va qonunchilikni mustahkamlashga targ'ibot ishlarini kuchaytirish va keng omma orasida, ayniqsa, yoshlar o'rtaasida O'zbekiston qonunlarini tushuntirish ishlari zo'r samara beruvchi tarbiyaviy tadbirdandadir. Shuning uchun ham barcha o'rta maktab, maxsus o'rta va oliy o'kuv yurtlarida muayyan reja bo'yicha davlat va xukuk asoslari (yoki xukukshunoslik) darsini sifatlari ukitib, uni xamma o'kuvchi va studentlar tomonidan yaxshilab o'zlashtirishga erishish va axoli orasida huquq bilimlarini keng targ'ib qilish, qonunlarimizni yaxshi tushuchtirib berish va ana shu maqsadlar uchuy matbuot, radio, televideniedan samarali foydalanish, shubxasiz, yaxshi natijalar beradi.

Hukukiyl targibot ishlariga yurist olimlar, tajribali yuristlar, pedagoglar bilan bir katorda prokuratura, sud, ichki ishlar organlari, yustitsiya, advokatura xodimlari mumkin kadar ko'prok jalb kilinsalar hamma joyda xukukiyl targibot ishini keng mikyosda jadadlashtirishga to'la imkon tugalar edi. Bu juda muxim ish xar bir soxadagi respublika va viloyat, shaxar, tuman raxbar organlarining, yoshlar tashkilotlarini izchillik va talaochanlik bilan ishni puxta tashkil kilishi va muntazam suratda rejali olib borishlariga bog'lik.

Hukukiyl targ'ibotni kuchaytirish xayot takozosi, turmush talabi va respublikamiz mikyosida Prezidentimiz tomonidan ko'yilgan sharaflı vazifadir. Bu vazifalarni muvaffakiyatli bajara borish barcha davlat, jamoat organlari, kasaba uyushmalari, yoshlar ittifoki tashkilotlaridan, odil sudlov, prokuratura, ichki ishlar organlari, advokatura xodimlariidan va respublikamizdag'i barcha yuristlar, ilmiy xodimlardan katta g'ayrat tashkiliy mahorat va tashabbuskorlikni talab kiladi.

Davlatimizning muhim vazifasi ham huquq-tartibot buzilishining oldini olish, jinoyatchilikni tugatish, mustaxkamlash va huquqiy davlat qurishdan iborat. Bu oljanob vazifani bajarish uchun aholining, aynikea, yoshlarning xukukiyl tarbiyasini yaxshilash, uning huquqiy madaniyatini shakllantirish, O'zbekiston konunlarini yanada kengroq va chuqurroq targ'ib qilish zarur.

Huquqiy ongning ijtimoiy turmushga ta'siri yana shunda xam namoyon buladiki, kuperinchu huquqning uzi odamlarning xulk – atvoriga, aynan ularning xatti xarakatlarni bevosita belgilaydigan huquqiy ong orkali tartibga soluvchi ta'sir ko'rsatadi. Shaxsning huquqiy madaniyat ushibu shaxsning ijtimoiy-huquqiy vokealikni muayyan darajada idrok kilishga va muayyan xulk – atvorga moyilligini o'rganmasdan turib uning huquqiy pozitsiyasini taxlil qilmasdan turib aniqlanishi mumkin emas. Albatta xuquqiy madaniyat, umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi bo'lib. uning o'zagi xam xuquqiy madaniyat fuqorolarning xuquqiy ongliliginini ko'rsatuvchi omildir. Xuquqiy ong xuquqiy madaniyatdan kelib chiqadi, xuquqiy ong insonlarni o'z xuquqlariga, qonunga odil sudlovga bo'lgan munosabatni ifodalaydigan qarash bo'lib xisoblanadi.

Xozirgi davda axoli ayniqsa yoshlar xuquqiy madaniyatni va ma'naviyati xuquqiy bilimdonligini ma'rifatni xar tamonlama yuksaltirish uchun e'tiborni nimalarga qaratish lozim degan savol tug'ilishi tabiiy. Huquqiy bilimga ega madaniyatli yoshlarimiz jamiyatimiz qabul qilgan qonun qoidalar, axloqiy me'yirlarga xos faoliyat ko'rsatmoqdalar. Olingan huquqiy bilim va madaniyat har bir fuqoraga o'z haq – huquqlarini va himoyalishlariga yordam beradi. Jamiyatimizning har bir a'zosi, o'z huquqi burchi va ma'suliyati maksadi talablari bajarilishi majburiyligini jinoyat qilgan kishi albatta jazolanishini qanchalik yaxshi bilsa, shundagina jamiyatga zid xatti harakatlar, ko'ngilsiz voqealardan keskin kamaygan bo'ladi.

Darhaqiqat, siyosiy huquqiy ongi etuk, chuqur huquqiy bilimli va madaniyatli, mustahkam iymon e'tiqodli shahsni oldi - qochdi gaplar bilan aldab yo'ldan urib har-xil aqidalar ta'siriga, olib chalg'itib bo'lmaydi. Unday shaxs har bir narsani aql-idrok mantiq tafakkur tarozisiga solib ko'radi ,o'zining qattiy sikriga mustaxkam o'zgarmas iymon e'tiqodiga ega bo'ladi. Huquqiy bilim va madaniyat insonni hushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustaxkamlaydi.

Zero huquqiy ta'lif tarbiyaning asosiy maqsadi yoshlarni jamiyat talablariga, davlatning qonun qoidalariga milliy urf-odatlarimiz va qadriyatlarimizga chuqur ehtiromli bo'lishga qaratishdir. Ma'lumki, juda ko'p xollarda axloq me'yorlari bilan xuquqiy normalar uzbek bir-biriga bog'liq. Ta'lif tarbiyaning asosiy maqsadi xam yoshlarni shaxs sifatida yuksak ahloqiy fazilatlarini shakllantrishdan iboratdir. Ahloqiy bo'limasa inson ijtimoiy shaxs sifatida shakllanmaydi.

Shu o'rinda ahloq bu-jamiyat zamon insoniyat tarixi uchun na'muna bo'la oladigan ijobji xatti xarakatlar yig'indisi,insoniy kamolot darajasini belgilovchi ma'naviy xodisa. Inson va jamiyat o'rtasidagi ob'ektiv aloqadorligi tufayli kelib chiqadigan, shaxsiy va umumiyy manfaatlarni birlashtirib turish asosida har bir shaxs xayoti va faoliyatini boshqaradigan tartibga soladigan muayyan hulq atvor,odob,xatti-xarakat printsip va normalarning majmuidir. Ahloqiy ong esa jamiyatda yashovchi har bir insonning mehnat faoliyati xatti-xarakatlari uning ongi orqali boshqariladi.Chunki ong kishilarning ob'ektiv vokealikni ,yani jamiyatni tabiatni aks ettiruvchi g'oyalari nazariyalari,siyosiy,axloqiy falsafiy diniy, estetik qarashlar va kechinmalar shaklida namoyon bo'ladi. Binobarin,axloqiy ong ijtimoiy ongning bir ko'rinishidir. Axloqiy ong ikki ajralmas qismdan - individual ong va ijtimoiy ong iborat Individual axloqiy ong tarkibiga shaxsning xis-tuyg'usi fikr muloxazalar kabilar kirsa, ijtimoiy axloqiy ong tarkibiga esa jamiyat tamonidan ishlab chiqilib xayotga tadbik etiladigan qodekslar, kategoriylar, normalar, printsiplar, maskuraviy g'oyaviy va boshqa qonun-qoidalar kiradi. Ayni paytda axloqiy ong bilan xuquqiy ongning o'zoro farqi mayjuddir, bular:

1)Xuquqiy munosabatlar davlat tamonidan axloqiy munosabatlar esa jamoatchilik tamonidan c'tirof etiladi va o'rnatiladi.

2) Xuquqiy munosabatlar davlatning majburlov kuch tamonidan qo'riqlansa, axloqiy munosabatlar esa har bir insonning ichki e'tiqodi iymoni xam jamoatchilik fikri va uning ta'sir kuchi tamonidan muxofaza qilinadi.

3)Huquqiy munosabatlar davlat tamonidan chiqarilgan qonunlar va boshqa normativ xujjalarda o'z aksini topsa,ahloqiy munosabatlar esa "yozilmagan qonunlar"shaklida bo'ladi.

4) Huquqiy munosabatlar qonunda belgilangan huquq va burchlar orqali boshqarilib turilsa, ahloqiy munosabatlar esa ko'p xollarda umuminsoniy qadriyatlar asosida tartibga solib turiladi.

5) Huquqiy munosabatlarni buzganlik uchun davlat majburlov choralari ko'rilsa, axloqiy munosabatlarni buzganlik uchun esa jamoat ta'siri ko'rsatiladi.

Axloqiy munosabatlarni huquqiy munosabatlarga mutloqa qarama-qarshi qo'yib bo'lmaydi. Chunki ular o'zaro uzviy bog'liq bo'lib bir-birini to'ldiradi. Bu birlik axloqiy munosabatlar talabining xayot sinovlaridan o'tib, xuquqda o'z aksini topadigan hamda har qanday xuquqiy munosabatlarning chuqur halqchil axloqiy mazmun kasb etgan holda halqning kundalik hayotidan o'rin olishida namoyon bo'ladi.

Umuman olganda axloqiy va huquqiy munosabatlar o'z mazmuniga ko'ra ikki xil-boshqarish va qo'riqlash vazifasini o'taydi. Insoniyat uchun umumiy bo'lgan jixat ona Vatanga, davlatga, halqqa uning urf-odatlariga, an'analariga, ma'naviy-madaniy, huquqiy qadriyatlariga sodiq bo'lgan xolda mamlakatda ozodlik va obodliklikni,adolatni, tenglikni, qonun ustuvorligini insonparvarlikni, xalqlar urtasidagi qaror topishidan iboratdir.

Mustaqillik tufayli huquqiy ta'lim-tarbiya, huquqiy madaniyat va huquqiy ongga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish davlat faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Huquqiy va axloqiy madaniyatning o'zaro aloqadorligini huquq va axloq misolida ko'rib chiqilsa aniqroq bo'ladi. Ularning ichki birligi va o'zaro ta'sirchanligi shu bilan izohlanadiki, axloqiy va huquqiy usqurtmaning bir qismi, elementi hisoblanadi va yagona maqsad va vazifalarga ega, o'z printsiplari va mazmuni bilan bir-biriga muvosiq va bir birini to'ldiradi. Huquq axloqning ta'sirchanligini kuchaytirgani kabi axloq huquqning samaradorligini oshirishga yordam beradi. Amalda hamma huquqiy normalar axloqiy asosga ega.

Qonunlarga riosa etish fuqarolarning shuningdek, nafaqat yuridik balki ma'naviy majburiyati hisoblanadi. Huquqiy normalarni mukammallashtirishda axloq katta rol o'ynaydi, huquq normalari esa uni odamlar ongiga singdirishga yordam beradi. Huquqiy madaniyatning axloqiy madaniyat bilan bog'liqligi quyidagi axloq kategoriylarida namoyon bo'ladi: to'g'rilik va haqqoniylilik, insoniylik va ishonch, vijdon va javobgarlik xissi va boshqalar.

Konstitutsiyaviy normalarda ham axloqiy printsiplarni, huquqiy va axloqiy majburiyatlar birligi bilan mustahkamlab qo'yilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 48-moddasida "Fuqarolar konstitutsiya va qonunlarga riosa etishga, boshqa kishilarining uquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar" deb belgilab qo'yilgan.

Huquq va axloqning uzviy aloqadorligini huquqshunos olim Z.Islomov chuqur taxsil qiladi. Huquq bilan axloq o'rtasidagi nisbatlar etarli darajada murakkab, u birlik, tafovut, hamkorlik va qarama-qarshiliklardan iborat to'rt tarkibiy qismni o'z ichiga olishini ko'rsatib o'tadi.

Yuridik adabiyotlarda «huquqiy madaniyat» degan kategoriya ishlataladi. Bu kategoriya yuqoridaq ko'rsatib o'tilgan echimlarni topishga yordam beradi, chunki bu kategoriya axloqiy-huquqiy ta'sirni kompleks xolda tushunishga olib keladi. Huquqshunoslik ilmiga doir adabiyotlarda ko'rsatilishicha huquq va axloqning nufuzi insonlarning davlatda qilinayotgan ishlarga ichki munosabatidir. Darhaqiqat huquqning mavjudligi qonunlarning moddalari va qismlarida emas balki butun jamiyat a'zolarining ongida qay darajada aks etishi bilan belgilanadi.

Huquq bilan axloqning o'zaro aloqadorligiga doir tadqiqotlarni olib borgan huquqshunos olima R.E.Turdiboeva o'zining "Talaba yoshlarda huquqiy madaniyatni shakllantirish muammolari" deb nomlangan nomzodlik dissertatsiyasida "Huquq bilan axloqning o'zaro aloqadorligining o'ziga xos tomoni – o'zaro birikuvdaligi va o'zaro ta'sirdaligidir. O'zaro birikuv huquqiy jamiyatimizda hukmron bo'lgan axloqqa asoslangandagina namoyon bo'ladi, axloq esa barcha huquqiy normalar mazmunini o'zida singdiradi. Huquq axloqiy ko'rinishlarni o'zida namoyon etadi, ya'ni biror bir huquqiy ko'rsatmalarga amal qilmaslik yoki huquqbazarlik axloqiy hatti-harakat sifatida ko'riliadi", - deya ta'kidlaydi. Shuningdek, mazkur tadqiqotda huquqiy va axloqiy madaniyatni shakllantirish turli yo'naliishlarda amalga oshirilsada, quyidagilar asosiy omil sifatida ko'rsatiladi:

Birinchidan, yoshlarga huquqning axloqiy qimmati jamiyat taraqqiyotining asosiy harakatchisi ekanligini ko'rsatish va asoslash. Huquq madaniy jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy asosini va siyosiy tuzumni mustahkamlaydi, shuningdek insonlarning hatti-harakatini ijtimoiy jihatdan tartibga soluvchi, ilmiy va madaniy qadriyat sifatida namoyon bo'ladi. Huquq jamiyat uchun axloqiy qadriyatlarni namoyon etadi, shu bilan birga uning yordamida jamiyatning axloqiy qoidalarini qo'riqlaydi. Huquq axloqsizlikka qarshi kurashning asosiy va samarali qurolidir. Uning qiymati shundaki, umummajburiy huquqiy ko'rsatmalar asosida axloqiy norma va pritsiplarni joriy etish amalga oshiriladi. Shuning bilan birga huquq insonning qadr-qimmati, sha'ni, daxlsizligi kabi axloqiy ne'matlarni qo'riqlaydi, kafolatlaydi.

Ikkinchidan, huquqiy va axloqiy tarbiyaning birdan bir vazifasi yoshlarda ma'naviy yuksaklikka intilishni shakllantirishdir. Axloqiy tarbiya huquqiy tarbiyaning asosini tashkil etishini har doim alohida ko'rsatib o'tish joiz. Chinakam ma'naviy barkamol, axloqan pok inson hech qachon qonunga qarshi ish ko'rmaydi, doimo qonunga itoatkor jamiyat a'zosi ekanligini ko'rsatadi.

Uchinchidan, huquqiy tarbiya jarayonida huquqning umumaqlig' xarakterini va yuridik ko'rsatmalarga rioya etish kabi qonunning talablarini e'tiborga olgan xolda yoshlarda huquqiy normaga, normativ aktga va boshqa huquqiy aktlarga axloqiy jihatdan baxo bera olishlikni shakllantirishga intilish kerak.

Huquqiy madaniyat huquqiy ta'sir ko'rsatish mexanizmida mustaqil o'rinn tutadi. Ular siz qonun yaratish ham, ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish ham mumkin bo'lmaydi. Chunki huquqning mayjudligi inson bilan chambarchas bog'langandir. Huquqiy madaniyat ijtimoiy madaniyatning siyosiy madaniyatga o'xshash bo'lmasan maxsus shakli sifatida namoyon bo'lsada. ammo unga falsafiy, siyosiy, ma'naviy (axloqiy qarashlar ta'sir etib turadi).

Ta'kidlash o'rinnligi, huquqiy madaniyatning axloqiy madaniyat bilan aloqadorligi muayyan jihatlarga ko'ra ta'limgaraytida yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunki ta'limgaraytida asosiy masadi – yoshlarda yuksak huquqiy madaniyatni va axloqiy fazilatlarni shakllantirishdan iboratdir. Bu borada "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da ta'limgaraytida oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish hamda ta'limgaraytida oluvchilarning yuksak tayyorlarlik darajasi, malakasi, madaniy va ma'naviy-axloqiy saviyasining sifatiga nisbatan qo'yiladigan zarur talablarni belgilab beruvchi davlat ta'limgaraytida standartlarini yaratish va joriy etish masalalariga jiddiy e'tibor qaratilgan. Shuning uchun ham "Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzuksiz ta'limgaraytida orqali har tomonlama barkamol shaxs – fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi. Shu tarzda fuqaroning eng asosiy konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bilim olish, ijodiy qobiliyatni namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanish, kasbi bo'yicha mehnat qilish huquqi ro'yobga chiqariladi" – deb ko'rsatiladi. Bu ko'rsatma pirovardida mohiyatan axloqning huquq bilan, axloqiy madaniyatning huquqiy madaniyat bilan o'zaro aloqadorligini ta'minlaydi.

Darhaqiqat axloq bo'lmasa inson ijtimoiy shaxs sifatida shakllanmaydi. Faqat etuk axloqgina kishilarda hayotning mazmuni va maqsadi to'g'risda xaq tushunchalarni hosil qiladi. Shu bois ma'naviy-axloqiy madaniyat huquqiy madaniyatni shakllantirishda birlamchi ahamiyatga egadir.

Axloqiylik yoki noaxloqiylikka oid bilimda gap faqat inson hatti-harakatlari haqida emas, balki ularning o'y-istik va xoxishlari haqida ham ketadi.

I.Kant huquq va axloq munosabati masalasida huquq kabi axloqni ham ikkita katta guruhga bo'ladi. Umuman axloq va jamiyatning alohida olingen a'zolarining, ya'ni individrlarning axloqi. Ana shulardan kelib chiqib, huquq haqidagi ma'lumot axloqiy ta'limgaraytida asoslanmasligi kerak deb hisoblaydi. Amaliy aql huquqning turli sohalarida ana shu aqlning asosiy qonuni hisoblangan - erkinlik (avtonomiya) qonunidan kelib chiqmog'i lozim.

Umuman, erkinlik tushunchasi - Kant «amaliy falsafasini», xususan huquq falsafasining asosiy tushunchalaridan biri hisoblanadi. Erkinlik tushunchasi orqali I.Kant huquq falsafasini axloq va din falsafasi bilan bog'lab tahlil etadi.

Erkinlik esa individning shaxsiy axloqining asosi bo'lishi bilan bir qatorda ijtimoiy hayotning maqsadi hamdir. Binobarin, jamiyatning bir butun siyosiy hayotida uchraydigan ziddiyatlar va ularni hal etish yo'llari mana shu erkinlik sari intilishdan iboratdir.

Shunday qilib, huquq va axloq munosabati masalasi ularni bir-biridan ajralgan holda mavjudlik munosabati bo'lmaydi. Huquq axloqiy qarashlardan farqli ravishda, inson hatti-harakatining ichki ruhiy holatlарини ,uning kechimlарини e'tiborga olmaydi. Masalan, qarz beruvchi shaxs qarzdordan qarzni ichki ruhiy holatlардан, ongilik, axloqiyilik nuktai nazardan kaytarishga majbur ekanligini ta'kidlay olmaydi. Bu holda faqat qonun yo'li bilan mavjud huquqiy normalar asosida, zarur hollarda majburlash yo'li bilan ish kuriladi. Garchi axloqiy qonunlarda faqat axloqiy majburiyatlar emas, balki shaxsnинг yuridik majburiyatları ham o'z ifodasini topadi.

Huquqiy tartibot normalariga I.Kant huquq falsafasida quyidagilar kiradi. a) qonun chikaruvchilar tizimida xalq vakillarining qatnashishi; b) hokimiyatni qonunchilik asosida qurish.

Shunday qilib I.Kant ta'kidlashicha ideal huquqiy davlat jamiyat tarixiy taraqqiyotining oxirgi maqsadidir. Bu maqsad sari intilish doimo tadrijiy sekinalistik bilan amalga oshirilishi mumkin. Zero jamiyat taraqqiyotining ideal huquqiy davlat kurish yo'lida rivojlanishi ob'ektiv tarixiy zaruriyatdir. Demak, har qanday davlat tuzilishi huquqiy davlat kurish maqsadidan begonalashsa, unda u o'zining mavkeini, ahamiyatini uzoq vaqt saqlay qolaolmaydi.

Gegel o'zining huquq falsafasida tabiiy huquqni izohlashning uchta ilmiy usulini alohida qayd etadi: 1) empirik, ya'ni amaliy usul. (I.Kantgacha bo'lgan faylasuflarning, jumladan T.Gobbs, J. Russo va boshqalarning konsepsiyalari); 2) Rasmona, ya'ni (formal), (Kant, Fixte va ularning izdoshlarining konsepsiyalari) usuli va 3) absolyut (mutloq )usul. (Gegel konsepsiysi).<sup>1</sup> Gegel huquq falsafasining asosini, uning ruh falsafasiga oid g'oyalari tashkil etadi. Gegel falsafasida ruh taraqqiyoti dialektikasining asosiy bosqichlari quyidagilardir: 1) Sub'ektiv ruh (antropologiya, fenominologiya, psixologiya); 2) Ob'ektiv ruh (huquq, axloq, odob) va 3) Absolyut ruh (san'at, din,falsafa).

Huquq falsafasining asosiy vazifasi - davlat va huquqni qanday bo'lishi kerakligi haqidagi kursatmalar berishidan iborat bo'lmay, balki davlat va huquq nazariyasining ilmiy bilishdan iboratdir. «Huquq haqidagi fan,-deb yozadi Gegel-falsafaning ajralmas bir qismidan boshqa narsa emas».

Gegel huquqiy asorizmlaridan biri «Shaxs bo'l va boshqalarni ham shaxs sifatida hurmat qib» ni huquq falsafasining inson va davlat huquqiga oid bobiga asos qilib oladi. Lekin u, kishilarning huquqiy tengligini rasmiy (formal) harakterga ega ekanligini asoslaydi. Ammo kishilar erkin shaxs sifatida va mulkka munosabati (xususiy mulkni xajmi, kulami emas)ga binoan teng huquqlidirlar. Shu munosabat bilan Gegel Platonning ideal davlatda qonunchilikka oid g'oyalarini tanqid qiladi. Umuman olganda Gegel huquq falsafasining asosiy muammolaridan biri—bu inson erkinligi va uning huquqiy munosabatlari masalasiadir

Gegel huquq falsafasiga oid ta'limotida faqatgina falsafa emas, balki yuridik fanlar ham “tafakkur fanlari” va huquq haqidagi haqkoniy fan bu huquq falsafasidir deb hisoblaydi. “Huquq haqidagi fan-deb ta'kidlaydi Gegel,-falsafaning bir qismidan iboratdir”<sup>1</sup>. Shundan kelib chiqib, huquq falsafasining predmetining Gegel quyidagicha ta'riflaydi: “Huquq haqidagi falsafiy fanning predmeti huquq g'oyasi—huquq tushunchasi va uning hayotga joriy etilishidan iboratdir”<sup>2</sup>.

Eng yangi davr axloq falsafasidagi muhim yo'nalishlar. Davlatning va undagi boshqarishning xususiyatlarini bilish uchun aholining fikrlash, ishlash va yashash tarziga nazar tashlash etarlidir. Chunki, Gobbs aytganidek, «kishilarning axloqi, affektlari va mayllari davlatning xususiyatlarini namoyon etib turadi». O'zini o'zi boqolmaydigan, boshqarish ishlariiga befsaq, huquqini bilmaydigan, nohaqlikka «yo'q» deb qarshi chiqolmaydigan xalqning davlatini kimlar va qanday boshqarishini payqash qiyin emas

Axloq, odob qonunlarini bad axloqlik va zo'ravonlikni qo'llab-quvvatlashga aylantirishdek illatlar bo'limganida yuridik qonunlarni ishlab chiqishga hojat qolmasdi

Huquq falsafasi axloqni ayniksa, metafizik tafakkurni huquqqa bog'lash, ya'ni shaxs huquqi va majburiyati haqida mavxum konsepsiyalar, adolatning mohiyati, tabiiy huquq va x.k.larni o'rganmog'i lozim bo'lgan edi. Huquq falsafasi huquqning ichki mohiyati va ahamiyatini, mazmunini o'rganadi. Yuqorida qayd etilgan fikrlardan kelib chiqib, huquq falsafasi davlat va huquqning u yoki, bu jihatni bo'lmay, balki ularning birligi va jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liqligidir.

Shunday qilib huquq falsafasi, huquq nazariyasiga nisbatan bir muncha keng kamrovli muammolarni o'z ichiga oladi va u huquqiy tamoyillarni ya'ni huquq yaratuvchilik va huquqni amaliyatga qo'llashning asosi bo'lgan axloqiy-huquqiy tamoyillarni o'rganadi.

Har bir inson madaniyati uning ma'naviy olamining asosiy omilidir. Huquq esa ana shu madaniyatning asosiy qismini tashkil etib, hayotda, yashash tarzida muhim me'yor hisoblanadi. Sharq xalqlarining madaniyati, urf-odatlari, umuman

<sup>1</sup> Гегель Философия права. М., 1990, с 60

<sup>2</sup> В.С Нерсесян Философия права. Москва 1998 с 59

ma'naviyati boshqa xalqlariniidan butunlay farq qiladi. Sharq dunyoga shunday buyuk mutafakkirlarni berdiki, ular qoldirgan moddiy va ma'naviy meros nasaqat o'z xalqimiz, balki butun jahon xalqlari tomonidan ham tan olingen. Shunday ekan, Sharq xalqlarining, jumladan, o'zbek xalqining huquqiy-axloqiy, tarbiyaviy madaniyatining poydevori nihoyatda pishiqlik, ildizlari mustahkam ekanligiga shubha yo'qdir. Mustaqil mamlakatiniz fuqarolari o'z Vatanini, millatini, madaniyatini nima uchun sevish, qadrlashlari zarurligini tushuntirish, shuningdek, huquqning axloqiy jihatlarni hamda axloqning huquqiy kafolatlanganligini fuqarolar ayniqsa, yoshlar ongiga singdirish bugungi kunda dolzarb vazifalar sirasiga kiradi. Va aytish mumkinki, bu — tarbiya sohasidagi olimlar oldida turgan burchdir.

Axloqni ijtimoiy hayotga joriy etilishi, ya'ni uning «huquqi» rasmiy ruxsatnoma, yoki boshqa biror bir huquqiy hujjatning bu haqidagi bo'lishni talab qilmaydi. Eng muhimmi, jamiyat a'zolari, ijtimoiy guruhlar, jamoatchilik tomonidan axloqiy normalarni ma'qullanishi va qabul kilinishidir. Axloqiy normalarning shakllanishida va rivojlanishida davlat jamiyat ustqurmaviy jarayonlarining ham ahamiyati katta bo'ladi. Bundan tashqari huquq va axloq tarixiy va madaniy qadriyatlar bo'lib, jamiyat taraqqiyotini belgilovchi mezonlardan biridir. Huquq ijtimoiy normalarning boshqa turlaridan, xususan axloqdan farq qiladi. Huquqiy normalar jamoat tashkilotlari bilan kelishilgan holda, davlat tomonidan tasdiklanadi. Davlat bilan huquq bir-birlari bilan uzviy bog'liq bo'lsada, axloq esa muayyan darajada davlat bilan bir muncha nisbiy aloqada bo'ladi.

Huquqiy normalarga nisbatan, axloqiy normalarning ta'sir doirasi ya'ni ijtimoiy makoni kengrok bo'ladi. Huquq ijtimoiy hayotning muhim yo'naliishlarini tartibga soladi. Kishilar o'rtaqidagi munosabatlarni sevgi, do'stlilik, o'zaro yordam, insof kabi huquqiy normalardan ma'lum ma'no darajada «tashqarida» bo'ladi.

Axloqiy va huquqiy normalarning shakllanishi va rivojlanishida urf-odatlar, an'analar, hamda diniy ta'limotlar ham ijobjiy rol o'ynashlari zarurligini e'tibor etmoq lozim.

Huquq va axloq o'rtaqidagi munnosabatlар o'ziga xos dialektik harakterga ega bo'ladi. Huquqiy normalar asosida tartibga solinadigan insonning hatti-harakatlari ayni paytda, axloqiy normalarning ham ishtirokida amalga oshadi, ammo axloqiy normalar tartibga soluvchi inson hatti-harakatlariда har doim huquqiy normalarining namoyon bo'lishini, ya'ni bu jarayonda ularni «katnashishlarini» taqozo etmaydi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, axloqiy normalar, huquqiy normalarga nisbatan o'zining o'zok utmishiga ega bo'ladi. Ya'ni axloq jamiyat raydo bo'lishi bilan bирgalikda mavjud bo'ladi. Huquq esa jamiyatning tadrijiy rivojlanishining ma'lum bosqichida paydo bo'ladi. Huquq tushunchasi amerikalik huquqshunos olim Loures Friddmanning tarisiga ko'ra «lahza kabi o'tkinchi, suv pufagi kabi

nobarqaror, chinni idishtlar kabi nozik, benixoya ko'p qiralariga ega bo'lgan» tushunchadir<sup>1</sup>

Ma'naviy qadriyatlarimiz asta-sekinlik bilan tiklanar ekan, xalqlar orasida, jinoyatning ildiziga bolta uriladi, har xil jinoyatlarning oldini olish choralar ko'rildi. Ma'naviyat, so'zsiz, jamiyat taraqqiyotida salmoqli o'rinni egallaydi, boshqacha-roq aytganimizda ma'naviyat huquqiy davlat tayanchidir. Fuqarolarning ma'naviy etuklik darajasi yuqori bo'lgan takdirdagina ular ijtimoiy hayotning taraqqiyot qonunlarini, huquqiy davlatning mohiyatini va insoniyatga adolatli hayot kechirish kafolatini berishini yaxshi biladi.

Huquqiy, axloqiy borada sharq xalqlarining o'z tushunchalari mavjud. U milliy ta-rixga, azaliy qonun-qoidalarga asoslanadi. Lekin bu xalqlarda huquqiy madaniyat tu-shunchasi axloq, odob, madaniyat tushunchala-ri bilan qorishiq holda tushunilganligini biz Navoiy, Bobur, Forobi, Amir Temur singari buyuk zotlar asarlarini, vasiyatno-malarini o'qish, mushohada qilish bilan tu-shunib etamiz. Mir Alisher Navoiyning safdoshi va shogirdlaridan biri Husayn Voiz Koshifiy «Ijtimoiy axloqiy fazilatlarni yuzaga chiqarishning asosiy vositasi» deb ilm-ma'rifat bilan axloqiy tarbiyani tu-shunadi. Uning “Insonning qadr-qimmati uning mol-mulki yoki ijtimoiy kelib chiqishi bilan emas, balki uning ma'naviy qiyofasi, axloqiy sifatlari bilan o'lchanadi”, - degani ham bejiz emas.

Zamondoshlarimizda huquqiy madaniyatni shakllantirish ishida bugun xalqimizning asrdan-asrga o'tib kelayotgan og'zaki ijodi, milliy urf-odatlari, an'analari va marosimlar, hadislar, sharq xalqlari mutafak-kirlarining asarlaridan foydalinish mavrudi kelganligi shubhasizdir. Fuqarolar-ning xulqi, axloqi, shubhasiz, ularning xat-ti-harakatlariga, ichki madaniyatiga, iroda-siga, jamaot joylarida o'zini tuta bilishi-ga ta'sir etishi tabiiyidir. Ular huquqiy normalar mohiyatini tushuna borib huquqiy madaniyatga erishadi va qonun-qoidalarga hurmat bilan qaray boshlaydi. Kishilar faoliyatidagi huquq normalariga talab kuchayib borishi natijasida har bir shaxsning huquqiy ongi, huquqiy madaniyatni takomillashib boradi. Intizom anasha jurayonda huquq bilan axloqni bog'lovchi mezonga aylanadi. Zero, intizom bir paytning o'zida ham axloqiy madaniyatni ham huquqiy madaniyatning barqarorligini ta'minlaydi. Zero, alloma Abdulla Avloniy ta'biri bilan aytganda, “Intizom deb qiladurgon ibodatlarimizni, ishlarimizni har birini o'z vaqtida tartibi ila qilmoqni aytilur. Agar er yuzida intizom bo'lmasa edi, insonlar bir daqiqqa ishonmas edilar”. Intizom esa, biz bilamiz, qonunlar asosiga quriladi.

Shunday qilib huquq inson hatti-harakatlarini tartibga solibgina qolmay, uning hissiyotiga, ongiga ham ta'sir etadi. Huquqning ta'sirchanligi uning kuchli

ijtimoiy norma ekanligi va bevosita huquqning muhim tamoyillarini hayotga joriy qilish bilan bog'liq bo'ladi. Ayniksa umumhuquqiy tamoyillariga rioya qilish muhim ahamiyatga egadir. Bunday tamoyillar jumlasiga quyidagi tamoyillarni kiritish mumkin: a) Adolatlilik tamoyili. Bu tamoyil huquqning umumijzitmoi, falsafiy mohiyatini ifodalaydi. Adolatlilik tamoyili jamiyatda huquqiy munosabatlarni katnashchilarini o'zaro kelishuvi, shaxs va jamiyat, fukaro va davlat munosabatlarni mutanosiblashtirishga karatilgan bo'ladi. Qonunlar esa adolatlilik tamoyili asosida ana shu nisbatni in'ikosidir. B) Huquqiy normalarning shakllanishi va hayotga joriy kilinishida demokratizatsiya tamoyili. Bu tamoyilning o'ziga xos jihatni shundaki, huquqiy normalarni amaliyotga tabik qilishda xalq noiblari, jamoat tashkilotlari, nodavlat tashkilotlar mexnat jamoalarining turli partiylar va fukarolarning faol qatnashchilaridan iboratdir. v) qonunchilik tamoyili. Huquqning tub falsafiy mohiyatlaridan biri bu uning insonparvarligidadir. Ya'ni jamiyatda fuqarolarni noqonuniy, gayriinsoniy tajovo'zlardan saqlash mazkur tamoyilning asosiy mazmunini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi xukuiy normalari va rivojlanishi takomillashuvi, davlatimiz konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan davlatning oila haqidagi g'amxurligi (63-moddalar, XIV bob.) gumanistik tamoyilini hayotga joriy etilishining namunalari sifatida O'zbekiston Respublikasida keyingi paytlarda qabul qilingan nafakalarni, stipendiyalarni va maoshlarni oshirish haqidagi qonunlarini keltirish mumkin. Yuqorida qayd etilgan tamoyillarni amaliyotga joriy etish, huquqning ijtimoiy normalar tizimidagi asosiy vazifalariga bog'liq bo'ladi. Huquqning vazifasi deganda, uning ijtimoiy makomini ijtimoiy hayotga joriy etishiga aytildi. Ijtimoiy makomning belgilovchi asosiy me'yor, bu jamiyat rivojlanishida yuzaga keladigan ehtiyojidir.

Shu o'rinda ahloq bu-jamiyat zamon insoniyat tarixi uchun na'muna bo'la oladigan ijjobiy xatti xarakatlar yig'indisi, insoniy kamolot darajasini belgilovchi ma'naviy xodisa. Inson va jamiyat o'rtasidagi ob'ektiv aloqadorligi tufayli kelib chiqadigan, shaxsiy va umumiyl manfaatlarni birlashtirib turish asosida har bir shaxs xayoti va faoliyatini boshqaradigan tartibga soladigan muayyan hulq atvor, odob, xatti-xarakat prinsip va normalarning majmuidir. Ahloqiy ong esa jamiyatda yashovchi har bir insonning mehnat faoliyati xatti-xarakatlari uning ongi orqali boshqariladi. Chunki ong kishilarning ob'ektiv vokealikni, yani jamiyatni tabiatni aks ettiruvchi g'oyalari nazariyalari, siyosiy, axloqiy falsafiy diniy, estetik qarashlar va kechinmalar shaklida namoyon bo'ladi. Binobarin, axloqiy ong ijtimoiy ongning bir ko'rinishidir. Axloqiy ong ikki ajralmas qismdan - individual ong va ijtimoiy ong iborat individual axloqiy ong tarkibiga shaxsning xis-tuyg'usi fikr muloxazalari kabilar kirsa, ijtimoiy axloqiy ong tarkibiga esa jamiyat tamonidan ishlab chiqilib xayotga tadbiq etiladigan qodekslar, kategoriylar, normalar,

prinsiplar, maskuraviy g'oyaviy va boshqa qonun-qoidalar kirdi. Ayni paytda axloqiy ong bilan xuquqiy ongning o'zoro farqi mavjuddir,bular:

1)Xuquqiy munosabatlar davlat tamonidan axloqiy munosabatlar esa jamoatchilik tamonidan e'tirof etiladi va o'rnatiladi.

2) Xuquqiy munosabatlar davlatning majburlov kuch tamonidan qo'riqlansa, axloqiy munosabatlar esa har bir insonning ichki e'tiqodi iymoni xam jamoatchilik fikri va uning ta'sir kuchi tamonidan muxofaza qilinadi.

3)Huquqiy munosabatlar davlat tamonidan chiqarilgan qonunlar va boshqa normativ xujjalarda o'z aksini topsa,ahloqiy munosabatlar esa "yoziilmagan qonunlar"shaklida bo'ladi.

4)Huquqiy munosabatlar qonunda belgilangan huquq va burchlar orqali boshqarilib turilsa,ahloqiy munosabatlar esa ko'p xollarda umuminsoniy qadriyatlar asosida tartibga solib turiladi.

5) Huquqiy munosabatlarni buzganlik uchun davlat majburlov choralar ko'rilsa,axloqiy munosabatlarni buzganlik uchun esa jamoat ta'siri ko'rsatiladi.

Axloqiy munosabatlarni huquqiy munosabatlarga mutloqa qarama-qarshi qo'yib bo'lmaydi. Chunki ular o'zaro uzviy bog'liq bo'lib bir-birini to'ldiradi.Bu birlik axloqiy munosabatlar talabining xayot sinovlaridan o'tib,xuquqda o'z aksini topadigan hamda har qanday xuquqiy munosabatlarning chuqur halqchil axloqiy mazmun kasb etgan holda halqning kundalik hayotidan o'r'in olishida namoyon bo'ladi.

Umuman olganda axloqiy va huquqiy munosabatlar o'z mazmuniga ko'ra ikki xil-boshqarish va qo'riqlash vazifasini o'taydi.Insoniyat uchun umumiy bulganjixat ona Vatanga, davlatga, halqqa uning urf-odatlariga, an'analariga, ma'naviy-madaniy, huquqiy qadriyat sodiq bo'lganxolda mamlakatda ozodlik va obodliklikni, adolatni, tenglikni, qonun ustuvorligini insonparvarlikni,xalqlar zrtasidagi qaror topishidan iboratdir.

Ammo bugungi globallashuv jarayonida yoshlarning axloqiy madaniyati va huquqiy savodxonligi masalasi asosiy muommoga aylanmoqda. Texnika texnologiyalar jamiyat hayotini to'liq qamrab olayotgan bugungi davrda, tashqi tasirlardan himoyalanish, internet xurujlaridan saqlanish unga qarshi g'oyaviy immunitetni shakkantirish uchun chora –tadbirlar zarur. Agar vayron qiluvchi kuchi cheksiz bo'lgan, tafakkuri esa ko'p jihatdan inson tafakkuriga yaqinlashgan elektron-kibernetik moslamalar yaratilgani va va yaratilayotganini eslasak, mashinalarning kuchi va qudrati haqidagi ushbu fantastik hikoya haqiqatdan uncha uzoq emas. Shu munosabat bilan tabiiy bir savol tug'iladi: ushbu mashinalar insonga foyda keltiradimi yoki zararmi? Misol uchun, atom va vodorod bombasi, barcha tabiiy va sun'iy to'siqlardan oshib o'tib, nishonni aniq uradigan raketalalar va boshqa

shunga o'xshash kashfiyotlarni eslaydigan bo'lsak, ularni zudlik bilan yo'q qilish kerak, degan fikr tug'iladi.

Ammo, texnik kashfiyotlar, chunonchi, inson og'irini engil qiladigan uyo'zg'or asboblaridan boshlab, biologiya, elektrotexnika, tibbiyat va h.k. sohalardagi ajoyib texnik kashfiyotlarga odamlarga qanchalik foyda keltirishini eslasak, beixtiyor insoniyat dahosiga tahsin ayta boshlaymiz.

Shu nuqtai nazardan, hozirgi zamон texnikasi yuzining bir tomoni yaxshilikka, ikkinchi tomoni esa – yomonlikka qaragan Yanus (ikki yuzli odam) obrazida namoyon bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda fan va texnika organik va noorganik tabiatga o'z hukmini o'tkazmoqda. Noorganik materiya sohasida - bu qurilish texnikasi, elektronika, issiqlik texnikasi, fizik-kimyoviy texnika, energetik texnika va texnologiya va h.k. Organik tabiat sohasida esa, bu qishloq xo'jalik texnikasi, shuningdek texnika predmeti doirasiga butun biologiyani kiritish imkonini beruvchi biotexnologiya.

Ayni vaqtida, fikrlash, bahslashish, o'rganish, xotira texnikasi («mnemotexnika»), rassomlik, musiqiy asboblarni chalish texnikasi, shuningdek odamlarni, ishlab chiqarishni, davlatni boshqarish texnikasi ham mavjud.

Fan-texnika taraqqiyoti umumiy jarayonida mehnat unumidorligi keskin oshishiga olib keluvchi ishlab chiqarish kuchlarining sifat jihatidan o'zgarishi bilan bog'liq muhim bosqichlarni ajratish mumkin. Birinchi bosqich ishlab chiqarishning mexanizatsiyalashuvi bosqichi bo'lib, u insonni og'ir jismoniy mehnatdan xalos qildi va mehnat unumidorligini bir necha baravar oshirdi. Ikkinci bosqich avtomatlashtirish jarayoni bo'lib, u avtomatika, elektronika, hisoblash texnikasi sohasida erishilgan ilmiy yutuqlar bilan bog'liq. Ushbu bosqich avtomatlashtirishning oliy shakllari – tsexlар, zavodlarni avtomatlashtirishga o'tish, mehnat unumidorligini oshirish imkoniyatini yaratdi.

Kompyuterlashtirish bilan bir vaqtida hayotga borliqning yangi turi – «virtual borliq», sun'iy tarzda yaratilgan, haqiqiyedek muomala qilish mumkin bo'lgan soxta muhit ham kirib kelmoqda. Ushbu yangi texnologik muhit inson ruhiyatiga kuchli (va hozircha oqibatini oldindan aytib bo'lmaydigan) ta'sir ko'rsatmoqda. Bugungi kunda mazkur istiqbol xususan kompyuter o'yinlari manyaklari va «virtual borliq»qa ekstatik darajada berilganlik hodisalarida namoyon bo'immoqda.

Kelajak jamiyatini kompyuter texnologiyasi zamirida vujudga keladigan axborot jamiyatni deb tavsiflar ekanmiz, bunga bir muhim qo'shimcha qilish kerak, deb o'yaymiz. Ayrim tadqiqotchilar (masalan, A.D.Ursul) qayd etib o'tganidek, ushbu jamiyat nafaqat informativ, balki ekologik bo'lishi ham kerak. Postindustrial jamiyatda axborot muammolari birinchi o'ringa chiqishi «jamiyat - tabiat» munosabatlardagi barcha masalalarni xal qilmaydi. Dunyo miqyosida tahdid solayotgan ekologik inqiroz jamiyat insoniyat va uning tabiiy-ekologik muhitini

oqilona nisbatiga erishish tomonga yuz burishini qattiq taqozo etadi. Ishlab chiqarish tabiat uchun xavfsiz bo'lishi kerak. Aks holda biz o'zimiz yashayotgan tabiiy muhitni o'zimiz halokatga uchratishimiz mumkin.

Hozirgi tsivilizatsiya – jamiyat taraqqiyoti uchinchi to'lqini tsivilizatsiyasi fan-texnika taraqqiyoti yutuqlariga asoslangan postindustrial axborot jamiyatini vujudga keltirmoqda. Bunda fan va texnika sintezi butun insoniyat hayotining sifati va turmush darajasi jiddiy o'zgarishiga olib keladi.

Fan taraqqiyotida ayrim futurologlar ta'kidlaganidek barcha jarayon risoladagidek silliq emas. G'arb mamlakatlari turmush darajalari ko'tarilib borishi bilan, dunyoda millionlab aholi ochlik tufayli nobut bo'lmoxda. Militarizim uchun xizmat qilishga yo'naltirilgan fan, bugungi kunda dunyoni termoyadro inqiroziga olib boruvchi qurollanish poygasiga sabab bo'lmoxda. Hozirgi zamon fanining ijtimoiy-istisodiy muammolari haqida jiddiy muloxaza yuritganda, BMT ma'lumotiga ko'ra, dunyoda faoliyat ko'rsatayotgan ilmiy xodimlarning 25 foizi, ilmiy tadqiqotlarga sarf etiladigan sarmFanda fundamental kashfiyotlarni va uning oqibatlarini oldindan ko'ra bilmaslik uning tabiatiga xos xususiyatdir. Ilmiy texnika yangiliklarining foydasini baholab turishga, agrada ko'zda tutilgan natijalarga erishilmasa, ulardan o'z vaqtida voz kechishga doimo tayyor turmoq lozimoyanining 40 foizi harbiy sohaga jalb etilganligini anglash muhimdir.

Zamonaviy bolalar kompyuter o'yinlari olami hamda ijtimoiy tarmoqlar kengayib borayotgan davrda o'sib, ulg'aymoqda. Bu quvonarli hol albatta. Biroq har narsaning me'yori bo'lmog'i zarur. Bolalar virtual olamning haqiqiy olam emasligini bilib borishlari shart. Ba'zan bolalar kattalar tomonidan nazoratsiz va ularning ruxsatisiz tarmoqqa tashrif buyurish imkoniga ega bo'lib qoladilar. Bolalar va o'smirlar Internet tarmog'ida sayr qilarkan, ularga umuman kirish mumkin bo'lmagan saytlarga duch kelishlari mumkin.

Bu quvonarli hol albatta. Biroq har narsaning me'yori bo'lmog'i zarur. Bolalar virtual olamning haqiqiy olam emasligini bilib borishlari shart. Ba'zan bolalar kattalar tomonidan nazoratsiz va ularning ruxsatisiz tarmoqqa tashrif buyurish imkoniga ega bo'lib qoladilar. Bolalar va o'smirlar Internet tarmog'ida sayr qilarkan, ularga umuman kirish mumkin bo'lmagan saytlarga duch kelishlari mumkin.

Tabiiyki, bunday axborotlar qiziquvchan bola va o'smirni o'ziga ko'proq jalb etadi. Biroq harakatni amalga oshirishda bolalarga qanchalik ruxsat etilmasa, ularda shunchalik yuqori darajada qiziqish uyg'onishi barchaga ma'lum. O'smirlar tarmoqdagi nosog'lom turmush tarzidan axborot beruvchi ayrim manbalarga duch kelsalar, yanada qiziqib, mazkur axborotlarga alohida e'tibor qaratishlari ehtimoldan holi emas. Shu sababdan kattalar farzand tug'ilgan kundan boshlab ulariga issiq choynak, qozonlarga yaqinlashish, pichoq, qaychi kabi o'tkir uchli narsalarga tegish

mumkin emasligini onglariga singdirganlari kabi, tarmoqdagi axborotlar ham xavfli ekanligini tushuntirishlari, ularda axborottlardan to'g'ri foydalanish salohiyatlarini shakllantirishlari zarur. Albatta, Internet tarmog'i manbalari zamonamiz o'smirlari bilim doirasini, dunyoqarashini kengaytirishi bilan ayrim jihatlariga ko'ra ularning tarbiyasiga nafaqat salbiy, balki xavfli ta'sir ko'rsatishi ham mumkinligini unutmasligimiz zarur.

Axloq me'yorlari, axloqiy etuklik mezonlari ma'lum bir tarixiy davrning, sharoitlarning imkoniyati va ehtiyoji bilan belgilanadi. Axloqiylik va axloqsizlikning mezonlari har bir muayyan davrdagi kishilarning xatti-harakatlarini muayyan sharoitlardan, ehtiyojlardan kelib chiqqan holda ta'qiqlash yoki ma'qullashdir. Axloqiy ta'qilalar jamoatchilik fikri, qonunlar hamda turli e'tiqodlar asosida belgilanadi. Axloqiy etuklik darajasini ham bir shaxs emas, balki jamoatchilik belgilaydi. Insonlar o'rtaсидagi munosabatlarni axloqiy yoki g'ayriaxloqiy, deb baholash jamiyat a'zolarining imoni, e'tiqodi, dunyoqarashi, manfaati darajasiga ham bog'liq bo'ladi.

Shaxsning ma'naviy kamolotga erishishi jarayonida shakllangan komil inson, bir tomondan, barcha yaratilgan hamda yaratilayotgan moddiy va ma'naviy qadriyatlarning ijodkori, buniyodkori bo'lsa, ikkinchi tomondan, yillar, oylar, kunlar osha xalq, millat, elatning, qolaversa, shaxsning hayot faoliyatidan qadriyat maqomini olgan har bir narsa, voqeа, hodisa, jarayon avlodlarning faol davomchisi bo'lgan yangicha tipdagи ma'naviy barkamol insonlarni shakllantirishda muhim vosita qurol vazifasini o'taydi. Bu -cheksiz davom etadigan dialektik jarayon hisoblanadi.

Qadriyatlar shaxs ma'naviy kamolotning barcha bosqichlarida komillik sari intilayotgan har bir kishining dunyoqarashiga o'zining faol ta'sirini o'tkazadi.

Globallashuv yoshlar ongiga ularning turmush tarziga ham tasir etmay qolmaydi, ularni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash muommiolarga echim topishning samarali yo'li bo'lardi.

Tsivilizatsiya taraqqiy etib, insoniyat uning yangi bosqichiga kirib borishi bilan axloqqa qarshi huquqbazarliklar ijtimoiy hodisa sifatida tobora keskin salbiy axloqiy baho olmoqda. Natijada jahon hamjamiyati murakkab va dolzarb masala – axloqqa qarshi huquqbazarliklar bilan bog'liq muommiolardan tashvishlanib, unga qarshi kurashning asosiy chora – tadbirlarni o'zida mujassam etgan bir qator xalqaroq huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Huquqiy tarbiya ma'naviy tarbiyaning muhim omilidir. Axloq ma'naviyatning asosini tashkil etadi. Inson axloqiy tarbiya jarayonlarida uning qoidalariga bevosita yoki bilvosita ravishda rioxha etadi. Tabiiyki, huquqiy tarbiya ham axloq mezonlari bilan hamohanglikda olib borilsa, ko'zlangan maqsadga erishish mumkin.

Sharq madaniy hayotida hamma vaqt axloq huquqqa nisbatan ustuvor ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Shu sababli ham axloqiy etuklikning davlat, jamiyat, millat birligidagi o'rni va ahamiyati doim ortib boravergan. Bu esa, insonlarning axloqiy birligi tobora barqaror va mustahkam bo'lishiiga olib kelgan. Manfaatlar birligi, umumiyligi ham insonlar o'rtasidagi munosabatlar axloqiy qadriyatlarga qanchalik tayanishiga bog'liq.

### Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

#### Rahbariy adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. – Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., O'zbekiston. 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. – Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T., O'zbekiston. 2017.

#### Darsliklar va o'quv qo'llanmalar:

1. Muhammadjonova L.A. Amaliy etika va estetika. O'quv qo'llanma – T.: "Mumtoz so'z" 2022 yil.
2. L.Muxammadjonova, S.Alimov,Sh.Rajabov. Notiqlik san'ati. O'quv qo'llanma – T.: "Mumtoz so'z" 2022 yil.
3. Агзамова Н. "Философия нравственности". Darslik T.: Universitet. O'zMU, 2022 yil.
4. Радугин А.А. Этика. Учебное пособие для высших учебных заведений. – М.: Tsentr, 2003. -88 b.
5. Назаров К. Аксиология – кадриятлар фалсафаси. –Т.: O'FMJ, 2004.
6. Степанянц. М.Т. Философские аспекты суфизма. –М.: Nauka, 1987. S- 99
7. Тримингэм Д.С. Суфийские ордена в исламе. –М.: Nauka, 1989. S-546.
8. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. –Toshkent: O'zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. -8 b.
9. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. 12 томлик. –Toshkent: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. T.1. -530 b.
10. Falsafa: qomusiy lug'at. Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov. – Toshkent: "Sharq" nashriyot –matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi Bosh tahriri, 2004. -40 b.
11. М. Каххарова, Н Агзамова. Этика Учебное пособие. Ризограф имени Низами. 2018 год.
12. L.Muhammadjonova, F.Abidjanova. Etiket. O'quv qo'llanma. T.: Universitet. O'zMU, 2018.
13. Nurmatova M., Muhammadjonova L., Ma'naviyatning axloqiy asoslari. – T.: Universitet. O'zMU. 2013.

14. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.
15. Husanov B., Gulamov V. Muomala madaniyati. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2009.

**Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Al-Faqih Abu Lays as-Samarqandiy. Tanbebul-g'ofiliyn. Birinchi kitob.- Toshkent: Mavarounnahr, 2003.
2. Хайдеггер М. Основные понятия метафизики (Введение). //Вопросы философии. –М., 1989. –№9. S-84
3. Nurmatova M., Muhammadjonova L., Ma'naviyatning axloqiy asoslari.–T.: Universitet, O'zMU. 2013.
4. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. – T.: Universitet, 2009.
5. Гаранина О.Д. Философия человека. -М.: 2006. S-44
6. Камю А. Бунтующий человек. -М.: 1990. S-546.
7. Гусейнов А.А., Апресян Р.Г. Этика: Учебник – М.: Гардарики, 2004. -26.
8. Асмус В.Ф. Античная философия. – М.: Высшая школа, 1976.
9. Философия: учебник для Вузов / Под ред. В.Н. Лавриненко. – М: ЮНИТИ-ДАНА, 2007.
- 10.Ушков А.М. Китайско-конфуцианский культурный ареал. Запад и Восток: Традиции и современность. – М., 1993.
- 11.Muhammadjonova L.A., Ortiqova D.O., Abidjanova F.A., Masharipova G.K. Professional etika va etiket. Darslik. - T.: "Adabiyot uchqunlari" 2018.
- 12.Э.Умаров., Ф.Загритдинова. "Этика. Применение этики". -Т.: Ношир, 2012.
- 13.Choriev A. Inson falsafasi. –Toshkent.: O'FMJ, 2006 S-181
- 14.Торо Г. Уолден или жизнь в лесу. М., Наука, 1980. С. 416.
- 15.Ганди М. Моя жизнь. М., Наука, 1969. С. 568.
- 16.Лоренц К. Восемь смертных грехов цивилизованного человечества. Журнал. «Вопросы философии» № 3, 1992. с. 42.

**GENDER MUAMMOLARI. AYOL VA ERKAKLARNING ODDIY XULQ-ATVORI VA MOTIVATSİYASINING AXLOQIYLIGI VA RATSIONALLIGI.**

**REJA:**

1. Gender muammolari
2. Ayol va erkaklarning oddiy xulq-atvori
3. O'zbekistondagi gender munosabatlariiga e'tibor

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2019 yil iyun oyida Oliy Majlis

Senatidagi nutqidan iqtibos keltirishni o'rinli deb bilaman:

"Meni kishilarimizning ongida paydo bo'lgan stereotip ko'p o'ylantiradi. Odatda biz ayolni avvalambor ona, oila qo'rg'onining qo'riqchisi sifatida hurmat qilamiz. Bu, shubhasiz, to'g'ri. Ammo bugun har bir ayol oddiy kuzatuvchi emas, balki mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi ham bo'lishi kerak".<sup>1</sup>

Jamiyatning asosiy ijtimoiy vazifalaridan biri bo'lgan sog'lom avlodni tarbiyalash oila va unda ayolning tutgan o'rni bilan chambarchas bog'liqdir. Huquqiy madaniyatni shakllantirish eng avvalo oiladan boshlanadi. Huquq va majburiyatlar borasida ilk tushunchalar shakllanadigan, dunyoqarash teranlashadigan oila muhitiga e'tibor fuqarolik jamiyatini qurishning dastlabki omillaridandir.

Mamlakat tarixida ilk bor Senat raisligiga ayol kishi – Tanzila Norboeva saylandi. Ma'lumki, Norboeva O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rindbosari, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi raisi bo'lib ishlagan.

Mazkur sohadagi qonunchilik choralariga to'xtaladigan bo'lsak, O'zbekistonda xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash va himoya qilishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish maqsadida 2019 yil sentyabr oyida "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi hamda "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonunlar qabul qilindi. BMTning deyarli barcha agentliklari, jumladan BMT Taraqqiyot Dasturi, BMT Aholishunoslik jamg'armasi (YuNFPA), BMT Bolalar jamg'armasi (YuNISEF), BMT Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi, BMTning Narkotik moddalar va jinoyat boshqarmasi, Xalqaro migratsiya tashkiloti ushbu ikki qonun bo'yicha o'z izoh va takliflarini berishdi.

Gender tenglik bo'yicha institutsiional choralarga kelsak, ayni paytda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tarkibida ayollar huquqlarini ta'minlash va kamshitishning har qanday shakliga barham berish bo'yicha milliy qonunchilikda xalqaro standartlarni uyg'unlashtirish bilan shug'ullanuvchi yangi Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi tashkil qilingan. Bundan tashqari, mehnatga oid huquqlarning kafolatlari va qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish, uydagi zo'ravonlik qurbanlariga yordam berish maqsadida Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o'z joniga qasd qilishning oldini olish respublika markazi va Xotin-qizlar tadbirkorligi markazi, Hukumat huzuridagi "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi kabi yangi tuzilmalar tashkil topdi.

Mazkur yangi tashkil etilgan barcha institutsiunal mexanizmlar O'zbekiston

<sup>1</sup> Sh M Mirziyoev

Xotin-qizlar qo'mitasi bilan birgalikda BMT Konventsiyasiga muvofiq ayollar huuqqlari, gender tengligi va xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarga barham berishning yagona yaxlit mexanizmiga aylanishi masalaning muhim tomonidir.

Ta'kidlash joiz, qabul qilingan normativ-me'yoriy hujjatlar va amaliy choratdbirlar O'zbekistonning gender siyosati sohasidagi muhim qadamidir va u qonunchilik hamda amaliyotning xalqaro me'yor va standartlariga to'liq mos keladi, shu bilan birga, ularning bir qismi BMTning inson huuqqlari bo'yicha idoralari tavsiyalariga asoslangan.

Ayniqsa, "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu Qonun ko'p yillik muhokamalardan so'ng qabul qilindi. Qonun oiladagi zo'ravonlik qurbanlariga yordam berish, ularga boshpanalar ajratish, ishonch telefonlari va nafaqat jismoniylar zo'ravonlik, balki psixologik yoki iqtisodiy jinoyatlar bo'yicha majburiy javobgarlikka tortish orqali ayollarni himoya qilish uchun asosdir. Bunday choralar, xususan, BMTning inson huuqqlari bo'yicha idoralari tomonidan uzoq vaqt davomida tavsiya qilib keltingan.

Gender siyosatining monitoringi va samaradorligini baholash sohasida [www.gender.stat.uz](http://www.gender.stat.uz) saytida qo'shimcha 54 ta gender ko'rsatkichlarini kiritish orqali muhim o'zgarishlar ro'y berdi.

Shu bilan birga, ushbu yo'nalishda davomiy izchil ishlarni amalga oshirish talab etiladi. Bu erda nafaqat qabul qilingan ko'rsatmalar, balki ularning xalqaro majburiyat va standartlarga muvofiqligi, joylarda o'z vaqtida va aniq bajarilishi ham muhim axamiyatga ega.

Shu ma'noda, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to'liq va samarali ishtirot etishini ta'minlash bo'yicha ishlarni izchil davom ettirish zarur.

Shu bois ham olib borilgan tadqiqot oila muhitida qonunlarga hurmat hissini tarbiyalovchi ijtmoiy mexanizmlarni o'rganish, uning nazariy-metodologik asoslarini yaratish, so'ngra uni aholi o'rtasida, har bir oilada yoshlardan ongiga singdirishning amaliy yo'riqlarini aniqlab, ushbu yo'nalishdagi ishlarni samaradorligini oshirish uchun yangi dasturlar ishlab chiqishni taqazo etadi.

Tarixdan ma'lumki Bizgacha ayollarni har tomonlama ximoya qilishga qaratilgan xarakatlar qilingan. 1899-yil 14-apreldagi London konferensiyasida ayollardan shahvoniy maqsadlarda foydalanish uchun ularni yollashga qarshi kurash to'g'risidagi rezolyutsiya qabul qilindi. Bir qancha davlatlarda foxishabozlikka qarshi kurash maqsadida milliy qo'mitalar tashkil etilishiga kelishildi. Shunga asosan faoliyatining yo'nalishi qizlarning axloqiy-ma'naviy buzilishining oldini olish, tartibsiz jinsiy hayot kechiruvchi foxisha ayollarni sog'lom turmush tarziga qaytarish hamda axloqiy -manaviy buzuqlikning

zararlarini targ'ib qilishdan iborat bo'lgan ayollarni himoya qiluvchi milliy qo'mitalar tashkil etila boshlandi. Bunday qo'mitalar 1990-yil Rossiyada, 1901-yil Italiyada, 1902-yil Ispaniyada va boshqa qator davlatlarda tashkil topdi. Ular bir-birlari bilan kuchli aloqa qilgan holda xalqaro uyushmani tashkil qilishdi va Londonda Markaziy idora – Xalqaro byuroga asos solindi. Xalqaro Byuro har uch yilda Xalqaro Kongress chaqiradigan bo'ldi. Bu qo'mitalarning faoliyatি axloqqa qarshi huquqbazarliklarga, xususan foxishalikka qarshi kurash bo'yicha xalqaro-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish imkonini berdi.

XXI asr bo'sag'asida axloqqa qarshi huquqbazarliklar bilan bog'liq muonimolar dolzARB tus olib, jamiyat turli sohalarining normal rivojlanishiga jiddiy xavf sola boshladi. Bu davrda axloqqa qarshi huquqbazarliklar, xususan foxishalik va pornografik mahsulotlar tarqatilishiga qarshi kurash muonimolariga doir xalqaro-huquqy normalar har tomonlama chuqurroq tahlil qilinib, yanada takomillashtirildi. 1996-yil avgustda Stokgolmida bo'lib o'tgan Bolalarni tijorat maqsadida seksual eksplutatsiya qilishga qarshi Butunjahon kongressida qabul qilingan Deklaratsiya bolalarni foxishabozlik maqsadida foydalanishidan himoya qilish uchun davlatlardan barcha chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab qiladi.

1999-yil Venada Internet jahon axborot tarmog'ida bola pornografiyasining tarqalishiga qarshi kurash bo'yicha Xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Bu konferensiya xulosasiga ko'ra bola pornografiyasi mahsulotlarini ishlab chiqish, tarqatish, eksport qilish, uzatish, import qilish, qasddan saqlash va reklama qilishni butun jahon bo'yicha jinoyat deb e'lon qilish taklif etildi.

Bola mehnatinining eng yomon shakllari to'g'risidagi 1999-yilgi 182-konvensiya Xalqaro Mehnat Tashkiloti har bir azosining zimmasiga bola mehnatinining eng yomon shakllari uchun jinoiy javobgarlikni joriy etish va qo'llash, bola mehnatinining eng yomon shakllariga barham berilishiga erishish uchun boshqa zarur choralarни ko'rish majburiyatini yukladi.

Konvensiyada ilk bor bolalar mehnatinining eng yomon turlari tushunchasiga mukammal xalqaro-huquqiy ta'rif berildi. Unga muvosiq, mazkur tushuncha o'z ichiga foxishabozlik bilan shug'ullanish, pornografiya mahsulotlari tayyorlash yoki pornografik tomoshalarda ishtiroy etish uchun boladan foydalanish, uni yollash yoki taklif qilishni ham qamrab oladi.

Ijtimoiy - siyosiy munosabatlar boshqaruvining ma'naviy axloqiy asoslari globallashuvi va universallashuvi, ularning milliy xususiyatlari rivojlanishini istisno qilmaydi. Bundan tashqari jamiyatning rivojlanish xususiyatlari va ularning mezonlari doimiy ravishda dinamik o'zgarib turishi bilan ijtimoiy-siyosiy munosabatlar boshqaruvining hazariy tahlil doirasini kengaytirib borishni taqozo qilmoqda.

Jismonan sog'lom, ma'nан kuchli va aqlan etuk avlodni yaratish - oilaning eng asosiy ijtimoiy vazifalaridan hisoblanadi. Shu bois mustaqil davlatimizda oilaning mustahkam bo'lishiga, uning tarbiyaviy imkoniyatini oshirishga tobora katta ahamiyat berilmoqda, bu masala hukumatimizning rasmiy hujjatlarida qonun bilan himoyalangan va kafolatlab qo'yilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida: «Oila jamiyatning asosiy bo'g'unidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega», - deb ko'rsatib berilgan.<sup>1</sup>

Bugungi kunda ayollar uchun qator imtiyozlarni o'z ichiga qamrab olgan O'zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlari, farmonlari va Oliy Majlis qonunlari e'lon qilindi va amalga oshirilmoqda. Birinchi Prezident I.A. Karimovning «Xotin-qizlarga munosabat jamiyatimizning ma'naviy, axloqiy etukligining o'lchovi bo'lib xizmat qilishi kerak», - degan so'zлari mag'zida behad katta ma'no, qolaversa, ulkan vazifa yotibdi.<sup>2</sup> Ana shulardan kelib chiqqan holda, biz xotin-qizlarimizning huquqiy bilimlarini oshirish uchun kuchlarimizni birlashtirishimiz lozim. Shundagina qad rostlayotgan huquqiy davlatchiligidanida o'zbek ayolining boy intellektual ijodiy quvvatidan ham to'la foydalanish imkoniga ega bo'lamiz.

Barchaga ma'lum, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015 yilning sentyabrida Barqaror rivojlanish bo'yicha o'tkazilgan sammitida qabul qilingan 70-sod rezolyutsiyasiga muvosiq, shuningdek, 2030 yilgacha bo'lgan davrda BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" qaror qabul qildi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Barqaror rivojlanishning Beshinchı maqsadini amalga oshirish doirasida "Gender tenglikni ta'minlash hamda barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish"ga oid to'qqizta vazifani ishlab chiqdi.

Beshinchı maqsadning vazifalariga (Gender tenglik) muvofiq, 2030 yilga kelib barcha xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning har qanday shakliga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to'liq va samarali ishtirotkini va etakchilik qilish uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash zarur. Bundan tashqari, ushbu maqsad davlatning turli darajalarida Davlat dasturlarini qabul qilish jarayonida gender tenglik tamoyillarini joriy qilishni o'z ichiga oladi.

So'nggi yillarda gender tenglikni ta'minlash, ayollarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi rolini oshirish bo'yicha ishlar bir necha yo'nalishlarda olib borilmoqda:

- ayollar huquqlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish:

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - Toshkent O'zbekiston 2001 -17 6

<sup>2</sup> Karimov I.A. O'zbekiston - bavuk kelajak san - Toshkent O'zbekiston 2001 -25 b

- ayollarni himoya qilishning institutsiyonal asoslarini takomillashtirish;
- aholining gender tenglik va ayollar huquqlari to'g'risida xabardorligini oshirish;
- huquqni qo'llash amaliyotida ularga rioya etilishini ta'minlash uchun mas'ul mansabdon shaxslarni tegishli huquqiy me'yorlar asosida o'qitish.

O'zbekistonda bir qator qonun hujjatlari, jumladan, Prezidentning xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash, xususan, gender tengligi va ayollami zo'ravonlik va zu'lmdan himoya qilish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish maqomini kuchaytirish to'g'risidagi farmon va qarorlari qabul qilingan.

Gender tengligini joriy qilish nuqtai nazaridan ta'liddagi ijobiy siljishlarni alohida ta'kidlash kerak. Ya'ni, 2017 yildan boshlab aksariyat oliv o'quv yurtlarida turli mutaxassisliklar bo'yicha sirtqi bo'limlar faoliyati tiklandi. Ta'limning ushbu shakli yosh ayollarga bolalarni parvarish qilish va boshqa oilaviy majburiyatlarni bajarishga xalal qilmasdan oliv ma'lumot olish imkoniyatini beradi.

Xotin-qizlarimizga ilm-fanda, ma'rifat va ta'lim-tarbiyada o'z faoliyiklarini namoyon qilishlariga ko'maklashish, ijodiy izlanishlari uchun moddiy va ma'naviy shart-sharoitlar yaratib berish, ularni zamonaviy texnika va texnologiyalarni o'zlashtirishga da'vat etish ijtimoiy zaruriyatga aylanib bormoqda.

Oilada, davlat va jamiyat qurilishida ayollarning rolini kuchaytirish, ularning huquqiy ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish yuzasidan aniq chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish maqsadida hamda 1999 yilni "Ayollar yili" deb e'lon qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishida ko'rsatib o'tilgan vazifalardan kelib chiqqan xolda<sup>1</sup> "Xotin-qizlarni oiladagi, davlat va jamiyat qurilishidagi rolini kuchaytirish, ularning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha 1999 yilga mo'ljallangan tadbirlarning davlat dasturi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorida<sup>2</sup> ayollar manfaatlarini, onalik va bolalakni muhofaza qilish, davlat, jamiyat qurilishi va madaniy qurilishda, jamiyatni ma'naviy va demokratik yangilashda ularning rolini oishirishning huquqiy asolarini takomillashtirish, oilada, qulay ma'naviy-axloqiy oilaviy muhitni, bolalarni tariyalash shart-sharoitlarini, moddiy-maishiy turmush sharoitlarini shakllantirishda ayollarning maqomi va rolini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan edi.<sup>3</sup>

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi "Xalq so'zi" gazetasi 1998 yil, 10-dekabr.

<sup>2</sup> "Xotin-qizlarni oiladagi, davlat va jamiyat qurilishidagi rolini kuchaytirish, ularning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha 1999 yilga mo'ljallangan tadbirlarning davlat dasturi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori "Xalq so'zi" gazetasi 1999 19 fevral.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi "Xalq so'zi" gazetasi 1998 yil, 10-dekabr.

Ma'lumki, ijtimoiy huquqlar insonga davlat tomonidan beriladigan ijtimoiy yordam bilan belgilanadi. Ushbu guruhga shaxsnинг kasalligi tufayli, keksaligi yoki boqvhisini yo'qtganligi sababli, bolalar tarbiysi bilan, shuningdek umumiy mehnat qobiliyatini qisman, vaqtincha yoki butunlay yo'qtgan paytda davlat tomonidan etarli mablag' bilan ta'minlash kabi vakolatlar kiradi. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktning 9-12 moddalarida esa mehnat qilish va mash-g'ulotni erkin tanlab olish, adolatli ish haqi olish; kasaba uyushmalar tuzish va ularga a'zo bo'lish, ijtimoiy ta'mi-not, etarli turmush darajasi huquqi, ochlikdan holi bo'lish, sihat-salomat bo'lish va bilim olish huquqi belgilangan. Mazkur huquqlarning ta'minlanishi, albatta boshqa huquqlarning, ayniqsa ayollar masalalari bilan bog'liq qonuniy hujjatlarning axloqiy asoslarining ta'minlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Zero, bu bog'liqlik bevosita ayollar huquqiy madaniyatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Biroq, bugungi kunda ayrim ayollarimiz huquqiy saviyasi pastligi, qonunlarni mensimasligi tufayli huquqbazarlik xolatlarini sodir etmoqdalar. Ular tomonidan an'anaviy jinoyat turlari bilan birga o'g'rilik, xaridorlarni aldash, kamomadlik kabi iqtisodiy jinoyatlar, shuningdek tan jarohati etkazish, qasddan odam o'ldirish, bezorilik, gjyohvandlik moddalarini bilan shug'ullanish, hujjatlarni qalbakilashtirish kabi ijtimoiy xavfli jinoyatlar ham sodir etilmoqda. Eng achinarlii shundaki, ham milliy ham diniy axloqqa zid bo'lgan g'ayriaxloqiy xolatlar hisoblangan qo'shmachilik va buzuqchilik bilan shug'ullanib jinoiy javobgarlikka tortilganlarning soni ortib bormoqda.

Xalqaro hamjamiyatda keng foydalilanildigan "gender tenglik" tushunchasi – erkaklar hamda ayollar davlat va jamiyat hayotning barcha sohalari, jumladan, boshqaruv, qarorlar qabul qilish va xavfsizlik sektorida tenglik asosida ishtirot eta olishini nazarda tutadi.

To'g'ri, mamlakatimizda xotin-qizlar va erkaklar tengligi mustahkam huquqiy asosga ega. Konstitutsiyamizda ularning teng huquqli ekanliklari kafolatlangan. Mehnat qonunchiligidagi ham gender tengligi belgilangan.

Biroq shunga qaramasdan mehnat bozorida munosib o'r'in egallash uchun xotin-qizlarning imkoniyatlari anialda ayrim sohalarda chegaralangan.

2019 yil 2 sentabrda qabul qilingan "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquqlar hamda imkoniyatlari kasolatlari to'g'risida"gi qonun mamlakatimiz ravnaqi yo'lida sobitqadam bo'lish, aniq natijaga yo'naltirilgan maqsadli dasturlar ishlab chiqish hamda qonunda belgilangan tamoyillar asosida muhim natijalarga erishishga zamin yaratdi.

· 32 ta moddadan iborat ushbu qonunda "gender", "gender statistikasi", "gender-huquqiy ekspertiza", "jinsiy kamsitish" tushunchalari va turlari; mazkur yo'naliishda vakolatli organlarning vazifalari va funksiyalari; davlat boshqaruvida ishtirot etishda,

ishga qabul qilish yoki yollashda, kreditlar olishda va tadbirkorlik bilan shug'ullanishda gender tenglikni ta'minlash bo'yicha normalar; gender tenglik buzilishining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar hamda javobgarlik masalalari aks ettirilgan.

Qonunda erkaklar va ayollar uchun teng huquqlar hamda imkoniyatlarni ta'minlashning asosiy printsiplari belgilangan.

Qonunda alohida modda bilan jinsi bo'yicha kamsitish hisoblanmaydigan holatlar ham batafsil ochib berilgan.

E'tiborli jihat, qonunda normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarning gender-huquqiy ekspertizasini o'tkazishga oid alohida norma belgilangan. Bu esa, bugungi kunda qonun hujjatlari va ularning loyihalari korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazib kelinayotgani kabi gender tenglik nuqtai nazaridan ham huquqiy ekspertizadan o'tkazilishiga asos bo'ladi.

Qonunning yana bir muhim jihat, unda gender statistikasini shakllantirish mexanizmi ochib berilgan. Davlat statistika organlari mazkur statistik ko'rsatkichlarni shakllantirish, ularni doimiy yangilab borish uchun vakolatli organ etib belgilangan.

Qonunda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi Vazirlar Mahkamasi va Gender tenglikni ta'minlash bo'yicha komissiyasining, shuningdek, davlat organlarining vakolatlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari ishtiroki belgilangan.

Qonunda xotin-qizlar va erkaklari ishga qabul qilishga oid normalar belgilangan bo'lib, ularga ko'ra davlat xizmatidagi bo'sh lavozimlarni, shu jumladan, rahbar lavozimlarini egallash uchun tanlov e'lon qilinadi. Buning uchun davlat organlarida maxsus komissiyasi tuzilib, nomzodlar to'g'risidagi ma'lumotlar ushbu komissiya tomonidan ko'rib chiqiladi.

Mehnat munosabatlarda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash bo'yicha ish beruvchining majburiyatlari aniq belgilab qo'yilgani ham qonunning muhim jihatlaridan biridir.

Qonun Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish bo'yicha konvensiyasi talablariga mos keladi.

Milliy qonunchiligimizda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquqlar hamda imkoniyatlarni kafolatlashga qaratilgan yaxlit qonunning mavjud emasligi uzoq yillardan beri xalqaro hamjamiyat, xususan, BMT tegishli tuzilmalarining keskin muhokamalariga, ta'bir joiz bo'lsa, e'tirozlariga sabab bo'lib kelgan.

Shu bois ham qonunning qabul qilinishi O'zbekistonning xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoida va tamoyillariga sodiqligini yana bir karra namoyon etib, dunyo hamjamiyatidagi o'rni va nufuzi yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Bir so'z bilan aytganda, ushbu qonun erkaklar va ayollar uchun teng huquqlar hamda imkoniyatlarni ta'minlashni tartibga solishda muhim qadam bo'ldi.

Gender – inglizcha "gender" – "zot" so'zidan olingan bo'lib, jins tushunchasini fiziologik voqelik ustqurmasi bo'lgan ijtimoiy qurilma sifatida belgilaydi. Jins erkaklar va ayollar o'rtaqidagi universal biologik farq bo'lib, anatomik va fiziologik mohiyatni, ya'ni individning biologik jinsga – erkak yoki ayol jinsiga mansubligini aniqlash uchun asos bo'ladiqan biologik belgilari birligidir. Erkaklar va ayollar o'rtaqidagi jiddiy bo'limgan farqlar ularning biologik xususiyatlariiga taalluqlidir. Biroq erkaklar va ayollar o'rtaqidagi biologik farqlardan tashqari, o'z tabiatiga ko'ra biologik sabablarga asoslanuvchi ko'plab farqlar bor, ya'ni ijtimoiy rollar, faoliyat shakllarining bo'linishi, xatti-harakat va individlarning psixologik tavsiflarida ko'plab farqlar mavjud. Ta'kidlanganidek, erkaklar va ayollar o'rtaqidagi biologik tabiiy farqlar bilan erkaklar va ayollar xatti-harakatini, ijtimoiy va madaniy tavsiflarini aniqroq farqlash uchun gender atamasi qabul qilingan. Gender tushunchasining kiritilishi eng umumiy ma'noda ikki tushuncha – biologik va ijtimoiy jins tushunchalarini farqlashga yordam beradi. Kundalik hayotimizda jins bilan bog'lanmagan ko'plab tushunchalar "erkaklarga xos" yoki "ayollarga xos" deb hisoblanadi. "Erkaklarga xos" yoki "ayollarga" xos tushunchalarini aniqroq farqlash uchun "feminlik" (ayollik) va "maskulinlik" (erkaklik) tushunchalari qabul qilingan. Yangi tushunchalarning kiritilishi erkaklarga xoslik va ayollarga xoslikning biologik ziddiyatini bartaraf etish va e'tiborni turli madaniyatlar shakllanishining ichki mexanizmlarini gender nuqtai nazaridan ochishga qaratish imkonini berdi. Antropologlar, psixologlar va sotsiologlar genderning biologik emas, balki ijtimoiy va madaniy jihatdan belgilanishi, madaniy va tarixiy jihatdan esa nisbiy ekanligini ta'kidlaydilar.

Ijtimoiy jins ijtimoiy amaliyot yordamida tashkil qilinadi. Jamiyatda muayyan jins rollarining bajarilishini taqozo etadigan xatti-harakatlar me'yoriy tizimi vujudga keladi; tegishli tarzda ushbu jamiyatda "erkaklarga oid" va "ayollarga oid" bo'lgan xususiyatlar borasida qat'iy qaror topgan tasavvurlar qatori paydo bo'ladi. Gender – tabiatan belgilanmagan, ijtimoiy hodisalar ato etgan xususiyatlar yig'indisidir. Gender – jinsnning madaniy niqobi, bizning o'z ijtimoiy-madaniy tasavvurlarimiz doirasidagi jins haqidagi qarashlarimizdir. Buning ustiga jins, faqat gender demakdir, ya'ni uning ijtimoiylashtirilishi natijasida jinsn tashkil etgan narsadir. Jins insonga tegishli emas, balki inson jinsga oiddir, u esa hokimiyat va tilga ega. Gender ayollar va erkaklarga ta'sir ko'rsatuvchi barcha ijtimoiy jarayonlarda mavjud, tashkil topadi va qayta tiklanadi. Genderning ijtimoiy tashkil topishi nazariyasida uchta asosiy tushuncha farqlanadi: jins, jinsiy mansublik va gender.

Mustaqil respublikamizda esa, xotin-qizlarining ijtimoiy-siyosiy sohalarda teng huquqlilik tendentsiyasiga bugungi kunda to'laqonli mos kelishini misollar asosida ham ko'rish mumkin.

Junladan, hukumat tarkibidagi rahbarlik vazifalarida ishllovchi ayollar ayni damda 16 foizni, Konstitutsiyaviy sudda 20 foizni, Oliy sudda 14,6 foizi, Oliy xo'jalik

sudida 15,8 foizni tashkil etadi. Shuningdek, boshqa jabhalarda, ya'ni sanoatda 42,8 foiz, qishloq xo'jaligida 42,4 foiz, maorif, madaniyat va fanda 2,9 foiz, sog'liqni saqlashda 75,9 foizni xotin-qizlar tashkil etadi.

O'zbekiston boshlang'ich va o'rta maktabda gender notenglikka barham bergani tahi singa sazovor. O'zbekistondagi xotin-qizlar ta'lim olishda tengdirilar. 2017 yili qizlar boshlang'ich ta'lim sohasida 50%ni, o'rta maktabda esa 54%ni tashkil etgan. O'tgan yilgi statistik ma'lumotga ko'ra, oliy ta'lim sohasida xam xotin-qizlar soni ortgan va talabalarning 40% xotin-qizlar bo'lgan, bu 2011 yildagi ko'rsatkichdan 36% ko'p demakdir. Xotin-qizlarning savodxonlik darajasi esa 99,98%ni, ya'ni dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichardan birini tashkil etadi. O'zbekiston bunday yutuqlardan faxrlansa arziyi.

Ish joylarida O'zbekistonda hanuz gender notenglik kuzatilmoqda, bu masalaga ko'proq e'tibor qaratish lozim. O'zbekiston statistika qo'mitasiga ko'ra, 2017 yili iqtisod sohasida erkaklarning 61,5%, ayollarning esa 38,5% mehnat bilan band bo'lgan. BMTning xabar berishicha, o'rta ta'lim olgan xotin-qizlarning faqat 35% ishlaydi, oliy mu'lumotli xotin-qizlarning 68% ish bilan ta'minlangan. Mehnat qilayotgan xotin-qizlar qancha ko'p bo'lsa, oila tushumi va mamlakat iqtisodiy o'sishi uchun shuncha yaxshidir.

Albatta, hukumatimiz tomonidan ayollarga doimiy alohida e'tibor qaratilib, ularga keng imkoniyatlar yaratib berilayotganligining boisi bor. U ham bo'lsa kelajak bunyodkori bo'lmish yoshlarni tarbiyasiga ko'proq javob berguvchi inson, ayollar bo'lganliklaridir.

Ammo, yuqorida zikr etilgan fikrimizni o'rni kelgansa qayta-qayta e'tirof etish joizki, ayrim ayollarning bilib-bilmay jinoyat ko'chasiga kirib qolayotganliklari keng jamoatchilikni doimiy e'tiborida bo'lib turgan muammolardandir. Ayollarni ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy-ma'naviy e'tibordan chetda qoldirish jinoyatchilikning kelib chiqish sabablaridan biridir. Ayollar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar nisbatan ijtimoiy xususiyatga egaligi bilan tashvishlidir.

Ayollar jinoyatchiligi avvalo oila tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayol jinoyat sodir qilsa oilada ahloqiy-ma'naviy muhit izidan chiqadi, unda o'sib kelayotgan avlod ongi va qalbida vayronkorlik tuyg'ulari tarkib topadi.

Voyaga etmaganlar va xotin-qizlar o'rtasida jinoyatchilikning sodir etilishiga sabab bo'lувчи омиллардан бирі - оила ажримларидір. Ажримлар ва нотинч оиласар бугунги кunning долзарб муаммолосардан бо'lib turibdi. To'g'ri, mustaqillik yillarida ajrimlar ko'rsatkichi 1,5 barobar kamaygan bo'lsa-da, uning asorati doimo xavf solib turadi. So'nggi yillardagi statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, yiliga o'rtacha 14,5 - 15 ming nikoh bekor qilinadi. Misol uchun 2003 yilda jami 161747 ta nikoh qayd etilgan bo'lsa, shu yilning o'zida FXDYo idoralari orqali 5614 ta nikoh bekor qilingan. Bu raqamga sud idoralari orqali bekor qilingan nikohlar soni qo'shilsa, u

respublikada istiqomat qilayotgan har ming aholiga 0,6 ko'rsatkichni tashkil etadi. Agar ajrimlarni, ya'ni ajrashib ketayotgan erkak va ayollarni yoshiga ko'ra tahlil qilsak, eng ko'p ajrim 20-34 yoshni beradi. Bu asosan oilaviy turmushning birinchi 4 yili 35,5%) va 5-9 yillari demakdir. Ajrim tufayli o'ttacha har bir noto'liq oilada 2,5 nafar bola qoladi. To'g'ri, ayrim ayollar ikkinchi nikohga kiradi, ma'lum ma'noda kimningdir yordamida shu bolaga to'laqonli tarbiya berishga intiladi. Lekin bu ko'rsatkich jami ayollarning 3,3 foizini tashkil etadi, shaharda bu ko'rsatkich 6,3 foizni tashkil etadi, xolos. Demak, turmush o'tog'idan ayrilgach ona o'z bo'yiniga bolalar tarbiyasi, ro'zg'orni yuritish kabi katta mas'uliyatni olishga majbur.

Shuningdek, Xususan, ayollarning shaxsiy turmushidagi zo'ravonlik muammosi jamiyat va davlat tomonidan e'tiborni talab etmoqda. Bu muammo faqat bizning davlatimizda emas balki mustaqil hamdo'stlik davlatlari va boshqa rivojlangan davlatlarda ham o'z echimini topmagan va uni hal qilish yo'llari ko'rsatilmagan. Amerika va Evropaning rivojlangan mamlakatlarida mazkur muammolarni hal qilishga kirishildi. Ular 10-15 yil muqaddam masalaning muhimligini anglab, ayollarni turli zo'ra-vonlikdan muhofaza qilish to'g'risida tegishli qonuniy hujjatlar qabul qildilar va jabrdiyda ayollarga yordam ko'rsatish bo'yicha maxsus ijtimoiy xizmat sohalarini tashkil etdilar. Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonliklarning sodir etilishi inson huquqlarini jiddiy buzilishiga olib keladi.

Bugungi kunda oila a'zolari ongiga etkazilishi lozim bo'lgan eng muhim qonuniy hujjatdan biri - Nikoh shartnomasi bo'lib, unda er-xotin o'rtasidagi axloqiy, ma'naviy, mulkiy munosabatlarga oid ko'rsatmalar berib o'tilgan. Respublikamiz aholisining 40 foizini voyaga etmaganlar tashkil qilishi hamda har bir oilada o'ttacha 5-6 nafar farzandlar borligini e'tiborga oladigan bo'lsak, ayollar huquqiy madaniyatni va huquqiy savodxonligining monitoringi tizimini yaratish dolzarb ekanligi yana bir bor namoyon bo'ladi. Chunki onasi jinoyat sodir etgan, qarovsiz va nazoratsiz qolgan bolalarning jinoyat sodir qilishi hech gap emas.

Ayollarga nisbatan uchraydigan zo'ravonliklarning eng ko'p shakllariga ularni birga yashashga, fohishalik qilishga majburlash, nomusiga tegish, zo'ravonlik qilish va spirtli ichimlik, giyohvandlik moddalar iste'mol qildirish, muttazam xo'rash va ruhiy ta'sir ko'rsatish hamda boshqa yo'llar bilan o'limga olib borish kabilalar kiradi. Tajriba ko'rsatadiki, bunga oilada bo'lib turadigan uzoq davomli jan-jallar ham sabab bo'ladi.

Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishiga, ayollarga nisbatan zo'ravonlik jahondagi barcha mamlakatlarga, ularning siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotidan qat'i nazar, mavjud holat hisoblanadi. Hatto eng rivojlangan mamlakatlarda ham shunday holatlarni kuzatish mumkin. Masalan, Yaponiyada 59 foiz ayol jismoniy zo'ravonlik qurboni bo'ladi. AQShda 40 foiz, Kanadada 25 foiz va hakozo. Sotsiologlar xulosasiga ko'ra, 60 mln. ayol turli shakldagi kamshitilish, tahqirlash va zo'ravonlik

qurboni bo‘ladilar. Afrika mamlakatlarida (Tanzaniya 60%), Janubiy Osiyo (60%), Lotin Amerikasida (57%) ayollarga nisbatan zo‘ravonlik kuchayib borayotganligini ko‘rish mumkin. Zo‘ravonlik nati-jasida juda katta iqtisodiy zarar ko‘riladi, ayollarning ish joyida mehnat umumidorligi kamayadi, oilaning ma‘naviy-axloqiy tomoniga, uning normal rivojlanishiga tiklab bo‘lmas darajasida zarar etadi.<sup>1</sup>

Ayollarning haq-huquqlari davlat hududining barcha qismalarida, xoh qishloqda bo‘lsin, xoh shaharda bo‘lsin birday ta’milnoshni talab etadi. Zero, qonunchilik aktlarining mukammallahuvi ham har bir jamiyatning inson huquqlariga va ayniqsa ayol huquqlarini ta’milashga bo‘lgan xohish va intilishlariga bog‘liq bo‘ladi.

Ma‘lumki, oiladagi turli nosog‘lom munosabatlar, janjal-to‘palon, ichkilikbozlik, qimorbozlik kabilar shaxsning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu munosabatlar ota-onalar o‘rtasidagi nizolar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Bu munosabatlarning oldi olinmasa, ular ortib boradi. Xulk-atvor normalardidan chetga chikuvchi o‘smlar ayniqsa, yolg‘iz, ota-onalardan biri o‘gay bo‘lgan oilalarga ko‘proq to‘g‘ri keladi.

Demak, shaxsning rivojlanishidaga eng muhim omil - tarbiya masalasi. Yosh avlodni tarbiyalash deganda, biz farzandlarni axloqan pok, odobli, estetik boy, jismonan baquvvat qilib kamol toptirishni tushunamiz. Shu bilan birga, ijtimoiy tarbiya huquqiy va, umuman, madaniy tarbiyani ham o‘z ichiga oladi. Asosiy maksad chukur ma‘lumotli, har jixatdan yuksak madaniyatli va ongli, jamiyatimizning aktiv fuqarolarini tayyorlashdir.

### **Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati**

#### **Rahbariy adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. – Qonun ustivorligi va inson manfaatlарини та’минлаш – ўрт тараqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Т., О‘zbekiston. 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. – Tanqidiy taxlil, qat’iy tartib intizom va shaxsий javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Т., О‘zbekiston. 2017.

#### **Darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar:**

1. Muhammadjonova L.A. Amaliy etika va estetika. O‘quv qo‘llanma – Т.: “Mumtoz so‘z” 2022 yil.
2. L.Muxammadjonova, S.Alimov,Sh.Rajabov. Notiqlik san’ati. O‘quv qo‘llanma – Т.: “Mumtoz so‘z” 2022 yil.
3. Aqzamova N. “Философия нравственности”. Darslik T.: Universitet. O‘zMU, 2022 yil.

<sup>1</sup> Xolqov D R. Huquqiy madaniyat oliga mustahkamligi asosi G’Mas’ul muhamm V Karimova Respublika “Oila” ilmiy-amaliy markazi –Toshkent Fan 2007. -138 b

4. Радугин А.А. Этика. Учебное пособие для высших учебных заведений. – М.: Tsentr, 2003. -88 б.
5. Назаров К. Аксиология – кадриялтар фалсафаси. –Т.: O'FMJ, 2004.
6. Степанянц М.Т. Философские аспекты суфизма. –М.: Nauka, 1987. S-99
7. Тримингэм Д.С. Суфийские ордена в исламе. –М.: Nauka, 1989. S-546.
8. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. –Toshkent: O'zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. -8 б.
9. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. 12 томлик. –Toshkent: “O'zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. Т.1. -530 б.
10. Falsafa: qomusiy lug‘at. Tuzuvchi va mas’ul muharrir Q.Nazarov. –Toshkent: “Sharq” nashriyot –matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2004. -40 б.
11. М. Каххарова, Н Агзамова. Этика Учебное пособие. Ризограф имени Низами. 2018 год.
12. L.Muhammadjonova, F.Abidanova. Etiket. O'quv qo'llanma. Т.: Universitet. O'zMU, 2018.
13. Nurmatova M., Muhammadjonova L., Ma'naviyatning axloqiy asoslari.–Т.: Universitet, O'zMU. 2013.
14. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –Т.: Ma'naviyat, 2008.
15. Husanov B., Gulamov V. Muomala madaniyati. Darslik. –Т.: Iqtisod-moliya, 2009.

**Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Al-Faqih Abu Lays as-Samarqandiy. Tanbehl-g'ofiliyn.Birinchi kitob.- Toshkent: Movarounnahr, 2003.
2. Хайдеггер М. Основные понятия метафизики (Введение). //Вопросы философии. –М., 1989. –№9. S-84
3. Nurmatova M., Muhammadjonova L.. Ma'naviyatning axloqiy asoslari.– Т.: Universitet, O'zMU. 2013.
4. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. – Т.: Universitet, 2009.
5. Гаранина О.Д. Философия человека. -М.: 2006. S-44
6. Камю А. Бунтующий человек. -М.: 1990. S-546.
7. Гусейнов А.А., Апресян Р.Г. Этика: Учебник – М.: Гардарики, 2004. -26.
8. Асмус В.Ф. Античная философия. – М.: Высшая школа, 1976.
9. Философия: учебник для Вузов / Под ред. В.Н. Лавриненко. – М: ЮНИТИ-ДАНА, 2007.
10. Ушков А.М. Китайско-конфуцианский культурный ареал. Запад и Восток: Традиции и современность. – М., 1993.

11. Muhammadjonova L.A., Ortikova D.O., Abidjanova F.A., Masharipova G.K. Professional etika va etiket. Darslik. - T.: "Adabiyot uchqunlari" 2018.
12. Э.Умаров., Ф.Загритдинова. "Этика. Прикладная этика". -Т.: Ношир, 2012.
13. Choriev A. Inson falsafasi. -Toshkent.: O'FMJ, 2006 S-181
14. Торо Г. Уолден или жизнь в лесу. М., Наука, 1980. С. 416.
15. Ганди М. Моя жизнь. М., Наука, 1969. С. 568.
16. Лоренц К. Восемь смертных грехов цивилизованного человечества. Журнал. «Вопросы философии» № 3, 1992. с. 42.

**OILANING AXLOQIY QADRIYAT SIFATIDAGI XUSUSIYATLARI.  
NIKOHNI BEKOR QILINISHIDA, OILA TARQALISHINING IQTISODIY,  
HUQUQIY, RUHIY OMILLARI.**

**REJA:**

1. Oila axloqiy qadriyat sifatida
2. Nikohni bekor qilinishi sabablari va oqibatlari
3. Oila tarqalishining iqtisodiy, huquqiy, ruhiy omillari

Oila kishilik jamiyatining ijtimoiy poydevoridir. Shunga ko'ra, jismongan sog'lom, ma'nан barkamol, axloqan pok va yuksak madaniyatli yosh avlodni voyaga etkazishda oilaning o'tni beqiyos. O'zbekistonning taraqqiyot istiqboli oilaviy tarbiya muammolarini ogilona echilishga ham bog'liq. Buning uchun shu borada zarur chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish, oilaviy tarbiyaga tahdid soluvchi muayyan kuchlarga qarshi kurashib, bo'lajak ota-onalarning ma'naviy, axloqiy, madaniy va tarbiyaviy bilimlarini oshirish bilan bog'liq masalalarni hal etish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir. Davlatimizda sog'lom oilani shakllantirish va oilada yuksak ma'naviy-axloqiy muhitni qaror toptirish uchun zarur shart-sharoit yaratish, yoshlarni oila qurishga tayyorlash, oilalar mustahkamligini va mansatlarini ta'minlash, sog'lom farzand o'stirish, tarbiyalash va voyaga etkazish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Bunda, avvalambor, oilaning muqaddasligi hamda nikoh mas'uliyati bo'yicha kelajakda oila quradigan yigit va qizlarimiz tafakkurini, ongini o'zgartirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bosh qomusimizda oilani mustahkamlash, undagi munosabatlarni o'zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish hamda barcha a'zolarining mas'ulligi hissi asosida oila qurish, biror-bir shaxsning oila masalalariga o'zboshimchalik bilan aralashishiga yo'l qo'yilmasligi hamda bu

huquqlarning himoya qilinishini ta'minlash kabi asosiy tamoyillar o'z ifodasini topgan. Oila va nikoh munosabatlari, sog'lom ona-sog'lom bola masalasiga e'tibor, oila institutini har tomonlama qo'llab-quvvatlash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Konstitutsiyamizning 63-moddasida «Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega» deb belgilab qo'yilganligi oilaning qanchalik yuksak asos ekanini ko'rsatadi. Qolaversa, mamlakatimizda olib borilayotgan kuchli ijtimoiy himoya siyosati mohiyatida ham davlat va jamiyatning oilaga bo'lgan doimiy g'amxo'rligi o'z ifodasini topgan.

Nikoh – erkak va ayolning teng huquqli, erkin va ixtiyoriy ittifoqi bo'lib, u fuqarolik xolati dalolatnomalarini yozish organlarida tuziladi va oila tuzish maqsadiga hizmat qiladi. Nikoh oilaning vujudga kelishida birdan bir asos bo'lgani bois u faqat axloq normalari bilan emas, balki maxsus qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Oila nikohdan boshlanadi. Nikoh rasmiy, qonunlar asosida o'tkazilgandagina haqiqiy hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining birinchi moddasida nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida tuzilishi lozimligi ko'rsatilgan. Nikohdan o'tuvchilar FHDYoga ariza bergenlaridan keyin bir oy o'tgach, shaxsan ularning ishtirokida amalga oshiriladi. Uzrli sabablarga ko'ra FHDYo bir oy sinov muddati o'tgunga qadar nikoh tuzishga ruxsat berishi mumkin.

Balog'atga etmaganlarning nikohga kirishining oldini olish, ularning sog'ligini himoya qilish maqsadida hamda oilani qurish uchun ma'lum hayotiy tajriba, jismoniy va ma'nnaviy etuklik talab qilinishini e'tiborga olgan holda, qonun nikoh yoshini erkaklar uchun o'n sakkiz yosh, ayollar uchun o'n etti yosh etib belgilangan.

Uzrli sabablар bo'lgan, alohida hollarda nikoh yoshi erkak va ayollarga bir yoshga kamaytirilishi mumkin. Bu sabablarga, masalan: nikohga kiruvchi ayol homilador bo'lib qolishi, bir taraf og'ir kasal bo'lgan yoki harakatdagi armiyaga ketayotgani va boshqa shunga o'xhash hollar kiradi. Bunda nikoh davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan joydagи tuman, shahar hokimi nikoh yoshini ko'pi bilan bir yilga kamaytirishi mumkin.

Nikoh, nikohga kiruvchilarining ixtiyoriyligi, erkin roziligi asosida tuziladi. Nikohni tuzish uchun bo'lajak er-xotin o'z roziligini erkin ifoda etish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Agar shaxs o'z xatti-harakatlari oqibatni tushunmaydigan holda (qattiq mastlik, ruhiy holatining vaqtincha buzilishi) yoki aldov oqibatda nikohdan o'tgan bo'lса, bunday nikoh qonunda belgilangan tartibda haqiqiy emas deb topiladi.

Nikoh tuzishga majbur qilish qonun bilan ta'qiqланади. Ayolni o'z erkiga xilof ravishda erga tegishga majbur qilish O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 136-moddasiga ko'ra jazolanadi.

Nikoh tuzish haqidagi arizani berishda shaxsnı aniqlovchi hujjatlar: pasport, harbiy bilet, ofitser, praporshikning shaxsiy guvohnomasi, nikohlanuvchilarning biri ilgari nikohda bo'lgan bo'lsa, nikohdan ajralganlikni tasdiqlovchi hujjat (guvohnoma yoki sud qarori), nikohni haqiqiy emas, deb topilganligi to'g'risidagi sud qarori, er-xotindan birining o'limi to'g'risidagi guvohnoma ko'rsatilishi kerak. Bu oila tuzilishi va yaratilishining huquqiy jihatlari.

Axloq nuqtai nazaridan oilaning asosi bo'lmish nikoh – ezgu maqsadga yo'naltirilgan, zimmasiga surriyot qoldirishdek yuksak mas'uliyat yuklangan sevgi, sevishning ijtimoiylashgan ko'rinishi. Sevgi-muhabbat faqat erkinlikda namoyon bo'lishini hisobga olinadigan bo'lsa, nikohni ma'lum ma'noda, an'analar, ursodatlar va e'tiqodlarga moslashtirilgan sevgining yashash sharti deyish mumkin.<sup>1</sup> O'zbek oilasining dunyodagi boshqa oilalarga o'xshash tomoni ko'p, shu bilan birga O'ziga xos jihatlari bor. Xalqimizning: "Nikoh eng avvalo Arshi a'loda o'qiladi, keyin esa erda" degan naqli behuda aytilmagan. Ota-bobolarimizning azaliy tushunchalari bo'yicha nikoh ilohiy ahd, oila muqaddasdir. Oila qurishdan asosiy maqsad farzand ko'rishdir.

Ma'lumki, oila munosabatlari taraqqiyotida er va xotinning o'zaro munosabatlari, bu munosabatlarning ijobiyligi, er-xotinning bir-birini tushunishi, bir-birlariga nisbatan hissiy intilishlari, o'zaro hurmati, farzandlar tarbiyasidagi teng huquqligi va qator shu kabilar oila mustahkamligini ta'minlovchi muhim psixologik omillar hisoblanadi. Shuning uchun ham, jahonning barcha rivojlangan mamlakatlarida oila muammolarini hal etish, tadqiq etish masalalariga oid ishlarda bevosita oiladagi shaxslararo munosabatlar tizimining asosiy bo'g'ini bo'lgan erxotin va farzandlar munosabatlari xususiyatlarini, holatini o'rganishga alohida e'tibor beriladi.

Oila – tarixan tarkib topgan o'ziga xos va mos ijtimoiy guruh bo'lib, uning a'zolari bir-birlari bilan nikoh, qon-qarindoshlik, umumiyl turnush va o'zaro huquqiy, axloqiy va boshqa munosabatlar bilan bog'langandir. Oila nikoh zaminida vujudga keladi. Nikoh esa erkak va ayol orasidagi munosabatlarning jamiyat tomonidan tan olingan, ma'qullangan ifodasi hisoblanadi.

"Oila uch jihatni: o'zinинг bevosita ko'rinishii bo'lmish nikohni; oilaviy mulk va anjomlar hamda ular haqidagi g'amxo'rlikni; bolalar tarbiyasini o'z ichiga oladi".<sup>2</sup>

Nikoh tuzishga oid munosabatlar O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 12 apreldagi 171-soni qarori bilan tasdiqlangan "Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari" to'g'risidagi yo'riqnomasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003

<sup>1</sup> Abdulla Sher Axloqshunoslik O'zbekiston milliy faylasuflari jamiyati. – Toshket, 2010. 294-b

<sup>2</sup> Abdulla Sher Axloqshunoslik O'zbekiston milliy faylasuflari jamiyati. – Toshket, 2010. 293-b

Yil 25 avgustdag'i 365-son qarori bilan tasdiqlangan "Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risida"gi nizom va boshqa qonun hujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi. Nikohni rasmiylashtiruvchi yagona idora bu Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlaridir, o'tmishda diniy rasm-rusumlarga binoan nikoh tuzilib kelingan, hozirgi kunda diniy rasm-rusumlarga binoan nikoh tuzilishi huquqiy ahamiyatga ega hisoblanmaydi. Nikoh tuzish ixtiyoriy amalga oshirilishi va nikohni tuzish uchun bo'lajak er-xotin o'z roziliginini erkin ifoda etish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Oila kodeksining 16-moddasiga asosan nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar alohida belgilanib qo'yilgan. Unga muvofiq birinchi holatda tomonlardan loaqlal bittasi ro'yxatga olingan boshqa nikohda turgan shaxs bo'lsa, ikkinchi holatda nasl-nasab shajarasini bo'yicha to'g'ri tutashgan qarindoshlar o'rtasida bo'lsa, uchinchi holatda tug'ishgan va o'gay aka-ukalar bilan opa-singillar o'rtasida, shuningdek farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o'rtasida, to'rtinchi holatda tomonlarning loaqlal bittasi ruhiyat buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar o'rtasida, beshinchi holatda tomonlarning loaqlal bittasi nikoh qurish yoshidan kichik bo'lsagina nikoh tuzishga monelik qiluvchi holatlar mavjud hisoblanib, nikoh tuzish qonunan man etiladi.

Nikoh – erkak va ayolning teng huquqli, erkin va ixtiyoriy ittifoqi bo'lib, u fuqarolik xolati dalolatnomalarini yozish organlarida tuziladi va oila tuzish maqsadiga hizmat qiladi.

Nikoh o'z mohiyatiga ko'ra ahloqiy hodisa. Unda ehtiroslar axloqqa bo'ysundiriladi. Oila quyidagi xolatlarda quriladi:

1. sevgi – muhabbat bilan;
2. hissob – kitob bilan;
3. urf – odat an'anaga ko'ra;
4. majbur bo'lib qolgan holatlarda;

Shariat bo'yicha nikoh:

- Er-xotining huquq va majburiyatları shariat bo'yicha belgilangan bo'lib, ular o'rtasidagi huquqiy munosabatlari nikoh ahdi tuzilib, kelishilgan qalin va ajratilgan mahr berilgandan keyin boshlanadi.
  - Oilaning tinchligi, uning farog'atli turmushi shu oilaning boshida turgan er bilan xotin orasidagi do'stona munosabatlarga bog'liq.
  - Shariat bo'yicha nikoh shartnomaga o'xshab ketsada, undan farq qilgan. U umurbod tuzilgan. Shariat muddatli shartlarga yo'l qo'yagan. Agar nikoh ahdiida muddatli shartlarga ma'lum hafta, oy yoki yilga yo'l qo'yilgan bo'lsa, bunday nikoh haqiqiy emas, deb sanalgan.
- Shariat bo'yicha nikohdan o'tish uchun nikohdan o'tuvchilardan bir qator shartlarga rioya qilish talab etilgan.

Ular:

- Birinchidan – nikohdan o'tuvchilarning o'zaro roziligi;
- Ikkinchidan – nikoh yoshiga to'lish;
- Uchinchidan – nikohni guvohlar ishtirokida tuzish;
- To'rtinchidan – kelin uchun qalin va mahr to'lash;
- Beshinchidan – diniy e'tiqod birligi;
- Oltinchidan – nikohdan o'tadiganlar yaqin qon-qarindosh bo'lmasligi;
- Ettinchidan – tabaqa bo'yicha tenglik;
- Sakkizinchidan – nikohdan o'tivchilarning ruhiy jihatdan sog'lom bo'lishi lozim.
- Shariat bo'yicha nikoh ahdini tuzish vaqtida albatta ikki kishi guvohlikka o'tishi lozim. Guvohlikka o'tishga qo'yilgan shaxslar nikoh ahdini tuzuvchilarning o'zaro roziligini o'zları bir vaqtning o'zida eshitgan bo'lishlari lozim edi.
- Shariat bo'yicha nikoh ahdini tuzishning navbatdagi sharti qalinni to'lash va ajratilgan mahrni berishdan iborat bo'lgan. Bu siz nikoh haqiqiy emas, deb sanalgan. Mahr kuyov tomonidan kelinga berilib, uy-joy va sepdan iborat bo'lган. Har bir hududda mahr, qalin hajmlari har-xil bo'lgan.

Shariat bo'yicha, faqat islom diniga mansub bo'lgan shaxslargina o'zaro nikoh tuza olgan. Agar ayol boshqa dindan islom diniga o'tsa, u bilan nikoh turish mumkin edi.

Nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlар:

- Quyidagi holatlarda nikoh tuzishga yo'l qo'yilmaydi:
- Nikohga kiruvchilarning loaqlal littasi ro'yxatga olingan boshqa nikohda bo'lsa;
- Nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan qarindoshlar (bobo, buvi, otona, farzandlar, nevara va chevaralar) o'rtasida, tug'ishgan va o'gay aka-ukalar bilan opa-singillar o'rtasida, shuningdek farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o'rtasida;
- Nikohga kiruvchilarning loaqlal littasi ruhiyati bузilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa,
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi qo'shxotinlikni taqiqlaydi.
- Respublikamizning Jinoyat Kodeksi 126-moddasida ko'p xotinlilik, ya'ni ikki yoki undan ortiq xotin bilan er-xotin bo'lib yashash jinoyat hisoblanadi.
- Ma'lumki, qarindoshlar o'rtasidagi nikoh oqibatida ko'pchilik bolalar nogiron bo'lib tug'ilishadi. Shifokar fikricha, yaqin qarindoshlar: amaki, xola, tog'a va ammavachalarning farzandlari o'rtasidagi nikohiy munosabatlар ham salbiy oqibatlarga olib keladi.

– Ruhiy kasalligi bo'lgan shaxsnинг kasalligini bekitib, balki nikohiy munosabat natijasida tuzalib ketadi deb ayirim ota-onalar qonun buzilishga ham yo'l qo'yadilar. Natijada nikohning bekor qilinishi, oilada nogiron farzand tug'ilishi kabi fojialar ham sud amaliyotida uchrab turadi.

#### Otalikni belgilash:

- Bolaning onasi bilan nikohda bo'lмаган shaxsnинг otaligi o'zini bolaning otasi deb tan oлган shaxs va onaning fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organiga birgalikda topshirgan arizasiga binoan belgilanadi.
- Otalikni belgilash faktini mustahkamlash uchun bolaning (bolalarning) aynan shu otadan tug'ilganligini tasdiqlaydigan dalillar bo'lishi shart.
- Bundan tashqari ota va bola o'rtasida nasl-nasab bilan bog'liq bo'lgan o'zaro huquq va majburiyatlarni ifodalovchi huquqiy munosabatlar ham o'rnatiladi.
- Otalik, shuningdek, otaning qarindoshlari qatoriga kirganligi ham anglatadi va bolaning ota qarindoshlari, ya'ni buva, buvi, aka-ukalar va opa-singillar bilan qarindoshligini aks ettiradi.
- O'zaro nikohdan bo'lмаган ota-onadan tug'ilgan bolaning otasini aniqlash masalasi, agar ota yoki ona fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organiga birgalikda ariza berishdan bosh tortsa yoxud otaning o'zi vasiylik va homiylik organining roziligi bilan (sud qarori) bilan ariza bersa, sud tartibida yoritadi.

Sudga arizani ota yoki ona, vasiy (homiy), bolani o'z qaramog'iga olgan shaxs, bolaning o'zi balog'at yoshiga etganidan so'ng beradi.

Oila muqaddas urf – odatlarimizni saqlaydigan tarbiya o'chog'idir. Yoshlarning ma'naviy qiyofasi, ularning xatti-harakatlari, xulq-atvorlari dastlab oilaviy munosabat madaniyatida ifodalanadi. Oilaviy munosabat madaniyati nima? Bu – oilada insonga xos va mos sharoitlarni yaratish, oilaning vazifalarini to'la bajarish, oilaviy turmush tarzini to'g'ri shakllantirish, oila a'zolarining xulq – odobi, dunyoqarashi, masjuraskini, oilaviy hayotning davomiyligini ta'minlashdir. Mustahkam oila mustahkam jamiyatning asosidir. Shunday ekan, jamiyat oilalarni mustaxkamlash, oilaviy munosabatlar madaniyatini takomillashtirishga alohida e'tibor berib kelmoqda.

Oila, jamiyat va davlat bilan o'zaro bog'liq bo'ladi va ular bilan bir vaqtida rivojlanib boradi. Oila nafaqat axloqiy balki, demografik, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa muhim funktsiyalarni bajaradi. Shuning uchun, jamiyat va davlat oilaning farovon bo'lishidan mansaftor bo'ladi.

Oila a'zolari bir-birlari bilan umumiyl turmush, o'zaro iqtisodiy-mulkiy, huquqiy, axloqiy, ruhiy aloqalar bilan bog'lanadi. Oilaning birinchi vazifasi o'z nasl-nasabini davom ettirishdan, tarbiyalni farzandlarni o'stirishdan, oila a'zolarining tirikchiliginini, bo'sh vaqtini ko'ngilli o'tkazishni ta'minlashdan iboratdir.

Insonning ijobiyligi va salbiy sifatlarni shakllanishi aksariyat hollarda oilada beriladigan tarbiyaga bog'liq bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash mumkinki, sog'lom avlodlarni tarbiyalash hozirgi kunning muhim masalalaridan hisoblanadi. Buning uchun, avvalo oilalardagi psixologik muhitni sog'lomlashtirish dolzarbdir.

Oiladagi psixologik muhit – bu oila a'zolarining oilaviy munosabatlarda, ijtimoiy muhit va kasbiy munosabatlaridagi ijtimoiy-psixologik faolligini umumiy ko'rsatkichlari majmui hisoblanadi. Psixologik muhit – bu oilaning asosiy ko'rsatkichi bo'lib, ijtimoiy jarayonlarda, ayniqsa, oilaning ijtimoiy muhitdagi salbiy ta'sirlarga qarshi tura olish qobiliyatida aks etadi. Oilaning psixologik muhiti uning a'zolarini hayot faoliyati davomidagi o'ta keskin holatlarda ham, muammoli vaziyatlarni hal qilishda yuzaga keluvchi bosiqlikni tavsiflaydi.

Bejizga xalqimizda "Teng – tengi bilan" degan maqol bezigza aytilmagan. Chunki, yoshlarni oilaviy munosabatga kirishganda ular qiynalib qolmasliklari uchun: oilaviy qadriyatlarning bir-biriga mos kelishi, oilalardagi rollarni erxotinning funktional-rolli o'zaro muvofiqlik bo'lishi, ijtimoiy munosabatlarga moslashuvchan bo'lishi, oilaviy munosabatlarni umrini oxirigacha davom etishiga intilish kabilalar asosiy mezon hisoblanadi.

Oilaning psixologik muxitini ta'minlashda ota-onva farzandlarning birlariga bo'lgan samimiyligi iliq munosabatlari hamda shaxslararo munosabatlarga ham bog'liq bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, ota-onalarda oila haqidagi tasavvurlarning kengligi, ayniqsa bola tarbiyasiga doir bilim, ko'nikma, malakalariga ega bo'lishi bilan belgilanadi.

Jamiyatimizda sog'lom oilalar bilan bir qatorda nosog'lom oilalar ham mavjud. Nosog'lom oila muhitini sog'lomlashtirish uchun avvalo quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Birinchidan, oilada ota-onva bolalarning istak va qiziqishlarini o'zlarining istak va qiziqishlariga mos ravishda boshqara biliishi lozim bo'lsa, ikkinchidan, oilada har bir bolaga ularning individual-psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib, muomala munosabatda bo'lishlari talab etiladi. Kattalarning xatosi tufayli yoshlar noto'g'ri yo'ldan yurishi – yolg'onchi, g'iybatchi, noshukur hamda hiylakor bo'lib qolishi mumkin. O'zi tarbiyaga muhtoj ota-onalarni bolalar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishlari hammaga ayon. Shundan kelib chiqib, bunday oilalarni jamoatchilik qatiq nazoratga olishi, u oiladagi farzandlar tarbiyasiga e'tiborli bo'lishi maqsadga muvofiq.

"Bolalarni kattalarning aytadigan so'zlari emas, ularning qilgan amallari tarbiyalaydi"<sup>1</sup>. Bola kichikligida kattalarga taqlidchan va itoatkor bo'ladi. Kattalar nimani buyursa shuni bajaradi, aytganlaridan chiqmaydi. Katta bo'lgan sari aqli ko'p

<sup>1</sup> К. Юнг. К. Керенни. Душа и миф. Киев-Москва. Порт-Роял-Современство. 1997 -1146

narsaga etadigan bo'lib boradi. Endi u ba'zi masalalarda kattalar bilan kelisha olmaydi, o'z fikrida turib oladi. Buni kattalar odobsizlik, o'jarlik, o'zboshimchalik deb tushinib, uni jazolashga harakat qiladilar, lekin bunday nohaklik bilan bola qalbi jarohatlanadi. Natijada, ota-onas obro'yiga putur etadi. Oqibatda ota-onas va bola o'rtaсидаги mehr-muhabbat ishonchining yo'qolishi кabi оqibatlarga olib keladi.

Ota-onas va bolalar o'rtaсидаги ijobiy muomala munosabatlarini yuzaga keltirish ko'п jihatdan ota-onalarning o'z bolalarini, ularning fe'l-atvori, xarakter xislatlari, qiziqishlari kabilarni bilishlariga bog'liqdir. Shu jihatdan ham, har bir ota-onas eng avvalo, o'z farzandlarini yaxshi bilishlari, hohish-istiklari, psixolog holatlarini bilishlari va shu asosda muomala munosabatda bo'lishlari lozimdir.

Oila va oilaviy munosabatlarning, shu jumladan ota-onaning ta'sir doirasi kuchliligini hisobga olib, eng avvalo mahalla oqsoqollari va keng jamoatchilik nosog'lom oila muhitini sog'lomlashtirishga ota-onas xulqidagi salbiy illatlarni tuzatishga harakat qilishlari lozim bo'ldi.

Oilaning mustahkamligi oila a'zolarining axloqiy tarbiyasiga bog'liq. Xalqimizda bejiz "Sog'lom turmush tarzi mustahkam oilaning garovidir" deb aytilmagan. Sog'lom turmush tarzi deganda, biz nafaqat oiladagi er va xotinning bir-biriga bo'lgan munosabati balki, ulardagagi axloqiy fazilatlar, imonlilik, poklik, halollik, rostgo'ylik, shirinso'zlik, kabi axloqiy me'yorlarga amal qilgan xolda urs-odatlarga asoslangan, zamonaviy oilani tushunamiz.

Oilada eng asosiy narsa – bir-birini tushunish, qadrlash va e'zozlashdir. Er-xotindan birining kamchiligini ikkinchisining fazilati bilan yopilib yurmog'i lozim. Oilada ikki yosh bir butun bo'ladi, muhabbat – nikoh iplarini mustahkamlaydigan, axloqiy mas'uliyatni yanada oshiradigan hissiyotdir. Ikki yosh hissiy holatlarini o'zaro tushunib borishi natijasida oilada mo'tadil kayfiyat qaror topadi, qarashlar uyg'unligi tug'iladi. Zero, muhabbat faqat o'zaro hissiy qoniqishgina bo'lib qolmasdan, munosabatlar go'zalligiga aylanadi.

Oila – bu kichik jamoadir. Unda o'zaro muomalaning barcha qoidalariga amal qilinishi kerak. Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat; bir-biriga mehribon bo'lish, ayniqsa ayollarini izzat qilish kabi qoidalar kundalik odatga aylanib borishi kerak. Ota - ona bolalariga namuna. Shuning uchun, ular oilada axloq madaniyatiga to'la rioya qilishlari shart.

Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa bo'lib, oilaning ichki ishlariga hech kim aralashishga haqqi yo'q. Shu sababli ham, oila muqaddas va dahlsiz hisoblanadi. Oilaviy munosabatlar jamiyatdagagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy va ma'naviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta'sirida o'zgarib boraveradi.

Oilalarda nafaqat oilaviy munosabat, balki qon-qarindoshlik munosabatlari madaniyati ham yuksak darajada rivojlangan bo'ladi. Bunday oilada bobo, buvi, ota-

ona, amaki, aka-uka, opa-singil, jiyan, kuyov, kelin quda-anda, qaynota-qaynona kabi o'nlab qarindoshchilik darajalarini bildiruvchi mezonlarga amal qilinadi. Bu munosabatlarda milliylikning asl o'zagi namoyon bo'ladı. Bu munosabatlarning afzalliligi shundaki, bunda qarindosh-urug'lar bilan oqibatli bo'lib yashash, farzandlarni milliy udum, qadriyatlar ruhidha tarbiyalash uchun imkoniyat tug'iladi hamda ular qarindoshlar orasida ham moddiy va ma'naviy tayanch-suyanch bo'lib yashashga odatlanadilar.

Bunday oilalarda tarbiyalangan farzandlar ham barcha bilan munosabatda tezda kirishib keta oladigan, munosabat madaniyatiga rioya etadigan inson bo'lib shakllanadilar, chunki bu bolalarni bitta oila emas, bir necha oila tarbiyalaydi. Oilaviy sharoit u yoki bu oila a'zolarining kelajakda hayotiga bevosita ta'sir qiladi.

Oilaviy ajrimlar har bir oila a'zolariga qattiq ta'sir qiladi. Etikada oilaviy ajrimlarning uch turi ko'rsatiladi. Birinchisi, nikohni bekor qilinishi bilan ajralish – bunda oilaviy mulk, va farzandlar tarbiyasi qonun asosida taqsimlanadi. Bunday sabab o'zaro kelishmovchilik hamda tushunmovchilik, o'zaro muhabbatning yo'qligi natijasida paydo bo'ladı. Ikkinchisi, tabiiy ajralish bo'lib – oila a'zolarining biri falokat yoki kassallik tufayli vafot etgan oila mulkinining meros sifatida taqsimlanishiga sabab bo'luvchi ajralishdir. Uchinchisi – axloqiy ajralish bo'lib, bunda bolalar balog'atga etib, oila qurilishlari – ota-onalar ular uchun oilaviy mulkdan uy-joy, turli maishiy jihozlar ajratib berishlari belgilanadi. Shunga ko'ra, oilada har bir a'zoning o'ziga yarasha majburiyatlari mavjud. Ayniqsa, o'z odatiy turmush tarzini o'zgartirib, o'zga oilaga kelin bo'lib kelgan qizlarimizning yangi oila a'zolari bilan bo'lgan o'zaro munosabatlari juda muhim hisoblanadi.

Oilaviy ajrimlarning kelib chiqishiga oiladagi nizolar sabab bo'ladı. Oilaviy nizolar – bu ijtimoiy keskinlashgan vaziyat xisoblanadi. Nizolar er-xotinlar, ota-onalar va bolalar, er-xotinlar va ularning ota-onalari o'rtaida va boshqa yaqinlar o'rtaida yuzaga keladi. Oiladagi turli yoshdagagi kishilarni yashashi nizo chiqish ehtimolini paydo qiladi. Keskinlashayotgan ziddiyatga er-xotinlar o'rtaсидagi munosabatlari, bir-birini tushunmaslik yoki hatto tushunishga harakat qilmaslik ham sabab bo'layotganligiga guvoh bo'imodqadamiz.

Oilaviy ajrimlarning kelib chiqish sabablari: Oila va oilaviy munosabatlar haqida bilimning etishmasligi; Aroqxo'rlik va giyohvandlik; Yosh oilaga ota-onalarning aralashuvni; Befarzandlik; hiyonat.

Oiladagi sog'lom muhit – sog'lom maskurani shakllantirishga hizmat qiladi. Insoniy fazilatlar – czgulik, yaxshilik, fidoyilik, sadoqat, mardlik, insof, rahms-hafqat kabi hislatlar dastlab oilada shakllanadi. Oila yoshlarni axloqli, odobli, rostgo'y, halol va samimiyl bo'lib voyaga etishlari uchun zamin tayyorlaydi.

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov bu haqda shunday degan: "Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech

shubhasiz, oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Chunki, insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Bolani harakterini, tabiatini va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar – yaxshilik va ezzulik, olijanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiyidir.<sup>1</sup>

Oila tarbiyasi bolaning kelajakda kim bo'lib etishishida muhim rol o'ynaydi. Demak, bola oilada jamiyatning temsolini ko'radi, bo'lajak fuqaroning tabiatini, dunyoqarashi va axloqiy qiyofasi oilada shakllanadi hamda shunga ko'ra kamol topib boradi. Oila tarbiyasining mohiyati kishini hayotga tayyorlashdan iborat. Oila – bu kichik jamoadir. Unda o'zaro muomalaning barcha qoidalariga amal qilinishi kerak. Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat; bir-biriga mehribon bo'lish, ayniqsa ayollarni e'zozlash kabi qoidalar kundalik odatga aylanib borishi kerak. Ota-onal boalariga namuna. Shuning uchun, ular oilada axloq madaniyatiga to'la rioya qilishlari shart.

Oilaviy axloq o'z justini ishonch xalqalari bilan bog'lanishini taqozo etadi. Shu bois o'z yaqiningizni yolg'onchilikda ayblastir yoki biron narsada «ushlashga» harakat qilish vaziyatni og'irlashtiradi, xolos. Bu ishonchszligingiz sizga nisbatan ichki dushman sifatida qarashga olib kelish mumkin. Albatta, me'yorida siz uchun aziz bo'lgan odam sifatida chiroyli rashq qilish mumkin. Bu hatto aloqani mustahkamlaydi. Ammo, yarim haqorat shaklidagi rashqlar, juftingizni qilmagan ishini qilishga undashi mumkin. Yaqiningiz bilan bo'lgan munosabatda «tilga suyak qo'yib qo'ygan» yaxshi. «Jinni bo'libsiz!» degan so'z albatta ajrashishga sabab bo'imasligi mumkin, ammo sizni chiroyli ko'rsatmaydi. Undan ko'ra: «Adashyapsiz azizim!» deb aytgan durustroq.

Hattoki, hazilomuz murojaatlarda ham o'tkir iboralardan hayiqmoq lozim. Bizning so'zlarimiz biz istagan darajada doimo natija bermasligi mumkin, o'zimiz bilmagan holda boshqalarni qalbini yaralashdan uzoqroq bo'lganimiz ma'quldir. Yomon ma'noda so'z aytgan bo'lsangiz, unda uni ifodalashdan ne ma'ni bor?! Gap bilan «chaqilgan» kishi sizni kechirishi mumkin, ammo qalbiga otilgan bu «nayzaning» izi o'chishi qiyin. Bundan siz ham foyda ko'rmaysiz. Va eng asosiysi, erkaklar uchun: rafiqasi bilan bo'lgan har mojaroda ayolni o'ziga qaratadigan «Azizam» degan murojaati masalani ijobji tus oldirishi mumkin. Ammo erkaklarning bunday so'zlarni ishlatalishlari nihoyatda kam uchraydi.

Oilda farzandlar ko'proq onadan tarbiya oladilar. Onadagi aksariyat axloqiy fazilatlar farzndlarga ham o'tadi. Bu esa sharq xotin-qizlariga xos yuksak axloq fazilatlarida ko'rindi. Jumladan, Sa'diy Sheraziy ham:

<sup>1</sup> Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat- engilmaskuch. T., Ma'naviyat. 2008. 52- b.

*Xotin bo'lsa qobilu aqli ruso,  
Erni shoh etar, gar bo'lsa gado,-*

deya ayollarni madh etgan edilar.

Ma'naviyatsiz moddiy farovonlikka ham, umumtaraqqiyotga ham erishib bo'lmaydi. Ma'naviy qashshoqlik milliy tanazzulga olib boradi. Xalqimiz o'zining ko'p ming yillik tarixi jarayonida oila hususida milliy-mafkuraviy tarbiyani shakllantirgan. Oilada otaning shaxsiy ibrati, onaning mehri orqali turmush zaxmatlarini engishda, farzandlarini tarbiyalı bo'lishida mustahkam tayanch bo'la olishgan. Oilada erkak kishining muhim vazifasi xotin va oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish, ularning nomuslarini saqlashdir.

Oilaning jamiyatda tutgan o'rni, oila tarbiyasi, ota-onasi va farzandlar o'tasidagi munosabatlar, shuningdek, oilaning pokligi va mustahkam bo'lishiga oid qimmatli fikrlar hadislarda muhim o'rinni egallaydi:

«Kimgaki Alloh taolo soliha xotin nasib etgan bo'lsa, dinining yarmiga yordam qilibdi, qolgan yarmiga o'zi taqvo qilsin». «Xotinlarning barakatlirog'i uylanish xarajatlari engilidir»; «Xotin kishi qovurg'adan yaratilgan. Agar sen qovurg'an to'g'rileyman desang sindirasan, murosa qilu u bilan yasha»; «Xotin kishiga eng haqqi ko'p kishi eridir, erkak kishiga eng haqqi ko'p kishi onasidir»; «Agar bir shaharda loqaq bir ayol bir marta buzuqlik ko'chasiga kirib haromi orttirsa, bu shahardan qirq yil fayzu barakat ko'tarilib ketadi»; «Ayollarni faqat ulug' odamlar hurmat qiladi. Uлarni faqat pastkash odam xo'rlaydi».<sup>1</sup>

Ushbu hadislarda islam diniga xos insonparvarlik va adolat mezonlari namoyon bo'ladi, nikohning ilohiyligi, oilaning muqaddasligi ta'kidlanadi, er va xotin o'tasidagi burch, poklik, iffat, o'zaro bir-birini hurmat qilish tuyg'ulari ulug'lanadi.

Shuni alohida qayd etish o'rinniki, mustahkam oila sog'lom turmush tarzi asosida shakllanadi. Oila baxti, farzandlarning tarbiyali, etuk inson bo'lib etishida ota-onanining sa'y-harakati, tarbiya mahoratiga bog'liq. Oiladagi axloqiy tarbiya asosan ota-onalar va oilanening yoshi katta a'zolari tomonidan amalga oshiriladi. Oila tarbiyasida muvaffaqiyatga erishish ko'p jihatdan oiladagi ota va onanining birga bo'lishi, ularning baxtli yashashiga bog'liqidir. Bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizda yuz berayotgan jadal o'zgarishlar, yutuqlar bilan bir qatorda oilaviy munosabatlar tizimida ajralishlar, yoshlar orasida axloqsizlikning ko'payganligi, ota-onalar va farzandlar o'tasida ziddiyatlarning paydo bo'lishi, tirik etimlar sonining oshishi kuzatilmogda. Oilaning jamiyatdagi mavqeini saqlab qolish, uning mustahkamligini saqlash va kuchaytirish, uning muqaddasligini kelajak avlodlar

<sup>1</sup> Al-Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Sahibi Buxoriy: Al-jom' as-sahih. (Ishonarlari to'plam) 2 kitob G' Abu Abdulloh Muhammad ibni Ismoil al-Buxoriy - Toshkent O'zbekiston milliy entsiklopediyasi Davlat ilmy nashriyoti, 2008. 231-287

ongiga singdirish hozirda dolzarb muammollardan hisoblanadi. Oilada jipslik, axillikning yo'qligi uni tashqi salbiy omillarga ta'sirchan qilib qo'yadi. Shuning uchun, o'tish davrida oila-nikoh munosabatlarida barqarorlikni saqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai-nazardan O'zbekiston Respublikasining Birinchi rezidenti I.A.Karimov "Oilaviy tarbiya masalasida xatoga yo'l qo'ymaslik uchun avvalo har qaysi xonadondagi ma'naviy iqlimni o'zaro hurmat, axloq-odob, insoniy munosabatlar asosiga qurish ayni muddao bo'lur edi. Bu haqda gapirganda, men mumtoz yozuvchimiz Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar» asaridagi qahramonlarning o'zaro muomala va muloqotlari, ularning hatto kichik farzandlarini ham «siz»lab gapirishi misolida ota-bobolarimizning oila ma'naviyatiga qanchalik katta e'tibor bergeniga ishonch hosil qilaman"!<sup>1</sup>, – deb yozgan edi.

Oilani mustaxkamlashda reproduktiv salomatlikni o'rni ham beqiyos. Mustaqillikning ilk yillardan boshlab mamlakatimizda ona va bola sog'ligini muhofaza qilish, millat sog'ligi to'g'risida qayg'urish eng dolzarb vazifalar sirasiga kiritildi va bu borada davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan qabul qilingan 2014 yil 1 avgustdagagi "O'zbekistonda aholi reproduktiv salomatligini yanada mustahkamlash, onalar, bolalar va o'smirlar salomatligini muhofaza qilish bo'yicha 2014-2018 yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi to'g'risida"gi PQ-2221 sonli qaroridan kelib chiqqan talab va vazifalarni amalga tatbiq etish uchun, sog'lom avlodni voyaga etkazish masalalari bo'yicha keng qamrovli targ'ibot ishlari olib borilmoqda. Ushbu ishlar zamirida inson manfaatlari ko'zda tutilgan desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Oilalarni rivojlanishida oilaviy juftliklar hamda yigit qizlar sog'lig'ini yaxshilashda reproduktiv salomatlikka doir bilimlar amaliy ahamiyati bilan o'ziga xosdir. Ayniqsa, xotin-qizlarning sog'lom turmush tarzi, reproduktiv madaniyatini shakllantirish, ularni sog'lom onalikka tayyorlash, ijtimoiy-siyosiy statusini mustahkamlash kabi masalalarni amalga oshirishda oila, mahalla va nodavlat tashkilotlar o'zaro kelishilgan hamkorligda faoliyat olib borish bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir. Har bir millat va jamiyatning eng qimmatli xazinasi sog'lom, axloqiy barkamol oiladir. Oilaning asosiy negizida esa ona tarbiysi alohida o'rin tutadi. Hozirgi sharoitda oilalarda umuminsoniy va milliy qadriyatlar ildiziga tayangan, sharqona axloqiy tarbiyadan bahramand bo'lgan ma'naviy – axloqiy munosabatlar qaror topmoqda. Oilada axloqiy asoslar sog'lom bo'lmasa, o'sib-unayotgan "umr daraxti" sinadi va hosil bermaydi.

Oilaning mustahkamligi esa har tomonlama sog'lom turmush tarziga, shuningdek, tom ma'noda aytadigan bo'lsak, oilaning tibbiy madaniyatiga

<sup>1</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch – Toshkent, Ma'naviyat, 2008. 55 - bet.

bog'liqdir. Oilada tibbiy madaniyatni, sog'lom turmush tarzini shakllantirish – jismoniy barkamollik va salomatlikka erishishning muhim omildir.

Yurtimizda barkamol avlodni tarbiyalash, sog'lom turmush tarziga amal qilib yashash uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Jumladan, 2017 yilni "Xalq bilan muloqot va inson mansaatlari yili" deb atalishida ham respublikamizdagi har bir oilaning bekamu – ko'st, baxtli, har tomonlama sog'lom va farovon hayoti asosiy maqsad qilib olingan. Ushbu maqsad yo'lida "O'zbekiston fuqarosiman" degan har bir yoshu – keksa hayotining yanada farovonlashuvi yo'lida tibbiy madaniyatga intilishi maqsadga muvofiqdir. Zero, sog'liq tufayligina har qanday orzu maqsadlarga erishishlik muqarrardir.

Nikoh shartnomasi - oila mustahkamligi omildir. Oila kodeksining 29-moddasiga binoan, nikoh shartnomasi-nikohlanuvchi shaxslarning yoki er va xotinning nikohda bo'lgan davrda yoxud er va xotin nikohdan ajralgan taqdirda, ularning mulkiy huquq hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuvdir. Oila huquqiy asoslarining uzviy bir qismi nikoh shartnomasi, nikohning rasmiy qayd etilishi, unda ishtirok etayotgan yigit va qizning shaxsiy hamda mulkiy huquqlarini yuzaga keltiradi. Oila qurayotgan yoshlari ichida bu jarayongacha, tadbirkorlik qobiliyati yoki intellektual salohiyati bilan moddiy-moliyaviy jihatdan anche narsaga erishganlari ko'pchilikni tashkil etadi. Er va xotinning nikohgacha o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulki, shuningdek, ulardan har birining nikoh davomida hadya, meros tariqasida yoki boshqa bitimlar asosida olgan mol-mulki faqat o'zining mulki hisoblanadi. Shu ma'noda er-xotinning birgalikdagi umumiyligi esa ularning nikoh davomida ortirgan, shuningdek, nikoh qayd etilgunga qadar umumiyligi mablag'lari hisobiga olingan buyum yoki boshqa narsalari bo'lishi mumkin. Nikoh shartnomasi nikoh davlat ro'yxatiga olingunga qadar yoki nikoh davrida tuzilishi mumkin. Nikoh davlat ro'yxatiga olinguniga qadar tuzilgan shartnoma u davlat ro'yxatiga olingan kundan boshlab kuchga kiradi. Shartnoma yozma shaklda tuziladi va albatta notarial idora orqali tasdiqlanishi shart. Nikoh shartnomasi er-xotin o'rtaSIDA vujudga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni sud jarayonida to'g'ri va adolatli hal qilinishida yordam beradi, ya'ni, er-xotin nikohdan ajralgan taqdirda ularning har biriga tegishli mulkni hajmi va miqdorini aniqlab olish imkonini ortadi.

Muhimi, Fuqarolik kodeksining 354-moddasiga muvofiq nikoh shartnomasini tuzish ixtiyoriydir. Ya'ni, bunday shakldagi shartnomani tuzish yoki tuzmaslik er va xotinning o'ziga bog'liq. Nikoh shartnomasining yana bir afzalligi shundaki, u o'zida nafaqat er-xotinning mol-mulkini vujudga keltirish yoki uning huquqiy tartibini o'zgartirish, shu bilan birga, er-xotinning bir-biriga moddiy ta'minot berishini tartibga solishini ham aks ettiradi. Shu bois, nikoh shartnomasini faqat mulkiy nizolarni hal qilishga yordam beruvchigima emas, balki nikohni mustahkamlovchi omil, deb qarash ham mumkin.

Darhaqiqat, insonni hayoti davomida har tomonlama to'kis, osoyishta, hotirjam va baxtli yashashi uchun, huquqiy tartib- qoidalarga og'ishmay amal qilishsa, qurilgan oilaning poydevori mustahkam, kelajak kelajagi porloq bo'lishi, shubhasiz.

Davlatning oila tinchligi va barqarorligini ta'minlashdagi o'rni beqiyosdir shu bugungi kungacha oila institutini mustahkamlash maqsadida bir necha qarorlar va farmonlar qabul qilingan. Jumladan:

Oilaviy munosabatning qonun bilan himoyalanishi Respublikamiz Konstitutsiyasida, Oila Kodeksida va boshqa qonun-hujjatlarda o'z ifodasini topdi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1998 yil 30 apreldagi qarori bilan Respublikamizning yangi Oila kodeksi qabul qilindi va 1998 yil 1 sentyabrdan e'tiboran amalga kiritildi.

O'zbekistonda oila munosabatlariga doir qonunchilikning rivojlanishiga tarixiy nuqtai nazardan qaralsa, masalan, ittifoq davrida qabul qilingan 1978 yilgi Konstitutsiyada oila masalasiga faqat bitta, 51-modda ajratilgan edi. Bugungi Konstitutsiyamiz alohida «Oila» deb nomlangan XIV bobda to'rtta modda oilaviy munosabatga bag'ishlangan. O'zbekiston Konstitutsiyasining 63 – moddasida «Oila – jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega»<sup>1</sup>, – deb belgilab qo'yilgan. Jamiyat taraqqiyotida ma'naviy omillarning ahamiyati nihoyatda ortib borayotgan hozirgi davrda oilani mustahkamlash har bir millatning bu boradagi qadriyatlari va an'analarini o'zlashtirish va uyg'unlashtirish birinchi darajali vazifasi bo'lib qolmoqda. «Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi» da oilaviy munosabatlar davlatlar zimmasiga yuklatilgan muhim vazifalardan biri bo'lib, u keng ma'noga ega. Bu xalqaro hujjatda oilani jamiyatning tabbiy va asosiy quyi xujayrasi sifatida, uning daxilsizligini yaxshilash, bolalarga ta'lim va tarbiya berish, onalar va ishga yaroqsiz oila a'zolari uchun zarur bo'lgan moddiy imtiyozlar tug'dirish va oilani mustahkamlash borasida shunga o'xshash yo'lga qo'yish lozim bo'lgan muhim masalalar nazarda tutiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi va boshqa shu munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlarning asosiy maqsadi:

- Nikohdagilarning huquqiy holatlarini belgilash;
- mulkiy va shaxsiy huquqlarini ko'rsatish;
- nikoh shartnomasini tuzish yo'llarini belgilash;
- qon - qarindoshlik va bolalarning nasl-nasabini belgilash;
- alimentlar va boshqa moddiy-ma'naviy yordamlarni amalga oshirish masalasini hal qilish;
- bolalarning oiladagi huquqlari va ota-onalarni moddiy ta'minlash to'g'risidagi majburiyatlar;

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi — Toshkent, O'zbekiston, 2012. 63 — mudda

— ota-onan qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquq va majburiyatlarini himoya qilish va boshqa muhim qoidalardan iborat.

Oilaviy munosabatlarni huquqiy tartibga solishdan asosiy maqsad oilaning mustahkam bo'lishidan, oilaviy munosabatlarni o'zaro muhabbat, ishonch, hurmat va hamjihatilik zamirida, barcha a'zolarining mas'ullligi hissi asosida qurishdan iborat. Ushbu maqsad Oila kodeksining va boshqa qonun hujjatlarining asosiy g'oyasi bo'lib hisoblanadi.

Oila qonunlarining muhim vazifalaridan va maqsadlaridan biri – fuqarolarning oila oldidagi o'z mas'uliyatlarini his qilishdan iborat.<sup>1</sup>

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, oila tarbiyasining manbalari muayyan xalqning asrlar davomida to'plagan milliy-madaniy qadriyatlariga asoslangan bo'lib, o'zbek oilalarida o'z shaxsiy farovonligidan ko'ra oila sha'nining baland tutilishi, qarindosh-urug'lari va yaqin odamlariga, qo'ni-qo'shnilariga g'amxo'rlik qilishni olingi o'ringa qo'yilishi – oliy darajadagi maqsad bo'lib, oilani tashqi muhit bilan bog'lashga va mustahkamligini ta'minlashiga xizmat qiladi.

### **Foydalilanildigan adabiyotlar ro'yxati**

#### **Rahbari adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. – Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., O'zbekiston. 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. – Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T., O'zbekiston. 2017.
3. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — Toshkent, O'zbekiston, 2012. 63 — modda.

#### **Darsliklar va o'quv qo'llanmalar:**

##### **Darsliklar va o'quv qo'llanmalar:**

1. Muhammadjonova L.A. Amaliy etika va estetika. O'quv qo'llanma – T.: "Mumtoz so'z" 2022 yil.
2. L.Muxammadjonova, S.Alimov,Sh.Rajabov. Notiqlik san'ati. O'quv qo'llanma – T.: "Mumtoz so'z" 2022 yil.
3. Агзамова Н. "Философия нравственности". Дарслик Т.: Университет. ЎЗМУ, 2022 йил.
4. Радугин А.А. Этика. Учебное пособие для высших учебных заведений. – М.: Центр, 2003. -88 б.
5. Nazarov Q. Aksiologiya – qadriyatlar falsafasi. –T.: O'FMJ, 2004.
6. Степанянц. М.Т. Философские аспекты суфизма. –М.: Наука, 1987. С-99
7. Тримингэм Д.С. Суфийские ордена в исламе. –М.: Наука, 1989. С-546.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining Oila Kodeksiga sharhlari - Toshkent: Adolat, 2000, 11-b

8. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. –Toshkent: O'zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. -8 b.
9. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. 12 tomlik. –Toshkent: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. T.1. -530 b.
10. Falsafa: qomusiy lug'at. Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov. –Toshkent: "Sharq" nashriyot –matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi Bosh tahriri, 2004. - 40 b.
11. М. Каххарова, Н Аззамова. Этика Учебное пособие. Ризограф имени Низами. 2018 год.
12. L.Muhammadjonova, F.Abidanova. Etiket. O'quv qo'llanma. T.: Universitet. O'zMU, 2018.
13. Nurmatova M., Muhammadjonova L., Ma'naviyatning axloqiy asoslari.–T.: Universitet, O'zMU. 2013.
14. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.
15. Husanov B., Gulamov V. Muomala madaniyati. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2009.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. К. Юнг. К.Керенъи. Душа и миф. Киев-Москва, Порт-Роял-Совершенство. 1997.
2. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. – T.: Universitet, 2009.
3. К. Юнг. К.Керенъи. Душа и миф. Киев-Москва, Порт-Роял-Совершенство.1997.-1146.
4. Камю А. Бунтующий человек. -М.: 1990. С-546.
5. Гусейнов А.А., Апресян Р.Г. Этика: Учебник – М.: Гардарики, 2004. -26
6. Асмус В.Ф. Античная философия. – М.: Высшая школа, 1976.
7. Философия: учебник для Вузов / Под ред. В.Н. Лавриненко. – М: ЮНИТИ-ДАНА, 2007.
8. Вернадский В.И. Начало и вечность жизни Москва. Сов. Россия, 1989. С. 186 – 187.
9. Muhammadjonova L.A., Ortiqova D.O., Abidjanova F.A., Masharipova G.K. Professional etika va etiket. Darslik. - Т.: "Adabiyot uchqunlari" 2018.
10. Торо Г. Уолден или жизнь в песу. М., Наука, 1980. С. 416.
11. Ганди М. Моя жизнь. М., Наука, 1969. С. 568.
12. Лоренц К. Восемь смертных грехов цивилизованного человечества. Журнал. «Вопросы философии» № 3, 1992. с. 42.

## INSON SHAXSIDAGI ILLATLARNING PAYDO BO'LISHI OQIBATLARI UNING JAMIYAT RIVOJIGA TA'SIRI.

### REJA:

1. Illatlarning ko'rinishi, turkumi, xususiyatlari.
2. Illatning jamiyat ijtimoiy taraqqiyotiga salbiy ta'siri.
3. Beparvolik, loqaydlik, sotqinlik, lagabardorlik, hiyonatning ijtimoiy illat sifatidagi mohiyati.

Inson – aqlli xilqat, shuning uchun u ko'p xislat, fazilatlar sohibidir. Inson – inson nomiga xos odamiy fazilatlarga ega bo'lishi kerak. Insoniyat paydo bo'libdiki hamisha odamlik qiyofasini, fe'l – atvorda o'ziga yarashadigan xatti – harakatlarni, u yoki bu fazilatlarni mujassamlashtirishga intilgan.

Arastu o'zining asarlaridan birida shunday deydi: "Fazilat nima, u nimalardan hosil qilinadi, shuni bilib olish zarur. Chunki, fazilat qanday hosil qilinishi tushunmay turib, fazilatni bilish befoydadir. Chindan ham hozir biz fazilat nima ekanligini bilish uchun emas, balki u qanday xosil qilinishini tushunish uchun uni o'rganishga kirishamiz Ya'ni, biz hozir fazilat nimaligini faqat bilish va tushunish bilan birga, fazilatli, ya'ni fozoil odam bo'lishni hohlaganimiz uchun uni o'rganishga kirishamiz"<sup>1</sup>

Bugungi kun kishisidagi odob, xulq – atvor qoidalari asrlar davomida tarkib topib, takomillashgan. Bu fazilatlar har bir insonning ichki va tashqi xislatlarida, o'zini tuta bilishida, xatti – harakatlarida, muomala munosabatida o'z ifodasini topgan. Qadimgi Sharq va G'arbdagi falsafiy, diniy ta'limotlarda axloqning asosiy tushunchalari orqali insonning mohiyati nima, u o'ziga, boshqalarga bo'lgan munosabatlarda qanday ma'naviy mezonlarga tayanadi, degan savolga javob topishga intilishgan.

Illat-muhit axloqiy va ma'naviy kamchilik bo'lib, yaxshilikka qarama qarshi turadi. Bularning barchasi muhabbat va mexrga, sadoqatga ziddir, har qanday yomonliklar axloqiy buzuqliklar, illatlar, yomon xarakatlar, buzuq hayotga moyillikni o'z ichiga oladi.

Illat har doim normaning buzilishi hisoblanadi. Buni anglash juda ham achinarli, ammo tabiatda komil insonlar yo'q, har kimning o'z kamchiliklari mavjud.

Xamma xar-xil tabiatga ega ekanligi - bu hech kimga sir emas. Bir kishida xarakterning ijobiy tomonlari ham, salbiy tomonlari ham o'zaro kelishib olinishi mumkin. Birinchi navbatda yomon illatlarga duch kelmaslik uchun insonning asosiy harakati yomon niyatlarini qilmasligidir.

<sup>1</sup> Арасту. Пoэтика. Ахлюки Каабир Т., "Янги залод асри" Б 96

Umuman olganda, Inson tomonidan tan olingen ettita illatlar ajralib turadi - dangasalik, ochko'zlik, mag'rurlik, shahvat, ochko'zlik, g'azab va hasad. Albatta, bu ro'yxatni cheksiz ravishda sanab o'tish mumkin, ammo bu ettita yomon illatlar alohida ajratilgan, chunki ular boshqa illatlarning paydo bo'lishiga hissa qo'shadilar.

Vaqti-vaqt bilan barcha odamlar hayotlari davomida tasvirlangan illatlarga duch kelishadi. Shuni ham yodda tutish kerakki, illatlar semantik xususiyatlarida bir-biridan farq qiladi.

Birinchi navbatda insonda yomon niyatlar bilan kurashishni va o'zlarini yaxshilashni boshlashga chin dildan xohish bo'lishi kerak.

Avvalo, tushunchalar to'g'risida qaror qabul qilishingiz kerak. Xo'sh, odamlarning yomonliklari va fazilatlari nima? Ularni birgalikda ko'rib chiqish kerak, chunki ular bir-birining aksi, bir xil tangalarning turli tomonlari. Insonning ijobiyligi va salbiy tomonlari, uning xatti-harakatlardan namoyon bo'ladi. Ushbu belgi xususiyatlari nafaqat bir kishining hayotini shakllantiradi, balki boshqalarga ham ta'sir qiladi, shuning uchun ular yaqinlarning hayotini ijobiyligi tomonga - yaxshiliklarga nisbatan sezilarli darajada o'zgartirishi mumkin.

Insonning kamchiliklari - bu istalmagan deb hisoblanadigan, insonning shaxsiy, xulq-atvor va jismoniy ko'rinishlarini aks ettira oladigan, uning xatti-harakatlari va didini aks ettiradigan aqliy va jismoniy illatlaridir.

Shuningdek, turli xil vaziyatlarda, har xil semantik konteksti joriy qilishda, xuddi shu harakatlar etishmovchilik yoki afzallikning namoyon bo'lishi sifatida boshqacha talqin qilinadi (masalan, eng kichik tafsilotlarni hisobga olmagan holda tezkor javob berish oilaviy hayotdagi noqulaylik hisoblanadi, ammo harbiy xavfli vaziyatlarda bu sifat ustuvor ahamiyat kasb etadi va fazilat deb hisoblanadi).

Yolg'on - Insonning illatlaridan biridir. Bugungi kunda bu deyarli afzallik hisoblanadi. Axir, zamonaviy dunyoda, masalan, ko'p pul topish faqat hiyla-nayrang bo'lishi mumkin. Biroq, shuni ta'kidlash kerakki, yolg'onchi hech qachon boshqalarning his-tuyg'ulariga ahamiyat bermaydi, u beparvo. "Bir marta yolg'on gapirib, ikkinchi marta aldayman" - bu so'zlarni hamma yodda tutishi kerak.

Xiyonat - Bu tanib olish unchalik qiyin bo'limgan odamning mukammal niqoblangan vakili. Ko'pincha bu hayotning maxsus holatlarida, himoya qilish va orqa tomonдан ta'minlash kerak bo'lganda o'zini namoyon qiladi.

Ochko'zlik - Insonning yana bir dahshatli illati ochko'zlikdir. Bu shunchaki pulning kombinatsiyasi yoki boylik to'plashga bo'lgan chanqoqlik, iloji boricha ko'proq qadriyatlari va moddiy boylikka egalik qilish istagi bo'lishi mumkin. Bunday odamlar hech qachon hech narsa bilan bo'lishmaydi va saxiylik tuyg'usi ular uchun begona.

Ikkiyuzlamachilik. Ikkiyuzlamachilik - soxta axloq va aldamchilik, gipertrofiyaga asoslangan o'z g'iybatiga bahona izlash. Bunday illatli insonni tanib

olish juda qiyin. Xar bir vaziyatda ular maksimal foyda olish uchun o'zlar uchun qulay bo'lgan pozitsiyani tanlaydilar. Bunday odamlar "to'g'ri" odamlarning nazarida ularnikiga qaraganda yaxshiroq ko'rinishi uchun "niqbob" kiyadilar.

**Hasad -** Insonning keyingi illati hasaddir. Ko'pincha katta mansabga erishgan kishiga nisbatan dushmanlik va dushmanlik qilish jarayonida namoyon bo'ladi. Birovning farovonligi hasadgo'y odamning ongiga ta'sir qiladi va uni o'ziga va uning boyligiga doimiy norozilik holatiga soladi. Hasad - bu odamning ko'proq muvaffaqiyatli odamlarga ega bo'lgan narsaga ega bo'lish istagi. Hasad tufayli odam turli dahshatlari ishlarni qilishi mumkin.

**Shafqasizlik - Shafqasizlik** - bu ibridoiy instinktlarga aldanish, to'liq hurmasizlik va insonning qadr-qimmatini haqorat qilish. Zo'ravonlar, qotillar va boshqa jinoiy shaxslarga xos bo'lgan dahshatli illatlar. Bu barcha tirik mavjudotlarga (nafaqat odamlarga, balki hayvonlarga) zarar etkazish istagi yoki ehtiyojida namoyon bo'ladi. Ular nafaqat jismoniy tomondan, masalan, kaltaklashdan, balki ruhiy tomondan ham zarar etkazishadi - ba'zan ruhiy bosimni ko'tarish ancha qiyin bo'ladi ... Agar shafqasizlik ob'ekti yomon bo'lsa, azob chekuvchi mammunlik va qandaydir xursandchilik hissini tuya boshlaydi.

**Jahl -** Insonning illatlarini ko'rib chiqayotganda, jaxidorlikni e'tiborsiz qoldirmaslik kerak. Ba'zi odamlar hammadan va hamma narsadan g'azablanishadi, ular g'azablanish jarayonida, ko'pincha qasam ichishadi va qo'pollik qilishadi.

**Ayyor -** Keyingi illat ayyorlikdir (bugungi kunda buni ba'zi odamlar ham ijobji ma'noda ko'rib chiqishadi). Bu shuni anglatadiki, odam shunchaki xayol qilib, xayolga borishi va o'zi uchun maksimal darajada foyda ko'rishi, ko'pincha boshqalarga zarar keltirishi mumkin.

**Xudbinlik -** O'z kishining boshqalar bilan solishtirganda ahamiyatini aniq baholash. Buni boshqa odamlarga, ularning manfaatlariga nisbatan jirkanch munosabatda bo'lish mumkin. Xudbinlik bu shaxsiy boylik, boyish va foyda olishga intilishdir. O'zini o'ylaydigan odam faqat o'zining foydasi haqida o'yaydi va oqibatlari haqida o'ylamaydi. Foyda olish uchun sotib olishga bo'lgan chtiros uni mablag'lar bilan insonni nopok qilib qo'yadi.

**Bezbet-** O'ziga ortiqcha baxo berib, suhbatsoshga nisbatan nafrat bilan namoyon bo'ladiigan insonning yana bir vakili. Bunga qo'pol imo-ishoralar, qasam ichish hamroh bo'lishi mumkin. Bunday xatti-harakatlar o'zlarining jazosizligini va ustunligini his qiladigan turlarga xosdir.

**O'zini ko'rsatmoq -** Bu insonning har qanday shaklda o'ziga bo'lgan e'tiborini jalb qilish istagi, hatto salbiy xatti-harakati bo'lsa ham. Bunday qahramonlar ularga murojaat qilgan xushxabarlarni eshitishni yaxshi ko'radianlar, hayot davomida yuqoriga ko'tarilishni istaydilar. Ko'pincha maqtanchoqlar shunday yo'l tutishadi.

G'azab (hali ham g'azab, g'azab, tajovuz, qasos olish istagi shaklida o'zini namoyon qiladi). G'azab - bu adolasizlik tuyg'usiga yo'naltirilgan Shu bilan birga, inson bu adolasizlikni yo'q qilish uchun kuchli istakni engadi.

Ochko'zlik (ochko'zlik va qaysarlik sifatida tanilgan) Ochko'zlik, agar odam mutanasiblikni yo'qosa, imkon qadar ko'proq moddiy boylikka ega bo'lish istagi.

Takabburlik o'zini egoizm haddan tashqari mag'rurlik shaklida namoyon qiladi. Agar inson mag'rurlikka duchor bo'lsa, u o'zini boshqalar oldida maqtaydi va uning fikri eng to'g'ri ekanligiga qat'iy ishonadi.

Mansabga intilish. Mansab ko'p ichadigan odamni vasvasaga soladi, ularni shafqasiz va mast qiladi, shu sababli u har qanday jinoyatlarga turtki beradi. Ota, o'g'il, opa-singil, aka-uka, uning boshidagi toj uchun o'ldirish hamma zamon va xalqlarning odatiy ishi.

Qo'rqaqlik - noma'lum qo'rquvga to'liq bo'y sunish. Insonning illatlarining har biri ayyor va xoin. U insonning tabiiy moyilligidan o'sadi. Jimgina normani buzish, kontseptsiyalarni buzish, almashtirishlar va firibgarliklar bilan u axloqni axloqsiz, odatiy holatga aylantiradi. Illatlar inson qalbida mustahkam o'trnashib, o'ziga xos xususiyat va fe'l-atvor bilan birga o'sib boradi. Agar gunoh afzalroq natija bo'lsa, u holda bu axloqsizlikka moyillikdir. Shu sababli, inson bunday "yaqin" va "tabiiy" illatlar bilan qanchalik tez kurashishni boshlasa, bu uziga yaxshi bo'ladi.

Shahvoniylit (zinokorlik, zinokorlik, beadablik ko'rinishida namoyon bo'ladi). Shahvoniylit - bu shahvoniylit istak, taqiqlangan ehtiros, yashirin istaklar. Umuman olganda, bunday nochorlik har qanday istakni o'z ichiga oladi, shu sababli odam biron bir noqulaylik yoki azob-uqubatlarga duch keladi.

Insonlarning illatlari millionlab odamlarni yo'q qiladi va achinarli tomoni shundaki, ularning aksariyati illatlarni yo'q qilib bo'lmaydi deb ishonishadi. Aslida, agar siz illatlarning tabiatini - ularning paydo bo'lish sabablarini tushunsangiz, unda siz ulardan har qanday narsadan xalos bo'lishingiz va har qanday yomon odatni engishingiz mumkin. Ammo ko'p odamlar uchun qiyinchilik shundaki, siz o'zgartirishingiz kerak, o'zingiz ustida ishlashingiz kerak, lekin ular xohlamaydilar, ular dangasa! Shuning uchun ular illatning quliga aylanishadi va sekin yoki tez yo'q bo'lishadi.

Odanning yomon ishlari nima? Insoniy yomonliklar insonda uning salbiy (yomon) istaklari va odatlari ko'rinishida namoyon bo'ladi.

- Illatlar avvaliga asal, keyin zahar kabi narsa! Bu insonni ham ma'naviy, ham jismoniy tomonidan barbod qiladi. U odamni, uning jonini va tanasini kuchli istaklari, ehtiyojlari, qo'shimchalarini va muqarrar odatlari orqali qul qiladi. Hammasi sinovdan boshlanadi (barchasi qiziq), keyin ehtiyoj shakllanadi, ehtiyoj qo'shimchaga aylanadi (bu allaqachon qaramlik) va bu o'z navbatida odat tusiga

kiradi. Ildizlangan odat faqat bir nechta bo'lishi mumkin. Ko'pgina nuqsonlar haddan tashqari yoki "Moderatsiya" tamoyilining buzilishi tufayli tug'ilib o'sadi. Masalan, savol - ovqatlanish yaxshimi, kerakmi? Albatta sizga kerak va yaxshi! Axir, ovqat hazm qilish organlari barcha odamlar uchun ta'minlanadi. Ammo ortiqcha ovqat juda yomon! Va ochko'zlik tanadagi kasalliklarga va ruhning yo'q qilinishiga olib keladi. Xuddi shu narsani jinsiy aloqa va boshqa istaklarning haddan tashqari oshishi haqida ham aytish mumkin. Xuddi shu kabi, inson yaxshilik bilan yomonlikni farqlamaydigan va oqibatlari haqida o'ylamaydigan joyda gullab-yashnaydi.

Inson qachon illatlarni qabul qiladi? U kuchli va munosib ichki yadroga ega bo'lmaganda! Qachonki Shaxsning asosi abadiy va undan yuqori qadriyatlар emas (berilgan hayot, burch, adolat, muhabbat, qonun va boshqalar uchun javobgarlik), lekin insonning hayotida eng muhim narsaga aylangan xudbin istaklar va dunyoviy oniy qadriyatlardir. Qorin g'amidagi odam uchun hayotning ma'nosi burchni bajarish va hatto shaxsiy muvaffaqiyatga erishish emas, balki doimo ovqatlanish, ovqatlanish va ovqatlanish (oshqozonni to'ldirish). U ovqatning quli va ovqatlanish uning istagi xisoblanadi.

- Qashshoqlikka, jinoyatchilikka va yolg'izlikka olib keladigan halokatli noqulaylik

Mag'rurlik - mojarolarni keltirib chiqaradi va o'z vaqtida to'g'rilanmasa, insonning taqdiri bilan tushishiga olib keladi. Odamlar orasidagi ishonch, obro' va munosabatlarga putur etkazadi.

Yomonlikka qarshi kurashni qaerdan boshlash kerak?

1. Yomonliklarning oqibatlarini tushunish bilan! Iloji boricha aniqroq va batapsilroq tasavvur qilishga urinib ko'ring (bu boshqa odamlarning misolida), bu nimaga olib keladi. Agar o'zingizni bu yomonlikdan ozod qilmasangiz, sizni qanday kelajak kutmoqda?

2. Har bir o'ziga xos nochorlik, etishmovchilik va yomon odatni o'z ustida ishlash usullari va usullari bilan yo'q qilish kerak.

Hamma odamlar nomukammal va vaqtı-vaqtı bilan ba'zi gunohlarga duch kelishadi. Albatta, siz o'zingizni yaxshilashga va yaxshilashga harakat qilishingiz kerak, lekin o'z kamchiliklariningizni qanday qilib yo'q qilishni bilish uchun, avval ushbu maqolada keltirilgan insonning asosiy yomonliklari ro'yxati bilan tanishishingiz kerak.

**Kamchiliklar nima?** Shaxsiy kamchiliklar ojizliklar nazarda tutiladi, ular o'ziga qaramlik yoki cheksiz salbiy illatlarni kategoriya ko'rinishidan oladi. Insonning fazilatlari va illatlari qutbli namoyon bo'ladi, biri oldinga siljishga, muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi, biri hurnatni oshiradi, ikkinchisi insonning taqdirini buzadi.

## Foydalaniadigan adabiyotlar ro'yxati

### Rahbariy adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. – Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., O'zbekiston. 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. – Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T., O'zbekiston. 2017.

### Darsliklar va o'quv qo'llanmalar:

1. Muhammadjonova L.A. Amaliy etika va estetika. O'quv qo'llanma – T.: "Mumtoz so'z" 2022 yil.
2. L.Muxammadjonova, S.Alimov,Sh.Rajabov. Notiqlik san'ati. O'quv qo'llanma – T.: "Mumtoz so'z" 2022 yil.
3. Агзамова Н. "Философия нравственности". Дарслик Т.: Университет. ЎзМУ, 2022 йил.
4. Радугин А.А. Этика. Учебное пособие для высших учебных заведений. – М.: Центр, 2003. -88 б.
5. Nazarov Q. Aksiologiya – qadriyatlar falsafasi. –T.: O'FMJ, 2004.
6. Степанянц. М.Т. Философские аспекты суфизма. –М.: Наука, 1987. С-99
7. Тримингэм Д.С. Суфийские ордена в исламе. –М.: Наука, 1989. С-546.
8. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. –Toshkent: O'zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. -8 b.
9. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. 12 tomlik. –Toshkent: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. T.1. -530 b.
10. Falsafa: qomusiy lug'at. Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov. –Toshkent: "Sharq" nashriyot –matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi Bosh tahriri, 2004. -40 b.
11. М. Каххарова, Н Агзамова. Этика Учебное пособие. Ризограф имени Низами. 2018 год.
12. L.Muhammadjonova, F.Abidanova. Etiket. O'quv qo'llanma. T.: Universitet. O'zMU, 2018.
13. Nurmatova M., Muhammadjonova L., Ma'naviyatning axloqiy asoslari.–T.: Universitet, O'zMU. 2013.
14. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.
15. Husanov B., Gulamov V. Muomala madaniyati. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2009.

### Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Al-Faqih Abu Lays as-Samarqandiy. Tanbehl-g'ofiliyn.Birinchi kitob.- Toshkent: Movarounnahr, 2003.

2. Хайдеггер М. Основные понятия метафизики (Введение). // Вопросы философии. -М., 1989. -№9. С-84
3. Nurmatalova M., Muhammadjonova L., Ma'naviyatning axloqiy asoslari.-T.: Universitet, O'zMU. 2013.
4. Nurmatalova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. – T.: Universitet, 2009.
5. К. Юнг. К.Керенъи. Душа и миф. Киев-Москва, Порт-Роял-Совершенство.1997.-1146.
- 6.Камю А. Бунтующий человек. -М.: 1990. С-546. Гусейнов А.А., Апресян Р.Г. Этика: Учебник – М.: Гардарики, 2004. -26 б.
- 7.Асмус В.Ф. Античная философия. – М.: Высшая школа. 1976.
- 8.Философия: учебник для Вузов / Под ред. В.Н. Лавриненко. – М: ИЮНИТИ-ДАНА, 2007.
- 9.Вернадский В.И. Начало и вечность жизни Москва. Сов. Россия, 1989. С. 186 – 187.
10. Muhammadjonova L.A., Ortikova D.O., Abidjanova F.A., Masharipova G.K. Professional etika va etiket. Darslik. - Т.: "Adabiyot uchqunlari" 2018.
- 11.Э.Умаров., Ф.Загритдинова. "Этика. Прикладная этика". -Т.: Ношир, 2012.
- 12.Торо Г. Уолден или жизнь в лесу. М., Наука, 1980. С. 416.
- 13.Ганди М. Моя жизнь. М., Наука, 1969. С. 568.
- 14.Лоренц К. Восемь смертных грехов цивилизованного человечества. Журнал. «Вопросы философии» № 3, 1992. с. 42.

### FANNING UMUMIY SAVOLLARI

1. Axloqiy qadriyatlarning umummilliy asoslarining shakllanish bosqichlari xaqida nimalarni bilasiz?
2. Axloqiy qadriyatlarning bugungi yangilanish bosqichlarida ma'naviy axloqiy muammolarini sanab bering.
3. Axloqiy qadriyatlар umummilliy asoslarining xozirgi zamon tsivilizatsiyasida shaxs axloqiy tarbiyasiga ta'siri xaqida nimalarni bilasiz?
4. Milliy va islomiy qadriyatlarning tarixiy ildizlari va ularning shaxs kamolotidagi o'rni xaqida nimalarni bilasiz?
5. Fuqarolik jamiyatida shaxs qadr-qimmatining qadriyat sifatida namoyon bo'lishi xaqidagi fikringiz?
6. Tinchlikparvarlikni umuminsoniy qadriyat sifatida siz qanday baxolaysiz?
7. Adolatning tushunchasining axloqiy qadriyat sifatidagi ahamiyati xaqida nimalarni bilasiz?
8. Yoshlar tarbiyasida axloqiy qadriyatlarning ahamiyati xaqidagi fikringiz?

9. Oila qadriyatlarning shaxs kamolotida tutgan o'rni xaqida nimalarni bilasiz?
10. Yoshlar ma'naviyati va milliy qadriyatlар xaqidagi fikringiz?
11. Yoshlar ma'naviyatiga hayotiy maqsad va umuminsoniy qadriyatlarning dialektik ta'siri xaqida nimalarni bilasiz?
12. Axloqiy tafakkur taraqqiyoti tarixida inson muammosining muhokamasи xaqida nimalarni bilasiz?
13. Inson tushunchasi sharqona talqinlarining o'ziga xos xususiyatlari xaqidagi fikringiz?
14. Hayot ma'nosi axloqiy kategoriya sifatida baholab bering.
15. Ixtiyoriy va majburiy o'limning muammolari haqida nimalar deya olasiz?
16. Jamiyatni modernizatsiyalash jarayoni tamoyillari xaqidagi fikringiz?
17. Jamiyatni modernizatsiyalash jarayonida axloqiy qadriyatlarning o'zgarishi xaqida nimalar deya olasiz?
18. Qadrsizlanish – qadriyatlar tizimining o'z qadrini yo'qotishi yoki pasaytirishi jarayonlari xaqidagi fikringiz?
19. Milliy axloqiy qadriyatlaririni tavsiflab bering.
20. Insonning botiniy axloqi: vijdon, iztirob, nafrat, hasad. Insonning zohiriylar axloqi: qonun, axloqiy me'yorlar xaqida nimalarni bilasiz?
21. Botiniy va zohiriylar axloqiylik va g'ayriaxloqiylik o'rtaсидagi ziddiyat. Hayolilikning uyat, or va nomusdan farqli jihatlari xaqida nimalarni bilasiz?
22. Insonni axloqiylikka yoki g'ayriaxloqiylikka undovchi omillar – halollik, shuxratparastlik va rostgo'ylik muammosi xaqidagi fikringiz?
23. Milliy axloqiy fazilatlarning uzviylik xususiyatlari – kamtarinlik, bosiqlik, shirinsuxanlik xaqida nimalarni bilasiz?
24. San'at etikasining mavzusi va tushunchasi xaqidagi fikringiz?
25. San'at estetik faoliyatning o'ziga xos turi sifatida qanday baholaysiz?
26. Insonning axloqiy ongiga va xulqiga san'atning ta'siri xaqida nimalarni bilasiz?
27. San'atda axloqiylik va g'ayriaxloqiylik san'at turlari misolida keltirib bering.
28. Globallashuv jarayonida yuzaga keladigan ma'naviy tanazzullar xaqidagi fikringiz?
29. Axloqiy muhitning vujudga kelishi ma'naviy globallashuvning ibtidosi ekani xaqida nimalarni bilasiz?
30. Axloqiy muhitning o'ziga xos jihatlari: uning miqyosiyligi, globallik xususiyati xaqida nimalarni bilasiz?
31. Tabiatga insonni aralashuvni xaqida nimalarni bilasiz?
32. Inson va muhit munosabatlarning axloqiy-estetik jihatlari: biosfera, noosfera va etosfera tushunchalari xaqida nimalarni bilasiz?
33. Barcha hayot shakllarga hurmat tamoyili xaqidagi fikringiz?
34. Ilmiy-texnikaviy taraqqiyot va inson muammosi xaqida nimalarni bilasiz.

35. Bioetika muammosining qamroviligi va uning yangicha talqini haqida nimalarni bilasiz?
36. Axloq psixologiyasining mavzusi va tushunchasi xaqida nimalarni bilasiz?
37. Axloqiy munosabatlarning inson xarakteriga ta'siri xaqidagi fikringiz?
38. Axloqni ichki psixologik jarayon ekanligi haqida nimalarni bilasiz?
39. Siyosat va axloq masalari bo'yicha nimalarni bilasiz?
40. Globallashuv jarayonida siyosiy axloq muammolarini xaqidagi fikringiz?
41. Inson huquqlari va fuqarolar itoatsizligi xaqida nimalarni bilasiz?
42. Axloq va huquqning o'zaro aloqadorligi xaqida nimalarni bilasiz?
43. Huquqiy ong bilan axloqiy ongning o'zaro aloqadorligi xaqidagi fikringiz?
44. Yoshlarning axloqiy tarbiyasi va huquqiy madaniyati xaqida nimalar deya olasiz?
45. Gender muammolarining umuminsoniy va milliy xususiyatlari xaqida nimalarni bilasiz?
46. Ayol va erkaklarning oddiy xulq-atvori xaqidagi fikringiz?
47. O'zbekistondagi gender munosabatlarga e'tibor xaqida nimalarni bilasiz?
48. Oiladagi zo'ravonlik xaqidagi fikringiz?
49. Oila axloqiy qadriyat sifatida qanday baxolaysiz?
50. Nikohni bekor qilinishi sabablari va oqibatlari xaqida nimalarni bilasiz?
51. Oila tarqalishining iqtisodiy, huquqiy, ruhiy omillari xaqidagi fikringiz?
52. Jamiatyatlarning bugungi kundagi o'rni haqida nimalar deya olasiz?
53. Illatlarning ko'rinishi, turkumi, xususiyatlari xaqida nimalarni bilasiz?
54. Illatning jamiat ijtimoiy taraqqiyotiga salbiy ta'siri xaqidagi fikringiz?
55. Yeparvolik, loqaydlik, sotqinlik, laganbardorlik, hiyonatning ijtimoiy illat sifatidagi mohiyati xaqida misollar orqali ta'riflab berishingizni so'raymiz.

## GLOSSARIY

**AXLOQ** (arab. xulqning ko'pligi; lot. moralis — xulq-atvori) — ijtimoiy ong shakllaridan biri, ma'naviy hayot hodisasi, ma'naviyat sohasiga oid tushuncha. Kishilarning tarixan tarkib topgan xulq-atvori, yurish-turishi, ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi o'zaro, shuningdek, jamiatga bo'lgan munosabatlarini tartibga solib turuvchi barqaror, muayyan norma va qoidalar yig'indisi. A. normalari kishilarning xatti-harakatlarida o'z ifodasini topadi. Bunda ba'zi xatti-xarakatlar, xulq-atvorlar A.iy, ba'zilari A.sizlik deb baholanadi. A. ijtimoiy ongning eng qad. shakllaridan biridir. Davr o'zgara borgan sari har qanday hodisa kabi A. ham o'zgaradi, rivojlanib, takomillashib, ma'naviy madaniyatning ko'rinishlaridan biriga aylanib boradi. A.ni alohida fal-iy fan – "Amaliy etika" yoki "Axloqshunoslik" o'rganadi. Ilm, bilim, dunyoqarash, idrok va iymon insonning xulq-atvorida o'ziga xos tarzda

aks etadi. Insoniylik madaniyati esa axloqiy fazilatlar orqali namoyon bo'ladi. A. ijtimoiy munosabatlardan zaminida alohida shaxs sifatida mavjud bo'lgan insonlarning o'z-o'zini idora qilish shakllari va me'yori, o'zaro muloqot va munosabatlarda ularga xos bo'lgan ma'nnaviy kamolot darajasining namoyon bo'lishi hamdir.

**AXLOQIY QADRIYATLAR** - kishilarning xulq-atvorida asrlar davomida shakllangan o'zaro munosabatlari, yurish-turish qoidalari: xushxulqlik, xushmuomalilik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, halollik, pokizalik, ezzulik, mehnatsevarlik, insonparvarlik, vatanparvarlik.

**MILLIY QADRIYATLAR** - jamiyat, inson uchun ahamiyatli bo'lgan barcha hodisa-voqealar – erkinlik, ezzulik, tenglik, tinchlik, haqiqat, ma'rifat, madaniyat, moddiy va ma'nnaviy boyliklar, yodgorliklar, go'zallik, axloqiy xislat-fazilatlar, an'ana, urf-odat, udum va boshqalarni qamrab oladi. Muxtasar tarzda ifodaydigan bo'lsak, tarixiy sinovlarga bardosh bergan, xalqning milliy manfaatlarini o'zida to'liq mujassam etgan, zamonaqiy taraqqiyotning talablariga javob bera oladigan, asrlar o'tgani sari qadr-qimmati ortib boradigan g'oyalar jamlanmasiga milliy qadriyatlar deyiladi.

**UMUMINSONIY QADRIYATLAR** - jahondagi barcha millatlar, elatlari va xalqlarning maqsad va intilishlariga muvofiq keladi. Umuminsoniy qadriyatlar turkumiga insoniyat tsivilizatsiyasining taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan umumbashariy muammolar kiradi. Ulardan eng asosiyları er yuzida ilm fanni taraqqiy ettirish, tinchlikni saqlash, yadroviy qurollarning poygasini to'xtatish, xalqaro xavfsizlikni ta'minlash, turli kasalliklarning oldini olish, tabiatni muhofaza qilish, qashshoqlik va savodsizlikka barham berish, sanoat xom ashyosi, energiya manbalari va oziq ovqat bilan ta'minlash, koinotni va jahon okeani resurslarini o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan muammolar kiradi.

**PREDMETLI QADRIYATLAR** - qadr-qimmat munosabatlarning ob'ektlari, ya'ni vogelikdagi sub'ekt uchun muayyan qimmatga ega bo'lgan hodisalar. Ularga quyidagilar kiritiladi: tabiiy ob'ektlar, jarayonlar va hodisalar; ijtimoiy ob'ektlar, jarayonlar va hodisalar.

**SUB'EKTLI QADRIYATLAR** - u yoki bu hodisalarni baholash tadbirini o'tkazishda asos bo'lib xizmat qiluvchi usullar va mezonlar. Ularga quyidagilar kiradi: -me'yoriy taqdimnomalar sifatida bayon etilgan ko'rsatmalar, baholar, imperativlar, maqsadlar, loyihibarlar.

**QADR** – muayyan qadriyatning ya’ni, biron-bir narsa, voqeа, hodisa yoki biror idealning inson va jamiyat uchun qadri va ijtimoiy ahamiyatini anglatadigan tushuncha Qadriyatlar muammosiga bag‘ishlangan ilmiy-falsafiy manbalarning ko‘phigida qadriyatni “baho” tushunchasi bilan qiyoslash, ularga bir xil daraja va ko‘lamdagi tushunchalar sifatida qarash hollari uchraydi. Bu ikki tushuncha qiyoslanayotganda qadr tushunchasi e’tiborga olinmaydi ana shu sababdan ham o‘zbek tilida qadriyatning mazmunini bilib olish va uning ahamiyatini anglash, avvalo, qadr, so‘ngra “baho” tushunchalarining ma’nosini bilish orqali boradi. Insonning insonga ibrati, tarbiyadagi ta’sirini uning o‘zi baholay olmaydi, balki boshqa inson baholaydi.

**AKSIOLOGIYA** - (yun. axio – qadriyat va logos – fan, ta’limot) – qadriyatshunoslik, ma’naviy hodisalardan biri bo‘lgan qadriyatlar sohasini o‘rganadigan, uning qonun va kategoriyalarini tadqiq qiladigan ilm yo‘nalishi, qadriyatlar haqidagi fan.

**UMUMINSONIY AXLOQIY QADRIYATLAR** - insonparvarlik, adolatparvarlik, vatanparvarlik, o‘zaro hurmat, qonuniylik, jamoatchilik va boshqalarga;

**MILLIY AXLOQIY QADRIYATLAR** - mehmondo‘slik, kattalarga nisbatan hurmat, saxovat, homiylik, ota-onani e’zozlash, bolajonlik va hokazolarga;

**SHAXSIY AXLOQIY QADRIYATLAR** – kasbiy burchni bajarish, sevgisiga sadoqatli bo‘lish, halol rizq topish, so‘zining ustidan chiqish, oila sha’nini saqlash, haromdan hazar qilish kabi turkumlarga bo‘lish mumkin.

**AXLOQIY IDEAL**-axloq -me‘yorlarining yuksak, orzu qilingan darajadagi tasavvufi, barcha eng yaxshi xislatlarga ega, har tomonlama tarbiyalangan inson obrazi.

**AXLOQIY MADANIYAT** -axloqiy tarbiyaga doir asarlar, qarashlar, g‘oyalar, ko‘nikmalar va ularga amal qilinish.

**AXLOQIY ME’YORLAR** -jamiyatda o‘rnatalgan xulq-atvor qoidalari, ular urf-odat, ko‘nikma, marosim qoidalari sifatida namoyon bo‘ladi, axloqiy qadriyatlar sifatida qaraladi, ularga amal qilmaslik jamoatchilik tomonidan qoralanadi.

**AXLOQIY TARBIYA** -inson tarbiyasining muhim qismi hisoblanib, odaimga yoshlidan boshlab to'g'rilik, halollik, izzat hurmat, burch-mas'uliyat, sog'lom turmush tarzi, or-nomus, sharm-hayo, Vatan azizligi, oila muqaddasligi, e'tiqod mustahkamligi xislatlarining singdirib borilish jarayonidir.

**AXLOQIY TAFAKKUR**-axloq masalalariga bag'ishlangan fikrlar, qarashlar g'oyalar, har bir insonnning axloqiy me'yorlar va qadriyatlarni anglash, ilmiy mushohada qilish jarayoni.

**AXLOQIY FAZILATLAR**-inson xulq-atvori, yurish-turishidagi eng yuksak, ijobji hatti-harakatlari, o'y-fikrlar va ezgu amallar majmuasi: ezgulikka intilish, yaxshilik qilish, izzat-hurmatli bo'lish, mehnatsevarlik, or-nomusli bo'lish, vatanparvarlik, insonparvarlik, saxovatlilik, halollik, pokizalik kabi xislatlarning namoyon bo'lishi

**AXLOQSIZLIK**-jamiyatda qabul qilingan axloqiy me'yorlardan chetga chiqish: boqimandalik, yolg'onchilik, ichkilikbozlik, fohishabozlik, o'g'rilik, hasad, g'iybat, tuhmat, vatanfurushlik, e'tiqodsizlik va shular kabi barcha salbiy xislatlarning namoyon bo'lishi.

**ADOLAT** — yuksak ma'naviy tushuncha bo'lib, uning E. va Yo. hamda Ya. va Yo. dan asosiy asosiy farqi shundaki, A. ning o'zi birorqbir qadriyatni anglatmaydi, lekin qadriyatlar orasidagi nisbatni belgilaydi, ularni baholash maqomiga ega. Shu bois unda jamiyatni tartibga soluvchilik xususiyati bor; A. da ikki ma'naviy jihat – ham axloqiy, ham huquqiy talablar mujassamlashgan. Uni ma'lum ma'noda axloq sohasidagi miqdor o'chovchi ham deyish mumkin: u talab b-n taqdirlashni o'chab turadigan tarozidir. A. bor joyda ijtimoiy jabrga, beboshlikka yo'l yo'q. Eng oddiy, ibtidoiy fazilatlar, m., mehribonlik, shafqat, muruvvat hayvonlarda ham mavjud, lekin hayvonlarda ular o'z guruhiga, eng avvalo, o'z surriyotiga qaratilgan bo'ladi.

**ANDISHA** —yuksak ma'naviyatga xos, axloqiy tarbiya natijasida shakllanadigan ma'naviy-axloqiy tushuncha, Amaliy etika fanining meyoriy tushunchasi, "Ma'naviyatshunoslik", "Ma'naviyat asoslari" fanlarining asosiy kategoriyalaridan biri. Kishilar b-n bo'lgan munosabatda oqibatini atroflicha o'ylab munosabatda bo'lish, mulohaza qilish A.ning o'ziga xos xususiyatlaridandir. A.li inson o'z xattiharakati, ma'naviy-ruhiy qarashlarida yuksak axloqiy tamoyillardan kelib chiqqan holda faoliyat yuritadi. Bunday inson o'zgalarni olijanob axloqiy me'yorlarga asoslangan holda qadrlaydi.

**BAXT-** ma'naviy axloqiy tushuncha. Kishi o'z faoliyati natijalaridan hayotda qo'lga kiritilgan yutuqlaridan to'la qoniqish, yashash tarzidan mammunlik, muayyan maqsadga etganlik, orzu-umidning ushalishi, bearmonlik holati sifatida namoyon bo'ladi. Baxt nisbiy tushuncha, mutloq baxt yo'q. Baxtni qanday ma'noda tushunishning shaxsnинг ijtimoiy o'rniغا, bilimi, yoshi, dunyoqarashiga bog'liq. Baxt haqidagi kishilarning tasavvurlari ijtimoiy tuzim va undagi ijtimoiy munosabatlar majmuasi b-n uzviy bog'liq.

**BAG'RIKENGLIK-** mehr-muruvvat, g'amxo'rlik, himoya, panoh, makon, saxiy, eshigi hamma uchun ochiq, dargohi keng; kengse'lilik. Bag'rikenglik – o'zgalarning dunyoqarashi, diniy e'tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an'ana-marosimlariga hurmat-ehtiromda bo'lish, muomala-munosabatda kamshitishlar, tahqirlashlarga yo'l qo'ymaslik, insoniylikni hamma narsadan ustun hisoblab, jamoada, ish joylarida, mahalla-kuyda bunga rioya etish. Xullas, turli dindagi, turli millat va elatlarga mansub kishilarning bir mamlakat doirasida, yagona davlat tarkibida bahamjihat, osoyishta yashashidir. Bag'rikenglik ayrim shaxslarga yoki butun bir xalqqa xos xususiyat bo'lishi mumkin. Bag'rikenglik – o'zbek xalqining eng oljanob fazilatidir.

**BARKAMOLLIK-** kamolot, balog'atga erishgan, bekamu ko'st, etuk, mukammal, nuq-sonsiz, kamoli xirad – aql komilligi, kamoli ma'rifat – ilmu ma'rifatda mukammallik, kamol ahli – ilmu hikmat egalari, olimlar. Barkamollik insonning aqliy axloqiy va bilimdonlik jihatidan etukligi, o'zi tanlagan kasbu hunarning ustasi bo'lishi, shaxs sifatida shakllanib, vatan taraqqiyoti, el-yurt farovonligi uchun jon kuydirishi, czgu g'oya va niyatlar b-n bunyodkorlik va yaratuvchanlik qobiliyatiga ega bo'lishi.

**BIO ETIKA** –hozirgi zamon Amaliy etikasining muhim yo'nalishlaridan biri. B. inson hayotini eng oliv axloqiy qadriyat sifatida qaraydi, shu bilan birga, inson hayotini saqlash muammosini – yaxshilik va yomonlikni farqlashning muhim mezoni, deb hisoblaydi. Hoz. zamon fanida B. tirik mavjudotlar, shu b-n birga, insonga ham bo'lgan munosabatlarning ma'naviy-axloqiy reguliyativi, deb qaraladi. Insonning tabiat b-n uzlksiz aloqasini ma'naviy tahlil etish asosida, tabiatni muhofaza etishda ahloqiy javobgarlik B.ning madaniy negizini tashkil etadi. B.. sotsial masalalalar b-n birgalikda, qadriyatlar muammosini ham qamrab oladi. B. maqsadlaridan biri - shaxsni turli holatlarga solish imkoniyatlarini yaratuvchi, inson xatti-harakati, ruhiyatini o'zgartirish mumkin bo'lgan, uning ustidan o'tkazilayotgan xilma-xil tadqiqotlarni cheklash mezonlarini ishlab chiqadi.

**BOTINIYLIK VA ZOHIRIYLIK** — ma'naviy hodisalar bo'lib, insonning ichki, qalb, ko'nglidagi hissiyotlar va ularni sirtqi tomondan, tashqi ko'rinishda ifodalananishi. Inson tashqi tomonidan qanday ko'rinishidan qat'iy nazar, uning B. hissiyoti, qalbi, ko'ngli nihoyatda nozik va ma'naviy boy bo'lishi mumkin. Sirdan qaraganda kam-ko'stsiz, salobatli ko'ringan kishi hissiyotsiz, qalbi ko't bo'lishi ham mumkin. B. insonga baxsh etilgan ne'mat, u buyuk kishilarning zohiriylarida yorqin ifodasini topgan.

**BURCH** — jamiyat, davlat va shaxslarga nisbatan muayyan individdagi munosabat, ular oldidagi majburiyat. U vijdon, e'tiqod, mas'uliyat kabi tushunchalar b-n mustahkam bog'liq. Umuman, hayotda insonning har bir xattiqharaqati zamirida B. ga sadoqat yoki xiyonat yotadi. B. ning insonlik B.i, musulmonlik B.i, nasroniylik B.i, fuqarolik B.i, otalik B.i, onalik B.i, farzandlik B.i singari barcha davrlar uchun umumiy bo'lgan tushunchalari ham, jurnalistlik B.i, shifokorlik B.i, olimlik burchi kabi kasbiy odob doirasidagi tushunchalari ham mavjud. B. tushunchasining o'ziga xos jihatlaridan yana biri — uning vaqt va jamiyatda muayyanlashish xususiyati.

**VIJDON** — ma'naviyatdagi ta'sir doirasi nihoyatda keng tushunchalardan biri. V. — Z. Froyd ta'biri b-n aytganda, alo men, men ustidan nazorat o'rnatib, uni boshqarib turuvchi ikkinchi bir, yuqori darajadagi men. Agar uyat hissi insonning tashqi, jamiyatga bog'liqligidan kelib chiqsa, V. uning ichki o'z-o'ziga bog'liqligini namoyon etadi. Bu ichki bog'liqlik tashqi bog'liqlikka nisbatan teran va doimiydir: uyat ma'lum bir vaqt ichida odamning o'z nojo'ya harakati tufayli yuzaga kelgan o'ng'aysizligi bo'lsa, V. azobi, bu oddiy o'ng'aysizlik emas, balki qalbdagi, odamdag'i odamliylikka e'tiqodning faryodi, talabi; uni qondirmas ekansiz, hech qachon azob to'xtamaydi.

**VATANPARVARLIK** -bir ijtimoiy guruhga mansub bo'lgan insonlarning o'z tarixini, tili, madaniyati, urf — odatlarini, milliy obro'si, qadr — qimmatini bilish, hurmat qilishi, ularga tayanishi, boshqa xalqlarning ham obro' — e'tiborini, manfaatlarni hurmat qila bilishini ifodalovchi ma'naviy fazilatdir. V. insonning o'z Vataniga muhabbatini, uni asrab-avaylashga bo'lgan ishtiyoqini anglatuvchi axloqiy tushuncha.

**VRACHLIK ODOI** - vrach ma'naviyati va xulq-atvor me'yorlarining majmui. V.o. umumiy odobning tarkibiy qismi hisoblanadi, bunda vrachning faoliyati xususiyatlariga muvofiq holda xulq-atvori va ijtimoiy o'ziga xosliklari o'rganiladi. U vrachlikning ma'naviy-axloqiy masalalarini qamrab oladi, uning xulq-atvori, ma'naviyati, kasbiy burchini his etishi, nomusi, vijdoni va qadr-qimmati

me'yorlarini, bemorlar, ularning qarindosh-urug'lari, o'z hamkasblari, jamoasi va umu-man jamiyat bilan o'zaro munosabati masalalarini o'z ichiga oladi. V.o. tamoyillari ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, sog'liqni saqlash va jamiyatning unga bo'lgan munosabati holati, tibbiyot fanining rivojlanish darajasi bilan bog'liq.

**DIYONAT**— (arab. dindorlik, to'g'rilik, insof) Xudodan qo'rqish, gunoh qilmaslik, savob ishlarni amalga oshirish, imonli-e'tiqodli, sofslil va mard bo'lish, diniy qonun-qoidalarga qattiq rioya etish, dindorlik, taqvodorlik, vijdon, insoflilik. Diyonalni odam to'g'riso'z, haqgo'y bo'ladi, haromdan hazar qiladi, birovning zarariga ish qilmaydi, hamiyatli, nomusli, oriyatli bo'ladi

**DO'STLIK** — axloqiy tushuncha; o'zaro bog'liqlik, ma'naviy yaqinlik, manfaatlar umumiyligi va h.k.ga asoslangan insonlar o'rtasidagi ijobiy munosabatni ifodalaydi. D.ga quyidagi xislatlar: shaxsiy xarakter, ko'ngilchanlik va individual tanlash, ichki yaqinlik, barqarorlik xosdir. D. mazmuni tarixiy taraqqiyot jarayonida o'zgarib boradi. Fal. tarixida D.ni ko'proq axloqiy jihatdan tahlil qilgan ba'zi mutafakkirlar uning emotsiyonal jihatini alohida ta'kidlaganlar, boshqalari esa uni manfaatlar umumiyligi va oqilona egoizmdan keltirib chiqarganlar. 19-a.ning oxirlarida D. psixolog va sotsiologlar tomonidan ilk empirik tadqiq etila boshlandi. D.ning mazmuni va funktsiyalari yosh o'tib borishi b-n sezilarli darajada o'zgarib boradi. Bolalar do'stligi, o'rtoqlik, hamkorlik faoliyatiga asoslangan emotsiyonal-hissiy yaqinlikni o'zida aks ettiradi.

**IMPERATIV AXLOQ** -(lot.imperativus -farmon) Kant Amaliy etikasida axloqiy qonunni tavsislovchi asosiy tushuncha. Kant falsafiy ta'lilotida amaliy aqlni nazariy aqlga nisbatan ustun qo'yiladi. "Amaliy aql" deganda, keng ma'noda u Amaliy etika, davlat va huquq nazariyasini, tarix falsafasi va dinni, antropologiyani; tor ma'noda esa, axloqiy xulq atvor tamoyillari va qoidalarini yaratuvchi aqlni tushunadi. Kant "Amaliy aql tanqidi" asarida inson yaxshilik va yomonlik haqida qalbining hissiy ishtiyoqi va intilishlariga asoslani emas, aql zakovoti yordamida xulosa chiqarish kerak, degan nazariyani o'rta ga tashlaydi.

**KASBIY ODOB** - jamiyat tomonidan qabul qilingan ahloq qoidalarini kishilarning ixtisoslariga nisbatan amalda tatbiq qiluvchi aniq kasbiy burch, sha'n, or-nomus, qadr-qimmat kabi xatti-harakatlarning majmui, umumiyligi axloqning kishilar kasb-koridagi o'ziga xos ko'rinishidir. Odob (arab. adab so'zining ko'pligi) – jamiyatda e'tirof etilgan xulq normasi. Shaxs ma'naviy hayotining tashqi jihatini ifodalaydi va o'zgalar b-n munosabat (oila, mehnat jamoasi, turli marosimlar)da namoyon bo'ladi.

Odob negizida axloqning ba'zi tamoyil va me'yorlari, shuningdek, maqsadga muvofiqlik va go'zallik (estetika) talablari yotadi. Odob kishining jamoat orasida o'zini qanday tutishi, odamlar b-n qay yo'sinda muomala qilishi, o'z turmushi, bo'sh vaqtini qanday tashkil etishi, inson tashqi qiyofasi qanday bo'lishi lozimligiga tegishli qoidalar (masalan, sharm-hayo, kamtarlik, xushmuomalalik kabilalar)ni o'z ichiga oladi.

**KAMTARLIK** – avvalo o'z – o'ziga talabchanlik, o'z harakatlariga, ishiga, bilimiga tanqidiy qarash, o'ziga, kuch – quvvatiga ortiqcha baho bermaslikdir. Kamtarlik kishilarga bo'lgan munosabatda namoyon bo'ladi. Inson odobli bo'lsa, u kishilar bilan shunchalik sodda kamtarona muomala qiladi, o'z ishlariga va harakatlariga kamtarlik bilan baho beradi. Boshqalarga nisbatan shirinsuhan bo'ladi. Kamtar inson boshqalardan o'zini ustun qo'ymaydi, o'ziga bino qo'yib, soxta shuxrat ketidan quvmaydi, yutuqlardan esankiramaydi. Kamtarlik – tortinchoqlik va haddan tashqari andishalilikdan farq qiladi. Ular orqasidan inson o'z qadr – qimmatini tushirib qo'yish mumkin. Kamtarlik tabiiylikdan kelib chiqadi. U kishilarga bo'lgan munosabatda ham yaqqol ko'rindi. Kamtarlik inson ichki ma'naviy dunyosining tashqi ifodasi hisoblanadi.

**MA'NAVİY-AXLOQİY TARBIYA.** M.a.t. – yuksak ma'naviy-ahloqiy fazilatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan tarbiya jarayoni. Ma'naviyat — tarbiyaning eng ta'sirchan quroli va ayni paytda uning natijasi. Axloq — ma'naviyatning o'zagi. Axloq — bu avvalo, insof va adolat tuyg'usi, imon, halollik degani. Qadimgi ajdodlarimiz komil inson tarbiyasi haqida butun bir axloqiy talablar majmuasini, zamonaviy tilda aysak, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanlar. M.a.t.da axloq b-n ma'naviyat mezonlariga asoslanib, insonda ma'naviyat hamda axloqni shakllantirish va rivojlantirish, takomillashtirish uchun ta'sirni kuchaytirishga e'tibor qilinadi.

**MAHALLA** (arab tilidan, ma'nosı – jamoat, joy, makon, qo'shnichilik) – O'rta Osiyo, xususan O'zbekiston qududida X asrlardan boshlab mavjud bo'lganligi to'g'risida tarixiy manbalar guvohlik beradi. Mahalla - bu jamiyatshunoslar ta'biri b-n aytganda, tayyor andozaga ega bo'lgan, «mahalliy boshqaruvda xalqchil demokratiya instituti» nomini olgan tashkilotdir. U o'zining asosiy vazifasi, «birdamlik», «jamoaviylik», «hamkorlik» asosida mahalliy aholini birlashtiruvchi, uyushtiruvchi tashkilot bo'lganligi bois, hamma davrlarning boshqaruv organlari unga nisbatan alohida munosabatda bo'lib kelganlar.

**MAHR** – (turk. teng huquqli nikoh tuzilgan paytda xotiniga ajratib beriladigan mulk) nikohning asosiy sharti, nikoh paytida kuyov tomonidan kelinga sovg'a qilinadigan, keyinchalik faqat xotinga tegishli bo'lgan mulk. Mahr faqat islomga xos, qalin tashqi tomonidan mahrga o'xshasa ham, qadimdan qolgan urs-odatdir

**MUHABBAT VA NAFRAT** — M. va N. ko'pgina ma'naviy axloqiy tushunchalar kabi juftlik xususiyatiga ega. M. insoniy mohiyatning erkin tarzda namoyon bo'lishi, zo'ravonlik yoki zo'rmaqzo'rakilik b-n chiqisha olmaydigan hodisa. U me'yorlar, an'analar, qonunlarga bo'ysunmaydi, lekin yuksak axloqiylik ifodasi tarzida insonga ulkan mas'uliyat yuklaydi, uni jasoratga chorlaydi, u – insonni tashqi va transtsendental olam b-n bog'laydigan, uni yolg'izlikdan olib chiqadigan buyuk ma'naviy kuch. M. ning ob'ekti doimo go'zallik, manfaatsiz go'zallik. U – Allohmi, Vatanmi, yormi – M. egasiga undanda go'zalroq narsa yo'q. Ayni paytda bir ob'ektni sevgan kishi boshqa ob'ektlarni ham sevishi tabiiy. Deylik, yorga bo'lgan haqiqiy M. Vatanga, insoniyatga M.ni inkor etmaydi, aksincha, barqaror qiladi. Zero, «o'zqo'zicha», «yakka», «xudbin» M.ning bo'lishi mumkin emas. Inson o'zi o'zgaga aylanganida, o'zgani o'ziga aylantira olganida haqiqiy M. egasi hisoblanadi. Mana shu ob'ekt b-n sub'ekt orasidagi farqning «yo'qolishi» eng buyuk, eng mukammal ma'naviy lazzatdir.

**MUOMALA MADANIYATI** -insonlar, xalqlar, millat va elatlar, qavmlar orasida o'zaro ma'naviy aloka, salomlashuv, so'zlashuv, kelishuv va boshka insoniy munosabatlardir. Muxim aloka vositasi-M.m. ikki yoki undan ortiq kishilarning o'zaro suhbatini, munosabatini ko'rsatuvchi omil. M.m. nafaqat kishilar orasidagi aloqa vositasi, balki shu b-n birga dunyoning, olamning ma'naviy instrumenti hamdir. Sizning qanday shaxs ekaningizni, o'zaro muloqotda o'z ifodasini topadi.

**MURUVVAT** – insonparvarlik, biror kimsaga qilingan insoniy yordam, yaxshilik, sahovat, lutf. Muruvvat sahovat b-n uyg'un sifat, insoniy axloqiy fazilat bo'lib, xalqimizga xos bo'lgan xususiyat, milliy qadriyatdir.

**MILLATPARVARLIK** - bu vatanparvarlik tamoyilining yanada muayyanlashgan shakli. Zero, millatni sevish keng ma'noda Vatanni sevish degani. Vatansiz millatning bo'lishi yoki rasmana erkin va baxtli yashashi mumkin emas. Asl millatparvar - milliy o'zligini anglab etgan inson. U o'z millati b-n faxrlanadi, o'z millati b-n butun jahonning faxrlanishini istaydi. Millatparvarlik tamoyili asosida milliy g'oya yotadi, u millatni sevish amaliyotining - millatparvarlikning ilmiy-nazariy asosi sifatida maydonga chiqadi.

**NOMUS** - mohiyatan shaxsnинг о‘з qadr - qimmatini anglab etishi, shu qadr - qimmatning jamiyat tomonidan tan olinishi yoki olinmasligiga nisbatan bo‘ladigan munosabatidir. Biroq, bu - nomus qadr - qimmat tushunchasi bilan bir xil ma’noga ega, degani emas. Chunki qadr-qimmat shaxsdan о‘zining boshqa odamlarga nisbatan kamsitilmasligini, atrofdagilardan barcha insonning teng huquqligini tamoyilini о‘ziga nisbatan qo‘llashlarini talab qiladi. Nomus esa о‘з qadr-qimmatini bilishdan tashqari, har bir shaxsnинг jamiyatda alohida, о‘ziga xos tarzda egallagan mavqeи va shu mavqeni dog‘ tushirmay saqlash-saqlamasligi bilan bog‘liq. Bu mavqe esa, shubhasiz, o’sha shaxsnинг ijtimoiy hayotdagi o‘rnı, kasbi, yoshi va unga nisbatan beriladigan axloqiy daraja bilan muayyanlashadi.

**ODOBLILIK**. Kundalik hayotdagi axloqiy qoidalariga rioya qilish – odob hisoblanadi. Odob axloqiy fazilatlar insonning kundalik faoliyatiga singib borayotganini ko‘rsatuvchi mezondir. Odob – jamiyat qabul qilgan axloq normalarini inson faoliyatida, xatti – harakatida, muomala va muloqotida namoyon bo‘lishidir. Muayyan odob doirasida bo‘lish, yaxshi nom qoldirishga intilish insoniyat paydo bo‘libdiki, mavjud. Insonning eng yaxshi fazilatları nasl – nasabi, bilimi bilan emas, balki odobi bilan belgilanadi.

**OILA** – kishilik jamiyatining ijtimoiy poydevoridir. Unda jismonan sog‘lom, ma’nан barkamol, axloqan pok va yuksak madaniyatli insonni voyaga etkaziladi. Oila hayotining asosiy maqsadi aholini qayta tiklash va bolalar tarbiyasidir.

**OILADA FARZAND TARBIYASI** - oila baxti, farzandlarning tarbiyalı etuk inson bo‘lib etishidagi ota-onaning sa'y harakati hisoblanadi.. Oiladagi farzand tarbiyasi uning kelajakda kim bo‘lib etishishida muhim o‘rin tutadi. Demak, bola oilada jamiyatning qiyofasini ko‘radi, bo‘lajak fuqaroning tabiatи, dunyoqarashi va axloqiy qiyofasi oilada shakllanadi hamda shunga ko‘ra kamol topib boradi. Axloqiy tarbiyaning mohiyati kishini hayotga tayyorlashdan iborat.

**OILANING MUSTAXKAMЛИGI** – oiladagi tinchlik, xotirjamlik, bir- biriga bo‘lgan samimiy munosabat hisoblanadi. U oila a’zolarining axloqiy tarbiyasiga ham bog‘liq. Xalqimizda bejiz “Sog‘lom turmush tarzi mustaxkam oilaning garovidir” deb aytilmagan. Sog‘lom turmush tarzi deganda biz nafaqat oiladagi er va xotinning bir – biriga bo‘lgan munosabati balki, ulardagи axloqiy fazilatlar, imonlilik, poklik, halollik, rostgo‘lylik, shirinso‘zlik, kabi axloqiy me‘yorlarga amal qilgan xolda urf – odatlarga asoslangan, zamonaviy oiladagi iqlimni tushunamiz. Bunday iqlimda tarbiya topgan bola ma’naviy va axloqan etuk inson bo‘lib shakllanadi.

**OILA MADANIYATI** – jamiyatning muhim ijtimoiy instituti bo'lgan oilaning to'laqonli va mukammal faoliyat yuritishi uchun uning a'zolari (er va xotin, otona va farzandlar) o'rtaida birqalikda hayot kechirish va zarur munosabatlar o'rnatish ko'nikmalarining majmuasi.

Oila madaniyati - Oilaning tarbiya muhitini sifatidagi xususiyati, uning o'ziga hosligi va tamoyilan muhimligi, undagi munosabatlarning bevositaligi va mustahkamligini umumiy muhitning emotsiyonalligi b-n uyg'unlikda ekanligi b-n shartlanadi. Faqat oilada farzandlar kattalardan malaka, bilimlarni o'zlashtiradilar, kattalar esa o'z hayotlarida bosib o'tgan yo'llarini farzandlari orqali qayta barpo etadilar. Oilaviy muhit o'ziga xos, unikal bo'lib, uning har bir a'zosi yangi avlodda mustahkam va barqaror sog'lom oilani barpo etishga mas'uldir.

**OILA MA'NAVİYATI** – oilaning to'laqonli va barkamol rivojlanishi va faoliyat yuritishini belgilab beruvchi axloqiy, ruhiy, psixologik va g'oyaviy omillarning birligi, oila a'zolari ichki dunyosining uyg'un tarzda namoyon bo'lishi.

Oila ma'naviyati - Jamiyatning asosiy ijtimoiy vazifalaridan biri bo'lgan sog'lom avlodni tarbiyalash, oilaning faoliyatini b-n chambarchas bog'liqidir. Jismonan sog'lom, ma'nан kuchli va aqlan etuk sog'lom avlodni yaratish – oilaning eng asosiy ijtimoiy vazifalaridan biridir.

**OTALIKNI BELGILASH** – Bolaning onasi bilan nikohda bo'lmagan shaxsning otaligi o'zini bolaning otasi deb tan olgan shaxs va onaning fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organiga birqalikda topshirgan arizasiga binoan belgilanadi. Otalikni belgilash faktini mustahkamlash uchun bolaning (bolalarning) aynan shu otadan tug'ilganligini tasdiqlaydigan dalillar bo'lishi shart.

**NIKOHLANUVCHILARNI TIBBIY KO'RİKDAN O'TKAZISH** - O'zbekiston Respublikasi Oila qonunchiligidagi ilk bor nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rirkdan o'tkazish qonunlashtirilgan. Oila kodeksining 17-moddasi «Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rirkdan o'tkazish» deb nomlangan.

**OILA** — tarixan tarkib topgan o'ziga xos va mos ijtimoiy guruh bo'lib, uning a'zolari bir-birlari bilan nikoh, qon-qarindoshlik, umumiy turmush va o'zaro huquqiy, axloqiy va boshqa munosabatlar bilan bog'langandir. Oila nikoh zaminida vujudga keladi. Nikoh esa erkak va ayol orasidagi munosabatlarning jamiyat tomonidan tan olingan, ma'qullangan ifodasi hisoblanadi.

**SAMIMIYLIK** – “boshqalar gapini tinglaydigan, hamfikr bo‘la oladigan, xabardor” degan ma’noni anglatadi. Samimiylit – to‘g‘riligiga o‘zi ishongan, bu haqda o‘ziga va boshqalarga iqror bo‘la oladigan narsalarni qiladigan odamning ma’naviy ijobiy sisati. *Saminiy* – samimiyat b-n ish tutuvchi, muomala qiluvchi, sidqidillik b-n chin qalbdan qilingan, dildan chiqqan. *Samimiyat* – kishilarga qalban hayrixohlik, pokdillik, samimiylit, sidqidillik. S. insondagi eng yaxshi xislat, oliy insoniy fazilatlardan biri bo‘lib, axloqning muhim me’yorlaridan hisoblanadi.

**TAKABBUR(LIK).** Takabbur – o‘zini katta oladigan, kibr-havoli. Takabburlik – 1. Takabbur bo‘lish. 2. Takabbur odamlarga xos xatti-harakat. T.lik – salbiy axloqiy sifat bo‘lib, boshqalarga kibr-havolik b-n munosabatda bo‘lish, ularning tajribasi va ma’naviy boyliklarni mensimaslik, o‘zining jamiyatda tutgan o‘rnidan, millatidan mag‘rurlanishni anglatadi. T.lik – manmanlikning bir ko‘rinishi bo‘lib, kishining o‘zini yaxshi ko‘rish va imkoniyatlariga ortiqcha ishonishi asosida boshqalarga behurmatlikda bo‘lishini ifodalovchi salbiy axloqiy sifat. T.lik – illat. T.lik kamtarlik va odamlarga hurmat sifatlariga ziddir. T.lik kibr, manmanlik, mag‘rurlik, maqtanchoqlik, kekkayish, kaltabinlik, jamoadan o‘zini yuqori qo‘yish, boshqalardan ustunligini namoyon etish kabi illatlar yig‘indisidan iborat.

**TARBIYA** – insonning shaxs bo‘lib etishuvini ta‘minlaydigan uzlucksiz jarayonlardan biri. Go‘zal fazilatlar insonga xos narsa, faqat uning mulki emas. Yaxshi fazilat jamiyatning boyligi, umuminsoniy ma’noga ega. Ijobiy fazilatga ega bo‘lgan kishilar jamiyatga ta’sir qiladi, uning rivojlanishini tezlashtiradi. Inson bolasi ham bu yorug‘ olamga shunchaki kelmaydi. Hazrat Navoijy ta‘biricha, inson olamga kamolotga erishish uchun keladi. Inson to‘g‘ri tarbiya topmasa, uning xatti-harakatlari jamiyatga zarar keltiradi.

**ZINO** – buzuqlik, fahsh. Shar‘iy nikohda bo‘lmagan erkak va ayolning jinsiy aloqada bo‘lishi, islomda katta gunoh sanaladi. Zinokor odam jamiyat axloqini buzadigan odam qaralgan va tegishli jazo belgilangan. Shariatda zino haqida hukm chiqarish uchun shu ish b-n shug‘ullangan har ikki tomonning iqoro bo‘lishi talab qilingan. Tuhmat va yolg‘on guvohlikka qarab hukm chiqarilmagan

**SEVGI** – 1) emotsiyonal jihatdan ijobjiy bo‘lgan munosabatning yuksak ko‘rinishi bo‘lib, bunda sub‘ekt o‘z ob‘ektini boshqalardan ajratib oladi va o‘z hayotiy extiyojlarining diqqat markaziga qo‘yadi; 2) sub‘ektning turg‘un, intensiv va kuchaygan hissiyor bo‘lib, bunda organizmning fiziologik jarayonlarida va xususan shaxsning jinsiy maylida faollik kuzatiladi. S.da bir shaxs boshqa insonning hayotida o‘zligini butunlay namoyon qilish va bu orqali unda o‘ziga nisbatan xuddi

shunday hislarni uyg'otish niyatida bo'ladi. Bu hislar ham o'ziniki singari turg'un, intensiv va kuchaygan bo'lishini hohlaydi. S. hissi o'ta intim mazmunga ega bo'ladi.

**SHAXSNING AXLOQIY MADANIYATI-** individ tomonidan axloqiy ong orkali jamiyat madaniyatini idrok etish darajasi; axloq talablari inson xatti-harakatlari jamiyatning shakllantiruvchi ta'siri ostida qay darajada chuqur va uyg'un ekanligi ko'rsatkichidir. Turli omillar ta'siri ostida: hayotiy tajriba va tarbiya; bilim va san'at shaxs jamiyatning axloqiy madaniyati yutuqlarini turli darajada o'z ongi va xatti-harakatlarda jamlaydi. Sh.a.m. murakkab dastur bo'lib, o'z ichiga insoniyatning shunday tajribasini oladiki, unga ko'ra inson an'anaviy vaziyatlarda axloqan ish yuritadi, hamda ongning ijodiy elementlarini –axloqiy aql, intuitsiyani ham o'z ichiga oladi va ular yordamida muammoli vaziyatlarda ahloqiy qarorlar qabul qila oladi.

**SHARQONA AXLOQ-** xulq-atvor, yurish-turish, tarbiya, xushaxloqlilik, boabdililik, ota-onaga, ustozlarga hurmat-ehtirom, xushmuomalalik, ochiq yuzlilik, vazminlik, kamtarlik, va'daga vafodorlik, to'g'riso'zlik va h.k.

**FUQOROLIK JAMIYATINING MA'NAVIY AXLOQIY NEGIZI -** Fuqarolik jamiyati – ijtimoiy hayotning davlat ta'siri va aralashuvidan, ma'muriy tazyiqlardan holi bo'lgan hamda insonlarining hususiy turmush sohasini tashkil etuvchi munosabatlar majmuidir. Fuqarolik jamiyati chuqur ma'naviy, yuksak madaniy insoniy munosabatlar zamiriga tayanadi. Bu jamiyatning ma'naviy hayotida bir narsa ustuvorlik qiladi, ya'ni inson benihoya darajada ulug'lanadi, umumisoniy qadriyatlar e'zozlanadi, ular mo'tabar va muqaddas sanaladi. Bunda insonning qadr – qimmati, mehr – oqibat, ahloqiy poklik, adolatparvarlik va insonparvarlik kabi oliy qadriyatlar insonlar o'rtasidagi munosabatlarni belgilovchi mezondir.

**HALOLLIK** - sof, pokiza bo'lishni talab qiladigan axloqiy me'yordir. Dastavval u diniy tushuncha sifatida vujudga kelib, har bir musulmonning emak-ichmag'i, jinsiy va iqtisodiy xatti-harakatlari sifatini belgilab beruvchi shar'iy me'yor bo'lib amal qilgan. Insonni ma'naviy, axloqiy jihatdan bezaydigan ajoyib fazilatlardan biri - halol, pokiza yashash, birovlarning xaqiga zarracha bo'lsada hiyonat qilmaslikdan iboratdir.

**HAYO** – shaxsning axloqiy o'zini-o'zi anglashi ko'rinishlaridan biri; hayo tuyg'usida insonning o'z xatti-harakatlarini, axloqiy sifatlari va motivlarini anglashi tushuniladi. Inson o'z xatti-harakatlarining axloqqa zid ekanligini mustaqil ravishda

yoki bo'lsamasa atrofdagilarning qoralashi natijasida anglab etishi mumkin. Hayo vijdon b-n bevosita bog'liq bo'ladi. Vijdonsiz odamlarda hayo bo'lmaydi. Shu b-n birga, hayoning vijdondan farq qiluvchi jihatlari ham mavjud. Hayo qo'proq tashqi muhit b-n bog'liq bo'ladi. Hayo tuyg'usi insонning o'z xatti-harakatlarini boshqalar nuqati nazaridan baholashi b-n bog'liq bo'ladi. Hayo tuyg'usi ma'naviyatlari va ma'naviy yuksak insonlarga xos axloqiy fazilatdir.

**HASAD** - o'zida yo'q bo'lgan narsaning boshqalarda bo'lishini istamaslik, o'zgalarning yutuqlari va muvaffaqiyatlarini ko'ra olmaslik. Hasad tuyg'usi mavjud bo'lgan odam boshqalarning yaxshi turmush kechirishidan, o'qishda, mehnat faoliyatida erishgan yutuqlaridan qiyin ahvolga tushadi. Hasad turli olamshumul dirlarda qoralanadi. Masalan xristian dinida hasad ettita gunohi kabiralardan biri hisoblanadi. Chunki bu dinda aytishicha, hasad qilish xudo tomonidan o'rnatilgan tartibdan norozilikni bildiradi.

**EZGULIK VA YOVUZLIK** — ma'naviy axloqiy tushunchalar orasidagi eng muhim juftliklaridir. E. insonni faoliyatning asl mohiyatini anglatadi — Tangri irodasining inson qalbidagi tajassumi sifatida namoyon bo'ladi. «Ezgu o'y, ezgu so'z, ezgu a'mol» uchligi «Avesto» dan tortib barcha muqaddas kitoblarda etakchi o'rinni egallashi ham shundan. E. insonga eng kuchli ma'naviy lazzat bag'ishlaydigan, uni ijtimoiy shaxsga aylantirib, haqiqiy baxtga olib boruvchi fazilat; shaxsni komillikka, jamiyatni esa yuksak taraqqiyotga etkazuvchi yuksak qadriyat. U insonning axloqiy faoliyati tufayli muayyanlashadi, yuzaga chiqadi.

**ETIKET** - takallufning mayda-chuyda jihatlarigacha ishlab chiqilgan odob qoidalari sifatida ijobjiy, kishining ko'zini quvontiradigan munosabat hodisadir. Etiketning qamrovi keng, u ma'lum ma'noda xalqaro miqyosda qabul qilingan muomala qonun-qoidalarni o'z ichiga oladi. U ko'proq insonning tashqi madaniyatini, o'zaro munosabatlardagi o'zni tutish qonun-qoidalarning bajarilishini boshqaradi. Muomala odobida inson o'z munosabatlariga ijodiy yondoshsa, ya'ni bir holatda bir necha muomala qilish imkoniga ega bo'lsa, etiket muayyan holat uchun faqat bir xil qoidalashtirib qo'yilgan xatti-harakatni taqazo etadi.

**YAXSHILIK VA YOMONLIK** — asosiy ma'naviy axloqiy juft tushunchalardan. U yaqin yaqingacha E. va Yo. ning sinonimi tarzida qo'llanib kelinar edi, aslida ular asos e'tibori b-n birqbiridan farq qiladi. E. va Yo. o'zini cheksizlikda, Ya. va Yo. o'zini chegaralanganlikda ifoda etadi. E. ijtimoiylik xususiyatiga ega, Ya. esa asosan shaxsning odobiga, xulqiga bog'liq bo'lgan ijobjiy hodisa; unda mardlik,

ochiqko'ngillilik, halollik singari axloqiy me'yorlar tajassum topadi. Biroq unga asos bo'lgan amaliy xattiqharaqatlar qahramonlik, jasorat, vatanparvarlik kabi axloqiy tamoyillar darajasiga ko'tarila olmaydi.

**OMMAVIY MADANIYAT** – «Ommaviy madaniyat» G'arb dunyosida o'tgan asrning ikkinchi yarmida shakllandi. Uni G'arbda «populyar» yoki qisqartirilgan holda, «pop-kultura» (ya'ni «ommaviy madaniyat») deb atashadi. Garchi «madaniyat» deb atalsa-da, aslida, tub mazmun-ma'nosiga, maqsad-niyatiga ko'ra «ommaviy madaniyat» chinakam madaniyatning kushandasidir.

**GUMANIZM** – Gumanizm (lotincha-insoniy), insonni ulug'lovchi diniy-falsafiy ta'minot, "g'arb" timsolidagi, zamonaviy industorial-texnalogik taraqqiyotning umum falsafiy va metodologik printsipi bo'lgan. "Gumanizm"ning umum qabul qilingan aniq bir ta'rifi yo'q. Gumanizm deganda insoniylikka, inson shaxsini qobiliyatlarining maksimal rivojlanishi uchun, shuningdek insonga loyiq hayot sharoitini yaratish tushiniladi.

**GEDONIZM** – amaliy etikaning huzurbaxshlik yo'nalishi bo'lib, unda hayotning maqsadi hayotning yuksak ne'matlariga intilish va undan lazzatlanib, zavqlanib yashash bilan belgilanadi. Shu jihatdan ham qadimgi davr faylasuflaridan bejizdan Antisfen: «mehnat orqasidan keladigan farog'atni talab qilish kerak, undan oldin keladiganini emas» degan fikrni aytgan emas.

**EVDEMONIZM** – (grech. - barqarorlik, huzurbaxshlik, baxti) - inson asosiy faoliyatining baxtga erishuvga intilishi bilan bog'liq bo'lgan axloqshunoslik yo'nalishlardan biri sanaladi.

**BIOETIKA** – bu amaliy etikaning yo'nalishi bo'lib, uning bosh maqsadi tug'ilmoq, hayot va o'lim, insoniyatning kelajagini davom ettirish kabi masalalarga fanning aralashuvini tahlil qilish, oqibatlarini baholash va ushbu jarayonlarning axloqiy qoidalarini ishlab chiqishdan iboratdir.

**PATERNALIZM** – tibbiyot etikasining dastlabki modellaridan biri. Bu shunday bir munosabatlar modeliki, unda vrach bemorga nisbatan nafaqat mehribon ota, balki podsho va xudo sifatida ham ishtirok etadi, zero, insonning hayoti, sog'lig'i, erkinligi va baxti uning qo'lida bo'ladi. Professional tibbiyot etikasining mazmuni «foya keltirish», «ziyon etkazmaslik», «bemorning ishonchini qozonish» singari printsiplar bilan belgilanadi, ya'ni vrach faoliyatini tartibga solishga yo'naltirilgan va «tibbiy deontologiya» deb ataladi.

**EVTONAZIYA** – totli o'lim ham biotibbiy axloqning global muammolaridan. Bedavo dardga chalingan bemorni azob-uqubatlardan qutqarish uchun uning o'limini qasddan tezlashtirishga munosabat yuzasidan tibbiyotchilar, yuristlar, sotsiologlar va psixologlar orasida ko'p sonli bahslar hanuz davom etmoqda. Ingliz faylasufi Frensis Bekon (1561-1626) engil og'riqsiz o'limni belgilash uchun «evtanaziya» (yunoncha «euthanasia», «eu» – yaxshi, «thanatos» – o'lim), ya'ni azob-uqubatlarsiz, yaxshi, oson va engil o'lim atamasini muomalaga kiritdi.

**KLONLASHTIRISH** – atamasi ingliz tilidagi “slone”, “cloning” so'zlaridan kelib chiqqan va hozirgi kunga kelib o'z yozilishi, o'qilishini biroz o'zgartirgan. Ingliz tilida bu so'z biologik termin sifatida yuz yillar oldin qo'llana boshlagan. Biroq shu qisqa vaqt ichida o'z ma'nosini bir necha marta o'zgartirishga ulgurgan. Dastlab klon so'zi vegetativ yo'l bilan, ya'ni bir o'simlik urug'idan olingan o'simliklar guruhiga nisbatan qo'llangan. Oradan bir muncha vaqt o'tib, ushbu atama bakteriyalar turkumini etishtirishga nisbatan ishlataligan.

**TRANSPLANTATSIYA** – odam va xayvonlarda potologik jarayon natijasida shikastlangan yoki olib tashlangan to'qimalar va organlar o'rniغا sog'lomini ko'chirib o'tkazish. Xirurgiya usuli sifatida qadimdan ma'lum. Teri, muskul, nervlar, ko'zning muguz pardasi, yog', va suyak to'qimasi, yurak, buyrak va boshqa organlar ko'chirib o'tkaziladi. Qon quyish-transplantatsiyaning alohida turidir. Ko'chirib o'tkaziladigan to'qima yoki organ kimdan olinganiga qarab quyidagicha farqlanadi. Autotransplantant - bemorning o'zidan, allotransplantat - odamdan odamga, ksenotransplantat - boshqa individdan.

Hozir buyrak transplantatsiyasi juda keng yo'lga qo'yilgan. Boshqa organlar, yurak, jigar, endokrin bezlar, o'pka va boshqa organlarni ko'chirib o'tkazish maxsus klinikalarda bajariladi.

**KSENOTRANSPLANTATSIYA** Transplantalogiya- yashashga umid qolmagan, dori darmonlar foyda bermagan insonlarning so'ngi chorasi va yashash uchun so'nggi umidi bo'lib qolmoqda. Lekin ushbu muammo bugungi kunda ko'pgina jinoiy holatlarga ya'ni, inson organlarini sotish jarayonlariga olib kelmoqda. Ushbu muammolarni echimining bugungi kundagi yangi yo'llardan biri hioblangan, insonga xayvonning organi yoki to'qimasini ko'chirib o'tish – ya'ni ksenotransplantatsiyadir.

**BADIY IJOD** - adabiyot va san'at fenomeni, ilhom bilan bog'liq ma'naviy hodisalardan biri, estetik ijod shakli. U tarixiy mazmunga ega bo'lib, san'at va

adabiyot turlari yo'nalishlari bilan bog'liq. Insoniyat taraqqiyotining turli davrlarida klasitsizm, romantizm, tanqidiy realizm, naturalizm kabi yo'nalishlar hamda shunday badiiy ijod usullari shakllangan va rivoj topgan.

**GARMONIYA** (yun. Harmonia - aloqa, uyg'unlik) - ma'lum tizim elementlari, tarkibiy qismlari rivojlanishining muayyan davrida o'zaro muvosif, mutanosib, uzviy bog'liqlik va aloqadorlik holatini anglatuvchi tushuncha.

**GO'ZALLIK** - estetika kategoriyasi bo'lib, narsa hodisalarning nafisligi va nafosatini ijtimoiy ma'naviy jihatdan baholovchi mezon, ijtimoiy ma'naviy hayotda biron bir narsa yoki kishiga xos xususiyatlarning shaklan va mazmunan uyg'unligini anglatadigan, turli shakllarda namoyon bo'ladigan va insonda yoqimli tuyg'u, zavq, kuchli hayrat hissini hosil qiladigan tushuncha.

**SAN'AT** - ijtimoiy ong va inson faoliyatining o'ziga xos shakli. San'at inson mehnati, aql idroki, shuuri bilan yaratilgan ijod mahsulotidir. San'at asarida shaxsning o'ziga xos iste'dodi namoyon bo'ladi. San'at insoniyat ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi, dunyoni ma'naviy anglashning maxsus turidir. San'at tushunchasi keng ma'noda, badiiy qadriyatlar, ularni yaratish va iste'mol jarayonlarini qamrab oladi.

**ULUG'VORLIK** - tabiat, jamiyat, inson va uning faoliyati mahsulotlarida namoyon bo'ladigan man'naviy ahloqiy tushuncha. Ulug'vorlik belgisiga ega bo'lgan barcha narsa va hodisalarga xos umumiylilik me'yoriy barkamollikdir. Tabiatda ulug'vorlik baland tog'lar, qudratli sharsharalar timsolida namoyon bo'ladi. Ulug'vorlik hissi umuminsoniy, umumiyligi belgilari bilan birga ijtimoiy shartlangan, aniq tarixiy tabiatga ham molik qahramonlikda alohida nafosat va axloqiy birlikda to'liq hamda bevosita namoyon bo'ladi.

**FOJIAVIYLIK** - vogelikning eng muhim, chuqur ziddiyat va to'vnashuvlari hayot va o'llim, ozodlik va mutelik, aql va tuyg'u, qonun va burch shaxsiy va ijtimoiy munosabatlarni o'ziga xos tarzda ifoda etuvchi falsafiy tushuncha. San'atdagi fojealilik haqida fikr yuritganda san'at asarlaridagi fojeali ohanglar, fojeaviylik san'ati va niroyat, fojeaviylik san'at turi kabi muammolar alohida mushohada qilinishi lozim. Har qanday fojea zamirida muayyan fojeali to'qnashuv, ziddiyat yotadi.

**KULGILILIK** haqidagi mavjud barcha nazariyalar kulgililikning predmetini ob'ektiv xususiyat sifatida yoki shaxsning sub'ektiv imkoniyatlari natijasi yohud sub'ekt va ob'ekt o'zaro aloqadorligining natijasi sifatida ko'rib

chiqishadi. Mazkur uchta metodologik yondoshuv kulgililikdagi ko'pma'nolikning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

**ESTETIKA** - (yun.aistethikos - hissiy idrok, sezgi) 1)voqelikni hissiy ta'sirchan, emotsiyal o'zlashtirish; 2) estetik faoliyat qonuniylatlari to'hriidagi fan,nafosatlik.estetikaga oid dastlabki ta'limotlar miloddan avvalgi 2-3 ming yil muqaddam Qadimiy Misr, Hindiston, Xitoyda Aflatun, Arastu, rimlik Lukretsiy, Goratsiy singari mutafakkirlarning asarlarida har tomonlama rivojlandi. XVIII asr o'rtalarida nemis ma'rifatparvari Aleksandr Baumgarten (1714-1762) estetikanı alohida fan deb hisobladi va uning san'atda yorqin namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Estetik fan sifatida estetik tafakkur tarixi, estetikaning metodologik muammolari va estetik tarbiya masalalarini o'z ichiga oladi.

**ESTETIK DID** - voqeа hodisalarning estetik sifatlarini idrok etish va baholash jarayonida olinadigan qoniqiy yoki qoniqmaslik tuyg'usi, estetik mezon. Estetik did insonning fikr mulohazalari, xulq atvori, xatti harakatlari, moddiy va ma'naviy ijod mahsulotlarida o'z ifodasini topadi.

**ESTETIK MUNOSABAT** - sub'ekt bilan ob'ekt o'rtasidagi o'zaro harakat va o'zaro ta'sirning maxsus turini anglatuvchi falsafiy tushuncha. Estetik munosabat nafosatli ob'ektdir. Muayyan shart-sharoidta har qanday narsa, voqeа-hodisa nafosatli tabiatga ega bo'lib, estetik munosabat va nafosatli baho ob'ektiga aylanishi mumkin. Lekin ular ma'lum bir talablarga javob berishlari kerak: birinchidan, aniq his tuyg'u, sezgi idrok qobiliyati va imkoniyatiga ega bo'lishi, ikkinchidan, u yoki bu voqeа-hodisa insoniy aloqalar va munosabatlarga kirishib, ijtimoiy ahamiyat kaeb etishi kerak. Shundagina muayn voqeа-hodisa estetik munosabat ob'ektiga aylanadi, ya'ni u o'z qadrini topadi, baholash esa voqeа-hodisalarning qadri yoki ijtimoiy ahamiyatini anglashning maxsus shaklidir.

**ESTETIK ANGLASH** - olamni estetik anglash, dunyoga inson munosabatining sub'ektiv tomoni. U ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida axloqiy, siyosiy, huquqiy, diniy, falsafiy anglash kabi ijtimoiy hodisalar bilan bir qatorda turadi. Estetik anglash ma'naviy ruhiy voqeа-hodisalar majmui bo'lib, ular ijtimoiy hayot zaminida vujudga keladigan estetik his, estetik did, fikr, orzu qilish nazariy qismini anglatadi.

**SAN'AT FALSAFASI** - san'at bu fanning yagona taddiqot ob'ekti emas. Hozirgi paytda texnika estetikasi va uning amaliyotdagи sohasi dizayn, atrof-muhitni go'zallashtirish, tabiatdagи nafosat borasidagi muammolar bilan ham shu fanimiz

shug'ullanadi. Demak, uning qamrovini san'atning o'zi bilangina chegaralab qo'yishga haqqimiz yo'q.

**GO'ZALLIK FALSAFASI** - bugungi kunda inson o'zini o'tab turgan barcha narsa-hodisalarining go'zal bo'lishi, har qadamda nasosatni his etishni istaydi. Yuqorida aytilganlardan kelib chiqsaq, «Go'zallik falsafasi» degan ibora bu fani mohiyatiga ko'proq mos keladi. Negaki, u farqat san'atdagi go'zallikni emas, balki insondagi, jamiyat va tabiatdagi go'zallikni ham o'rGANADI. Shuningdek, go'zallikdan boshqa ulug'vorlik, fojiaviylik, kulgilik, mo'jizaviylik, hayolitik uyg'unlik, noziklik singari ko'pdan-ko'p tushunchalar mavjudki, ularni tadqiq etish ham estetika fanining zimmasida.

**SAN'ATNING BILISH TABIATI**- Arastu u bilishning o'ziga xos turi ekanini ta'kidlaydi va bu bilan ustozni Aflatunga raddiya bildiradi. «Birinchi muallim»ning fikriga ko'ra, badiiy asarning mazmuni aniq-ravshan unda aks ettirilgan voqe-a-hodisa esa bilib olinishi oson bo'lishi kerak, xuddi hayotdagidek idrok qilinishi lozim. Biroq, badiiy idrok etish uchun estetik masofa zarur. Ana shu masofa tufayli badiiy reallik muxtor tarzda, amaliy hayotdagiga aynan bo'limgan tarzda idrok etiladi. Bunday masofa badiiy til, musiqiy kompozitsiya v. h. vositasida yaratiladi.

**FORIG'LANSHT-KATARSIS** - bu tushunchani mohiyatan diniy ma'noda qo'llagan edi. Arastu esa uni san'atga nisbatan ishlataladi. Forig'lanish, Arastu talqiniga ko'ra, san'at o'z oldiga qo'ygan maqsad, xususan, fojea (tragediya)ning maqsadi. U mohiyatan qo'rquv yoki achinish tufayli inson qalbini salbiy hissiyotlardan forig'lantiradi. Natijada inson, bir tomonidan, taqdir ko'rgiliklariga xotirjam qaray boshlasa, ikkinchi tomonidan, baxtsizlik girdobiga tushganlarga o'zida hamdardlik hissini tuyadi. Ya'ni, san'at insonni olijanob qilish, yaxshilash, go'zallashtirish xususiyatiga ega.

**DINIY-BADIIY ASARDA RAMZ** -. Ramzning o'ziga xos xususiyati shundaki, u o'z mazmuniga emas, butunlay boshqa mazmunni anglatadigan shakl, o'z mohiyatini emas, butunlay boshqa mohiyatni ifodalaydigan hodisa, qisqasi, butunlay boshqa botinni ifodolovchi zohirdir. Shu bois ham u sirli, yashirin hodisa: uni muayyan bilimga ega bo'lmay turib anglash mumkin emas.

**IDEAL** - Diniy-badiiy janrda o'ziga xos tarzda talqin etiladi. Umuman olganda, idealni ma'lum ma'noda, antiqa holat-paradoks deyish mumkin: unda bor

narsa yo'q narsaning mezoni bilan o'lchanadi, ya'ni mavjud narsaga yoki hodisaga o'sha paytda mavjud bo'lмаган narsa yoki voqelik talablari bilan yondashiladi.

### **DINIY-BADIIY QONUN - me'morchilikda ham yaqqol ko'zga tashlanadi.**

Masalan, yirik masjid-jomening tashqi va ichki ko'rinishiga e'tibor qilaylik: kiraverishdagi peshtoqda Kalomullodan oyatlар, bir yonda mezona-minora, tomda gumbaz, hovlida tahorat uchun hovuz, ichkarida diniy va dunyoviy rahbarlarga atalgan maxsus joy-maqsura, fatvolar o'qiladigan, va'z aytildigan minbar, qibla tomonda mehrob va hokazo. Bularsiz jome masjidni tasavvur qilish qiyin. Yoki nasroniylar cherkovida mehrob (altar), devor va shiftlarda Bibi Maryam, Iso alayhissalomning tasvirlari, gumbazlar, qo'ng'iroqxonasi singari unsurlar albatta bo'lishi kerak.

**NISBIY GO'ZALLIK -** G'azzoliy unga alohida to'htaladi. Faqat o'z kamolotining barcha qirralariga to'liq ega bo'lgan narsanigina u oliv darajadagi go'zallik deb ataydi. Bunday komillikni faylasuf faqat Allahda ko'radi va payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning «Allox go'zal va u go'zallikni sevadi» degan so'zlarini keltiradi. Shunday qilib, faylasuf mutlaq go'zallik faqat Allahga taalluqli bo'lishini, boshqa go'zalliklarning hammasi nisbiy ekanini aniq-ravshan bayon etadi.

**RUHIY TAXLIL ESTETIKASI -** Froyd inson ruhiy hayotida uch bosqichni ajratib ko'rsatadi; *ong*, *ongoldi* va *ongtubi* yoxud onglanmagan, ya'ni ongga aylanmagan holat. Onglanmaganlik va ongoldi ongdan nazorat (tsenzura) degan o'rta bosqich orqali ajralib turadi. Nazorat ikki vazifani bajaradi; birinchisi, shaxs o'ziga maqbul ko'rmagan va qoralagan his-tuyg'ular, fikrlar, tushunchalarini onglanmaganlik hududiga siqib chiqaradi; ikkinchisi, ongda o'zini namoyon etishga intilgan faol onglanmaganlikka qarshi kurashadi

**NAFOSAT -** bir tomonlama, real voqelikni, ikkinchi tomondan ilmiy tushunchani anglatadi. U real voqelik sifatida inson hayotining barcha sohalarini nurlantirib turuvchi qamrovli ma'naviy hodisa, tushuncha sifatida esa estetika faniga oid yuzlab, ehtimol, minglab atamalarni o'z ichiga olgan eng yirik istiloh, ovro'pacha ta'rifda-metakategoriya. Boshqacha qilib aytganidan bo'lsak, nafosatning «hududi» nihoyatda keng, u ob'ektiv voqelik sifatida narsa-hodisalarning estetik xususiyatlarini angatsa, sub'ektiv voqelik tarzida insonning ana shu estetik xususiyatlarini anglash va idrok etish borasidagi botiniy faoliyatidir

**ESTETIK ANGLASH** - va shu asosdagи faoliyat jarayonining ibtidosi estetik ehtiyojga borib taqaladi. Estetik ehtiyoj inson hayotida ro'y beradigan barcha estetik hodisalarning asosi sifatida ham tabiiy-biologik, ham ijtimoiy-mavniy mohiyatga ega; «go'zal nafs», nafosatga tashnalik, insonda estetik hissiyotni qo'zg'atish xususiyatini saqlab qolgan holda, keyinchalik uning butun umri mobaynida takomillashib boradi estetik muhokama, estetik baho, estetik did va estetik idealning shakllanishiga xizmat qiladi

**ESTETIK HISSIYOT** - Ko'pincha adabiyotlarda estetik hissiyot «estetik tuyg'u» so'zida, birlik shaklida beriladi. Goh estetik kechinmaning, goh estetik hayajonning sinonimi tarzida talqin qilinadi. Bizningcha, bu unchalik to'g'ri emas. Chunki hayajon ham, kechinma ham bitta tuyg'udan emas, tuyg'ular silsilasidan iborat bo'ladi, shu sababdan uni ko'plikda-hislari yoki hissiyot shaklida qo'llash maqsadga muvofiq.

Endi estetik hissiyotni tashkil etadigan hislarning ba'zilarini qisqacha ko'rib o'taylik.

**ESTETIK DID** - insondagi go'zallik, ulug'vorlik, fojiaviylik singari estetik xususiyatlarni, umuman, nafosatni idrok etish qobiliyatini nazarda tutiladi.

## MUNDARIJA

KIRISH.

1. AXLOQIY QADRIYATLARNING UMUMMILLIY ASOSLARINING ShAKLLANISH BOSQICHLARI.
2. AXLOQNING INSONNI QADRIYATLARGA YO'NALTIRISH VAZIFASI HAMDA UNING AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY QADRIYATLAR UYG'UNLIGINI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI.
3. AXLOQIY QADRIYATLAR UMUMMILLIY ASOSLARINING XOZIRGI ZAMON TsIVILIZATSIDA ShAXS AXLOQIY TARBIYASIGA TA'SIRI.
4. HAYOTNING MA'NOSI TUSHUNCHASINING BAXT, O'LIM, ABADIYLIK HAMDA IDEAL BILAN ALOQADORLIK XUSUSIYATLARI. IXTIYORIY VA MAJBURIY O'LIMNING ASOSIY MUAMMOLARI.
5. JAMIYATNI MODERNIZATSIALASH VA AXLOQIY QADRIYATLAR TUSHUNCHALARINING FALSAFIY TASNIFI
6. AXLOQIYLIK VA G'AYRIAXLOQIYLIK. MUNOSABATLAR AXLOQI
7. SAN'AT ETIKASI VA UNING INSON ShAXSIGA TA'SIRI. SAN'ATDA AXLOQIYLIK VA G'AYRIAXLOQIY ALOQADORLIGI.
8. GLOBALLASHUV JARAYONI: AXLOQIY MUAMMOLAR. EKOLOGIK AXLOQ. ETOSFERA MUAMMOLARI.
9. BIOETIKADA UMUMINSONIY AXLOQIY TAMOYILLAR VA QADRIYATLAR. BIOETIKADA AZOB VA RAHM-ShAVQAT, O'LIM VA O'LMASLIK MASALALARI
10. AXLOQ PSIXOLOGIYASI. RUHIY TAHLIL YO'NALISHI VA G'AYRIZO'RAVONLIK.
11. DAVLAT TIZIMIDA SIYOSAT VA AXLOQ MASALALARI. SIYOSIY MAJBURIYAT VA ERKINLIK, ADOLATLI JAMIYAT MEZONLARI, INSON HUQUQLARI VA FUQAROLAR ITOATSIZLIGI
12. AXLOQ VA HUQUQ ULARNING O'ZARO MUTANOSIBLIGI YoKI NOMUTANOSIBLIGI
13. GENDER MUAMMOLARI. AYOL VA ERKAKLARNING ODDIY XULQ-ATVORI VA MOTIVATSIYASINING AXLOQIYLIGI VA RATSIONALLIGI.
14. OILANING AXLOQIY QADRIYAT SIFATIDAGI XUSUSIYATLARI. NIKOHNİ BEKOR QILINISHIDA, OILA TARQALISHINING IQTISODIY, HUQUQIY, RUHIY OMILLARI.
15. INSON ShAXSIDAGI ILLATLARNING PAYDO BO'LISH OQIBATLARI UNING JAMIYAT RIVOJIGA TA'SIRI.

## **16.FANNING UMUMIY SAVOLLARI 17.GLOSSARIY**

## СОДЕРЖАНИЕ

ВВЕДЕНИЕ.

2. ЭТАПЫ ФОРМИРОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ОСНОВ НРАВСТВЕННЫХ ЦЕННОСТЕЙ.
3. ЗАДАЧА НРАВСТВЕННОСТИ НАПРАВЛЯТЬ ЧЕЛОВЕКА К ЦЕННОСТЯМ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ В ОБЕСПЕЧЕНИИ СОЧЕТАНИЯ ТРАДИЦИОННЫХ И СОВРЕМЕННЫХ ЦЕННОСТЕЙ.
4. ВЛИЯНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ОСНОВ НРАВСТВЕННЫХ ЦЕННОСТЕЙ НА НРАВСТВЕННОЕ ВОСПИТАНИЕ ЧЕЛОВЕКА В СОВРЕМЕННОЙ ЦИВИЛИЗАЦИИ.
5. ХАРАКТЕРИСТИКА КОНЦЕПЦИИ СМЫСЛА ЖИЗНИ, СВЯЗАННОЙ С СЧАСТЬЕМ, СМЕРТЬЮ, ВЕЧНОСТЬЮ И ИДЕАЛОМ. ОСНОВНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ДОБРОВОЛЬНОЙ И ПРИНУДИТЕЛЬНОЙ СМЕРТИ.
6. ФИЛОСОФСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ПОНЯТИЙ МОДЕРНИЗАЦИИ ОБЩЕСТВА И НРАВСТВЕННЫХ ЦЕННОСТЕЙ
7. НРАВСТВЕННОСТЬ И БЕЗМОРДНОСТЬ. ЭТИКА ОТНОШЕНИЙ
8. ЭТИКА ИСКУССТВА И ЕЕ ВОЗДЕЙСТВИЕ НА ЧЕЛОВЕКА. СООТНОШЕНИЕ МОРДЛЬНОСТИ И БЕЗМОРДЛЬНОСТИ В ИСКУССТВЕ.
9. ПРОЦЕСС ГЛОБАЛИЗАЦИИ: МОРДЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ. ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ ЭТИКА. ЭТОСФЕРНЫЕ ПРОБЛЕМЫ.
10. ОБЩИЕ НРАВСТВЕННЫЕ ПРИНЦИПЫ И ЦЕННОСТИ В БИОЭТИКЕ. ВОПРОСЫ СТРАДАНИЯ И МИЛОСЕРДИЯ, СМЕРТИ И БЕССМЕРТИЯ В БИОЭТИКЕ
11. НРАВСТВЕННАЯ ПСИХОЛОГИЯ. ДУХОВНЫЙ АНАЛИЗ НАПРАВЛЕНИЕ И НЕНАСИЛИЕ.
12. ПОЛИТИЧЕСКИЕ И ЭТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СИСТЕМЫ. ПОЛИТИЧЕСКИЕ ОБЯЗАННОСТИ И СВОБОДА, КРИТЕРИИ ОБЩЕСТВА СПРАВЕДЛИВОСТИ, ПРАВА ЧЕЛОВЕКА И ГРАЖДАНСКОЕ НЕПОНЯТИЕ
13. МОРДЛЬ И ЗАКОН
14. ГЕНДЕРНЫЕ ПРОБЛЕМЫ. НРАВСТВЕННОСТЬ И РАЦИОНАЛЬНОСТЬ ПРОСТОГО ПОВЕДЕНИЯ И МОТИВАЦИИ ЖЕНЩИН И МУЖЧИН.

15. ХАРАКТЕРИСТИКА СЕМЬИ КАК НРАВСТВЕННОЙ ЦЕННОСТИ. ЭКОНОМИЧЕСКИЕ, ПРАВОВЫЕ, ДУХОВНЫЕ ФАКТОРЫ РАСТОРЖЕНИЯ БРАКА ПРИ РАСТОРЖЕНИИ БРАКА.
16. ПОСЛЕДСТВИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ДЕФЕКТОВ ЛИЧНОСТИ ЧЕЛОВЕКА ИХ ВЛИЯНИЕ НА РАЗВИТИЕ ОБЩЕСТВА.
17. ОБЩИЕ ВОПРОСЫ НАУКИ
18. ГЛОССАРИЙ

## CONTENT

- INTRODUCTION.
2. STAGES OF FORMATION OF NATIONAL FOUNDATIONS OF MORAL VALUES.
  3. THE OBJECTIVE OF MORALITY TO GUIDE A PERSON TO VALUES AND THEIR SIGNIFICANCE IN PROVIDING A COMBINATION OF TRADITIONAL AND MODERN VALUES.
  4. INFLUENCE OF THE NATIONAL FOUNDATIONS OF MORAL VALUES ON THE MORAL EDUCATION OF A HUMAN IN MODERN CIVILIZATION.
  5. CHARACTERISTICS OF THE CONCEPT OF THE MEANING OF LIFE ASSOCIATED WITH HAPPINESS, DEATH, ETERNITY AND THE IDEAL. MAIN PROBLEMS OF VOLUNTARY AND FORCED DEATH.
  - PHILOSOPHICAL CLASSIFICATION OF THE CONCEPTS OF MODERNIZATION OF SOCIETY AND MORAL VALUES
  7. MORALITY AND IMMORALITY. ETHICS OF RELATIONSHIPS
  8. ETHICS OF ART AND ITS IMPACT ON HUMANS. CORRELATION OF MORALITY AND IMMORALITY IN ART.
  9. THE PROCESS OF GLOBALIZATION: MORAL PROBLEMS. ENVIRONMENTAL ETHICS. ETOSSPHERIC PROBLEMS.
  10. GENERAL MORAL PRINCIPLES AND VALUES IN BIOETHICS. ISSUES OF SUFFERING AND MERCY, DEATH AND IMMORTALITY IN BIOETHICS
  11. MORAL PSYCHOLOGY. SPIRITUAL ANALYSIS DIRECTION AND NON-VIOLENCE.
  12. POLITICAL AND ETHICAL PROBLEMS OF THE STATE SYSTEM. POLITICAL DUTIES AND FREEDOM. JUSTICE SOCIETY CRITERIA. HUMAN RIGHTS AND CIVIL MISTAKE
  13. MORALITY AND LAW
  14. GENDER ISSUES. MORALITY AND RATIONALITY OF SIMPLE BEHAVIOR AND MOTIVATION OF WOMEN AND MEN.
  15. CHARACTERISTICS OF THE FAMILY AS A MORAL VALUE. ECONOMIC, LEGAL, SPIRITUAL FACTORS OF DIVORCE OF MARRIAGE DURING DISSOLUTION OF MARRIAGE.
  16. CONSEQUENCES OF PERSONALITY DEFECTS AND THEIR IMPACT ON THE DEVELOPMENT OF SOCIETY.
  17. GENERAL QUESTIONS OF SCIENCE
  18. GLOSSARY

**L. A. Muhammadjonova**

**JAMIYAT, AXLOQ VA QADRIYATLAR FALSAFASI**  
**DARSLIK**

Muharrir: S. T. Xashimov  
Musahhih: H. Zakirova  
Sahifalovchi: A. Hidoyatov  
Dizayner: A. Abdiahodov

Nashriyot litsenziyasi AI №AI 242, 23.11.2023 Ofset  
qog'ozи. Bosishga ruxsat etildi 26.12.2023. Format 60x84  
1/16. Garnitura «Times New Roman». Bosma taboq 26.0  
Adadi 500 nusxa. Buyurtma №153.

«OLAM Nashriyoti»mas'uliyati cheklangan jamiyati.  
Toshkent shahri, Alisher Navoiy 30